DEMOKRATIK JARAYONLARNI TAHLIL QILISH MARKAZI
CENTER FOR ANALYSIS OF DEMOCRATIC PROCESSES

“O‘ZBEKISTONNING DEMOKRATIK RIVOJLANISHIDA FUQAROLIK JAMIYATINING O‘RNI: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA ISTIQBOLLAR”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-yil 19-sentyabr, Toshkent

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ «РОЛЬ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В ДЕМОКРАТИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА: ГЛОБАЛЬНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ»

19 сентября 2025 года, Ташкент

COLLECTION OF MATERIALS FROM THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON “THE ROLE OF CIVIL SOCIETY IN STRENGTHENING DEMOCRACY IN UZBEKISTAN: GLOBAL CHALLENGES AND PROSPECTS”

September 19, 2025, Tashkent

Toshkent
“Yangihayot” nashriyoti
2025

UO‘K 321.7(575.1)(08)
KBK 66.3(5O’)ya43
P 21
Pardayev, A.K.
O‘zbekistonning demokratik rivojlanishida fuqarolik jamiyatining o‘rni: global chaqiriqlar va istiqbollar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami [Matn] / A.K. Pardayev.- Toshkent: Yangihayot nashriyot, 2025.- 504 b.

ISBN 978-9910-8496-0-2

Ushbu to‘plam Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi tashabbusi bilan o‘tkazilgan “O‘zbekistonning demokratik rivojlanishida fuqarolik jamiyatining o‘rni: global chaqiriqlar va istiqbollar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan iborat bo‘lib, davlat boshqaruvida fuqarolik jamiyatining roli va huquqiy kafolatlari, millatlararo totuvlik va inklyuziv jamiyat sari: Yangi O‘zbekistonning ma’naviy yo‘li, demokratik jarayonlarda global trendlarning xavf va tahdidlari aks ettirilgan maqola va tezislar o‘rin olgan.

To‘plamga xorijiy ekspertlar, yurtimizdagi tahlil markazlari ekspertlari, oliy o‘quv yurtlarida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy izlanishlar olib borayotgan doktorantlar, tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijalari kiritilgan.

To‘plamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va keltirilgan huquqiy-me’yoriy hujjatlarning haqqoniyligi, tanqidiy fikr-mulohazalar va takliflar uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

UO‘K 321.02/340(575.1)
BBK 66.04

Ma’sul muharrir – A.K. Pardayev
Tahrir hay’ati:
y.f. f.d., dosent F.T. Bo‘ronov
s.f.f.d., dosent A.B. Yusupov
y.f.d., professor M.T. Turg‘unov
y.f.d., professor M.X. Baratov
A.T. To‘rayev
s.f.f.d., T.P. Karimov
U.A. Ro‘ziyev
y.f.f.d., Sh.G. Bafayev
Sh.U. Usmonov

Taqrizchilar:
t.f.d., prof. I.Islomov
yu.f.d., prof. J.Toshqulov,
yu.f.d., prof. A.Xudoyberdiyev

ISBN 978-9910-8496-0-2

© “Yangihayot” nashriyoti, Toshkent, 2025.

MUNDARIJA

KIRISH..... 9

I-PLENAR SESSIYA: DAVLAT BOSHQARUVIDA FUQAROLIK JAMIYATINING ROLI

A.K. Pardayev Siyosiy tizim barqarorligi va demokratik islohotlar jarayonida fuqarolik jamiyatining strategik o‘rni..... 16

E. Tulyakov “Xalq xizmatidagi davlat” g‘oyasini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni..... 24

G.A. Agzamova Qonun ijodkorligi va muhokamasida fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining zamonaviy vositalari: Yangi O‘zbekiston tajribasi..... 29

Э. Мирбашир оглы Институциональные аспекты социального партнёрства и общественного контроля: опыт Узбекистана и Азербайджана..... 35

А. Туляганов Гражданское общество и тенденции его дальнейшего развития: проблемы и перспективы..... 41

W. Nowiak Mechanisms of cooperation between civil society and government agencies..... 51

A. Suver “Uzbekistan-2030” Strategy: new opportunities for civil society institutions..... 60

F.X. Sharipov Oliy majlis qonunchilik palatasi qonun ijodkorligi faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikning yangi mexanizmlari..... 64

Z. Xudayberdiyev Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining huquqiy asoslari takomillashmoqda..... 69

O.N. Xusanov Davlatning moliyaviy ko‘magi fuqarolik jamiyatini barqaror rivojlantirish omili – O‘zbekiston tajribasi..... 75

K.N. Ishanxodjayev Liberal-demokratiya g‘oyalarining global inqirozi sharoitida milliy fuqarolik jamiyati institutlarining akseleratsiyasi..... 81

S. Irandoust	Protecting democracy and civil society in a time	
Yu. Gaybullaeva	of global threats: the role of education.....	86
A. To‘rayev	Fuqarolik jamiyati va institutlari nazariyasining ilmiy-amaliy evolyutsiyasi haqida.....	96
Sh. Bafayev	Mahalla – erkin, ochiq va zamonaviy fuqarolik jamiyati.....	105
A.O. Xasanov	Turkistondagi ilk siyosiy uyushma – “Sho‘royi islom” jamiyati tarixiga bir nazar.....	112
J. Tursunboyev	Istiqbolli yosh rahbar kadrlarni tayyorlashning metodologik asoslari.....	119
A. Xalbekov	Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi ishtiroki: O‘zbekiston tajribasi va istiqbollar.....	124
А.А. Джураев,	Гражданское общество как	
Ш.М. Закиров	социально-правовое пространство.....	131
К. Султанов	Роль народной дипломатии в развитии гражданского общества в узбекистане.....	136
N. Azizov	O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi g‘oyalarning taraqqiyoti.....	144
М. Сангинова	Роль институтов гражданского общества в обеспечении прозрачности и подотчётности власти в Узбекистане.....	156

II-PLENAR SESSIYA: ZAMONAVIY DEMOKRATIK DAVLAT BOSHQARUVIDA FUQAROLIK JAMIYATINING HUQUQIY KAFOLATLARI

M.Turg‘unov	O‘zbekistonning demokratik rivojlanishida inson huquqlarini ta’minlash: huquqiy va siyosiy kafolatlar.....	166
Р.Т. Хакимов	Вопросы сотрудничества Узбекистана в области прав человека с международными организациями.....	172
M. Baratov	Islohotlarning huquqiy zamini – hayot sifatini oshirish yo‘lidagi xronologiyasi yoxud qonunlarimiz haqida nimalarni bilamiz?.....	180
G.M. Norova	Xotin-qizlar va demokratiya: jamiyat taraqqiyotida tenglik hamda imkoniyatlar kafolati.....	193

Sh. Otaqulov	O‘zbekistonda inson huquqlari va huquqiy kafolatlar tizimida gender tengligi masalasi.....	201
T.K. Xujanov	O‘zbekistonning demokratik rivojlanishida bola huquqlarini ta’minlash masalalari.....	206
U.A. Ro‘ziyev	Yoshlarning g‘oyaviy immunitetini shakllantirishda ta’limning ahamiyati.....	211
S.S. Mamasoliyev	Zamonaviy axborot makonida inson huquqlari	215
Sh.A. Erkinova	The role of legal guarantees in advancing women`s rights and gender equality in Uzbekistan.....	
F. G‘aniyev	Fuqarolik jamiyati institutlari va davlat boshqaruvida inson huquqlari va huquqiy kafolatlari (Turkiya Respublikasi misolida).....	227
I.J. Abrarov	Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli.....	238
U.X. Adambayev	Kontekstual argumentlash metodologiyasi asosida inson huquqlarini ta’minlash.....	243
J.B. Davletov	O‘zbekistonning yangilangan konstitutsiyasi – mamlakatimizda bola huquqlarini himoyalashning muhim kafolati sifatida.....	249
X/ Chinibayev	Huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar tomonidan inson huquqlari ta’minlani shining huquqiy kafolatlari.....	259
М.З. Худайбердиева	Международное право и проблемы детей в образовании.....	266
Ш.Р. Рашидова	Свобода совести в конституционно-демократическом развитии Узбекистана.....	273

III-PLENAR SESSIYA: MILLATLARARO TOTUVLIK VA INKLYUZIV JAMIYAT SARI: YANGI O‘ZBEKISTONNING MA’NAVIY YO‘LI

Q.R. Sariyev	Yangi O‘zbekistonda millatlararo totuvlik konsepsiyasi.....	287
Е. Хоффманн	Конструктивная политическая активность и социальная ответственность гражданского общества в демократическом государственном управлении.....	292
M. Qahharova	Yangi O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik.....	295

Sh. Bobojonov	O‘zbekistonda bag‘rikenglik siyosatini yuritishda etnoturizmning o‘rni.....	301
В.П. Пак	Роль негосударственных некоммерческих организаций в демократическом развитии Узбекистана: вызовы и перспективы.....	306
D.Z. Ernazarov	Xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlar (XNNT) va mahalliy NNTning O‘zbekistonda modernizatsiya jarayonlaridagi hamkorligi tendensiyalari.....	311
M.B. Isabayev	Deputatning saylov okrugidagi faoliyatini takomillashtirishga oid xalqaro tajribalar.....	317
Sh.U. Usmonov	Nodavlat “aql markazlari”ning Davlat siyosatini shakllanishidagi ta’siri: AQSH tajribasi.....	323
M. Nosirova	Non-governmental organizations in human rights protection mechanisms.....	328
Р.Р. Назаров, В.Р. Алиева	Национально- культурные центры как форма негосударственных некоммерческих организаций: опыт Узбекистана.....	332
R.G‘. Rizoqulova	O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini takomillashtirishning huquqiy masalalari.....	337
A.A. Abdugaffarov	Yoshlarning siyosiy madaniyatini oshirishda ta’limning o‘rni.....	342
O.A. Abdugaffarova	Ijtimoiy davlat rivojida uyushmagan yoshlar faolligini oshirish.....	348
A.S. Turayev	Ekspertlik –tahliliy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi “aql markazlar”ning tasniflanishi.....	353
B.A. Shodmonov	Mahalliy kengashlar faoliyatida yoshlar ishtirokini kengaytirish masalasi.....	365

IV-PLENAR SESSIYA: DEMOKRATIK JARAYONLARDA GLOBAL TRENDLARNING XAVF VA TAHDIDLARI

A. To‘rayev	Global inqirozlar sharoitida milliy fuqarolik jamiyati institutlarining akseleratsiyasi: O‘zbekiston tajribasi.....	371
И.Э. Турсунов, Ж. Турсунзода	Глобальные риски в сфере охраны окружающей среды и перехода к «зелёной» экономике.....	381

Q.A. Jo‘rayev	Sun’iy intellekt orqali yaratilgan asarlar: mualliflik huquqi himoya qilinadimi?.....	388
T.P. Karimov	Mudofaa va xavfsizlik sohasidagi parlament nazoratida jamoat tashkilotlari hamkorligi.....	392
Sh.F. Nurullayeva	Global raqamli tendensiyalar va jamiyatga tahdidlar.....	398
I.N. Islomov	Demokratik jarayonlarda fuqarolik jamiyatining siyosiy xavfsizlikka ta’siri.....	403
R.K Yusupov	Muammolarni o‘rganishning samarali vositasi.....	410
X.X. Raxmonov	Mahalla fuqarolik jamiyatining muhim bo‘g’ini sifatida.....	
F.A. Mamatova	Globallashuv sharoitida yashil iqtisodiyotni rivojlanishi O‘zbekistonning xalqaro savdosiga tahdid sifatida.....	425
R. Daminov	Xalqaro huquq normalarida jinoiy faoliyatdan olingan dapomadlapni legallashtipish tushunchasini aks etishi.....	430
H.X. Сафаров	Глобальные вызовы и демократическое развитие: социальная политика узбекистана.....	436
N.B Artiqboeva	Raqamli transformasiya sharoitida yoshlarning internetdan foydalanish madaniyati va ijtimoiy oqibatlari.....	443
D.X. Mirsaidova	Axborot xavfsizligi va sun’iy intellektning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri.....	451
A. Axmedov	Yangi O‘zbekistonda mahalla institutining transformatsiyasi: raqamlashtirish, kollegial boshqaruvning innovatsion mexanizmlari.....	457
S.B. Xodjayev	Intellektual mulk, o‘zaro hurmat va hamkorlik kontekstida tadqiqotlar sifatini ta’minlash.....	461
E.K. Axmedov	Axborot xavfsizligini ta’minlashda mafkuraviy immunitetni shakllantirish muammolari.....	469
И. Журабоев	Цифровая трансформация гражданского общества: роль молодёжи в условиях современных рисков и вызовов.....	475
S.D. Qayimova	Axborot texnologiyalari davrida virtual qaramlik va uning ijtimoiy oqibatlari.....	480

I. Saydullayev	O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining globallashuv sharoitidagi transformatsiyasi.....	487
Sh.S. Raximov	Elektron tarmoqlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’sirlari.....	492
Sh.K. Raxmatullayeva	Inson kapitalini tahlil qilish uchun raqamli indikatorlar: sotsiologik yondashuv.....	498

“O‘ZBEKISTONNING DEMOKRATIK RIVOJLANISHIDA FUQAROLIK JAMIYATINING O‘RNI: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA ISTIQBOLLAR” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYAGA KIRISH SO‘ZLARI

Azamat Kenjaboyevich Pardayev
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi direktori, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining deputati



Ma’lumki, “Xalqaro demokratiya kuni” 2007 yilda BMT tashabbusi bilan ta’sis etilgan va har yili 15 sentyabrda nishonlanib, demokratiya tamoyillarini ilgari surish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish yo‘lida jahon hamjamiyatining umumiy sa’y-harakatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qilib kelmoqda.

Bu yilgi tadbirlar “Ovozdan harakatga” g‘oyasi ostida o‘tkazilgani ham bejiz emas. Dunyo miqyosida demokratiyaga ishonchni mustahkamlash, inklyuzivlik va tenglikni ta’minlash, axborot xavfsizligi va barqaror rivojlanish masalalari kun tartibidagi asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilab olingan.

O‘zbekiston ham BMT bilan hamkorlikda ushbu umuminsoniy maqsadlarni amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. Mamlakatimizda “O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari milliy rivojlanish dasturlariga chuqur integratsiya qilindi. Bu yo‘nalishdagi islohotlar davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro hamkorlar bilan hamkorlikda izchil amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini tubdan oshirish, ularning davlat hokimiyati

hamda boshqaruvi organlari bilan hamkorligini kuchaytirish bo‘yicha yangicha tizim yaratildi.

Ushbu sohani isloh etishga, nodavlat notijorat tashkilotlari erkin faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mazkur institutga alohida bob ajratilib, konstitutsiyaviy maqom berildi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida erkin fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, O‘zbekistonni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha xabga aylantirish belgilandi.

Joriy yilda sohaga oid qonunlarga kiritilgan o‘zgartirishlar bilan fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va davlat ijtimoiy buyurtmalarini berishning yangi mexanizmlari belgilandi. NNTning majburiyatlari aniqlashtirildi, homiylik faoliyati tartibi takomillashtirildi. Shuningdek, davlat mansabdor shaxslarining NNTlar faoliyatiga noqonuniy aralashuvi uchun javobgarlik belgilandi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatchilik nazoratiga oid tashabbusi to‘liq kafolatlanib, davlat organlari jamoatchilik nazoratiga oid yakuniy hujjatlarini o‘z vaqtida ko‘rib chiqmaganligi uchun javobgarlik belgilandi.

Fuqarolik jamiyati institutlari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda, strategik maqsadlarga erishish jarayonida davlat idoralari va tashkilotlariga chinakam ko‘makdosh bo‘lib, jamiyat va davlat o‘rtasida bog‘lovchi ijtimoiy ko‘prik vazifasini bajarmoqda.

Alohida ta’kidlashim o‘rinliki, O‘zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 13 ta rezolyutsiyasi mamlakatimizdagi demokratik islohotlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, milliy qonunchilikni global qo‘llab-quvvatlash muhitida rivojlantirish, fuqarolik jamiyati hamkorligini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish va mintaqaviy barqarorlik orqali demokratiya uchun qulay tashqi sharoit yaratishga xizmat qilmoqda.

Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi tashabbusi bilan tashkil qilingan konferensiyamizni qo‘llab-quvvatlagani va ham-

korlik uchun muhtarama Sabine Mahl xonim siymosida Birlashgan Millatlar Tashkilotining O‘zbekistondagi vakolatxonasiga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturiga, shuningdek Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining O‘zbekistondagi vakolatxonasiga, qolaversa, milliy hamkorlarimiz – “Yuksalish” harakatiga, Progressiv islohotlar va “Taraqqiyot strategiyasi” markazlariga, Nodavlat notijorat tashkilotlari Milliy Assotsiatsiyasiga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Xalqaro konferensiyada Yaponiya, Turkiya, Shvetsiya, Shveysariya, Polsha, Germaniya, Ozarbayjon, Qozog‘iston “aql markaz”lari, tadqiqot institutlari va nodavlat tashkilotlaridan tashrif buyurgan xalqaro ekspertlar, mamlakatimizdagi 10 dan ortiq diplomatik vakolatxonalar vakillari, davlat arboblari, mahalliy fuqarolik jamiyati vakillari hamda OAV xodimlari ishtirok etgani ham ushbu tadbirning ahamiyati va nufuzidan darak beradi.

Chet ellardan tashrif buyurgan hamda O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan barcha xorijiy ekspertlarimizga, milliy davlat va nodavlat tashkilotlari vakillariga konferensiyamiz ishida qatnashganliklari uchun samimiy minnatdorlik bildiraman.

Konferensiyamiz ishi doirasida davlat boshqaruvida fuqarolik jamiyatining roli va huquqiy kafolatlari, millatlararo totuvlik va inklyuziv jamiyat qurishda yangi O‘zbekistonning o‘ziga xos ma’naviy yo‘li, demokratik jarayonlarda namoyon bo‘layotgan global trendlarning xavf va tahdidlariga oid masalalar keng muhokama qilindi.

Ushbu muloqotlarimiz fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va demokratik jarayonlarni mustahkamlash yo‘lida yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Konferensiya yakunida ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalar sohadagi kelgusi islohotlar uchun muhim dasturiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sabine MAHL
BMTning O‘zbekistondagi doimiy vakili



Demokratiya odamlarning ovozlari va u tenglikni kuchaytiradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ijobiy o‘zgarishlar ruhida muhim islohotlar amalga oshirilib, salmoqli taraqqiyot kuzatildi. “Davlat xalqqa xizmat qiladi” tamoyili oliy darajadagi rahbariyatning asosiy yo‘nalishiga aylandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu tamoyilni ilgari surdi va u Hukumat siyosatida hamda yangi tahrirdagi Konstitutsiyada aks etdi. Hukumat strategiyalari va amaliy harakat dasturlari, shuningdek izchil islohotlar fuqarolik jamiyatining roli va davlat boshqaruvida jamoatchilik ishtirokini kengaytirdi. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari soni oshdi, so‘nggi yillarda 100 dan ortiq yangi NNTlar ro‘yxatga olindi.

Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishdagi roli oshib bormoqda.

Bugungi kunda qonun ustuvorligini ta’minlashda qiyinchiliklar kuzatilib, qonunlarga ishonch va demokratik progressni yanada jadallashtirishni taqozo etmoqda.

“Xalqaro demokratiya kuni”ni nishonlashga mamlakatda alohida e’tibor qaratilishi, fuqarolik jamiyatining o‘rnini qay darajada ekanini ko‘rsatib bermoqda.

Konferensiya doirasida kelgusida demokratik jarayonlar istiqbollarini belgilash, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligini rivojlantirish bo‘yicha masalalarga urg‘u berildi.

Antti KARTTUNEN
YXHTning O‘zbekistondagi loyiha koordinatori



YXHT faoliyatida xavfsizlik va inson huquqlariga bo‘lgan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi, tashkilot ushbu yondashuvlardan kelib chiqib, hamkorlik qilayotgan mamlakatlarda o‘z faoliyatini olib boradi.

Avvalo shuni ta’kidlamoqchi edim, bu yil biz O‘zbekistonda YXHT vakolatxonasi ochilganining 30 yilligini nishonlamoqdamiz. Tashkilotimiz O‘zbekistonda boshqa masalalar bilan bir qatorda yoshlar, gender tenglik masalalari bo‘yicha hamkorlikni davom ettirmoqda.

O‘zbekistonda samarali davlat boshqaruvini kuchaytirish, qonun ustuvorligini ta’minlash va fuqarolar ishtirokini kengaytirishga qaratilgan dinamik islohotlar davom etar ekan, konferensiyaning kun tartibi ayni muddao. Shu ma’noda, fuqarolik jamiyatining konstruktiv va mas’ul hamkor sifatidagi o‘rni hech qachon bunchalik muhim bo‘lmagan.

Qonunchilik islohotlari, hukumat va fuqarolik jamiyati o‘rtasida hamkorlik platformalarini kengaytirish, jamoat tashabbuslariga aholining ortib borayotgan qiziqishi — bularning barchasi demokratik boshqaruvga ilg‘or yondashuvni aks ettiradi

Mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini rivojlantirishda aholi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati pukumat va aholidan xoli bo‘lmasligi kerak, aholi muammolarini aniqlashda ularning roli katta. Buning uchun mamlakatda imkoniyatlar va salohiyat yetarlicha. Zero, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga aholining ishonchi ortib borayotganini ko‘rmoqdamiz.

Shuningdek, tashkilot 1990 yilda qabul qilingan xalqaro pakt hamda Istanbul xartiyasiga muvofiq barcha ishtirokchi mamlakat-

larda o‘zlarining hududlarida olib borilayotgan jarayonlar, qabul qilinayotgan muhim hujjatlar shaffofligini ta’minlash hamda fuqarolarning o‘z kelajaklarini o‘zlari qurishi uchun sharoitni ta’minlab berishga xizmat qiladi.

Xelsinki aktining 50 yillligini va shu bilan birga O‘zbekistonda tashkilot vakolatxonasi ochilganining 30 yilligini nishonlanayotganidan xursandman.

Tashkilot O‘zbekistonda yoshlar, gender tenglik masalalari bo‘yicha ham hamkorlikni davom ettirishi, fuqarolik jamiyatlari institutlari siyosatini shakllantirishda ko‘maklashishini bildiraman.

Xulosa sifatida, fuqarolik jamiyati hukumat va aholidan holi jamiyat bo‘lmasligi kerak va aksincha aholi muammolarini aniqlashda ularning roli katta va dolzarbligini ta’kidlayman.

Anas Fayyad QARMAN
BMT TD O‘zbekistondagi doimiy vakili o‘rinbosari



Bugungi kunda demokratik jarayonlarni kuchaytirish nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror taraqqiyoti uchun dolzarb ahamiyatga ega. Mazkur xalqaro konferensiya ham ana shu jarayonlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda keyingi yillarda demokratik islohotlar yo‘lida katta qadamlar qo‘yilmoqda, bu jarayonlar “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida alohida belgilangan. Mamlakatda NNTlar faoliyati jadal rivojlanmoqda, bu borada BMT TD amaliy ko‘mak ko‘rsatib kelmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlari orasida inklyuzivlikni oshirish, ijtimoiy innovatsiyalar tizimini yaratish va joriy etishda xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Bizning asosiy maqsadimiz — demokratik jarayonlarning amaliy samarasini jamiyat hayotida ko‘rsatish va uning barqaror rivojlanish jarayonlariga xizmat qilishiga erishishdan iborat.

I-PLENAR SESSIYA: DAVLAT BOSHQARUVIDA FUQAROLIK JAMIYATINING ROLI

Azamat Kenjaboyevich PARDAYEV,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi direktori,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining
Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo‘mitasi a’zosi

SIYOSIY TIZIM BARQARORLIGI VA DEMOKRATIK ISLOHOTLAR JARAYONIDA FUQAROLIK JAMIYATINING STRATEGIK O‘RNI

“Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash – samarali boshqaruvni amalga oshirishdagi ustuvor yo‘nalishlardan biridir [1].
Sh.M.Mirziyoyev

► ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada siyosiy tizim barqarorligini ta’minlash va demokratik islohotlar jarayonida fuqarolik jamiyatining strategik o‘rni tahlil qilingan. Unda fuqarolik jamiyati nafaqat davlatning ijtimoiy hamkori, balki uning qonuniyligi va samaradorligini oshiruvchi sherik sifatida ham muhim rol o‘ynashi ta’kidlangan.*

Shuningdek, fuqarolik jamiyatining davlat hokimiyatini nazorat qilish, demokratik qadriyatlarni shakllantirish va fuqarolar siyosiy ishtirokini kengaytirish masalalari, xorijiy davlatlar tajribasi orqali fuqarolik jamiyatining turli jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *siyosiy tizim barqarorligi, demokratik islohotlar, fuqarolik jamiyati, davlat nazorati, ijtimoiy sheriklik, ochiqlik va shaffoflik, fuqarolar siyosiy ishtiroki, demokratik qadriyatlar, xalqaro hamkorlik, xorijiy tajriba.*

► ***Аннотация:*** *В статье анализируется стратегическая роль гражданского общества в обеспечении устойчивости политической системы и в ходе демократических реформ. Гражданское общество рассматривается не только как социальный партнёр государства,*

но и как со-творец его легитимности и эффективности. Освещаются общественный контроль над властью, формирование демократических ценностей и расширение политического участия граждан с опорой на зарубежный опыт.

Ключевые слова: *устойчивость политической системы; демократические реформы; гражданское общество; общественный контроль; социальное партнёрство; открытость и прозрачность; политическое участие граждан; демократические ценности; международное сотрудничество; зарубежный опыт.*

► ***Abstract:*** *The article analyzes the strategic role of civil society in sustaining political system stability and advancing democratic reforms. Civil society is framed not only as a social partner of the state but also as a co-producer of its legitimacy and effectiveness. The discussion covers public oversight of state power, the cultivation of democratic values, and the expansion of citizens' political participation, drawing on comparative international experience.*

Keywords: *political system stability; democratic reforms; civil society; public oversight; social partnership; openness and transparency; citizens' political participation; democratic values; international cooperation; comparative experience.*

So‘ngi yillarda dunyoda kechayotgan global siyosiy o‘zgarishlar va transformatsion jarayonlar fuqarolik jamiyatining o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatmoqda.

U nafaqat demokratik islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi, balki har qanday siyosiy tizimning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Demokratik islohotlar va siyosiy barqarorlik tizimi o‘zaro bog‘liq bo‘lib, fuqarolik jamiyati ana shu murakkab munosabatlarda manfaatlar muvozanatini saqlash va tizimning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan mexanizmlarni yaratishda muhim o‘rin tutadi.

Fuqarolik jamiyati mustaqil, ixtiyoriy, o‘zini o‘zi tashkil etuvchi va o‘ziga tayanuvchi, turlicha shakllangan guruh va institutlarning keng doirasini o‘z ichiga qamrab oladi.

Bunday tuzilmalarga nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), professional uyushmalar, kasaba uyushmalari, federatsiyalar, jamoat birlashmalari va fondlar, diniy tashkilotlar, ijtimoiy tadqiqot

markazlari, ommaviy axborot vositalari hamda turli fuqarolik tashabbuslari hamjamiyatlari kiradi.

Ta’kidlash lozimki, keyingi yillarda demokratik, ijtimoiy va dunyoviy davlat – Yangi O‘zbekistonni barpo etish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida xalqaro standartlarga javob beradigan normativ-huquqiy baza yanada takomillashtirildi, ijtimoiy-demokratik va siyosiy institutlarning erkin, barqaror va tizimli rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratildi.

2017-2025-yillar davomida fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash va samaradorligini oshirishga qaratilgan 70 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi [2].

Xususan, “2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” [3]da belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida asosiy e’tibor fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish, ularga ko‘mak berish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish, davlat va jamiyat boshqaruvida NNTlar faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish hamda ular faoliyatining ochiqligini ta’minlash ishlariga qaratildi.

Ma’lumki, fuqarolik jamiyati institutlari fuqarolarning muhim ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Ular fuqarolarni o‘z huquq va majburiyatlari to‘g‘risida xabardor qiladi, ularni saylov kampaniyalari, referendumlar va jamoatchilik muhokamalarida qatnashishga da’vat etadi.

Shuningdek, ular dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish, jamoatchilik masalalarini muhokama qilish va o‘z fikrlarini emin-erkin ifoda etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ayniqsa, NNTlar va manfaatdor guruhlar turli qatlamlarning manfaatlarini himoya qilish va ifoda etish maqsadida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan samarali hamkorlik qilishi tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston misolida aytadigan bo‘lsak, bugungi kunga kelib

O‘zbekiston fermerlar Kengashi, Mahallalar uyushmasi, “Nuroniy” jamg‘armasi, Yoshlar ittifoqi, kasaba uyushmalari, Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi, “Tadbirkor ayol” xalqaro ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi, Ayollar va qizlar uyushmasi kabi jamoat tashkilotlari tomonidan Oliy Majlis Senati, Qonunchilik palatasi va Hukumat organlari bilan ochiq muloqot o‘rnatilgan.

Fuqarolik jamiyati institutlarining muhim xususiyatlaridan biri, ular o‘z a’zolarining manfaatlarini himoya qilish va ifoda etishga qaratilgani, davlat hokimiyati bilan ijtimoiy sherik va strategik hamkor sifatida faoliyat yuritishidadir.

Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati tuzilmalari o‘z faoliyatida qonunlar, fuqarolik huquqlari, davlat va umumjamiyat manfaatlariga hurmat bilan yondashishi ularga qo‘yilgan qat’iy talablardan sanaladi.

Siyosiy tizim barqarorligi xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, uning jamiyat ehtiyojlariga moslasha olish, turli ziddiyat va ixtiloflarni tinch va huquqiy yo‘l bilan hal etish, qonuniylik va tartibni saqlash, shuningdek, jamiyat a’zolarining keng qismi tomonidan tan olinishi va qo‘llab-quvvatlanishini anglatadi.

Fuqarolik jamiyatining siyosiy barqarorlikka ta’sirining quyidagi mezonlarini keltirish mumkin.

Ijtimoiy kapital va ishonch — jamoaviy ishtirok demokratiya institutining samaradorligini oshiradi [4]. Fuqarolik ishtirokining xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashda samarali ekanini ko‘rsatadi. NNTlar tibbiy, ta’lim va ijtimoiy xizmatlarni ta’minlab, fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini shakllantiradi. Siyosiy ijtimoiylashuv va fuqarolik madaniyati shakllanishi jamoatchilik targ‘iboti, monitoring loyihalari va saylov kuzatuvchilari orqali aholi siyosiy faolligi o‘sadi, bu esa saylovlar va siyosiy institutlarga yordam beradi.

Nazorat va hisobdorlik — fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatchilik nazoratidagi va siyosiy jarayonlardagi ishtiroki [5]. Mustaqil NNTlar va ommaviy axborot vositalari siyosiy elita va byurokratik institutlar amaliyotini oshkor etish orqali korrupsiya va suiste’mollarga qarshi kurashadi. Bu mexanizm davlat boshqaruvida qonun ustivorligi ta’minlanishiga imkon yaratadi.

Vositachilik va nizolarni boshqarish — fuqarolik jamiyati institutlari davlat va jamoalar o‘rtasidagi vositachi vazifasini bajaradi, mahalliy tashkilotlar va fuqarolik liderlari targ‘ibot, muzokaralar orqali nizolarni tinch yo‘l bilan hal etishga yordam beradi, bu esa siyosiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Barqarorlikning asosiy shartlaridan yana biri – davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligidir.

Demokratik islohotlar fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklarini kengaytirish, fikrlar xilma-xilligi va qonun ustuvorligini mustahkamlashga qaratilgan maqsadli va uzluksiz jarayon hisoblanadi.

Bu jarayonlarning samarali kechishi ko‘p hollarda fuqarolik jamiyatining faolligi va tashabbuskorligiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda siyosiy tizim barqarorligini ta’minlash, demokratik jarayonlarda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni, roli va nufuzini yanada mustahkamlash borasida keng qamrovli islohotlar tizimli amalga oshirilmoqda.

Ularning faoliyati asosan davlat idoralari va fuqarolar o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajarish, davlat ishlarida ochiqlikni ta’minlash hamda demokratik tamoyillarni izchil ro‘yobga chiqarishda namoyon bo‘lmoqda.

Zero, har qanday davlat taraqqiyotida siyosiy tizim barqarorligini ta’minlamay turib, iqtisodiy yuksalish, ijtimoiy farovonlik va jamiyatda demokratik qadriyatlarni qaror toptirishga erishib bo‘lmaydi.

Fuqarolik jamiyatining demokratik boshqaruvdagi strategik funksiyalaridan biri – bu korrupsiyaga qarshi kurashishdir. Ushbu tashkilotlar mansabdor shaxslarning korrupsion xatti-harakatlarini fosh etishga va davlat boshqaruvini yaxshilashga qaratilgan islohotlarni faol targ‘ib qilish orqali siyosiy tizimdagi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

Garchi korrupsiyaga qarshi qonunlar va muvofiqlashtiruvchi organlar mavjud bo‘lsa-da, ular fuqarolik jamiyatining faol ko‘magi va ishtirokisiz samarali ishlay olmaydi. Bu fuqarolik jamiyatining davlat hokimiyati faoliyatida ochiqlikni oshirishdagi asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida bir nechta muhim yo‘nalishlarni qayd etish mumkin.

Xususan, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish – nodavlat tashkilotlar davlat xaridlari, ijtimoiy loyihalar va byurokratik jarayonlarni monitoring qilishi orqali shaffoflikni oshirishga hissa qo‘shadi.

Huquqiy savodxonlikni oshirish – aholi orasida korrupsiyaga qarshi targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, huquqiy bilimlarni oshirish va korrupsiyaga qarshi murosasizlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mustaqil tahlil va monitoring – nodavlat tashkilotlar davlat idoralarining korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha faoliyatini tahlil qilib, mustaqil reyting, hisobot va amaliy takliflar tayyorlash orqali samaradorlikni oshirishga yordam beradi [6].

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, siyosiy tizim barqarorligi va demokratik islohotlar jarayonida fuqarolik jamiyatining strategik o‘rni turlicha yo‘lga qo‘yilgan.

Masalan, **Markaziy va Sharqiy Yevropa** davlatlari markazlashgan rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga va bir partiyali tizimdan plyuralistik demokratiyaga o‘tishning murakkab yo‘lini bosib o‘tgan.

Bu jarayonlar ko‘pincha ishsizlikning keskin o‘sishi, inflyatsiya va turmush darajasining pasayishi kabi og‘ir ijtimoiy oqibatlarga olib kelgan. Bu tajriba demokratik o‘zgarishlar faqatgina siyosiy qarorlar bilan amalga oshmasligi, balki chuqur ijtimoiy va iqtisodiy asoslarga tayanishi lozimligini ko‘rsatmoqda.

Ushbu davlatlarda kommunistik o‘tmishdan meros bo‘lib qolgan “yuklar” fuqarolik jamiyatining mustaqil ravishda shakllanishiga to‘siq bo‘lib, natijada demokratik islohotlar ko‘pincha faqat yuqoridan joriy etilgan va jiddiy ijtimoiy xarajatlarga olib kelgan.

Biroq, bu davlatlarning tajribasi shuni ham ko‘rsatadiki, demokratik o‘tish jarayonining muvaffaqiyati nafaqat ichki omillarga, balki tashqi qo‘llab-quvvatlashga ham bevosita bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Xususan, Yevropa Parlamenti bu mamlakatlardagi inson huquqlari buzilishiga qarshi qat’iy pozitsiyani egalladi va demokratik sa’y-harakatlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga chaqirdi [7].

Buning oqibatida, Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarining Yevropa Ittifoqiga integratsiyasiga keng yo‘l ochib, demokratik institutlarni mustahkamlashga yordam berdi.

Tojikiston tajribasida fuqarolik jamiyatining hukumatni siyosiy hisobdorligini oshirishdagi o‘ziga xos rolini ko‘rish mumkin. Ushbu modelda fuqarolik jamiyati tashkilotlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri hukumatga qarshi ziddiyatga bormasdan, mavjud huquqiy doirada va konstruktiv muloqot orqali harakat qiladi. Bu yondashuv “De Tokvil” fuqarolik jamiyati modelini eslatadi, unda jamiyat davlatga qarshi emas, balki u bilan o‘zaro bog‘liqlikda mavjud bo‘ladi [7].

Peru davlatidagi “Qishloq yo‘llari” dasturi fuqarolik jamiyatini mustahkamlash va demokratik ishtirok uchun sharoit yaratishda muhim rol o‘ynagan noodatiy misoldir.

Loyihaning asosiy maqsadi – qishloq joylardagi yo‘l infratuzilmasini yaxshilash bo‘lsa-da, uning demokratiyaga ta’siri o‘rganilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yo‘llarning reabilitatsiyasi va saqlanishi qishloq aholisi uchun “demokratik ishtirok xarajatlarini kamaytirgan.

Bu misol demokratiya faqat siyosiy va huquqiy islohotlar bilan emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish loyihalari orqali ham mustahkamlanishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Qishloq yo‘llarining qurilishi natijasida qishloq aholisi uchun saylov uchastkalariga borish va siyosiy markazlardagi qaror qabul qilish jarayonlarida qatnashish xarajatlari kamayib, ularning demokratik jarayonlardagi ishtirokini oshirdi, mahalliy fuqarolik jamiyati va yangi yetakchilarning shakllanishiga yordam berdi [8].

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyati siyosiy tizim barqarorligi va demokratik islohotlar jarayonining ajralmas qismidir, lekin uning ta’siri doimiy shartlarga bog‘liq (huquqiy muhit, moliya, xavfsizlik va ijtimoiy konsensus).

U nafaqat hokimiyat bilan ijtimoiy sheriklik tamoyillari asosida harakat qiladi, balki uning qonuniyligi va samaradorligini oshiruvchi muhim hamkor sifatida ham faoliyat yuritadi.

Zero, fuqarolik jamiyatining qadriyatlarni shakllantirish, siyosiy ishtirokni kengaytirish va manfaatlar to‘qnashuvini konstruktiv muhitda hal etishdagi roli demokratik tizimning barqarorligi uchun muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Шавкат Миромонович. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2023. - 93-б.

2. Фуқаролик жамияти институтлари кенг қўллаб-қувватланмоқда. https://uza.uz/posts/fuqarolik-zhamiyati-institutlari-keng-qollab quvvat-lanmoqda_759458

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2021 — 2025 йилларда фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 04.03.2021 йилдаги ПФ–6181-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, https://lex.uz/docs/5319756.

4. Патнем Р. Чтобы демократия сработала: гражданские традиции в современной Италии[англ.] — М. : Ad Marginem, 1996. — 287 с.

5. Даймонд, Ларри Развивающаяся демократия: на пути к консолидации, издательство Johns Hopkins University Press, 1999. — 194 с.

6. А.Пардаев. Коррупцияга қарши кураш – умуммиллий вазифа: нодавлат ташкилотларнинг ўрни ва масъулияти. https://t.me/deputat_pardayev_azamat/196

7. https://www.europarl.europa.eu/EPRS/EPRS_STU_538881_Democratic_change_EN.pdf

8. https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/2a9a2d6d-121b-5ef3-9c99-a516adb3561d

Eldor TULYAKOV,
“Taraqqiyot strategiyasi” markazi ijrochi direktori

“XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT” G‘OYASINI AMALGA OSHIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING O‘RNI

► ***Annotatsiya:*** *Maqola Yangi O‘zbekistonda “davlat xalq uchun xizmat qiladi” tamoyili asosida fuqarolik jamiyati rolini kuchaytirishga qaratilgan islohotlarni tahlil qiladi. Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlarining alohida bobda mustahkamlanishi, davlat xizmatlarining 37 tadan 400 gacha kengayishi, raqamli platformalar (murojaat va normativ hujjatlar muhokamasi), ochiq byudjet tashabbuslari, jamoatchilik eshituvlari va NNTlar ishtirokining institutsionallashuvi yoritiladi. Shuningdek, “Taraqqiyot strategiyasi” markazining takliflarni yig‘ish va monitoringdagi roli ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *fuqarolik jamiyati; Konstitutsiya; jamoatchilik nazorati; davlat xizmatlari; raqamlashtirish; ochiq byudjet; NNT; Taraqqiyot strategiyasi.*

► ***Аннотация:*** *Статья анализирует реформы Нового Узбекистана, направленные на перевод отношений «государство–граждане» на новый уровень и усиление роли институтов гражданского общества. Рассматриваются конституционное закрепление их статуса, расширение госуслуг с 37 до 400, цифровые платформы участия и обращений, механизмы открытого бюджета, общественные слушания и участие ННО. Отдельно выделена роль Центра «Стратегия развития» в сборе предложений и мониторинге реализации.*

Ключевые слова: *гражданское общество; Конституция; общественный контроль; госуслуги; цифровизация; открытый бюджет; ННО; Стратегия развития.*

► ***Abstract:*** *The article examines New Uzbekistan’s reforms that elevate state–citizen relations and empower civil society. It highlights the constitutional recognition of civil society institutions, expansion of public services from 37 to 400, digital participation and petition platforms, open-budget mechanisms, public hearings, and institutionalized NGO engagement. The role of the Development Strategy Center in aggregating public input and monitoring implementation is also outlined.*

Keywords: *civil society; Constitution; public oversight; public services; digitalization; open budget; NGOs; Development Strategy Center.*

Bugun Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi – xalq va davlat munosabatlarini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish, davlat boshqaruvini inson manfaatlariga xizmat qiluvchi samarali mexanizmga aylantirishdan iboratdir.

Shu ma’noda, Konstitutsiyamizga ilk bor “Fuqarolik jamiyati institutlari”ga bag‘ishlangan alohida bobning kiritilishi – mamlakatimizda demokratik institutlar faoliyatini mustahkamlaydigan va ularning davlat boshqaruvidagi rolini kuchaytiradigan beqiyos tarixiy qadam bo‘ldi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining qo‘llab-quvvatlanishi

Fuqarolik jamiyati institutlarini huquqiy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish – jamoatchilik nazoratini kuchaytirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik islohotlarimizni yanada samarali qilmoqda.

Mamlakatimizda davlat xizmatlari tizimi mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Agar 2017-yilda Davlat xizmatlari markazlari orqali faqat 37 turdagi xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, bugunga kelib ularning soni 400 dan oshib ketdi. Ya’ni, 7 yilda xizmatlar soni 11 barobarga ko‘paydi. Bu esa xalq bilan davlat o‘rtasidagi muloqotning qulayligi va shaffofligi keskin oshganini anglatadi.

Aholining raqamli xizmatlarga ishonchi va qiziqishi ham ortib bormoqda: 2017-yilda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalanuvchilar soni 50 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 13,8 millionga yetdi. Bu – xalqimizning raqamli savodxonligi va davlat xizmatlaridan foydalanish madaniyati sezilarli darajada yuksalayotganini ko‘rsatadi.

Endi ota-onalar farzandlarini bog‘cha yoki maktabga mobil telefon orqali ro‘yxatga qo‘yishi mumkin. Yoshlar oliy ta’limga kirish jarayonida avvalgidek sarson bo‘lmaydi. Ko‘chmas mulk oldi-sotdisi, ma’lumotnoma olish kabi sohalarda odamlarni ovora qilgan muammolarga chek qo‘yildi.

Jamoatchilik ishtiroki va xalqaro standartlar.

Jahon banki va OECD ekspertlarining xulosalariga ko‘ra, jamoatchilik ishtirokining samarali shakllari davlat muassasalarida shaffoflikni oshiradi, hisobdorlikni ta’minlaydi va fuqarolarning hokimiyatga ishonchini mustahkamlaydi. OECD bu jarayonni **Civic Tech** deb ta’riflaydi – ya’ni raqamli texnologiyalar orqali demokratiyani mustahkamlash.

BMTning **E-participation Index** reytingida ham mamlakatlar fuqarolarni onlayn ishtirokka jalb qilishiga qarab baholanadi. Unga ko‘ra, fuqarolarga axborot berish, qaror muhokamasida qatnashish va fikr bildirish imkoniyatlari kengaygan sari demokratik jarayonlarga ishonch ham ortib boradi.

Shuningdek, **Digital Nations** tashabbusi yetakchi raqamli davlatlarni tajriba almashish uchun birlashtirsa, **Open Government Partnership (OGP)** kabi platformalar ochiqlik, hisobdorlik va fuqarolar ishtiroki tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda jamoatchilik ishtirokini ta’minlovchi islohotlar

Yangi O‘zbekistonda jamoatchilik ishtirokini ta’minlash maqsadida qator tizimli choralar amalga oshirildi:

1. Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxona tashkil etildi. Ular orqali murojaatlar hal etilishi darajasi sezilarli oshdi: 2017-yilda 47,5 %, 2019-yilda 60,9 %, 2023-yilda esa 57 % murojaatlar ijobiy hal qilindi.

2. Raqamli platformalar – regulation.gov.uz va 2030.strategy.uz orqali fuqarolar davlat hujjatlarini muhokama qilishda ishtirok etmoqda. Masalan, “O‘zbekiston–2030” strategiyasi muhokamasi davomida 30 mingdan ziyod fikr va takliflar kiritildi.

3. Jamoatchilik nazorati faollashdi. Konstitutsiyada 100 ming fuqaroga qonunchilik tashabbusi huquqi berildi.

4. Ochiq va tashabbusli byudjet dasturlari orqali fuqarolar mahalliy byudjet taqsimotida ishtirok etmoqda. Faqat 2022-yilning o‘zida 131 mingdan ziyod taklif kiritilib, 4 mingdan ortiq tashabbus g‘olib bo‘ldi.

5. **Mansabdor shaxslarning hisobdorligi** ta’minlanmoqda. Ular o‘z faoliyati bo‘yicha jamoatchilikka hisobot berishi amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

“Xalq bilan muloqot” tamoyili

“Xalq bilan muloqot” tamoyili – O‘zbekistonda shaffof, hisobdor va inklyuziv boshqaruvning asosiy ustuniga aylandi.

• Fuqarolar murojaat.gov.uz sayti va “1000 – ishonch telefoni” orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish imkoniga ega.

• Axborot maydonlari kengaydi: ommaviy axborot vositalari soni 2016-yildagi 1514 tadan 2025-yilning 1-yarim yilligida 2490 taga yetdi.

• Bugun mamlakatimizda 5 ta axborot agentligi, 1599 ta elektron hamda an’anaviy shakldagi gazeta va jurnal, 763 ta veb-sayt, 113 ta raqamli hamda an’anaviy shakldagi tele va radiokanal ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. Ularning 835 tasi davlat, qolgan 1655 tasi nodavlat tashkilot va idoralar muassisligidagi OAVlardir.

• Blogerlar va ijtimoiy tarmoq faollari soni keskin ortib, jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim o‘rin egallay boshladi.

• Internetdan foydalanish 2017–2024-yillar mobaynida 48.7 % dan 93.3 % gacha o‘sgan, ya’ni ikki barobardan ko‘p o‘sish kuzatildi. Telegram (94 %), YouTube (66 %), Instagram (53 %) mamlakatda onlayn muloqot va kontent iste’molida asosiy vositalarga aylandi.

• Televideniye, radio va matbuot orqali 10 ga yaqin tillarda axborot tarqatish imkoniyatlari kengaydi.

Natijada siyosiy muhitning ochiqligi va jamoatchilik ishtiroki institutsionallashtirildi, ommaviy axborot vositalarida plyuralizm mustahkamlandi.

Fuqarolik jamiyati institutlari va NNTlar

Fuqarolik jamiyati institutlari – davlatning xalq uchun xizmat qilishida eng muhim hamkorlardan biridir.

• Bugun yurtimizda 10 mingdan ziyod NNT faoliyat yuritmoqda. Ular sog‘liqni saqlash, ta’lim, ekologiya, gender tengligi va nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish sohalarida davlatning ishonchli hamkoriga aylandi.

• NNTlar qonun loyihalari muhokamalarida ishtirok etib, aholining manfaatlarini davlatga yetkazmoqda.

• “Jamoatchilik eshituvlari” va “Jamoatchilik kengashlari” fuqarolarning fikr va takliflarini davlat siyosatini shakllantirishga olib chiqmoqda.

“Taraqqiyot strategiyasi” markazining o‘rni

2017-yildan buyon “Taraqqiyot strategiyasi” markazi davlat va jamiyat o‘rtasida muloqot maydoni vazifasini bajarib kelmoqda.

- Har yili Davlat dasturi qabul qilinishi arafasida fuqarolar takliflari markaz orqali yig‘ilib, tahlil qilinadi va tegishli davlat organlariga yetkaziladi.
- 2022–2023-yillarda minglab takliflar “O‘zbekiston–2030” strategiyasiga kiritildi.
- Bugun markaz ushbu strategiya ijrosini joylarda monitoring qilib, natijalarni uzbekistan2030.uz orqali jamoatchilikka taqdim etmoqda.

Bu jarayon xalqimizning davlat siyosatini nazorat qilishdagi ishtiroki ortib borayotganini va “Xalq xizmatidagi davlat” g‘oyasining amalda o‘z ifodasini topayotganini ko‘rsatadi.

Barcha islohotlar zamirida Prezident Shavkat Mirziyoyevning tarixiy g‘oyasi – **“Xalq davlat uchun emas, davlat xalq uchun xizmat qilishi kerak”** degan tamoyil yotadi.

“Xalq xizmatidagi davlat” – bu ochiq, hisobdor va samarali boshqaruv; fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlaydigan, muammolarga tezkor va adolatli yechim topadigan tizimdir.

Fuqarolik jamiyati institutlari esa bu jarayonning beqiyos ishtirokchilari sifatida davlat boshqaruvida ochiqlik, samaradorlik va xalq ishonchini mustahkamlab bormoqda.

Gulruh Anvarovna AGZAMOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari Qo‘mitasi raisi

QONUN IJODKORLIGI VA MUHOKAMASIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI ISHTIROKINING ZAMONAVIY VOSITALARI: YANGI O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

► **Annotatsiya:** *Maqola Yangi O‘zbekistonda qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ishtiroki ortib borayotganini tahlil qiladi. “Inson – jamiyat – davlat” tamoyilining joriy etilishi, yangilangan Konstitutsiya va qonunchilikda fuqarolik jamiyati institutlarining tashkiliy-huquqiy asoslari mustahkamlangani yoritiladi. Shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotida zamonaviy vositalar, jamoatchilik nazorati mexanizmlarining ijtimoiy ahamiyati, mavjud muammolar va istiqboldagi vazifalar ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *qonun ijodkorligi; NNT va fuqarolik jamiyati institutlari; ijtimoiy sheriklik; jamoatchilik nazorati shakl va mexanizmlari; huquqni qo‘llash amaliyoti; innovatsion vositalar; ochiqlik va shaffoflik tamoyillari.*

► **Аннотация:** *В статье анализируется усиливающаяся роль и участие институтов гражданского общества в законотворческом процессе Нового Узбекистана. Раскрывается внедрение принципа «человек – общество – государство», закрепление в обновлённой Конституции и законодательстве организационно-правовых основ институтов гражданского общества. Также рассматриваются современные инструменты правоприменения, общественный контроль, их социальная значимость, а также существующие проблемы и перспективные задачи.*

Ключевые слова: *законотворчество; ННО и иные институты гражданского общества; социальное партнёрство; формы и механизмы общественного контроля; правоприменительная практика; инновационные инструменты; принципы открытости и прозрачности.*

► **Abstract:** *The article analyzes the growing role and participation of civil society institutions in New Uzbekistan's law-making process. It highlights the introduction of the "person – society – state" principle and the consolidation of organizational-legal foundations for civil society institutions in the updated Constitution and legislation. The discussion also covers modern tools of law enforcement, the social significance of public oversight mechanisms, as well as current challenges and forward-looking tasks.*

Keywords: *law-making; NGOs and other civil society institutions; social partnership; forms and mechanisms of public oversight; law-enforcement practice; innovative tools; principles of openness and transparency.*

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda qonun ijodkorligi jarayonida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirokini kuchaytirish demokratik islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Ta’kidlash lozimki, “O‘zbekiston -2030” strategiyasi[1] doirasida parlament, davlat organlari va jamoatchilik o‘rtasida samarali muloqot mexanizmini yo‘lga qo‘yish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida[2] Qonunchilik palatasi qo‘mitalari faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari bilan muloqotni kuchaytirish masalasiga to‘xtalib o‘tgani ham bejiz emas, albatta.

Keyingi yillarda fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini tubdan oshirish, ularning davlat hokimiyati hamda boshqaruvi organlari bilan hamkorligini kuchaytirish bo‘yicha yangicha tizim yaratildi.

However, persistent challenges mirror those experienced across European transitions. Insufficient mutual trust between state institutions and NGOs reflects historical legacies that Poland grappled with throughout the 1990s. Many issues are related to the desire of central authorities to control local communities. The best way to achieve this is to use financial resources that are at the disposal of state institutions. This has reduced and continues to reduce the activity of citizens at the local level. They are often aware that their resistance to central authority will have consequences in the form of smaller subsidies or the inability to implement specific projects. The limited awareness of the possibilities of participation at the local level reflects the challenges that persist even in established European democracies, requiring constant attention and systematic solutions.

Strategic Recommendations for Enhanced Cooperation

Drawing from European experiences, particularly Poland's democratic consolidation journey, I propose five strategic interventions. **First**, expanding state-society dialogue platforms to regional levels

ensures meaningful participation access regardless of geographic location – a principle central to European subsidiarity concepts. This form of support allows for the elimination of natural developmental differences that are a consequence of historical processes. It supports a sense of national identity, security, and belonging to the same community of interests.

Second, simplifying and digitalizing grant allocation processes reduces bureaucratic barriers that have historically limited civil society development across post-communist Europe. Poland's experience with EU structural funds demonstrates the importance of accessible, transparent funding mechanisms. Transparent rules that are understandable for individual social groups are needed to support a sense of security.

Third, expanding social procurement scope while incentivizing NGO participation creates sustainable funding streams and service delivery innovations that have proven successful across European Union member states. It should be strongly emphasized at this point that social services should not be treated in the same way as market-oriented activities. The added value is not purely economic profit, but the sense of security that the community guarantees to individuals and groups.

Fourth, systematizing state service outsourcing to NGOs establishes clear partnership frameworks while maintaining quality and accountability standards essential for democratic legitimacy.

Finally, legally strengthening public oversight mechanisms enhances civil society's monitoring capacity, reflecting European traditions of civic watchdog functions that ensure government responsiveness and democratic accountability. The state should not relinquish its responsibility for monitoring the quality and reliability of services provided to NGOs.

Uzbekistan's Contribution to European Democratic Understanding

The cooperation mechanisms between civil society and state institutions in Uzbekistan represent more than administrative arrangements, they embody a commitment to democratic governance, social

inclusion, and sustainable development that enriches European understanding of democratic transitions.

From my research perspective, informed by Poland's democratic journey and broader European experiences, Uzbekistan's innovations demonstrate that effective civil society-state cooperation transcends institutional frameworks, requiring active engagement of informed, empowered citizens working with responsive, accountable government institutions.

Please continue this remarkable path of democracy development, taking into account the specific features of the society, its history and cultural traditions. This will benefit Uzbekistan, other Central Asian countries and societies, as well as European societies. The times of intense change that we are witnessing in the 21st century indicate the growing importance of the countries and societies of the Global South. The Central Asian countries, including Uzbekistan, are today one of the leaders of dynamic changes taking place here and now. The slogan is apt – The future is today!!!

As you continue this remarkable democratic development journey, I encourage documentation and international sharing of these experiences. They contribute significantly to European and global understanding of successful governance transitions, potentially informing future democratic innovations across the continent and beyond.

Dr. Akkan SUVER,
President of the Marmara Group

"UZBEKISTAN-2030" STRATEGY: NEW OPPORTUNITIES FOR CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS

► ***Annotatsiya:*** *Maqolada O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi, nodavlat notijorat tashkilotlari sonining 1991 yildagi 95 tadan bugungi kunda 10 mingga yaqinlashgani ta'kidlanadi. "O'zbekiston–2030" Strategiyasi inson huquqlari va qonuniylikni mustahkamlash, iqtisodiy transformasiya, yashil iqtisodiyot orqali barqaror rivojlanish ustuvor yo'nalishlari bilan izohlanadi. Jamoatchilik ovozini islohotlarda aks ettirish, davlat organlari faoliyati ustidan jamoat nazorati hamda siyosiy ishtirok platformalarini yaratish kabi mexanizmlar yoritiladi. Turkiya bilan tajriba almashish va hamkorlik ikki mamlakatda ham fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim omil sifatida ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston–2030 Strategiyasi; fuqarolik jamiyati; NNT; jamoatchilik nazorati; siyosiy ishtirok; Turkiya; xalqaro hamkorlik.*

► *Аннотация: В статье анализируется развитие гражданского общества в Узбекистане, где число ННО выросло с 95 в 1991 году до почти 10 тысяч сегодня. Подробно раскрываются приоритеты Стратегии «Узбекистан–2030»: верховенство закона и права человека, экономическая трансформация и зелёная экономика. Рассмотрены механизмы включения общественного мнения в реформы, усиление общественного контроля и создание платформ для политического участия. Отмечается значимость сотрудничества с Турцией и совместного продвижения демократических реформ.*

Ключевые слова: *Стратегия «Узбекистан–2030»; гражданское общество; ННО; общественный контроль; политическое участие; Турция; международное сотрудничество.*

► ***Abstract:*** *The article highlights the expansion of civil society in Uzbekistan, where the number of NGOs has grown from 95 in 1991 to nearly 10,000 today. The "Uzbekistan–2030" Strategy is outlined with its core priorities: strengthening rule of law and human rights, driving economic transformation, and advancing green growth. Key mechanisms include amplifying public voice in reforms, strengthening oversight of state institutions, and creating political participation platforms. Cooperation with Turkey*

is emphasized as an important driver for further civil society development and democratic governance.

Keywords: *Uzbekistan–2030 Strategy; civil society; NGOs; public oversight; political participation; Turkey; international cooperation.*

In recent years, Uzbekistan has undertaken consistent and well-coordinated measures to strengthen the role of non-governmental non-profit organizations and other civil society institutions. Positive developments in this sphere have also been noted in Turkey, facilitated by the translation of the "Uzbekistan–2030" Strategy into Turkish by the Development Strategy Centre and the regular exchange of high-level visits on matters of mutual importance.

Furthermore, Development Strategy Centre systematically organizes thematic roundtables and actively participates in the annual Eurasian Economic Summit, convened by the Marmara Group Foundation since 1998. Through these efforts, combined with media publications in Turkey, there is a growing awareness of the achievements and progressive initiatives undertaken by civil society organizations in Uzbekistan.

Such cooperation plays an important role in fostering the historically close and fraternal relations between the peoples of Uzbekistan and Turkey, while also contributing to the expansion of bilateral dialogue and partnership in the sphere of civil society development.

The Vision: «Uzbekistan-2030» Strategy

The comprehensive programmatic document – the «Uzbekistan-2030» Strategy determines the long-term development directions of the country, with one overarching goal — to significantly increase the well-being of the population through sustainable economic growth and to transform Uzbekistan into a modern, competitive state.

Within this strategy, the special emphasis is placed on three fundamental pillars:

First, guaranteeing human rights and freedoms while strengthening the rule of law and expanding citizen participation in public administration.

Second, achieving economic transformation through diversification, developing high-tech and high-value-added sectors, and introducing advanced innovations.

Third, ensuring environmental sustainability by embracing green economy principles, increasing renewable energy sources, and implementing effective resource management.

Let me share some remarkable statistics that demonstrate the commitment to civil society development in Uzbekistan. These numbers reflect not just growth, but a fundamental shift in how Uzbekistan view civic participation:

- In 1991, when Uzbekistan gained independence, it had just 95 NGOs operating in the republic
- By 2000, this number had grown to 2,585
- By 2016, there were 8,417 active organizations
- Today, Uzbekistan proudly hosts almost 10 thousand non-governmental organizations

This represents a nearly 100-fold increase over three decades, a testament to people's growing civic consciousness and government's commitment to creating space for civil society to flourish.

The Vital Role of Civil Society in the Reform Process

Civil society institutions play three critical roles in national development:

1. Amplifying Public Voice in Reform Processes

For reforms to be truly effective and responsive to population needs, we must systematically study public opinion and incorporate it into the decision-making processes.

Therefore, modern mechanisms to achieve this goal have been introduced in Uzbekistan. For example, through specialized electronic portals such as «**regulation.gov.uz**,» newly developed draft laws and resolutions are accessible for online discussion by citizens, non-governmental organizations, and specialists. The opinions and suggestions received are not merely collected, they are systematically analyzed and incorporated into the policy documents by relevant state bodies.

2. Strengthening Public Oversight

Uzbekistan is actively working to strengthen mechanisms for public control over state body activities.

Public Councils established under ministries and departments serve as vital bridges between government and society. Through these councils, population representatives and civil society leaders directly participate in the reform process, discuss sectoral issues, develop practical recommendations, and officially submit them to state bodies.

3. Creating Platforms for Political Participation

Multiple platforms have been established to ensure active citizen participation in political processes. Open dialogues, online conferences, and public hearings conducted by the President, Parliament, and local authorities serve as important venues for the population to understand reform initiatives and directly contribute their proposals.

As we move toward 2030, we envision an even stronger partnership between government and civil society. We see civil society organizations not as external observers, but as essential partners in nation's transformation journey.

The opportunities before us are immense. Together, we can build a society where every citizen has a voice, where transparency is the norm rather than the exception, and where civil society institutions serve as pillars of democratic governance and sustainable development both in Uzbekistan and Turkey.

Distinguished colleagues, Uzbekistan's experience demonstrates that when governments and civil society work in genuine partnership, remarkable transformation is possible. The journey from 95 to over 9,000 civil society organizations is more than a statistical achievement, it represents a fundamental shift toward inclusive governance and participatory democracy.

The future belongs to societies that harness the collective wisdom and energy of all their citizens. In Uzbekistan and Turkey, we are committed to building such a future, and we look forward to learning from each other best experiences.

Firdavs Xolnazarovich SHARIPOV,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, mustaqil izlanuvchi e-mail: firdavs1983xxx@gmail.com
ORCID: 0009-0006-5732-0293

OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIKNING YANGI MEXANIZMLARI

► ***Annotatsiya:*** *Maqolada fuqarolik jamiyati institutlarining qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki tahlil qilinadi va ularning samarali qatnashuvini ta’minlash bo‘yicha amaliy takliflar beriladi.*

Kalit so‘zlar*: qonun ijodkorligi, fuqarolik jamiyati institutlari, Qonunchilik palatasi, jamoatchilik muhokamasi, qonun.*

► ***Аннотация:*** *В статье анализируется участие институтов гражданского общества в законотворческом процессе и предлагаются практические меры для обеспечения их эффективного вовлечения.*

Ключевые слова: *законотворчество, институты гражданского общества, Законодательная палата, общественное обсуждение, закон.*

► ***Abstract:*** *The article analyzes the participation of civil society institutions in the law-making process and proposes practical measures to ensure their effective engagement.*

Keywords*: law-making, civil society institutions, Legislative Chamber, public consultation, law.*

Mamlakatimizning har tomonlama va jadal rivojlanishida fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini tubdan oshirish, ularning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan hamkorligini kuchaytirish, qonun ijodkorligi faoliyatiga keng jalb bo‘yicha yangi tizim yaratildi. Ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida izchil ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, mamlakatimizda ilk bor yaqin va o‘rta muddatga qaratilgan istiqbollarini belgilab olish maqsadida 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi [6] tasdiqlanib, nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy kafolatlarini ta’minlay-

digan, zamonaviy demokratik talablarga va xalqaro standartlarga javob beradigan normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish vazifalari belgilab olindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mazkur institutga alohida bob ajratilib, konstitutsiyaviy maqom berildi [4]. Asosiy qonunimizda fuqarolik jamiyati institutlari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi belgilandi. Qolaversa, fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi yanada takomillashtirilmoqda. Xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [8] shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni [7] bu boradagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga mustahkam zamin yaratmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 18-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining saylovdan keyingi birinchi majlisidagi nutqida qonun ijodkorligi borasida milliy tajriba hamda dunyodagi ilg‘or tendensiyalarga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo‘mitalari faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari bilan muloqotni kuchaytirish taklifi ilgari surildi [5].

Shularga muvofiq ravishda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qonun ijodkorligi faoliyatida jamoatchilikning ishtiroki yanada kuchaymoqda. Davlatimiz rahbari taklifi asosida qonun loyihalarining sifatini oshirish va ulardagi normalarning xalqchil ishlab chiqilishini ta’minlash maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi barcha qo‘mitalar huzurida fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat Jamoatchilik kengashlari tuzildi [1].

Buning bir qancha ijobiy jihatlari mavjud, birinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining qonun ijodkorligi jarayonida ishtiroki kengayadi, jamoatchilik uchun yanada keng yo‘l ochiladi; ikkinchidan, quyi palata bilan ijtimoiy sheriklik yanada mustahkamlanadi; uchinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlarining huquq va manfaatlari qonun hujjatlarida keng ifoda etiladi. Eng muhimi, bu jihatlar fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyat boshqaruvida bevosita ishtirok etishi uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Jamoatchilik kengashlari tarkibiga yetakchi mutaxassislar, ek-

spertlar, olimlar, amaliyotchilar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari kiritildi. 2025-yilning 6 oyi davomida qo‘mitalar huzurida tashkil etilgan Jamoatchilik kengashlarining jami 15 ta yig‘ilishi o‘tkazildi. Yig‘ilishlarda qonun loyihalarini sifatli ishlab chiqishga, ulardagi normalarning xalqchil bo‘lishiga hamda islohotlar jarayoniga ta’sirini yanada kuchaytirishga ahamiyat qaratildi.

Ma’lumki, yangilangan Konstitutsiyamizda 100 ming nafardan kam bo‘lmagan fuqarolar o‘z takliflarini quyi palataga kiritish huquqiga ega ekani kafolatlandi [4]. Endi quyi palatada bu borada yangi tizim yaratiladigan bo‘ldi. Fuqarolarning tashabbuslarini faol qo‘llab-quvvatlash maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Jamoaviy tashabbuslar bo‘yicha komissiyasi tashkil etildi [2].

Ushbu komissiyaning Oliy Majlis Qonunchilik palatasida tashkil etilgani mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida fuqarolarning ishtirokini yanada kengaytirishga, ularning tashabbuslarini faol qo‘llab-quvvatlashga, jamoatchilik fikrini o‘rganish borasidagi ishlarni tizimli tashkil etishga, shuningdek mazkur masalalarda davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, qonun ijodkorligi jarayonining sifati va samaradorligini yanada oshirish hamda keng jamoatchilikning qonun loyihalarini ishlab chiqishdagi ishtirokini kengaytirish maqsadida qonun loyihasini Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo‘mitalarida muhokama qilish ochiq o‘tkazilishi, unda fuqarolik jamiyati institutlarining va ilmiy-tadqiqot muassasalarining vakillari, shuningdek olimlar, mutaxassislarning ishtiroki qonunchiligimizda belgilandi. Natijada hamkorlik yangicha shaklda amalga oshirilmoqda, ya’ni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo‘mitalari ayni vaqtda 67 ta ilmiy-tadqiqot muassasalari, tahlil markazlari bilan memorandum imzolandi hamda hamkorlik rejalari tasdiqlandi. Bu esa, o‘z navbatida, milliy qonunchilik bazasini takomillashtirishga, sohalardagi huquqiy kamchiliklarni bartaraf etishga, xalqchil qonunlarning qabul qilish borasidagi amaliyotni yanada kengaytirishga xizmat qildi.

Qonunlarning sifatli va xalqchil bo‘lishida jamoatchilikning fikr-mulohazalari va takliflarini olish hamda ularni har tomonlama

o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, qonun loyihalarini quyi palataga kiritishda jamoatchilik muhokamasi natijalarini taqdim etishga doir talablar qonun hujjatlarida belgilandi.

O‘rganishlar tahliliga ko‘ra, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qonun loyihalarini jamoatchilikni keng jalb qilib, fuqarolarning fikr-mulohazalari va takliflarini o‘rgangan holda tayyorlashga, ko‘rib chiqilayotgan loyihalar yuzasidan aholi o‘rtasida ochiq muhokamalarni o‘tkazishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Jumladan, deputatlarning saylov okruglaridagi uchrashuvlari davomida qonun loyihalari yuzasidan jamoatchilik muhokamalari o‘tkazilayotgan bo‘lsa, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining rasmiy veb-saytida “jamoatchilik muhokamasi” rukni [3] tashkil etilib, qonun loyihasi keng aholi muhokamasi uchun joylashtirilmoqda. Yohud, 2025-yilning birinchi yarim yilida siyosiy partiyalar bilan birgalikda joylarda 30 dan ziyod qonun loyihasining jamoatchilik muhokamalari tashkil etilgan.

Umuman olganda, qonun loyihalari yuzasidan aholi o‘rtasida jamoatchilik muhokamalarini o‘tkazish amaliyoti, birinchi navbatda, qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarda saylovchilar manfaatlarini yanada to‘liq ifodalashga hamda ushbu qonunlarning xalqchilligini hamda hayotga samarali joriy etilishini ta’minlaydi. Shuningdek quyi palata tomonidan qonun ijodkorligi sohasida ushbu masalaga jiddiy e’tibor qaratilayotgani “Xalq – qonunlarning tom ma’noda yagona manbai va muallifi hisoblanadi” degan tamoyilni amalda ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Zero, bularning barchasi, pirovardida davrning o‘tkir talablariga javob beradigan, sifatli, amaliyotda samarali ishlaydigan qonunlar qabul qilinishiga muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

E’tiborli jihati, xalq noiblari o‘zlarining qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalangan holda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qonun loyihalarini ishlab chiqib, kiritishda tashabbus ko‘rsatmoqda. Jumladan, 2025-yilning 6 oyi davomida fuqarolar yig‘ini raisini saylash tartibini takomillashtirish, homiylik faoliyatini tartibga solish, mansabdor shaxslar tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga noqonuniy aralashganlik uchun ma’muriy javobgarlikni belgilash, fuqarolik

jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, jamoat fondlari faoliyatidagi byurokratik talablarni qisqartirishga doir munosabatlarni tartibga solish kabi dolzarb masalalarning huquqiy asoslari qonunlarda aks ettirildi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki yangi bosqichga ko‘tarilib, qonun loyihalarini tayyorlash va muhokama qilish jarayonida ochiqlik va shaffoflik tamoyillari amalda ro‘yobga chiqarilmoqda. Jamoaviy tashabbuslar komissiyasi va Jamoatchilik kengashlarini tashkil etish orqali demokratik jarayonlarning amaliyoti yanada mustahkamlanmoqda. Natijada, qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki kengayib, qabul qilinayotgan qonunlarning xalqchil va hayotiyligi ta’minlanmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quydagi takliflar ilgari suriladi:

birinchidan, qonun loyihalarini ishlab chiqish va takomillashtirish jarayonlarida ekspertlar, olimlar, soha mutaxassislari, fuqarolik jamiyati institutlari vakillarining ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida Qonunchilik palatasi qo‘mitalari huzurida tashkil etilgan Jamoatchilik kengashlarining salohiyati va imkoniyatidan umumli foydalanilishi zarur;

ikkinchidan, qonun ijodkorligi faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini ta’minlashda xalqaro davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rgangan holda milliy amaliyotga joriy etish;

uchinchidan, qonun loyihalarini quyi palata rasmiy veb-saytiga jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtirish borasidagi ishlarni yanada faollashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Олий Мажлис Қонунчилик палатаси Кенгашининг 2025 йил 3 февралдаги «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг қўмиталари ҳузурида Жамоатчилик кенгашлари фаолиятини ташкил этиш тўғрисида»ги 424–V-сон қарори.

2. Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг 2025 йил 21 январдаги 352–V-сон қарори.

3. Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг расмий веб-сайти. https://parliament.gov.uz/regulation.

4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Расмий нашр. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2023 йил.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти. https://president.uz/uz/lists/view/7711

6. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.03.2021 й., 06/21/6181/0182-сон.

7. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 27.08.2024 й., 06/24/124/0649-сон.

8. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон.

Zafar XUDAYBERDIYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivjlantirish masalalari qo‘mitasi a’zosi, iqtisod fanlari doktori (DSc)

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI TAKOMILLASHMOQDA

► ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada ijtimoiy-iqtisodiy sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining erkinligi, ochiqligi va shaffofligini oshirish, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashni ko‘zda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi qonuni [1] ning mazmun-mohiyati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Fuqarolik jamiyati, davlat boshqaruvi, jamoatchilik nazorati, ochiqlik, shaffoflik, NNTlarni qo‘llab-quvvatlash, huquqiy islohotlar.*

► ***Аннотация:*** *В статье раскрывается содержание и сущность Закона Республики Узбекистан, направленного на усиление общественного контроля в социально-экономической сфере, повышение свободы, открытости и прозрачности деятельности негосударственных некоммерческих организаций, а также дальнейшее укрепление отношений социального партнёрства между государственными органами и институтами гражданского общества.*

Ключевые слова: *гражданское общество, государственное управление, общественный контроль, открытость, прозрачность, поддержка ННО, правовые реформы.*

► ***Abstract:*** *The article presents the substance and purpose of the Law of the Republic of Uzbekistan, which seeks to strengthen public oversight in the socio-economic sphere, enhance the freedom, openness, and transparency of non-governmental non-profit organizations, and further consolidate social partnership between state bodies and civil society institutions.*

Keywords: *civil society, public governance, public oversight, openness, transparency, NGO support, legal reforms.*

So‘nggi yillarda davlat va jamiyat hayotida fuqarolik jamiyati institutlari faolligini yanada oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy va gumanitar sohalarni rivojlantirishda ular salohiyatidan to‘laqonli foydalanish, shuningdek ularning joylarda saqlanib qolayotgan dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, jamoatchilik nazorati va ijtimoiy sheriklik institutlarini takomillashtirish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, so‘nggi 8 yil mobaynida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirishga oid bir necha normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Yangi tahrirda qabul qilindi va unda “Fuqarolik jamiyati”, deb nomlangan alohida bob kiritildi.

Shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda 2021 – 2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatlarda ham fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi PF–124-son Farmoni [2]da esa fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari, xususan fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari hamda kelgusi istiqbollari belgilab berildi.

Ushbu Farmonga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasidagi Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo‘mitasining bir guruh deputatlari tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida qonun loyihasi ishlab chiqildi. Qonun loyihasi yuzasidan Qo‘mitamiz huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi bilan hamkorlikda jamoatchilik muhokamalari tashkil etildi va qonun loyihasi takomiliga yetkazilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senati tomonidan ma’qullangan edi.

“O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi ushbu qonun Davlatimiz rahbari tomonidan joriy yilning 21-avgust kuni imzolandi.

Mazkur qonun bilan amaldagi O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi, “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi, “Davlat boji to‘g‘risida”gi, “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Jumladan:

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-bobiga muvofiq, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunga jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyati institutlarini tashkil etishi haqidagi norma kiritildi;

hozirgacha amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi jamoat fondlari bir tizimga keltirildi va ular ushbu qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi va uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi alohida bo‘linmalari sifatida e’tirof etildi.

Shu nuqtayi nazardan ularning davlat subsidiyasi, davlat granti va ijtimoiy buyurtmalarni ajratish jarayonidagi vazifa va funksiyalari hamda ular faoliyatining moliyaviy manbalari aniq ko‘rsatib berildi;

ushbu Fond mablag‘larini boshqarish bo‘yicha Parlament komissiyasi ishini tashkil qilish bilan bog‘liq normalar, shu jumladan, Komissiya tarkibi va uning saylanishi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati va Senati a’zosi har yili navbatma-navbat raislik qilishi haqidagi normalar belgilandi;

davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida ijtimoiy sheriklik yangi bosqichga ko‘tarildi, ya’ni fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasini davlat organiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi orqali kiritish tartib-taomillari soddalashtirildi.

Jumladan, davlat organlari o‘zlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan davlat ijtimoiy buyurtmasi tanlovlarini e’lon qilganlarida va fuqarolik jamiyati institutlari ushbu ijtimoiy buyurtmani olish uchun o‘zlarining tashabbusli loyihalarini taklif etganda, ushbu loyiha summasi bazaviy hisoblash miqdorining ming baravarigacha miqdorda bo‘lsa, fuqarolik jamiyati institutiga davlat organi to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish yo‘li bilan davlat ijtimoiy buyurtmasi berishi mumkinligi belgilab qo‘yildi.

Shu o‘rinda shunday savol tug‘ilishi mumkin: Davlat organi tomonidan fuqarolik jamiyati institutlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish yo‘li bilan davlat ijtimoiy buyurtmasi berilsa, korrupsiyaviy holatlar yuzaga kelmaydimi?

Ushbu savolga ham Qonunda aniq javob topish mumkin, ya’ni davlat organi tomonidan fuqarolik jamiyati institutlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish yo‘li bilan davlat ijtimoiy buyurtmasi berilishi taklif etilgan tashabbusli loyihani davlat organlari huzuridagi Jamoatchilik Kengashlari tomonidan ko‘rib chiqish va baholash natijalariga qarab amalga oshiriladi. Ushbu Jamoatchilik kengashi fuqarolik jamiyati institutlari loyihalarini maqsadga muvofiq, deb topgan taqdirdagina davlat organi bilan fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuziladi;

qonun bilan davlat organlariga shunday majburiyat yuklanmoq-

daki, u ham bo‘lsa, davlat organlari har yili kamida bir marotaba sohaviy va hududiy fuqarolik jamiyati institutlari vakillari bilan ochiq muloqot o‘tkazishini ko‘zda tutadi;

O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonuniga nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan Jamoatchilik nazorati natijalari bo‘yicha tayyorlangan yakuniy hujjat davlat organiga kelib tushgan kundan e’tiboran bir oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqilishi shartligi to‘g‘risidagi yangi norma kiritildi;

nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida ushbu Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga:

davlat organlarining mansabdor shaxslari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik uchun;

jamoatchilik nazorati natijalari bo‘yicha tayyorlangan yakuniy hujjatni bir oy muddatda ko‘rib chiqmaslik uchun ma’muriy javobgarlik belgilandi.

Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash maqsadida ularga tashqi manbalardan olingan pul mablag‘lari to‘g‘risidagi axborotni har chorakda jamoatchilikka e’lon qilish majburiyati yuklandi;

nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida esa nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ayrim ma’muriy huquqbuzarliklar uchun jarima miqdorlari sezilarli darajada kamaytirildi, xususan ramzlarni ishlatish, tadbirni o‘tkazish haqida xabardor qilish tartibiga rioya qilmaslik, o‘z faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarni taqdim etish tartibini va muddatini buzganlik uchun jarima miqdorlari sezilarli darajada kamaytirildi.

Umuman olganda, Davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan ushbu qonun fuqarolik jamiyati institutlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlashga, ular faoliyatining ochiqligi va shaffofligini oshirishga, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlarini yanada rivojlanishiga hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomoni-

dan olib boriladigan jamoatchilik nazorati samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида” 21.08.2025 йилдаги ЎРҚ–1083-сон Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 22.08.2025 й., 03/25/1083/0769-сон.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Фуқаролик жамияти институтларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 26.08.2024 йилдаги ПФ–124-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 27.08.2024 й., 06/24/124/0649-сон.

3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.

4. Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 21.08.2025 йилдаги ЎРҚ-1083-сон.

5. Фуқаролик жамияти институтларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 26.08.2024 йилдаги ПФ-124-сон.

Otabek Nishonovich XUSANOV,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi direktori

DAVLATNING MOLIYAVIY KO‘MAGI FUQAROLIK JAMIYATINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH OMILI – O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

► ***Annotatsiya:*** *Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha islohotlarni tahlil qiladi. Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlarining maqomi mustahkamlangani, “O‘zbekiston–2030” va konsepsiyalar orqali siyosiy yo‘nalish belgilangani, Parlament komissiyasi va Jamoat fondi orqali subsidiya, grant va ijtimoiy buyurtmalar ochiq elektron platformada taqsimlanayotgani ko‘rsatiladi. Xorijiy mablag‘lar, ro‘yxatdan o‘tish va hisobot jarayonlarining soddalashtirilishi, e-ngo.uz integratsiyasi, soliq imtiyozlari hamda bandlik, ijtimoiy himoya va ko‘nikmalarni oshirishga yo‘naltirilgan loyihalarning amaliy natijalari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *fuqarolik jamiyati; NNT; davlat moliyaviy ko‘magi; grant; subsidiya; ijtimoiy buyurtma; Parlament komissiyasi; e-ngo.uz; shaffoflik; soliq imtiyozlari.*

► ***Аннотация:*** *В докладе обобщены реформы по поддержке институтов гражданского общества в Узбекистане: конституционное закрепление их статуса, стратегическая рамка «Узбекистан–2030», а также работа Парламентской комиссии и Общественного фонда, распределяющих субсидии, гранты и социальные заказы через единую электронную платформу. Показано упрощение внешнего финансирования, регистрации и отчётности ННО, внедрение e-ngo.uz, налоговые льготы, а также практические результаты проектов по занятости, социальной защите и развитию компетенций.*

Ключевые слова: *гражданское общество; ННО; государственная финансовая поддержка; грант; субсидия; социальный заказ; Парламентская комиссия; e-ngo.uz; прозрачность; налоговые льготы.*

► ***Abstract:*** *The speech reviews Uzbekistan’s reforms to financially and institutionally support civil society: constitutional recognition, the “Uzbekistan–2030” strategic framework, and the role of the Parliamentary Commission and the Public Fund in allocating subsidies, grants, and social procure-*

ment via a unified e-platform. It highlights simplified procedures for foreign funding, NGO registration and reporting, the rollout of e-ngo.uz, tax incentives, and tangible outcomes in employment, social protection, and skills development.

Keywords: *civil society; NGOs; state financial support; grants; subsidies; social procurement; Parliamentary Commission; e-ngo.uz; transparency; tax incentives.*

Bugungi konferensiya nafaqat O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining o‘rni balki turli davlatlarning ushbu sohadagi tajribasini, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlari oldidagi dolzarb masalalarni muhokama qilish va samarali muloqot maydoni bo‘lib xizmat qiladi.

O‘ylaymanki, ushbu anjumanda yangicha g‘oya va yondashuvlar hamda kelgusi hamkorlik yo‘nalishlari belgilab olinadi.

Bevosita mening ma’ruzamga keladigan bo‘lsak, **Davlatning moliyaviy ko‘magi fuqarolik jamiyatini barqaror rivojlantirish omili – O‘zbekiston tajribasi deb nomlanadi.**

Yangi O‘zbekistonda erkin va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida keng ko‘lamli va shiddatli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bu jarayonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini kuchaytirish, fuqarolik jamiyati institutlari tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, shaffoflik va ochiqlikni ta’minlashga qaratilgan yangi qonunchilik va institutsional islohotlar izchil davom ettirilayotganligini ta’kidlash lozim.

Fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma’naviy va gumanitar sohalarni rivojlantirishda faol ishtirok etishmoqda.

Shu bilan bir qatorda jamiyat manfaatlari va aholining haqiqiy ehtiyojlarini ko‘zlagan, joylarda saqlanib qolayotgan dolzarb muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslarni ro‘yobga chiqarishda ijtimoiy sheriklik asosida ko‘maklashib kelmoqda.

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichida fuqarolik jamiyati institutlarini har taraflama qo‘llab-quvvatlash ularning moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash nihoyatda muhim.

Yetarli darajada moliyaviy resurslarga ega bo‘lgan fuqarolik jamiyati instituti maqsad-vazifa va tashabbuslarini samarali bajara olishi mumkin, deb hisoblayman.

Ushbu sohadagi islohotlar natijasida Oliy Majlis palatalarining qo‘shma qaroriga muvofiq fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishning mustaqil, demokratik prinsiplarga asoslangan tizimi mustahkamlandi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari, ya’ni nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘z-o‘zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari faoliyati, tashabbus va loyihalari Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 8 nafar deputati hamda Senatining 8 nafar a’zosidan iborat **Parlament komissiyasi** tomonidan qo‘llab-quvvatlab kelinmoqda.

Parlament komissiyasi mablag‘larni aniq ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish, fuqarolar ijtimoiy faolligini yanada oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni moliyalashtirishga ajratib kelmoqda.

Qo‘llab-quvvatlash shartlari va sohalarining bunday aniq belgilanganligi Jamoat fondi mablag‘larini adolatli, xolis va shaffof taqsimlashning muhim kafolatidir.

Bugungi kunda Jamoat fondi mablag‘lari fuqarolik jamiyatining institutlariga ularning buyurtmanomalari asosida va Parlament komissiyasining qarorlariga muvofiq, **davlat subsidiyasi, granti, ijtimoiy buyurtmasi** tariqasida ajratilib kelinmoqda.

Davlat subsidiyalari, grantlari va ijtimoiy buyurtmalarini ajratish bilan bog‘liq barcha jarayonlarning shaffofligini ta’minlashga qaratilgan fuqarolik jamiyati institutlarining yagona elektron platformasi orqali amalga oshirilib kelinmoqda.

Yagona elektron platformaning ishga tushirilishi quyidagi natijalarni berdi:

Birinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari va keng jamoatchilik Oliy Majlis xuzuridagi fondi o‘tkazadigan tanlovlarning yo‘nalishlarini shakllantirishda bevosita ishtirok etish.

Ikkinchidan, tanlovlarning barcha bosqichlari, shu jumladan ariza berishdan tanlov natijasini e’lon qilishgacha barcha jarayon raqa-

mlashtirilib, inson omili minimal darajaga tushirildi;

Uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari ortiqcha qog‘ozbozlik va byurokratiyadan holi bo‘ldi.

To‘rtinchidan, monitoring qilish, shartnoma tuzish, hisobot topshirish elektron tarzda amalga oshirilmoqda.

Beshinchidan, davlat organlarining ijtimoiy buyurtmasi elektron tarzda shakllantirilmoqda.

Yagona elektron platformaning joriy etilishi fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yangi bosqichga olib chiqib, mazkur jarayonlarning ochiq va shaffofligini ta’minlab kelmoqda.

Endi raqamlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, fuqarolik jamiyati institutlarining dastur va loyihalarini davlat granti, ijtimoiy buyurtmasi va subsidiyasi shaklida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uchun **2017-yilda 12 mlrd so‘m** mablag‘ ajratilgan bo‘lsa, 2025-yilda **1 trln 276 mlrd 912 mln so‘m**. ajratildi. Ya’ni, davlat siyosatida 8 yil ichida fuqarolik jamiyati institutlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalishga aylanganidan dalolatdir.

2017-yildan bugungi kungacha **2 418 ta** fuqarolik jamiyati institutlarining loyiha va dasturlari moliyalashtirildi. Bu raqamlar ijtimoiy sheriklik va fuqarolik jamiyati institutlari – jamiyat davlat hamkorligi yanada mustahkamlanganligining ifodasi hisoblanadi.

Jamoat fondi yangi ish o‘rinlari yaratish, har bir fuqaroga aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish, kasbga o‘qitish ko‘lamini kengaytirish, turizm, axborot-kommunikatsiya, jumladan dasturiy ta’minotlar, ayollar va yoshlar orasidagi ishsizlik darajasini kamaytirish, ish bilan band bo‘lmaganlarni tadbirkorlikka jalb qilish va o‘zini o‘zi band qilishi orqali kambag‘allikni qisqartirish sohalaridagi faoliyatni qo‘llab-quvvatlab kelmoqda.

Xususan, birgina **2024-yilda 17 ta** fuqarolik jamiyati institutlarining davlat **ijtimoiy buyurtmasi** loyihalari doirasida **900 nafar** ishsiz ayollar bandligi ta’minlandi, **4 459 nafar** nogironlar qo‘llab-quvvatlandi, **300** nafar yoshlarning innovatsion g‘oyalari ro‘yobga chiqarildi.

Shuningdek, “Mahallalarda aholining, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarning bandligiga ko‘maklashish” mavzusidagi **grantlar**

doirasida **2 572** ta davra suhbati va tadbirlar tashkil etildi. **3 201** nafar shaxsning bilim va ko‘nikmalari oshirildi, **856 nafar** fuqaro bandligini ta’minlashga ko‘maklashildi.

2023-2024-yillarda davlat grantlari doirasida **882 ta** loyiha moliyalashtirildi. Bular: aholi bandligini ta’minlashga ko‘maklashish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy-ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, tibbiy va ekologik madaniyatni yuksaltirish, inson xuquqlari, muloqot madaniyatini shakllantirish, tibbiy va ekologik madaniyatni yuksaltirish va boshqalar.

Natijada, **7 886 ta** davra suhbati va tadbirlar tashkil etilgan va ularda **2 459 973 nafar** shaxs qamrab olingan. **13 322 nafar** fuqaroga ijtimoiy, xuquqiy, tibbiy, psixologik yordam berilgan, **77 899 nafar** shaxsning bilim, ko‘nikmalari oshirilgan va kasbga o‘qitilgan, **6 414 nafar** fuqaroning bandligi ta’minlandi. **13 778 nafar** shaxs sog‘lom turmush tarziga jalb etilgan. **27 ta** sport maydonchasi va **19 ta** mahallani obodonlashtirishga ko‘maklashilgan. **15 t**a kutubxona, **8 ta** o‘quv kurslari va to‘garaklar tashkil qilingan. **7 902 nafar** fuqaro ichimlik suvi bilan ta’minlanishiga erishilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va mahalliy kengashlar huzurida “Fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat bo‘lgan maslahat guruhlari” faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ular:

joylarda ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlari va loyihalarini qo‘llab-quvvatlash uchun mablag‘larning zarur hajmlarini aniqlashga doir takliflarni ishlab chiqadi hamda ularni Parlament komissiyasiga taqdim etib boradi; joylarda davlat subsidiyasi, grantlari va ijtimoiy buyurtmalari doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat samaradorligini o‘rganish, tahlil qilish va baholash borasida Parlament komissiyasiga ko‘maklashadi.Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlashning yana bir yo‘nalishi bu **soliq siyosati** hisoblanadi. Bu borada ham davlat tomonidan qator islohotlar amalga oshirilganligini alohida qayd etish lozim. Xususan, davlat grantlari va ijtimoiy buyurtma loyihalarining ijtimoiy ahamiyatga molik ekanligi e’tiborga olinib, bunday loyihalar doirasida daromad solig‘i va ijtimoiy soliq stavkalari **3 yil muddatga 50 foizga** kamaytirildi.

Misol sifatida aytish mumkinki, birgina, 2025-yilning **6 oyi** davomida **172 ta** davlat granti tanlovi g‘olibi bo‘lgan fuqarolik jamiyati

institutlarining **216 mln. so‘m** mablag‘lari tejalishi imkonini berdi. Ushbu mablag‘lar loyiha maqsadlariga erishish hamda faoliyat samaradorligi oshishiga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hajmidan kelib chiqib, **200 mln. so‘mdan ko‘p** bo‘lgan mablag‘ davlat ijtimoiy buyurtmasi shaklida, **100 mln.dan – 200 mln. so‘mgacha** mablag‘lar **davlat granti** shaklida Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi tomonidan va **100 mln.** so‘mgacha mablag‘lar Jamoat fondining hududiy bo‘limlari tomonidan moliyalashtirilib kelinmoqda.

Fursatdan foydalanib, fuqarolik jamiyati institutlari moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga oid taklif va mulohazalarim bilan o‘rtoqlashmoqchiman.

- xalqaro va xorijiy davlatlar vakolatli tashkilotlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish, xususan, ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qo‘shma grant tanlovlarini e’lon qilish;
- fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash sohasida tajriba almashish maqsadida o‘zaro tashriflarni amalga oshirish.

Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan tizimli islohotlar nafaqat demokratik yangilanish jarayonlarini mustahkamlamoqda, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va sheriklik munosabatlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish uchun xizmat qilmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlariga berilayotgan bu kabi imkoniyatlar orqali chinakam demokratik, huquqiy davlat qurish yo‘lidagi strategik maqsadlarga erishishda hal qiluvchi kuchga aylanmoqda.

Kamoliddin Nuriddinovich ISHANXODJAYEV,
O‘zNNTMA raisi

LIBERAL-DEMOKRATIYA G‘OYALARINING GLOBAL INQIROZI SHAROITIDA MILLIY FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING AKSELERATSIYASI

► ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT)ning fuqarolik jamiyatidagi o‘rni va roli yoritiladi. NNTlar ijtimoiy himoya, inson huquqlari, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ekologiya va boshqa sohalarda muhim faoliyat olib bormoqda. So‘nggi yillarda ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy asoslar mustahkamlanib, grantlar, subsidiyalar va ijtimoiy buyurtmalar orqali moliyaviy mustaqillik kuchaymoqda. Xususan, “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” va Prezident qarorlari doirasida NNTlar uchun “NNT uylari” va axborot-resurs markazlari tashkil etildi, Assotsiatsiya faoliyati kengaydi. Bugungi kunda NNTlar demokratik jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylangan.*

Kalit so‘zlar: *nodavlat notijorat tashkilotlari; fuqarolik jamiyati; ijtimoiy sheriklik; jamoatchilik nazorati; huquqiy asoslar; grant va subsidiyalar; O‘zbekiston.*

► ***Аннотация:*** *В статье рассматривается роль неправительственных некоммерческих организаций (ННО) в развитии гражданского общества Узбекистана. Подчёркивается их деятельность в сфере социальной защиты, прав человека, образования, здравоохранения и экологии. В последние годы создана прочная правовая база, обеспечивающая финансовую устойчивость ННО за счёт грантов, субсидий и социальных заказов. Особое внимание уделено «Концепции развития гражданского общества» и решениям Президента, в рамках которых созданы «Дома ННО» и информационно-ресурсные центры. Ассоциация ННО стала важным партнёром государства и общества. Сегодня ННО укрепляют демократические процессы и расширяют общественное участие.*

Ключевые слова: *неправительственные некоммерческие организации; гражданское общество; социальное партнёрство; общественный контроль; правовая база; гранты и субсидии; Узбекистан.*

► ***Abstract:*** *This article analyzes the role of non-governmental non-profit organizations (NGOs) in strengthening civil society in Uzbekistan. NGOs operate in areas such as social protection, human rights, education, healthcare, ecology, and youth issues. In recent years, significant reforms have improved the legal framework and enhanced NGOs' financial independence through grants, subsidies, and social contracts. The "Civil Society Development Concept" and presidential decrees introduced "NGO Houses" and information-resource centers, while the National NGO Association expanded its activities. Today, NGOs have become active participants in democratic reforms and contribute to public oversight and social partnership.*

Keywords: *non-governmental non-profit organizations; civil society; social partnership; public oversight; legal framework; grants and subsidies; Uzbekistan.*

Ma'lumki, fuqarolik jamiyati institutlarining asosiy ustunlaridan biri – bu nodavlat notijorat tashkilotlaridir.

Nodavlat notijorat tashkilotlari davlat va jamiyat o‘rtasidagi muhim ko‘prik bo‘lib, ularning faoliyati – ijtimoiy himoya, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatda bugungi kunda 10 mingga yaqin NNTlar tadbirkorlik, atrof-muhit va ekologiya, qishloq xo‘jaligi, sport, inson huquqlari, yoshlar va xotin-qizlar masalalari, nogironligi bor shaxslar bilan ishlash, sog‘liqni saqlash, ta'lim, fan va innovatsiyalar kabi sohalarda faoliyat yuritmoqda.

So‘ngi yillarda O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yildi va NNTlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar zamon talabiga mos ravishda yangilanib, qonunchilik bazasi takomillashdi. 2018-yildan bugunga qadar Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga oid 20 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qayta ko‘rib chiqildi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga oid hujjatlar NNTlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ochiq hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim huquqiy va institutsional asosni yaratish, fuqarolik jamiyati institutlari rolini turli sohalarda kengaytirish, qisqa muddatli va joylardagi muammolarni hal etish-

da jamoatchilik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, davlat bilan fuqarolik institutlari o‘rtasidagi amaliy sheriklikni kengaytirish, jamoatchilik nazoratini rivojlantirib, ijtimoiy salohiyatni kuchaytirishga qaratilgandir.

Natijada, huquqiy asoslar kengayib, davlat grantlari, ijtimoiy buyurtmalar va subsidiyalar orqali NNTlarning moliyaviy mustaqilligi kuchaymoqda.

Huquqiy hujjatlar haqida gapirganda, alohida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” hamda O‘zbekiston Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi qaroriga to‘xtalib o‘tsam.

2021–2025-yillarga mo‘ljallangan “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ning qabul qilinishi fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda ahamiyatli qadam bo‘ldi. Shu jarayonning mantiqiy davomi sifatida, Konstitutsiyaning 69-moddasida fuqarolik jamiyati institutlari ilk bor alohida qayd etildi. Mazkur hujjatlar doirasida quyidagilar amalga oshirildi:

- Maxsus portal ishga tushirilib, NNTlarni elektron tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish imkoniyati yaratildi.

- O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi tavsiyasi bilan Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Nukus shahri hamda 12 viloyat markazlarida “NNT uylari” tashkil etilgan. Ularda bugungi kunda 400 dan ziyod NNTlar bepul ravishda faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, ular asosida O‘zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan axborot-resurs markazlari tashkil etilgan va samarali faoliyat yuritmoqda.

- 1991-yilda mamlakatda 95 ta NNT mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2000-yilda ular 2 yarim mingga yetgan, bugungi kunda esa mamlakatimizda 10 mingga yaqin nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat yuritmoqda.

- Bugungi kunda NNTlar faoliyati yo‘nalishida amalga oshirilgan ijtimoiy loyihalar doirasida nogironligi bor shaxslarning siyosiy

faolligini oshirish yo‘lida 616 ta nomzoddan 138 nafari deputatlikka saylandi.

- 2021–2025-yillarda NNT rahbarlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida **O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi** tomonidan **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi**da 750 nafar NNT rahbarlarining malaka oshirish kurslarida o‘qishi ta’minlandi. Natijada bitiruvchilar davlat idoralari bilan 1000 dan ziyod ijtimoiy sheriklik shartnomalari tuzishga muvaffaq bo‘ldilar.

Shu bilan birga, aholi o‘rtasida qonunchilikka oid bilimlarni oshirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va fuqarolarning huquqiy savodxonligini mustahkamlash ham O‘zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi 2005-yilda 150 ta yetakchi jamoat birlashmalari tashabbusi bilan tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunda uning a’zolari soni 2 500 ga yaqin NNTlarni tashkil qiladi. A’zolar soni yil sayin ortib bormoqda: 2021-yilda – 990 ta, 2022-yilda – 1 482 ta, 2023-yilda – 1 843 ta, 2024-yilda – 2 144 ta va 2025-yil yanvar–avgust oylarida esa 2 341 taga yetdi.

Assotsiatsiya o‘z a’zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilishda ham, ularning tashabbuslarini davlat va jamiyat bilan hamkorlikda amalga oshirishda ham yetakchi o‘rin egallaydi. O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini kelishish vakolatiga ega bo‘lib, so‘nggi yillarda yuzdan ziyod qonun va qaror loyihalari ko‘rib chiqildi. Shuningdek, Assotsiatsiya vakillari Oliy Majlis palatalari yig‘ilishlarida muntazam qatnashib, qonun ijodkorligi jarayonida faol ishtirok etmoqda.

2025-yilning yanvar – avgust oylarida 60 marotaba “Ochiq eshiklar kuni” tashkil etildi, 326 nafar NNT vakili huquqiy maslahat va amaliy ko‘mak bilan ta’minlandi.

Xalqaro hamkorlik yo‘nalishida ham ishlar izchil kuchaymoqda.

2025 yil davomida Fransiya, Belgiya, Xitoy va AQSHda xizmat safarlari amalga oshirilib, xorijiy tashkilotlar hamda diplomatik korpus vakillari bilan 10 dan ortiq uchrashuvlar o‘tkazildi.

Ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazorati sohasida ham Assotsiatsiya muhim tashabbuslarni amalga oshirdi: vazirlik va idoralar bilan memorandumlar imzolandi.

Axborot siyosatida ham Assotsiatsiya faol ish olib bormoqda. Televideniye va radio orqali 70 ga yaqin chiqishlar amalga oshirildi, 500 dan ziyod xabar, 80 dan ortiq videorolik va 30 dan ziyod maqolalar e’lon qilindi.

Shu tariqa, Assotsiatsiya o‘z a’zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, malakasini oshirish va jamiyatda demokratik jarayonlarni mustahkamlashda tobora muhim o‘rin egallab bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, “Yangi O‘zbekiston – inson qadri uchun” degan tamoyil asosida NNTlarning faoliyati ham yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining mavqei aholi manfaatlarini ifoda etuvchi tashkilot sifatida yanada mustahkamlanib bormoqda, NNTlar demokratik islohotlarning asosiy ishtirokchilaridan biriga aylanmoqda va ularning jamiyat taraqqiyotiga hissasi ortib bormoqda.

Davlat, fuqarolar va NNTlar birgaligida jamoatchilik nazorati, ijtimoiy faollik va tenglik asosida taraqqiy etuvchi jamiyatni barpo etishda muhim qadamlar qo‘yilyapti.

***Prof. Dr. Said IRANDOUST**, PhD Founding Rector, American University of Technology in Tashkent (AUT)*
Powered by Arizona State University (ASU)
***Dr. Yulduz GAYBULLAEVA** Director of the Center for the quality assurance, pedagogical innovations and licensing*
American University of Technology in Tashkent (AUT)

PROTECTING DEMOCRACY AND CIVIL SOCIETY IN A TIME OF GLOBAL THREATS: THE ROLE OF EDUCATION

► ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola ta'limning, xususan maktab va universitetlarning kundalik amaliyotining raqamli xatarlar, ijtimoiy bosimlar hamda iqtisodiy yoki ekologik buzilishlar sharoitida ijtimoiy birlik va barqarorlikni saqlashdagi rolini tahlil qiladi. Media va raqamli savodxonlik, maktablardagi ishtirokchilik amaliyotlari, talaba boshqaruvidagi xizmat tashabbuslari, universitet – jamiyat hamkorligi hamda dalillarga asoslangan jamoat muloqoti yo'nalishlarida tajribaga tayanuvchi, malakaga yo'naltirilgan va nosiyosiy yondashuv ilgari suriladi. Xalqaro standartlar va, jumladan, Arizona State University tajribasiga tayangan holda, O'zbekiston uchun ham moslashtirilishi mumkin bo'lgan aniq, amaliy strategiyalar taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *Demokratiya; fuqarolik jamiyati; ta'lim; oliy ta'lim; media savodxonligi; ishtirokchilik amaliyotlari; xizmatga asoslangan ta'lim; universitet – jamiyat hamkorligi; dalillarga asoslangan muloqot; O'zbekiston.*

► ***Аннотация:*** *В статье рассматривается роль образования особенно повседневных практик школ и университетов в поддержании социального единства и устойчивости перед лицом цифровых рисков, социальных давлений, а также экономических и экологических потрясений. Продвигается компетентностный, неполитизированный подход, основанный на практико-ориентированном обучении: медиа- и цифровая грамотность, практики участия в школах, студенческие сервис-инициативы, партнёрства «университет – сообщество» и доказательный общественный диалог. Опираясь на международные стандарты и модели высшего образования (в т.ч. разработанные в Arizona State University), предлагается набор применимых стратегий,*

адаптируемых к локальным условиям, актуальным для Узбекистана.

Ключевые слова: *Демократия; гражданское общество; образование; высшее образование; медиаграмотность; практики участия; сервис-обучение; партнёрства «университет – сообщество»; доказательный диалог; Узбекистан.*

► ***Abstract:*** *This article examines the role of education particularly the everyday practices of schools and universities in sustaining social cohesion and resilience amid digital risks, social pressures, and economic or environmental disruptions. It advances a skills-oriented, non-political framework emphasizing experiential learning in media and digital literacy, participatory practices in schools, student-led service initiatives, university–community partnerships, and evidence-based public dialogue. Drawing on international standards and higher-education models, including those developed at Arizona State University, the article outlines actionable strategies adaptable to diverse local contexts, with relevance for Uzbekistan.*

Keywords: *Democracy; civil society; education; higher education; media literacy; participatory practices; service-learning; university–community partnerships; evidence-based dialogue; Uzbekistan.*

Introduction: Democracy and civil society are commonly defined through institutional arrangements such as laws, elections, political parties, and civic organizations. While these visible structures are indispensable, they rest on less visible foundations that are equally critical. Education, in its routine practices, provides one of these foundations. Schools and universities not only transmit knowledge but also cultivate dispositions and competencies that enable individuals to participate constructively in public life.

The civic role of education is increasingly recognized in international scholarship. Critical thinking, evidence-based reasoning, deliberative dialogue, and cooperative problem-solving are not ancillary skills but essential democratic capacities. Their development occurs most effectively in educational settings where inquiry, reflection, and participation are encouraged. In this way, classrooms and campuses function as formative arenas in which the norms and habits of civil society are rehearsed and reinforced.

Global experience illustrates this point. Finland has embedded

media and information literacy into its national curriculum, strengthening resilience against misinformation. Arizona State University has institutionalized large-scale service-learning initiatives that link academic learning with civic contribution. Singapore has emphasized collaborative problem-solving and adaptability as national educational priorities, while Taiwan's civic technology platforms have expanded opportunities for informed public participation.

These cases differ in context but converge in demonstrating that education is integral to sustaining democratic resilience under conditions of uncertainty. The central challenge is thus not to affirm the importance of education, but to design and organize learning so that democratic competencies are cultivated systematically and at scale. Pedagogical choices—whether oriented toward rote memorization or critical inquiry, competition or collaboration, silence or open deliberation—carry long-term implications for civic trust and social cohesion.

In Uzbekistan, where new higher education institutions are emerging, this challenge acquires particular urgency. Our experience in establishing a university demonstrates that students possess considerable curiosity, creativity, and civic energy. When offered opportunities for structured debate, learning, and partnerships with local communities, they demonstrate strong potential for constructive engagement. This suggests that democratic habits are not innate but can be deliberately fostered through educational practice. This article develops this argument in four steps.

First, it outlines the principal global risks— digital, social, economic, and environmental—that place pressure on democratic life.

Second, it examines the distinctive contributions that educational institutions make to social resilience.

Third, it reviews both international reference points and recent initiatives in Uzbekistan that illustrate emerging practices.

Finally, it proposes a set of practical pillars and a one-year roadmap for schools and universities to integrate democratic competencies into everyday educational life.

Global Risks, Local Skills Across the world, societies face a set of interrelated risks that test both the resilience of democratic institutions and the cohesion of communities. Three clusters are par-

ticularly salient. The first cluster is digital risk. The rapid spread of misinformation, disinformation, and deepfakes has transformed the information environment. Online scams and manipulated content can distort public debate, erode trust in institutions, and weaken citizens' capacity to make informed choices.

These are not Abstract issues: research across Europe and Asia shows that even highly educated populations struggle to distinguish reliable information from false or misleading claims, particularly in fast-moving online environments. The second cluster consists of social risks. Rising inequality, exclusion of marginalized groups, and increasing polarization create barriers to cooperation.

When communities fragment along ethnic, generational, or ideological lines, the common ground needed for collective decision-making becomes harder to sustain. Experiences in both developed and developing contexts suggest that polarization rarely emerges from politics alone; it often reflects deeper failures to cultivate empathy, tolerance, and the ability to listen across differences.

The third cluster includes environmental and economic shocks. Climate change, resource scarcity, and sudden economic disruptions such as financial crises or pandemics all require societies to adapt quickly and collectively. These shocks demand not only technical expertise but also civic capacities: the ability to understand trade-offs, to deliberate responsibly about shared resources, and to collaborate on solutions that balance short-term costs with long-term benefits. What links these three clusters is that they cannot be addressed by policy measures alone.

They require human capacities—skills, values, and habits of interaction—that must be cultivated deliberately through education. In this sense, global risks generate local demands for practical competencies: the ability to evaluate information, to cooperate with diverse peers, and to approach problems with both analytical rigor and civic responsibility. Schools and universities, by design, are uniquely positioned to meet these demands.

What Education Uniquely Contributes: Educational institutions contribute to democracy and civil society in ways that are difficult to replicate in other social settings. Four contributions are especially

significant. First, schools and universities provide relatively neutral spaces for dialogue. Unlike political parties, media outlets, or advocacy groups, educational institutions can convene discussions without being directly tied to partisan outcomes.

When structured carefully, these settings allow students to deliberate openly, experiment with diverse viewpoints, and practice the norms of respectful disagreement. Such spaces are particularly valuable in societies where public debate is often polarized or constrained. Second, they cultivate core competencies that underpin democratic participation. Critical thinking, media and information literacy, and ethical reasoning are developed most systematically in formal education. For example, structured curricula can guide students in assessing the credibility of sources, weighing competing arguments, and recognizing the moral dimensions of social choices.

These skills equip graduates not only for professional life but also for responsible citizenship. Third, schools and universities serve as bridges between local communities and global knowledge. Through curricula, research collaborations, and international partnerships, they connect learners with ideas, practices, and innovations from around the world.

This bridging role allows local problems—whether related to sustainability, public health, or social inclusion—to be understood in light of global experience, while also enabling students to see themselves as participants in wider communities of practice. Fourth, educators themselves function as daily role models.

Teachers and professors demonstrate fairness, inclusion, and respect not only through what they teach but also through how they teach. Simple practices—such as encouraging student voice, respecting diverse perspectives, and treating learners with dignity—carry civic lessons that extend beyond the classroom.

These lived experiences of fairness and inclusion are often as influential as formal instruction in shaping students' sense of civic responsibility. Taken together, these contributions underscore that education forms citizens, not only graduates. While other institutions play important roles in civic life, the systematic and sustained influence of education on young people's thinking, values, and be-

haviors makes it uniquely positioned to strengthen civil society.

For Uzbekistan, where new institutions of higher learning are emerging and curricular models are still evolving, the opportunity is particularly significant: to embed civic and democratic capacities into the very fabric of educational practice, ensuring that the next generation is prepared not only for employment but also for the responsibilities of citizenship.

Proven Local Examples and Initiatives In addition to international models, Uzbekistan has already taken important steps to strengthen media literacy, critical thinking, and civil society engagement through education. These examples demonstrate that the country is actively working on the same priorities that this paper highlights.

1. Yuksalish Movement and EU Media School (Tashkent, February 2025): A two-day Media School trained journalists, bloggers, and young professionals in fact-checking and critical thinking. Organized by the Yuksalish Movement with support from the European Union, the program strengthened skills for identifying misinformation.

2. UNESCO Media and Information Literacy Workshop (Tashkent, March 2025): A UNESCO-led workshop on Media and Information Literacy (MIL) was held under the UNESCO AIM Program (Access to Information, Accountability, Media Competence), gathering 50 representatives from government, academia, media, and civil society. The event highlighted the need for national strategies in media literacy.

3. UNESCO Regional Training on Freedom of Expression (Samarkand, March 2025): A regional training brought together prosecutors, judges, and journalists to strengthen understanding of freedom of expression, access to information, and the safety of journalists. Sessions were led by international experts.

4. UNESCO AIM Program Steering Committee Meeting (Tashkent, July 2025): The third Steering Committee meeting of the AIM program assessed progress in media literacy training and set new goals for judiciary and media capacity building.

5. OSCE Youth Media Literacy Training (Urgench, August 2025): The OSCE Project Coordinator in Uzbekistan, together with the Centre for Retraining Journalists, held a two-day session

on media literacy, cybersecurity, and countering radicalization. The training emphasized critical thinking and responsible media use.

International Reference Points to Guide Practice: Education systems do not need to start from scratch. Two widely used reference points can guide curriculum and program design: § OECD Learning Compass 2030: a globally informed model that highlights student agency and the integration of knowledge, skills, attitudes, and values for thriving in complex futures. § UNESCO‘s Global Citizenship Education (GCED) and Media and Information Literacy (MIL): tools and policy guidance for teaching critical inquiry, responsible participation, and informed media use, adaptable to local contexts.

Five Practical Pillars for Schools and Universities

1. Media and Digital Literacy The foundation of a resilient civil society is the ability to check facts, evaluate sources, and use digital tools responsibly. Schools and universities can make this practical by running short hands-on sessions on lateral reading and verification, hosting a “MediaSmart Week” for students, teachers, and parents, and offering micro-credentials to student mentors who support peer groups. Example: The News Co/Lab at ASU’s Cronkite School develops media literacy programs in collaboration with educators and journalists.

2. Participatory Practices in Schools (Learning by Doing) Democratic habits grow when students practice them. Participatory practices allow students to propose, debate, and vote on real improvements such as equipment, campus spaces, or inclusion initiatives. Evidence shows these practices build collaboration, and responsibility. Example: School budgeting (PB) has been successfully implemented in Arizona and many cities worldwide.

3. Student-Led Service-Learning (Knowledge into Contribution) Learning is most powerful when it connects to community needs. Service-learning projects enable students to apply theory to real problems, reflect on their experiences, and showcase their work publicly. Universities can recognize this effort through credits or micro-credentials. Example: ASU’s EPICS (Engineering Projects in Community Service) program mobilizes students to design solutions with local communities.

4. University–Community Partnerships (Problem-Solving at City Scale) Universities can partner directly with municipalities to tackle urban issues. By aligning multidisciplinary courses with local problem briefs, students contribute research, solutions, and open data that benefit both communities and academia. Example: Project Cities, part of ASU's Global Futures Laboratory, connects students and faculty with city governments to address sustainability challenges.

5. Evidence-Based Dialogue (From Opinions to Understanding) Healthy civil societies depend on dialogue grounded in evidence. Schools and universities can host regular "Decision Lab" evenings where students, educators, and citizens interpret data together and explore policy options. Students can be trained as facilitators in respectful, neutral discussion. Example: ASU's Decision Theater uses interactive dashboards to support data-informed public dialogue.

Adapting for Local Contexts The ideas above are adaptable to different contexts, including Uzbekistan. The emphasis is on skills, service, and dialogue rather than politics. Universities can act as conveners, schools as laboratories of participation, and teachers as daily role models of fairness and inclusion. The aim is to keep the focus on useful learning and community benefit. A One-Year Roadmap any campus or school system can use: - Quarter 1: Launch a Media-Smart Week and train a cohort of student mentors. - Quarter 2: Pilot participatory budgeting (PB) in two or three schools with a small budget and clear rules. - Quarter 3: Introduce a service-learning challenge (EPICS-style) with local NGOs or municipal departments. - Quarter 4: Hold two public "Decision Lab" dialogues using simple, transparent datasets and publish a short outcomes brief. Throughout: Build a city–university partnership and align courses to one shared problem.

Conclusion: Protecting democracy and strengthening civil society is not only a matter of policy. It is a matter of practice—millions of classroom interactions, projects, and dialogues that build trust and competence. The most reliable path is also the most familiar to educators: teach people to verify, to participate, to serve, to collaborate with communities, and to interpret evidence together. If we do that

well, the next generation will carry civil society forward with confidence and hope.

For Uzbekistan and for AUT, this means embracing our students' vitality and linking their education with real contributions to their communities. This shared conviction guides our work as academic leaders: to make sure that our organizations not only teach knowledge but also nurture responsibility, fairness, and civic courage in every learner.

References and Further Reading - ASU Charter. Arizona State University. https://www.asu.edu/about/charter-mission

- OECD — Learning Compass 2030. https://www.oecd.org/education/2030-project/learningcompass-2030/

- UNESCO — Global Citizenship Education (GCED). https://www.unesco.org/en/globalcitizenship-peace-education/need-know

- UNESCO — Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000225606

- Council of Europe — Digital Citizenship Education (DCE). https://www.coe.int/en/web/education/digital-citizenship-education

- News Co/Lab, Walter Cronkite School of Journalism and Mass Communication. https://newscollab.org/

- EPICS (Engineering Projects in Community Service), Arizona State University. https://epics.engineering.asu.edu/

- Project Cities, Global Futures Laboratory, ASU. https://global-futures.asu.edu/project-cities/

- Decision Theater, Arizona State University. https://dt.asu.edu/

- Center for the Future of Arizona — School Participatory Budgeting (SPB). https://www.arizonafuture.org/programs/education-programs/school-participatorybudgeting-in-arizona/

ASU News (President's Medal 2021): https://news.asu.edu/20210325-arizona-impact-participatory-budgeting-program-receivespresidents-medal

ASU News (10-year milestone 2023): https://news.asu.edu/20230516-asu-school-participatory-budgeting-program-celebrates-10-years

- Finland — media literacy and disinformation education examples. https://finland.fi/lifesociety/educated-decisions-finnish-me-

dia-literacy-deters-disinformation/

- Taiwan — vTaiwan and civic tech participation. https://info.vtaiwan.tw/

- Carnegie Elective Classification for Community Engagement. https://carnegieclassifications.acenet.edu/elective-classifications/community-engagement/

- Talloires Network of Engaged Universities. https://talloiresnetwork.tufts.edu/

- Stanford History Education Group — Civic Online Reasoning (COR) research and curriculum. https://cor.inquirygroup.org/

Stanford Graduate School of Education news: https://ed.stanford.edu/news/stanford-researchers-find-students-have-trouble-judging-credibility-information-online

- Frontiers in Education (2025). Meta-analysis on service-learning outcomes. https://www.frontiersin.org/journals/education/articles/10.3389/feduc.2025.1525176/pdf

- Yorio, P., & Ye, F. (2012). A meta-analysis on the effects of service-learning on students. Academy of Management Learning & Education. https://doi.org/10.5465/amle.2010.0020

- Warren, J. (2012). Service-learning research review. Educational Research Review. https://eric.ed.gov/?id=EJ963895

- UNESCO. (2025). Building Media and Information Literacy for a Resilient Uzbekistan. https://www.unesco.org/en/articles/building-media-and-information-literacy-resilientuzbekistan

- European External Action Service. (2025). EU-supported Media School in Uzbekistan. https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/fact-checking-critical-thinking-medialiteracy-what-will-be-taught-new-media-school_en

- OSCE. (2025). Youth Media Literacy Training in Urgench. https://www.osce.org/projectcoordinator-in-uzbekistan/596521

- UNESCO. (2025). Building an Informed Society: AIM Program Progress in Uzbekistan. https://www.unesco.org/en/articles/building-informed-society-unescos-media-programuzbekistan-shows-tangible-progress

- UNESCO. (2025). Strengthening Freedom of Expression and Access to Information – Regional Training in Samarkand.

https://www.unesco.org/en/articles/strengtheningfreedom-expression-and-access-information-regional-trainings-kick-samarkand.

Abdijalil TO‘RAYEV,
mustaqil tadqiqotchi, siyosiy fanlar magistri
E-mail: **turayevabdijalil@gmail.com**
Telefon: (+99897) 769 89 19

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI NAZARIYASINING ILMIY-AMALIY EVOLYUTSIYASI HAQIDA

“Mamlakatning har tomonlama gullab-yashnashiga faqat kuchli va adolatli fuqarolik jamiyati sharoitida erishish mumkin.”[1]

Sh.M. Mirziyoyev

► ***Annotatsiya.*** *Maqolada fuqarolik jamiyati uning institutlari tushunchalarining ilmiy-nazariy asoslari evolyutsiyasi yoritiladi. Shuningdek, murakkab geosiyosiy muammolar, xalqaro huquq me’yorlaridan chekinish va ishonch inqirozi bilan bog‘liq global trendlar sharoitida milliy fuqarolik jamiyati konsepsiyalari va modellari shakllantirilayotganda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *fuqarolik jamiyati; ijtimoiy shartnoma; umumiy iroda; vositachi (mediatsion) institutlar; demokratiya; ijtimoiy muloqot; ijtimoiy audit.*

► ***Аннотация.*** *В статье рассматривается эволюция научно-теоретических оснований понятий «гражданское общество» и его институты. Также освещаются аспекты, требующие особого внимания при формировании национальных концепций и моделей гражданского общества в условиях сложных геополитических вызовов, отступления от норм международного права и кризиса доверия как ключевых глобальных трендов.*

Ключевые слова: *гражданское общество; общественный договор; общая воля; посредничающие институты; демократия; социальный диалог; общественный аудит; краудсорсинг; кооптация.*

► ***Abstract.*** *The article examines the evolution of the scholarly and*

theoretical foundations of the concepts of civil society and its institutions. It also outlines the key considerations for shaping national concepts and models of civil society amid complex geopolitical challenges— including departures from international legal norms and a crisis of trust— that define today's global trends.

Keywords: *civil society; social contract; general will; mediating institutions; democracy; social dialogue; social audit; crowdsourcing; co-optation.*

Insoniyat o‘zining tarixiy taraqqiyoti davomida ideal jamiyat va davlatning ilmiy-nazariy asoslari va institutlarini shakllantirishga, uning mazmun va mohiyatini tushunishga, muammolarini tadqiq va tahlil qilishga urinib kelmoqda.

Kishilik jamiyatining antik davrlaridan boshlab adolatli va farovon jamiyatni shakllantirishning ilmiy-nazariy qarashlarida zamonaviy ma’nodagi “fuqarolik jamiyati” (*civil society*) ilmiy tushunchasi qo‘llanilmagan bo‘lsada, ammo uning ilmiy-nazariy va amaliy “urug”lari ekilgan.

Insonning “ijtimoiy mavjudot”ligi, mohiyatida umumiy farovonlik, xavfsizlik va taqsimotda adolatni o‘rnatish kabi tabiiy ehtiyojlarga asoslangan ijtimoiy munosabati jamiyatni yuzaga keltirgani”[2] ta’kidlanadi.

Qadimgi yunonlarning “polis” yoki “rolitea”, rimliklar esa “respublica” yoki “societas civilis” talqini nazariy jihatdan “fuqarolik jamoalarining davlat bilan birlashishi” sifatida qaralgan hamda fuqarolik jamiyatining fenomeni ilmiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Idealizm, realistik va huquqiy naturalizm asosida davlat fuqarolik jamiyatining mahsuli ekani, “fuqarolik jamiyati”, “siyosiy hamjamiyat” va “davlat” tushunchasiga o‘zaro sinonim atamalar sifatida qaraldi.

Fuqarolik jamiyati atamasining ilmiy evolyutsiyasida “fuqaro, oila, qishloq va polis – tabiiy taraqqiyoti”[3] zanjiri asosida talqin qilindi.

Keyinchalik kasb gildiyalari, diniy uyushmalar – cherkovlar, masjidlar kabi nomustaqil iyerarxik jamoalar – tashkilotlar hisobiga yanada kengaydi[4].

Uyg‘onish davrida “fuqarolik jamiyati” ilmiy tushunchasida uning davlat bilan munosabatlari masalasi, ya’ni ijtimoiy-siyosiy asoslarini talqin qilish yangi bosqichga ko‘tarildi.

Mazkur jarayonga yunon va rim ilmiy qarashlari, diniy falsafa negizidagi siyosiy-huquqiy va ahloqiy ilmiy-nazariy qarashlar kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Asosiy urg‘u ijtimoiy shartnoma asosida mustaqil, shaxs huquqlari va erkinligini ta’minlovchi ijtimoiy-huquqiy maydon, ijtimoiy institutlar va munosabatlarning yig‘indisi bo‘lgan siyosiy uyushma, siyosiy hokimiyatga ta’sir ko‘rsata oladigan subyekt sifatida qarala boshlandi.

Fuqarolik jamiyati borasidagi ilmiy nazariy qarashlarda “davlat, huquq va axloqning ajralmas birligi” kabi yondashuvlar zanjiri kuchaydi.

Davlat boshqaruvida monarxiyani cheklash, konstitutsion monarxiyaning shakllanishi, “umumiy iroda” (volonté générale) va “ijtimoiy shartnoma” (contract social) asosidagi ilmiy konsepsiyalar shakllandi. Huquqlar, hukumat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi farq tushuntirib berildi.

Bugungi kungacha muhim ahamiyatga ega bo‘lgan insonlarning shaxsiy xavfsizligini ta’minlashning, mulkka, erkinlikka, adolatga (qonun ustuvorligiga) ega bo‘lishining, o‘zaro hisobdorlik g‘oyasi asos qilib olindi va ilmiy-nazariy isbotlandi. Davlat hokimiyatning bo‘linish (chegaralanish) konsepsiyasi yoki siyosiy vakolatlar taqsimoti erkinlikning asosiy sharti sifatida ilmiy nazariy qayd etildi. Bunda, “qonun chiqaruvi (parlament), ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining bir qo‘lda to‘planmasligi” “ular o‘rtasida o‘zaro muvozanatni ta’minlash va tiyib turish” tamoyillariga keng e’tibor qaratildi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab esa fuqarolik jamiyatining ijtimoiy siyosiy-asoslarining ilmiy g‘oyalarida “xalq ustunligi, davlat va hukumatning shartnomaviy munosabati, shaxsning ajralmas huquqlari konsepsiyasi” kabi ilmiy-nazariy qarashlar yanada chuqurlashdi. Unga siyosiy hokimiyat uchun kurash maydoni, davlat, hukumat, politsiya, armiya va kabi zo‘ravonlik mexanizmlariga ega bo‘lgan “siyosiy jamiyat” bilan maktab, cherkov, matbuot, turli

uyushmalar, o‘rta institutlar faoliyati va rozilik yaratish vositalaridan iborat “fuqarolik jamiyati institutlari” ning birligi sifatida qarala boshlandi. Fuqarolik jamiyati bilan huquqiy demokratik davlatning hamda siyosiy muloqotning o‘zaro bog‘liqligi, turli ijtimoiy guruhlar hamda manfaatlar fuqarolik jamiyati orqaligina siyosiy jarayonga qo‘shilishi ilmiy-amaliy tahlil qilindi.

Fuqarolik jamiyati insonlarning ijtimoiy, tabiiy, moddiy, ma’naviy hamda siyosiy ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga qaratilgan maydon, institutlar to‘plami va jamiyatning roziligini ta’minlashning mexanizmi sifatida tushuntirila boshlandi. O‘zaro hamkorlik, mehr-shafqat, tenglik, o‘zini ifoda etish, sekulyarlik, aql-zakovat, inson qadrini ta’minlash va avtoritarizmga qarshi kurash mohiyatiga ega bo‘ldi. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari umumiy farovonlikni ta’minlash, erkin iqtisodiy munosabatlar va xususiy mulk negizidagi bozor iqtisodiyoti tarzida ko‘rildi.

Bunda, “bozor iqtisodiyoti”ning egoistik manfaatini “ko‘rinmas qo‘l”-“talab va taklif” va “raqobat” qonunlari bilan tabiiy tartibga solish[5], davlat esa o‘z vaqtida jamiyatda iqtisodiy talabni, taklifni va raqobatni qonuniy rag‘batlantira bilishi zarurligi ta’kidlandi.

Xususiy mulk insonning shaxsiy erkinligini ta’minlashning asosiy omili, uni himoya qilish davlat va uning organlarini asosiy vazifasi ekanligi ilmiy-nazariy isbotlandi. Bunda, davlat hokimiyatining iqtisodiy faoliyatini cheklash (laissez-faire), shaxsiy manfaat va huquq ustuvorligini kuchaytirish, mulk huquqi, erkin savdo va mehnat, iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish, uyushma erkinliklarini ta’minlash kabilarga asosiy urg‘u berildi.

Uning bazasida ijtimoiy ziddiyatlar va iqtisodiy tengsizlikni oldini olishi, fuqarolarning davlatga ishonchi ortishi, davlatga qarshi chiqishi ehtimoli pasayishi bilan bog‘liq masalalar ilmiy-nazariy va amaliy tasdiqlandi. Davlatning asosiy funksiyasi huquqiy tizim va siyosiy (demokratik) institutlar orqali umumiy iroda ifodalovchisi – arbitri bo‘lishi ta’kidlandi[6].

Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-ma’naviy asoslari – tarixiy an’analar, qadriyatlar, oilaviy munosabatlar, huquqiy normalar, axloqiy nazorat qilishning ijtimoiy tuzilmasi sifatida ilmiy-nazariy tasniflandi.

Fuqarolik jamiyati “o‘tgan, hozirgi va kelajak avlodlar o‘rtasida-

gi uzluksiz va muqaddas shartnoma”ni rivojlantirish, ajdodlarning tajribasiga, saboqlariga suyanishi, hozirgi avlodning farovonligini ta’minlashi, kelajak avlodlarga mas’uliyatni yuklashi qayd qilindi.

Fuqarolik jamiyati umumiy ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiy manfaat va ijtimoiy mas’uliyat asosida yashaydigan ijtimoiy tuzilma ekanligi, unga tartib va iyerarxiya hamda institutlar, an’analar va majburiyatlar ustuvorligi zarur bo‘lib, individual erkinlik cheklanishi mumkinligi ta’kidlandi.

Shunga ko‘ra, yuksak ong, yaxshilik, mas’uliyat va adolat kabi axloqiy qadriyatlar, avlodlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik “merosiy jamiyat” kabi tamoyillar fuqarolik jamiyatini harakatlantiruvchi kuchi, barqarorligi va erkinligining, ma’naviy qiyofasining asosiy poydevori ekanligi ilmiy-nazariy belgilandi.

Bunda, oila – shaxs ongining asosiy axloqiy maktabi, fuqarolik jamiyati a’zosini yetishtirib beruvchi eng birinchi institut ekanligi, inson – oila, jamiyat va davlat kabi ijtimoiy muhitda to‘liq rivojlanishi ilmiy asoslantirildi.

An’analar, qadriyatlar va oilaviy munosabatlarga asoslangan fuqarolik jamiyati davlatning evolyutsion (tabiiy) rivojlanishida muhim o‘rin tutishi ta’kidlandi. Mazkur jarayonda din ma’naviy nazorat va jamoaviy axloq manbai, an’anaviy institutlarni davlat va shaxs o‘rtasidagi bog‘lovchi vositalar sifatida ko‘rildi. Ilk bor fuqarolik jamiyati inson haq-huquqlarini rivojlantirish makoni hamda uning institutlari muloqot maydoni sifatida talqin etila boshladi.

Yuqorida qayd qilingan ilmiy-nazariy qarashlar fuqarolik jamiyatida “inson huquqlari”ni mutloqlashtirgan ratsionalistlarning qarashlaridan tubdan farqli hisoblanadi. Umuman, kishilik jamiyati o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida fuqarolik jamiyati asoslarining liberal-demokratik nazariyalari, huquqiy davlat va mafkuraviy gegemoniyaga qarshi turish konsepsiyasi kabi ilmiy amaliy qarashlarni shakllantirdi hamda fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy asoslarini yaratdi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining ilmiy-nazariy mazmuni

Fuqarolik jamiyatining ilmiy nazariy asoslarini tahlil qilar ekansiz, fuqarolik jamiyatining vujudga kelish asoslari eng birinchi navbatda uning institutlari bilan bog‘liq bo‘lganligiga guvoh bo‘lasiz.

Fuqarolik jamiyatining asoslarini belgilovchi mezonlari kengayib, insonning moddiy, ma’naviy va ruhiy ehtiyojlari, mustaqilligi, erkinligi tanlov huquqi kabilar fuqarolik jamiyatining poydevoriga kiritildi.

Anarxiyadan farqli o‘laroq aqlli demokratiya, konstruktiv ommaviy muloqot va muhokama maydoni fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining qonuniyligini ta’minlovchi asosiy mezonligi ilmiy asoslandi.

Ayniqsa, E. Byork an’analar, institutsional barqarorlik hamda jamoaviy ong asosidagi fuqarolik jamiyati modelini ilgari surdi. Bunda, “o‘rta darajadagi institutlar” (intermediate institutions) konsepsiyasi[7] – eng sodda tilda “vositachi institutlar”, “bog‘lovchi bo‘g‘in” konsepsiyasi, fuqarolik jamiyatini esa “vositachi institutlar yig‘indisi” deb qaraldi.

XIX asrda Aleksis de Tokvil Amerika jamiyatida fuqarolar ixtiyoriy tashkilotlarga faol jalb etilganini kuzatgani, ularni shaxsning davlatdan mustaqil himoyachisi va demokratik madaniyatni rivojlantirish kuchi sifatida ta’kidlagan. Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining himoya qilish, ijtimoiy vakolat, birlashtirish, ma’rifat funksiyasidan iborat bo‘lgan 4 ta asosiy funksiyani AQSH misolida ilmiy-nazariy asosladi.

A.Tokvilning ilmiy nazariy qarashlariga ko‘ra, birinchidan, Amerika liberal jamiyatida fuqarolik jamiyati institutlari shaxs erkinligini davlat yoki bozorning ortiqcha bosimidan himoya qiladi. Ikkinchidan, shaxsning manfaatlarini ommaviy tarzda ifoda etadi hamda davlat va jamiyat o‘rtasida muloqot platformasi bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, insonlarni umumiy qadriyatlar asosida uyushtiradi hamda davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga o‘rgatadigan ijtimoiy maktab vazifasini bajaradi.

To‘rtinchidan, ishtirokchilarida (a’zolarida) demokratik madaniyat, ijtimoiy mas’uliyat va ishtirokchilik ko‘nikmalarni yuksaltiradi. Natijada, fuqarolik jamiyati institutlariga bo‘lgan ilmiy-nazariy qarashlar siyosiy erkinlik, inson faoliyati[8], fuqarolik jamiyatining neytralligi, nazorat va neoliberalizm bilan bog‘liqlik, erkin subyektlar yaratish vositasi sifatida shakllanadi[9].

XX asrda fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasining ilmiy-nazariy qarashlar takomillashuvi jarayonlari kuchaydi, fuqarolik jamiyati institutlari tasniflana boshladi. Piter Berger va Richard Noxaus

(1977 y.) “o‘rta institutlar” atamasini tushunchasini ilk bor aniq shaklda ilgari surdi. Unga ko‘ra, “o‘rta institutlar” inson shaxsini davlatning byurokratik bosimidan himoya qiladi, ijtimoiy birdamlikni shakllantiradi, qadriyatlar va ma’naviy normalarni avloddan avlodga yetkazishda vositachilik qiladi.

Charlz Margreyv Teylorning “to‘g‘ridan-to‘g‘ri demokratiya” konsepsiyasida “o‘rta institutlar” insonlarning ma’naviy va madaniy o‘zini ifoda qilish makoni sifatida ko‘radi[10]. Ayniqsa, NNTning roli va ijtimoiy institutlar qadriyatlarni mustahkamlashdagi ahamiyati, ularning davlat hamda jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarining ilmiy asoslarida muhim manba sifatida qolmoqda. Ch.Teylorning “tan olish siyosati” (politics of recognition) konsepsiyasi fuqarolik jamiyatining markaziy masalasi bo‘lib, har bir ijtimoiy guruh, madaniyat yoki shaxsning qadr-qimmati, ahamiyati tan olinishini ta’kidlaydi. Aks holda ijtimoiy muvozanat buzilishidan va “liberal individualizm” kasalligidan himoya qilishini ko‘rsatib beradi. Uning fikricha, “haqiqiy fuqarolik jamiyati, faqat barcha guruhlar va shaxslar teng qadrlanganda vujudga keladi”, deb hisoblaydi. Uning ilmiy-nazariy qarashi zamonaviy multikulturalizm, ijtimoiy adolat va inklyuziv fuqarolik jamiyati g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi.

Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati institutlari tushunchalarining ilmiy-nazariy mohiyati neoliberal, neomarksistik va neoinstitutsionalizm ilmiy-nazariy qarashlar doirasida yanada kuchaydi.

Neoliberal (Yurgen Xabermas) ilmiy-nazariy qarashlarda fuqarolik jamiyatining institutlari “ommaviy muhokama” vositasi, davlat qarorlarini shakllantirishda ishtirokchi sifatida qayd etildi.

Neoinstitutsionalizm (Robert Patnem) “ijtimoiy vositachilik (kapital)” konsepsiyasida “o‘rta institutlar” fuqarolik jamiyatini institutsional shaklda ifoda etuvchi, davlat va shaxs o‘rtasida ijtimoiy vositachilik qiladigan tuzilmalar hisoblanadi.

Neomarksizm ilmiy-nazariy qarashlariga ko‘ra, fuqarolik jamiyati institutlari mafkuraviy gegemoniyani ta’minlashning asosiy vositasi (instituti) bo‘lib xizmat qilishi ta’kidlandi.

Unga ko‘ra, ziyolilar uyushmalari, ta’lim tizimi, madaniyat muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari mafkuraviy hokimiyat uchun kurash maydonining quroli,

fuqarolar va jamiyatning davlatdan roziligini, ijtimoiy muvozanatni (barqorорlikni) ta’minlash vositasi sifatida qaraladi.

Qayd etilganlardan kelib chiqib, ilmiy-nazariy jihatdan fuqarolik jamiyati institutlarining funksiyalarini tasniflash mumkin bo‘ladi. Jumladan, liberal-demokratiya g‘oyalarida “o‘rta institutlar” davlat hokimiyatining cheklanishi, shaxs erkinligini davlatdan himoya qilish, inson huquqlarining daxlsizligini ta’minlash vositasi hisoblandi;

Respublikancha yondashuvda “o‘rta institutlar” huquqiy davlatning faoliyatini to‘ldiruvchi institutsional tushuncha ekanligi, ular inson huquqlari va erkinliklarini konstitutsiyaviy huquq ustuvorligi orqali himoya qilishni, fuqarolar davlat va jamiyat ishlarida faol ishtirok etishining “ijtimoiy maktabi” sifatida qaraladi;

Funksional yondashuvga ko‘ra, “o‘rta institutlar” davlat va jamiyatning erkin muloqot platformasi (maydoni) bo‘lib, insonlar o‘z fikri, e’tiqodi va huquqlarini erkin ifodalashi va himoya qilishi, ijtimoiy munosabatlarda o‘zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlash, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini kuchaytirish mexanizmi hisoblanadi.

Demak, “fuqarolik jamiyati institutlari” ilmiy-nazariy tushunchasi bu shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasida ixtiyoriy tashkil etilgan va mustaqil faoliyat yuritadigan ijtimoiy-siyosiy institutlar hisoblanadi. Ular jamiyatda ijtimoiy audit va dialog, plyuralizm, o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini ta’minlash kabi qator funksiyalarni bajaradi.

Umuman, bugungi siyosiy, huquqiy va falsafiy ilmiy qarashlarda fuqarolik jamiyati institutlari – nafaqat davlatdan mustaqil faoliyat yurituvchi faol kuch, balki demokratiyani ta’minlovchi, jamiyat manfaatlarini ifoda etuvchi, erkin va ixtiyoriy tashkil etilgan institutlar majmuasi sifatida ham ko‘riladi. Ular muayyan qadriyatlar va madaniyatga asoslangan murakkab ichki tuzilishga ega bo‘ladi.

Shu bilan birga, globalizm sharoitida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati raqamlashgan virtual muhitga ko‘chishi jarayoni yangi tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Uning natijasida Web-virtual yoki Ye-NNTlar, on-layn nashrlar, kraudsorsing[11] va onlayn muhokama platformalari, shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasida raqamli inter-

feyslar, davlat kooptatsiyasi [12], algoritmlar orqali manipulyatsiya qilish jarayonlari yuzaga kelmoqda

Mazkur sharoitda davlat kooptatsiyasini qo‘llash tenedensiyasining kuchayishi[13] inson huquq va erkinliklariga teskari proporsional bo‘lib, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini keskin chegaralashga yoki ular faoliyatini “dekoratsiya”siga olib kelishi mumkin. Global trendlar sharoitida milliy fuqarolik jamiyati konsepsiyalari va modellarini shakllantirishda elektron demokratiya mexanizmlarini, kraudsorsing hamda virtual fuqarolik muhokamalari kabi mexanizm hamda vositalarni qo‘llashni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ш.М.Мирзиёев: Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. “O`zbekiston” нашриёти. 2023 й. 93-бет.

2. Фалсафа асослари. (Тузувчи ва масъул муҳаррир: Қ.Назаров). – Т., “O`zbekiston” нашриёти. 2005. – 384 б.

3. Ўша ерда.

4. Фалсафа асослари. (Тузувчи ва масъул муҳаррир: Қ.Назаров). – Т., “O`zbekiston” нашриёти. 2005. – 384 б.

5. Зинченко Г.А. Объективность чувственного знания: Локк, Беркли и проблема «вторичных» качеств // Философские науки. — 1985. — № 4. — С. 98-109.

6. Людвиг Андреас Фейербах. Сочинения. В 2 т. – Москва:, Наука 1995.

7. Грамши А. Избранные произведения: Т. 1—3. — М.: Изд. иностранной литературы, 1957—59.

8. Jürgen Habermas “The Structural Transformation of the Public Sphere” Бонн., 1962.-324.

9. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов [пер. с англ. П. Н. Клюкина]. — М.: Эксмо, 2016. — 1056 с.

10. Искандаров.Ш.А. Фуқаролик жамияти: ғоя ва назариялар. Тошкент., - 2018 144.б.

11. Токвиль А. Старый порядок и революция. — СПб.: Алетейя, 2008. — С. 151.

12. Мишель Фуко. Интеллектуалы и власть: Избранные политические статьи, выступления и интервью / Пер. с франц.

Б. М. Скуратова под общей ред. В. П. Большакова. — Праксис. — Москва: Праксис, 2006.

13. Тейлор Ч. Секулярный век / пер. с англ.. — М.: ББИ, 2017. — 967 с.

Shuxrat BAFAYEV,
Demokratik jarayenlarni tahlil qilish markazi
Toshkent shahar hududiy bo‘linmasi rahbari
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MAHALLA – ERKIN, OCHIQ VA ZAMONAVIY FUQAROLIK JAMIYATI

► ***Annotatsiya:*** *So‘nggi yillarda O‘zbekistonda mahalla institutini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. 2023-yilgi Konstitutsiyaviy islohotlar mahallaning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi maqomini mustahkamladi. Prezident tashabbuslari asosida “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “temir daftar” va “mahallabay ishlash” tizimlari joriy qilindi. Ushbu islohotlar aholining muammolarini joyida hal qilish, fuqarolarni iqtisodiy faoliyatga jalb etish va jamiyat boshqaruvida ishtirokini kengaytirishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mahalla, fuqarolik jamiyati, Konstitutsiya, temir daftar, obod qishloq, obod mahalla, tadbirkorlik, islohot.*

Аннотатсия: *В последние годы в Узбекистане укрепление института махалли стало приоритетом государственной политики. Конституцсионные реформы 2023 года закрепили статус махалли как важнейшего института гражданского общества. Инитсиативы Президента включают программы “Обод қишлоқ”, “Обод махалла”, систему “железная тетрад” и механизм “махаллинский подход”. Эти меры направлены на решение сотсиалных проблем на местах, сокращение бедности и расширение участия граждан в управлении обществом..*

Ключевые слова: *Махалля, гражданское общество, Конституцсия, железная тетрад, Обод махалла, Обод кишлок, предпринимателство, реформы.*

► ***Annotation:*** *In recent years, strengthening the mahalla institution has become a key priority of Uzbekistan’s state policy. The 2023 consti-*

tutional reforms elevated mahalla as a central institution of civil society. Presidential initiatives introduced the "Obod Qishloq" and "Obod Mahalla" programs, the "Iron Notebook" system, and the "mahalla-based approach." These reforms aim to address community-level problems, promote entrepreneurship, reduce poverty, and expand citizen participation in governance.

Keywords: *Mahalla, civil society, Constitution, Iron Notebook, Obod Qishloq, Obod Mahalla, entrepreneurship, reforms.*

So‘nggi yillarda yurtimizda O‘zbekistonda mahalla institutini jamiyat boshqaruv tizimida yanada mavqeini kuchaytirish, uning institutsional asoslarini takomillashtirish va shu orqali chinakam xalq manfaatini ko‘zlaydigan, aholini qiynab turgan muammolarini mustaqil ravishda o‘zi hal eta oladigan, davlat organlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o‘rnatishga qurbi yetadigan yetakchi fuqarolik jamiyati institutiga aylantirish davlat siyesatining ustuvor vazifasiga aylandi.

Mahallani mamlakatimizdagi fuqarolik jamiyati institutlari orasida eng yirik va tarixga boy institut sifatida gapirar ekanmiz, avvalam bor uning konstitsiyaviy maqomi to‘g‘risida aytib o‘tishimiz lozimdir.

Ma’lumki, O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, ilk bor 1993-yilda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinib, keyinchalik, ya’ni 1999-yil va 2013-yilda mazkur Qonunga tegishli ko‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilib, mahalla fuqarolar yig‘inlarining faoliyati ancha takomillashtirildi.

Garchand shunday bo‘lsada, o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki ko‘pgina ilmiy izlanishlarda yillar davomida mahalla fuqarolik jamiyati instituti sifatida e’tirof etilgan bo‘lsada, biroq bu tushuncha nafaqatgina yuqorida ko‘rsatilgan qonunlarda, balkim O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xam mustahkamlanmagan edi. Holbuki, 1999-yildagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi belgilangan bo‘lsada, biroq bu huquqiy norma xam O‘zbekiston Konstitutsiyasida aks ettirilmagan edi[1].

2023-yil 30-aprel kuni yurtimizda o‘tkazilgan umumxalq referendumi yakuni bo‘yicha qabul qilingan yangi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mahallani mamlakatdagi yirik fuqarolik jamiyati instituti sifatida islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, jamiyat boshqaruvi va nazoratning birinchi bo‘g‘iniga aylantirish maqsadida uning maqomi darajasiga ko‘tarildi.

Jumladan, yangi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 69-moddasiga asosan endilikda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari kabi fuqarolik jamiyati instituti sifatida e’tirof etildi. Shu bilan birga O‘zbekiston Konstitutsiyasining mahalliy davlat hokimiyati asoslariga bag‘ishlangan XXI bobga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida tushuncha ham kiritildi[2].

Shunga asosan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o‘ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek, milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan xolda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli ekanligi Konstitutsiyaning 127-moddasida mustahkamlab qo‘yildi.

Mahallani chinakam demokratik institutga aylantirish, mahallada istiqomat qilayotgan fuqarolarni islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish borasida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mahalla qaratib bildirgan fikrlarini ko‘rsatib o‘tish lozim deb hisoblaymiz.

Jumladan, O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Miriziyoyev 2023-yil 8-may kuni Oliy Majlis palatalari a’zolari, siyosiy partiyalar va jamoatchilik vakillari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda “Yangilangan Konstitutsiyamiz Uchinchi renessansni barpo etish yo‘lida mustahkam huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi” deb nomlangan nutqlarida **“Mening eng katta niyatim – odamlarni qiynayotgan muammolarni mahallaning o‘zi yechadigan xalqchil tizim yaratishdir”,** deb alohida ko‘rsatib o‘tgan edilar[3].

Darhaqiqat, tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki aynan 2018-yildan boshlab mahallani xalqchil tizimga yaratishga kirishildi.

Jumladan, dastalb 2018-yilda O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining Farmonlari bilan “Obod qishloq”[4] va “Obod mahalla”[5] dasturlari qabul qilindi.

Mazkur dasturlar doirasida yurtimizdagi qishloq va mahallalarni obodonlashtirish, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash, gaz va elektr tarmoqlarini yangilatish, bog‘cha va maktablarni qurish, ushbu xududlarning me’moriy qiyefasini yaxshilash kabi ko‘pgina ijtimoiy masalalar bosqichma bosqich o‘z yechimini topa boshladi.

Shu bilan birgalikda qishloq va mahallalarda bunedkorlik ishlari bilan birgalikda fuqarolar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotni tashkil etish, aholini qiynab kelayetgan ijtimoiy masalalarni hal etish, bu borada davlat organlari bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish maqsadida 2019-yilda “Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[6] hamda “Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari qabul qilindi[7].

Mahallada istiqomat qilib kelayetgan va qambag‘allik darajasiga tushib qolgan aholini tadbirkorlikka jalb etish, aholining real daromadlarini shakllantirish masalasi davlatning navbatdagi ustuvor vazifasi bo‘lib, bu masalaga alohida e’tibor qaratildi.

Ayni paytda aholining muayyan qatlami o‘rtasida qambag‘allik qisqartirish bo‘yicha olib borilgan keng qamrovli ishlar natijasida har bir mahallada ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi – “temir daftar” tizimi joriy etildi.

Shu bilan birgalikda, o‘zini o‘zi band qilgan aholi uchun soliq imtiyozlari berilishi hamda ko‘pgina cheklovlarning bekor qilinishi tufayli yuz minglab fuqarolar mehnat faoliyatini qonuniy tarzda yo‘lga qo‘ydi. Qambag‘allikni bartaraf etish, davlat ko‘magiga muhtoj fuqarolarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Ijtimoy reestr” joriy etish orqali “temir daftar”dagi barcha ma’lumotlar qamrab olindi hamda ehtiyejmand oilalarga ijtimoiy xizmalar elektron shaklda ko‘rsata boshlandi.

Shu bilan birga 2021-yilda “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va qambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabr kuni

№ PF-29 – sonli Farmoni qabul qilindi[8]. Farmon bilan aholining tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga moliyaviy ko‘maklashish, mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi lavozimi ta’sis etildi.

Xususan har bitta oilada tadbirkorlik muhitini shakllantirish, maqsadida “Xududlarda “mahallabay” ishlash asosida oilaiviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining doimiy daromad manbalarini ko‘paytirish orqali qambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yilgi Qarori qabul qilindi. Unda xududlarda “mahallabay” ishlash tizimini tashkil etish orqali ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan mahallalar bilan manzilli ishlab, “o‘sish nuqtalari”ni hayotga tatbiq etish, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining daromadi va xarid qobiliyatini oshirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvar PF-60-son Farmoni mahalla tizimining institutsional asoslarini yanada takomillashtirishga katta turtki berdi[9].

Jumladan, mazkur farmonning birinchi ustuvor yo‘nalishi Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlt barpo etish deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi maqsadi aynan mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish qaratilgan.

Mazkur maqsad fuqarolarning o‘z mahallasi hayotidagi ishtirokini hamda davlat organlari va mahallalar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani ta’minlash, mahalladan turib barcha davlat idoralariga murojaat qilish tizimini yaratish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko‘rsatish, mahallalarning “o‘sish nuqtalari” va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirishga qaratilgan. Hozirgi kunda ushbu isloxotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birgalikda mahallani Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, mahallaning institutsional asoslarini asoslarini yanada takomillashtirish, jamiyat boshqaruvi tizimida mahallani nufuzini oshirish maqsadida:

- davlat organlari va mahalla o‘rtasida har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarini birlashtiruvchi zamonaviy, hamda ochiq-oshkora maydon sifatida ularning yuqori darajadagi tizimli va samarali muloqotini qo‘yish;
- davlat organlarining mahalla bilan samarali hamkorligining zamonaviy mexanizmlarini, ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish choralarini joriy qilish;
- mahallaning tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy-moliyaviy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, uning jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish borasida qonunchilikni takomillashtirish;
- mahallada ishlayetgan malakali va tashabbuskor kadrlarni davlat idoralari rahbarlik lavozimlariga tavsiya yutish tizimini yaratish;
- mahalla raisiga mahalliy Kengash majlisida majburiy bo‘lgan masalalarni kiritish, hokimlar, ularning o‘rinbosarlari va maslahatchilarining vakolat chegarasi, vazifa va funksiyalarini aniq belgilash orqali yangi tahrirda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 5-son, 110-modda; 2003-y., 9–10-son, 149-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 37-son, 408-modda; 51-son, 514-modda; 2007-y., 39-son, 399-modda; 2008-y., 16-son, 117-modda; 52-son, 513-modda; 2010-y., 37-son, 313-modda

2. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

3. https://president.uz/uz/lists/view/6277

4. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.03.2018-y., 06/18/5386/0979-son)

5. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.06.2018-y., 06/18/5467/1412-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.04.2025-y., 06/25/70/0375-son)

6. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.01.2019-y., 06/19/5633/2496-son, 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son)

7. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.04.2019-y., 06/19/5700/2875-son; 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-son

8. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2021-yil 3-dekabr

9. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son; 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son; 28.12.2024-y., 06/24/227/1089-son; 01.03.2025-y., 06/25/27/0196-son; 20.05.2025-y., 06/25/87/0451-son; 08.08.2025-y., 06/25/126/0704-son

Asadullo Olimjon o‘g‘li XASANOV,
O‘zFA Tarix instituti tayanch doktoranti
Tel: +99894-501-73-38
xasanovasadullo7@gmail.com

TURKISTONDAGI ILK SIYOSIY UYUSHMA – “SHO‘ROYI ISLOM” JAMIYATI TARIXIGA BIR NAZAR

► ***Annotatsiya:*** *Turkiston ozodlik kurashida jadidlarining milliy siyosiy uyushma va tashkilotlarning alohida o‘rni mavjud. Shu ma’noda jadidlar tomonidan tuzilgan ilk siyosiy uyushma “Sho‘royi islom” jamiyatining tuzilish jarayonidan tortib butun faoliyatini keng tahlil qilmasdan tariximizning 1917 yilgi qizg‘in siyosiy voqealariga baho berish mumkin emas. Maqolada yuqoridagi ilmiy masalaga turli manba va adabiyotlar yordamida javob izlanib keng qamrovli tahlil amalga oshirilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Sho‘royi islom” jamiyati, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jaev, Turkiston muxtoriyati, Umumturkiston musulmonlari qurultoyi.*

Аннотация: *В освободительной борьбе Туркестана особое место занимают национальные политические объединения и организация джадидов. В этом смысле невозможно дать оценку активным политическим событиям 1917 года в нашей истории без всестороннего анализа деятельности первого политического объединения «Шурои ислом», созданного джадидами, начиная с процесса его формирования. В статье проведен комплексный анализ и поиск ответов на выше научные вопрос с использованием различных источников и литературы.*

Ключевые слова: *общество «Шурои ислом», Мунаввар Кари Абдурашидханов, Убайдуллаходжа Асадуллаходжаев, Туркестанская автономия, Всетуркестанский мусульманский съезд.*

► ***Abstract:*** *In the liberation struggle of Turkestan, a special place is held by national political associations and organizations of the Jadids. In this regard, it is impossible to evaluate the active political events of 1917 in our history without a comprehensive analysis of the activities of «Shurai Islam,» the first political association created by the Jadids, starting from its formation process. This article conducts a comprehensive analysis and*

seeks answers to above scholarly question using various sources and literature.

Key words: *«Shuroi islom» society, Munavvar Kari Abdurashidkhanov, Ubaydullahoja Asadullahojaev, Turkestan Autonomy, All-Turkestan Muslim Congress.*

Manba va tadqiqotlardan ma'lum bo‘lishicha "Sho‘royi islom" jamiyatining tashkili 1917 yil mart oyining boshlariga to‘g‘ri keladi [2, 383 v., 7, 9, 62 b.]. Unga ko‘ra, Rossiya imperiyasi markazidagi o‘zgarishlar xabari Toshkentga kelar-kelmas eski shaharda jadidlarning faollashib hokimiyatni qo‘lga olish yo‘lidagi harakatlari boshlangan. 1917 yil 9 martda Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jaevlar tashabbusi bilan Toshkent eski shahar jom'e masjidida o‘tkazilgan namoyishda Toshkent shahar ijroqo‘mga jamoatchilikdan vakillar saylash hamda musulmonlarning manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy jamiyat tuzish masalasi ko‘tarib chiqilgan [5, 35 b.]. Shu yig‘inda Munavvarqori "Bu jamiyat kishilari islom kishilarining vakillaridur. Shuning uchun buning ismini "Islomning sho‘rosi" deb qo‘yish kerak. Shunda qisqaroq qilib aytmoqchi bo‘lsak "Sho‘royi islom" deb yurgizilsa bo‘ladir", deb dastlabki jamiyatga nom bergan [2, 383 v.]. 1917-yil 13-mart kuni bo‘lgan navbatdagi yig‘inda 48 (har bir dahadan 10 va to‘rt jamiyat tarafidan 8) kishilik hay'at saylangan.

Jamiyatning 14 mart kuni birinchi umumiy majlisida rasmiylashtirish jarayonlari yakunlanib 48 kishi yoniga boshqa xalq vakillaridan 13 kishi qo‘shgan holda "Toshkand Sho‘royi islomiyasi" tuzilganligi e'lon qilingan [21]. Shu kunning o‘zida 15 kishilik idora majlisi shakllantirilib, unda Abdulvohidqori Abduraufqori o‘g‘li rais va Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li rais muovini, Kattaxo‘ja Boboxo‘ja o‘g‘li sarkotib va Karimqori Kuchikboy o‘g‘li muovin, Mulla Ziyo Oxund Yo‘ldosh o‘g‘li xazinador va Abdulsamiqori Hidoyatboy o‘g‘li unga muovin etib saylanadilar [12, 23 b.]. Abdulvohidqori Abduraufqoriyevning 6-apreldagi iste'fosidan so‘ng jamiyat raisi qilib Ubaydulla Xo‘jaev saylangan. Har doimgidek uning yaqin safdoshi Munavvarqori Abdurashidxonov bilan birga ular jamiyatning bosh harakatlantiruvchi kuchiga aylanganlar.

Muftiy Sadriddinxon Sharifxo‘ja o‘g‘li jamiyat tuzish sabablarini shunday izohlagan edi: “1917 yil Rus inqilobidan foydalanib, Turkiston musulmonlarini yagona ittifoq asosida birlashtirmoq maqsadida do‘stlarim yordami bilan Toshkentda Sho‘royi islomiya tashkilotini tuzdik. Niyatimiz Turkistonda tuziladigan musulmon tashkilotlari Sho‘royi islomga oid bo‘lmoqlari edi” [3, 43 s.].

“Sho‘royi islom” jamiyati tuzilgan vaqtda hali uning nizom va dasturi ishlab chiqilmagan. Jamiyat idora majlisining 15 martda o‘tkazilgan ilk yig‘ilishida bu masala ko‘rilib, jamiyatning “keng jumhuriyat” siyosiy maslak tarafdori sifatida dastur ishlab chiqish uchun 3 kishidan iborat komissiya tuzish qarori chiqarilgan. Shuningdek, yig‘inda ta’lim islohot loyihasini tayyorlovchi komissiya tuzish, eski shahar boshqaruvini qo‘lga olish, oziq-ovqat taqchilligini bartaraf qilish uchun erkin bozor tamoyillarini joriy qilish kabi turli masalalar muhokama qilingani ma’lum [21].

1917 yil 9 aprel majlisda tasdiqlangan “Sho‘royi islom”ning faoliyat yo‘nalishlarini belgilab bergan 4 bob 30 moddalik Nizomidan ko‘rinadiki, jamiyat Turkistonda yangi boshqaruv tartibini shakllantiruvchi bosh markaz bo‘lishni asosiy maqsad qilib belgilagan [19].

Turkistonning mustamlaka qaramog‘idan chiqarib ozod davlat va jamiyat qurish uchun qulay imkoniyat va vaqt yetib kelganligi jadidlar tilidan “Sho‘royi islom” Nizomidagi *“Butun Turkiston musulmonlarini bir fikr, bir maslak sari yo‘naltirishga tadbir va harakat qilish”* jumlasi bilan ifodalangan edi. Uning negizida xalqqa mavjud siyosiy vaziyatni tushuntirish va targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish, o‘lka boshqaruviga milliy rahbarlarni olib kelish, hayotning barcha jabhasini qamrab oladigan islohot loyihalarini tayyorlash, o‘lkadagi turli millat vakillarini totuvligini ta’minlash va boshqa shu kabi vazifalar belgilab olindi [8, 13-14 b.].

“Sho‘royi islom” jamiyati o‘z maqsadiga yetishish uchun amaliy harakatlarga kirishar ekan ilk bosqichda Turkistonning turli shaharlarda o‘z sho‘balarini ochib tarqoq uyushmalarni markazlashtirish va xalqni ta’sir ostiga olishga alohida e’tibor qaratdi. 1917 yilning 8 aprel kungi jamiyat umumiy majlisida O‘sh, Andijon, Skobelev, Turkiston, O‘ratepa va Marv shaharlarida sho‘balar ochilganligi ma’lum qilinib, ularga Markaziy Sho‘roning qonun va dasturini yuborishga qaror

qilindi [8, 10 b.]. 9 aprelda Samarqandda “Sho‘royi islom” sho‘basi ochilgan bo‘lsa [13], 10 aprelda Namanganga uch kishilik vakil yuborilib jamiyat sho‘basini ochish vazifasi topshirildi [17]. Aprel oxiriga qadar Andijon uyezdining Jalaquduq va Asaka, Qo‘qon uezdining Konibodom va So‘x, Toshkent uyezdining Tilov kabi qishloq va bo‘lislarida ham jamiyat sho‘balari ochilib ishga kirishdi [6].

Jamiyatning butun o‘lka bo‘ylab yoyilishida bir-biri bilan oldindan aloqada bo‘lgan jadidlar va jamoat faollari alohida o‘rin tutganlar. Ular turli yig‘in va majlislar uyushtirib, o‘lka aholisini yagona siyosiy ittifoq asosida birlashishga hamda ozodlik va erkinlikni himoya qilishga chorlaganlar.

Shu bilan birga jamiyat “Najot” va ayni vaqtda “Sho‘royi islom” nomida gazetalar chiqarib, turli namoyishlarga vakillar yuborib, butun siyosiy vaziyatni nazorat qilishga harakat qilgan [4, 38 s.].

Jamiyat a’zolarining umumiy soni haqida aniq ma’lumotlar mavjud emas. Lekin, manbalarda qayd etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, hududlardagi sho‘balarda idora majlisi a’zolari katta shaharlarda 20, kichik qishloqlarda 15 kishi va umumiy majlis a’zolari katta shaharlarda 100, kichik hududlarda 50 kishidan ortmasligi belgilab qo‘yilgani inobatga olinsa [19], Turkiston o‘lkasining besh viloyati – Sirdaryo, Yettisuv, Farg‘ona, Samarqand va Kaspiyyorti markaziy shaharlarining o‘zida 600 ga qadar a’zo borligi anglashiladi. Birgina Avliyoota sho‘basi misolida ko‘rilsa, dastlab 39 a’zo bo‘lib, keyinchalik ularning soni 54 ga yetgan [15]. Andijonning So‘fiqishloq sho‘basida esa 20 kishi mavjud bo‘lgan [6].

Jamiyatning moliyaviy asosi hukumat va jamoat muassasalaridan olingan mablag‘lar, badavlat kishilardan olingan in’om pullar, sotilgan kitob, risola, jarida va majalla kabi matbuot ishlaridan, shuningdek, har xil pulli yig‘in va tomoshalardan tushgan daromadlardan iborat bo‘lgan [9, 71 b.]. Bu jarayonda shubhasiz xalqning qo‘llab-quvvatlovi alohida o‘rin tutgan. Qo‘qon uyezdining So‘x volostida jamiyat sho‘basini ochish uchun borgan vakillarning da’vatiga binoan aholi tomonidan 800 so‘m, Isfarada esa 6022 so‘m mablag‘ yig‘ib berilgan [10]. 1917 yil iyunda “Sho‘royi islom” jamiyati Markaziy Sho‘ro bilan birlashgan vaqtda uning hisobidagi 20 ming so‘m mablag‘ unga o‘tkazilgan [14].

“Sho‘royi islom” jamiyatining dastlabki faoliyati butun o‘lka bo‘ylab yoyilishi bilan barobar hokimiyatni asta-sekin milliy yetakchilar qo‘liga o‘tkazish jarayoni bilan birga kechdi. Xususan, Toshkent eski shahar boshlig‘i Kolesnikovning o‘rniga komissar qilib Islombek Xudoyorxonov va unga o‘rinbosar qilib Musaxon Mirzaimovning belgilanishi, Toshkent to‘rt daha politsiya tizimini tugatib, uning o‘rniga milliy muhofizlar – Shayxontohurdan Kattaxo‘ja Boboxo‘ja eshon, Sebzordan Tojixon, Ko‘kchadan Mirzaqosim, Beshyog‘ochdan Saidkamolxonlarning saylanishi [5, 35 b.] nafaqat imperiya tizimini qulatish yo‘lidagi kurashni ko‘rsatib turadi, balki Turkiston xalqining tarixiy davlatchilik tajribasidan kelib chiqib boshqaruvga qodir ekanligini ham namoyish qiladi, albatta.

“Sho‘royi islom” jamiyati faoliyatidagi eng katta yutuq 1917 yilning 16 – 23 aprel kunlari o‘tkazilgan birinchi Umumturkiston musulmonlari qurultoyi bo‘ldi. Turkistonning turli hududlaridan kelgan 200 ga yaqin vakil ishtirokidagi Qurultoy kun tartibidagi dasturlar jadidlarning uzoq yillik kurashlari mahsuli sifatida ozodlik yo‘riqnomasiga aylandi. Xususan, dasturning eng katta qismini band qilgan Turkistonning bo‘lajak davlat maqomi shunday ifodalandi:

4. Turkistonning kelajakdagi usul idorasi:

a) aholi idoralara qonun yasaydurg‘an, buyruq qiladirg‘an va hukm qiladirg‘an mahkamalar;

b) shar’iy idoralar, madrasa va avqoflar masalalari;

t) moliya masalasi;

s) maorif, milliy va madaniy masalalar, chunonchi, ibtidoiy, o‘rta va oliy maktablar, hunar maktablari, maktabg‘acha ham maktabdan tashqari va har xil ilmiy va madaniy muassasalar;

j) ahli ruhoniy idoralarg‘a saylov tartiblari;

d) eski idora muassasalari va ma’murlarini o‘zgartuv haqinda muvaqqat choralar;

z) Butun Turkiston musulmonlari ustidan qaraydirgan bir idorai islomiya va mulkiya mahkamasi ochmak [16].

Yakunda chiqarilgan qarorga ko‘ra esa “Turkiston musulmonlarining qurultoyi Rusiyaning usul idorasin “imtiyozli xalq jumhuriyati” (federativniy demoqratichiskiy respublika) asosig‘a qurulub, atrof viloyatlarg‘a keng muxtoriyat berilmog‘ini munosib ko‘radur”, edi [18].

Demak, 1917 yildan keyin jadidlar siyosiy faoliyatida zamonaviy davlatchilik borasidagi qarashlar yanada takomillashib, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud kabi hokimiyatning uchga bo‘linish prinsiplariga asoslangan demokratik tamoyildagi respublika shaklini o‘rnatish hamda mustamlaka tartiblarini butkul yo‘q qilib jamiyatning barcha sohasini tubdan isloh qilish bosh maqsad qilib belgilab olingan. Bu vazifaning nazariy va amaliy jihatlari “Sho‘royi islom” kabi milliy tuzilma orqali hal qilib borish belgilangan.

Shuningdek, ushbu jamiyat oldida turgan Muvaqqat hukumatning Turkiston qo‘mitasi, “O‘lka ishchi va askarlar sho‘rosi” kabi muassasalar bilan munosabat yuritish, majlisi muassason (Ta’sis majlisi) saylovlariga tayyorgarlik, ochlikka qarshi kurash va boshqa shu kabi bir qator masalalar muvaffaqqiyatli hal qilib borildi [11, 26 b.]. Jumladan, 1917 yil bahoridan Turkistonda boshlagan oziq-ovqat tanqisligi muammosini hal qilish uchun xalqning isrofgarchilikka sabab bo‘ladigan to‘y va janoza marosimlarini o‘tkazish tartiblari belgilab berildi [20].

“Sho‘royi islom” jamiyati saflarida turli ijtimoiy-siyosiy qarashga sohib kishilar jamlangan edi. Ularni shartli ravishda imperiya davrida ulg‘aygan yangi avlod (jadid va rus-tuzem maktabi bitiruvchilaridan tortib yangi milliy sarmoyadorlarga qadar) va xonliklar davridan qolgan mavqeyini saqlashga intilgan katta avlod (ulamolar, qozilar, yirik mulkdorlar va boshqalar) ga bo‘lish mumkin. Bu holat Turkistonning bo‘lajak boshqaruv shakli, xotin-qizlar masalasi, ta’lim islohoti va boshqa shu kabilarda umumiy fikrga kelishga xalaqit berardi. Oldingi davrda boshlangan jamiyatni isloh qilish jarayonidagi “katta” va “kichik” avlod orasidagi ziddiyatlar bu davrda ham davom etdi. Natijada, 1917 yil may oyi oxirlarida “Sho‘royi islom” jamiyati tuzilganiga uch oy bo‘lmay parchalana boshladi va ikkiga bo‘lindi. 1917 yil iyunda uning tarkibidan “Sho‘royi ulamo” jamiyati ajralib chiqqach jamiyat faoliyati Markaziy Sho‘ro bilan birlashdi. Bu jarayonda so‘l eserlarga xayrixoh Sa’dulla Tursunxo‘jaev va Saidakram Saidazimboev, jadidlardan Munavvarqori, Nizomiddin Xo‘jaev, Abdulla Avloniy va boshqalar bir safdan joy olib Turkiston ozodligi yo‘lida kurashda davom etdilar [1, 148 v.].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tarix instituti joriy arxivi. P-33391-ish, 1-yig‘majild.

2. Tarix instituti joriy arxivi. P-33391-ish, 3-yig‘majild.

3. Abdullah Receb Baysun. Türkistan milli haraketleri. – İstanbul, 1943. – 202 s.

4. Abdullah Taymas. Rus ihtilalinden hatıralar. – İstanbul: Güven, 1947. – 216 s.

5. Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти. Миллий давлатчилик қурилиш тажрибаси. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 167 б.

6. Jalaquduq volostidagi saylov / Najot. 1917 yil, 28 may.

7. Mamlakat idorasida almashinuv va Turkiston / Ulug‘ Turkiston. 1917 yil, 25 aprel.;

8. Мингноров А. Туркистонда 1917-1918 йиллардаги миллий сиёсий ташкилотлар (Миллий матбуот материаллари асосида). – Тошкент: Маънавият, 2002. – 60 б.

9. Мингноров А. Туркистондаги ижтимоий-сиёсий жараёнларнинг миллий матбуотда ёритилиши (1917 - 1918 йиллар). – Тошкент: Истиқлол нури, 2013. – 136 б.

10. Muallim A. Ibodiy. Bo‘htonga haqiqat / Najot. 1917 yil, 28 may.

11. Мустафо Чўқай ўғли. Истиқлол жаллодлари (1917 йил хотиралари). – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1992. – 80 б.

12. Ражабов Қ. Туркистон мухторияти тарихи. – Тошкент: Фан, 2023. – 255 б.

13. Самарқанд аҳволидан / Нажот. 1917 йил, 21 май.

14. Turkiston markaziy sho‘ro protokollari / Kengash. 1917 yil, 25 iyul.

15. O‘z muxbirimizdan / Najot. 1917 yil, 21 may.

16. Umumturkiston musulmonlarining qurultoyi / Najot. 1917 yil, 21 aprel.

17. “Sho‘royi islomiya”ning qaror va xizmatlari / Najot. 1917 yil, 21 aprel.

18. Umumturkiston musulmonlarining qurultoyi / Najot. 1917 yil, 23 aprel.

19. “Sho‘royi islomiya”ning muvaqqat qonuni / Najot. 1917 yil, 28 aprel.

20. Sho‘royi islomiyaning qarornomasi / Najot. 1917 yil, 28 aprel

21. Sho‘royi islomning qaror va xidmatlari / Najot. 1917 yil, 26 may.

Jahongir TURSUNBOYEV,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
I-bosqich tayanch doktoranti shodiyorovich1202@gmail.com

ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLARNI TAYYORLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

► ***Annotatsiya:*** *Maqolada istiqbolli yosh rahbar kadrlarni tayyorlashning metodologik asoslari tahlil qilinadi. Unda davlat fuqarolik xizmati tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, rahbar kadrlarning asosiy xususiyatlari hamda tanlash va tayyorlash jarayonida qo'llaniladigan yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xorijiy va milliy olimlarning rahbarlik nazariyalari, yosh kadrlarni baholash mezonlari va ularni shakllantirishda tizimli, integrativ va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati ochib beriladi. Yosh rahbarlarni tarbiyalash jarayonida davlat, ta'lim muassasalari va xususiy sektor hamkorligining o'rni alohida ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *yosh rahbar kadrlar, metodologiya, fuqarolik xizmati, liderlik qobiliyati, strategik fikrlash, kommunikatsiya, innovatsion yondashuv, axloqiy tamoyillar, ta'lim tizimi, ijtimoiy mas'uliyat*

► ***Аннотация:*** *В статье анализируются методологические основы подготовки перспективных молодых руководящих кадров. Рассматриваются реформы в системе государственной гражданской службы, ключевые качества лидеров, а также подходы, используемые в процессе отбора и подготовки. Особое внимание уделяется теориям лидерства зарубежных и национальных ученых, критериям оценки молодых специалистов и значению системного, интегративного и инновационного подходов. Подчеркивается роль сотрудничества государства, образовательных учреждений и частного сектора в воспитании молодых руководителей.*

Ключевые слова: *молодые руководящие кадры, методология, государственная служба, лидерские качества, стратегическое мышление, коммуникация, инновационный подход, этические принципы, система образования, социальная ответственность*

► ***Annotation:*** *The article analyzes the methodological foundations for training promising young leaders. It examines reforms in the civil service system, the core qualities of leaders, and the approaches used in the selection and preparation process. The study highlights leadership theories by foreign and national scholars, evaluation criteria for young specialists,*

and the importance of systemic, integrative, and innovative approaches. The role of cooperation among the state, educational institutions, and the private sector in fostering young leaders is particularly emphasized.

Keywords: *young leaders, methodology, civil service, leadership qualities, strategic thinking, communication, innovative approach, ethical principles, education system, social responsibility*

Har qanday davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishi, avvalo, yetakchi kadrlarni tayyorlash, ularning salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltirish va ishlab chiqarish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda samarali ishtirokini ta’minlashga bog‘liq. Bugungi kunda yosh rahbar kadrlarni aniqlash, tanlash, tayyorlash va qo‘llab-quvvatlash jarayoni strategik ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish, davlat organlari va tashkilotlarini professional sifatlarga ega, salohiyatli va eng munosib kadrlar bilan ta’minlash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida” [1]gi qonun qabul qilindi, unga ko‘ra davlat fuqarolik xizmatiga ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish, salohiyatli rahbar kadrlar zaxirasini raqobat asosida shakllantirish tizimi yaratildi.

Istiqbolli yosh rahbar kadrlar — bu kelajakda yuqori malakali, samarali va mas’uliyatli yetakchi bo‘lib yetishish uchun potensiali, qobiliyati va tavsiyalari bilan ajralib turgan yosh mutaxassislardir. Ular jamiyat, davlat yoki tashkilotlar faoliyatida muhim rol o‘ynashga tayyor, o‘zini ko‘rsatishga intiladigan va yetakchilik xususiyatlarini namoyon etadigan shaxslar hisoblanadi.

Istiqbolli yosh rahbar kadrlarning asosiy xususiyatlari quyidagicha bo‘lish tavsiya etiladi:

Liderlik salohiyati – jamoani boshqara olish, qaror qabul qilishda mustaqillik va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyati.

Strategik fikrlash – murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘lni topish, kelajakka reja tuzish qobiliyati.

Tashabbuskorlik va ijodkorlik – yangi g‘oyalar va innovatsion yechimlar taklif qilish, ularni amalga oshirishga harakat qilish.

Kommunikatsiya va jamoada ishlash qobiliyati – boshqalar bilan samarali muloqot qilish va hamkorlik o‘rnatish.

Ta’lim va kasbiy rivojlanishga intilish – doimiy o‘rganish, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash. Axloqiy-etik tamoyillarga sodiqlik – jamiyat va tashkilot manfaatlarini ustun qo‘yish, adolat va mas’uliyatlilik. Istiqbolli yosh rahbar kadrlar – bu kelajakda rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan kasbiy va shaxsiy salohiyatga ega bo‘lgan yosh kadrlardir. Ular jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shishga tayyor.

Istiqbolli yosh rahbar kadrlar masalalari, yetakchilikni shakllantirish va rivojlantirish masalalari ko‘plab xorijiy va rus olimlarining e’tiborini tortadi. Etakchilik tushunchasini belgilaydigan birinchi nazariyalardan biri «xususiyatlar nazariyasi». Uning asoschilari L.Bernard [2] va V.Bingem [3]lar hisoblanadi.

Bundan tashqari S.Kuli, E.Mumford, F.Blekmar, L.Bernard, J.Braun, D.Krech va R. Krachfild va boshqa mualliflar ham yetakchilikning dastlabki ta’riflarini ko‘rib chiqishgan. Shunday qilib, S.Kuli rahbar har doim guruh g‘oyasining yadrosi [4] ekanligini ta’kidladi. E.Mumford «yetakchilik-bu bir shaxslarning boshqa bir guruh a’zolaridan ustunligi, bu ularni boshqarish jarayonida namoyon bo‘ladi» deb ta’riflagan. F.Blekmar Etakchilik – bu barchaning kuchini bir odamda jamlash yoki ifodalash deb ta’riflagan.

L.Bernardning fikricha, rahbarga guruh a’zolarining ehtiyojlari va istaklari ta’sir qiladi. Odamlarning energiyasini ma’lum bir faoliyatga aylantirib, rahbar unga kerakli yo‘nalishni beradi [5]. M.Smit, rahbarning shaxsiy ta’sirining ahamiyatini sharhlar ekan, «guruhni birlashtirgan birgalikdagi faoliyat har doim ikkita tarkibiy qismga ega: faoliyat markazi (rahbar) va ushbu markaz ta’siri ostida ishlaydigan shaxslar (etakchi)» [6]. Dj.Braun etakchini guruhdan ajratib bo‘lmaydi, lekin uni har qanday sferada eng yuqori mavqega ega deb hisoblash mumkinligini ta’kidlaydi [7]. D.Krech va R.Krachfild ham xuddi shunday «guruhdagi alohida mavqei tufayli u (yetakchi) guruh tuzilishi, atmosferasi, maqsadlari, mafkurasi va faoliyatini aniqlashning asosiy vositasidir» degan fikrda edi [8].

Ushbu olimlar tomonidan berilgan liderlik xususiyatlari yetakchilik hodisasini o‘rganishda guruhdan tashqari tuzilish va guruh

jarayonlarining ahamiyatini anglashga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. S.Kuli va E.Mumford tomonidan berilgan eng qadimgi ta’riflardan ikkitasi qiziqarli bo‘lib, ular etakchining faol rolini ta’kidladilar. Boshqa tomondan, ba’zi ta’riflar (L.Bernarda, J.Braun, D.Krech va R.Krachfild) rahbarni guruhning doimiy genezisiga nisbatan tasodifiy holatga keltiradi. Ushbu ta’riflar ko‘p jihatdan kimni etakchi deb hisoblash mumkinligi haqidagi kundalik g‘oyalarga o‘xshaydi.

Etakchilikni tavsiflashda shaxsiyat tushunchasi bizning asrimizning birinchi yarmidagi bir qator nazariyotchilar orasida paydo bo‘ldi, ular nima uchun ba’zi odamlar boshqalarga qaraganda yaxshiroq etakchi ekanligini tushuntirishga harakat qilishdi. Masalan, A.Bouden «shaxsning shaxsiyatining kuchini boshqalarga ta’sir qilish darajasi bilan aniq aniqlash mumkin» deb hisoblagan[9]. V.Bingemning fikricha, rahbar kerakli shaxsiy xususiyatlarning eng ko‘p sonini o‘z ichiga olgan shaxsdir [10]. O.Tid boshqalarni o‘z oldiga qo‘yilgan vazifani bajarishga undaydigan shaxs xususiyatlarining kombinatsiyasi sifatida aniqladi [11].

Ushbu olimlar asosan etakchilikni bir tomonlama ta’sir qilish jarayoni sifatida tasvirlashgan. Rahbar o‘z tarafdorlaridan farqli xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkinligini tan olib, ular bu masalaga va rahbarning mavqeini belgilaydigan o‘zaro ta’sir jarayoniga e’tibor berishmagan.

Yuqoridagi olimlarning fikridan kelib chiqib, yosh rahbar kadrlarni saralash va aniqlash jarayoni quyidagi mezonlarga asoslanadi:

- Liderlik qobiliyati va tashabbuskorlik.
- Strategik fikrlash qobiliyati.
- Kommunikatsiya va jamoada ishlash salohiyati.
- Axloqiy-etik prinsiplarga sodiqlik.
- Texnologik va raqamli bilimlarga ega bo‘lish.

Yosh rahbar kadrlarni tayyorlashdagi metodologik yondashuvlar:

Tizimli yondashuv: kadrlarni shakllantirishda barcha elementlar o‘zaro bog‘liq va uyg‘un holda olib borilishi kerak.

Integrativ yondashuv: ta’lim, amaliyot, psixologik va shaxsiy rivojlanish jarayonlarining uyg‘unlashuvi.

Innovatsion yondashuv: yangi pedagogik texnologiyalar, liderlik treninglari, keys-stadi usullari va boshqa samarali instrumentlardan foydalanish.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, yosh rahbar kadrlarni tayyorlash nafaqat bilim berish, balki ularning shaxsiy salohiyatini yuksaltirish, ijtimoiy mas’uliyatini oshirish, va innovatsion fikrlashni shakllantirishni ham nazarda tutadi. Mazkur jarayonda davlat, ta’lim muassasalari, institutlar va xususiy sektorning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Shavkat Mirziyoyev 2016 yil 19 oktyabrda bo‘lib o‘tgan VIII s’yezddagi nutqi

2. Кузьмин Е.С.. Волков И.П., Емельянов Ю.И. Руководитель и коллектив. Социально - психологический очерк. Л., 1974.

3. Абашкина Е.Б., Косолапова Ю.И. О теориях лидерства в современной политической психологии // США: экономика, политика, идеология. 1993. № 4. С. 13-21

4. См.: Cooley C. Human Nature and the Social Order. N.Y., 1902.

5. Bernard L. Leadership and Propaganda // An Introduction to Sociology. N.Y., 1927.

6. Smith M. Personality Dominance and Leadership // Sociology and Social Research. 1934. N 19. PP.18-25.

7. См.: Brown J. Psychology and the Social Order. N.Y., 1936

8. См.: Krech D., Crutchfteld R. Theory and Problems of Social Psychology. N.Y., 1948.

9. Bowden A. A Study of the Personality of Student Leaders in the United States // Journal of Abnormal and Social Psychology. 1926. N. 21. PP.149-160.

10. Bingham W. Leadership // The Psychological Foundation of Management. N.Y., 1927.

11. См.: Tead 0. The Technique of Creative Leadership // Human Nature and Management. N.Y., 1929.

Avazbek XALBEKOV,
Barqaror rivojlanish markazi bo‘lim boshlig‘i

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI ISHTIROKI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI VA ISTIQBOLLAR

► ***Annotatsiya:*** *Maqola demokratik jarayonlar va global tahdidlar sharoitida davlat boshqaruvini takomillashtirish zaruriyatini tahlil qiladi. Fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatchilik nazorati, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashdagi roli yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekistondagi konstitutsiyaviy islohotlar va “O‘zbekiston–2030” strategiyasi xalqaro tajribalar bilan solishtirilib, global demokratik tendensiyalar bilan uyg‘unligi asoslanadi; raqamli texnologiyalar, ekologik muammolar va yoshlar faolligi kabi zamonaviy chaqiriqlarning ahamiyati ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *Fuqarolik jamiyati, davlat boshqaruvi, jamoatchilik nazorati, ochiqlik, shaffoflik, “O‘zbekiston–2030” strategiyasi, konstitutsiyaviy islohotlar, raqamli transformatsiya.*

► ***Аннотация:*** *В статье раскрывается необходимость совершенствования государственного управления в условиях демократических процессов и глобальных угроз. Раскрыта роль институтов гражданского общества в обеспечении общественного контроля, открытости и прозрачности. Конституционные реформы в Узбекистане и стратегия «Узбекистан–2030» сопоставляются с международной практикой и увязываются с глобальными демократическими тенденциями; отмечается значение цифровых технологий, экологических проблем и активности молодёжи.*

Ключевые слова: *гражданское общество, государственное управление, общественный контроль, открытость, прозрачность, стратегия «Узбекистан–2030», конституционные реформы, цифровая трансформация.*

► ***Abstract:*** *The article argues for improving public governance amid democratic processes and global threats. It highlights the role of civil society institutions in ensuring public oversight, openness, and transparency. Uzbekistan’s constitutional reforms and the “Uzbekistan–2030” strategy are examined against international practice and aligned with global democratic trends; the relevance of digital technologies, environmental challenges, and youth activism is underscored.*

Keywords: *civil society, public governance, public oversight, openness, transparency, "Uzbekistan–2030" strategy, constitutional reforms, digital transformation.*

Bugungi kunda jahonda kechayotgan demokratik jarayonlar, umumbashariy muammolar va global xavf-xatarlar davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishni obyektiv zaruratga aylantirmoqda. Davlat va jamiyat munosabatlarida yuzaga kelayotgan yangi talablar fuqarolarning huquq va erkinliklarini to‘la ta’minlash, ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini hayotga tatbiq etish, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishni talab etmoqda.

Mazkur sharoitda fuqarolik jamiyati institutlari nafaqat ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ajralmas qismi, balki davlat boshqaruvini samarali tashkil etishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ular orqali jamiyat manfaatlari ifoda etiladi, fuqarolarning tashabbuslari davlat siyosatida o‘z aksini topadi hamda barqaror rivojlanishga zamin yaratiladi. Shu bois, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi ishtiroki va rolini chuqur tahlil qilish, ularning samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati institutlari — bu nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari hamda fuqarolarning tashabbus guruhlarini o‘z ishiga oladi. Ushbu institutlarning asosiy vazifasi davlat va jamiyat o‘rtasida samarali muloqot ko‘prigini barpo etish, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifoda etish hamda ularni himoya qilishdan iboratdir.

Xalqaro maydonda ham fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni alohida e’tirof etilgan. Xususan, BMT, YEXHT va YUNESKO kabi nufuzli tashkilotlar ularni demokratik rivojlanishning asosiy tayanchi va hal qiluvshi omili sifatida baholaydi. Masalan, YEXHTning 2023 yilgi hisobotida fuqarolik jamiyati institutlari davlat boshqaruvida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, shaffoflik va ochiqlikni kuchaytirish, shuningdek, inklyuzivlik tamoyillarini ta’minlashda muhim institut sifatida alohida ta’kidlangan[1].

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda demokratik institutlarning huquqiy asosi yana-da mustahkamlandi. Xususan, 2023 yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlariga konstitutsiyaviy maqom berildi. Bu esa mamlakatda demokratik islohotlar sifat jihatidan yangi bosqishga ko‘tarilganini anglatadi. Shu bilan birga, mazkur qadam fuqarolarning siyosiy va huquqiy faolligini oshirib, davlat va jamiyat boshqaruvi jarayonlarida ularning ishtirokiga keng yo‘l oshdi.

Shu bilan birga, “O‘zbekiston–2030” strategiyasida davlat boshqaruvini xalq manfaatlari yo‘lida takomillashtirish, ochiqlik va hisobdorlikni ta’minlash, jamoatchilik nazoratining samaradorligini oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yildi. Bu hujjat mamlakatda demokratik jarayonlarning institutsional rivojlanishi hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan davlat organlari o‘rtasida samarali muloqot va hamkorlikni kuchaytirishda muhim dasturiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xalqaro tajribada ham fuqarolik jamiyati institutlariga konstitutsiyaviy maqom berish keng qo‘llaniladi. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasi asosiy qonunida siyosiy partiyalar xalqning siyosiy irodasini shakllantirishda ishtirok etuvchi muhim demokratik institut sifatida belgilangan[2]. AQSH Konstitutsiyasi esa fuqarolarning so‘z erkinligini kafolatlab, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati uchun huquqiy zamin yaratadi[3]. Bu tajribalar O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar global demokratik tendensiyalarga uyg‘un ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan oxirgi yillarda fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash va uning davlat boshqaruvidagi o‘rnini mustahkamlash bo‘yicha muhim farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, 2024 yil 26 avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni demokratik jarayonlarni rivojlantirishda muhim hujjat sifatida xizmat qilmoqda[4].

Mazkur farmonga ko‘ra:

nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat grantlari, ijtimoiy buyurt-

malar va subsidiyalar orqali qo‘llab-quvvatlash tizimi takomillashtirildi;

moliyalashtirish jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini ta’minlaydigan mexanizmlar ishlab chiqildi;

fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy loyihalardagi ishtiroki kengaytirildi.

Bu islohotlar xalqaro amaliyot bilan chambarshas bog‘liq hisoblanadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida NNTni davlat grantlari va ijtimoiy tenderlar asosida moliyalashtirish keng tarqalgan[5]. AQSHda esa “Community Development Blosk Grant” dasturi orqali mahalliy jamoatchilik tashabbuslarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash yo‘lga qo‘yilgan[6]. Demak, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jahon tajribasi bilan uyg‘un holda rivojlanmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlari zamonaviy demokratik davlatning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular davlat organlari bilan muloqot va hamkorlik orqali jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va huquqiy hayotida faol ishtirok etadi. Ayniqsa, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruviga ta’sir doirasi tobora kengaymoqda.

Birinchi navbatda, jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyati institutlarning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Qonunchilikda mustahkamlangan ushbu mexanizm orqali davlat organlari faoliyati ustidan monitoring va baholash amalga oshiriladi, aholi fikri o‘rganiladi hamda tegishli organlarga taqdim etiladi. Masalan, 2018 yilda qabul qilingan “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonun NNT va fuqarolik tashabbus guruhlariga davlat qarorlari ijrosi ustidan ochiq monitoring o‘tkazish imkoniyatini berdi. Bu esa davlat boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, ijtimoiy sheriklik davlat va nodavlat sektori hamkorligining huquqiy asosi sifatida fuqarolar manfaatlarini ifoda etishga xizmat qiladi. “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonun asosida davlat organlari va NNT aholi ehtiyojlarini o‘rganish, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish hamda manzilli yordam ko‘rsatishda bir-

galikda faoliyat yuritmoqda. Bu jarayon aholining davlat qarorlariga ishonchini kuchaytiradi.

Uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari huquqiy madaniyat va siyosiy faollikni yuksaltirish orqali fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini amaliy mazmun bilan boyitadi. Ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar orqali aholi davlat siyosati haqida xabardor qilinadi, ularning tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanadi. Bu esa huquqiy ong va madaniyatnitп rivojlanishi, siyosiy jarayonlarga keng jamoatchilikning jalb etilishi uchun zamin yaratadi.

To‘rtinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari innovatsiya va islohotlarda ishtirok etish orqali davlat boshqaruvini takomillashtirishga hissa qo‘shadi. Davlat dasturlari va strategik hujjatlar keng jamoatchilik muhokamalari, onlayn platformalar va forumlar orqali ishlab chiqiladi. Jumladan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar ham fuqarolik jamiyati va aholi fikri asosida shakllantirilgani ularning islohotlardagi faol ishtiroki va ta’sirini tasdiqlaydi.

Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot sharoitida fuqarolik jamiyati hamda davlat boshqaruviga ta’sir ko‘rsatayotgan qator global shaqiriqlarni qayd etish zarur. Ular demokratik institutlarning barqaror rivojlanishi va fuqarolar manfaatlarini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Birinchi navbatda, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va internet muhitining kengayishi davlat va jamiyat munosabatlarida yangi imkoniyatlarni ochishi bilan bir qatorda, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va raqamli tengsizlik kabi yangi tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda.

Ikkinchidan, ekologik muammolar va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish zarurati fuqarolik jamiyati institutlari va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirishni taqozo etmoqda. Ijtimoiy ekologik tashabbuslar, jamoatchilik nazorati va aholining ekologik madaniyatini oshirish bu sohada hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Uchinchidan, geosiyosiy inqirozlar va migratsiya jarayonlari davlat boshqaruvi tizimidan yangi yechimlar va samarali boshqa-

ruv mexanizmlarini talab qilmoqda. Mazkur jarayonlarda fuqarolik jamiyati institutlari inson huquqlari, ijtimoiy adolat va migrantlar manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

To‘rtinchidan, yoshlar faolligini oshirish va ijtimoiy adolat tamoyillarini ta’minlash zamonaviy demokratik rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, ularning innovatsion tashabbuslari va ijtimoiy loyihalardagi ishtiroki fuqarolik jamiyati barqarorligini ta’minlaydi.

Mazkur global chaqiriqlardan kelib chiqib, O‘zbekiston istiqbolli yo‘nalish sifatida qator ustuvor vazifalarni belgilab olgan. Jumladan:

ochiq hukumat mexanizmlarini yana-da kuchaytirish, davlat organlari faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini oshirish;

nodavlat notijorat tashkilotlari uchun moliyaviy va huquqiy imtiyozlarni kengaytirish, ularning barqaror rivojlanishi uchun qulay muhit yaratish;

aholining siyosiy faolligini oshirish maqsadida raqamli platformalarni joriy etish, davlat va jamiyat muloqotini raqamli transformatsiya asosida rivojlantirish;

xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ilg‘or tajribani joriy etish va nodavlat notijorat tashkilotlarining xalqaro nodavlat tashkilotlari bilan aloqalarini mustahkamlash.

Shu tariqa, global shaqiriqlar sharoitida fuqarolik jamiyati institutlari roli nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham tobora ortib bormoqda. Bu esa O‘zbekistonda demokratiyani chuqurlashtirish, barqaror rivojlanishni ta’minlash va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash yo‘lida muhim ustuvor vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyati institutlari davlat boshqaruvida quyidagi vazifalarni bajarib kelmoqda: jamoatchilik nazorati orqali shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash, ijtimoiy sheriklik asosidagi qarorlarni aholi ehtiyojlariga yaqinlashtirish, huquqiy madaniyat va siyosiy faollikni oshirish hamda innovatsiya va islohotlar jarayonida samarali ishtirok etish. Yuqorida sanab o‘tilganlar misollar esa mamlakatimizda demokratik jarayonlarning shuqurlashishi va barqaror rivojlanishi uchun xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.osse.org/files/f/dosuments/s/9/584242.pdf

2. https://www.gesetze-im-internet.de/gg/art_21.html

3. https://www.arshives.gov/founding-doss/bill-of-rights-transsript

4. https://lex.uz/doss/7083841

5. https://sommission.europa.eu/funding-tenders/how-apply/eligibility-who-san-get-funding/funding-opportunities-ngos_en

6. https://www.prinsegeorgessountymd.gov/departments-offises/housing-sommunity-development/sommunity-grants-and-programs/sommunity-development-blosk-grant

***Аваз ДЖУРАЕВ,* Ангрен университети,**
фалсафа фанлари номзоди, доцент.
Тел: +998998862849, Mister-sj@mail.ru
***Шокир* ЗАКИРОВ, Ангрен университети,**
фалсафа фанлари номзоди, доцент.
Тел:+998991910262

ГРАЖДАНСКОЕ ОБЩЕСТВО КАК СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВОЕ ПРОСТРАНСТВО

► ***Annotatsiya.*** *Maqolada fuqarolik jamiyatini mutlaqo yangi ijtimoiy voqelik sifatida shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Mualliflar fuqarolik jamiyatini qonun hukmronlik qiladigan ijtimoiy makon sifatida ko‘rishga harakat qiladilar. Bu davlat organlarining bevosita aralashuvi va o‘zboshimchalik bilan tartibga solinishidan, shuningdek, boshqa tashqi omillardan himoyalangan erkin fuqarolar va ixtiyoriy ravishda tashkil etilgan notijorat birlashmalari va tashkilotlarining o‘zini namoyon qilish sohasi, degan xulosaga kelinmoqda.*

Kalit so‘zlar: *fuqarolik jamiyati, qonun ustuvorligi, fuqarolik faolligi, jamoat tashkilotlari, erkin matbuot, demokratiya, guruh manfaatlari.*

► ***Аннотация.*** *В статье анализируются вопросы становления гражданского общества как совершенно новой социальной действительности. Авторы делают попытку рассмотреть гражданское общество как социальное пространство, где верховенствует закон. Делается вывод о том, что это сфера самопроявления свободных граждан и добровольно сформировавшихся некоммерческих ассоциаций и организаций, ограждённых от прямого вмешательства и произвольной регламентации со стороны государственной власти, а также других внешних факторов.*

Ключевые слова: *гражданское общество, верховенство закона, гражданская активность, общественные организации, свободная печать, демократия, групповые интересы.*

► ***Abstract.*** *The article analyzes the issues of the formation of civil society as a completely new social reality. The authors attempt to consider civil society as a social space where the law reigns. It is concluded that this is a sphere of self-expression of free citizens and voluntarily formed non-profit associations and organizations protected from direct interference and*

arbitrary regulation by state authorities, as well as other external factors.

Key words: *civil society, rule of law, civic activism, public organizations, free press, democracy, group interests.*

В свете происходящих в Узбекистане перемен, на фоне обширных социально-экономических и политических преобразований, чрезвычайно остро встаёт вопрос о необходимости дальнейшего развития гражданского общества, которое представляет собой не только определённую структуру, но и совершенно новое качество жизни.

Безусловно, гражданское общество – это социальное пространство, где верховенствует закон, который не только не противоречит, но и способствует саморазвитию человека, реализации интересов личности, максимальному функционированию её прав и свобод. То есть, гражданское общество – это не только сфера, но и тип взаимодействия, определенная модель социальной организации с присущими ей качественными характеристиками [1, с. 251].

Одним из основных компонентов гражданского общества является верховенство закона, перед которым равны все социальные слои и члены общества. Однако, как показывает практика, существует необходимость совершенствования связи «человек-закон», необходимость таких законов, которые способствовали бы самосовершенствованию личности, развитию в нем культуры гражданственности: активности и ответственности, исходя из его интересов, прав и свобод. На наш взгляд, противоречия гражданского общества не опосредуются государственными задачами, а, напротив, сами опосредуют эти задачи, непосредственно отражаясь на функционировании государства и его структур, порождая необходимость соответствующего его природе законодательства. Причинные связи, характерные для этого процесса, идут снизу вверх, это дает возможность более или менее точно очертить область законотворчества, то есть, направление законодательной деятельности. Выработка новых законов или поправки к старым осуществляются непосредственно в процессе жизни гражданского общества, откуда

государство черпает эталоны для своей деятельности. Целесообразность последней определяется объективным масштабом заданными интересами гражданского общества. Многообразие его политических структур дает возможность выявить эти интересы и тем самым определить, в каком направлении должно действовать государство. Короче говоря, государство на всех этапах своего существования имеет механизм сличения своих решений и действий с действительностью, что выражается в определенной структуре представительной системы и, прежде всего, законодательной власти. Поэтому законодательный процесс, который выступает как реальное средство разрешения конкретных противоречий гражданского общества, остается на почве заранее заданных ему отношений. Он не может выйти за их границы, поскольку в гражданском обществе существуют механизмы, предотвращающие этот процесс: различные общественные организации с их интересами, свободная печать и т.д. Организационный плюрализм способен превратить людей, имеющих общие групповые интересы, в субъекты общественной и политической жизни. Именно он обеспечивает возможность активной общественной жизни и ведет к образованию партий, является следующим звеном представительства специфических групповых интересов и их защиты политическими средствами [3, с. 108].

Законодательный процесс, следовательно, обоснован как объективной, так и субъективной стороной, т.е., со стороны собственной деятельности государства. Поэтому законодательство, как правило, не впадает в противоречие с гражданским обществом и с самим собой, оно даже с формальной стороны логически обосновано. Его всегда можно редуцировать к наличной действительности и к конкретным проблемам гражданского общества. Поскольку общества выработали механизм контроля за деятельностью государства, то оно определяет и принципы, на основе которых государство может и обязано действовать. Вот почему в основу законодательной деятельности всех высокоразвитых стран положен принцип прав человека. Он не может быть её основанием, пока общество не создало механизмы контроля

за деятельностью государства. Эти механизмы являются гарантией бытия данного принципа. Не государство навязывает его сверху, а само общество делегирует его государству не только по содержанию, но и по форме. В плане решения этого вопроса в такой идеальной форме Республика Узбекистан делает первые шаги в этом направлении.

Значимой составляющей и определяющей степень развития гражданского общества является гражданская культура, отчасти выраженная в правовом воспитании. В этой связи необходимо ответить на вопрос, какие должны произойти радикальные перемены в практике правового воспитания для развития гражданского самосознания.

Обращение к человеку как к субъекту правовой жизни общества означает стремление понять его в многообразии правовых связей, а также иных зависимостей, влияющих на правоотношения. Это, в свою очередь, предполагает желание и умение заметить за внешними проявлениями незримые глубинные силы.

В данном случае важно различить рассогласования интересов общества и отдельных субъектов права, и, безусловно устранять их. В противном случае гражданская культура может быть сведена к формальному сдерживанию противоправных стремлений.

Происходящие социальные перемены требуют нового подхода к адресатам правовых норм как гражданам демократического государства. Индивидуальность субъекта права представляет ценность только для прогрессивно развивающегося государства.

Не будет ошибочно, если использовать понятие “гражданское общество” как некий социальный идеал, к которому стоит стремиться. Но нужно учесть, что только совокупность исторических, структурных и культурных черт гражданского общества дает нам его «нормативный образ», раскрывает сущность этого понятия как идеального типа [2, с. 93].

Это – идеал свободы и защищенности, равенства в правах, независимо от экономического, физического и духовного потенциала человека. Каждого человека, реализующего свободу

совести, свободу слова, право участвовать в создании юридических законов и многие другие права, которые должны быть не только провозглашены, но и обеспечены. В гражданском обществе правит закон, а не произвол отдельных лиц. Основанные на законе ограничения в отношении гражданина или организации допускаются лишь для обеспечения уважения прав и свобод других гаждан, удовлетворения справедливых требований морали, общественного порядка и общего благосостояния в демократическом обществе.

Список использованной литературы:

1. Алексеев А. Н. Драматическая социология и социологическая ауторефлексия. – СПб.: Норма, 2005. – 808 с.

2. Нарыкова С. П. Правовое государство и гражданское общество: мифы и проблемы (к вопросу о гражданском обществе) // Экономические и гуманитарные исследования регионов. – 2014. – № 6. – С. 92–96.

3. Стащенко С. П., Харыбин И. Ю. Пропаганда как элемент взаимодействия между гражданским обществом и государством // Государство и право в условиях гражданского общества. – 2015. – № 1. – С. 108–110.

Камил СУЛТАНОВ,
главный специалист
Центра анализа демократических процессов

РОЛЬ НАРОДНОЙ ДИПЛОМАТИИ В РАЗВИТИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

► ***Annotatsiya.*** *Maqolada O‘zbekistonda globallashuv va siyosiy islohotlar sharoitida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida xalq diplomatiyasi fenomeni ko‘rib chiqiladi. Uning faoliyat yuritishining normativ-huquqiy asoslari hamda amaliy misollar, xususan, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati va xalqaro madaniy institutlarning ishtiroki yoritiladi. Xalq diplomatiyasining ishonchni shakllantirish, mamlakatning xalqaro imidjini mustahkamlash, ijtimoiy hamkorlikni kengaytirish va fuqarolarning xalqaro jarayonlarga jalb etilishiga ta’siri tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: O‘zbekiston; xalq diplomatiyasi; fuqarolik jamiyati; xalqaro hamkorlik; NNT; yumshoq kuch; muloqot; ishonch.*

► ***Аннотация.*** *В статье исследуется феномен народной дипломатии как значимый инструмент развития гражданского общества в Узбекистане в условиях глобализации и политических реформ. Раскрываются нормативно-правовые основы её функционирования и приводятся практические примеры, включая деятельность неправительственных некоммерческих организаций и участие международных культурных институтов. Анализируется влияние народной дипломатии на формирование доверия, укрепление международного имиджа страны, расширение социального партнёрства и вовлечение граждан в международные процессы.*

Ключевые слова: *Узбекистан; народная дипломатия; гражданское общество; международное сотрудничество; ННО; мягкая сила; диалог; доверие.*

► ***Abstract.*** *The article examines the phenomenon of people’s diplomacy as an important tool for the development of civil society in Uzbekistan under conditions of globalization and political reforms. It highlights the normative-legal foundations of its functioning and provides practical examples, such as the activities of NGOs and the involvement of international cultural institutions. The analysis focuses on the impact of people’s diplomacy on building trust, strengthening the country’s international image, expanding social partnership, and engaging citizens in international processes.*

Keywords: *Uzbekistan; people's diplomacy; civil society; international cooperation; NGOs; soft power; dialogue; trust.*

В условиях глобализации народная дипломатия приобретает особое значение для стран, находящихся в процессе активных реформ. Современный этап развития Республики Узбекистан характеризуется положительными преобразованиями политической и социальной систем, расширением прав и свобод граждан, а также укреплением институтов гражданского общества.

Под руководством Президента Шавката Мирзиёева проводится курс на демократизацию и расширение общественного участия, дальнейшее совершенствование народной дипломатии, который становится не только внешнеполитическим, но и внутренним фактором консолидации всех участников гражданского общества.

В июне 2017 г. в г. Астане на очередном саммите Совета глав государств-членов Шанхайской организации сотрудничества (ШОС) Глава нашего государства выдвинул предложение рассмотреть вопрос об организации центров ШОС – постоянно действующих институтов народной дипломатии [1].

Миролюбивая внешняя политика Узбекистана наблюдается во всех международных инициативах, нацелена на установление мира и стабильности в Центральной Азии, но и за ее пределами, которые легли в основу построения Нового Узбекистана.

Наша страна проводит многовекторную внешнюю политику на основе норм международного права и Конституции Республики Узбекистан. Формируется парламентская и народная дипломатия как инструменты миролюбивой внешней политики.

Под народной дипломатией понимается совокупность инициатив и форм международного взаимодействия, осуществляемых негосударственными некоммерческими организациями (ННО), культурным, образовательным и научным сообществом, средствами массовой информации, диаспорами, волонтерами, предпринимателями, а также отдельными гражданами.

Формами народной дипломатии являются культурные, образовательные обмены, международные фестивали, студенческие

стажировки, научные конференции и гуманитарные инициативы, а также деятельность диаспор.

Народная дипломатия содействует выработке «мягкой силы» – положительного имиджа и укрепление международного авторитета страны, формирует общественное доверие, способствует взаимопониманию между людьми, тем самым создает более благоприятные условия для развития гражданского общества.

В отличие от официальной дипломатии, ориентированной на межгосударственные отношения, народная дипломатия воздействует на «горизонтальный уровень» международных контактов, где важную роль играют граждане и институты гражданского общества.

В законодательстве Узбекистана термин «народная дипломатия» напрямую не закреплен, но ее содержание регулируется рядом нормативно-правовых актов.

В соответствии с статьей 39 Основного закона страны «граждане Республики Узбекистан имеют право объединяться в профессиональные союзы, политические партии и другие общественные объединения, участвовать в массовых движениях».

В статье 69 Конституции Республики Узбекистан отмечено, что «институты гражданского общества, в том числе общественные объединения и другие негосударственные некоммерческие организации, органы самоуправления граждан, средства массовой информации образуют основу гражданского общества».

Статья 70 Основного закона страны гласит, что «в Республике Узбекистан общественными объединениями признаются профессиональные союзы, политические партии, общества ученых, женские организации, организации ветеранов, молодежи и лиц с инвалидностью, творческие союзы, массовые движения и иные объединения граждан».

Кроме того, статья 72 Конституции Узбекистана гарантирует, что «государство обеспечивает соблюдение прав и законных интересов негосударственных некоммерческих организаций, создает им равные правовые возможности для участия в жизни общества» [2].

Закон «О негосударственных некоммерческих организациях» регулирует отношения, связанные с деятельностью ННО, а также международных ННО, представительств и филиалов международных и иностранных ННО на территории Республики Узбекистан.

В статье 5 данного закона подчеркнуто, что «негосударственная некоммерческая организация в соответствии с законодательством может вступать в международные негосударственные некоммерческие организации, поддерживать прямые международные связи, заключать соответствующие соглашения о сотрудничестве» [3].

Вместе с тем, в пункте 83 Указа Президента Республики Узбекистан «О Стратегии «Узбекистан – 2030»» поставлена задача, направленная на «дальнейшее развитие свободного гражданского общества и деятельности средств массовой информации, превращение Узбекистана в хаб по развитию гражданского общества» [4].

В последние годы Узбекистан предпринимает шаги по расширению пространства для гражданского общества. В этом контексте народная дипломатия через обмен опытом в различных социальных и гуманитарных областях, участие в международных форумах и конференциях становится каналом международной интеграции.

Народная дипломатия в нашей стране как инструмент внутренней консолидации служит дальнейшему развитию социального партнерства между ННО и государственными органами в реализации значимых проектов, волнующих население.

Кроме того, народная дипломатия как ресурс доверия укрепляет основы межнационального и межкультурного диалога, формирует межконфессиональную гармонию и толерантность в Узбекистане.

Расширение участия молодежи в международных процессах, продвижение национального бренда Нового Узбекистана через культуру и образование, укрепление регионального сотрудничества в странах Центральной Азии благоприятно влияет на развитие народной дипломатии.

Примеры последних лет показывают рост активности национальных ННО на территории Узбекистана, участвующих в программах международного сотрудничества, а также расширение роли культурных центров и ассоциаций диаспор в продвижении имиджа страны за рубежом.

В 2018 г. по инициативе Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева был создан Центр народной дипломатии ШОС, деятельность которого направлена на комплексное применения механизмов народной дипломатии.

Учредителями данного ННО наряду с государственными организациями выступили Союз молодежи, Творческий союз журналистов и Союз писателей.

Центр содействует укреплению взаимного доверия и добрососедства, развитию межцивилизационного диалога среди стран ШОС, создает условия для установления дружественной атмосферы взаимодействия между институтами гражданского общества, в том числе молодежными и женскими организациями стран ШОС [5].

Вместе с тем, решением Координационного совета центра в 2022 г. был учрежден нагрудный знак «Народный дипломат». Премия направлена на поощрение активных граждан, внесших достойный вклад в укрепление атмосферы взаимного доверия, расширение культурно-гуманитарных связей и дружественного сотрудничества между институтами гражданского общества в государствах-членах ШОС. На сегодняшний день более 180 активистов были удостоены данной награды [6].

В целях дальнейшего объединения соотечественников, проживающих за рубежом, эффективного направления их потенциала, осуществляющих деятельность в разных сферах, а также на развитие нашей страны в 2021 г. Главой государства был создан Общественный фонд «Ватандошлар» [7].

Среди учредителей фонда значатся такие ННО как Национальная ассоциация негосударственных некоммерческих организаций Узбекистана, движение «Юксалиш» и Центр «Стратегия развития». Фонд занимается налаживанием и развитием партнер-

ских связей с соотечественниками, проживающими за рубежом, созданными ими общественными объединениями, оказывает содействие в защите их прав и свобод.

Кроме того, данное ННО занимается материальной и социальной поддержкой соотечественников, попавших в сложную жизненную ситуацию за рубежом, оказывает им информационную и правовую помощь, поощряет деятельность созданных ими общественных объединений, а также осуществляет практическую помощь по созданию узбекских национальных культурных центров за рубежом [8].

В развитие народной дипломатии вносят свою лепту и филиалы международных и иностранных организаций, а также дипломатических представительств.

В частности, при посольстве США в Узбекистане функционирует отдел народной дипломатии, который отвечает за образовательные программы, программы обменов, отношение со СМИ и программы общественной информации о США.

Данный отдел администрирует разные программы образовательных и профессиональных обменов, включая престижную программу Фулбрайт. Эти программы, разработанные как для студентов бакалавриата, так и для кандидатов со степенью доктора наук, способствуют свободному обмену информацией и идей, а также укреплению взаимопонимания.

Участники обменных программ правительства США становятся частью сообщества выпускников после их возвращения в Узбекистан [9].

Вместе с тем, Программа развития ООН является долгосрочным партнером, поддерживающий проекты, направленные на укрепление потенциала ННО, вовлечение местных сообществ в достижение Целей устойчивого развития и повышение инклюзивности программ развития.

Евросоюз также финансируют проекты правозащитных и социально ориентированных ННО, проводит образовательные обмены и инициативы по устойчивому развитию.

Британский совет реализует программы по изучению англий-

ского языка, профессиональной подготовке и культурному обмену, а также играет роль платформы для гражданских инициатив и образовательных проектов.

Гёте-институт проводит курсы немецкого языка, кинопоказов, выставок и партнерств с местными культурными площадками.

В 2025 г. открыт Американский центр при Американском Университете технологий (ACT/AUT), который в сотрудничестве с Посольством США предлагает программы по образованию, инновациям и обмену опытом.

Кроме того, местные ННО, исследовательские центры, молодежные и профессиональные ассоциации в Узбекистане участвуют в программе обменов, проводят совместные семинары с иностранными партнерами, внедряют практики общественного мониторинга и повышения прозрачности.

Международные фестивали музыки, кино и искусства в Узбекистане собирают активную аудиторию, формируют культурную повестку и создают площадки для обсуждения актуальных социально-экономических тем.

Необходимо отметить, народная дипломатия имеет также практическое влияние на гражданское общество. Международные стажировки, курсы и совместные исследования повышают квалификацию и уровень профессионализма активистов, юристов, журналистов и сотрудников ННО.

Участие в обменных проектах стимулирует лидерские качества и создает основу для дальнейшей совместной деятельности в разных регионах страны. Горизонтальные международные контакты и опыт других стран помогают активистам ННО выстраивать обоснованный диалог с местными властями. Грантовая поддержка и возможность доступа к международным платформам увеличивают финансовую и организационную устойчивость инициатив.

Вместе с тем, для усиления роли народной дипломатии рекомендуется осуществлять системную поддержку ННО через разработку правовых и финансовых механизмов, упрощающих регистрацию и отчетность, создание государственно частных фондов поддержки гражданских инициатив.

В целях развития местного финансирования стимулировать частный филантропический сектор и институт благотворительности, повысить уровень социальной ответственности и местных грантовых программ.

Для прозрачности и диалога создать платформы для регулярного диалога между властью, ННО и международными партнерами по методам реализации и оценке программ.

Кроме того, акцентировать внимание на вопросах документирования и масштабирования успешных практик народной дипломатии, создания национальных реестров значимых проектов.

В условиях реализации Стратегии «Узбекистан – 2030» народная дипломатия становится одним из ключевых механизмов продвижения страны как надежного партнера на международной арене, укрепления ее демократических институтов, интеграции в мировое сообщество.

Роль народной дипломатии в развитии гражданского общества Узбекистана заключается в укреплении доверия, расширении международных связей и стимулировании социальной активности граждан. Она способствует формированию открытого общества, в котором граждане выступают объектами и субъектами демократических процессов.

Народная дипломатия в Узбекистане стала значимым фактором развития гражданского общества. Инициативы демонстрируют, что народная дипломатия является неотъемлемым элементом стратегии развития Нового Узбекистана и важным ресурсом для достижения социальной и политической стабильности.

Список использованной литературы:

1. Астанинский саммит ШОС https://president.uz/ru/lists/view/631.

2. Конституция Республики Узбекистан https://lex.uz/docs/6445147.

3. Закон Республики Узбекистан «О негосударственных некоммерческих организациях» https://lex.uz/mact/10863.

4. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии «Узбекистан – 2030»» https://lex.uz/ru/docs/6600404.

5. Центр народной дипломатии Шанхайской организации сотрудничества (ШОС) https://scocenter.uz/about-center.

6. Сайт kultura.uz https://www.kultura.uz/view_2_r_22226.html.

7. Общественный фонд «Ватандошлар» https://vatandoshlarfondi.uz/about.

8. Постановление Президента Республики Узбекистан «О создании Общественного фонда «Ватандошлар» https://lex.uz/docs/5570593#5572778.

9. Сайт Посольства Соединенных Штатов Америки (США) в Республике Узбекистан https://uz.usembassy.gov/ru/embassy-ru/tashkent-ru/key-sections-and-officers-ru/public-diplomacy-section-ru/.

Nig‘monjon AZIZOV,
O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar doktori, professor,
tel.: (+998 97) 771 55 90
elektron pochta: nigmon66@mail.ru

O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI TO‘G‘RISIDAGI G‘OYALARNING TARAQQIYOTI

► ***Annotatsiya:*** *Maqolada O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati haqidagi g‘oyalarning shakllanishi, mazmun-mohiyati va taraqqiyoti ilmiy tahlil qilinadi. Mintaqada faol bo‘lgan diniy manbalar hamda xalqimizdan yetishib chiqqan mutafakkirlar asarlarida fuqarolik jamiyati va uning institutlariga doir qarashlar yoritiladi. Shuningdek, mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishining huquqiy asoslari va ularning amaliyotga tatbiqi masalalari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati g‘oyalari, inson huquqlari, mutafakkirlarning qarashlari, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish.*

► ***Аннотация:*** *В статье научно анализируются возникновение, содержание и развитие идей о гражданском обществе в Узбекистане. Освещаются религиозные источники, действовавшие на территории страны, и взгляды мыслителей нашего народа на гражданское общество и его институты. Кроме того, рассматриваются правовые основы развития*

институтов гражданского общества в годы независимости и вопросы их практической реализации.

Ключевые слова: *гражданское общество, идеи о гражданском обществе, права человека, взгляды мыслителей, развитие институтов гражданского общества.*

► ***Abstract:*** *The article provides a scholarly analysis of the emergence, substance, and evolution of ideas about civil society in Uzbekistan. It reviews religious sources historically present in the region and the views of local thinkers on civil society and its institutions. It also examines the legal foundations for the development of civil society institutions in the independence period and issues related to their implementation in practice.*

Keywords: *civil society, ideas of civil society, human rights, thinkers' perspectives, development of civil society institutions.*

O‘zbekistonda inson eng oliy qadriyat sanaladigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish pirovard maqsad qilib qo‘yilib, sobitqadamlik bilan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy sohada keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu sababli fuqarolik jamiyati asoslariga murojaat etish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “bashariyat o‘zining azaliy orzusi – inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklari ustuvor bo‘lgan, farovonlik va taraqqiyot, imkoniyatlar va ezgu niyatlarning ro‘yobga chiqishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan, adolat, hamkorlik, tenglik va qonun ustuvorligi kabi demokratik tamoyillar mustahkam qaror topgan, tinchlik-totuvlik va osoyishtalik hukmron bo‘lgan, barqaror rivojlanayotgan dunyo sari intilmoqda” [1; 5-b.].

Fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi g‘oya va ta’limotlar nisbatan yaqin muddatda vujudga kelgan bo‘lsa-da, ushbu hodisa va uni tashkil etgan tarkibiy unsurlar insoniyatga azaldan ma’lum bo‘lgan. O‘zbekistonda shakllangan ijtimoiy-siyosiy ta’limotlarda insonni e’zozlash, uni borliq va butun jonzotning gultoji deb bilish, chuqur insoniylik, yaxshilik, saxovatpeshalik, umum va shaxs manfaatini uyg‘unlashtirish, ezgulik, adolatparvarlik, komil insonni tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘rta Osiyoda insonlar ko‘chib kelib istiqomat qilishni boshlagandan buyon ijtimoiy hayot pok turmush tarziga asoslangan. Ular “o‘rtasidagi munosabatlar ezgulik, yaxshilik, tinch-totuv yashash, farovonlikka intilish, yaqinlarga ko‘mak berish, o‘zini o‘zi boshqarish negizida barpo etilgan. Ushbu qoidalar faqat g‘oya, ta’limot shaklida mavjud bo‘lmasdan, qadimgi ajdodlarimizning turmush tarzida mujassamlangan” [2; –B.27-28].

O‘rta Osiyo xalqlarida qaror topgan diniy ta’limotlar hamda mutafakkirlarimiz g‘oyalarining negizini inson va uning baxtu saodati tashkil etadi. Ularda insonni e’zozlash, uni jamiki mavjudotlar orasida tengsiz qadr-qimmatga ega ong sohibi sifatida tan olish, butun borliq komil insonni shakllantirish va uning farovonligini ta’minlashga yo‘naltirilganligi to‘g‘risidagi g‘oyalar o‘zining mujassam ifodasini topgan.

Qoidalari xalqimizning hayoti va turmush tarziga singib ketgan muqaddas diniy manbalarda inson zoti ulug‘lanadi. Jumladan, zardushtiylik dinining muqaddasi kitobi “Avesto” diniy qoidalarni o‘rnatish bilan birga, inson va uning kamoloti, ularning o‘zaro munosabatlari, yurish-turishini belgilovchi tub huquqiy va axloqiy g‘oyalarni ham o‘zida aks ettirgan. Zardushtiylik manbai inson farovonligini ta’minlash, komil insonni tarbiyalash, haqiqat, adolat, ezgulik va yaxshilik urug‘ini sochish bilan bir qatorda, jamiyatni tanazzulga olib keladigan illatlarga, qora kuchlarga qarshi kurashni oliy maqsad qilib qo‘yadi.

Xuddi shuningdek, O‘zbekistonga VIII asrning boshlaridan kirib kelgan va ming yildan ortiq vaqt mobaynida hukm surgan islom dini va ta’limotining bosh g‘oyasini inson va uning farovonligi tashkil etadi. Islom ta’limotiga ko‘ra, inson eng afzal va sharafli mavjudotdir. Bu to‘g‘risida Alloh taolo “Isro” surasida quyidagilarni aytadi: **“Batahqiq, Biz Bani Odamni azizu mukarram qilib qo‘ydik va ularni quruqligu dengizda (ulovla) ko‘tardik hamda ularni pok narsalar ila rizqlantirdik va uni O‘zimiz yaratgan ko‘p narsalardan mutlaqo afzal qilib qo‘ydik”** (70-oyat).

Insonning afzalligi, mukarramligi yana shunda namoyon bo‘ladiki, farishtalar ham insonga sajda etishi buyuriladi. “Baqara” surasida aytilganidek: **“Esla, farishtalarga: “Odamga sajda qilinglar!” deganimizni. Bas, sajda qildilar, magar Iblis bosh tortdi, mu-**

takabbirlik qildi va kofirlardan bo‘ldi” (34-oyat). Farishtalarga Odamga sajda qilishni buyurib, Alloh unga ulkan martaba ato etdi. Ammo bu sajda ibodat uchun emas, balki Odamni – Allohning ulug‘ ijodini tabriklash ma’nosida edi.

Insonni ulug‘lovchi diniy ta’limotlar keyinchalik o‘rta asrlarda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Burhoniddin Marg‘iloniy, Imom Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Alisher Navoiy, yangi davrda Mirzo Abdulqodir Bedil, Xo‘ja Samandar Termiziy, Junaydullo Islomshayx Hoziq, Nodira, Turdi Farog‘iy, Sayyido Nasafiy, Munis, Gulxaniy kabi olimu-ulamolar hamda jadidchilik oqimining ilg‘or vakillari g‘oyalarida mujassam ifodalandi. Ularning asarlarida inson va uning baxtu-saodati, farovonligi, insonparvarlik, haqiqatparvarlik, yetuk va komil inson tarannum etiladi.

Mutafakkirlarning g‘oyalarida inson, jamiyat, davlat munosabatlari markaziy o‘rin tutib, unda inson ustuvor o‘rin egallaydi. U olamdagi barcha mavjudotlardan ustun, eng sharafli zotdir. Inson ijtimoiy mavjudot bo‘lib, shaxs alohida, yakka holda baxtga erishishi mumkin emas. Haqiqiy baxtga boshqa insonlar bilan jamiyatga uyushib yashash orqali erishiladi. Aholisi baxtiyor, farovon, tinch, mehr-oqibatli insonlardan iborat bo‘lgan fozil jamiyatni barpo etish oliy maqsad hisoblangan.

Sharqda “muallim us soniy” deb nom taratgan, o‘z davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy (870-950-y.y.) inson, jamiyat, davlat, siyosat, fozil shahar masalasida nafaqat o‘sha davr, balki hozirgi zamon uchun ham muhim bo‘lgan ta’limotni ilgari suradi. U jamiyatning kelib chiqishi borasida qadimgi yunon faylasufi Aflotunning nuqtayi nazarini qo‘llab, shunday yozadi: “Har bir inson o‘z tabiatiga ko‘ra shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtojlik sezadi, uning bir o‘zi esa bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, shu bois ularga ega bo‘lishda kishilik jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi… Shu sababli yashash uchun zarur bo‘lgan narsalarni bir-biriga yetkazib beruvchi va o‘zaro ko‘maklashuvchi insonlarning birlashuvigina odamning tabiatiga ko‘ra intilgan yetuklikka erishishga imkon beradi. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va

yetuklikka erishmoq uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shundan inson ko‘paydi va yerning aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdi, natijada insonlar jamoasi vujudga keldi” [3; 186-b.].

Forobiy ijtimoiy-siyosiy ta’limotining bosh g‘oyasini – aholisi komil, baxtiyor va farovon insonlardan iborat bo‘lgan fozil shaharni barpo etish tashkil etadi. Uning fozil shahri – barcha organlari o‘zaro bog‘langan va o‘zaro harakatda bo‘lgan takomillashgan inson organizmiga o‘xshaydi. Buyuk mutafakkirning g‘oyalari ko‘p asrlar muqaddam ilgari surilgan bo‘lsa-da, bugungi O‘zbekiston jamiyati, xalqimiz oldida turgan vazifa va maqsadlar bilan hamohangdir.

Jahonda tibbiyot sohasida yetuk alloma sifatida tan olingan Abu Ali ibn Sino (980-1037-y.y.) ham bu borada ilg‘or ijtimoiy-siyosiy, huquqiy g‘oyalarni ilgari surgan. U boshqa mutafakkirlar kabi insonni ijtimoiy mavjudot hisoblaydi. Uning fikricha, inson jamiyatdan tashqarida mavjud bo‘la olmaydi. Insonlarni jamiyatda mavjud bo‘lishining asosiy sharti ularning hamkorligidir. Inson o‘ziga kerakli narsalarni faqat jamiyat yordamida qo‘lga kiritishi mumkin. Buning uchun esa jamiyatning barcha a’zolari uchun bir xilda ongli qonunlar va odil sudlov zarur. Jamiyatning barcha a’zolari ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishlari shart [4; –B.136-137].

Umum va shaxs manfaatini uyg‘unlashtirish, jamiyatning barcha a’zolari manfaatlarini himoya qilish, xalqparvarlik, el-yurt, Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish O‘rta Osiyo xalqlari ta’limotlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Inson va jamiyat manfaatlarining uyg‘unligi, xalqning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish, insonning jamiyatdagi burchi masalasi buyuk aql sohiblarining diqqat e’tiborini jalb etgan. Xalq farovonligi uchun xizmat qilish, el-yurt to‘g‘risida qayg‘urish, uning manfaati yo‘lida o‘z joni, kuch-g‘ayratini ayamaslik davlat boshqaruvi faoliyatining asosiy prinsiplarini tashkil etgan.

Shu o‘rinda ulug‘ davlat arbobi va sarkarda Amir Temur tomonidan o‘ta muhim g‘oyalar ilgari surilganligini uqtirib o‘tish o‘rinlidir. Amir Temur ijtimoiy-siyosiy tafakkurining buyukligi shundaki, u mamlakatni boshqarishda jamiyat tabaqalarga bo‘linganligi, ularning talab va istaklari turlichaligi, davlat va jamiyatning taraqqiyoti har bir ijtimoiy guruh manfaatlari bilan chambarchas bog‘liq ekan-

ligini chuqur anglab yetgan. U jamiyatni o‘n ikki tabaqaga bo‘lib idora qilgan. Bu haqda “Temur tuzuklari”da shunday deyiladi: “Saltanatimni o‘n ikki toifadagi kishilar bilan mustahkamladim. Saltanatim martabasi bo‘lmish to‘ra-tuzuklar va qonun-qoidalarni ham shu o‘n ikki toifaga bog‘lab tuzdim. Bu o‘n ikki toifani saltanatim falakining o‘n ikki burji va davlatim korxonasining o‘n ikki oyi deb hisobladim” [5; 81-b.].

Xalq va uning farovonligi uchun xizmat qilish – eng oliy maqsad, deb hisoblaydi ulug‘ shoir Alisher Navoiy (1441-1501-y.y.). Uning fozil jamiyat to‘g‘risidagi qarashlarining negizini insonparvarlik, insonga bo‘lgan muhabbat, el-yurt qayg‘usi bilan yashash hissi tashkil etadi. Bu haqda akademik V.Zohidov shunday yozadi: “Navoiy davlat ishida turganida ham bir nafas bo‘lsa-da xalqni esdan chiqarmadi. Davlatni xalq manfaatlarini ko‘zlovchi, xalq orzularini amalga oshiruvchi vositaga aylantirishga, davlat arboblarini xalq xizmatchilariga aylantirishga kirishdi va bu ishda uning o‘zi namuna bo‘ldi” [6; 8-b.].

Ma’lumki, fuqarolik jamiyati insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda ijtimoiy adolat, adolatparvarlik, qonuniylik g‘oyalarining hukmronligini taqozo etadi. Adolat tufayli jamiyatda barqarorlik, farovonlik, xotirjamlik, tinchlik va totuvlik qaror topadi. Yovuzlik, yomonlik, dushmanlikka barham beriladi. O‘rta Osiyo mutafakkirlari adolat, adolatparvarlik va qonuniylik g‘oyalarining kishilik jamiyati taraqqiyoti uchun ahamiyatini chuqur anglab, o‘zlarining nodir fikrlarini bildirganlar.

Adolatli jamiyat, inson kamoloti va farovonligiga erishish, haqiqat va qonun ustuvorligini o‘rnatishga qaratilgan g‘oyalar “Temur tuzuklari”da ham o‘z ifodasini topgan. Davlatda adolat va haqiqatni o‘rnatib, zulm-zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik, jabrdiydaning o‘chini zo‘ravondan olib berish, Amir Temurning asosiy shiorlaridan biri hisoblangan. U “rost-i rustiy”, ya’ni “kuch adolatdadir” degan tamoyilga qat’iy amal qilgan. Saltanatni erkida saqlash uchun amal qilgan o‘n ikki tuzukdan birini aynan adolatparvarlik tashkil etgani bejiz emas.

Amir Temur davlatida qonunlarga rioya qilish, uning ijrosini ta’minlash ishiga alohida e’tibor qaratilgan. Qonunlar jamiyat va

davlat mavjudligining o‘ta muhim omili sanalgan. “Yana tajribamda ko‘rib bildimki, davlat agar dinu tartib asosida qurilmas ekan, to‘ra-tuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi. Bunday saltanat yalong‘och odamga o‘xshaydirkim, uni ko‘rgan har kimsa (undan) nigohini olib qochadi. Yoxud har xil qalang‘i-qasang‘i odamlar tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to‘sig‘i yo‘q uyga o‘xshaydi. Shuning uchun ham men o‘z saltanatimni islom dini, to‘ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Saltanatni boshqarishimda uchragan har qanday voqea va ishni to‘ra va tuzuk asosida ado etdim” [5; 72-b.].

Chuqur bilim, keng dunyoqarash, yuksak axloqiylik, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarning uyg‘unligiga erishgan, ezgulik, yaxshilik, adolatni o‘ziga kasb qilib olgan, yovuzlik va adolatsizlikka murosasiz bo‘lgan komil inson fuqarolik jamiyatining bosh g‘oyasi hisoblanadi. Ilm-ma’rifat komil insonning shakllanishida poydevor rolini o‘ynaydi. Komil insonni shakllanishining turli jihatlari diniy ta’limotlar va mutafakkirlar g‘oyalarida mujassamlangan.

Buyuk mutafakkirlarimiz, ilm egallash, bilimli bo‘lish, o‘qib-o‘rganish komillikka erishishning muhim yo‘li deb bilganlar. Ularning fikricha, inson mohiyatini ong tashkil etadi. Shuning uchun ham, har bir shaxs ilm olishga, o‘qishga va komillikka intilishi lozim. Insonni tarbiyalash, ilm o‘rgatish yo‘li bilan yuksak axloqiylikni, komillikni singdirish mumkin.

Inson kamolotining poydevorini ilm o‘rganish, mehnatsevarlik, qalbi ochiqlik tashkil etadi. Beruniyning fikricha, inson aqli va ma’rifatparvarligi bilan barkamol va rasodir. Go‘zal, ko‘rkam, oliyjanob, mard, hammaga yaxshilik qila oladigan, odamlarga muhabbatli, ona yerni e’zozlay oladigan, vatanparvar, botir kishi – komil insondir.

Yusuf Xos Hojib saodatli jamiyat barpo etishni oliy maqsad sifatida belgilaydi. Uning fikricha, insonda to‘rt holat mujassamlanadi: “abadiy tiriklik» – bu inson ruhini mumtoz bir ruhga aylanishi (komillashishi); “abadiy yoshlik” – ko‘ngilning hamisha sir-asror uchun uyg‘oq turishi; “doimiy sog‘liq” – insonning hamisha barcha masalada o‘z fikriga, qarashiga ega bo‘lishi; “tuganmas boylik” – cheksiz bir ma’naviyatga ega bo‘lish” [7; 18-b.].

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘rta Osiyo davlatlari ustidan o‘rnatilgan mustamlakachilik tartiblari natijasida xalqning huquq va erkinligi poymol etildi, ma’rifatsizlik chuqur ildiz otib ilm-fan tanazzulga yuz tutdi. Jamiyatning bunday ayanchli ahvoldan chiqarishning birdan-bir yo‘li ilm-ma’rifatni keng tarqatish, xalqning o‘zligini anglash ekanligini jadidlar tushunib yetganlar. Shu sababli, jadidlarning mamlakatni taraqqiy etishi uchun kurashida quyidagi yo‘nalishlar ustuvor bo‘lgan: yangi usul maktablarini joriy etish va kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; xalqni siyosiy partiyalarga uyushtirish orqali uning manfaati va huquqlarini himoya qilish; gazeta va jurnallar chop etish; xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan milliy demokratik davlat qurish.

Adolatli jamiyat, inson erkinligi va huquqini ta’minlash, qonun ustuvorligiga erishish, davlat mustaqilligini ta’minlash masalalari jadidchilik harakati vakillari tomonidan rivojlantirildi. Jadidlar milliy ozodlik harakatiga katta turtki berib, milliy kuchlar birligini ta’minlashga beqiyos hissa qo‘shdilar. Ular qisqa vaqt ichida keng xalq ommasini qamrab oladigan ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar tuzishga muvaffaq bo‘la oldilar. O‘rta Osiyo xalqlarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, qonuniylikni ta’minlash, jamiyat hayotida adolatni qaror toptirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan “Taraqqiyparvarlar”, “Turon”, “Ittifoq”, “Ittihod va taraqqiy”, “Sho‘royi Islomiya”, “Sho‘royi Ulamo”, “Turk Adami Markaziyat”, Yosh buxoroliklar, Yosh xivaliklar hamda Turkiston siyosiy hayotida ham muhim o‘rin tutgan “Alash O‘rda” kabi partiyalar, yigirmaga yaqin milliy jamiyat va to‘garaklar tuzilgan va faoliyat olib borgan.

Turkiston siyosiy partiyalar yetakchilari jamiyat hayotini isloh etish, davlat boshqaruvini takomillashtirish, insonlar uchun yetarli turmush darajasini ta’minlash to‘g‘risidagi g‘oyalarni ilgari surganlar. Jadidlarning fikricha, davlat-huquqiy institutlar jamiyat manfaatiga xizmat qilishi, umumfarovonligini ta’minlashi, fuqarolarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishi, huquq va erkinliklarini amalga oshirishi, mamlakatni ijtimoiy taraqqiyot yo‘lidan borishi uchun shart-sharoit yaratishi lozim [8; 232-b.].

Ular bu borada o‘tmish faylasuf va donishmandlarning qarashlarini, Turkiston xalqlarining davlatchilik va huquqi tarixini chuqur bilganlar. O‘rta Osiyoda davlat va huquq qadim tarixga ega bo‘lib, uzoq taraqqiyot bosqichini bosib o‘tganligini, jahonga mashhur saltanatlar barpo etilganligi, o‘sha davr uchun mukammal bo‘lgan boshqaruv va huquq tizimi yaratilganligi, shu bilan birga xorijiy mamlakatlar davlat boshqaruvi va huquqini, yosh avlod esa o‘z xalqlarining siyosiy tarixini bilishi zarurligini anglaganlar [9; –B.37-39].

Jamiyat hayotini zamon talablari asosida isloh etish g‘oyasi siyosiy yetakchilarning g‘oyalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular Turkiston xalqi tushib qolgan jaholat, haqsizlik, qoloqlik va boshqa salbiy oqibatlarning bosh sababini podsho Rossiyasining mustamlakachilik tuzumida deb hisoblaydilar. Rossiya imperiyasi o‘zi bosib olgan hududlarni talash, boyliklarini o‘zlashtirish maqsadida, mahalliy xalqlarni jabr-zulm, zo‘ravonlik, qurol kuchi bilan tutib turganligini, xalqlar ataylab ilm-ma’rifat, taraqqiyotdan uzoqda saqlaganligini uqtiradilar. Siddiqiy Ajziyning fikricha, ilm-fan, davlat, til, qonun – bularsiz hech bir millatning istiqboli yo‘q. Bu to‘rt narsani qo‘lga kiritmagan millat halokatga mahkum [10; 206-b.].

M.Behbudiy yozganidek, “Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib – taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidur. Har millat eng avval, makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko‘payturmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a kirub madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hoziradan mahrum qolub, sanoe’ va maorif salohi ila qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko‘rolmas. “Muborizai hayot” maydonida mutlaqo mag‘lub bo‘lur, oyoqlar ostida ezilur, diniy, iqtisodiy ishlarda o‘zgalarning asiri bo‘lub, bora-bora milliyat va diyonatini ham qo‘ldan berur. Ana ushbu yo‘llar ila oxiri mahv va nobud bo‘lub ketur” [11; 153-b.].

Yurtimizning mustaqillikka erishishi fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi g‘oyalarning rivojlanishi hamda hayotga tatbiq etilishiga kuchli turtki bo‘ldi. Bunda xalqimizning ko‘p ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida to‘plangan va sayqal topgan tajribasi mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillari ilm-fanida fuqarolik jamiyati masalasi muhim

o‘rin egallab, uning ijtimoiy, tarixiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy negizlari tadqiq etildi. Ishlab chiqilgan g‘oyalarda fuqarolik jamiyatining mazmun-mohiyati, tuzilishi, tashkil etgan unsurlari, ularning o‘zaro munosabatlari, mamlakatimizda uni barpo etishning yo‘llari o‘z ifodasini topgan. “Fuqarolik jamiyati – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an’ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e’zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so‘zsiz ta’minlanadigan, davlat hokimiyati ustidan samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma’anviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyat” [12; 185-b.].

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyati va uning institutlarini rivojlanishiga mustahkam huquqi asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning muqaddimasida inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga sadoqat, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlash g‘oyalari mujassamlangan [13].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 26-avgustdagi PF–126-son Farmoni mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirishning asosi hisoblanadi. Unda fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari belgilandi: *birinchidan,* davlat va jamiyat hayotida fuqarolik jamiyati institutlari faolligini yanada oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy va gumanitar sohalarni rivojlantirishda ularning salohiyatidan to‘laqonli foydalanish; *ikkinchidan,* jamiyat manfaatlari va aholining haqiqiy ehtiyojlarini ko‘zlagan, joylarda saqlanib qolayotgan dolzarb muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslarni ro‘yobga chiqarishga ko‘makla-

shish; *uchinchidan,* davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida o‘zaro manfaatli ijtimoiy sheriklikni yanada rivojlantirish; *to‘rtinchidan,* fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga ko‘maklashish yo‘lida ta’sirchan jamoatchilik nazorati olib borilishini rag‘batlantirish; *beshinchidan*, fuqarolik jamiyati institutlarining xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarini yo‘lga qo‘yish hamda ularning xorijdagi uyushmalari bilan hamkorligini mustahkamlash; *oltinchidan,* fuqarolik jamiyati institutlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularga o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratish [14].

Mazkur qoidalarning hayotga joriy etilishi mamlakatimizning fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lidan og‘ishmay olg‘a borishiga xizmat qiladi. Inson farovonligini ta’minlash, ijtimoiy infratuzilmani yuksaltirish yurtimizda olib borilayotgan siyosatning o‘zagini tashkil etadi. Shu munosabat bilan yurtimizda zamonaviy shaharlar qad ko‘tarmoqda, qishloq va mahallalar obod bo‘lmoqda. O‘tgan sakkiz yilda aholi uchun 500 mingga yaqin kvartirali ko‘p qavatli uy-joylar barpo etildi. Bu mustaqillikning dastlabki 25 yiliga nisbatan to‘rt karra ko‘p. Mahalla infratuzilmasini yaxshilash, qishloqlarni, yo‘llarni obod qilish uchun 60 trillion so‘m mablag‘ sarflandi. Yoki 130 milliard dollar xorijiy sarmoya kirib keldi, 100 mingdan ortiq investitsiya loyihalari ishga tushirildi, 7 milliondan ziyod aholi daromadli bo‘ldi. Ijtimoiy infratuzilmaga oldingi yillarga nisbatan olti karra ko‘p mablag‘ yo‘naltirildi. Natijada bog‘cha o‘rinlari 720 mingdan 2,5 millionga yetkazildi. 466 ta yangi maktab qurilib, 1 million o‘quvchi o‘rni yaratildi. Talabalar soni 279 mingdan 1,5 million nafarga oshirilib, oliy ta’limda qamrov 42 foizga olib chiqildi [15]. Va bunday misollarni nihoyatda ko‘plab keltirish mumkin.

Shunday qilib, fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi g‘oyalar ko‘p ming yillik tarixga ega bo‘lib, uni tashkil etgan unsurlar xalqimizning turmush tarzida mujassamlangan, tarixiy tajribasida sinovdan o‘tib, sayqal topgan. Mustaqillik fuqarolik jamiyatini shakllantirishning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, u tufayli inson oliy qadriyat sanaladigan, uning huquq va erkinliklari tan olinadigan va ta’minlanadigan, inson va jamiyat manfaatlari uyg‘unligiga erishiladigan, xalq

O‘zbekiston xalqi: o‘zining muxtor vakillari siymosida O‘zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi.	Biz, O‘zbekistonning yagona xalqi ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e’lon qilamiz.

2023-yil 30-apreldagi Konstitutsiya matni tom ma’noda xalq tahriridan o‘tdi. Asosiy qonundagi quyidagi holatlarni alohida ko‘rsatish lozim:

- davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasi;
- suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat;
- davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi, shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi (ota uchun – bola, bola uchun – ota javobgar bo‘lmasligi);
- inson – jamiyat – davlat paradigmasida inson manfaatlarining ustuvorligi: inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emasligi;
- hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yilishi, shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi, shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi;
- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkinligi;

- har kimning qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga egaligi;

- homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi;

- bolalar mehnatining har qanday shakllari taqiqlanishi;

- har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli ekani;

- O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etilishi;

54-modda. Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir.

- tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishi va faoliyat yo‘nalishini mustaqil ravishda tanlashi;

- yer qonunda nazarda tutilgan shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkinligi;

- nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanishi.

Islohotlarning huquqiy asoslari elektron katalogi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUz)da 154029 ta hujjat mavjud (10.09.2025-yil 11:26 holatiga) [5].

Ular: qonunchilik hujjatlari, Prezident hujjatlari, hukumat qarorlari va boshqa qonun osti ijro va sud hujjatlaridir. Konstitutsiya, 19 ta kodeks, 1083 ta qonun va boshqalar.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan o‘tgan yillardan –ayni damgacha amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida

“xalqni rozi qilish” va “inson qadri uchun” g‘oyalari ustuvordir [6].

Darhaqiqat, mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, inson huquq va erkinliklari, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi. Islohotlarning navbatdagi bosqichi huquqiy markazida harkatlantiruvchi mexanizm – **O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi** [7] bo‘ldi.

Harakatlar strategiyasi doirasida o‘tgan 2017-2021-yillar mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Shuningdek, inson huquqlarini ta’minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, hududlarni jadal rivojlantirishni ta’minlash bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rildi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad manbai, munosib yashash sharoitlari bilan ta’minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

So‘nggi to‘qqiz yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi.

Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan **2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi** islohotlar huquqiy ta’minotining navbatdagi raundi bo‘ldi [8]. Shakllar o‘zgardi. 7 ta ustuvor yo‘nalish doirasida 100 ta maqsad aniq belgilandi.

Ushbu davrda:

- davlat boshqaruvi organlarining “Davlat – inson uchun” tamoyili asosida hududiy masalalarni hal qilishdagi mas’uliyati va javobgarligini kuchaytirish hamda ularning strategik yo‘nalishlarni rejalashtirishga qaratilgan yangi tizim yaratish maqsadida mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari tomonidan doimiy ravishda mahallani o‘rganish va tahlil qilish natijasiga ko‘ra ularni rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi;

- “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish va energiya tejamkorligini ta’minlash dasturi amalga oshirilmoqda;

- barcha bo‘g‘indagi davlat boshqaruvi organlarining bir yillik ish dasturini jamoatchilik ishtirokida ishlab chiqish, ularning ijro holatini doimiy e’lon qilib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi;

- 2022-yildan boshlab bosqichma-bosqich tadbirkorlikka oid barcha majburiy talablarni yagona elektron reestrga kiritish tartibi joriy etildi;

- mahallaning “faol” modelini joriy etish, uni aholi muammolarini bevosita hal qilish hamda hududni rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta’minlash maqsadida barcha darajadagi rahbarlar mahallaga tushib, o‘z yo‘nalishi bo‘yicha muammolarni o‘rganishi va ularga yechim topishi tartibi joriy etilib, mahalladagi ishlarning holati vazirlik, idora va hokimliklar faoliyatini baholashning bosh mezoni sifatida belgilandi;

- mahalladan turib barcha davlat organlariga murojaat qilish va ularning rahbarlari bilan muloqot qilish tizimi yaratilib, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko‘rsatish, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali aloqalarni yo‘lga qo‘yish orqali mahallalarning xalq oldidagi nufuzi oshirildi;

- mahallalarning “o‘sish nuqtalari” va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ularda istiqomat qilib, faoliyat yurituvchi aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi samaradorligi oshirildi;

- fuqarolar tomonidan mahalla raisiga nisbatan ishonchsizlik bildirish instituti joriy etilishiga qadam tashlandi.

2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi Yangi O‘zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq o‘tkazilgan prezidentlik saylovi yana bir bor jamiyatimizning siyosiy yetukligi, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqimiz to‘liq qo‘llab-quvvatlaganidan dalolat berdi.

Shu bilan birga, yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish talab etilmoqda.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi tasdiqlandi** [9].

100 ta aniq maqsadni o‘z ichiga olgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida quyidagi asosiy g‘oyalar aks etdi:

- barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;
- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash.

“Xalq strategiyasi”ga aylanib ulgurgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan va amalga oshirilishi davom etayotgan, o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan barcha maqsadlarga erishish va dolzarb vazifalarni bajarish yakunlab qo‘yiladigan bo‘ldi.

Taqdim etilgan matn O‘zbekistonda 2016-yildan buyon Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilgan islohotlarga ijobiy baho bo‘lib, inson huquqlari, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, mustahkam xalqaro aloqalar va turmush darajasini oshirish borasidagi yutuqlarni ta’kidlaydi. Bu da’volar O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining rasmiy portali kabi manbalar va Yevropa Parlamenti kabi institutlarning tahlillari bilan tasdiqlangan.

Inson huquqlari bo‘yicha rekord:

Mirziyoyev rahbariyati inson huquqlarining eng og‘ir poymol etilishi, jumladan qiynoqlar va majburiy mehnatning bosqich-ma-bosqich to‘xtatilishi yoki kamaytirilishini nazorat qilgan.

Sudyalarning mustaqilligini oshirish, parlament vakolatlarini kengaytirish choralari ko‘rildi.

Iqtisodiy diversifikatsiya:

Hukumat iqtisodiyotni liberallashtirish, savdo va investitsiyalar yo‘lidagi to‘siqlarni olib tashlash va biznes uchun qog‘ozbozlikni kamaytirishni boshladi.

O‘zbekiston valyutasining (so‘m) muomalaga chiqarilishi kabi chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Kengaytirilgan xalqaro hamkorlik:

O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatini mustahkamladi, xalqaro maydonda faolroq ishtirokchiga aylandi va AQSH, Yevropa Ittifoqi, Rossiya va Xitoy kabi asosiy hamkorlar bilan aloqalarni tikladi.

Ushbu siljishning muhim jihati Markaziy Osiyoda oldingi qarama-qarshilik yondashuviga barham berib, mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan harakatdir.

Hayot sifatini yaxshilash:

Islohotlar davlat xizmatining fuqarolar oldidagi javobgarligini oshirishga qaratilgan.

Ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatidagi o‘zgarishlar faoliyat uchun katta erkinlik sari qadamlardan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ushbu fikrlar mamlakatimiz Prezedinti Sh.Mirziyoyev davrida O‘zbekistonda ochiqlik va rivojlanishga qaratilgan, mamlakatning ichki va xalqaro landshaftida jiddiy o‘zgarishlarga olib keladigan ataylab olib borilayotgan islohotlar dasturini tasvirlaydi.

Kutilayotgan eng muhim natijalar:

- 2026-yilga qadar ehtiyojmand aholini ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan **to‘liq qamrab olish.** Bunda ijtimoiy himoya qilish tizimi bilan muhtojlarning barchasi to‘liq qamrab olinishiga erishish;

- Bolalarni maktabgacha ta’lim va tayyorlov guruhlari bilan **to‘liq qamrab olish;**

- Yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish. Bunda umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan **to‘liq ta’minlash**;

- 10 ta oliy ta’lim muassasasini dunyoning eng nufuzli “Top-1 000” oliy ta’lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish;

- Jamiyatda bolalar va xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka toqatsizlik madaniyatini shakllantirish;

- 2026-yilga qadar kambag‘allikni 2022-yilga nisbatan 2 barobarga, 2030-yilga qadar esa keskin qisqartirish. Bunda kambag‘allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish;

- Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash;

- Yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish. Bunda makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy rivojlanishni zarur darajadagi energetika, suv va infratuzilma resurslari bilan ta’minlash;

- “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish. Bunda shaharlarda jamoat transportini ekologik toza yoqilg‘iga o‘tkazish;

- Bir gektardan olinadigan o‘rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish;

- Iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish, davlat ulushi mavjud 2,3 mingta korxonalar sonini 6 barobarga kamaytirish. Bunda Respublikada 17 turdagi davlat monopoliyasini bekor qilish, davlat tasarrufida faqat magistral energiya va transport tarmoqlari, davlat boshqaruvi va xavfsizligi bilan bog‘liq sohalarni saqlab qolish;

- “Yashil energiya” texnologiyalarini keng joriy qilish doirasida nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste’molini kamaytirish;

- Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish. Bunda har yili 200 million tup daraxt ekib borish va respublikada yashillik darajasini 30 foizga yetkazish;

- Aholi farovonligini ta’minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o‘rtasidagi “tayanch ko‘prik”ka aylantirish... Mahallalarda 100 dan ortiq davlat xizmatlarini “bir qadam”da ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish;

- Kamida 300 ta davlat xizmatlarini xususiy sektorga o‘tkazish. Litsenziyalash va ruxsat berish hujjatlarini kamida 20 foizga qisqartirish hamda 50 foizini soddalashtirish;

- Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida tashkil etish... Davlat organlari rahbarlarining o‘zi rahbarlik qilayotgan idora yoki tizim faoliyatida yo‘l qo‘yilgan jiddiy xato va kamchiliklar uchun siyosiy javobgarligi institutini joriy qilish. Davlat nazorat funksiyalarini fuqarolar hayoti, sog‘lig‘i va xavfsizligini qat’iy ta’minlashga yo‘naltirish;

- Huquq tizimi raqobatbardoshligini oshirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay bo‘lgan sodda va ixcham qonunchilik tizimini yaratish. Bunda idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning aniq chegaralarini belgilash orqali ularning sonini keskin qisqartirish;

- Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish hamda ma’muriy adliya tizimini yanada rivojlantirish. Bunda sudga qadar bosqichda nizolarni hal qilish samaradorligini 50 foizga oshirish, sudga qadar hal etilishi mumkin bo‘lgan nizolar yuzasidan sudlarga kelib tushadigan ishlar sonini 50 foizga kamaytirish;

- Tadbirkorlik subyektlariga nisbatan ko‘rilayotgan jinoyat ishlarining 100 foizida himoyachi yoki jamoat himoyachisi ishtirokini ta’minlashga erishish;

- Advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, malakali huquqiy yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish. Bunda advokatlar sonini kamida 2000 nafarga ko‘paytirish;

- Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni

shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish, bu borada jamoatchilik nazoratini to‘laqonli joriy qilish; 100 foiz normativ-huquqiy hujjatlarning “korrupsiyadan xoli qonunchilik” tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta’minlash;

- Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish. Bunda dunyodagi mavjud murakkab vaziyatda ochiq, pragmatik, faol va yaxshi qo‘shnichilik tashqi siyosati olib borilishini izchil davom ettirish;

- Jahon savdo tashkilotiga to‘laqonli a’zo bo‘lish;

- Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot tizimini joriy etish. Bunda o‘zbek tili va adabiyoti, tarix, madaniyat, san’at va hunarmandchilik yo‘nalishidagi oliygohlarda xorijdagi vatandoshlar uchun 200 ta grant ajratish; vatandoshlar ishtirokida tibbiyot, ta’lim va ilm-fan sohalarida 100 ta loyihani amalga oshirish;

- Tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko‘mak ko‘rsatish. Bunda ishga joylashtirish bo‘yicha xorijiy davlatlar bilan kyelishuvlar sonini 30 taga oshirish.

Xulosa. Bosh ijtimoiy vazifasi mamlakatdagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, turli millatlar va diniy konfessiyalar o‘rtasida tinchlik, xavfsizlik, jipslikni ta’minlashga qaratilgan O‘zbekistonimizda bu borada yaratilgan tashkiliy-huquqiy jihatlar muayayn pog‘onaga yetib keldi. Bu – hali hammasi emas. Izlanishdamiz. Voqelikka aylanayotgan yangidan-yangi munosabatlar huquqiy makonga ko‘chmoqda. O‘zbekiston fuqarosi bo‘lish – sharaf! Demak, shu Yurtga – shu Vatanga xizmat qilish ham sharaf! Muhimi, qabul qilinayotgan qonun va qarorlarga amal qilish qolayapti, xolos.

Fikrimizcha, ushbu kichik urinishning xulosasida quyidagilar tilga olinishi o‘rinli bo‘lurdi:

1. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish pirovard maqsadimiz ekanidan kelib chiqib, ekologiya va atrof muhitni asrash har birimizning favqulodda burchimiz ekanini OAVda, xususan, ijtimoiy tarmoqlarda, ta’lim maskanlarida, mehnat jamoalarida shaxsiy o‘rnak – umummilliy harakat darajasiga olib chiqish.

2. Jahon savdo tashkilotiga to‘laqonli a’zo bo‘lish. Bunda milliy qonunchilikni va huquqni qo‘llash amaliyotini JST talablariga moslashtirish, JSTga a’zo davlatlar bilan bozorlarga kirish bo‘yicha muzokaralarni tizimli olib borish va a’zo bo‘lish jarayonini samarali, manfaatli va maqsadli yakuniga yetkazish.

3. Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni tizimli, uzluksiz sur’atda qo‘llab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot tizimini joriy etish. Jarayonda o‘zbek tili va adabiyoti, tarix, madaniyat, san’at va hunarmandchilik an’analarimizni keng targ‘ib qilish.

4. Tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, bunda jarayon shaffofligiga erishish, sohani raqamlashtirishga to‘liq erishish.

Foydalailgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг Давлат мустақиллиги асослари тўғрисида” 31.08.1991 йилдаги 336-XII-сон Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1991 й., 11-сон, 246-модда.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг Давлат мустақиллиги асослари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунига конституциявий мақом бериш ҳақида” 30.09.1991 йилдаги 358-XII-сон Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1991 й., 11-сон, 268-модда.

3. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси // «Халқ сўзи» газетаси, 1992 йил 15 декабрь, 243 (494)-сон.

4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.

5. Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси // https://lex.uz/statistic.

6. Ш.М.Мирзиёев. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак // https://president.uz/uz/lists/view/187; Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси (28.12.2018) // https://president.uz/uz/lists/view/2228; Халқни рози қилиш – барча раҳбарларнинг энг устувор вазифаси // https://president.uz/uz/lists/view/5378; Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси (20.12.2022) // https://president.uz/uz/lists/view/5774.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” 07.02.2017 йилдаги ПФ–4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” 28.01.2022 йилдаги ПФ–60-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида” 11.09.2023 йилдаги ПФ–158-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон.

Gulsanam Maxsutovna NOROVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti v.v.b. dottsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
gulsanam81ndpi@umail.uz
(+99890) 730 45 95

XOTIN-QIZLAR VA DEMOKRATIYA: JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TENGLIK HAMDA IMKONIYATLAR KAFOLATI

► ***Annotatsiya:*** *Maqola 15-sentabr — Xalqaro demokratiya kuni munosabati bilan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni tahlil qiladi. Qonun va farmonlarning fuqarolar huquq-erkinliklari, gender tenglik, fuqarolik jamiyati hamda xalqaro mezonlarga uyg‘unlikdagi o‘rni ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *Demokratiya, Xalqaro demokratiya kuni, inson huquqlari, gender tenglik, fuqarolik jamiyati, demokratik islohotlar, konstitutsiyaviy o‘zgarishlar, huquqiy davlat, shaffoflik, xalqaro mezonlar.*

► ***Аннотация:*** *В статье в связи с 15 сентября — Международным днём демократии — анализируются демократические реформы, проводимые в Узбекистане. Отмечается значение законов и указов последних лет в обеспечении прав и свобод граждан, гендерного равенства, развитии институтов гражданского общества и соответствии международным стандартам.*

Ключевые слова: *демократия, Международный день демократии, права человека, гендерное равенство, гражданское общество, демократические реформы, конституционные изменения, правовое государство, прозрачность, международные стандарты.*

► ***Abstract:*** *The article analyzes democratic reforms implemented in Uzbekistan in connection with September 15 — International Day of Democracy. It highlights the role of recent laws and decrees in ensuring human rights and freedoms, promoting gender equality, developing civil society institutions, and aligning with international standards.*

Keywords: *democracy, International Day of Democracy, human rights, gender equality, civil society, democratic reforms, constitutional changes, rule of law, transparency, international standards.*

Demokratiya – insoniyat taraqqiyotining eng qadimiy va eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biridir. Yunon tilidagi demos (xalq) va kratos (hokimiyat) so‘zlaridan tarkib topgan ushbu tushuncha asrlar davomida turli shakllarda amal qilib, bugungi kunda global siyosiy tizimlarning bosh mezoniga aylangan.

BMT Bosh Assambleyasining 2007-yil 8-noyabrdagi rezolyutsiyasiga ko‘ra, har yili 15-sentabr – “Xalqaro demokratiya kuni” sifatida nishonlanadi [1]. Ushbu sana xalqaro hamjamiyat uchun inson huquqlari, erkinlik, adolat, ijtimoiy tenglik kabi qadriyatlarni targ‘ib qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Demokratiya – insoniyat tafakkurining eng yuksak qadriyatlaridan biri. Bu, avvalo, inson huquqlarini ulug‘lash, fuqarolarning o‘z ovoziga ega bo‘lish huquqini qadrlash, jamiyatda adolat va hurfikrlikni qaror toptirish uchun eslatma sifatida qadrli.

O‘zbekiston ham mustaqillikka erishganidan buyon demokratik qadriyatlarni milliy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab kelmoqda. Xususan, so‘nggi yillarda qabul qilingan konstitutsiyaviy islohotlar, gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha qonunlar, inson huquqlariga oid milliy strategiyalar mazkur jarayonning amaliy ifodasidir.

Demokratiya faqat qonunlarda emas, balki hayotda, kundalik munosabatlarda o‘z ifodasini topmog‘i lozim. Chunki demokratiya – bu erkinlik bilan mas’uliyatning uyg‘unligi, shaxsning huquqlari bilan jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatdir. Har bir inson

o‘z fikrini erkin bildira olishi, jamiyatda u eshitilishi, qadrlanishi demokratik tamoyillarning ro‘yobidir.

Bugun ilm-fan, iqtisodiyot, ta’lim va madaniyatda erishilayotgan yutuqlar ham demokratik muhitning samarasidir. Yoshlarning tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanayotgani, ayollarga keng imkoniyatlar berilayotgani, nodavlat-notijorat tashkilotlari faoliyatining rivojlanayotgani – bularning bari jamiyatimizda demokratiya ildiz otganidan darak beradi. Zero, demokratiya – faqat siyosiy tuzum emas, u xalqning yuragidagi ishonch, kelajakka bo‘lgan intilish va yuksak ma’naviyat mezonidir.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida demokratiya tamoyillari bosqichma-bosqich shakllandi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon asosida siyosiy tizimni demokratlashtirish, sud-huquq sohasini mustahkamlash, so‘z erkinligini kengaytirish choralari amalga oshirildi [2]. Bu hujjat nafaqat davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, balki xalqimizning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, adolat va taraqqiyot sari dadil qadam qo‘yishning ramziga aylandi

Harakatlar strategiyasi beshta muhim ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

– davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;

– qonun ustuvorligi va sud-huquq tizimini isloh qilish;

– iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish;

– ijtimoiy sohani yuksaltirish;

– xavfsizlik va tashqi siyosatni mustahkamlash. Ushbu yo‘nalishlarning har biri xalqimiz hayotini yanada farovon, davlatimizni esa yanada kuchli qilishga qaratilgan.

Mazkur hujjat – xalqimiz uchun bir nurafshon yo‘l, maqsad sari yo‘naltiruvchi kompasga aylandi. Dehqon dalada mehnat qilayotganda ham, talaba darsxonada saboq olayotganda ham, olim ilm izlab qo‘lyozmalarni varaqlayotganda ham, qalblarda yagona umid – Yangi O‘zbekiston bunyodkorligi yotadi. Zero, Prezidentimiz aytganidek: “Yangi O‘zbekistonni barpo etish – barchamizning umumiy vazifamiz va sharafli burchimizdir”.

Farmon hayotga tatbiq etilganidan buyon ko‘plab islohotlar amalga oshirildi. Sud mustaqilligi mustahkamlanib, fuqarolarning huquq va erkinliklari kengroq kafolatlandi. Iqtisodiyotda erkin bozor tamoyillari joriy etilib, xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratildi. Ijtimoiy sohada esa aholining turmush darajasi, ta’lim hamda sog‘liqni saqlash tizimi sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi.

Bundan tashqari, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada “Inson – jamiyat – davlat” tamoyili asosiy g‘oya sifatida mustahkamlandi, inson huquqlari oliy qadriyat sifatida belgilandi [3]. Inson huquqlari oliy qadriyat darajasiga ko‘tarildi. Bu yondashuv, avvalo, yoshlar va ayollar huquqlarini yanada kengroq kafolatlashda o‘z aksini topmoqda. Bugun yosh avlodning ta’lim olishi, ilm-fan va texnologiya olamida o‘z o‘rnini topishi, davlat boshqaruvi hamda jamiyat hayotida faol qatnashishi uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayollarning huquq va erkinliklari esa faqat qog‘ozda emas, balki hayotiy amaliyotda ham o‘z tasdig‘ini topmoqda. Ular siyosiy maydonda ham, tadbirkorlikda ham, ilm-fanda ham o‘z salohiyati bilan jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shmoqda. Endilikda gender tenglik davlat siyosatining ajralmas tamoyiliga aylangan bo‘lib, bu esa har bir fuqaro – yoshi, jinsi va kasbidan qat’i nazar – imkoniyatlar tengligidan bahramand bo‘lishi mumkinligini anglatadi.

So‘nggi yillarda gender tenglik masalasi O‘zbekiston siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Chunki jamiyat taraqqiyoti, davlatning qudrati va xalqning farovonligi, avvalo, ayol hamda erkak huquqlari birdek kafolatlanganda mustahkam bo‘ladi. Bugun ayollar nafaqat oilaning tayanchi, balki jamiyatning barcha sohalarida – siyosat, iqtisodiyot, ta’lim, ilm-fan va madaniyatda faol ishtirok etmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikdan keyin demokratik tamoyillar asosida inson huquqlarini ta’minlash yo‘lida muhim qadamlar tashladi. Xususan, 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun [4], shuningdek yutboshimizning xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan farmonlari sohada huquqiy asosni mustahkamladi. Shu bilan birgalikda, BMTning CEDAW konvensiyasi – (Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risida konvensiya) bo‘yicha O‘zbekiston zimmasiga olgan majburiyatlari ham

milliy siyosatda gender tenglikni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro maydonda e'tirof etilgan Barqaror rivojlanish maqsadlaridan beshinchisi – SDG 5: Gender tenglikni ta'minlash O'zbekiston siyosatida ustuvor o'rin tutmoqda. Bu maqsad ayollar va qizlarning barcha sohalarda teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishini kafolatlashni nazarda tutadi. Shu bois, mamlakatimizda nafaqat qonunlar, balki amaliy dasturlar ham qabul qilinmoqda. Xususan, ayollarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lim olishini kengaytirish, siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini oshirish yo'lida salmoqli ishlar qilinmoqda.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, Skandinaviya mamlakatlari – Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya – gender tenglik bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi. Bu davlatlarda ayollar parlament va hukumat tarkibida 40 foizdan ortiq ulushga ega. Ta'lim va ish o'rinlarida ham erkak hamda ayol tengligi qat'iy ta'minlangan. O'zbekiston uchun ham ushbu tajribalar ahamiyatli yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda ayollarimizning ilmiy izlanishlari, startap loyihalari, davlat boshqaruvidagi faoliyati jamiyatimiz taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shmoqda. Ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi xotin-qizlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar – ularni kasb-hunarga o'qitish, imtiyozli kreditlar berish, o'z biznesini yo'lga qo'yishda qo'llab-quvvatlash – tenglik sari dadil qadamlar bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, gender tenglik – bu nafaqat huquqiy majburiyat, balki adolat, insonparvarlik hamda taraqqiyotning bosh mezonidir. Teng imkoniyat berilgan jamiyatgina o'z oldiga qo'ygan buyuk maqsadlariga erisha oladi.

Bugun bizning vazifamiz erishilgan yutuqlarni mustahkamlash, teng huquqli jamiyatni barpo etish va shu orqali Vatanimizni yanada taraqqiy ettirishdir. Zero, jamiyat taraqqiyotining mustahkamligi, davlat kuchi va xalq farovonligi erkak hamda ayollar huquqlari birdek kafolatlanganda ortadi. Bugungi kunda ayollar nafaqat oilaning bekasi bo'lib qolmay, balki siyosat, iqtisodiyot, ta'lim, ilm-fan, tadbirkorlik – ya'ni jamiyatimizning barcha qatlamlarida faol ishtirok etmoqda.

Xususan, 2024-yil sentabr-oktabr oylarida bo‘lib o‘tgan parlament saylovlarida Oliy Majlis Qonunchilik Palatasiga saylanganlar tarkibida ayollar ulushi 38 % ga yetdi – bu O‘zbekistondagi eng yuqori ko‘rsatkich [5]. Bu natija O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi gender tenglik borasidagi yetakchiligi alohida qayd etilayotganini ko‘rsatadi.

2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, noma’lum iqtisodiyot tarmoqlarida 43,860 ta kichik biznes va mikrofirmalarni ayollar boshqarayotgan edi – bu o‘tgan yilga nisbatan 6.3% ko‘payishni bildiradi. 2024-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, ayollar boshqaruvidagi firmalar net daromadi 31.8 trln so‘mni tashkil etib, bu o‘tgan yilga nisbatan taxminan 757 million dollar oshganiga teng. Bundan tashqari, UNDP hisobotida ayollarning tadbirkorlikdagi ishtiroki 2024-yilda 2,1 millionga yetganligi qayd etildi. 2020-yil bilan solishtirganda 7 baravar ko‘proq [6].

Quvonch va hayajon bilan aytish mumkin-ki, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida o‘qiydigan talabalarning 52 % ini ayollar tashkil etadi. Bu Respublikamizda ayollar ilm-fanga bo‘lgan e’tiborining yorqin tasdig‘idir. Buning natijasida, olis qishloq joylarida ta’limdagi ijtimoiy imtiyozlar natijasida yosh qizlarning oliygohlarga kirishi ham sezilarli o‘sdi. Tadqiqotlarga ko‘ra, maktabgacha ta’lim tarmog‘i kengaytirilgani natijasida ayollar mehnat bozoridagi ishtiroki 12 % ga o‘sdi [7]. Shuningdek, kreditlar va subsidiya dasturlari orqali 206,600 ayol tadbirkorlikka jalb qilindi, 55,100 nafariga 289 mlrd so‘mlik imtiyozli subsidiya ajratildi.

Bir vaqtlar qizlar faqatgina uy bekasi bo‘lib qolishga mahkumdek tuyulardi. Ammo bugun yangi O‘zbekiston qizlari minbarlarda nutq so‘zlamoqda, laboratoriyalarda ilmiy kashfiyotlar qilmoqda, xalqaro maydonlarda Vatan sha’nini munosib himoya etmoqda.

Shu o‘zgarishlarning yorqin dalili sifatida O‘zbekistonning gender tenglik bo‘yicha xalqaro reytinglarda yuksalishini ko‘rsatish mumkin. Chunonchi, 2022-yilda mamlakatimiz 103-o‘rinda qayd etilgan bo‘lsa, oradan ikki yil o‘tib, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 52-o‘ringa ko‘tarildi. Bu raqamlar ortida millionlab ayollarimizning orzulari, intilishlari va ularni qo‘llab-quvvatlayotgan davlat siyosati mujassam.

Endi tasavvur qiling: Qashqadaryodagi bir qiz – ilm-fan yo‘lida

olis xorijiy grantni qo‘lga kiritmoqda. Xorazmdagi ona esa kichik biznesini yo‘lga qo‘yib, oilasini boqish bilangina cheklanmay, qo‘shni ayollarni ham ish bilan ta’minlamoqda. Toshkentdagi yosh deputat qiz esa parlament minbarida o‘z xalqining manfaatini dadil himoya qilmoqda.

Bu sahnalar – tasodif emas. So‘nggi yillarda qabul qilingan qonun va qarorlar tufayli ayollarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni yanada mustahkamlanmoqda. Gender tenglik endi shunchaki shior emas, balki jamiyatimizning kundalik hayotiga singib borayotgan haqiqatdir. Ayollarga yaratilgan imkoniyatlar – imtiyozli kreditlar, kasb-hunarga o‘qitish dasturlari, siyosiy hamda iqtisodiy sohada faoliyatini kengaytirish choralari – mamlakatimizning kelajagi naqadar yorug‘ ekanini anglatadi. O‘zbekistonning gender tenglik bo‘yicha reytingdagi yuksalishi, bu xalqimizning yangi uyg‘onishi, tenglik sari tashlangan qat’iy qadamlardir. Chunki tenglik bo‘lgan joyda adolat bor, adolat bo‘lgan joyda esa taraqqiyot muqarrar.

Prezidentimizning so‘nggi farmon va qarorlarida ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ularni rahbarlik lavozimlariga jalb etish, ijtimoiy himoya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Zero, ayol – jamiyatning hayotbaxsh kuchi, mehr va sadoqat timsoli, kelajak avlodni voyaga yetkazuvchi buyuk maktabdir.

Bugun demokratik jamiyatimizning eng yorqin timsoli bu o‘z orzulari sari bemalol intilayotgan, huquqi himoya qilingan, imkoniyatlar eshigi keng ochilgan O‘zbekiston ayolidir. Endi u o‘z salohiyatini nafaqat oilada, balki davlat va jamiyat miqyosida ham namoyon etmoqda. Qizlarimiz ilm-fan, san’at, sport va tadbirkorlikda yuksak marralarni zabt etmoqda. Ayollarimiz rahbarlik lavozimlarida, jamoat ishlarida, xalq ishonchini oqlayotgan fidoyi insonlar sifatida maydonga chiqmoqda.

Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar har bir ayolning qalbiga ishonch, orzulariga qanot bag‘ishlamoqda. Ijtimoiy himoya tizimida onalik va bolalikni asrash, ko‘p farzandli onalarni moddiy qo‘llab-quvvatlash, nogironligi bo‘lgan ayollar uchun qulay sharoitlar yaratish singari ezgu ishlar jamiyatimizda mehr-muruvvat tuyg‘ularini yanada kuchaytirmoqda.

Ayolga bo‘lgan ehtirom – aslida hayotga bo‘lgan ehtiromdir.

Chunki ayolning tabassumida nur, sabrida kuch, mehrida esa butun bir xalqning qudrati mujassam. Shunday ekan, ayollarimizning har bir orzusi, har bir tashabbusi davlat va jamiyat qo‘lloviga sazovor bo‘layotgani Yangi O‘zbekistonning eng katta yutuqlaridan biridir. Bugun O‘zbekiston ayoli o‘zini dadil, ishonchli, ertangi kunini yorqin tasavvur eta oladigan shaxs sifatida namoyon etmoqda. Ularning orzulari qanot yozsa, jamiyatning kelajagi ham shunchalik porloq bo‘ladi.

Demak, demokratiya – bu inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi, gender tenglikning ta’minlanishi, fuqarolarning jamiyat boshqaruvidagi faol ishtirokidir. Demokratiya – bu qog‘ozdagi shior emas, balki odamlarning qalbidagi ishonchdir. Chunki erkinlik bor joyda ijod paydo bo‘ladi, adolat bor joyda taraqqiyot yuz beradi, tenglik bor joyda esa jamiyat uyg‘unlik topadi.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda ana shu qadriyatlarni hayot mezoniga aylantirib, xalqaro maydonda demokratik davlat sifatida o‘z o‘rnini tobora mustahkamlab bormoqda. Bugun yurtimiz – inson qadri ulug‘langan, ayol sha’ni e’zozlangan, yoshlar orzusi qanotlangan mamlakat sifatida tanilmoqda.

Bir haqiqatni unutmasligimiz kerak: demokratiya – daraxtdek. Uning ildizi – qonun ustuvorligi, shoxlari – inson huquqlari, mevalari esa – xalq farovonligidir. Bu daraxt qancha parvarish qilinsa, shuncha ko‘rkam, shuncha barakali bo‘ladi. Bugun bizning xalqimiz mana shu daraxt soyasida yashnamoqda. Xalq ovozi tinglangan, huquqi kafolatlangan, orzusi qadrlangan yurtda ertangi kunning yo‘li ham yorug‘ bo‘ladi. Shunday ekan, demokratiya – bizning kelajagimizni yoritib turgan chiroqdir. Bu chiroqni asrash, uni yanada porloq qilish – barchamizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. United Nations. *International Day of Democracy*. UN.org. https://www.un.org/en/observances/democracy-day.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni. Lex.uz. https://lex.uz/docs/3107036.

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // https://lex.uz/docs/6494636.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-sentabr, O‘RQ-562-son. Lex.uz. https://lex.uz/mact/-4494849.

5. // https://www.gazeta.uz/en/2024/11/01/deputies.

6. // https://www.undp.org/uzbekistan/publications/womens-entrepreneurship-uzbekistan-assessment-and-recommendations.

7. // https://timesca.com/expanding-preschool-education-boosts- womens-employment-in-uzbekistan.

Shuhrat OTAQULOV,
siyosiy fanlar bo‘yicha
falsafa doktori PhD, dotsent

O‘ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARI VA HUQUQIY KAFOLATLAR TIZIMIDA GENDER TENGLIGI MASALASI

► ***Annotatsiya:*** *Ushbu tezisda inson huquqlari xususan, gender tengligi masalasining O‘zbekiston Respublikasidagi ahamiyati va davlat siyosatidagi o‘rni ko‘rib chiqilgan. Gender tengligi nafaqat ijtimoiy adolat, balki milliy rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik va huquqiy davlat qurilishining muhim omili sifatida ta’kidlangan. Shuningdek, gender tengligini ta’minlash uchun ta’lim, sud-huquq tizimi, iqtisodiy imkoniyatlar yaratish va jamoatchilikni xabardor qilish kabi chora-tadbirlar taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *inson huquqlari, gender tenglik, ijtimoiy adolat, huquqiy davlat, xalqaro hamkorlik, sud-huquq tizimi, jamiyat.*

► ***Аннотация:*** *Тезис рассматривает значение гендерного равенства в системе прав человека и его место в государственной политике Узбекистана. Подчёркивается, что гендерное равенство — фактор социальной справедливости, национального развития, экономической стабильности и построения правового государства. Предлагаются меры в сферах образования, судебно-правовой системы, расширения экономических возможностей и общественной осведомлённости.*

Ключевые слова: *права человека, гендерное равенство, социальная справедливость, правовое государство, международное сотрудничество, судебно-правовая система, общество.*

► ***Abstract:*** *This thesis outlines the importance of gender equality within Uzbekistan's human rights agenda and state policy. It argues that gender equality is a driver of social justice, national development, economic stability, and the rule-of-law state. Proposed measures include education reforms, justice-sector improvements, economic empowerment, and public awareness.*

Keywords: *human rights, gender equality, social justice, rule of law, international cooperation, justice system, society.*

Inson huquqlari har qanday demokratik jamiyatning asosiy ustuni hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi ham mustaqillik yillaridan boshlab, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, ayniqsa, gender tengligi masalasini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olgan. Gender tenglik – faqatgina ijtimoiy adolat masalasi emas, balki milliy rivojlanish, barqaror iqtisodiy o‘sish va huquqiy davlat qurishning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyati inson huquqlarini kafolatlash va amalga oshirishga katta e’tibor qaratmoqda. Ushbu huquqlar ichida gender tengligi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u jamiyat taraqqiyoti, barqarorlik va inson qadrini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun asosiy omillardan biridir. Gender tengligi - bu erkaklar va ayollar, qizlar va o‘g‘il bolalar hayotning barcha jabhalarida teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishi demakdir. Bu degani, jinsidan qat’i nazar, har bir inson o‘z qobiliyatini to‘liq namoyon etishi va hayotda teng ishtirok etishi mumkin bo‘lishi kerak.

Gender tengligi masalasi BMTning qator muhim hujjatlarida o‘z ifodasini topgan. Jumladan: 1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi - «Har bir inson, jinsidan qat’iy nazar, teng huquqlarga egadir», deb ta’kidlaydi. Ayollarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etish to‘g‘risidagi konvensiya (CEDAW) – ayollarga nisbatan har qanday shakldagi kamsitishni tugatish maqsadida qabul qilingan muhim xalqaro hujjat hisoblanadi. 2030 yilgacha BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) – 5 – maqsadda aniq qilib gender tengligiga erishish va barcha xotin-qizlarning huquqlarini ta’minlash belgilangan.

Inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash har qanday huquqiy

davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu huquqlar barcha fuqarolar uchun, jinsidan, irqidan, dinidan va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, teng darajada kafolatlangan bo‘lishi shart. Shu nuqtai nazardan, gender tengligi masalasi O‘zbekiston Respublikasida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu masala nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning to‘liq amalga oshirilishi jamiyatning barqaror va adolatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda gender tengligini ta'minlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Konstitutsiyaviy, qonunchilik va institutsional asoslar mustahkamlandi, xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi ishtiroki kengaydi. Biroq, bu boradagi muvaffaqiyatlarga qaramasdan, hali ham yechilmagan masalalar mavjud bo‘lib, ularning bartaraf etilishi jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokini talab qiladi.

Gender tengligi nafaqat inson huquqlarini himoya qilish masalasi, balki iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki:

Ayollar ta'lim va mehnat bozorida faol ishtirok etganda, mamlakatning YaIM ko‘rsatkichlari yaxshilanadi.

Genderga asoslangan zo‘ravonlikni kamaytirish orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi.

Qiz bolalarning ta'lim olishi yangilanishlar davrida uzluksiz rivojlanish imkonini yaratadi.

Gender tengligini ta'minlash uchun quyidagi choralar ko‘rilishi lozim:

- Qonunchilik islohotlari – ay ollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni kafolatlovchi qonunlarni qabul qilish va amalda ta'minlash.

- Ta'lim va tarbiya – gender stereotiplarini yo‘q qilishga qaratilgan ta'lim dasturlarini joriy etish.

- Sud-huquq tizimida islohotlar – ayollarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish.

- Iqtisodiy imkoniyatlar yaratish – ayollar uchun tadbirkorlik va mehnat bozorida teng sharoitlar yaratish.

- Jamoatchilikni xabardor qilish – OAV va fuqarolik jamiyati orqali tenglik g‘oyalarini targ‘ib qilish.

O‘zbekistonda gender tenglikka erishish maqsadida bir qator huquqiy va institutsional asoslar yaratilgan. Jumladan:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023 yildagi yangi tahrir) 58-moddaga muvofiq, “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar”.

“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun (2019 yil). Bu qonun gender tengligini ta’minlash, diskriminatsiyaga qarshi kurashish va ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokiga yo‘l ochishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun (2019 yil). Oiladagi zo‘ravonlikka qarshi huquqiy kafolatlarni mustahkamlab, ayollarni himoya qilish bo‘yicha mexanizmlarni belgilab bergan.

Iqtisodiy sohada Ayollarni tadbirkorlikka jalb etish uchun imtiyozli kreditlar, grantlar va o‘quv dasturlari yo‘lga qo‘yilgan.

Siyosiy va davlat boshqaruvida Oliy Majlis Qonunchilik palatasida va Senatda ayollar soni 40 % ga yaqinlashgan – bu ko‘rsatkich Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Davlat boshqaruvida va mahalliy kengashlarda ayollar soni ortib bormoqda. Ayollarning huquqiy bilimlari oshirilmoqda, huquqiy maslahat markazlari tashkil etilgan.

Har qanday islohotlar jarayonida muvaffaqiyat bilan birga qator qiyinchiliklar ham yuzaga chiqadi. O‘zbekistonda ham gender tengligi sohasida quyidagi muammolar mavjud:

Muammo	**Yechim**
Ijtimoiy stereotiplar va “an’anaviy” qarashlar	Ta’lim tizimida gender masalalari bo‘yicha tarbiyani kuchaytirish
Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari	Sud-huquq tizimida maxsus himoya orderlari va psixologik yordam markazlarini kengaytirish

Muammo	Yechim
Qishloq joylarda imkoniyatlarning cheklanganligi	Qishloq xotin-qizlarini kasb-hunarga o‘rgatish va onlayn ta’limni rivojlantirish

O‘zbekiston Respublikasida gender tengligini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan davlat siyosati inson huquqlarini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim yo‘nalishdir. Gender tengligiga erishish – bu faqat ayollar emas, balki butun jamiyat manfaati yo‘lidagi islohotlardir. Davlat tomonidan yaratilgan huquqiy kafolatlar, islohotlar va amaliy choralar natijasida bu sohada muayyan yutuqlar qayd etilmoqda. Qonunchilik, institutsional mexanizmlar va amaliy dasturlar bu sohada ijobiy natijalar bermoqda. Biroq, mukammal tenglikka erishish uchun jamiyatdagi fikrlar va qarashlarni o‘zgartirish, ta’lim, OAV va jamoatchilikning faol ishtirokini ta’minlash lozim.

Gender tengligi – bu inson huquqlarining ajralmas qismi, faqatgina ayollar uchun emas, balki butun jamiyat uchun manfaatlidir. Bu tenglikka erishish orqali biz adolatli, barqaror va farovon jamiyatni barpo etishimiz mumkin. Xalqaro hamkorlik, milliy siyosatlar va jamoatchilik faolligi orqali gender tengligi yo‘lida mustahkam qadamlar qo‘yishimiz shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

2. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” 02.09.2019-yildagi O‘RQ–561-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019-y., 03/19/561/3680-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” 02.09.2019-yildagi O‘RQ-561-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019-y., 03/19/561/3680-son.

Tillabek Keldibekovich XUJANOV
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti stajyor tadqiqotchisi, E-mail: tillabekxojanov@gmail.com
Telefon: +99.895 449-04-77

O‘ZBEKISTONNING DEMOKRATIK RIVOJLANISHIDA BOLA HUQUQLARINI TA’MINLASH MASALALARI

► ***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada O‘zbekistonning demokratik rivojlanishida bola huquqlarini ta’minlash masalalari, shu boradagi qonunchilik hujjatlari va ularning ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *demokratik rivojlanish, bola huquqlari, strategiya, qaror, farmon, konvensiya, protokol.*

► ***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения прав ребёнка в демократическом развитии Узбекистана, освещаются соответствующие законодательные акты и их значение.*

Ключевые слова: *демократическое развитие, права ребёнка, стратегия, постановление, указ, конвенция, протокол.*

► ***Abstract:*** *This article addresses the issues of ensuring children’s rights in Uzbekistan’s democratic development, highlighting relevant legislation and its significance.*

Keywords: *democratic development, children’s rights, strategy, resolution, decree, convention, protocol.*

Har bir bola – kelajagimiz poydevori. Ularning xavfsizligi va huquqlari ta’minlanmasdan turib, barqaror rivojlanish haqida gapirib bo‘lmaydi. Ushbu masala nafaqat inson huquqlari, balki jamiyatning ma’naviy va ruhiy sog‘lomligi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Senatining parlament saylovidan keyingi birinchi majlisida bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka qarshi kurashish masalasini shaxsan nazoratga olishini ta’kidlab, “Madaniyatimizga xos bo‘lmagan bunday illatlarga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lishimiz va ayovsiz kurashishimiz shart” [1], deb qayd etdi davlatimiz rahbari.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda inson huquqlari bo‘yicha umume’tirof etilgan tamoyillar ustuvorligini ta’minlash, bola huquqlariga oid milliy qonunchilikni takomillashtirish, xalqa-

ro shartnomalar bajarilishini huquqiy tartibga solish bo‘yicha bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Shu bilan birga O‘zbekistonda bola huquqlari va manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha kompleks huquqiy asoslar yaratildi.

Milliy qadriyatlarimiz asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 78-moddasida, bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati [2] ekanligi kafolatlangan.

O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik tizimida bola huquqlariga oid qonunlar alohida o‘rin egallaydi. Bu boradagi fikrimizni tasdig‘i sifatida mamlakatimizda bola huquqlariga oid yuzdan ziyod me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligini, bola huquqlarini ta’minlash borasidagi ishlar “hech bir bola e’tibordan chetda emas” tamoili asosida amalga oshirilayotganligini qayd etib o‘tish joiz.

Bola huquqlariga oid qonunchilik haqida so‘z yuritarkanmiz, buni aniq misollar bilan ko‘rsatishni va bu sohada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni ayrimlariga nazar tashlashlikni joiz deb hisoblaymiz. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 07.01.2008-yilda qabul qilingan “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-139-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 29.09.2010 yilda qabul qilingan “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-363-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 02.01.2014-yilda qabul qilingan “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi O‘RQ-364-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 14.09.2016 yilda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-son Qonuni, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 22.04.2019-yildagi PQ-4296-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi 29.05.2019-yildagi PQ-4342-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash

tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 09.08.2021-yildagi PF-6275-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish to‘g‘risida”gi 25.04.2022-yildagi PQ-216-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 08.09.2023-yildagi PQ-296-son Qarori va bola huquqlarini ta’minlashga oid boshqa bir qancha normativ-huquqiy hujjatlarni qayd etishimiz mumkin.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, O‘zbekiston o‘zining demokratik rivojlanish yo‘lidan jadal borarkan, bu borada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida mamlakatni rivojlantirishning o‘ziga xos strategiyalari ishlab chiqilib, unda ko‘rsatilgan vazifa va maqsadlarni amalga oshirish borasidagi ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” va “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strtategiyasi” hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyalari bo‘lib, ushbu strategiyalarda belgilangan vazifalar markazida inson huquqlari, shu jumladan bola huquqlarini ta’minlash dolzarb masala bo‘lib kelgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni[3] asosida qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida bola huquqlari masalasi o‘z ifodasini topganligi mazkur soha doimo davlat siyosatining asosiy yo‘nalishi ekanligidan dalolat beradi. Ushbu strategiyaning 1-yo‘nalish 1-maqsadi maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash, umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari belgilangan bo‘lsa, strategiyaning 15-maqsadida bolalar o‘rtasidagi irsiy kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish, 16-maqsadida onalar va bolalar o‘limini qisqartirish, sog‘lom bolalikni ta’minlash, 20-maqsadida bolalarni to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, 24-maqsadida bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, bunda jamiyatda bolalarga nisbatan tazyiq va

zo‘ravonlikka toqatsizlik madaniyatini shakllantirish hamda ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni parvarishlash bo‘yicha muqobil noinstitutsionallashgan shakllarni joriy qilish kabi masalalar o‘rin olgan [3].

Bundan tashqari, strategiyaning mazkur 1-yo‘nalishida 8 ta maqsadni o‘z ichiga olgan Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo‘nalishlaridagi islohotlar bo‘yicha vazifalar va amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar belgilab berilgan [3].

Farmon asosida tasdiqlangan strategiyaga muvofiq bola huquqlarini ta’minlash borasida juda ko‘lab ishlar amalga oshirildi. Bulardan eng muhimi, “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-996-son Qonuni [4] qabul qilindi.

Yuqorida nomlari keltirilgan normativ-huquqiy hujjatlar bola huquqlari va uni ta’minlanishi borasida alohida qabul qilingan normativ hujjatlar bo‘lsa, bundan tashqari ko‘pgina qonun va qonunosti hujjatlarida ham bola huquqlariga oid alohida normalar o‘z aksini topganligini ko‘rishimiz mumkin.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlarida hamda Oila kodeksi, Mehnat kodeksi, Jinoyat kodeksi, Jinoyat protsessual kodeksi, Jinoyat ijroiya kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks va boshqa bir qator qonun hujjatlarida bolalar ya’ni, voyaga yetmagan shaxslarni huquq va manfaatlari nazarda tutilgan alohida normalar mavjud.

Shuningdek, O‘zbekiston bola huquqlariga oid o‘ndan ortiq xalqaro shartnomalarga qo‘shilgan. Xususan, O‘zbekiston BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi va uning ikkita Fakultativ protokoli ishtirokchisi sifatida mazkur hujjatlarning barcha qoidasiga to‘liq amal qilib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda so‘nggi yillarda O‘zbekistonning demokratik rivojlanishida bola huquqlarini ta’minlash maqsadida xalqaro Konvensiya va paktlarda nazarda tutilgan qoidalari milliy qonunchiligimizga hamda davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatiga izchillik bilan singdirilib kelinmoqda.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, bola huquqlarini ta’minlash

borasida qabul qilinayotgan qonunlar, ratifikatsiya qilinayotgan xalqaro hujjatlar, shuningdek, bola huquqlarini himoya qilish borasidagi chora-tadbirlar, ularning sog‘lom va har tomonlama rivojlanishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar O‘zbekistonni demokratik rivojlanishida bola huquqlarini ta’minlash davlat siyosati darajasida ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 18.11.2024 йилда бўлиб ўтган Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатининг биринчи мажлисида сўзлаган нутқидан // https://president.uz/uz/lists/view/7711.

2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.

3. Ўзбекистон Республикасининг “Болаларни зўравонликнинг барча шаклларидан ҳимоя қилиш тўғрисида” 14.11.2024 йилдаги ЎРҚ–996-сон Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 14.11.2024 й., 03/24/996/0921-сон.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида” 11.09.2023 йилдаги ПФ–158-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон.

Uyg‘un Abdirajabovich RO‘ZIYEV,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi bosh mutaxassisi

YOSHLARNING G‘OYAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIMNING AHAMIYATI

► ***Annotatsiya.*** *Maqolada yoshlarning g‘oyaviy immunitetini shakllantirishda ta’lim tizimining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Globallashuv va axborot oqimining ortishi sharoitida yoshlarning ongini yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, ularda tanqidiy fikrlash, fuqarolik pozitsiyasi va milliy qadriyatlarga sodiqlikni tarbiyalash masalalari yoritilgan. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari hamda Finlyandiya, Janubiy Koreya va Singapurning ilg‘or tajribalari tahlil qilinib, ta’lim tizimi orqali yoshlar ongida g‘oyaviy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar, g‘oyaviy immunitet, ta’lim, mafkuraviy barqarorlik, tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, milliy qadriyatlar.*

► ***Аннотация****: В статье рассматривается роль и значение системы образования в формировании идеологического иммунитета молодежи. В условиях глобализации и увеличивающегося потока информации подчеркивается необходимость защиты сознания молодых людей от внешнего идеологического воздействия, развития критического мышления, гражданской ответственности и верности национальным ценностям. Анализируются реформы системы образования в Узбекистане, а также опыт Финляндии, Республики Корея и Сингапура. Предлагаются практические меры по укреплению идеологической устойчивости молодежи посредством образования.*

Ключевые слова*: молодежь, идеологический иммунитет, образование, идеологическая устойчивость, критическое мышление, медиаграмотность, национальные ценности.*

► ***Abstract:*** *The article analyzes the role and importance of the education system in shaping the ideological immunity of youth. In the context of globalization and the increasing flow of information, it emphasizes the need to protect young minds from external ideological influences and to foster critical thinking, civic engagement, and loyalty to national values. The study reviews Uzbekistan’s educational reforms and examines advanced experiences from Finland, South Korea, and Singapore. Practical recommendations are proposed to strengthen the ideological resilience of youth through education.*

Keywords: *youth, ideological immunity, education, ideological stability, critical thinking, media literacy, national values.*

XXI asrda global axborot maydonida yuz berayotgan o‘zgarishlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan turli mafkuraviy va madaniy ta’sirlar yoshlarning ongini shakllantirishda muhim omilga aylandi.

“Datareportal” nashri ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-iyul holatiga yer yuzida internetdan foydalanuvchilar soni 5,65 mlrd kishiga yetib, dunyo aholisining 68,7%ini tashkil etgan. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar esa dunyo aholisining 65,7 %(5,4 mlrd)ini tashkil etmoqda.

O‘zbekistonda esa internetdan foydalanuvchilar 2025-yil 1-sentyabr holatiga aholining 94,2%ini tashkil etmoqda. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni 11,7 mln kishi(umumiy aholining 31,7%i)ni tashkil etgan.

Axborotning tezkorligi, global tarmoqlarning chegara bilmas tabiati va turli mafkuraviy oqimlarning faol kirib kelishi yoshlar ongida qarama-qarshi g‘oyalar to‘qnashuvini keltirib chiqarmoqda. Aynan shunday sharoitda g‘oyaviy immunitet tushunchasi yosh avlodni ma’naviy va mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish mexanizmi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Uning asosi — yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyati, milliy qadriyatlarga sodiqligi va axborot xavflarini anglay olish salohiyatidir.

O‘zbekistonda bu masala davlat siyosati darajasida ahamiyat kasb etmoqda. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yoshlarning qalbida Vatanga muhabbat, el-yurtiga sadoqat hissini tarbiyalamasak, biz kelajagimizni yo‘qotamiz”. Demak, g‘oyaviy immunitetni shakllantirishning asosiy vositasi — ta’lim tizimidir. Ta’lim faqat bilim berish emas, balki yoshlarni ma’naviy, axloqiy va fuqarolik jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalaydigan ijtimoiy institut hisoblanadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni jahon standartlariga moslashtirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. “O`zbekiston–2030” strategiyasi ta’lim tizimining sifatini oshirish, axborot texnologiyalarini keng joriy etish va yosh-

larda tanqidiy fikrlashni shakllantirishni asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgiladi.

Shuningdek, ta’lim jarayonida milliy qadriyatlar va jahon tajribalari uyg‘unlashtirilib, yoshlarda “ijobiy global fuqarolik” tuyg‘usini rivojlantirishga ham e’tibor berilmoqda.

G‘oyaviy immunitetni shakllantirishda ta’limning roli
Ta’lim tizimi yoshlarning fikrlash qobiliyatini, axborotni tahlil qilish salohiyatini va g‘oyaviy barqarorligini rivojlantirishda markaziy o‘rin tutadi. Maktabdan boshlab oliy ta’lim bosqichigacha bo‘lgan jarayonda yoshlar nafaqat fan bilimlarini, balki fuqarolik mas’uliyati, milliy o‘zligini anglash va madaniy dunyoqarashni egallaydilar.

Psixologik va pedagogik nuqtayi nazardan, g‘oyaviy immunitet uch bosqichda shakllanadi:

1. Kognitiv bosqich — yoshlar turli g‘oyalarni bilish va tahlil qilishni o‘rganadi;

2. Emotsional bosqich — milliy g‘urur va ma’naviy hissiyotlar mustahkamlanadi;

3. Povedental bosqich — yoshlar amaliy hayotda fuqarolik pozitsiyasini namoyon etadi. Bunda o‘quv jarayonida debatlar, keys tahlillar, ijtimoiy loyihalar, volontyorlik faoliyati kabi interaktiv usullarning joriy etilishi g‘oyaviy barqarorlikni amaliy ko‘nikma sifatida mustahkamlaydi.

Finlyandiyada ta’limning maqsadi — yoshlarda mustaqil qaror qabul qilish va axborotni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishdir. Maktablarda “Media ta’lim” va “Axborot xavfsizligi” fanlari orqali o‘quvchilar internetdagi ma’lumotlarning haqiqiyligi va ta’sirini baholashga o‘rgatiladi. Natijada fin yoshlari dezinformatsiya ta’siriga kamroq beriladi va g‘oyaviy barqarorlikni saqlaydi.

Janubiy Koreyada ta’lim jarayonida milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya va fuqarolik ongini rivojlantirishga qaratilgan fanlar katta ahamiyat kasb etadi. Maktablarda “Millliy birlik va axloq” fanlari orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, ijtimoiy mas’uliyat va insoniylik tarbiyalanadi. Hukumatning “Smart Education” dasturi orqali onlayn ta’limda ham milliy g‘oyaviy kontent keng tarqatilgan.

Singapurda esa “Character and Citizenship Education (CCE)” dasturi ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu dastur fuqarolik mas’uliyati, madaniy xilma-xillikni hurmat qilish, axborotni tanqidiy tahlil qilish va jamoa manfaatiga xizmat qilishni o‘rgatadi. Dastur davlat siyosati bilan uyg‘un holda amalga oshiriladi va yoshlarda g‘oyaviy barqarorlikni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, ta’limning maqsadi yoshlarga faqat bilim berish emas, balki ularni axborot va g‘oyaviy ta’sirlarga qarshi barqaror shaxs sifatida shakllantirishdir. Milliy g‘oya va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida qurilgan ta’lim tizimi mamlakatning ma’naviy va siyosiy barqarorligini ta’minlovchi asosiy omil bo‘lib qoladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimi yoshlarda g‘oyaviy immunitetni shakllantirishda asosiy va samarali vosita hisoblanadi. Shu jihatdan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida “Axborot madaniyati va g‘oyaviy barqarorlik” fanini joriy etish;

2. Pedagog kadrlar uchun mafkuraviy ta’lim va media savodxonlik bo‘yicha qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish;

3. Yoshlar orasida mafkuraviy tahdidlarga qarshi debatlar, yoshlar forumi va ijtimoiy loyihalarni ko‘paytirish;

4. Ta’lim muassasalarida milliy va jahon tajribalarini uyg‘unlashtirgan “Fikr maktablari” va yoshlar media-laboratoriyalarini yaratish;

5. Axborot xavfsizligi sohasida davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish.

Saidakmal Saidakbar o‘g‘li MAMASOLIYEV,
Toshkent davlat yuridik universiteti Xususiy huquq fakulteti 1-bosqich talabasi,“Yuksalish”harakati Toshkent viloyati bo‘linmasi faoli

ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARI

► ***Annotatsiya****. Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli inson huquqlari sohasida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinadi. Axborot makonida axborot erkinligi, feyk xabarlar tarqalishi, irqiy kamsitish va nafratga asoslangan targ‘ibotning ortishi inson qadr-qimmati va jamiyat xavfsizligi uchun jiddiy tahdid sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Maqolada axborot makonida inson huquqlarini himoya qilishda davlat, OAV va xalqaro institutlar zimmasiga tushadigan vazifalar hamda sun’iy intellektdan oqilona foydalanish masalalari atroflicha yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *inson huquqlari, sun’iy intellekt, axborot erkinligi, irqiy kamsitish, feyk axborot, xalqaro huquq, axborot xavfsizligi, konventsiyalar, milliy qonunchilik, OAVning vazifasi*

► ***Аннотация.*** *В статье анализируются проблемы, возникающие в сфере прав человека в связи с бурным развитием технологий искусственного интеллекта. Свобода информации, распространение фейковых новостей, рост расовой дискриминации и пропаганды ненависти в информационном пространстве считаются серьезной угрозой человеческому достоинству и общественной безопасности. В статье всесторонне рассматриваются задачи государства, СМИ и международных институтов по защите прав человека в информационном пространстве, а также вопросы рационального использования искусственного интеллекта.*

Ключевые слова: *права человека, искусственный интеллект, свобода информации, расовая дискриминация, фейковые новости, международное право, информационная безопасность, конвенции, национальное законодательство, роль СМИ*

► ***Abstract.*** *This article analyzes the problems arising in the field of human rights due to the rapid development of artificial intelligence technologies. Freedom of information, the spread of fake news, the increase in racial discrimination and hate propaganda in the information space are considered*

a serious threat to human dignity and public security. The article comprehensively discusses the tasks of the state, the media and international institutions in protecting human rights in the information space, as well as the issues of the rational use of artificial intelligence.

Keywords: *human rights, artificial intelligence, freedom of information, racial discrimination, fake news, international law, information security, conventions, national legislation, the role of the media*

Sun’iy intellekt davlatlarda ham xalqaro darajada turli kuchlar tomonidan foydalanilishi, bu sohada raqobat va kurash xalqaro munosabatlarda kuchlarning o‘zgarishiga olib kelishi muqarrar bo‘lishi mumkin. Ana shunday sharoitlarda kuchli huquqiy va yuqori texnologiyalarga ega davlatlar yangilangan va yanada qudratliroq bo‘lgan xalqaro institutlar bilan birgalikda global va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashi, yangi sharoitlarda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishi va kengaytirishi mumkin.

Yaqin kelajakda sun’iy intellekt paydo bo‘lgani ni hisobga olgan holda inson huquq va erkinliklarini qayta ko‘rish zarurati paydo bo‘ladi[1], – deb tadqiq etgan edi yuridik fanlar doktori, professor S. Udartsev. Olimning ushbu mulohazasidan kelib chiqsak, axborot makoni ayniqsa sun’iy intellektdan foydalanish yildan yilga ko‘payib bormoqda. Sun’iy intellekt insonga ma’lumotlar yetkazishda foydali texnologiya, ammo tangani ikkinchi tomoni bor bo‘lib, inson huquqlari sohasida xavfli tomonlari talaygina.

Biz ushbu tadqiqotda, ayni axborot makonida inson huquqlari sohasidagi ba’zi masalalarni ko‘rib chiqamiz. Sun’iy intellekt yaratilishi va uning turli shakllarini joriy etish fuqarolar hayotida va qurolli kuchlarda o‘z ifodasini topmoqda. Insoniyatning ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotining yangi darajasi inson huquqlari sohasida ham ko‘pgina yangi muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Huquq, shuningdek xalqaro hamda milliy darajada huquqiy tartibga solish ayrim asosiy tasavvurlarni qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Ular qatorida quyidagilarni keltirish mumkin:

– global jahon tartib qoidalari paydo bo‘lishi, xalqaro huquq va xalqaro institutlarda inqirozli holatlar, kelajakda xalqaro xavfsizlikning yangilangan modelini yaratish, xalqaro institutlar hamda

ilmiy-texnikaviy taraqqiyot darajasi, xalqaro maydondagi kuchlar o‘zgarishi;

– inson faoliyati bilan bog‘liq global ko‘lamda yetarli darajada nazorat qilinmaydigan va tartibga solinmaydigan global ekologiya muammolarining ortishi, texnologiya va iqtisodiy taraqqiyotning yangi darajaga ko‘tarilishi;

– o‘zini-o‘zi o‘qitadigan, dasturlay oladigan, muxtor tarzda qarorlar qabul qiladigan sun’iy intellekt tufayli inson va insoniyat uchun yangi xavflarning yaratilishi, sun’iy intellektning insoniyatga qo‘shilgan holda birgalikdagi taraqqiyot davri boshlanishi;

– kosmik iqtisodiyot va kosmik davlatchilikning, eng avvalo, jahondagi eng rivojlangan davlatlar asosida shakllanishi, koinotni zabt etishning yangi bosqichi boshlanishi va ushbu sohada yangi imkoniyatlar hamda hayotning barcha sohalarida tadqiqotlarning paydo bo‘lishi;

– yangi sharoitlarda davlatning barqaror modernizatsiyalanishi hamda huquqiy va yuqori texnologiyali kuchli davlatlarning shakllanishi, uning siyosati va huquqiy tartibot tizimi hisobga olinmoqda[2].

Sun’iy intellektdan biz ko‘pincha axborot olishda foydalanamiz. Bunda axborot olish erkinligimizda ham yangiliklar vujudga kelishi aniq. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 19-moddasida:

“Har bir inson e’tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir tusqsiz o‘z e’tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g‘oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat’i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o‘z ichiga oladi”[3]. Mashhur amerikalik huquqshunos Ralph Nader ta’biri bilan aytganda, “Axborot – demokratiyaning asosiy valyutasi”.

Zamonaviy demokratlar axborotdan foydalanish, uni tahlil qilish va tezkorlik bilan tarqatish imkoniyati zamonaviy jamiyatda inson kamolotining asosiy sharti ekanligini isbotladilar. Fikrlar va g‘oyalar xilma-xilligiga asoslangan davlatda, erkin va ochiq muhokamalar, odatda, har qanday masalada eng yaxshi yechim va tanlovga olib keladi, jiddiy xatolardan asraydi. Bu esa davlat hayotida axborot erkinligining muhim ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Ushbu mavzudagi xalqaro hujjatlarni tahlil etar ekanmiz, har bir hujjat nor-

masida milliy huquq tizimiga joriy etilishi mumkin bo‘lgan normalar talaygina topiladi. Axborot jamiyatida inson huquqlari va qonun ustuvorligi bo‘yicha Vazirlar Hay’atining deklaratsiyasida “internet nafaqat ochiq xabarlardaning hajmi va rang-barangligini oshirganligini, balki feyk, ya’ni yolg‘on xabarlarninng ham keng ko‘lamda va mislsiz tezkor tarqalishiga yo‘l ochib bergani”ni tan oladi[4].

Ilmiy tilda feyk ya’ni yolg‘on xabarlar fuqarolarning hayotiga va sog‘lig‘iga aniq xavf tug‘diradi. Ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarib, ko‘pincha davlat va jamiyat xavfsizligiga tahdid soladi. Axborot makonida birgina internetdagi ma’lumot ham insonning sha’ni qadr-qimmatiga xavf solishi mumkin. Ayniqsa ko‘p holatlarda irqiy kamsitish holatlari ijtimoiy tarmoqlarda uchrab turadi. Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyaning 4-moddasiga muvofiq, “Ishtirokchi davlatlar bir irq yoki muayyan tana rangi yoki etnik nasabdagi shaxslar guruhining ustunligi g‘oyalari yoki nazariyalariga asoslangan yoki qanday shaklda bo‘lmasin, irqiy nafrat va kamsitishni oqlash yoki rag‘batlantirishga urinadigan har qanday targ‘ibotni va barcha tashkilotlarni qoraydilar hamda shunday kamsitishni yoki kamsitish harakatlarini har qanakasiga gijgijlashni tugatishga qaratilgan shoshilinch va ijobiy tadbirlar qabul qilish majburiyatini oladi va shu maqsadda ular Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi prinsiplari hamda ushbu Konvensiyaning 5-moddasida aniq bayon etilgan qoidalarga binoan, boshqalar qatorida:

a) irqiy ustunlik yoki nafratga asoslangan g‘oyalarni har qanaqasiga yoyishni, irqiy kamsitishni har qanaqasiga gijgijlashni, shuningdek istalgan irq yoki boshqa tana rangi yoki etnik nasabdagi shaxslar guruhiga qarshi qaratilgan hamma zo‘ravonlik harakatlari yoki ularni gijgijlashni, shuningdek mablag‘ bilan ta’minlashni qo‘shib irqchilik faoliyatini o‘tkazish uchun har qanday yordam ko‘rsatishni qonunga binoan jazolanadigan jinoyat deb e’lon qiladilar;

b) irqiy kamsitishni rag‘batlantiradigan va uni gijgijlaydigan tashkilotlarni, shuningdek uyushgan va har qanday boshqa targ‘ibot faoliyatini qonunga qarshi deb e’lon qiladilar va taqiqlaydilar hamda shunday faoliyatda qatnashishni qonun bilan jazolanadigan jinoyat deb tan oladilar;

c) davlat hokimiyatining milliy yoki mahalliy organlariga yoki davlat muassasalariga irqiy kamsitishni yoki uni gijgijlashni rag‘batlantirishga ruxsat etmaydilar”[5] - deb bitilgan.

Hatto axborot olishga ham davlat shart-sharoit yaratadi va bir vaqtning o‘zida bir necha majburiyatlarni oladi. Davlatlar:

Irqiy nafrat va ustunlik g‘oyalarini yoyishni;

Irqiy kamsitishni targ‘ib qilishni;

biror irq, tana rangi yoki etnik guruhga qarshi zo‘ravonlikni gijgijlashni;

bunday harakatlarni moliyaviy yoki boshqa tarzda qo‘llab-quvvatlashni jinoyiy javobgarlikka tortiladigan xatti-harakatlar, deb e’lon qilishlari lozim.

Ushbu xalqaro hujjatni qabul qilgan davlat ushbu majburiyatlarni tegishli qonunlarida ham aks ettirishlari lozim. OAV barcha xalqlar va barcha shaxslarning huquqlari va qadr-qimmati irqi, jinsi, tili, dini yoki millatidan qat’i nazar birdek ta’minlanishiga va bashariyatning qashshoqlik, ocharchilik va kasallanish singari katta kulfatlariga e’tiborni jalb etishga ko‘maklashadi, shu yo‘l bilan davlatlarning xalqaro tanglikni yengillashtirishga va xalqaro nizolarni tinchlik hamda adolat asosida bartaraf etishga qaratilgan eng maqbul siyosatni ishlab chiqishida yordam beradi.

Xulosa sifatida, axborot makonida inson huquqlarini ta’minlashda sun’iy intellektdan oqilona foydalanish, milliy va xalqaro huquqiy normalarni mukammal muvofiqlashtirish, inson sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, axborot xavfsizligi va huquqiy madaniyatni yuksaltirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Yaqin kelajakda inson huquqlari konsepsiyasi sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar ta’sirida yangi huquqiy va etik qiyofaga ega bo‘lishi shubhasiz.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ударцев С.Ф. Право и государство как институты и идея: прошлое, настоящее и будущее (изброанное).-М.: Юрлитинформ,2022.-536

2. Udartsev S.F. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi: ahamiyati, asosiy ijodkorlar, XXI asrning yangi da’vatlari. // Demokratlashtirish va inson huquqlari ilmiy ma’rifiy jurnal – 2023. 3(99) – 26-b.

3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – Toshkent: “Adolat” milliy axborot huquqiy markazi, 2023. – 23-b.

4. So‘z, fikr va axborot erkinligi: xalqaro-huquqiy asoslar [Matn]: huquqiy hujjatlar to‘plami / A.X. Saidov, G‘. Mirzaev. – Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2021. – 7-b.

5. So‘z, fikr va axborot erkinligi: xalqaro-huquqiy asoslar [Matn]: huquqiy hujjatlar to‘plami / A.X. Saidov, G‘. Mirzaev. – Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2021.

Sharofat Akramovna ERKINOVA,
Phd student Institute for the Study of Youth Issues and Training of Promising Personnel
Tel: (+99897) 308 33 13 E-mail:akramovnasharofat@gmail.com

THE ROLE OF LEGAL GUARANTEES IN ADVANCING WOMEN`S RIGHTS AND GENDER EQUALITY IN UZBEKISTAN

► ***Annotatsiya:*** *Mazkur maqola O‘zbekistonda ayollar huquqlari va gender tengligini ilgari surishda huquqiy kafolatlarning rolini demokratik islohotlar va xalqaro inson huquqlari bo‘yicha majburiyatlar kontekstida tahlil qiladi. O‘zbekiston CEDAW kabi asosiy konvensiyalarni ratifikatsiya qilgan va ilg‘or milliy qonunlarni joriy etgan bo‘lsa-da, huquqiy normalar bilan ularning amaliy ijrosi o‘rtasida barqaror tafovutlar saqlanib qolmoqda. Konstitutsiyaviy kafolatlar, qonunchilik, xalqaro majburiyatlar va fuqarolik jamiyatining o‘rni tahlili orqali maqola erishilgan yutuqlar, muammolar va istiqboldagi yo‘nalishlarni ko‘rsatadi. Tadqiqot shuni ta’kidlaydiki, huquqiy islohotlar muhim poydevor yaratgan bo‘lsa-da, haqiqiy gender tengligi samarali ijro, institutsional salohiyat va madaniy o‘zgarishni talab etadi. Natijalar O‘zbekistonda inson huquqlari, huquqiy kafolatlar va ayollarni kuchaytirish o‘rtasidagi bog‘liqlikka doir davom etayotgan munozaralarga hissa qo‘shishni maqsad qiladi.*

Kalit so‘zlar: *inson huquqlari, gender tengligi, huquqiy kafolatlar, O‘zbekiston, ayollar huquqlari, CEDAW, mazmunan tenglik, ijro mexanizmlari*

► ***Аннотация:*** *В статье рассматривается роль правовых гарантий в продвижении прав женщин и гендерного равенства в Уз-*

бекистане в более широком контексте демократических реформ и международных обязательств в области прав человека. Несмотря на ратификацию ключевых конвенций, включая Конвенцию о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин (CEDAW), и принятие прогрессивных национальных законов, сохраняются разрывы между нормами и их практическим применением. Путём анализа конституционных гарантий, законодательства, международных обязательств и роли гражданского общества выявляются достижения, вызовы и перспективные направления. Делается вывод, что правовые реформы создали важный фундамент, однако подлинное гендерное равенство требует эффективного правоприменения, институциональной способности и культурной трансформации. Результаты призваны способствовать продолжающейся дискуссии о взаимосвязи прав человека, правовых гарантий и расширения прав и возможностей женщин в Узбекистане.

Ключевые слова: *права человека, гендерное равенство, правовые гарантии, Узбекистан, права женщин, CEDAW, существенное (материальное) равенство, механизмы исполнения*

► ***Abstract:*** *This paper examines the role of legal guarantees in promoting women's rights and gender equality in Uzbekistan within the broader framework of democratic reforms and international human rights obligations. While Uzbekistan has ratified key conventions such as the Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW) and introduced progressive national laws, persistent gaps remain between legal norms and their practical enforcement. By analyzing constitutional guarantees, legislation, international commitments, and the role of civil society, this paper highlights achievements, challenges, and future directions. It argues that while legal reforms have laid an important foundation, true gender equality requires effective implementation, institutional capacity, and cultural transformation. The findings are intended to contribute to ongoing debates about the relationship between human rights, legal guarantees, and women's empowerment in Uzbekistan.*

Keywords: *Human rights, gender equality, legal guarantees, Uzbekistan, women's rights, CEDAW, substantive equality, enforcement mechanisms.*

Introduction

Gender equality has become a central issue in global human rights discourse, particularly in the context of democratic development. Uzbekistan, as part of its reform agenda, has taken significant steps to align its domestic legal framework with international standards. The ratification of the Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW) and the adoption of the 2019 Law on Equal Rights and Opportunities for Women and Men represent milestones. At the same time, challenges persist in translating these commitments into lived realities for women, especially in rural areas where patriarchal traditions remain influential. This paper explores the effectiveness of legal guarantees in advancing women's rights and gender equality in Uzbekistan, with an emphasis on both achievements and continuing obstacles.

Human Rights and Gender Equality: Conceptual Framework

Human rights are understood as universal, indivisible, and inalienable rights that apply equally to men and women. Gender equality, in this sense, is not only a legal aspiration but a human right recognized in international law. Legal guarantees function as the primary mechanism through which states commit to ensuring equality. However, a distinction must be made between formal equality—laws that declare men and women equal—and substantive equality, which requires that outcomes reflect actual parity .[7] For instance, while a law may prohibit wage discrimination, systemic inequalities may persist due to cultural or institutional barriers [8,77-95 p.]. Feminist jurisprudence emphasizes the importance of structural transformation in addition to legal reforms, highlighting that true equality requires both normative change and effective implementation [3,45-68 p.]

International Commitments

Uzbekistan has actively engaged with international human rights frameworks. It ratified CEDAW in 1995, committing to eliminate discrimination against women in all spheres [10]. The country has also endorsed the Beijing Platform for Action (1995) and aligned its policies with the Sustainable Development Goals,

particularly Goal 5 on gender equality. Periodic reviews by the CEDAW Committee have acknowledged Uzbekistan's legislative reforms but also criticized implementation gaps, especially concerning gender-based violence and women's political participation[11].In addition, Uzbekistan is a party to the International Covenant on Civil and Political Rights (ICCPR) and the International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights (ICESCR), both of which enshrine non-discrimination and equal rights[9]. Despite these commitments, reservations and limited enforcement mechanisms continue to challenge the realization of women's rights in practice [4,112-135p.]

National Legal Framework in Uzbekistan

Domestically, Uzbekistan has undertaken significant reforms to promote gender equality. The Constitution of Uzbekistan enshrines equality before the law and prohibits discrimination based on gender [2].The 2019 Law on Equal Rights and Opportunities for Women and Men institutionalized gender equality, mandating equal treatment in employment, education, and political participation. In 2023, Uzbekistan adopted a landmark law criminalizing domestic violence, addressing a long-neglected issue in both legal and social spheres[12] .Institutionally, bodies such as the Ombudsman for Human Rights and the Women's Committee of Uzbekistan play pivotal roles in monitoring and advancing gender-related reforms. Government programs, often in collaboration with international partners such as UNDP and OSCE, have launched initiatives to improve women's access to education, health care, and entrepreneurship. Nevertheless, gaps remain in terms of enforcement, awareness, and resource allocation. Rural women, in particular, continue to face barriers related to traditional norms, economic dependence, and limited access to justice [1].

Challenges and Gaps

Despite notable progress, challenges persist in achieving substantive gender equality in Uzbekistan. Gender-based violence remains widespread, and cultural stigma often prevents women from reporting abuses [6].The economic gender gap is evident in both wages and access to leadership positions. Women are

underrepresented in parliament and local governance, despite legislative quotas [13].Intersectional discrimination compounds these challenges, particularly for women from rural or minority communities[5,45-62p].Another gap concerns the clash between statutory law and customary or religious practices. For instance, while civil law ensures equal inheritance rights, customary norms often privilege male heirs, undermining women's economic security [7].These tensions illustrate the fragility of legal reforms when confronted with entrenched patriarchal traditions. Furthermore, limited training for law enforcement and judicial officials often hinders the consistent application of gender-sensitive laws [3,45-68].

Role of Civil Society and International Partners

Civil society organizations play a crucial role in advancing women's rights in Uzbekistan. Women's associations, legal aid groups, and advocacy networks provide support for victims of discrimination and violence. International organizations such as UNDP, OSCE, and the World Bank have partnered with the government to fund projects on women's entrepreneurship, legal literacy, and gender mainstreaming in policy. However, civil society's capacity remains constrained by limited resources and regulatory challenges, which restrict their ability to serve as full partners in reform efforts.

Future Directions and Recommendations

To strengthen the role of legal guarantees in advancing gender equality, several steps are necessary. First, the monitoring of CEDAW implementation should be enhanced, with clear benchmarks and transparent reporting. Second, judicial and law enforcement training on gender-sensitive approaches must be prioritized to ensure consistent enforcement of laws on domestic violence and discrimination. Third, affirmative measures such as gender quotas should be expanded in political and corporate sectors to accelerate women's representation[8,77-95].Fourth, public awareness campaigns are needed to challenge patriarchal norms and promote cultural acceptance of gender equality. Finally, stronger partnerships with civil society and international actors can provide the resources and exper-

tise necessary to sustain reforms.

Conclusion

Uzbekistan has made notable strides in aligning its legal framework with international human rights standards concerning women's rights. From constitutional guarantees to recent legislative reforms, the state has demonstrated a commitment to advancing gender equality. Nevertheless, gaps between law and practice persist, particularly in enforcement, cultural acceptance, and institutional capacity. Legal guarantees remain a critical foundation, but their effectiveness depends on sustained political will, cultural transformation, and the active participation of civil society. As Uzbekistan continues its democratic development, strengthening these dimensions will be essential to ensuring that women's rights are not only protected in law but realized in practice.

References

1. Ahmad, M. M. N., Adi, S., & Ashfiya, N. (2024). Relevance of religious court decisions on marriage to national development policy directions. Evolutionary Journal, n.p.

2. Constitution of the Republic of Uzbekistan. (2023). Tashkent: Government of Uzbekistan, n.p.

3. Cornejo Díaz, D. A. (2025). Justicia en clave de género: jurisprudencia del Consejo de Estado. Universidad de los Andes, pp. 45–68.

4. El, E. A. S. A. (2025). Saudi women's rights between national laws and international conventions. Russian Law Journal, pp. 112–135.

5. Eruteya, U. (2024). Assessing the enforceability of the right to freedom from gender discrimination in Nigeria. Jurnal Legalitas, 12(2), 45–62.

6. O'Brien, C. M. (2024). The Equality Act 2010 and support services for rape survivors. SSRN Electronic Journal, n.p.

7. Premasiri, D. P. K. (2024). Married women's property rights under Thesawalamai law: A feminist jurisprudence perspective. Academia.edu, n.p.

8. Rajaura, S., & Yadav, H. (2024). International-cum-national legal framework and gender pay gap: A comprehensive study. Sambahak: Hu-

man Rights Journal, 6(1), 77–95.

9. United Nations. (1966). International Covenant on Civil and Political Rights. New York: UN Treaty Collection, n.p.

10. United Nations. (1979). Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW). New York: United Nations, n.p.

11. United Nations CEDAW Committee. (2022). Concluding observations on the sixth periodic report of Uzbekistan. Geneva: United Nations, n.p.

12. UNDP Uzbekistan. (2023). Domestic violence legislation in Uzbekistan: Progress and challenges. Tashkent: UNDP, n.p.

13. World Bank. (2021). Gender and development in Uzbekistan: Country report. Washington, DC: World Bank, n.p.

Farrux G‘ANIYEV,
O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrasi o‘qituvchisi. Elektron pochta: fargan77@bk.ru

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI VA DAVLAT BOSHQARUVIDA INSON HUQUQLARI VA

HUQUQIY KAFOLATLARI
(Turkiya Respublikasi misolida)

► **Annotatsiya:** *Maqolada Turkiya Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi o‘rni va inson huquqlarini ta’minlashga doir huquqiy kafolatlar tahlil qilinadi. 1982-yilgi Konstitutsiyadagi asosiy huquqlar, shuningdek Konstitutsiyaviy sud, Ombudsman va sudlarning himoya mexanizmlari ko‘rsatib beriladi. NNTlar, kasaba uyushmalari va OAVning nazorat, hisobdorlik va demokratik jarayonlarni mustahkamlashdagi roli yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *fuqarolik jamiyati institutlari, davlat boshqaruvi, inson huquqlari, huquqiy kafolatlar, Turkiya, demokratiya, konstitutsiyaviy huquq.*

► **Аннотация:** *Статья анализирует роль институтов гражданского общества в системе государственного управления Турции и правовые гарантии обеспечения прав человека. Освещаются базовые права, закреплённые Конституцией 1982 года, а также защитные механизмы Конституционного суда, омбудсмана и судебной системы. Показана роль НПО, профсоюзов и СМИ в контроле, повышении подотчётности и укреплении демократических процессов.*

Ключевые слова: *институты гражданского общества, государственное управление, права человека, правовые гарантии, Турция, демократия, конституционное право.*

► **Abstract:** *The article examines the role of civil society institutions in Turkey’s system of public governance and the legal guarantees for protecting human rights. It highlights fundamental rights in the 1982 Constitution and the safeguarding roles of the Constitutional Court, Ombudsman, and judiciary. The contribution of NGOs, trade unions, and the media to oversight, accountability, and strengthening democratic processes is outlined.*

Keywords: *civil society institutions, public governance, human rights, legal guarantees, Turkey, democracy, constitutional law.*

Tadqiqotning maqsadi

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – Turkiya Respublikasi misolida fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi o‘rni va inson huquqlari hamda erkinliklarini ta’minlashga oid huquqiy kafolatlarni o‘rganishdan iborat. Tadqiqotda 1982-yilgi Turkiya Konstitutsiyasida mustahkamlangan inson huquqlari normalarini tahlil qilish, davlat boshqaruvi tizimida Konstitutsiyaviy sud, Om-

budsman instituti va sud organlarining roli hamda samaradorligini yoritish, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining demokratiya va huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlashdagi ahamiyatini ochib berish maqsad qilingan.

Tadqiqot usullari

Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

1. Manbashunoslik va huquqiy tahlil usuli – Turkiya Respublikasining 1982-yilgi Konstitutsiyasi va inson huquqlariga oid milliy qonun hujjatlari, shuningdek, xalqaro huquqiy normalar tahlil qilindi.

2. Qiyosiy huquqshunoslik usuli – Turkiyaning inson huquqlariga oid huquqiy kafolatlari va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati boshqa demokratik davlatlar tajribalari bilan qiyosiy o‘rganildi.

3. Tarixiy usul – Turkiya Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishi va inson huquqlari tizimining shakllanish jarayonlari tarixiy tahlil etildi.

4. Tizimli tahlil usuli – davlat boshqaruvi organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning o‘rni va mexanizmlari kompleks tarzda ko‘rib chiqildi.

5. Doktrinal tahlil – turk huquqshunos olimlari, xalqaro tashkilotlar va ilmiy adabiyotlardagi nazariy qarashlar asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari:

Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. Turkiya Respublikasining 1982-yilgi Konstitutsiyasi inson huquqlari va erkinliklarini huquqiy jihatdan mustahkamlagani, ularning cheklanishi faqat demokratik jamiyat talablariga muvofiq ravishda amalga oshirilishi mumkinligi aniqlandi.

2. Konstitutsiyaviy sud, Ombudsman instituti va sud organlari inson huquqlarini himoya qilishda samarali mexanizm sifatida faoliyat yuritishi ilmiy asoslandi.

3. Turkiyada fuqarolik jamiyati institutlari (NNTlar, kasaba uyushmalari, ommaviy axborot vositalari) davlat boshqaruvini nazorat qilish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va inson huquqlari himoyasini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi, degan xulosaga kelindi.

4. Davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlik

inson huquqlarini hayotga tatbiq etish, hisobdorlik va shaffoflikni ta’minlashning muhim omili ekanligi ko‘rsatib o‘tildi.

5. Qiyosiy tahlil natijalari Turkiya tajribasi xalqaro demokratik standartlarga yaqin ekanligini, biroq ayrim sohalarda (so‘z erkinligi, ommaviy namoyishlar) huquqiy kafolatlarni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi.

Fuqarolik jamiyati institutlari har bir demokratik davlatda siyosiy, ijtimoiy va huquqiy barqarorlikning muhim asosi hisoblanadi. Inson huquqlari va erkinliklari esa fuqarolik jamiyatining asosiy tayanchi sifatida davlat boshqaruvi tizimida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Turkiya Respublikasi 1982-yilgi Konstitutsiyasi inson huquqlarini himoya qilish va ularni huquqiy jihatdan kafolatlashga yo‘naltirilgan qator normalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, so‘nggi o‘n yilliklarda mamlakatda demokratik jarayonlarning takomillashuvida muhim o‘rin tutib kelmoqda.

Maqolada Turkiya misolida fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi roli, inson huquqlari va erkinliklarining huquqiy kafolatlari hamda bu boradagi islohotlar tahlil qilinadi.

Fuqarolik jamiyati va davlat boshqaruvi – zamonaviy demokratik tuzumning ikki asosiy ustuni hisoblanadi. Ular o‘zaro qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi, ijtimoiy hamkorlikka asoslangan tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Davlat boshqaruvining asosiy vazifasi – qonun ustuvorligi va huquqiy tartibotni ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash hamda ijtimoiy taraqqiyot uchun zarur sharoit yaratishdan iborat. Fuqarolik jamiyati esa jamoat manfaatlarini ifoda etuvchi nodavlat tuzilmalar, kasaba uyushmalari, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy birlashmalar orqali davlat faoliyati ustidan nazorat o‘rnatadi va unga ta’sir ko‘rsatadi.

Bu o‘zaro munosabatda quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Hisobdorlik va shaffoflik – fuqarolik jamiyati davlat idoralari faoliyatining ochiqligini ta’minlashga ko‘maklashadi, davlat esa jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda siyosiy qarorlar qabul qiladi.

2. Inson huquqlarini himoya qilish – davlat qonunlar va huquqiy institutlar orqali huquqlarni kafolatlasa, fuqarolik jamiya-

ti ularning buzilish holatlarini aniqlab, jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadi.

3. Hamkorlik va muloqot – davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi muntazam muloqot siyosiy islohotlarni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

4. Demokratiyani mustahkamlash – fuqarolik jamiyati siyosiy jarayonlarda fuqarolarning ishtirokini ta’minlaydi, davlat esa huquqiy kafolatlar bilan bu ishtirokni himoya qiladi.

Turkiya tajribasida ham fuqarolik jamiyati va davlat boshqaruvi o‘zaro ta’sirchan munosabatda namoyon bo‘ladi. Nodavlat tashkilotlar, kasaba uyushmalari va mustaqil ommaviy axborot vositalari davlat siyosatini tahlil qiladi, parlament va ombudsman instituti esa fuqarolarning huquq va erkinliklarini huquqiy jihatdan ta’minlaydi.

Shu bois, fuqarolik jamiyati va davlat boshqaruvining o‘zaro munosabati – bu nafaqat nazorat va muvozanat mexanizmi, balki jamiyatda huquqiy davlat va kuchli demokratiyaning kafolati hisoblanadi.

Turkiyada inson huquqlari institutsional kafolatlari

Turkiya Respublikasida inson huquqlari va erkinliklari davlatning konstitutsiyaviy asosini tashkil etadi. 1982-yilgi Konstitutsiyada inson huquqlari “ajralmas va taqiqlanmaydigan huquqlar” sifatida e’tirof etilgan. Ammo huquqiy me’yorlarning amaliy jihatdan ta’minlanishi uchun samarali institutsional kafolatlar tizimi joriy etilgan bo‘lib, ular inson huquqlarini himoya qilish va huquqiy demokratik davlat tamoyillarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

1. Konstitutsiyaviy sud (Anayasa Mahkemesi)

Konstitutsiyaviy sud Turkiyada inson huquqlarining asosiy kafolatchilaridan biri hisoblanadi. Uning vakolatlariga quyidagilar kiradi:

Konstitutsiyaga zid qonun va me’yoriy hujjatlarni bekor qilish;

Fuqarolarning konstitutsiyaviy shikoyatlarini ko‘rib chiqish orqali inson huquqlari buzilish holatlarini bartaraf etish;

Demokratik tuzumga tahdid soluvchi siyosiy partiyalarni faoliyatini taqiqlash.

Bu sud inson huquqlarini himoya qilishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatuvchi va xalqaro standartlarga yaqin mexanizm sifatida

faoliyat yuritadi.

2. Ombudsman instituti (Kamu Denetçiliği Kurumu)

2010-yilda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar natijasida Turkiyada Ombudsman instituti tashkil etildi. Uning asosiy vazifalari:

Fuqarolarning davlat organlari bilan bog‘liq shikoyatlarini ko‘rib chiqish;

Davlat idoralari faoliyatida adolat va shaffoflikni ta’minlash;

Inson huquqlari buzilishini oldini olish va tuzatish bo‘yicha tavsiyalar berish.

Ombudsman mustaqillik asosida ish yuritadi va davlatning hisobdorligini kuchaytiradi.

3. Sud hokimiyati

Turkiyada inson huquqlarini himoya qilishning asosiy kafolatlaridan biri – mustaqil sud hokimiyatidir. Turk sudlari qonun ustuvorligini ta’minlaydi va har bir fuqaroning adolatli sudlov huquqini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, Turkiya Yevropa Kengashining a’zosi sifatida fuqarolarga Yevropa inson huquqlari sudiga murojaat qilish imkoniyatini ham kafolatlaydi.

4. Inson huquqlari va tenglik instituti (Türkiye İnsan Hakları ve Eşitlik Kurumu – TİHEK)

2016-yilda tashkil etilgan ushbu institut Turkiyada inson huquqlarini himoya qilishning yangi bosqichini boshlab berdi. Uning asosiy vazifalari:

Diskriminatsiyaning barcha shakllariga qarshi kurashish;

Inson huquqlari buzilishini monitoring qilish;

Milliy va xalqaro hamkorlik asosida huquqiy kafolatlarni takomillashtirish.

5. Fuqarolik jamiyati institutlari

Nodavlat tashkilotlar, kasaba uyushmalari, mustaqil ommaviy axborot vositalari Turkiyada inson huquqlari himoyasida muhim rol o‘ynaydi. Ular jamoatchilik nazoratini ta’minlab, davlat organlari faoliyati ustidan ta’sirchan monitoringni amalga oshiradi.

Turkiyada inson huquqlari institutsional kafolatlari ko‘p qirrali tizimdan iborat bo‘lib, unga Konstitutsiyaviy sud, Ombudsman ins-

tituti, sud hokimiyati, TIHEK kabi maxsus organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari kiradi. Bu tizim inson huquqlari buzilishini oldini olish, buzilgan huquqlarni tiklash va demokratik davlat prinsiplarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro tahlillar Turkiyada so‘z erkinligi va tinch namoyishlar kabi sohalarda kafolatlarni yanada takomillashtirish zarurligini qayd etadi.

Inson huquqlari va huquqiy kafolatlarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyatining roli

Fuqarolik jamiyati – bu davlatdan mustaqil ravishda faoliyat yurituvchi, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ifoda etuvchi, turli ijtimoiy guruhlarning tashabbuslariga asoslangan institutlar tizimidir. Inson huquqlari va huquqiy kafolatlarni hayotga tatbiq etish jarayonida fuqarolik jamiyatining ishtiroki hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki davlatning qonun ustuvorligi va demokratik boshqaruvi aynan fuqarolarning faol ishtiroki orqali samarali bo‘ladi.

1. Jamoatchilik nazorati va hisobdorlik

Fuqarolik jamiyati institutlari – nodavlat tashkilotlar, kasaba uyushmalari, mustaqil ommaviy axborot vositalari davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Bu jarayon davlat hokimiyatining shaffofligi va hisobdorligini ta’minlaydi. Masalan, inson huquqlari buzilish holatlarini fosh etish va jamoatchilik muhokamasiga olib chiqish orqali davlat organlari o‘z faoliyatini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ladi.

2. Inson huquqlari himoyasida hamkorlik

Fuqarolik jamiyati davlat bilan hamkorlikda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish jarayonlarida faol ishtirok etadi. Nodavlat tashkilotlar huquqiy islohotlar yuzasidan takliflar kiritadi, parlament muhokamalarida ekspert sifatida qatnashadi, ommaviy ma’rifiy ishlar orqali fuqarolarning huquqiy ongini oshiradi. Bu esa huquqiy kafolatlarning hayotga samarali tatbiq etilishiga zamin yaratadi.

3. Jamoatchilik fikri va siyosiy jarayonlarda ishtirok

Fuqarolik jamiyati demokratik jarayonlarning asosiy ishtirokchisi sifatida siyosiy qarorlar qabul qilinishida fuqarolarning manfaatlarini ifoda etadi. Jamoatchilik fikri davlat siyosatini shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolar davlat qarorlaridan xabardor bo‘lib, o‘z munosabatini bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

4. Huquqiy madaniyat va ma’rifatni oshirish

Inson huquqlari va huquqiy kafolatlarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyatining muhim vazifalaridan biri – fuqarolarning huquqiy bilim va madaniyatini oshirishdir. Huquqiy savodxonlikka ega bo‘lgan fuqarolar o‘z huquqlarini samarali himoya qila oladi va davlatning huquqiy siyosatini baholashda faol ishtirok etadi. Turkiyada inson huquqlari sohasida faoliyat yurituvchi NNTlar, xususan, advokatlar uyushmalari va akademik markazlar aholi huquqiy ongini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

5. Xalqaro standartlarni joriy qilishdagi ahamiyat

Fuqarolik jamiyati institutlari xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, Turkiyaning inson huquqlari sohasida xalqaro majburiyatlarini bajarishida ham ko‘maklashadi. Ular Yevropaning inson huquqlari standartlari, BMT konvensiyalari va YEI talablarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish jarayonida ta’sirchan ishtirok etadi.

Fuqarolik jamiyati inson huquqlari va huquqiy kafolatlarni amalga oshirishda nazoratchi, hamkor, ma’rifiy kuch va tashabbuskor sifatida davlat boshqaruvining ajralmas qismi hisoblanadi. Turkiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, inson huquqlarining samarali himoyasi faqat davlat institutlari orqali emas, balki fuqarolik jamiyatining faol ishtirokisiz to‘liq ta’minlanishi mumkin emas. Shu bois, salohiyatli va mustaqil fuqarolik jamiyati inson huquqlari kafolatlarini hayotga tatbiq etishning eng muhim omili hisoblanadi.

Turkiyada islohotlar va dolzarb muammolar

1. Konstitutsiyaviy islohotlar

Turkiya Respublikasida so‘nggi o‘n yilliklarda inson huquqlari va demokratik boshqaruvni takomillashtirishga qaratilgan qator konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirildi. 2010-yilda o‘tkazilgan referendum natijasida Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgarishlar inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qildi. Jumladan, fuqarolarning Konstitutsiyaviy shikoyat instituti joriy etildi va Ombudsman tashkiloti ta’sis etildi. Bu qadamlar fuqarolarning davlat organlari ustidan huquqiy nazorat imkoniyatlarini kengaytirdi.

2. Sud-huquq tizimidagi islohotlar

Sud tizimini mustaqil va xolis qilish maqsadida qator qonunlar

qabul qilindi. Sudyalar va prokurorlarni tayinlashda siyosiy ta’sirni kamaytirish, sud jarayonlarini shaffof va tezkor qilish choralari ko‘rildi. Shu bilan birga, Turkiya Yevropaning Inson huquqlari sudi (ECHR) qarorlarini milliy huquq tizimida tatbiq etishga majburdir. Biroq amaliyotda ayrim hollarda sud mustaqilligi va adolatli sudlov tamoyillari bo‘yicha bahslar saqlanib qolmoqda.

3. Inson huquqlari sohasidagi islohotlar

Turkiyada so‘nggi yillarda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash maqsadida qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Masalan:

Inson huquqlari va tenglik instituti (TİHEK) ta’sis etildi (2016);

Jazo-ijro tizimida insonparvar yondashuv kuchaytirildi;

Bolalar va ayollar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha alohida dasturlar ishlab chiqildi.

Biroq shu bilan birga, so‘z va matbuot erkinligi, tinch yig‘ilishlar o‘tkazish huquqi, siyosiy plyuralizm kabi sohalarda hamon jiddiy muammolar mavjud.

4. Siyosiy tizimdagi o‘zgarishlar

2017-yilda qabul qilingan konstitutsiyaviy islohotlar asosida Turkiya parlament tizimidan prezidentlik boshqaruviga o‘tdi. Bu o‘zgarishlar davlat boshqaruvini markazlashtirdi va ijro hokimiyatining kuchayishiga olib keldi. Hukumat tarafdorlari bu islohotlarni samaradorlik va tezkor qaror qabul qilish nuqtai nazaridan ijobiy baholasa, muxolifat bu jarayonni hokimiyatlar bo‘linishi va demokratiya uchun xavfli deb hisoblaydi.

5. Dolzarb muammolar

Hozirgi kunda Turkiyada inson huquqlari va davlat boshqaruviga oid qator muammolar dolzarbligicha qolmoqda:

So‘z va matbuot erkinligi: mustaqil jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari faoliyatiga bosim haqida xalqaro tanqidlar mavjud.

Siyosiy huquqlar: ayrim muxolifat partiyalari va fuqarolik jamiyati faollari siyosiy jarayonlarda cheklanishlarga duch kelmoqda.

Tinch namoyishlar: ommaviy yig‘ilishlar huquqi qonunan kafolatlangan bo‘lsa-da, amaliyotda turli cheklovlar qo‘llanilayotgani kuzatiladi.

Sud mustaqilligi: sud tizimida ijro hokimiyati ta’sirini kamaytirish borasidagi islohotlar yetarli darajada samara bermayapti.

Turkiyada amalga oshirilgan islohotlar inson huquqlari va demokratik institutlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lsa-da, ayrim sohalarda muammolar saqlanib qolmoqda. Davlat boshqaruvining samaradorligi bilan bir qatorda, hokimiyatlar bo‘linishi, so‘z erkinligi va fuqarolik jamiyati ishtirokini kuchaytirish Turkiyaning kelgusi demokratik rivojlanish yo‘lida hal etuvchi vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Turkiya Respublikasi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat boshqaruvi o‘zaro chambarchas bog‘liq, bir-birini to‘ldiruvchi ikki asosiy demokratik ustun hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati orqali davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati amalga oshiriladi, davlat esa huquqiy kafolatlar orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi.

Inson huquqlari Turkiya Konstitutsiyasida eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan va ularni ta’minlash uchun Konstitutsiyaviy sud, Ombudsman instituti, Inson huquqlari va tenglik instituti, mustaqil sudlar hamda fuqarolik jamiyati tashkilotlari kabi samarali institutsional kafolatlar tizimi shakllantirilgan. Bu tizim fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta’minlash va demokratik davlat tuzumini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Biroq tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Turkiyada inson huquqlari sohasida so‘z va matbuot erkinligi, tinch namoyishlar o‘tkazish huquqi, sud mustaqilligi va siyosiy plyuralizm kabi masalalarda hal etilishi zarur bo‘lgan muammolar mavjud. Davlat tomonidan amalga oshirilgan konstitutsiyaviy va sud-huquq islohotlari muhim natijalar bergan bo‘lsa-da, demokratiyaning barqaror rivojlanishi uchun fuqarolik jamiyatining rolini yanada kuchaytirish, hisobdorlik va shaffoflik mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

Turkiya tajribasi fuqarolik jamiyati va davlat boshqaruvi o‘rtasidagi hamkorlik inson huquqlarini ta’minlashning eng samarali yo‘li ekanligini ko‘rsatadi. Mustahkam huquqiy kafolatlar va faol fuqarolik jamiyati demokratik davlatning asosiy shartlaridan biri bo‘lib, Turkiyaning keyingi demokratik taraqqiyoti ham aynan shu yo‘nalishda amalga oshishi dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

- Turkiya tajribasi inson huquqlari kafolatlarini ta’minlashda fuqarolik jamiyatining muhimligini namoyon etadi.

• Davlat boshqaruvida inson huquqlari va huquqiy kafolatlarni amalga oshirish – faqat qonunchilik emas, balki institutlar va fuqarolarning faol ishtirokini talab etadi.

• O‘zbekiston uchun ham Turkiya tajribasi o‘rnak bo‘lib, fuqarolik jamiyati va davlat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Republic of Turkey Constitution (1982, amended 2017).

2. European Court of Human Rights. Case-law concerning Turkey.

3. Özbudun, E. (2012). The Constitutional System of Turkey. Palgrave Macmillan.

4. İnsel, A., & Bayramoğlu, Y. (2019). Civil Society in Turkey. İletişim Yayınları.

5. Human Rights Watch, World Report: Turkey (2023).

6. Bilig Journal of Social Sciences – selected articles on constitutional law and human rights.

7. Türkiye Cumhuriyeti Anayasası (1982). Resmî Gazete, 9 Kasım 1982, Sayı: 17863.

8. Anayasa Mahkemesi (Constitutional Court of Turkey). Resmî веб-сайт: https://www.anayasa.gov.tr

9. Kamu Denetçiliği Kurumu (Ombudsman Institution of Turkey). Resmî веб-сайт: https://www.ombudsman.gov.tr

10. Türkiye İnsan Hakları ve Eşitlik Kurumu (TİHEK). Resmî веб-сайт: https://www.tihek.gov.tr

11. European Court of Human Rights (ECHR). *Case-law of Turkey*. Strasbourg: Council of Europe.

12. Human Rights Watch (2023). *Turkey: Annual Report on Human Rights Practices*. New York: HRW.

13. Amnesty International (2022). *Turkey 2022 Human Rights Report*. London: Amnesty International.

14. Zürcher, E. J. (2017). *Turkey: A Modern History*. London: I.B. Tauris.

15. Özbudun, E. (2011). *The Constitutional System of Turkey: 1876 to the Present*. New York: Palgrave Macmillan.

16. İnsel, A. (2018). *Demokrasi ve İnsan Hakları Türkiye Deneyimi*. İstanbul: İletişim Yayınları.

17. European Commission (2023). *Türkiye 2023 Report*. Brussels: European Union.

18. United Nations Human Rights Council (2022). *Universal Periodic Review – Turkey*. Geneva: UNHRC.

19. Keyman, E. F. & Gümüşçü, Ş. (2014). *Democracy, Identity and Foreign Policy in Turkey*. London: Palgrave Macmillan.

20. Heper, M. & Sayarı, S. (2012). *The Routledge Handbook of Modern Turkey*. London: Routledge.

Islomiddin Jamolovich ABRAROV,
Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI

► ***Annotatsiya:*** *Maqolada O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy va institutsional asoslari tahlil qilingan. Unda 2016-yildan boshlab boshlangan tub islohotlar, yangi Konstitutsiyada yoshlar huquqlarining mustahkamlanishi, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa institutlarning faoliyati hamda fuqarolik jamiyati tuzilmalarining o‘rni yoritilgan. Shuningdek, yoshlar siyosatida davlat-jamoat hamkorligi, mahalla tizimi, “Yoshlar daftari” mexanizmi va nodavlat sektorning ishtiroki muhim yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan. Tadqiqotda yoshlarga oid siyosatni samarali amalga oshirishda davlat, fuqarolik jamiyati va xususiy sektorning o‘zaro hamkorligi dolzarb masala sifatida ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *yoshlarga oid siyosat, Yoshlar ishlari agentligi, fuqarolik jamiyati, Yoshlar ittifoqi, Konstitutsiya, davlat-jamoat hamkorligi, yoshlar yetakchisi, Yoshlar daftari, mahalla, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash*

► ***Аннотация:*** *В статье анализируются правовые и институциональные основы молодежной политики в Узбекистане. Рассматриваются реформы, начатые с 2016 года, закрепление прав молодежи в новой Конституции, деятельность Агентства по делам молодежи и других институтов, а также роль структур гражданского общества. Особое внимание уделяется государственно-общественному сотрудничеству, системе махалли, механизму «Молодежная тетрадь» и участию негосударственного сектора. Отмечается, что эффективная реализация молодежной политики требует тесного взаимодействия государства, гражданского общества и частного сектора.*

Ключевые слова: *молодежная политика, Агентство по делам молодежи, гражданское общество, Союз молодежи, Конституция, государственно-общественное сотрудничество, лидер молодежи, «Молодежная тетрадь», махалля, социальная поддержка*

► ***Annotation:*** *The article analyzes the legal and institutional foundations of youth policy in Uzbekistan. It examines the reforms launched since 2016, the consolidation of youth rights in the new Constitution, the role of the Youth Affairs Agency and other institutions, as well as the contribution of civil society structures. Particular attention is given to state-society cooperation, the mahalla system, the "Youth Notebook" mechanism, and the involvement of the non-governmental sector. The study emphasizes that the effective implementation of youth policy depends on close collaboration among the state, civil society, and the private sector.*

Keywords: *youth policy, Youth Affairs Agency, civil society, Youth Union, Constitution, state-society cooperation, youth leader, Youth Notebook, mahalla, social support*

Yoshlar jamiyat taraqqiyotining strategik resursi va asosiy ishtirokchisi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi aholisi tarkibida yoshlar ulushi juda yuqori bo‘lib, Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvar holatiga respublika bo‘yicha yoshlar (14-30 yosh) soni 9 630 556 kishini yoki jami aholining 25,7 foizini tashkil etgan[1]. Shu bois davlat siyosatida yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanib kelinmoqda. Ayniqsa, 2016-yildan boshlab Yangi O‘zbekiston islohotlari doirasida yoshlar masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Ma’lumki, Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida imzolagan ilk qonun hujjati ham 2016-yil 14-sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun edi[2]. Shu kundan e’tiboran yoshlar sohasi bo‘yicha tub yangilanishlar amalga oshirildi. 2017–2021-yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida yoshlar huquqlarini ta’minlash, ularni bandlik, ta’lim, tadbirkorlik va ijtimoiy faollik jihatidan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator dasturlar boshlandi. 2021-yil mamlakatimizda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e’lon qilinib, yoshlar siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha Davlat dasturi qabul qilindi

Yoshlar siyosatini samarali amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli alohida ahamiyatga ega. Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasiga nodavlat notijorat tashkilot-

lari (NNT), jamoat birlashmalari, yoshlar tashkilotlari, mustaqil OAV, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa nodavlat tuzilmalar kiradi. Ushbu institutlar davlat va jamiyat o‘rtasida ko‘prik bo‘lib, yoshlar bilan bevosita ishlash, ularning muammolarini aniqlash va hal etishda, siyosatni “quyi bo‘g‘in”-da ijro etishda muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimizda 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyati va yoshlar masalalariga alohida e’tibor qaratdi. Konstitutsiyaning XIV bobi “Oila, bolalar va yoshlar”da davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini himoya qilishini hamda ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantirishini qat’iy belgiladi[3]. Shu bilan birga, Konstitutsiyada davlat organlariga yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish vazifasi yuklatildi[4]. Bu normalar yoshlar siyosatini faqat davlat idoralari emas, balki keng jamoatchilik ishtirokida amalga oshirish zaruratini konstitutsiyaviy darajada e’tirof etadi[5].

O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning institutsional tuzilmasi so‘nggi yillarda sezilarli darajada yangilandi. Asosiy davlat instituti sifatida 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Agentlik yoshlarga oid davlat siyosatini shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi bo‘lib, uning Respublika darajasidagi markazi bilan bir qatorda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida boshqarmalari hamda tuman (shahar)larda bo‘limlari faoliyat yuritadi.

Ushbu vertikal tuzilma orqali Agentlik joylardagi barcha yoshlar siyosati tadbirlarini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va amalga oshirishga mas’ul etib belgilangan. Agentlik zimmasiga normativ-huquqiy ijodkorlik, tarbiyaviy va ma’naviy-ma’rifiy ishlar, yoshlar huquqlarini himoya qilish, yoshlarni ishga joylashtirish va tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash kabi keng ko‘lamli vazifalar yuklatilgan

Jumladan, Agentlik o‘z vakolati doirasida qabul qilgan qarorlar yoshlar siyosatini amalga oshirishga mas’ul barcha davlat organlari va tashkilotlar uchun majburiy ekani belgilangan

Shuningdek, Agentlik davlat organlari va mahalliy hokimiyatlardan yoshlar siyosati bo‘yicha axborot va tushuntirishlar talab qilish, rahbarlarga yoshlar huquqlari buzilishi yuzasidan kiritilgan taqdimnomalarni ko‘rib chiqishni majburiy tartibda ta’minlash huquqiga ega.

Fuqarolik jamiyati institutlari orasida eng yirik aktor – O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi (sobiq “Kamolot” YOIH) hisoblanadi. 2017-yilda tashkil etilgan ushbu yoshlar tashkiloti huquqiy jihatdan nodavlat notijorat jamoat birlashmasi bo‘lib, mamlakatdagi 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning aksariyat qismini qamrab oluvchi ixtiyoriy uyushmadir. Yoshlar ittifoqi davlat tomonidan yoshlar sohasida ijtimoiy buyurtma funksiyasini bajaradi va uning rahbari mamlakat Prezidenti huzuridagi Yoshlar kengashi tarkibiga kiritilgan. 2020-yilgi islohotlar natijasida Yoshlar ittifoqi maqomi va faoliyati qayta ko‘rib chiqildi: xususan, Ittifoqning moddiy-texnika bazasi negizida “Yoshlar media xoldingi” aksiyadorlik jamiyati tashkil etilib, unga davlat ommaviy axborot vositalarida yoshlar mavzusidagi ko‘rsatuv va nashrlarni tayyorlash yo‘nalishi biriktirildi

Bu bilan yoshlar masalalarini yorituvchi OAVlar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsad qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshidagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tuzilmasi takomillashtirilib, unga yoshlar siyosati samaradorligini tahlil qilish va inson resurslarini rivojlantirish vazifalari yuklatildi

Yoshlar siyosati sohasida bevosita faoliyat yuritayotgan yana bir davlat organi – Yoshlar ishlari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengashdir. 2020-yil 30-iyundagi Prezident farmoniga asosan tuzilgan ushbu kengash hukumat va fuqarolik jamiyati hamkorligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, uning tarkibiga tegishli vazirlik-idoralar vakillari, Yoshlar ittifoqi rahbariyati, yetakchi NNTlar hamda faollar kiritilgan. Kengash mamlakat bo‘ylab yoshlar siyosati yuzasidan qabul qilingan dastur va qarorlar ijrosini muvofiqlashtirish va monitoring qilish vakolatiga ega.

2025 yilda O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid siyosat yangi bosqichga ko‘tarildi. Yangi tashabbuslar, qonunchilikdagi o‘zgarishlar va amaliy loyihalar orqali yoshlarning jamiyatdagi

faolligi, bilim va salohiyatini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yildi.

Bundan ko‘rinadiki, normativ-huquqiy jihatdan yoshlar siyosatini amalga oshirishda davlat tashkilotlari bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati vakillarining ishtirokini rag‘batlantiruvchi qoidalar mustahkamlanmoqda. Masalan, Qonunning yangi tahriri loyihasida yoshlar bilan ishlashda jamoat birlashmalari va xususiy sektor bilan sheriklik qilish, ijtimoiy buyurtmalar orqali NNTlarni jalb etish normalari kiritilishi ko‘zda tutilmoqda.

Fuqarolik jamiyatining yana bir muhim institutlari – mahallalar va jamoatchilik tuzilmalari ham yoshlar siyosatini joylarda amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. 2021–2022 yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan har bir mahallada hokim yordamchisi va yoshlar yetakchisi lavozimlari joriy qilindi. Yoshlar yetakchilari mahalla miqyosida yoshlarning muammolarini aniqlash va hal etishda bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini o‘tamoqda. Ular bevosita Yoshlar agentligi va mahalla fuqarolar yig‘iniga hisobot beradi hamda mahalla darajasida “Yoshlar daftari”ni yuritishda ishtirok etadi. “Yoshlar daftari” tizimi 2021-yildan ishga tushirilgan bo‘lib, u ijtimoiy yordamga, ishga yoki o‘qishga muhtoj yoshlarni ro‘yxatga olib, manzilli ko‘mak berishni nazarda tutadi. Masalan, 2025-yilga kelib “Yoshlar daftari” orqali qariyb 1 million nafar yoshlar turli ko‘mak choralari bilan qamrab olindi – ularga ta’lim grantlari, uy-joy ijarasi kompensasiyasi, tibbiy xizmatlar va bandlik imkoniyatlari yaratilgan.

Bu ko‘lamdor tadbirlarni amalga oshirishda bevosita joylardagi mahalla faollari, yoshlar yetakchilari va nodavlat sektor vakillari qatnashgani diqqatga sazovordir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda yoshlarga oid siyosat institutsional va huquqiy jihatdan mustahkam poydevorga ega bo‘lib bormoqda. Markazda – Yoshlar ishlari agentligi boshchiligidagi davlat tizimi, joylarda – mahalliy hokimliklar va yoshlar yetakchilari instituti, fuqarolik jamiyatidan – Yoshlar ittifoqi va turli NNTlar hamda OAV ushbu tizimning ajralmas bo‘g‘inlari sifatida maydonga chiqmoqda. Bu institutlar o‘rtasida hamkorlik va o‘zaro muvofiqlikni ta’minlash uchun prezident farmoni bilan Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etilgani yuqorida qayd etildi. Kelgusida aynan

shu kengash va umuman davlat-jamoat hamkorligi mexanizmlarini yanada kuchaytirish yoshlar siyosati samaradorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. stat.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
3. https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz
4. https://lex.uz/docs/6445145
5. https://pm.gov.uz/oz

Umidbek Xaitbayevich ADAMBAYEV,
Urganch Ranch texnologiya universiteti
Katta o‘qituvchisi, +99894 860 35 31
E-mail: umidbekadambayev2@gmail.com

KONTEKSTUAL ARGUMENTLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA INSON HUQUQLARINI TA’MINLASH

► ***Annotatsiya:*** *Maqolada kontekstual argumentlarning inson huquqlarini himoya qilish, huquqiy ongni shakllantirish va ishonch-e’tiqodni mustahkamlashdagi roli ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va xalqaro standartlarning uyg‘unligi asosida kontekstual yondashuvning samaradorligi tahlil qilinadi hamda O‘zbekiston tajribasi xalqaro maydondagi istiqbollar bilan solishtiriladi.*

Kalit so‘zlar: *kontekstual argument, ishonch, e’tiqod, inson huquqlari, huquqiy ong, fuqarolik jamiyati, qadriyatlar, globallashuv, bag‘rikenglik, demokratik rivojlanish.*

► ***Аннотация:*** *В статье рассматривается роль контекстуальных аргументов в защите прав человека, формировании правового сознания и укреплении доверия и убеждений. В исследовании анализируется эффективность контекстуального подхода на основе гармонии национальных ценностей, традиций и международных стандартов, а также сравнивается опыт Узбекистана с перспективами на международной арене.*

Ключевые слова: *контекстуальный аргумент, доверие, убеждение, права человека, правовое сознание, гражданское общество, ценности, глобализация, толерантность, демократическое развитие*

► ***Annotation:*** *The article examines the role of contextual arguments in protecting human rights, shaping legal awareness, and strengthening trust and belief. The study analyzes the effectiveness of the contextual approach based on the harmony of national values, traditions, and international standards, and compares Uzbekistan's experience with prospects in the international arena.*

Keywords: *contextual argument, trust, belief, human rights, legal awareness, civil society, values, globalization, tolerance, democratic development*

Inson huquqlarini himoya qilish masalasi demokratik jamiyat taraqqiyotining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Huquqlarni kafolatlash va amalda ta'minlash jarayonida faqatgina huquqiy me'yorlar emas, balki ijtimoiy-madaniy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki inson huquqlari institutlari samarali ishlashi uchun fuqarolarda ushbu qadriyatlarga nisbatan ishonch va e'tiqod shakllanishi zarur. Mazkur jarayonda kontekstual argumentlar alohida o'rin tutadi. Chunki ular nafaqat huquqiy dalillarga, balki jamiyatning an'ana, urf-odat, diniy bag'rikenglik, madaniy qadriyatlar kabi omillariga tayanadi. Natijada inson huquqlarining himoyasi fuqarolarning ongida mantiqiy dalil va ijtimoiy e'tiqod uyg'unligida shakllanadi. Shu bois kontekstual argumentlash demokratik qadriyatlarni xalq ongiga singdirishda samarali vosita sifatida qaraladi.

Bugungi globallashuv davrida inson huquqlarini himoya qilish faqat milliy darajada emas, balki xalqaro hamkorlik nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. Shu ma'noda, O'zbekistonning demokratik rivojlanishida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini kuchaytirish, ularning huquqiy ongni rivojlantirishdagi ta'sirini oshirish hamda "kontekstual argumentlar orqali ishonch-e'tiqodni mustahkamlash muhim vazifa sifatida qaralmoqda" [2, 101 b].

Kontekstual argument tushunchasi zamonaviy falsafada va mantiqda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki u dalil va isbotlash jarayonini muayyan ijtimoiy-madaniy, axloqiy yoki tarixiy sharoitda

tushunishni talab qiladi. Klassik mantiqda dalil sof formal qoidalar asosida baholansa, kontekstual yondashuvda auditoriyaning qadriyatlari, an'analari va ijtimoiy tajribasi muhim o'rin tutadi [7, 87 b]. Bu yondashuvni Ch. Perelman va L. Olbrexts-Tyteka o'zining "Yangi ritorika" konsepsiyasida asoslab bergan bo'lib, ular fikricha, argument auditoriyaga yo'naltirilgandagina samarali bo'ladi [4, 44 b].

Kontekstual argumentlash klassik formal mantiqqa zid emas, balki uni to'ldiradi. Formal mantiqda asosiy e'tibor sillogizm, deduksiya va induksiyaga qaratilgan bo'lsa, kontekstual argumentda dalilning auditoriya ongida qanday qabul qilinishi ustuvor ahamiyat kasb etadi [2, 56 b]. Shu bois bu usul ko'proq ijtimoiy-gumanitar fanlarda, huquqiy, siyosiy va axloqiy bahslarda qo'llanadi. Uning ustunligi shundaki, u quruq mantiqiy isbotdan tashqari, insonning his-tuyg'usi, e'tiqodi va ishonchini ham qamrab oladi [6, 102 b].

Kontekstual argumentlashning samaradorligi ko'p jihatdan auditoriyaning ichki ishonch manbalariga bog'liq. Bunday manbalarga an'analar, avtoritet shaxslarning fikrlari, sezgi va ijtimoiy qadriyatlar kiradi. Masalan, jamiyatda qadimdan shakllangan diniy bag'rikenglik, ota-bobolardan meros qolgan urf-odatlar yoki milliy axloqiy me'yorlar inson huquqlarini tushunishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa, kontekstual argumentlar inson ongida nafaqat rasmiy huquqiy qoidalarga, balki e'tiqodiy va madaniy omillarga ham tayanadi. Inson huquqlarining samarali himoyasi nafaqat qonunchilik bazasining mustahkamligi, balki ijtimoiy va madaniy kontekstlarning inobatga olinishi bilan ham belgilanadi. Chunki har qanday huquqiy normalar jamiyat ongida mavjud qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy an'analar bilan uyg'unlashgandagina samarali natija beradi [2, 63 b]. Masalan, O'zbekiston sharoitida diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik qadimdan mavjud bo'lgan madaniy an'analar bo'lib, ular inson huquqlarini himoya qilishning ijtimoiy asosini mustahkamlab kelmoqda.

Bugungi kunda inson huquqlarini kafolatlashda milliy qadriyatlar bilan xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish dolzarb masalalardan biridir. Xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, BMT konventsiyalari va boshqa xalqaro me'yoriy hujjatlar davlatlardan ularni milliy

qonunchilikka moslashtirishni talab qiladi [5, 29 b]. Shu bilan birga, har bir davlat o‘zining milliy qadriyatlari va tarixiy tajribasini hisobga olishi zarur. O‘zbekistonda “inson qadri uchun” tamoyili asosida olib borilayotgan islohotlar milliy mentalitet va xalqaro standartlarning uyg‘unlashgan ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlari – nodavlat notijorat tashkilotlari, OAV, ta’lim muassasalari va turli jamoat birlashmalari – inson huquqlariga oid ong va ishonchni shakllantirishning muhim mexanizmlaridan hisoblanadi. Ularning faoliyati orqali fuqarolarda huquqiy savodxonlik, huquqlardan foydalanish ko‘nikmalari va huquqiy qadriyatlarga bo‘lgan e’tiqod shakllanadi. Inson huquqlarini ta’minlash jarayoni esa faqat davlat zimmasidagi vazifa bo‘lib qolmay, balki butun fuqarolik jamiyatining umumiy mas’uliyatini ham talab etadi. Demak, huquqiy ongni yuksaltirish jarayonida kontekstual argumentlar – milliy qadriyat, an’ana va avtoritetlarga asoslangan dalillar – muhim pedagogik va ijtimoiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Huquqqa bo‘lgan ishonch demokratik jamiyatning barqarorligi va huquqiy davlatning samarali faoliyat yuritishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shaxs ongida bunday ishonch, bir tomondan, qonunlarning adolatli va izchil qo‘llanishi bilan, ikkinchi tomondan esa, jamiyatning tarixiy tajribasi va axloqiy qadriyatlari bilan belgilanadi [1, 41 b]. O‘zbekiston sharoitida esa fuqarolarning huquqqa bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiqligi va “inson qadri uchun” tamoyilining amalda qo‘llanilishi muhim rol o‘ynaydi. Biroq huquqiy e’tiqodning shakllanishi faqat qonunchilik va islohotlarga emas, balki zamonaviy axborot makonidagi jarayonlarga ham bevosita bog‘liqdir. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida OAV, internet va ijtimoiy tarmoqlar huquqiy qadriyatlarni keng targ‘ib qilayotgan bo‘lsa-da, noto‘g‘ri yoki manipulyativ ma’lumotlar inson huquqlariga bo‘lgan ishonchni zaiflashtirishi mumkin [3, 118 b]. Shu sababli kontekstual argumentlar – milliy qadriyatlar, tarixiy tajribalar va xalqaro tamoyillar asosida asoslangan dalillar – axborot makonida huquqiy e’tiqodni mustahkamlashning muhim vositasi sifatida maydonga chiqadi. Bundan tashqari, inson huquqlariga bo‘lgan e’tiqod jamiyatdagi diniy

bag‘rikenglik, urf-odatlar va fuqarolik qadriyatlarining uyg‘unligida shakllanadi. O‘zbekiston ko‘p millatli va turli diniy konfessiyalar tinch-totuv yashaydigan mamlakat sifatida qadimdan bag‘rikenglik madaniyatiga ega bo‘lib, bu qadriyatlar huquqlarga bo‘lgan ijtimoiy ishonchni mustahkamlashda asosiy omil hisoblanadi. Natijada, an’analar va urf-odatlarning demokratik tamoyillar bilan uyg‘unlashuvi fuqarolarda huquqiy qadriyatlarga nisbatan yanada chuqurroq e’tiqodni shakllantiradi.

Bugungi globallashuv davri inson huquqlarini himoya qilish va ularga bo‘lgan ishonchni shakllantirishda yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda jiddiy chaqiriqlarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, soxta ma’lumot va manipulyatsiyalar keng tarqalishi natijasida fuqarolarda huquqiy ong va e’tiqodning zaiflashish xavfi mavjud. Shu sharoitda kontekstual argumentlarning ahamiyati yanada ortib boradi, chunki ular nafaqat mantiqiy asosga, balki milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba va ijtimoiy ongga suyanib, yolg‘on axborot ta’sirini kamaytirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv manipulyatsiyalarni fosh etishda va fuqarolarda to‘g‘ri huquqiy qarashlarni shakllantirishda samarali vosita sifatida qo‘llaniladi.

Inson huquqlariga oid global muammolar — gender tengligi, migratsiya jarayonlari, diniy bag‘rikenglik kabi masalalar — ham kontekstual yondashuvni talab qiladi. Chunki bu muammolarning yechimi nafaqat xalqaro standartlarga, balki milliy mentalitet va madaniy qadriyatlarga mos kelishi zarur. Masalan, gender tengligi masalasi bo‘yicha xalqaro me’yorlarni tatbiq etishda milliy an’ana va qadriyatlar inobatga olinganida, jamiyatda ushbu islohotlar tezroq qabul qilinadi va unga nisbatan ishonch kuchayadi. Xuddi shuningdek, migratsiya va diniy bag‘rikenglikka oid global muammolarga kontekstual yondashuv fuqarolarda nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va axloqiy e’tiqodni ham shakllantiradi.

O‘zbekiston tajribasi bu borada diqqatga sazovor. Mamlakatda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar inson huquqlarini ta’minlashda milliy qadriyatlar va xalqaro standartlarning uyg‘unlashgan shaklini namoyon qilmoqda. “Inson qadri uchun” tamoyili asosida olib borilayotgan siyosat milliy an’analarni saqlagan holda, global tamoyillarga mos huquqiy tizimni shakllan-

tirish imkonini berdi. Shu bois O‘zbekistonning tajribasi xalqaro maydonda ham e’tirof etilmoqda va mamlakat inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ko‘plab xalqaro tashabbuslarda faol ishtirok etmoqda.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kontekstual argumentlar inson huquqlarini himoya qilish va ularga ishonch-e’tiqod shakllantirishda samarali metodologiya sifatida namoyon bo‘ladi. Ular nafaqat huquqiy normalarni mustahkamlash, balki fuqarolarda huquqqa bo‘lgan e’tiqodni chuqurlashtirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, globallashuv davrida huquqiy ongni mustahkamlashda kontekstual yondashuv ishonch va e’tiqodning zaruriy sharti sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Demokratik jamiyatning barqaror rivojlanishi esa shaxs va jamiyat ongida huquqiy qadriyatlarning mustahkam o‘rin egallashiga bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda kontekstual argumentlashning istiqbollari yanada kengayib borishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Алексеев, А. П. (2012). Логика и аргументация. Москва: Инфра-М. С.41

2. Habermas, J. (1996). Between Facts and Norms: Contributions to a Discourse Theory of Law and Democracy. Cambridge: MIT Press.56, 63, 101 pp.

3. Norris, P., & Inglehart, R. (2019). Cultural Backlash: Trump, Brexit, and Authoritarian Populism. Cambridge: Cambridge University Press. 118 p.

4. Perelman, Ch., & Olbrechts-Tyteca, L. (1969). *The New Rhetoric: A Treatise on Argumentation.* Notre Dame: University of Notre Dame Press. 44 p.

5. United Nations. (1948). *Universal Declaration of Human Rights.* New York: UN. 29 p.

6. Toulmin, S. (2003). *The Uses of Argument.* Cambridge: Cambridge University Press. 102 p.

7. Van Eemeren, F. H., & Grootendorst, R. (2004). *A Systematic Theory of Argumentation: The pragma-dialectical approach.* Cambridge: Cambridge University Press. 87 p.

Jamshid Bekmatovich DAVLETOV,
UDK: 316.7. 303.3.173.
Urganch Ranch texnologiya universiteti dotsenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
davletovjamshid7@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-0338-2272

O‘ZBEKISTONNING YANGILANGAN KONSTITUTSIYASI MAMLAKATIMIZDA BOLA HUQUQLARINI HIMOYALASHNING MUHIM KAFOLATI SIFATIDA

► ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatimizda bola huquqlarini himoyalashning muhim kafolati va huquqiy asosi ekanligi, davlat taraqqiyotining turli sohalarida bola huquq va erkinliklarini mustahkamlash, ularni turli tazyiq va kamsitishlardan himoyalash, yosh avlodning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan har tomonlama to‘laqonli rivojlanishlari uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish masalalari yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, bolalar ombudsmani, bola huquqlari, YUNISEF tashkiloti, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, huquqiy madaniyat, onalik va bolalik, reabilitasiya, diskriminatsiya.*

► ***Аннотация:*** *В данной статье Конституция Республики Узбекистан является важной гарантией и правовой основой защиты прав детей в нашей стране, укрепления прав и свобод детей в различных сферах государственного развития, защиты их от различных притеснений и дискриминации, для физического, умственного и культурного развития молодого поколения выделены вопросы создания наилучших условий.*

Ключевые слова: *Конституция Республики Узбекистан, детский омбудсмен, права детей, организация ЮНИСЕФ, национальные и общечеловеческие ценности, правовая культура, материнство и детство, реабилитация, дискриминация.*

► ***Abstract:*** *This article highlights the importance of the Constitution of the Republic of Uzbekistan as an important guarantee and legal basis for the protection of children’s rights in our country, the strengthening of*

children's rights and freedoms in various areas of state development, their protection from various forms of oppression and discrimination, and the creation of the best conditions for the full and comprehensive phusical, mental, and cultural development of the younger generation.

Key words: *Constitution of the Republic of Uzbekistan, children's ombudsman, children's rights, UNICEF, national and universal values, legal culture, motherhood and childhood, rehabilitation, discrimination.*

Mamlakatimizda milliy va umuminsoniy printsiplar uyg‘unligi asosida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar jarayonida inson huquq va manfaatlarini ta’minlash, jumladan *bola huquqlarini* himoyalash masalasiga har qachongidan ham ustuvor ahamiyat berilmoqda. Mamlakatimizda bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, bugungi kunda uning to‘laqonli qonunchilik asoslari O‘zbekiston Respublikasining Yangilangan Konstitutsiyasi asosida yaratilgan deyishimiz mumkin.

Bola huquqlari deganda - irqi, jinsi, tili, dini, tug‘ilgan joyi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiyligi, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, har bir bola ega bo‘lishi kerak bo‘lgan huquq va erkinliklar tushuniladi. Xalqaro huquq normalarida 18 yoshga yetmaganlarning barchasi bola deb tan olingan.

Bola huquqlarining kafolati xalqaro doirada tan olinadigan hujjatlarda ham aks ettirib qo‘yilgan. Jumladan, Bola huquqlarining ta’rifi mantiqan *Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi*ning (1948-yil 10-dekabr) asosiy g‘oyalariga asoslangan bo‘lib, uning alohida moddasi bolalar huquqlari himoyasiga bag‘ishlangan. Ya’ni, “Onalik va bolalik alohida g‘amxo‘rlik va yordam olish huquqini beradi”. Shunday qilib, deklaratsiyada e’lon qilingan barcha erkinliklarga bolalarning teng huquqliligini tan olgan holda, xalqaro hamjamiyat bolalarga qo‘shimcha yordam va qo‘llab-quvvatlash zarurligini tan oladi. Shuningdek, bolalar o‘zlarining maxsus ehtiyojlari, shuningdek ekspluatatsiya va suiiste’molliklarga nisbatan zaifligi tufayli qo‘shimcha huquqlarga ega bo‘lib [2, 135], ular quyidagilardan iborat:

❖ *bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash;*

❖ *bolaning hayoti va sog‘lig‘ini, qadr-qimmatini muhofaza qilish;*

❖ *uning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik va turli tazyiqlardan himoyalash;*

yosh avlodning jismoniy, intellektual, ma’naviy va axloqiy kamol topishiga ko‘maklashish kabi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan.

1989-yilning 20-noyabr sanasi BMTning *“Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi* qabul qilingan kun hisoblanadi. Ushbu Konvensiya inson huquqlari tarixidagi eng muhim hamda bola huquqlarini himoya qilishning kafolatlari mustahkamlangan birinchi xalqaro huquqiy hujjat hisoblanadi Zero, mazkur sanadan e’tiboran, bola huquqlari dunyoning qaysi mintaqasida buzilmasin, uni himoya qilish borasida xalqaro imkoniyat vujudga keldi. Shu bilan barcha mamlakatlar butun dunyo bo‘ylab bolalar oldida tarixiy majburiyat oldilar. Bu tarixdagi eng ko‘p ratifikatsiya qilingan inson huquqlari bo‘yicha shartnomaga aylandi va butun dunyo bo‘ylab bolalar hayotining o‘zgartirishga yordam berdi. Konvensiya barcha bolalarning asosiy insoniy qadr-qimmatini va ularning farovonligi hamda rivojlanishini ta’minlashning dolzarbligini tan oladi. Konvensiyaga ko‘ra, bolalar huquqlarini himoya qilishning asosiy prinsipi – bolalar manfaatlarining ustuvorligini tan olishdir.

Har bir bola oziq-ovqat, birlamchi tibbiy yordam va rasmiy ta’lim, o‘yin va dam olish kabi asosiy ehtiyojlarga ega bo‘lgan g‘amxo‘r, mehribon hamda yetarli turmush darajasiga ega bo‘lgan oilada o‘sish huquqiga ega. Bundan tashqari, har bir bola e’tiborsizlik va zo‘ravonlikdan himoyalanish huquqiga ega. Konvensiya bolani o‘ziga xos huquqlarga ega bo‘lgan mustaqil shaxs sifatida tavsiflaydi: yashash huquqi (6-modda), oila qurish (9-modda), ismi va fuqaroligi bo‘yicha. Ta’lim to‘g‘risida (7-modda), zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida (19- modda), tenglik, fikr va so‘z erkinligi to‘g‘risida (13-modda), dam olish va hordiq chiqarish (31-modda), tibbiy xizmat ko‘rsatish va sog‘liqni saqlash (24-modda), davlat yordamida (18-27-modda) va boshqalar. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga 1992-yil 9-dekabrda qo‘shilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola

huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini bajarish strategiyasini va bola huquqlari masalalari bo‘yicha boshqa hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘ldi [3, 148].

Mamlakatimiz xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga asoslangan holda bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va ushbu sohadagi xalqaro majburiyatlarni bajarishning ta’sirchan tizimini yaratish maqsadida, 2024-yil 29-fevralda O‘zbekiston Respublikasining “Bolalar Ombudsmani to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) o‘rinbosari – Bola huquqlari bo‘yicha vakil lavozimi joriy etildi [6, 26].

Bolalar ombudsmani faoliyati natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamalakatimizda bolalarga nisbatan sodir etilayotgan zo‘ravonlik va diskriminatsiya holatlarining soni oshib bormoqda. Buning asosiy sababi sifatida aytish mumkinki, mavjud huquqiy mexanizmlar zo‘ravonliklarning oldini olish hamda jabrlanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda yetarli samarasini bermayotganini ko‘rsatmoqda. Buni keyingi uch yilda 2 ming 72 nafar shaxs sudlar tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan holati ham isbotlaydi.

Bu boradagi eng asosiy vazifamiz – bolalarimizni davlatimiz tomonidan berilayotgan barcha sharoitlar bilan amalda ta’minlash kerak. Qandaydir sabab bilan, kimningdir xohishi bilan bolalar huquqlari poymol qilinishi, bolalarimizning maktabga bormasligi yoki kasb o‘rganmasligi, qizlarimiz salohiyatini namoyon qilish imkoniyatidan cheklanib, erta turmushga berib yuborilishi – hammasining oldini olishimiz zarur. Bu borada hammaning oldida juda katta vazifalar turibdi

Prezidentimiz *Shavkat Mirziyoyev* 2023-yil 20-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda ilgari surgan bola huquqlarini himoyalash borasidagi takliflari ta’lim muassasalari pedagogik jamoalari, bolalar huquqlari bilan shug‘ullanadigan davlat, nodavlat va xalqaro tashkilotlar vakillari hamda ota-onalar tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Bu borada umumxalq ishtiroki va ovozi bilan yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Yangilangan Konstitutsiyasi haqiqiy ma’noda xalqchil hujjat sifatida uning tegishli normalarida bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslari yanada mustahkamlanganligi misolida aytishimiz mumkin. Bular:

13-modda: O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

19-modda: O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.

20-modda: Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas.

21-modda: Har bir inson o‘z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega. Hech kimga uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas.

23-modda: O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi.

25-modda: Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir.

26-modda: Insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas.

27-modda: Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

29-modda: Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko‘rsatiladi.

31-modda: Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega.

33-modda: Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega.

44-modda: Sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

Bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga kiritilayotgan mazkur norma bolalar mehnatining og‘ir shakllaridan himoya qilish, ularni sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishishlari uchun muhim huquqiy kafolatdir.

45-modda: Har kim dam olish huquqiga ega.

48-modda: Har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

50-modda: Har kim ta’lim olish huquqiga ega.

Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi.

Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir.

Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi.

Mazkur normaga ko‘ra, sog‘lig‘ida nuqsoni bo‘lgan bolalar faqatgina ixtisoslashgan maktablarda emas, hamma qatori umumiy maktablarda ham o‘qishi yo‘lga qo‘yilishi Yangi O‘zbekistonda inson qadri tamoyilining amaliy ifodasidir.

51-modda: Fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida

davlat hisobidan oliy ma’lumot olishga haqli.

Bu borada ko‘zlangan asosiy maqsad iqtidorli yoshlar uchun davlat granti asosida bakalavriat va magistratura bosqichida ta’lim olish orqali hayotda o‘zlarini to‘laqonli namoyon etish imkoniyatini kengaytirishdir.

53-modda: Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi.

54-modda: Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir.

Ushbu norma orqali inson qadrini ulug‘lash birinchi galdagi ustuvor vazifa sifatida qaralayotgan mamlakatimizda insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash, himoyalash davlatimizning eng oliy maqsadlaridan ekanligi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangani alohida e’tirofga molik.

55-modda: Har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.

Har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

76-modda: Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir.

Nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi.

Har bir bola davlatimiz himoyasida ekanligi yurt rahbarining hududlarga tashriflari chog‘ida yana bir karra namoyon bo‘ladi. Zotan, bugun farzandlarimiz sog‘lom o‘sib-ulg‘aysa, zamonaviy shart-sharoitlarda o‘qish, emin-erkin iste’dodini rivojlantirish imkoniga ega bo‘lsa, ertaga ulardan yuksak marralarni kutish mumkin.

77-modda: Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining va-

siyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta’lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta’minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantiradi.

Darhaqiqat, bugungi kunda davlatimiz ota-onasidan mahrum bo‘lgan bolalarga g‘amxo‘rlik qilish, ularning oila muhitida o‘sib-ulg‘ayishi uchun sharoitlar yaratishga ustuvor ahamiyat qaratadi. Oilaviy bolalar uylariga tarbiyaga berilgan bolalarning ijtimoiy yordam, ta’lim va sog‘lomlashtirishga bo‘lgan huquqlari himoyasi doimiy e’tiborda.

78-modda: Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.

2. Разработка интерпретационных механизмов применения семейного законодательства в случаях, когда повседневные практики обусловлены религиозными убеждениями граждан (например, никях-браки).

Введение норм, предусматривающих добровольное согласование религиозных обрядов с государственным правом, без придания последним юридической силы вне процедуры регистрации, но с возможностью их учёта при судебном рассмотрении дел.

3. Укрепление гарантий свободы совести в семейной сфере.

Закрепление в законодательстве принципа недопустимости дискриминации по религиозному признаку внутри семьи, в том числе в межличностные отношения супругов, разделе имущ-

ества, определении порядка общения с ребёнком после развода.

4. Развитие образовательных и просветительских механизмов

Включение в школьные и университетские программы элементов правового просвещения о светском и религиозном подходах к семье, с акцентом на взаимное уважение и правовой плюрализм.

Поддержка исследовательских проектов и публикаций, направленных на комплексное изучение трансформации семьи в условиях роста религиозности.

5. Разработка индикаторов оценки эффективности религиозной политики в семейной сфере.

Проведение мониторинга и эмпирических исследований, отражающих влияние государственной религиозной политики на устойчивость браков, защиту прав женщин и детей, распространённость альтернативных форм брака.

Достижение устойчивого баланса между свободой совести, светскими правовыми началами и социокультурными традициями требует комплексных и адаптивных механизмов. Гармонизация данных сфер возможна лишь при условии диалога, взаимного уважения и институциональной чувствительности государства к религиозной и семейной реальности современного Узбекистана.

Список использованной литературы:

1. Конституция Республики Узбекистан // Национальная база данных законодательства. URL: https://lex.uz // Последние посещение 29.04.2025.

2. Международного пакта о гражданских и политических правах. Опубликован на сайте https://lex.uz/en/docs/2638212. Последние посещение 29.04.2025.

3. Сафаров Б.Б. Религиозная политика в Центральной Азии: траектории эволюции // Журнал сравнительной политики. 2020. –№3. –С.45-59.

4. Онлайн портал «Стратегия Узбекистан – 2030» – народная стра-

тегия // https://uzbekistan2030.uz/ru/strategy // Последние посещение 29.04.2025.

5. Семейный кодекс Республики Узбекистан от 30 апреля 1998 г. № 607-I (в ред. 2023 г.) // Национальная база данных законодательства. URL: https://lex.uz/ru/docs/104165.

6. Количество браков и разводов в Узбекистане – статистика Госкомстата [Электронный ресурс] // Kun.uz. 12.02.2024. URL: https://kun.uz/ru/news/2024/02/12/v-uzbekistane-sokratilos-kolichestvo-brakov-i-uvelichilos-kolichestvo-razvodov-statistika.

7. Количество ранних браков в Узбекистане резко сократилось [Электронный ресурс] // Time.kz. 08.11.2024. URL: https://time.kz/news/2024/11/08/uzbekistanu-udalos-sokratit-rannie-braki.

8. В Узбекистане 19 тыс. детей рождены вне брака – официальные данные [Электронный ресурс] // UzNews.uz. 2023. URL: https://uznews.uz/posts/67612.

9. Выступление Директора Национального центра Республики Узбекистан по правам человека А.Х.Саидова на Совещании ОБСЕ по человеческому измерению (22 сентября - 3 октября 2014 г., Варшава) Право на свободу мысли, убеждений, религии и вероисповедания. https://www.osce.org/files/f/documents/a/4/124819.pdf.

10. Юсупова Н. Ж. Основные принципы исламского права в укреплении семейных отношений. Опубликована в бюллетене «Россия и мусульманский мир» в 2018 г. № 1 (307) – 4 (310).

11. М. Мухаммадсидиков. Религиозная толерантность как главная черта общественной жизни Узбекистана // Вестник ЧелГУ. 2009. №40. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/religioznaya-tolerantnost-kak-glavnaya-cherta-obschestvennoy-zhizni-uzbekistana (дата обращения: 29.04.2025).

12. Dr. Laura Yerekesheva. Religious Pluralism and Syncresm in the History of Central Asia: an overview. Oregon University (Eugene, USA) 8 May 2009/ www. academi. edu. 2025.

13. О свободе совести и религиозных организациях: Закон Республики Узбекистан от 1 мая 1998 г. № 616-I (в ред. от 05.07.2021 г.) // Национальная база данных законодательства. URL: https://lex.uz/ru/docs/111505.

14. О Концепции обеспечения свободы совести граждан и государственной политики в религиозной сфере: Указ Президента Республи-

ки Узбекистан от 11 февраля 2025 г. № ПП–54 // Официальный сайт Президента РУз. URL: https://president.uz.

15. Всеобщая декларация прав человека (1948) // ООН. URL: https://www.un.org/ru/about-us/universal-declaration-of-human-rights.

16, Международный пакт о гражданских и политических правах (1966) // ООН. URL: https://www.ohchr.org.

17. Конвенция о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин (1979) // ООН. URL: https://www.un.org/womenwatch/daw/cedaw/

18. Конвенция о правах ребёнка (1989) // ООН. URL: https://www.unicef.org/child-rights-convention.

III-PLENAR SESSIYA: MILLATLARARO TOTUVLIK, INKLYUZIV JAMIYAT VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGI: YANGI O‘ZBEKISTONNING MA’NAVIY YO‘LI

Qahraman Ramatullayevich SARIYEV,
Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mita raisi

YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK KONSEPSIYASI

► ***Annotatsiya:*** *Maqola Yangi O‘zbekistonning millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik siyosatini huquqiy asoslar va amaliy tashabbuslar kesimida tahlil qiladi. Ko‘p tilli ta’lim va media muhiti, milliy madaniy markazlarga davlat ko‘magi, “Do‘stlik” festivali hamda diaspora bilan ishlash tashabbuslari ijtimoiy birdamlikni kuchaytirayotgani ko‘rsatiladi. Shuningdek, yangi tashkil etilgan qo‘mita va strategik hujjatlar orqali totuvlikni institutsional darajada mustahkamlash yo‘llari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston; millatlararo totuvlik; bag‘rikenglik; milliy madaniy markazlar; diaspora; do‘stlik; birdamlik; huquqiy asoslar.*

► ***Аннотация:*** *В статье рассматриваются правовые и практические основы политики межнационального согласия и толерантности в Новом Узбекистане. Показано, как многоязычное образование и СМИ, поддержка национально-культурных центров, фестиваль «Дружба» и работа с диаспорами укрепляют общественную сплочённость. Отдельное внимание уделено новым институтам и документам, направленным на системное развитие межнациональных отношений.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан; межнациональное согласие; толерантность; национально-культурные центры; диаспора; дружба; сплочённость; правовые основы.*

► ***Abstract:*** *The article analyzes New Uzbekistan’s policy of interethnic harmony and tolerance through its legal foundations and practical initiatives. It highlights how multilingual education and media, state support for national cultural centers, the “Friendship” festival, and diaspo-*

ra engagement reinforce social cohesion. It also outlines newly established institutions and strategic documents designed to embed harmony at an institutional level.

Keywords: *New Uzbekistan; interethnic harmony; tolerance; national cultural centers; diaspora; friendship; cohesion; legal foundations.*

O‘zbekiston azaldan bag‘rikenglik, hamjihatlik va ahil-inoqlik makoni bo‘lgan. So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib – jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta’minlash, do‘stlik muhitini va ko‘p millatli katta yagona oila tuyg‘usini mustahkamlash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma’rifiy aloqalarni kengaytirishga yo‘naltirilgan keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi.

Ko‘p millatli va ko‘p dinli davlatda millatlararo totuvlik va konfessiyalararo hamjihatlik – barqarorlik va taraqqiyotga mustahkam zamin yaratuvchi, uning istiqbolini belgilab beruvchi muhim omil sanaladi.

Ko‘p millatli mamlakatimizda yashayotgan **130 dan ortiq** millat va elat vakillariga o‘z tili, madaniyati va urf-odatlarini rivojlantirishlari va e’tiqod erkinligi uchun teng sharoit yaratib berilmoqda.

Konstitutsiyamizda O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi mustahkamlab qo‘yilgani esa bu boradagi islohotlarning qomusiy asosi hisoblanadi.

Bugungi kunda maktablarda **ta’lim 7 tilda** olib borilayotgani yurtimizda turli millat vakillariga mansub o‘quvchilarning o‘z ona tilida ta’lim olishi uchun sharoit yaratmoqda. Milliy tele va radiokanallar **12 tilda efir** olib borayotgani, **gazeta** va **jurnallar 14 ta tilda chop etilayotgani** barchaga teng sharoitlar yaratgan holda axborotni ona tilida olish imkonini bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yurtimiz zaminida qadimgi davrlardan buyon davom etib kelayotgan etnik xilma-xillikni noyob ijtimoiy hodisa sifatida baholab, millatlar va elatlar, konfessiyalar o‘rtasidagi totuvlikni asrash, uni yanada mustahkamlashga alohida e’tibor qaratmoqda.

Yangi O‘zbekistonda ajdodlar ma’naviy merosiga sodiqlik asosida millatlar va konfessiyalararo totuvlik va o‘zaro bir-birini tushunish, yosh avlodni bag‘rikenglik, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash **davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi**.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar **millatlararo va konfessiyalararo munosabatlar yo‘nalishida ham yangi marralar, tashabbuslarni belgilab berdi**.

Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil mart oyida qabul qilingan “Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **Farmoni** hamda “O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **qarori** bu yo‘nalishdagi ishlarni **sifat jihatdan butunlay yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda**.

Ushbu hujjatlarga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha **qo‘mitasi tashkil etildi**.

Millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish, jamiyatda do‘stlik, hamjihatlik, bag‘rikenglik va birdamlikni mustahkamlash, yagona fuqaroviy o‘zlikni shakllantirish, barcha millat va elatlarning umummilliy taraqqiyotga daxldorligini kuchaytirish, xorijdagi vatandoshlarning milliy o‘zligini saqlashga ko‘maklashish hamda ularning ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatini Vatanimiz rivojiga safarbar etish, millatlararo totuvlikka salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni barvaqt aniqlash hamda ularning oldini olishga ko‘maklashish **Qo‘mitaning asosiy vazifalari etib belgilandi**.

Shuningdek, umummilliy birdamlikni ta’minlash sohasida va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash sohasida **davlat siyosati konsepsiyalari loyihalarini ishlab chiqilishi belgilanganligi** ushbu yo‘nalishdagi ishlarni izchil davom ettirilishidan dalolat beradi.

Avvalo **umummilliy totuvlikni ta’minlashning muhim elementi sifatida** O‘zbekistonda istiqomat qiladigan barcha millatlar va elatlarning madaniyati, tili, urf-odatlari, qadriyat va an’analarini saqlash hamda yosh avlodga yetkazish masalalariga **alohida e’tibor qaratilmoqda**.

Ma’lumki, bu yo‘nalishda ishlarni tizimli amalga oshirishda milliy madaniy markazlarning o‘rni juda muhim. Bugungi kunda mamlakatimizda **157 ta** milliy madaniy markaz faoliyat ko‘rsatmoqda. Ular faoliyati davlatimiz tomonidan doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlab kelinmoqda. Prezidentimizning tashabbuslari asosida **2021-yildan** boshlab ushbu markazlar faoliyat ko‘rsatishi, madaniyati, tili, urf-odatlari, qadriyat va an’analarini targ‘ib qilishga qaratilgan tadbirlarini amalga oshirishi uchun **davlat subsidiyalari ajratib kelinmoqda**.

Hududlarda faoliyat ko‘rsatayotgan **“Do‘stlik uylari”**dan joy ajratilgan va ular bu joylardan mutlaqo bepul asosda foydalanib kelmoqdalar. Toshkent shahrining markazida joylashgan Millatlararo munosabatlar qo‘mitasining binosida ham respublika hamda Toshkent shahri darajasidagi **27 ta** milliy madaniy markaz to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Ayniqsa, joriy yil iyul oyida Millatlararo munosabatlar qo‘mitasi joylashgan bino yaqinida umummilliy totuvlikning o‘ziga xos ramzi bo‘lgan **Milliy madaniy markazlar pavilyonining barpo etilishi**, u yerda **22 ta** millatga xos bo‘lgan uylar barpo etilgani milliy madaniy markazlarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining katta sovg‘asi bo‘ldi. Ushbu pavilyonni hech ikkilanmasdan umummilliy totuvlik maskani deyishimiz mumkin.

30-iyul Xalqlar do‘stligi kuni munosabati bilan joriy yil **25-31-iyul** kunlari yurtimiz bo‘ylab o‘tkazilgan “Do‘stlik” festivali ushbu milliy madaniy markazlar pavilyonining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Festival doirasida viloyat markazlari va chekka hududlarida xalq sayillari, konsert dasturlari, ilmiy-amaliy anjumanlar, milliy madaniy markazlar ishtirokida ko‘rgazmalar, davra suhbatlari va ijodiy uchrashuvlar o‘tkazildi.

Shuningdek, mamlakatimiz shahar va viloyatlarining xorijiy

davlatlar hududlari bilan aloqalarini mustahkamlash, ular faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ushbu sohadagi hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida **“Birodar shaharlar alyansi”** NNT tashkil etildi.

O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyatidagi ishtiroki doirasida **ilk marotaba** Toshkent shahrida **Turkiy davlatlar tashkiloti III Diaspora** yoshlari forumi tashkil etildi.

Uylaymanki, millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an’analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish hamda ular o‘rtasida do‘stlik va totuvlikni yanada mustahkamlashda barcha vazirlik va idoralar bor kuch va g‘ayratini ayamaydi.

O‘ylaymanki, konferensiya doirasida biz jamiyatda millatlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash, turli xalqlarning tili, madaniyati va an’analarini saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish, mamlakatlar o‘rtasida do‘stona aloqalarni rivojlantirish, xorijdagi vatandoshlarimizni qo‘llab-quvvatlash borasidagi **amaliy tajriba va yutuqlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.**

Ishonchim komilki, bugungi tadbir ishtirokchilari tomonidan bildirilgan tashabbuslar, taklif va mulohazalar mamlakatimizda do‘stlik, millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlashga, albatta, o‘z hissasini qo‘shadi.

Елена Хоффманн,
Председатель правления Фонд Западно-Восточные Встречи

"КОНСТРУКТИВНАЯ ПОЛИТИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ И СОЦИАЛЬНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В ДЕМОКРАТИЧЕСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ"

► ***Annotatsiya:*** *Maqola (nutq) fuqarolik jamiyatining demokratiyadagi o'rni va mas'uliyatini yoritadi: tushuncha va tarixiy kontekst (Germaniya misolida), asosiy funksiyalar (nazorat, ishtirok, vositachilik, ijtimoiy innovatsiyalar), ijtimoiy mas'uliyat elementlari (siyosiy ishtirok, birdamlik, barqarorlik, hisobdorlik, ta'lim), zamonaviy chaqiriqlar (apatya, populizm va qutblashuv, davlatga qaramlik, raqamli xatarlar) hamda muvaffaqiyatli amaliyotlar (fuqarolik byudjetlari, ekologik tashabbuslar, migrantlarni qo'llab-quvvatlash). Xulosa demokratik barqarorlik uchun faol va ongli fuqarolik jamiyati zarurligini ta'kidlaydi.*

Kalit so'zlar: *fuqarolik jamiyati; demokratiya; Germaniya tajribasi; jamoatchilik nazorati; siyosiy ishtirok; ijtimoiy innovatsiya; ijtimoiy mas'uliyat; populizm; raqamli dezinformatsiya; fuqarolik byudjeti.*

► ***Аннотация:*** *В выступлении раскрывается роль и ответственность гражданского общества в демократии: понятие и исторический контекст (на примере Германии), ключевые функции (наблюдение, участие, медиция, социальные инновации), элементы социальной ответственности (политическое участие, солидарность, устойчивое развитие, отчётность, образование), современные вызовы (апатия, популизм и поляризация, зависимость от государства, цифровые риски) и примеры успешной практики (гражданские бюджеты, экологические инициативы, поддержка беженцев). Делается вывод о критической значимости активного и осознанного гражданского общества.*

Ключевые слова: *гражданское общество; демократия; опыт Германии; общественный контроль; политическое участие; социальные инновации; социальная ответственность; популизм; цифровая дезинформация; гражданский бюджет.*

► ***Abstract:*** *The speech outlines the role and responsibility of civil society in democracy: concept and historical context (Germany), core functions (watchdog, participation, mediation, social innovation), elements of social responsibility (political engagement, solidarity, sustainability, accountability, education), current challenges (apathy, populism and polarization, dependence on state funding, digital risks), and successful practices (participatory budgeting, environmental initiatives, refugee support). It concludes that active, conscious civil society is essential for democratic resilience.*

Keywords: *civil society; democracy; German experience; public oversight; political participation; social innovation; social responsibility; populism; digital disinformation; participatory budgeting.*

1. Введение. Сила демократии проявляется не только в её институтах, законах и выборах. Она прежде всего проявляется в активной роли её граждан. Гражданское общество – это организации, инициативы, СМИ, религиозные объединения, НПО и активные отдельные личности – является сердцем любой демократической системы.

Сегодня я хотела бы осветить, какую ответственность несёт гражданское общество, как оно укрепляет демократическое государство и с какими вызовами сталкивается.

2. Что такое гражданское общество?

Гражданское общество – это пространство между государством, рынком и частной жизнью.Это область, где люди добровольно объединяются для защиты общих интересов, принятия ответственности и содействия общему благу.Гражданское общество – это не абстрактное понятие, оно живёт там, где люди действуют вместе: в клубах, гражданских инициативах, социальных движениях или даже в цифровых сетях.

3. Краткий исторический взгляд на примере Германии.

Чтобы понять значение гражданского общества, стоит обратиться к истории. В Германии гражданское общество особенно развивалось в XIX веке. Тогда возникли клубы, профсоюзы и буржуазные движения, которые выступали за политическое участие, социальные права и национальное

единство. Позже, в XX веке, гражданское общество проявлялось в движениях за мир и охрану окружающей среды, а также в протестах против разделения Германии. Особенно впечатляюще проявила себя его сила в мирной революции 1989 года, когда гражданские движения и церкви стали движущей силой демократических изменений. Этот пример показывает: гражданское общество может инициировать социальные преобразования, которые глубже любой государственной реформы.

4. Роль гражданского общества в демократии.

Гражданское общество выполняет несколько ключевых функций: функция наблюдателя – контролирует действия государства, выявляет нарушения и требует прозрачности. Платформа для участия – создаёт пространство, где граждане могут влиять на процессы помимо выборов.

Роль посредника – способствует диалогу между различными группами общества. Социальные инновации – разрабатывает новые идеи и решения там, где государство или рынок недостаточны.

5. Элементы социальной ответственности.

Социальная ответственность проявляется в конкретных действиях: Политическое участие – через выборы, гражданские форумы или петиции. Солидарность – поддержка уязвимых групп и содействие социальной справедливости. Устойчивое развитие – ответственность за будущие поколения. Отчётность – прозрачность работы и готовность к критике. Образование – содействие политическому просвещению и противодействие дезинформации.

6. Вызовы.

Конечно, это непросто. Сегодня гражданское общество сталкивается с серьёзными проблемами: Политическая апатия – многие считают, что их участие не имеет значения. Популизм и поляризация – разобщение ослабляет социальное единство. Зависимость от государственной поддержки – может угрожать независимости. Цифровизация – открывает новые возможности для участия, но несёт риски, такие какфейковые новости.

7. Примеры успешной практики.

Несмотря на трудности, мы видим много вдохновляющих примеров: Гражданские бюджеты, где жители напрямую решают, как распределять общественные средства. Экологические инициативы, реализующие меры по защите климата на местном уровне. Организации, помогающие беженцам и способствующие их интеграции. Эти примеры показывают: гражданское общество создаёт доверие, инновации и социальное единство.

8. Заключение.

Дамы и господа, демократия не существует сама по себе. Без активного и ответственного гражданского общества она может застопориться или даже разрушиться. Социальная ответственность – это не только умение видеть проблемы, но и действовать. Каждый из нас вносит свою лепту – будь то политическое участие, социальные действия или критическое осмысление. Или, как сказал Вацлав Гавел: «Лучшее правительство – это то, которое окружено бдительным и осознанным гражданским обществом».

Matlyuba QAHHAROVA,
O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi raisi o‘rinbosari

YANGI O‘ZBEKISTONDA DINIY BAG‘RIKENGLIK

► ***Annotatsiya:*** *Maqola Yangi O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va vijdon erkinligini ta’minlash siyosatini huquqiy (“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, 2025-yil 25-fevraldagi Konsepsiya) va institutsional asoslarda tahlil qiladi. 130+ millat va 16 konfessiya uchun teng sharoitlar, ko‘p tilli ta’lim va OAV, yangi diniy tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tkazilishi, Islom sivilizatsiyasi markazi va xalqaro ilmiy markazlar faoliyati yoritiladi. Haj/ziyoratlar, BMT Bosh Assambleyasining “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasi hamda 2024-yil Toshkent deklaratsiyasi misolida xalqaro tashabbuslar va dinlararo muloqotni kengaytirish amaliyoti ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *diniy bag‘rikenglik; vijdon erkinligi; millatlararo totuvlik; O‘zbekiston – 2030; Konsepsiya 2025-02-25; Islom sivilizatsiyasi markazi; ko‘p tillilik; dinlararo muloqot; BMT rezolyutsiyasi; Toshkent deklaratsiyasi.*

► ***Аннотация:*** *Статья рассматривает политику Узбекистана по укреплению религиозной толерантности и свободе совести на правовой (Стратегия «Узбекистан–2030», Концепция от 25.02.2025) и институциональной основе. Освещаются равные условия для более чем 130 национальностей и 16 конфессий, многоязычие в образовании и СМИ, регистрация новых религиозных организаций, деятельность Центра исламской цивилизации и международных научных центров. На примере паломничеств, резолюции ГА ООН «Просвещение и религиозная терпимость» и Ташкентской декларации 2024 года показаны международные инициативы и расширение межконфессионального диалога.*

Ключевые слова: *религиозная толерантность; свобода совести; межнациональное согласие; Узбекистан–2030; Концепция 25.02.2025; Центр исламской цивилизации; многоязычие; межрелигиозный диалог; резолюция ООН; Ташкентская декларация.*

► ***Abstract:*** *The article analyzes Uzbekistan's policy of strengthening religious tolerance and freedom of conscience through legal (the "Uzbekistan–2030" Strategy, the Concept adopted on 25 Feb 2025) and institutional measures. It highlights equal conditions for 130+ ethnic groups and 16 confessions, multilingual education and media, registration of new religious organizations, and the work of the Islamic Civilization Center and international research institutes. International initiatives—pilgrimages facilitation, the UNGA resolution on "Enlightenment and Religious Tolerance," and the 2024 Tashkent Declaration—illustrate the expansion of interfaith dialogue and practical cooperation.*

Keywords: *religious tolerance; freedom of conscience; interethnic harmony; Uzbekistan–2030; Concept 2025-02-25; Islamic Civilization Center; multilingualism; interfaith dialogue; UN resolution; Tashkent Declaration.*

Bugun butun dunyoda diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash, diniy erkinlikni ta’minlash hamda turli din va e’tiqodlarga nisbatan bag‘rikeng munosabat madaniyatini shakllantirish kun tartibidagi eng ustuvor masalalardan biri ekanligi har birimizga ayon. Shu bois ham jahonda mafkuraviy kurashlar va g‘oyaviy ziddiyatlar tobora avj olib borayotgan bugungi globallashuv sharoitida jamiyatda diniy bag‘rikenglikni ta’minlashning ilg‘or ilmiy-nazariy asoslarini shakllantirish har birimizning dolzarb vazifamiz hisoblanadi.

Vaholanki, diniy bag‘rikenglik bu avvalo, insonparvarlik va tinchlikparvarlik kafolati, xalqlararo hamjihatlilik va o‘zaro qo‘llab-quvatlovni mustahkamlash hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash vositasidir.

Ma’lumki, O‘zbekiston – azaldan turli sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan, **bag‘rikenglik** va **hamjihatlik** g‘oyalarining **beshigi** bo‘lib kelgan.

Bugungi kunda ham **inson huquq** va **erkinliklari**ni ta’minlash, **dinlararo muloqot**ni kuchaytirish, **vijdon erkinligini kafolatlash**, **millatlararo totuvlikni mustahkamlash** – **davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan**. Ushbu siyosatning huquqiy va amaliy asosi – muhtaram Prezidentimiz **Shavkat Mirziyoyev** rahbarliklarida qabul qilingan **“O‘zbekiston – 2030”** strategiyasi hisoblanadi.

Shuningdek, **2025-yil 25-fevral**da qabul qilingan **“Fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi”** ushbu yo‘nalishdagi faoliyatining mustahkam **huquqiy asosi** bo‘ldi.

Konsepsiyada **davlat va din** munosabatlari, turli konfessiyalar o‘rtasida o‘zaro **hurmat** va **tinchlik**ni ta’minlashning **institutsional mexanizmlari** aniq belgilab berilgani o‘zaro totuvlik va diniy bag‘rikenglikni yanada mustahkamlashga **muhim zamin** yaratadi.

Bugun butun dunyoda diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash, diniy erkinlikni ta’minlash hamda turli din va e’tiqodlarga nisbatan **bag‘rikeng munosabat madaniyatini** shakllantirish kun tartibidagi eng ustuvor masalalardan biri ekanligi har birimizga ayon.

Shu bois ham jahonda mafkuraviy kurashlar va g‘oyaviy ziddiyatlar tobora avj olib borayotgan bugungi globallashuv sharoitida jamiyatda diniy bag‘rikenglikni ta’minlashning **ilg‘or ilmiy-nazariy asoslarini shakllantirish** har birimizning dolzarb vazifamiz hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, **diniy bag‘rikenglik** bu avvalo, insonparvarlik va tinchlikparvarlik kafolati, xalqlararo hamjihatlik va o‘zaro qo‘llab-quvatlovni mustahkamlash hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash vositasidir.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bugungi kunda yurtimizda **130 dan** ortiq millat va elat, **16 ta** diniy konfessiya vakillari tinch-totuv, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik muhitida yashab kelmoqda.

So‘nggi **9** yilda **130 dan** ortiq yangi diniy tashkilot, **3 ta** oliy va **1 ta** o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi, **102 ta** masjid hamda **24 ta** noislomiy diniy tashkilot davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

Shu bilan birga, **muhtaram Prezidentimiz**ning tashabbuslari bilan **Islom sivilizatsiyasi markazi**, **Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Bahovuddin Naqshband** nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, **Hadis ilmi** maktabi, **Mir Arab** oliy madrasasi va **Islomshunoslik akademiyasi** faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bu muassasalarda yosh avlodni buzg‘unchi **g‘oyalardan asrash**, ularni **bag‘rikenglik ruhi**da tarbiyalash borasida **tizimli ishlar** olib borilmoqda.

Mamlakatimiz har bir insonning dini yoki e’tiqodini amalga oshirish erkinligini himoya qilish va ta’minlashga bel bog‘lagan holda, milliy va xalqaro hamjamiyatni bu sohadagi muhim vazifalarni o‘zaro hamjihatlikda bajarib kelmoqda. Ayniqsa, har qanday zo‘ravonlik harakatlarini, jumladan, **din yoki e’tiqodni noto‘g‘ri tushunish oqibatida kelib chiqadigan radikalizmga qarshi** ilmiy va amaliy faoliyatni kuchaytirish ishlari tizimli ravishda izchil amalga oshirilmoqda.

Terrorizm va ekstremizmning barcha ko‘rinishlari va ifodalarini hech qanday din, sivilizatsiya, millat, etnik guruh yoki e’tiqod tizimi bilan bog‘lab bo‘lmasligi va bog‘lanmasligi kerakligini qat’iy tasdiqlagan holda, bu ishlar dunyodagi turli e’tiqodlarga mansub odamlarni jabr ostida qoldirayotganligi bu bizni ham yanada ogoh va hushyorlikka chorlayotganini qayd etmoqdamiz.

So‘nggi yillarda nislomiy konfessiyalarning tadbirlari yuqori saviyada tashkil etib kelinmoqda.

Xususan, Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O‘zbekiston yeparxiyasining **145-yilligi** (2017-yil noyabr) va **150-yilligi** (2021-yil noyabr), Arman apostollik cherkovining **120-yilligi** (2023-yil sentyabr), O‘zbekiston Bibliya jamiyatining **25 yilligi** (2018-yil noyabr) va **30 yilligi** (2023-yil sentyabr) kabi tadbirlarning yuqori

saviyada tashkil etilgani – yurtimizdagi tinchlik va bag‘rikenglikning yaqqol namunasi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shuningdek, **O‘zbekiston Bibliya jamiyati** respublikada xristianlik diniy yo‘nalishlari uchun diniy mazmundagi materiallar bilan ta’minlovchi yagona jamoatchilik markazi hisoblanib, muttasil ravishda jahonning turli tillarida, shu jumladan, o‘zbek tilidagi diniy materiallarni nashr etish va respublika hududiga olib kirishni ta’minlab keladi.

Jumladan, so‘nggi yillarda ushbu jamiyat tomonidan **20 turdan ortiq** diniy mazmundagi adabiyotlar taxminan **90 ming** nusxada chop etilgan va import qilingan. Bularning orasida **“Muqaddas kitob” 20 ming**ga yaqin, **“Muqaddas kitob. Yangi ahd”** va **“Yangi ahd”** kitoblari **5 ming**ga yaqin nashrda chop etilgan.

Shu bilan birga, turli din vakillarining xorijdagi muqaddas maskanlarni ziyorat qilishiga ham katta e’tibor qaratildi. Jumladan, **500 mingga yaqin** fuqaro **Haj va Umra** safariga, **10 000 dan ortiq** fuqarolar **Isroil, Rossiya, Gruziya, Turkiya** kabi davlatlarda ziyoratlarni amalga oshirdi.

Yana bir muhim jihatga e’tibor qaratish lozimki, O‘zbekistonda **diniy bag‘rikenglik** nafaqat **ichki siyosatda**, balki **tashqi siyosat**ning ham muhim yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Diniy bag‘rikenglik borasida O‘zbekistonning ilg‘or tashabbuslari **xalqaro hamjamiyat** tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasining yalpi sessiyasida muhtaram Prezidentimiz **Shavkat Mirziyoyev** tomonlaridan taklif etilgan **“Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik”** maxsus rezolyutsiyasining qabul qilingani fikrimizning yaqqol dalilidir.

Mazkur hujjat mamlakatimizning global xavf-xatarlarga qarshi **ma’rifat orqali** kurashishga qaratilgan **strategik yondashuvi** mavjud ekanini, O‘zbekistonning **dunyoda tinchlik-osoyishtalikni saqlash, diniy bag‘rikenglikni ta’minlash borasidagi tashabbuslari bugungi murakkab davrda naqadar muhim ekanini namoyon** etadi.

Xalqaro ekspertlar mamlakatimizga tashriflari chog‘ida diniy erkinlikni **ta’minlash**, amaldagi normalarni **soddalashtirish, radikalizmga qarshi kurash,** qolaversa, **ma’rifiy islom g‘oyalarini** ilgari surish borasidagi amaliy ishlarga **o‘zlari bevosita guvoh** bo‘lmoqdalar.

O‘zbekiston **xalqaro hamjamiyatda** diniy bag‘rikenglik, konfessiyalararo hamjihatlikni ilgari surishdagi **faol** va **tashabbuskor** mavqeini yanada mustahkamlab borayotganini e’tirof etmoqdalar. Qayd etish kerakki, **2024-yil 16-noyabr kuni Toshkent shahrida o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada BMT, YUNESKO** tashkilotlari vakillari, mamlakatdagi rasmiy diniy konfessiyalarning xorijdagi rahbarlari, Respublikada faoliyat yuritayotgan diplomatik korpus rahbarlari, mahalliy diniy konfessiyalar xodimlari, davlat idoralari, parlament komissiyalari hamda fuqarolik jamiyati va ilmiy doiralar vakillari tomonidan qabul qilingan Toshkent Deklaratsiyasiga ko‘ra **Diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, ko‘pkonfessiyali jamiyatlarda dinlararo hamjihatlikni mustahkamlash maqsadida bir ovozdan quyidagilarni belgilab o‘tilgan edi:**

- ijtimoiy, madaniy va diniy jarayonlarni ochiq va konstruktiv muhokama qilish, ko‘pkonfessiyali va madaniyatlararo muloqotni kengaytirish;
- barcha dinlarni ko‘pkonfessiyali muloqot va hamkorlikni mustahkamlashga chaqirish, ayniqsa diniy yetakchilar o‘rtasida o‘zaro muloqot yo‘li bilan jamiyatning barcha qatlamlari uchun umuminsoniy qadriyatlarning chuqurroq tushunishni targ‘ib qilish;
- fuqarolarni diniy bag‘rikenglik va inson huquqlarini mustahkamlash bo‘yicha loyihalarga ko‘maklashish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan ta’minlash;
- ko‘pkonfessiyali va madaniyatlararo muloqotni targ‘ib qilish uchun yangi ta’lim uslublari, yangi o‘quv dasturlarini joriy qilish, fuqarolarning diniy erkinlik va turli millat hamda e’tiqod a’zolari o‘rtasida tinchlikda yashashi bo‘yicha xabardorligini oshirish ishlari yanada takomillashtirilib, belgilangan maqsad doirasida to‘laqonli islohotlar va amaliyotlar amalga oshirilmoqda.

Shubhasiz, bugungi **xalqaro konferensiya** ham O‘zbekistonning **bag‘rikenglik**, **hamjihatlik** va e’tiqod erkinligi borasidagi **faol siyosati**ni xalqaro miqyosda tarannum etish va targ‘ib qilishga xizmat qiladi.

Shavkat BOBOJONOV,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori
bobojonovsh2020@gmail.com

O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK SIYOSATINI YURITISHDA ETNOTURIZMNING O‘RNI

► ***Annotatsiya:*** *Maqolada O‘zbekistonda qadimdan yashab kelgan millatlar, ularning hududda joylashuvi, tolerantlik muhitida istiqomat qilgani tahlil etilgan. Mustaqillik yillarida etnoturizmning xalqlar yaqinlashuvi, madaniyatlararo muloqotni ta’minlashdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *etnoturizm, qozoqlar ovuli, lo‘lilar diasporasi, yahudiy mahalla, xalqlar do‘stligi, biennale.*

► ***Аннотация:*** *В статье анализируются этносы, проживающие на территории Узбекистана с древнейших времён, особенности их расселения на этой территории и сосуществования в условиях толерантности. Показана роль этнотуризма в годы независимости в сближении народов и обеспечении межкультурного диалога.*

Ключевые слова: *этнотуризм, казахский аул, цыганская диаспора, еврейский квартал, дружба народов, биеннале*

► ***Abstract:*** *The article analyzes the ethnic groups living in the territory of Uzbekistan since ancient times, the peculiarities of their settlement in this territory and coexistence in conditions of tolerance. The role of ethnotourism in the years of independence in bringing peoples closer together and ensuring intercultural dialogue is shown.*

Key words: *ethnotourism, Kazakh village, Roma diaspora, Jewish neighborhood, friendship of peoples, biennale.*

Ma’lumki, etnoturizm sayyohlarni xalqlarning asl hayotiga qiziqishiga asoslangan turizm yo‘nalishidir. Xalqning kelib chiqishi, turmush tarzi, yagona tili, madaniyati qadriyatlari, iqtisodiyot, yashash hududi va o‘z-o‘zini anglashi tushuniladi. Zamonaviy dunyoda etnik turizm tobora keng tarqalmoqda. U yunoncha etnos – xalq so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, xalq orasiga kirishni ifodalaydi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yakdil, ahil bo‘lib yashamoqda. Ularning har biri o‘ziga xos sheva va folkloriga ega. Shaharlarda bu xususiyatlar tobora yo‘qolib bormoqda va megapolis aholisi etnik guruhning ushbu noyob dunyosiga sho‘ng‘ish, tabiat va ularning milliy ildizlari bilan birlikni his qilish uchun tirishmoqda. Ushbu turdagi etnik turizmni ichki turizm va ekskursiya deb ham atashadi.

Mamlakatda tolerantlik, millatlararo totuvlik, o‘zaro ahillik va birdamlikni ta’minlashda etnoturizm muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan millatlarning qadriyatlari, urf-odatlarini saqlab qolish, madaniyatini namoyish etish va rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Ko‘p millatli O‘zbekiston tarixida ham xalqlar birdamligi masalasi asosiy o‘rinda turgan. Bigrina misol, qadimiy shaharlarimizdan Buxoro tolerant shahar sifatida dunyoga tanilgan. Hududda o‘zbek, tojik, turkman, arab, eroniy, yahudiy, hind va lo‘lilar bahamjihat istiqomat qilishgan. Masalan, XVIII asrga kelib eroniylar asosan Buxoro shahrining janubiy qismida Jo‘ybor va Xiyobon mavzesida o‘rnashgan. Shahar devoridan g‘arbda Qumrabot va janubda Afshor mahallada ham ba’zi guruhlar istiqomat qilishgan. Shuningdek, ular shaharning g‘arbiy qismida ham qisman yashashgan. Buxoro eski shaharining markazida joylashgan To‘pxona va Do‘st Chuxra og‘asi mahallalarida eroniylarning eng avvalgi jamoalari umrguzaronlik qilishgan [3, 239 b.].

Buxoroda eroniylar nafaqat Eski shaharning Jo‘ybor mavzeida, balki Kogon tumanining Zirabod qishlog‘ida istiqomat qilishadi. Mazkur eroniy qishloqda shuningdek, turli xalqlar istiqomat qilib, ular mavrilar (Xurosonning Marv shahridan ko‘chirilganlar), darg‘alilar (Xurosondan), Loxilar (Afg‘onistondan), bobakilar (Ozarbayjondan), xarsarilar (Xurosondan), timuridlar (Xurosondan), g‘undilar (Xurosondan), qipchoqlar, balujlar (Xurosondan) va boshqalarni tashkil etadi. Ko‘rinib turibdiki, ularning barchasi Buxoro amirligi janubidan shialar istiqomat qiladigan hududlardan ko‘chirib keltirilgan [4, 97 b.]. Ushbu hududlarda eroniylar masjidi - husayniyxonalar faoliyat ko‘rsatgan. Xalq birligini, an’analarini saqlovchi avloddan avlodga yetkazuvchi muhim makon bu eroniylarda Husayniyxona hisoblanadi. Shuning uchun Eron, Pokiston-

dan Buxoroga tashrif buyuruvchi ziyoratchilar qadimiy husayniy-xonalarni ziyorat qilishadi. Shuningdek, bugun turli millat vakillari o‘z ajdodlarini ziyorat qilish uchun Buxoroga tashrif buyuradi. Masalan, Ahli Namadpo‘shni hindistonliklar, Ismoil Somoniyni Tojikiston tojiklari, Mir Arabni yamanliklar, Eshoni Afg‘oni Murodbaxshni afg‘onlar, Bog‘ir Sog‘irni eronliklar ziyorat qilish uchun Buxoroga intilishadi [2, 121 b.].

Hozirda Buxoro shahrida turli millat vakillarining qadimiy mahallalari, hovlilari saqlanib qolgan. Masalan, shaharning Labi hovuz atroflarida, Eshoni Pir ko‘chasida, ilgari juguton ko‘cha (yahudiy ko‘chasi) nomi bilan mashhur yahudiylar mahallasi saqlanib qolgan. Tarixda Buxorodagi 10 mahalla yahudiylarga mansub bo‘lib, shularning uchtasi, Mahallai Nav, mahallai Ko‘hna va Amirobod asosiylari hisoblangan [1, 3 s.]. Hozirda 2 ta yahudiylar sinagogasi, 1 ta ivrit maktabi va bir necha xonadonlar asl holatida saqlanib qolgan. Buxoro amirligida mashhur saroy sozanda va xonandalari sifatida mashhur bo‘lgan yahudiylarning Levi Boboxonov (Levicha)ning xonadonlarini ko‘rish mumkin. Sovet davrida taniqli san’atkorlar bo‘lib tanilgan To‘faxon (Yafa Pinxasova), Oliyaxon Xasanova va Muhabbat Shamayevalar ham ayni shu mahallada istiqomat qilgan.

XIX asrdan boshlab Buxoroning Peshku, G’ijduvon, Qorako‘l tumanlarida qozoqlar doimiy va vaqtinchalik yashaydigan hududlar paydo bo‘la boshlagan. Jongeldi, Qorabura, Beshbuloq qozoq ovullari yuzaga kelgan. Qozoqlar aday, nayman, arg‘in, qo‘ng‘irot urug‘lari kabi qozoq tili, an’analari va urug‘ munosabatlarini yaxshi saqlab qolishgan. Qozoqlarning ko‘pchiligi XIX asrda Turkiston o‘lkasi va qozoq cho‘llaridan ocharchilikdan qutulish, qatag‘on va iqtisodiy omillar sabab ko‘chirilganlarning avlodlari hisoblanadi. Jongeldi etnoturizm mahallasi tarkibiga kiruvchi “Jongeldi”, “Xalata”, “Qal’a Ota”, “Safron” ovullarida qozoq va turkman millatiga mansub 209 ta oiladan iborat 162 ta xonadon mavjud. Ovullar bir-biridan qariyb 100 km uzoqlikda joylashgan. Jami 765 nafar aholi istiqomat qiladigan qishloqning umumiy maydoni 750 gektar bo‘lib, 1931 yilda tashkil etilgan. Qozoq qavmlari bu manzilga 1930 yillarda ko‘chib kelishgan. Jongeldi ovulining umumiy aholisi 200 nafarga yaqin. Qizilqum kengliklari bo‘ylab Quljuqtov tog‘ining

shimoli-g‘arbiy etagi pastliklarida yashab kelayotgan mahalliy aholi asosan cho‘ponchilik, chorvachilik, yilqichilik, qisman dehqonchilik bilan shug‘ullanadi.

Buxorodagi yana bir diaspora lo‘lilar bo‘lib, ular viloyatning Buxoro shahri (Chorbaxossa mahallasi), Buxoro tumani (Qizilqum mahallasi), Kogon tumani (S.Ayniy, Istiqbol, Furqat, Decha-obod, O‘ba cho‘li, Beklar, Xo‘ja Bargi mahallalari), Vobkent tumani (Xurram mahallasi), Shofirkon tumani (Xalajion qishlog‘i), G’ijduvon tumani (Panjuvon mahallasi)da istiqomat qilib kelishmoqda [5, 139 b.].

Buxoroda xalqlar do‘stligi namunasini me’moriy inshootlar, tarixiy obidalar, saroylar va hatto aholi turarjoylari qurilishida kuzatish mumkin. Turarjoylar me’morchiligida bir necha xalqlar ishtirokidagi bahamjihat ishlangan qurilish uslublari ko‘proq hukmdorlar saroylarida uchraydi. Masalan, Buxoro amirlarining Yangi Buxoro (Kogon)dagi tashqi saroyida sharq va g‘arb me’morchilik san’ati uyg‘unlashgan. Inshootda ikki mamlakat usta-me’morlarining bahamjixatligi, mustahkam do‘stligi, yaqin birodarchiligi ko‘zga tashlanadi. Saroy dekoratsiyasida klassizm, mavritan, kolon, gotika, barokko, ampir uslublaridan unumli foydalanilgan. Ustunlar to‘liq italyan uslubida mohirona bajarilgan. Freskalari yevropacha uslubda, tepa qismidagi sharafalar italyan usulida bajarilgan. Alebastr bilan bezatilgan naqshlar “mavritan” uslubidagi ustunlar va kichik minoralarda o‘z aksini topgan.

Bugun Buxoroga tashrif buyurayotgan sayyohlar nafaqat o‘zbek xalqi tarixi, moddiy va ma’naviy madaniyati, turmush tarzi, ijtimoiy hayoti bilan tanishadi, balki, bu yerda istiqomat qilgan boshqa xalqlar qadriyatlari va an’analarini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, sayyohlar o‘z Vatani bilan bog‘liq tarixiy voqealarni eshitish, artefaktlarni ko‘rish, azaliy do‘stlik rishtalarini kuzatadi. Masalan, Buxoroda 67 ta karvonsaroydan biri Hindu deb nomlangani, Mir Arab madrasasining qurilish tarixi yamanlik shayx Arab Yamaniy nomi bilan bog‘liqligi, mashhur Chor Minor madrasasi turkman savdogari Xalifa Niyozqul tomonidan qurilgani kabi misollar shular jumlasidandir.

O‘zbekistonda etnoturizmni yanada rivojlashtirish, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish, madaniyatlar bilan tanishtirish maqsadida

qator xalqaro miqyosidagi tadbirlar o‘tkazilib kelinmoqda. Shahrisabzda Maqom festivali, Xorazmda lazgi festivali, Qo‘qonda hunarmandchilik, Buxoroda zardo‘zlik va zargarlik, Boysunda baxshilik festivallarini sanab o‘tish mumkin.

Butunjahon hunarmandlar shahri, YUNESKOning ijodkor shaharlari qatorida e’tirof etilgan Buxoroda 2025 yilning 5 sentabridan 20 noyabriga qadar xalqaro zamonaviy san’at biennalesi o‘tkazilmoqda. Prezident qaroriga muvofiq mazkur biennale ikki yilda bir marta an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinadi. Nufuzli tadbir turli millat hunarmandlari, me’morlari, rassomlari, musavvirlari, oshpazlari, san’at ustalarini bir yerga jamlashi bilan ahamiyatlidir. Mazkur tashabbus ham qadimiy shaharlarimiz, boy madaniyatimiz, amaliy san’at namunalari orqali O‘zbekistonni dunyoga yanada tanitish, Markaziy Osiyodagi ilm-ma’rifat, san’at va turizm xabiga aylantirishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston dunyoga birodarlik, tinchlik, xalqlar do‘stligi mamlakati nomlari bilan mashhur. Jumladan, Buxoro ham qadimdan boqiy shahar, bag‘rikeng shahar, ochiq shahar, sharofatli shahar, madina at-tujjor - savdogarlar shahri, sayohatlar chorrahasi nomlari bilan tanilgan. Bugun ham etnoturizm xalq diplomatiyasini kuchaytirish, qardosh xalqlar bilan yaqin qo‘shnichilik aloqalari yaxshilash, uzoq qo‘shnilar bilan pragmatik siyosat yuritish, faol diplomatiyani yuritishda muhim omil bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Альмеев Р. История регистрации и деятельности в г.Бухаре второй общины и синагоги Бухарских евреев (1989-1999 гг). Бухара, 2011. – С.3.

2. Бобожонов Ш.У. Бухоро воҳасида зиёрат туризмининг шаклланиши ва ривожланиш хусусиятлари. – Тошкент: Pages print, 2024. – Б.121.

3. Равшанов Ў. Бухоро эронийларининг ҳусайнихоналари тарихидан // Марказий Осиё давлатларида миллатлараро тотувликни таъминлаш. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2022. – Б.239.

4. Ravshanov O‘. Zirabod o‘lkashunoslik muzeyi – mahalliy eroniylar tarixini o‘rganish manbasi // Moddiy va ma’naviy meros va umumbashariy

qadriyatlar Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami. 15-kitob. – Toshkent, 2023. – B.97.

5. Қорёғдиев З. Бухоро лўлиларининг ижтимоий ҳаёти ва маданияти: тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент, 2021. – Б.139.

Полина Вадимовна ПАК,
Независимый исследователь (соискатель на степень PhD),
Национальный университет Узбекистана, Республика Узбекистан

РОЛЬ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ДЕМОКРАТИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

► ***Annotatsiya.*** *Maqola O‘zbekistonda demokratik rivojlanishda nodavlat notijorat tashkilotlarining (NNT) o‘rnini tahlil qiladi. Muallif o‘tkazgan sotsiologik tadqiqot asosida, ayniqsa jamoatchilik nazorati va ijtimoiy adolatni ta’minlash yo‘nalishlarida NNT faoliyatini faollashtirishga bo‘lgan ijtimoiy talab mavjudligi ko‘rsatiladi. NNT samaradorligini oshirish va mamlakat demokratlashuviga ularning hissasini kuchaytirishda raqamlashtirish hamda davlat ko‘magining ahamiyati ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *fuqarolik jamiyati; nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT); jamoatchilik nazorati; demokratlashuv; ijtimoiy adolat; fuqarolarni jalb etish; raqamlashtirish.*

► ***Аннотация:*** *Исследуется роль негосударственных некоммерческих организаций (ННО) в демократическом развитии Узбекистана. На основе авторского социологического исследования показан социальный запрос на активизацию их деятельности, особенно в сфере общественного контроля и обеспечения социальной справедливости. Подчёркивается значение цифровизации и государственной поддержки для повышения эффективности ННО и их вклада в демократизацию страны.*

Ключевые слова: *гражданское общество, негосударственные некоммерческие организации (ННО), общественный контроль, демократизация, социальная справедливость, вовлечение граждан, цифровизация.*

► ***Abstract:*** *This paper explores the role of non-governmental non-profit organizations (NGOs) in the democratic development of Uzbekistan. Based on the author's sociological research, it highlights the public demand for enhancing their activities, particularly in the areas of public oversight and ensuring social justice. The study emphasizes the importance of digitalization and state support in increasing the effectiveness of NGOs and strengthening their contribution to the country's democratization.*

Keywords: *civil society, non-governmental non-profit organizations (NGOs), public oversight, democratization, social justice, citizen engagement, digitalization.*

В рамках реализации концепции «Новый Узбекистан» особое внимание уделяется развитию институтов гражданского общества, расширению общественного контроля и повышению социальной активности населения. Негосударственные некоммерческие организации (ННО) занимают ключевое место в этих процессах, выступая посредниками между государством и гражданами. Их деятельность направлена на укрепление демократических институтов, защиту прав и интересов населения, а также на содействие модернизации страны.

Во многих ведущих научных центрах мира активно исследуется взаимодействие неправительственных некоммерческих организаций с государственными структурами в контексте развития институтов общественного контроля. Особое внимание уделяется влиянию ННО на формирование социальной политики, укрепление демократических институтов, развитие верховенства права и повышение подотчётности власти [1]. В рамках таких исследований анализируются механизмы участия граждан в принятии решений, а также роль ННО в обеспечении транспарентности государственного управления. Систематически публикуемые эмпирические и теоретические работы формируют значимую методологическую базу для изучения процессов институционализации общественного контроля в странах с переходной экономикой, включая Республику Узбекистан.

Новый этап строительства «Нового Узбекистана» и Стратегия развития «Узбекистан – 2030» определили приоритетом

развитие гражданского общества, расширение участия ННО в процессах принятия решений и внедрение эффективных механизмов общественного контроля. Особое внимание уделяется поддержке ННО через грантовые программы Общественного фонда при Олий Мажлисе, направленные на реализацию социально значимых инициатив [2]. Важное место занимает укрепление материально-технической базы ННО, развитие учреждений социальной поддержки, в том числе хосписов. Внутренняя повестка увязана с глобальными задачами, озвученными Президентом Республики Узбекистан на 78-й сессии ГА ООН, включая развитие человеческого капитала, борьбу с бедностью и повышение качества жизни населения [3].

Согласно результатам авторского социологического исследования, около половины респондентов (52%) считают, что принцип социальной справедливости лишь частично соблюдается в их местах проживания, особенно остро проблема ощущается в Ташкенте. При этом 50,5% опрошенных оценивают вклад общественных организаций в обеспечение справедливости как частичный, что указывает на необходимость активизации их деятельности на местном уровне.

Эти результаты перекликаются с данными исследования Центра «Ижтимоий фикр», подтверждающими высокий уровень гражданской идентичности и стремления населения к демократическим преобразованиям. Согласно их опросам, подавляющее большинство граждан (89,9%) воспринимает Конституцию Республики Узбекистан как символ независимости и гарант прав и свобод, а 87,7% респондентов считают её основой функционирования демократических институтов и законодательной системы страны [4]. Это свидетельствует о наличии значительного социального запроса на участие в управлении и поддержку демократических преобразований, где важную посредническую функцию выполняют ННО.

Результаты социологических исследований показывают, что население воспринимает ННО как важный институт в решении социальных проблем, таких как: содействие в оформлении государственных мер социальной поддержки; оказание консуль-

тационных и образовательных услуг; участие в программах по реабилитации и интеграции уязвимых групп населения; продвижение идей инклюзивности и правового равенства.

Таким образом ННО способствуют формированию правосознания граждан, повышению уровня доверия к демократическим институтам и развитию социальной ответственности.

Рассматривая ННО как механизм общественного контроля, одной из ключевых функций ННО становится участие в общественном контроле. По данным эмпирических исследований, граждане связывают эффективность общественного контроля с: активностью махаллинских структур, личным участием граждан и информационной поддержкой СМИ, использованием интернет-платформ для подачи инициатив и жалоб («Mening Fikrim», «Народный контроль»), вовлечением ННО в работу общественных советов при государственных органах. С 2022 года в ряде сфер (экология, энергосбережение) внедряется практика материального стимулирования граждан за сообщения о нарушениях, что повышает мотивацию общества к участию в контроле [5].

Современные вызовы — цифровизация, информационная безопасность, миграция, изменение климата — требуют от ННО адаптации и поиска новых форм взаимодействия с государством и обществом. Важным направлением становится развитие электронных платформ для диалога государства и граждан, а также интеграция международного опыта в сферу общественного контроля и защиты прав человека.

Таким образом, ННО играют важную роль в демократизации и модернизации Узбекистана. Они выступают не только как социальные посредники, но и как активные участники общественного контроля, способствующие укреплению доверия между обществом и государством. Перспективы их деятельности связаны с расширением цифровых инструментов, усилением взаимодействия с органами власти и интеграцией в глобальные инициативы по обеспечению прав и свобод граждан.

Список использованных источников:

1. London School of Economics and Political Science. MSc International Social and Public Policy (Non-Governmental Organisations). // https://www.lse.ac.uk/study-at-lse/graduate/msc-international-social-and-public-policy-non-governmental-organisations.

2. Указ Президента Республики Узбекистан от 21 февраля 2024 года № УП-37 «О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан - 2030» в «Год поддержки молодежи и бизнеса»» // https://lex.uz/uz/docs/6811938.

3. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на 78-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН. Нью-Йорк, 19 сентября 2023 года // https://president.uz/ru/lists/view/6679.

4. Центр изучения общественного мнения «Ижтимоий фикр». День Конституции Республики Узбекистан – 2024 // https://ijtimoiyfikr.uz/ru/issledovaniya/politika-i-pravo/257446654.htm.

5. Указ Президента Республики Узбекистан от 30 сентября 2020 года № УП–6074 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы управления деятельностью в сфере обращения с бытовыми и строительными отходами» //https://lex.uz/docs/5030957.

Dilmurod Zuxriddinovich ERNAZAROV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Falsafa kafedrasi dotsenti, siyosiy fanlar doktori (PhD)
Email: dilm79@inbox.ru Mobil: +9989 186 61 06
ORC ID: 0000-0002-9669-6166

XALQARO NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR (XNNT) VA MAHALLIY NNTLARNING O‘ZBEKISTONDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIDAGI HAMKORLIGI TENDENSIYALARI

► ***Annotatsiya***. *Bugungi kunda O‘zbekiston ijtimoiy hayotini modernizatsiya qilishda quyidagi jihatlarni ko‘rish mumkin. Xususan: jamiyat ijtimoiy hayotida huquqbuzarlik, qonunbuzarliklarning oldi olinishini ta’minlash, zamonaviy iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish, yangidan tashkil etilayotgan ijtimoiy tuzilmalar va institutlarga keng imkoniyatlar yaratish uchun huquqiy sohani tubdan yangilashdir.*

Kalit so‘zlar. *O‘zbekiston, modernizatsiya, qonun, xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlar, mahalliy NNTlar, fuqarolik jamiyati institutlari, barqarorlik, farovonlik.*

► ***Аннотация.*** *В настоящее время в Узбекистане наблюдаются следующие направления модернизации общественной жизни. В частности: обеспечение профилактики правонарушений в общественной жизни общества, регулирование современных экономических отношений, создание широких возможностей для вновь формирующихся социальных структур и институтов, кардинальное обновление правовой сферы.*

Ключевые слова: *Узбекистан, модернизация, право, международные негосударственные некоммерческие организации, местные НКО, институты гражданского общества, стабильность, процветание.*

► ***Abstract.*** *Currently, the following directions of modernization of public life are observed in Uzbekistan. In particular: ensuring the prevention of offenses in the public life of society, regulating modern economic relations, creating broad opportunities for newly emerging social structures and institutions, radically updating the legal sphere.*

Key words: *Uzbekistan, modernization, law, international non-governmental non-profit organizations, local NGOs, civil society institutions, stability, prosperity.*

Modernizatsiyalashning barcha mamlakatlar uchun yagona modeli bo‘lmaydi. U xalqning mentaliteti, uzoq vaqt davomida shakllangan milliy qadriyatlari, urf-odatlari, dunyoqarashlarining o‘ziga xosligi, ayni paytda, davlatning iqtisodiy imkoniyatlari va taraqqiyot darajalari hisobga olingan holda ishlab chiqiladi. Bu ishni barcha mamlakatlarda bir vaqtda va bir xil darajada amalga oshirishning imkoni mavjud emas. Chunki, buning uchun sohalarda darajalar turli-tuman, hattoki ularning ayrimlarida ba’zi yo‘nalishlarda zarur bo‘ladigan imkoniyatlarni modernizatsiyalash jarayonida izlab topishga to‘g‘ri keladi” [1].

O‘zbekistondagi yangilanish va modernizatsiya jarayonining hozirgi bosqichida fuqarolik jamiyatining mustahkam zaminini barpo qilishga qaratilgan islohotlar keng ko‘lamda rivojlantirilmoqda. Bu o‘rinda jamiyat miqyosida demokratiyaning institutsional va ijtimoiy-iqtisodiy poydevorini zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida ilmiy jihatdan takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu vazifalarni tizimli va samarali bajarish, o‘z navbatida, inson qadri, huquq va erkinliklarini mustahkamlash, davlat va jamiyatni demokratik yangilash, liberallashuv jarayonining ijtimoiy o‘zagini mustahkamlashga yo‘g‘rilgan tub islohotlarni real ravishda amalga oshirishga asoslanishi lozim. O‘tgan davrda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda haqiqatan inqilobiy o‘zgarishlarga erishildi [2].

Albatta, O‘zbekisonda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlarida XNNTlarning roli va ishtiroki beqiyos bo‘lmoqda. Zamonaviy xalqaro munosabatlar amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, xalqaro tashkilotlarning xalqaro huquq normalar tomonidan kuchli va ishonchli himoyalanganligi hamda xalqaro darajadagi hamkorlik tizimini rivojlantirishda ularning roli, ahamiyati ortib bormoqda. XNNTlarning xalqaro munosabatlarda tutgan o‘rni tobora kengayib, ta’sir doirasi kengaymoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va XNNT o‘rtasidagi doimiy hamkorlik, shuningdek, BMTning Jamoat axboroti bo‘limi orqa-

li amalga oshiriladi. XNNTlar bilan bog‘liq maqom BMT Nizomi g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan, o‘z faoliyatining maqsadini foyda keltiradigan, axborot materiallari nashr etish, konferensiyalar, seminarlar va davra suhbatlarini tashkil etish orqali BMT faoliyati bo‘yicha samarali dasturlarni amalga oshirish niyati va qobiliyatiga ega bo‘lgan XNNTlarga beriladi.

Tadqiqotchilar Amanda va Tavishilarning (Murdie, Amanda, and Tavishi Bhasin) fikriga ko‘ra, “jahonda eng ko‘p xalqaro tashkilotlar sifatida inson huquqlari bo‘yicha xalqaro nohukumat tashkilotlari (inson huquqlari bo‘yicha xalqaro tashkilotlar) butun dunyo bo‘ylab keng faoliyat olib borishadi va butun dunyo bo‘ylab inson huquqlari buzilishini kamaytirishga qaratilgan kampaniyalarini amalga oshirishadi” [3].

O‘zbekiston milliy qonunchiligida XNNTlarga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi tendensiyalari

Ma’lumki, 2015-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tuzilgan edi. Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalardan biri bu - chet el nohukumat tashkilotlari va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantiradi, chet el nohukumat tashkilotlari va xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda tadbirlar o‘tkazadi, chet ellik hamkorlar ishtirokidagi dasturlar va loyihalarni ro‘yobga chiqaradi, ularning grantlarini aniq ijtimoiy va umum ahamiyatga molik loyihalarni hal etishga, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishni rag‘batlantirishga jalb etishi nazarda tutilgan edi. Ammo, bugungi kunda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilishi talab darajasida emas. Amalda qilinayotgan ishlar juda sust ketayapti. XNNTlarning jamiyatimiz hayotidagi modernizatsiyalashuv jarayonlaridagi ishtiroki yaqqol sezilmayapti.

Amerikalik olim S.Xantingtonning fikricha, “Modernizatsiyaning maqsadi – har qandy jamiyatda iqtisodiy yuksalish, tenglik, demokratiya, barqarorlik, farovonlik, adolat, tartib-intizom kabi sotsial qadriyatlarni joriy qilish. Modernizatsiyaga teskarisi bo‘lgan kambag‘allik, tengliksizlik, qatag‘on, zo‘rlik, avtokratiya, byurokratiyaga asoslangan tuzumdan modernizatsiyalashuv orqali rivojla-

nishning yangi bosqichiga o‘tishning ro‘y berishidir” [4]. Bundan shunday fikr kelib chiqadiki, XNNTlar ham bugungi kunda davlat va jamiyat boshqaruvidagi modernizatsiya jarayonlarining katalizatoriga aylangan.

Taniqli olim S.Xantington modernizatsiyani ikki turga ajratadi.

Birinchi tur modernizatsiyaning original shakli bo‘lib, u bosqichma-bosqich, uzoq tarixiy jarayonlar natijasida vujudga keladigan rivojlanishning ratsional tartibotlarini o‘zida namoyon qilgan mamlakatlar tushuniladi.

Ikkinchi tur – ikkilamchi, aks etuvchi modernizatsiya bo‘lib, unga ba’zi bir sabablarga ko‘ra rivojlanishdan ortda qolgan va keyinchalik yetakchi mamlakatlarning keng tajribalarini o‘z taraqqiyot yo‘llarida foydalangan hisobiga birinchi turga oid mamlakatlar darajasiga erishish yo‘lidan olg‘a borayotgan mamlakatlarni kiritish mumkin. “Ikkilamchi modernizatsiyaning asosiy omili mavjud «jahon universal madaniyati» markazlari bilan sotsiomadaniy aloqalar hisoblanadi” [5].

Demak, jamiyat hayotini modernizatsiya qilishda yo‘lida XNNTlar bilan keng hamkorlik qilish va ularning ma’lum bir tajribalaridan foydalanish kutilgan natijalarni beradi. Har qanday jamiyatda modernizatsiyaning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun fuqarolik jamiyati institutlar, mahalliy NNTlarning XNNTlarni qay darajada qabul qilishi, ular bilan hamkorlik qilishga tayyorligi, davlat boshqaruvi organlarining modernizatsiya jarayonlarga tayyorligi hamda jahon tajribalarini o‘z taraqqiyotlarida qabul qila olishi va qo‘llab-quvvatlashlariga bevosita bog‘liq.

Taniqli tadqiqotchi olim B.Omonovning fikricha, “Modernizatsiya – o‘ta murakkab siyosiy jarayon. Unda o‘zgarishlar inson va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida ro‘y berishi natijasida yangi tushunchalar, tamoyillar va yondashuvlar ham yangidan shakllantirib boriladi. O‘zbekistonda modernizatsiya tuzilmasining strukturaviy-funksional tarkibi mustaqil ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida kompleks-tizimli o‘rganilmagani bu sohaga qiziqishni kuchaytiradi” [6].

Modernizatsiya tushunchasiga berilgan bizning ta’rifga ko‘ra, modernizatsiya – bu o‘ta murakkab ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqti-

sodiy jarayonlar majmui bo‘lib, unda davlat, fuqarolik jamiyati institutlari hamda tashqi aktorlar (xalqaro tashkilotlar, XNNTlar) ning o‘zaro hamkorligida amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlarni o‘zida aks ettiradi. O‘zaro hamkorlikda amalga oshirilgan modernizatsion o‘zgarishlar inson, jamiyat, davlat hayotining barcha sohalarida ro‘y berishi natijasida fuqarolar ongida yangicha dunyoqarash, tushunchalar, tamoyillar, yondashuvlar va munosabatlar ham yangidan shakllanadi.

XNNTlar an’anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o‘tishda jarayonida yetakchi rol o‘ynaydi. Ular endigina shakllanib kelayotgan yangicha siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlar, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining faollashuviga ta’sir ko‘rsatadi.

Jamiyat hayotining modernizatsiya jarayonlari haqida rus olimi D.Goncharovning shunday deydi: “...ikki yuz yildan ko‘proq vaqt oldin G‘arbiy Yevropaning ba’zi bir davlatlari va Shimoliy Amerikada hozirgi vaqtga kelib dunyoning barcha mintaqalaridagi an’anaviy ijtimoiy va siyosiy tartibni butunlay o‘zgartirib yuborgan ijtimoiy o‘zgarishlar jarayoni boshlandi. Ushbu o‘zgarishlarning tarixiy natijasi zamonaviy jamiyat sifatida talqin qilinadi” [7].

Demak, XNNTlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida modernizatsiya qilishdagi ishtirokining bir nechta mezonlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- ijtimoiy sohada individuum va ijtimoiy guruhlarning jamiyat sohalarida bajaradigan rollarining tabaqalashuvi va ixtisoslashuvi amalga oshishi va ma’muriy buyruqbozlikni barham topishi;
- siyosiy sohada ijro hokimiyat faoliyatini nomarkazlashtirish, aholini siyosiy jarayonlarda bevosita ishtirokining ta’minlanishi;
- madaniy sohada – fan-ta’lim, ilmiy innovatsiyalarning rivojlanishi, so‘z erkinligi, OAVlarining axborot tarqatish va uzatishning yangi vositalari rivojlanishi, aholining barcha ilm-fan, texnika, madaniyat yutuqlaridan foydalana olish imkoniyatlarining takomillashuvi.
- XNNTlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi islohotlarning borishi, ochiq demokratik davlat qurilishi, korrupsiyadan holi bo‘lishi;

- inson huquqlarining ta’minlanganligi, barqaror ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy rivojlanishi tendensiyalarini baholash va reytingini shakllantirish ishlarini amalga oshirishi va hokazolar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, XNNTlarini mahalliy NNTlar bilan to‘g‘ridan – to‘g‘ri ishlash va hamkorlikni amalga oshirishni yo‘lga qo‘ymas ekanmiz, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati rivojlanish tendensiyalarini tezlashtira olmaymiz. Buning uchun XNNTlar uchun milliy qonunchilikni yanada liberallashtirishimiz maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Omonov B.A. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. – T.: “Aloqachi”, 2019. B– 4 b.

2. Paxrutdinov Sh.I. Maqsadimiz ham yo‘limiz ham aniq ma’suliyat va daxldorlik tuyg‘usi ko‘zlangan marramizga yetkazadi //Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2024 yil 9 yanvar 5-son.

3. Murdie, Amanda, and Tavishi Bhasin. “Aiding and Abetting: Human Rights INGOs and Domestic Protest.” The Journal of Conflict Resolution, vol. 55, no. 2, 2011, pp. 163–91. JSTOR, http://www.jstor.org/stable/23049698. Accessed 22 Aug. 2022.

4. Hungtenton S. The Goals of Development // Understanding Political Development. Illinois, 1994. 6-bet.

5. Samuel P. Huntington. The West: Unique, Not Universal. https://www.foreignaffairs.com/articles/1996-11-01/west-unique-not-universal.

6. Omonov B.A. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. – T.: “Aloqachi”, 2019. B– 6 b.

7. Goncharov D.B., Goptareva I.B. Vvedenie v politicheskuyu nauku. -M.: Yurist, 1996. 53-bet.

Maqsad Bahodirovich ISABAYEV,
Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tadqiqotchisi, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

DEPUTATNING SAYLOV OKRUGIDAGI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID XALQARO TAJRIBALAR

► ***Annotatsiya.*** *Maqolada deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyati, uning demokratik parlament tizimidagi o‘rni va xalqaro tajribadagi yondashuvlar tahlil qilingan. Rivojlangan davlatlar misolida deputatlarning saylovchilar bilan ishlash muddati, uchrashuvlarni tashkil etish tartibi hamda zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanish amaliyoti o‘rganilgan. Shuningdek, saylov okruglarida deputatlar faoliyatini samarali tashkil etishga doir takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar. *Demokratik parlament, deputat, saylov okrugi, xalqaro tajriba, fuqarolar bilan muloqot, parlament ochiqligi, siyosiy ishonch, vakillik funksiyasi.*

► ***Аннотация:*** *В статье анализируется деятельность депутатов в избирательных округах, её роль в демократической парламентской системе и подходы в международной практике. На примере развитых стран изучены сроки работы депутатов с избирателями, порядок организации встреч, а также практика использования современных средств коммуникации. Кроме того, разработаны предложения по эффективной организации деятельности депутатов в избирательных округах.*

Ключевые слова: демократический парламент, депутат, избирательный округ, международный опыт, взаимодействие с гражданами, открытость парламента, политическое доверие, представительная функция

► ***Annotation:*** *The article analyzes the activities of deputies in electoral districts, their role in the democratic parliamentary system, and approaches in international practice. Using examples from developed countries, the study examines the duration of deputies’ work with voters, the procedures for organizing meetings, and the practice of using modern communication tools. In addition, proposals have been developed to improve*

the effective organization of deputies' activities in electoral districts.

Keywords: *democratic parliament, deputy, electoral district, international experience, communication with citizens, parliamentary openness, political trust, representative function*

Demokratik parlamentning asosiy xususiyati uning a'zolari fuqarolar tomonidan saylanib, bevosita vakillik qilishidir. Parlament va deputatlarning qonun ijodkorligi hamda nazorat funksiyalari keng tadqiq etilgan bo‘lsa-da, ularning saylov okrugidagi roli ko‘pincha chetda qolgan. Deputatlar, qaysi saylov tizimi orqali saylanganidan qat'i nazar, fuqarolar bilan muntazam muloqotda bo‘lishi va parlament faoliyati haqida axborot berishi zarur.

Samarali muloqot uchun resurslar va moslashuvchanlik muhim bo‘lib, deputatlar fuqarolar bilan doimiy aloqada turishi, ularning ehtiyoj va tashvishlarini inobatga olishi kerak. Aks holda parlament faoliyati fuqarolar uchun murakkab va tushunarsiz bo‘lib qoladi. Shu bois parlament ishining ochiqligi va ikki tomonlama muloqotni rivojlantirish fuqarolarning ishonchini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Parlamentlar o‘z fuqarolariga faoliyatlari haqida ma'lumot berish va ular bilan aloqada bo‘lish uchun bir qator vositalardan foydalanadilar. Bunday vositalar fuqarolarga parlament vakolatlari, uning qobiliyatlari va cheklovlari haqida yaxshiroq tushuncha olishlariga yordam beradi. Parlamentlar tomonidan global miqyosda qo‘llanilgan ba'zi targ‘ibot vositalari (sessiya jarayonining translyatsiyasi, Mobil parlament, Ochiq parlament)lardan iborat [1].

Ma'lumki, parlament deputatlarining saylovchilar bilan munosabatlari konstitutsiya, parlament reglamenti, saylov qonunlari, ahloq-odob kodekslari, boshqa qonunlar va ichki me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solingan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining saylov okruglarida saylovchilar bilan ishlashi uchun 2005-2016- yillarda - noyabr, fevral va may oylarining oxirgi to‘liq haftasi, 2016-2019-yillarda - mart, iyun, sentabr oylarining oxirgi o‘n kunligida, dekabr oyining ikkinchi o‘n kunligida o‘n kungacha, 2019-2024-yillarda – har oyning oxirgi haftasi ajratilgan.

Xorij tajribasiga koʻra, deputatlar oʻz okruglarida oʻz vazifalarini bajarish uchun muayyan vaqt sarflashadi. Bu ishlash muddati va tartibi, odatda, deputatning shaxsiy tajribasi, saylovchilarning murojaatlari, parlamentning ish rejasi va mamlakatdagi siyosiy muhitga bogʻliq boʻladi.

Rivojlangan davlatlarda deputatlarning okrugda faoliyati va ishlash muddati, asosan, oʻrtacha 8-10 kunni tashkil etadi. Masalan, Fransiyada parlament a'zolari haftalik tartibda Parijda (parlament faoliyati) va oʻz saylov okruglarida (saylovchilar bilan ishlash) faoliyat yuritadi. Kanadada haftaning shanba va yakshanba kunlari, parlament tanaffusga chiqqan davrda – bir hafta yoki undan koʻproq vaqt davomida saylov okruglarida ishlaydi. Singapurda har oyda bir hafta saylovchilar bilan ishlaydi. AQShda yillik kalendar rejaga muvofiq, yiliga 147 kun, bir oyga oʻrtacha 12-13 kun faoliyat yuritadi. Ozarbayjonda har oyda 2-3 kunni tashkil etsa, Rossiyada har oyda bir hafta davomida ishlaydi. Qoʻshni Qirgʻizistonda esa mart va oktabr (noyabr) oylarida 3-10 kunni tashkil etadi.

Deputatning okrugidagi ishi qanday tashkil etilishi hamda ularning fuqarolar bilan qanday usullar orqali ishlashi muhim masalalardan biridir.

Xorijiy va mahalliy tajribaga koʻra, siyosiy partiyalar va mahalliy hokimiyatlar deputatlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash uchun moddiy-texnik ta'minot (ofis jihozlari, transport xizmati, aloqa vositalari), ma'lumot-axborot bilan ta'minlash (hudud boʻyicha statistika, tahliliy hujjatlar, fuqarolar murojaatlari), tadbirlar oʻtkazish uchun joy ajratish, saylovchilarni xabardor qilish, deputat faoliyatini yoritish yoʻnalishlarda koʻmak beradi.

Deputatlar saylovchilar bilan muntazam aloqani ta'minlashda ofis va maxsus qabulxonalar tashkil etish, doimiy ishlovchi xodimlar (yordamchi va kotib) yollash, masofaviy vositalar (virtual qabul, videokonferensiya, ijtimoiy tarmoqlar)ini tashkil etish, raqamli hujjat aylanishini yoʻlga qoʻyish kabi amaliyotlar joriy etilgan.

Masalan, Singapurda deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyatini asosan mahalliy hukumat organlari va Xalq assotsiatsiyasi muvofiqlashtirib, deputatlar volontyorlar imkoniyatidan keng foy-

dalanadi. Ular uchrashuvlarni tashkil etish, aholi muammolarini o‘rganish va murojaatlar bilan ishlashda ishtirok etadi.

AQSh Kongress a’zolarining har biri o‘zining shaxsiy veb-saytini yaratgan bo‘lib, unda saylov okrugi xaritasi hamda saylovchilar bilan bog‘lanish imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, Kongress a’zolari saylov okruglaridagi faoliyatini yillik kalendar reja asosida tashkil etadi. Rejada mahalliy korxonalarga tashriflar, maktablar, yirik markazlar, notijorat tashkilotlari, shahar hokimiyati yig‘ilishlari, ko‘rib chiqilayotgan masalalar bo‘yicha eshituvlar, saylovchilar qabuli, matbuot tadbirlari, ishchi guruhlar yoki mahalliy ekspertlar bilan uchrashuvlar va individual muloqotlar o‘rin olgan. Har bir Kongress a’zosi o‘z saylov okrugida yoki shtatida ofislar tashkil etadi. Saylovchilar bu idoralar orqali o‘z muammolari, savollari yoki takliflari bilan murojaat qilishlari mumkin.

Yaponiyada esa parlament kotibiyati, shaxsiy ofislar va mahalliy hokimiyatlar tomonidan tashkil etilsa, Germaniyada deputatlar o‘z okruglarida qabulxonalarini tashkil etib, saylovchilar bilan aloqa o‘rnatadi. Shuningdek, Rossiyada mahalliy davlat organlari deputatlarning saylovchilar bilan uchrashuvlarini tashkillashtirishi belgilangan bo‘lsa, Ozarbayjonda parlament kotibiyati, deputatning yordamchisi, hududiy ijro hokimiyati organlari va siyosiy partiyalar tomonidan uchrashuvlar tashkil etiladi.

Mahalliy Kengashlarning qarorlarini qabul qilishida partiya guruhlari va boshqa tuzilmalarining ishtiroki bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari biz uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda bir qancha rivojlangan davlatlarning tajribalari o‘rganildi.

Xususan, Ispaniyaning Madrid shahar Kengashi elektron-shtab kvartirasida shahar Kengashining rasmiy axborotnomalari e’lon qilib boriladi. Unga ko‘ra, har bir qabul qilingan rasmiy byulletenlar saytga joylanib, qabul qilingan qarorlarni sanasi va mant nomi bilan izlab topish imkoniyati yaratilgan [2]. Madrid shahar Kengashining shaffoflik portalida [3] turli siyosiy uyushmalar, mahalliy sotsialistik guruhlarning uchrashuvlari haqida ma’lumotlar e’lon qilib boriladi. Mazkur uchrashuvlar bo‘lib o‘tishidan avval saytga uchrashuv bo‘lib o‘tadigan sanasi va joyi, ko‘rib chiqiladigan maslalalar e’lon qilinadi [4].

Bundan tashqari Madrid shahar Kengashining fuqarolar ishtiroki portalida Kengashda muhokama etiladigan har bir masalalar yuzasidan fuqarolar va turli ishtirokchi uyushmalar o‘z taklif va tavsiyalari bilan ishtirok etishlari uchun imkoniyat yaratilgan [5]. Shuningdek, fuqarolar va partiya guruhlari uchun zarur bo‘lgan axborotlar bilan ta’minlashda Ochiq ma’lumotlar portali yaratilgan bo‘lib, unda partiya guruhlari uchun kerak bo‘lgan ma’lumotlar bilan tanishish va ulardan qarorlar qabul qilishda foydalanish imkoniyati tashkil etilgan [6].

Rossiya Federatsiyasining Tatariston Respublikasining Ochiq ma’lumotlar portalida davlat va fuqarolar o‘rtasida aloqa mexanizmi yaratilgan bo‘lib, unda Xalq nazorati [7] va Jamoatchilik muhokamasi [8] kabi alohida bo‘limlari tashkil etilgan. Unda partiya guruhlari uchun kerak bo‘lgan ma’lumotlar bilan tanishish va ulardan qarorlar qabul qilishda foydalanish imkoniyati yaratilgan [9].

Qonun loyihasi tayyorlanayotganda Deputatlar guruhi tomonidan qonun loyihasi kiritilganda, qonun loyihasi matni bilan birga Davlat kengashiga ushbu qonun loyihasi bo‘yicha ma’ruzachi o‘rinbosari to‘g‘risidagi taklif kiritiladi [10].

AQShning Nyu-York shahar Kengashi qaror qabul qilish jarayonlari haqida saytda batafsil ma’lumotlar berib boradi. Xususan, qabul qilingan qarorlar nomi, sanasi va qaysi komissiya va partiya guruhlari, uyushmalar tomonidan kiritilganligi ko‘rsatilgan [11].

Estoniyaning Riga shahar Kengashi kun tartibi va majlis bayonnomalari e’lon qilib boriladi. Unda Kengashning har bir komissiyasi va tergishli tuzilmalar tomonidan ko‘rib chiqib muhokama etilgan masalalar yuzasidan qabul qilingan qarorlari saytda muntazam e’lon qilib boriladi [12].

O‘tgan davrdagi tajriba va kuzatuv natijalariga ko‘ra, deputatlarning okruglardagi faoliyatini tashkil etish jarayonida ayrim kamchiliklar, tizimli muammolar hamda to‘liq foydalanilmagan imkoniyatlar mavjud. Xususan, ko‘pincha, deputatlar o‘z saylov okruglarida o‘tkaziladigan uchrashuvlarining vaqti, joyi va rejasi haqida aholini va keng jamoatchilikni xabardor qilish bo‘yicha tizim yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, saylovchilar bilan uchrashuvlarda ko‘tarilgan muammolar va masalalarni boshqa mas’ullarga yuklagan holda o‘z mas’uliyatidan qochish holatlari ham yo‘q emas.

Deputatlarning saylov okruglardagi faoliyatini yanada samarali tashkil etishga qaratilgan quyidagi bir qator takliflarni tavsiya etish mumkin:

deputat uchrashuvining vaqti, joyi va rejasi haqida oldindan tizimli ravishda ma'lumot berish mexanizmlarini joriy etish. Buning uchun mahalliy ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish. Germaniya tajribasidan kelib chiqib, deputatlarning uchrashuvlari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlarda muntazam yoritib borish tizimini yo‘lga qo‘yish;

deputatlarning ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar orqali aholi bilan muloqot qilish tizimini takomillashtirish. Meksika tajribasidagi deputat va saylovchi o‘rtasida muntazam virtual uchrashuvlar o‘tkazishdan keng foydalanish;

uchrashuvlarni mazmundor o‘tkazishga e'tibor qaratish. Rasmiyatchilikdan qochib, qog‘ozdagi ma'ruzalar o‘qishdan voz kechish, interaktiv muloqotlarga ustuvor ahamiyat berish. Okrugdagi chekka hududlarga borish, aholining turli qatlamlari bilan ochiq muloqot o‘tkazish va savollarga to‘liq, ishonchli javob berishga harakat qilish;

uchrashuvlarni aholi uchun qulay vaqt va joylarda o‘tkazish. Xususan, fuqarolarning ish vaqtidan kelib chiqib, kechki payt yoki dam olish kunlari tadbirlar tashkil qilish. AQShdagi kabi har bir deputat uchun shaxsiy veb-saytlar yaratish lozim. Unda saylov okrugi xaritasi, murojaatlar uchun aloqa ma'lumotlari va deputat faoliyatiga oid axborotlar aks etgan bo‘ladi.

saylovchilardan tushgan murojaatlarni qayd etish va ularni hal qilish jarayoni ustidan doimiy nazorat o‘rnatish. Indoneziya tajribasidan kelib chiqib, saylov okruglarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va ularni fraksiyalar yoki qonunchilik yig‘ilishlarida himoya qilish amaliyotini joriy etish.

Bizningcha, mazkur takliflar deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyatini yanada samarali tashkil etish, aholi bilan o‘zaro ishonchli muloqot o‘rnatish va ijtimoiy muammolarni hal qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.agora-parl.org/resources/aoe/parliamentary-function-representation.
2. https://inlnk.ru/0QlGQk.
3. https://transparencia.madrid.es/portales/transparencia/es/Informacion-juridica/?vgnextfmt=default&vgnextchannel=7089508929a56510VgnVCM1000008a4a900aRCRD.
4. https://servpub.madrid.es/agend/visitors.
5. https://decide.madrid.es.
6. https://visualizadatos.madrid.es.
7. https://uslugi.tatar.ru/open-gov.
8. https://open.tatarstan.ru/documents.
9. http://uslugi.tatarstan.ru.
10. https://gossov.tatarstan.ru/activity/lawmaking/sxema.
11. https://legistar.council.nyc.gov/Legislation.aspx.
12. https://www.riigikogu.ee/ru/deyatelnost/povestka-dnya-i-protokoly.

Shaxzod Uchqun o‘g‘li USMONOV,
O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar islari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti mustaqil tadqiqotchisi
Tel:+998-99-809-57-01 mail: bekumonovppp@gmail.com

NODAVLAT “AQL MARKAZLARI”NING DAVLAT SIYOSATINI SHAKLLANISHIDAGI TA‘SIRI: AQSH TAJRIBASI

► ***Annotatsiya:*** *Tadqiqotda AQShdagi nodavlat tahliliy markazlarning jamoat siyosatini shakllantirishga ko‘p qirrali ta’sirini o‘rganadi: Kongress eshituvlarida ishtirok etish va qonun loyihalarini tayyorlashga ko‘makdan tortib, ijro hokimiyati uchun kadrlar oqimini ta’minlashgacha (jumladan, CAP) hamda dasturiy ta’sir ko‘rsatishgacha (Heritage, AEI, Brookings). Ideologik yaqinlik polyarlashuvni kuchaytirishi ko‘rsatiladi, RAND kabi markazlar esa, asosan, amaliy texnik-tahliliy vazifalarni bajaradi. Moliyalashtirishdagi manfaatlar to‘qnashuvi xatarlari va mablag‘lar*

shaffofligining zarurligi qayd etiladi. Davlatning mustaqil markazlar bilan institutsional hamkorligi qarorlarning asoslanganligi va sifati oshishiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *aql markazlari, davlat siyosati, Kongress eshituvlari, kadrlar aylanishi, RAND, Heritage, CAP, Brookings; moliyalashtirish shaffofligi, manfaatlar to‘qnashuvi.*

► ***Аннотация:*** *Исследуется многоплановое влияние негосударственных аналитических центров США на формирование публичной политики: от участия в слушаниях Конгресса и подготовки законопроектов до кадрового донорства для исполнительной власти (в т.ч. CAP) и программного влияния (Heritage, AEI, Brookings). Показано, что идеологическая близость усиливает поляризацию, тогда как центры типа RAND выполняют преимущественно прикладные технико-аналитические задачи. Отмечаются риски конфликта интересов и необходимость прозрачности финансирования. Практический вывод: институционализированное сотрудничество государства с независимыми центрами повышает обоснованность и качество решений.*

Ключевые слова: *аналитические центры, публичная политика, слушания Конгресса, кадровая ротация, RAND, Heritage, CAP, Brookings, прозрачность финансирования, конфликт интересов.*

► ***Abstract:*** *The article analyzes how U.S. non-governmental think tanks shape policy content through congressional testimony, legislative drafting support, and talent pipelines into the executive branch (e.g., CAP), while programmatic agendas from Heritage, AEI, and Brookings influence partisan platforms. It notes that ideological proximity can intensify polarization, whereas government-funded contractors like RAND mainly deliver technical analyses. Funding-related conflicts of interest pose credibility risks, underscoring the need for transparency. Practical takeaway: structured cooperation with independent think tanks improves the evidence base and quality of reforms.*

Keywords: *think tanks, public policy, congressional hearings, talent pipeline, RAND, Heritage, CAP, Brookings, funding transparency, conflict of interest.*

Bugungi kunda nodavlat “aql markazlari” davlat siyosatini shakllantirishda muhim aktorlardan biriga aylanmoqda. Jahonda eng ko‘p aql markazlari AQSHda faoliyat yuritadi – 2020-yil holatiga ko‘ra

bu yerda 2 203 ta tahliliy markaz mavjud bo‘lib [1], ularning qariyb 8% mamlakat poytaxti Vashington shahrida joylashgan. Amerika aql markazlari, odatda, hukumat tarkibiga kirmaydigan xususiy notijorat tashkilotlar bo‘lib, asosan yirik ideologik donorlar tomonidan moliyalashtiriladi va rasman siyosiy partiyalarga bog‘liq bo‘lmaydi. Boshqa rivojlangan demokratik davlatlarda partiyalar o‘z qo‘l ostidagi tahliliy institutlarga ega bo‘lishi odatiy hol, AQSHda esa mustaqil aql markazlari partiyaviy g‘oya va dasturlarni ilgari surishda muhim manba vosita hisoblanmaydi [2].

Aql markazlari turli yo‘llar bilan siyosatga ta’sir o‘tkazadi, ular qonunchilik jarayonida ma’lumot taqdim etishadi, Kongress eshituvlarida guvoh sifatida qatnashib, raqamlar va tahlillar keltirishadi hamda davlat organlari uchun qonun loyihalarini yozishda ko‘maklashadi [3].

Tadqiqot natijalari nodavlat aql markazlari davlat siyosatining mazmuniga ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.

Birinchidan, aql markazlari davlat boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoniga bevosita inson kapitalini yetkazib berish orqali ta’sir o‘tkazmoqda. Masalan, 2021-yilda ish boshlagan prezident Jo Bayden ma’muriyatida 66 nafar yuqori lavozimli mansabdor (vazirlik rahbarlari, Oq uy maslahatchilari va h.k.) avvalroq Centre for American Progress (CAP) liberal tahliliy markazida faoliyat yuritgan mutaxassislar ekani qayd etilgan [4]. Bu holat ijroiya hokimiyat siyosatini shakllantirishda mustaqil ekspert-tahliliy doira xodimlari keng jalb etilishini ko‘rsatadi. Shuningdek, qonun chiqaruvchi darajada ham aql markazlari ma’lum rol o‘ynaydi, masalan, 2021–2024-yillarda AQSH Vakillar palatasining Tashqi ishlar qo‘mitasi eshituvlarida qatnashgan ekspert guvohlarning 79% turli notijorat tahliliy institutlari vakillaridan iborat bo‘lgani qayd etildi [5].

Ikkinchidan, tahliliy markazlar o‘zlarining ekspertlik ma’lumotlari va tayyorlagan siyosiy dasturlari orqali qarorlar mazmuniga ta’sir o‘tkazadi. Xususan, konservativ Heritage Foundation markazi tomonidan 2015-yilda tayyorlangan davlat boshqaruvi bo‘yicha “Mandate for Leadership” dasturidagi takliflarning qariyb uchdan ikki qismi 2017–2020-yillardagi Prezident Donald Tramp ma’muri-

yati tomonidan amalga oshirishga urinilgani ma’lum bo‘lgan. Yana bir misol: 2010-yilda qabul qilingan sog‘liqni saqlash islohoti (Affordable Care Act, “Obamacare”) loyihasini ishlab chiqishda CAP markazi mutaxassislari taklif etgan bozor mexanizmlariga asoslangan g‘oyalar keng foydalanilgani ta’kidlanadi. Bunday misollar aql markazlari o‘z tahliliy tavsiyalari bilan qonun va dasturlarning mazmuniga ta’sir o‘tkazishini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, mustaqil aql markazlarining ta’siri ko‘p hollarda ularning muayyan siyosiy lagerga ideologik yaqinligi bilan chambarchas bog‘liq. Tahlil davomida aniqlanishicha, Heritage Foundation, American Enterprise Institute (AEI) kabi o‘ta konservativ intellektual markazlar respublikachi ma’muriyatlar davrida asosiy tashabbuslarni ilhomlantirgan bo‘lsa, progressiv yo‘nalishdagi institutlar (masalan, CAP va Brookings Institution) demokratik hukumatlar uchun “soyadagi shtab” vazifasini bajargan. Natijada aql markazlari jalb qilingan siyosiy jarayonlarda mafkuraviy qutblashuv kuchayishi ham mumkin, tadqiqotlar partiyaviy tahliliy institutlar elita darajasidagi siyosiy munozaralarni keskinlashtirib, o‘rtaki pozitsiyalar ulushini qisqartirishga xizmat qilganini ko‘rsatgan [6].

To‘rtinchidan, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan xususiy nodavlat tahliliy institutlar alohida ixtisoslikka ega. Misol uchun, mudofaa va xavfsizlik yo‘nalishida federal hukumat uchun tadqiqotlar olib boruvchi RAND Corporation markazi 2019–2023-yillarda AQSH hukumatidan 1,4 mlrd. dollardan ortiq mablag‘ olgani aniqlandi, ya’ni mazkur davrda hukumat tomonidan aql markazlariga ajratilgan umumiy mablag‘ning 94% aynan RAND hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu kabi “hukumat ta’sis etgan” aql markazlari ko‘proq maxsus texnik tahliliy vazifalarni bajarib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri siyosiy bahslarda ishtirok etmaydi, biroq ularning ilmiy xulosalari qaror qabul qiluvchilar uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, olingan barcha dalillar AQSH sharoitida nodavlat aql markazlari davlat siyosatining mazmuniga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi. Ular ekspertlik ma’lumot yetkazib berish, siyosiy chora-tadbirlar bo‘yicha takliflar tayyorlash va kadrlar bilan ta’minlash orqali qaror qabul qilish jarayoniga chuqur singishgan.

Yuqorida keltirilgan natijalar aql markazlari siyosiy jarayonlarda mustaqil aktor sifatida qay darajada ishtirok etishini yanada oydinlashtiradi. Ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlarda bildirilgan ba’zi gipotezalar ushbu ish natijalarida o‘z tasdig‘ini topdi. Shu bilan birga, AQSH tajribasida aql markazlari ta’sirining ayrim tavakkal jihatlari ham ayon bo‘ldi, moliyaviy manfaatlar ba’zan tahliliy xulosalarga ta’sir qilishi va bu hol siyosat tahlilchilarining jamoatchilik ko‘zidagi obro‘siga salbiy ta’sir etishi mumkinligi kuzatilmoqda. Masalan, so‘rovlar natijasida amerikalik fuqarolarning faqat 48% aql markazlari ekspertlarini jamiyat uchun “foydalilikka ega” deb baholagani va asosiy sabab sifatida “ekspertlar ortida yashirin manfaatlar bor” degan gumonni keltirishgani ma’lum qilingan [7]. Demak, nodavlat tahliliy institutlar faoliyatida oshkoralikni ta’minlash va manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari amaliyot uchun ham qator xulosalar beradi. Avvalo, siyosiy qarorlarni asoslash va sifatini oshirish uchun davlat organlari mustaqil aql markazlari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishi lozim. AQSH tajribasi shuni ko‘rsatadiki, vazirlik va idoralar murakkab islohotlar bo‘yicha yechim izlashda tashqi ekspertlar bilan hamkorlik qilsa, samaradorlik oshib, qarorlar asoslanganligi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. McGann, J. G. (2021). 2020 Global Go To Think Tank Index Report. Think Tanks and Civil Societies Program, University of Pennsylvania. (Мурожаат санаси: 23.09.2025).

2. Grossmann, M. (2024, July 10). How think tanks drive polarization and policy. Niskanen Center. (Мурожаат санаси: 23.09.2025).

3. Freeman, B., & Cleveland-Stout, N. (2025). Big Ideas and Big Money: Think Tank Funding in America. Quincy Institute for Responsible Statecraft. (Мурожаат санаси: 23.09.2025).

4. Leonard, K., & Bravender, R. (2021, August 30). At least 66 Center for American Progress alumni are working for the Biden administration. Business Insider. (Мурожаат санаси: 23.09.2025).

5. Freeman, B., & Cleveland-Stout, N. (2025). Big Ideas and Big Money: Think Tank Funding in America. Quincy Institute for Responsible Statecraft. (Мурожаат санаси: 23.09.2025).

6. Grossmann, M. (2024, July 10). How think tanks drive polarization and policy. Niskanen Center. (Мурожаат санаси: 23.09.2025).

7. Freeman, B., & Cleveland-Stout, N. (2025). Big Ideas and Big Money: Think Tank Funding in America. Quincy Institute for Responsible Statecraft. (Мурожаат санаси: 23.09.2025).

Marjona NOSIROVA,
PhD student at the Institute of State and Law,
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
marjonanosirova58@gmail.com

NON-GOVERNMENTAL ORGANIZATIONS IN HUMAN RIGHTS PROTECTION MECHANISMS

► ***Annotatsiya:*** *Maqolada muallif inson huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro hamkorlikdagi nodavlat notijorat tashkilotlarining (NNT) o‘rni va faoliyatini tahlil qiladi. BMT tuzish bo‘yicha muzokaralarda nechta NNT ishtirok etgani haqida aniq ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, BMT Nizomining ko‘plab qoidalari, xususan inson huquqlarini himoya qilishga oid moddalarining NNTlar bilan bevosita bog‘liqligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *BMT, EKOSOS (Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash), NNT, maslahat maqomi, xalqaro daraja, inson huquqlarini himoya qilish, Inson huquqlari bo‘yicha Xalqaro Bill*

► ***Аннотация:*** *В статье анализируются роль и деятельность неправительственных организаций в международном сотрудничестве по защите прав человека. Приводятся конкретные сведения о количестве НПО, участвовавших в переговорах по созданию ООН. Отмечается, что многие положения Устава ООН, в частности статьи, касающиеся защиты прав человека, тесно связаны с деятельностью неправительственных организаций.*

Ключевые слова: *ООН, ЭКОСОС, НПО, консультативный статус, международный уровень, защита прав человека, Международный Билль о правах человека*

► ***Abstract:*** *In this article, the author analyzes the role and activities of*

non-governmental organizations in international cooperation in the protection of human rights. Specific information is provided on how many non-governmental organizations participated in the negotiations on the establishment of the UN. It is also noted that many provisions of the UN Charter, in particular its articles related to the protection of human rights, are related to non-governmental organizations.

Key words: *UN, ECOSOC, NGOs, consultative status, international level, the protection of human rights, the International Bill of Human Rights.*

The formation and progressive development of the system of international cooperation in the field of human rights protection took place with the active participation of non-governmental organizations. More than 200 non-governmental organizations were represented at the negotiations on the establishment of the UN in San Francisco in 1945 [1]. Under public pressure, the most democratic norms were included in the UN Charter, requiring states to observe human rights, respect the dignity and value of human life. Thus, the protocols of the HRC recorded that many provisions of the UN Charter and, in particular, its articles related to the protection of human rights, were the result of the insistence of non-governmental organizations. Representatives of 30 non-governmental organizations participated in the drafting of the Universal Declaration of Human Rights of 1948. Many of them directly collaborated with the HRC during the preparation of the International Bill of Human Rights, in particular the International Covenant on Civil and Political Rights, as well as the International Covenant on Social, Economic and Cultural Rights of 1966. Most of the human rights conventions in force today were created with the active participation of non-governmental organizations.

Organizations independent of the government, partially or fully dedicated to the protection of human rights, are usually defined by the term "non-governmental organizations" (NGOs), introduced in 1945 by the UN Charter, subsequently enshrined in international documents and adopted by the domestic legislation of many states [2]. They have been operating in the world for over 100 years, and almost all countries in the world on the path to democracy have gone

through the necessary stages associated with the formation of the institution of non-governmental organizations that have dedicated themselves to the fight for human rights.

The legal basis for cooperation between NGOs and the UN in the field of human rights protection is Article 71 of the PLO Charter, which provides: "The Economic and Social Council (ECOSOC) is authorized to make appropriate arrangements for consultation with NGOs interested in matters within its competence" [3]. According to paragraph 2 of Article 62 of the UN Charter, one of the main issues within the competence of ECOSOC are the issues of «the promotion of, respect for, and observance of human rights and fundamental freedoms». The task defined by the UN Charter was specified in ECOSOC resolutions No. 288 (B) of February 27, 1950 and No. 1296 (XL) of May 23, 1968 [4].

By adopting the resolutions, the UN member states defined the legal basis for cooperation between the UN and NGOs. The institute of consultative status was established, and a procedure was defined by which ECOSOC and its bodies could receive expert information and consult with these organizations on the most important issues of economic, social and cultural development and the protection of human rights. Thus, NGOs were given the opportunity to directly contact the relevant UN bodies and influence the processes taking place in the international system of human rights protection.

According to the decisions taken by ECOSOC, representatives of the public received the legal right to participate in almost all events held by ECOSOC. The bodies created under the auspices of the UN on various aspects of human rights were also open to NGOs.

Since not every NGO is capable of carrying out such activities, ECOSOC developed criteria that determine the possibility of a particular organization to receive the corresponding category of "consultative status". In accordance with the principles for obtaining consultative status, an NGO had to become international [5]. Consultative status was not granted to national organizations. The situation changed after the adoption of ECOSOC resolution 1996/31 "Consultative Relationship between the United Nations and Non-Governmental Organizations" on 25 July 1996. The adoption of an additional resolution on NGO participation in UN human

rights activities was prompted, in particular, by the emergence of a large number of diverse NGOs at the national and regional levels. In this regard, the UN decided to expand the range of organizations to which the UN can grant consultative status. ECOSOC resolution 1996/31 envisages expanding the opportunities for NGOs to participate (even those that do not have consultative status) in the work of international conferences convened under the auspices of the UN, including on human rights issues.

In conclusion, a qualitatively new feature in the procedure for granting consultative status to NGOs is that it is now granted not only to organizations at the international level, but also to national, subregional and regional organizations. When granting consultative status, special attention is paid to the degree of real assistance that an NGO can provide to ECOSOC. The above-mentioned ECOSOC resolution establishes the forms of consultations of ECOSOC with organizations, which include, in particular: participation in the development of the agenda; participation in the work of meetings; submission of letters

References:

1. The San Francisco Conference | United Nations.

2. Human Rights: International Protection, Monitoring, Enforcement. PP.347-372.

3. Strengthening Ties: The Relationship Between the U.N. and NGOs in Advancing Global Goals • Law Notes by TheLaw.Institute.

4. Chapter X: Article 62(1) – Charter of the United Nations – Repertory of Practice of United Nations Organs – Codification Division Publications.

5. Volker Röben. "United Nations, Economic and Social Council (ECOSOC)" Article. Product: Max Planck Encyclopedias of International Law [MPIL].

Равшан Ринатович НАЗАРОВ,
кандидат философских наук, доцент, кафедра «Правовые и гуманитарные дисциплины», Ташкентский филиал РЭУ им. Г.В. Плеханова
E-mail: Shon2002@yandex.ru, +998-90-911-73-66
Вилоят Ринатовна АЛИЕВА,
кандидат философских наук, старший преподаватель, кафедра «Правовые и гуманитарные дисциплины», Ташкентский филиал РЭУ им. Г.В. Плеханова
E-mail: Viloyat@rambler.ru, +998-99-989-99-73

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ЦЕНТРЫ КАК ФОРМА НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА

► ***Annotatsiya.*** *Maqolada nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) turi sifatida O‘zbekiston milliy madaniyat markazlarining (NKM) institutsional xususiyati ko‘rib chiqiladi. Ular faoliyatining huquqiy asoslari, tashkiliy modellar evolyutsiyasi, mahallalar bilan ishlashning asosiy funksiyalari va shakllari, davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o‘zaro hamkorlik mexanizmlari, moliyalashtirish va barqarorlik amaliyoti tahlil qilingan. Qiyosiy ko‘rib chiqish va shartli holatlar asosida NCCni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *milliy madaniy markazlar, NNT, madaniyatlararo muloqot, madaniy siyosat, O‘zbekiston, jamoat birlashmalari, diasporalar, mahalliy rivojlanish.*

► ***Аннотация.*** *В статье рассматривается институциональная природа национально-культурных центров (НКЦ) Узбекистана как разновидности негосударственных некоммерческих организаций (ННО). Анализируются правовые основания их деятельности, эволюция организационных моделей, ключевые функции и формы работы с сообществами, механизмы взаимодействия с государством и органами местного самоуправления, практики финансирования и устойчивости. На основе сопоставительного обзора и условных кейсов формулируются рекомендации по развитию НКЦ.*

Ключевые слова: *национально-культурные центры, ННО, межкультурный диалог, культурная политика, Узбекистан, общественные объединения, диаспоры, локальное развитие.*

► ***Abstract.*** *The article examines the institutional nature of national cultural centers (NCCs) in Uzbekistan as a type of non-governmental non-profit organizations (NGOs). It analyzes the legal framework of their activities, the evolution of organizational models, key functions and community work practices, mechanisms of interaction with the state and local self-government, as well as funding and sustainability practices. Based on a comparative review and generalized case studies, recommendations for the further development of NCCs are formulated.*

Keywords: *national cultural centers, NGOs, intercultural dialogue, cultural policy, Uzbekistan, civic associations, diasporas, local development.*

Национально-культурные центры (НКЦ) сложились в Узбекистане как институции, которые одновременно поддерживают культурную самобытность многонационального населения и служат мостами общественного участия, образования и просвещения. В постсоветский период НКЦ стали одной из наиболее устойчивых форм гражданских инициатив в сфере культуры и межэтнических отношений. Их гибридная природа — на стыке культурной, образовательной и социально-коммуникативной функций — делает НКЦ важными формами локального развития и проводниками государственной политики в области укрепления межнационального согласия.

Цель статьи — раскрыть НКЦ как форму ННО: определить правовой статус, типовые модели управления и деятельности, источники ресурсов и стратегии устойчивости, а также очертить текущие вызовы и перспективы развития.

Исследовательские проблемы: Как нормативная база Узбекистана определяет статус НКЦ и их место в архитектуре гражданского общества. Какие организационно-управленческие модели характерны для НКЦ и как они соотносятся с задачами культурной политики. Какие практики устойчивого финансирования и партнёрства демонстрируют НКЦ. Как изме-

рять общественное воздействие НКЦ и какие метрики уместны.

Нормативно-правовые основы статуса НКЦ

Правовой статус НКЦ определяется общим законодательством о некоммерческих организациях и отраслевыми актами в сфере культуры и межнациональных отношений. Координирующим органом является Комитет Республики Узбекистан по вопросам межнациональных отношений и соотечественников за рубежом[1].

К ключевым положениям относятся:

Право на объединение и организационно-правовые формы ННО. НКЦ обычно регистрируются как общественные объединения (ассоциации), фонды или учреждения культуры, действующие на некоммерческой основе[2]. Уставы фиксируют цели: сохранение языка, традиций, фольклора; образовательные и просветительские программы; содействие межкультурному диалогу; социальная поддержка членов общины. Как в статье 30 Закона «О культурной деятельности и организациях культуры» обозначено и отмечено: «Граждане Республики Узбекистан, являющиеся представителями наций и народностей, проживающих на территории Республики Узбекистан, могут создавать национальные культурные центры в форме негосударственных некоммерческих организаций»[3].

Публичное партнёрство и социальный заказ. Законодательство допускает получение НКЦ субсидий и грантов на конкурсной основе, участие в государственных и муниципальных программах, использование помещений на льготных условиях, организацию совместных культурных мероприятий.

Механизмы координации. Взаимодействие НКЦ с государственными структурами осуществляется через профильные министерства и комитеты (в сфере культуры, межэтнических отношений, молодёжной политики), хокимияты, а также общественные советы при органах власти. В ряде регионов действуют координационные советы НКЦ.

Эволюция и организационные модели НКЦ. Исторически НКЦ развивались в трёх взаимосвязанных направлениях:

Культурно-просветительская модель. Фокус на кружках языка и традиционной культуры, фольклорных коллективах,

библиотечно-архивной работе, фестивалях и днях национальной кухни. «Национальные культурные центры создаются с целью сохранения и развития языка, культур, обычаев и традиций, исторических ценностей, сохранения культурного и духовного наследия, поддержания межнационального мира и согласия, гармонизации межнациональных отношений, стимулирования международного культурного обмена, а также укрепления дружеских связей между народами»[4].

Социально-коммуникативная модель. Поддержка молодых семей, работа с пожилыми, консультации по юридическим и социальным вопросам, семейная медиация, волонтёрские акции.

Проектно-сетевой формат. Межрегиональные и международные партнёрства, участие в грантовых конкурсах, коллаборации с университетами, музеями, медиа и бизнесом; цифровые платформы и онлайн-школы языка.

Организационно НКЦ часто сочетают **исполнительную дирекцию** (небольшой штат) и **волонтёрскую сеть** (педагоги, хореографы, исследователи, медиаторы). Руководящие органы — общее собрание, наблюдательный совет/попечительский совет, ревизионная комиссия. В крупных НКЦ формируются тематические секции: языковая, образовательная, культурно-творческая, исследовательская, молодёжная, медийная. Так, в Ташкенте открыты 22 павильона различных НКЦ для усиления контактов внутри диаспор[5].

Функции и направления деятельности

Сохранение и развитие нематериального культурного наследия. Школы языка и письма, фольклорные ансамбли, ремёсла, архивирование семейной истории и устных рассказов[6].

Гражданское просвещение и межкультурный диалог. Дискуссионные клубы, круглые столы, выставки, кинолектории, проекты «истории соседства».

Молодёжные программы. Языковые лагеря, карьерные навигаторы, дебатные клубы, школьные олимпиады по истории и культуре[6].

Социальная поддержка. Помощь уязвимым группам, бла-

готворительные акции, правовое консультирование по вопросам образования, миграции, документов[7].

Культурная дипломатия и связи с зарубежными странами. Дни культуры, участие в международных фестивалях, обмены с диаспорами.

Исследования и документация. Социолингвистические мини-исследования, каталоги традиций и биографий, локальные каталоги НКН.

Взаимодействие с государством и местными органами самоуправления. Формы кооперации включают: совместные культурные календари и городские фестивали; социальный заказ на программы языкового и культурного просвещения; участие руководителей НКЦ в Общественных советах при органах власти; предоставление помещений и материальной базы; включение НКЦ в региональные повестки развития (туризм, креативные индустрии, молодёжь). Потенциал усиления: долгосрочные соглашения (3–5 лет), единые стандарты отчётности, цифровые реестры НКЦ, межведомственная координация.

Сравнительная перспектива (Центральная Азия и постсоветское пространство). В регионе распространены сходные формы культурных объединений диаспор. Однако узбекская модель выделяется акцентом на институционализированный диалог с государством и систематический мониторинг представляется наиболее перспективной.

Список использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан «О негосударственных некоммерческих организациях». – Ташкент: Министерство юстиции РУз, актуальная ред.

2. Закон Республики Узбекистан «О культуре». – Ташкент: 2012, актуальная ред.

3. Комитет по межнациональным отношениям и дружественным связям с зарубежными странами при Кабинете Министров РУз. Годовой отчёт. – Ташкент, 2023.

4. World Bank. Civil Society in Central Asia: Trends and

Perspectives. – Washington, DC: WB, 2021.

5. ЮНЕСКО. Guidelines for Measuring Cultural Participation. – Paris: UNESCO, 2019.

6. Эльбоева Ш.Б. Роль национальных и культурных центров Узбекистана в общественной жизни // Scientific progress. 2021. Т.1. №5. – С.403-407.

7. Гапеева А.В. Национально-культурные центры как фактор стабильности межкультурных отношений в полиэтническом обществе: автореф. дис. ...канд. культурологии. – Улан-Удэ: ВСГАКИ, 2002. - 23 с.

Ruhsora G‘ulom qizi RIZOQULOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabasi

O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI

► **Annotatsiya.** *Maqolada O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini takomillashtirish huquqiy masalalarining ayrim jihatlarini yoritishga harakat qilingan. Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishga doir huquqiy islohotlar tizimli ravishda o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: Fuqarolik, fuqarolik jamiyatlari,huquqiy asoslar, jamoat tashkilotlari,inson huquqlari va erkinliklari, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi.

► ***Аннотация:*** *В статье предпринята попытка осветить отдельные аспекты правовых вопросов совершенствования институтов гражданского общества в Узбекистане. Также системно изучены правовые реформы, направленные на совершенствование деятельности институтов гражданского общества.*

Ключевые слова: *гражданство, институты гражданского общества, правовые основы, общественные организации, права и свободы человека, Конституция, верховенство закона*

► ***Annotation:*** *The article seeks to highlight selected legal aspects of improving civil society institutions in Uzbekistan. It also provides a sys-*

tematic review of legal reforms aimed at enhancing the operations of civil society institutions.

Keywords: *citizenship, civil society institutions, legal framework, public organizations, human rights and freedoms, Constitution, rule of law*

Ma’lumki, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish doimo davlat huquqiy islohotlarining asosini tashkil etgan. Bir qator ishlab chiqilgan va qabul qilingan qonunlarning zamirida mamlakatda fuqarolik jamiyatini qaror toptirish, bu boradagi faoliyatni takomillashtiruvchi fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy jihatlarini tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotchi B.A.Qosimov fikricha, Fuqarolik jamiyati – teng huquqli insonlarning jamiyati, yakka shaxslar yoki jamoalar manfaatlarini amalga oshirishga ko‘maklashadigan jamoat institutlarining tizimidir. U jamoat birlashmalarining yig‘indisigina emas, balki ular faoliyatining natijasida paydo bo‘ladigan munosabatlar tizimi hamdir.

Fuqarolik jamiyatida davlat va hukumatning alohida o‘z funksiyalari, nodavlat va jamoat tashkilotlarining esa alohida funksiyalari bo‘ladi. Ular bir-birlarini to‘ldirib, rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligini ko‘rsatadi.

Ta’kidlash joizki, milliy mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston jamiyatining barcha sohalarida chuqur institutsional o‘zgarishlar amalga oshirildi: eski yakkapartiyaviy davlatga barham berilib, demokratik tamoyillar asosidagi milliy davlat shakllandi; jamiyatda ko‘ppartiyaviylik tizimi shakllandi; partiya va davlatdan xoli bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlar tizimi shakllandi; o‘zini o‘zi boshqarish organlari partiyadan va davlatdan ajratildi; kommunistik mafkura o‘rniga mafkuralar plyuralizmiga o‘rin berildi; milliy qadriyatlar va milliy ma’naviyat mamlakat xalqining asosiy dunyoqarashiga aylanishi uchun barcha huquqiy asoslar yaratildi, barcha qonunlarni demokratik tamoyillar asosila qabul qilish tajribasi shakllandi.

Natijada mamlakatda fuqarolik jamiyatining shakllanishi uchun siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy shart-sharoitlar yaratildi.

Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirishning asosiy kafolati, ya’ni ularning huquqiy asoslarini yaratish maqsadlarida 1991 yilning 15 fevralida O‘zbekiston Oliy Kengashi «O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida»gi qonunni qabul qildi [1]. Mazkur qonun respublikada faoliyat yuritib kelayotgan jamoat birlashmalari faoliyatini tubdan isloh qilishga zamin yaratdi. O‘tgan yillar mobaynida O‘zbekistonda Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, huquqlar hamda erkinliklarni ro‘yobga chiqarish va himoya qilish; fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish; kasb-kor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish; ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish; aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish; madaniy-ma’rifiy, jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport ishlarini amalga oshirish; tabiatni, madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish; vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi; respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o‘rtasida tinchlik va do‘stlikni mustahkamlash; qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuzilib kelindi hamda huquqiy bazasi mustahkamlab borildi.

Darhaqiqat, “Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, huquqiy hamda erkinliklarni ro‘yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamoat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish...” [2] maqsadlarida tuzilganligini alohida ta’kidlash joiz.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60 moddasida keltirilishicha, “Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi” [3].

Mamlakatimizda demokratlashtirish jarayonlari samaradorligi va sifatini tubdan yaxshilash, fuqarolarning erkinliklari, huquqlari,

munosib turmush tarzi va manfaatlarini ta’minlash, bunda davlat idoralari mas’uliyatini kuchaytirish, xalq bilan ochiq muloqotlarni yo‘lga qo‘yishda yangi samarador vositalar va usullarni joriy etish, “Inson manfaatlari-barcha narsadan ustun” shiori ostida ish olib borish hisoblanadi [4].

Qayd etish joizki, “Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to‘ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko‘maklashadi” [5].

Xuloca qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda huquqiy demokratik fuqarolik jamiyatini qaror toptirishning huquqiy asoslarini takomillashtirishda Konstitutsiya va qonunlar ustvorligini ta’minlash dolzarb masala hisoblanadi. Iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyatda qonunlar xalqning irodasi, xohish-istagi, manfaatlari va intilishlarini o‘zida ifodalamog‘i zarur.

Taklif sifatida aytish joizki, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayonlarini tizimli monitoring qilish, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalashda, fuqarolarning siyosiy madaniyati, huquqiy ongi, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda, shuningdek demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish Konsepsiyasida belgilangan vazifalarning izchil amalga oshirilishini ta’minlashda fuqarolik institutlarining rolini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Bunda o‘sib kelayotgan yosh avlodning barkamol rivojlanishiga, mustaqil fikrlaydigan, jamiyatimiz hayotida munosib o‘rin egallaydigan, mamlakatni yangilash va isloh qilishda haqiqiy hal qiluvchi kuch va tayanch bo‘ladigan, o‘z hayotiy pozitsiyasi va mustahkam e’tiqodiga ega yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan davlat va jamoat tashkilotlarining faoliyati samaradorligini tizimli tahlil qilib borish;

fuqarolik jamiyati shakllanishi, uning institutlari mustahkamlanishi va rivojlanishi, huquqiy demokratik davlat qurilishi sohasida taraqqiy etgan demokratik mamlakatlarning tajribasini chuqur o‘rganish, umumlashtirish va ulardan foydalanish bo‘yicha takliflar tayyorlash va hayotga tadbiq etish lozim.

Binobarin, har qanday mamlakatning huquqiy fuqarolik jamiyati ekanligini ko‘rsatuvchi shartlardan biri bu – inson xuquq va erkin-

liklariga qanday yondoshganligi hamda uning amalga oshishi uchun qanday shart-sharoitlar yaratilganligi bilan xarakterlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining huquqiy demokratik fuqarolik jamiyatini qurishdan maqsadi mamlakatda yashovchi har bir kishining xuquq va erkinliklarini to‘la ta’minlashdir. Buning uchun, avvalo O‘zbekistonda huquqiy asos yaratildi, ya’ni Respublika Konstitutsiyasi va qabul qilingan qonunlarda umume’tirof etilgan xalqaro hujjatlar qoidalariga mos keluvchi inson xuquq va erkinliklari, siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari eng oliy darajada konstitutsion qonunlar bilan huquqiy jihatdan mustahkamlanib, muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Қосимов Б.А. Фуқаролик жамияти институтлари фаолиятини такомиллаштиришнинг баъзи жиҳатлари. // https://cyberleninka.ru/article/n/fu-arolik-zhamiyati-institutlari-faoliyatini-takomillashtirishning-bazi-zhi-atlari (Murojaat etilgan sana: 08.09.2025.

2. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти. –Б.68-69.

3. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида Жамоат бирлашмалари тўғрисида”ги Қонуни // https://lex.uz/docs/111825 (Murojaat etilgan sana: 08.09.2025.).

4. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1991 й., 4-сон, 76-модда.

5. Юқоридаги манба.

Abdusattar Abdujabbarovich ABDUGAFFAROV,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti, dotsent
tel. +99893 518 38 59 monitoting.17@mail.ru

YOSHLARNING SIYOSIY MADANIYATINI OSHIRISHDA TA’LIMNING O‘RNI

► ***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada davlatning inklyuziv siyosiy va iqtisodiy institutlarini yanada rivojlantirishda yoshlarning o‘rni, yosh avlodni siyosiy madaniyatini oshirish orqali o‘z Vataniga sadoqatli va faol siyosiy fuqaro bo‘lib shakillanishidagi maqsadlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yoshlar siyosiy madaniyati, inklyuziv institutlar, demokratiya, yot g‘oyalar, globallashuv, jamiyat, faol fuqaro.*

Аннотация: *В статье рассматривается роль молодежи в развитии инклюзивных политических и экономических институтов государства, а также цели формирования преданной Отчизне и активной политической личности через повышение политической культуры молодого поколения.*

Ключевые слова: *политическая культура молодежи, инклюзивные институты, демократия, чуждые идеи, глобализatsiя, общество, активный гражданин.*

► ***Abstract:*** *The article explores the role of youth in advancing the state’s inclusive political and economic institutions and outlines how raising young people’s political culture helps cultivate loyal and actively engaged citizens.*

Keywords: *youth political culture, inclusive institutions, democracy, alien ideas, globalization, society, active citizen.*

Demokratiya yo‘lini tanlagan davlatlar inklyuziv siyosiy va iqtisodiy institutlarni tashkil etish va rivojlantirishda, jamiyat ijtimoiylashuvini tezlashtirish va barqaror farovonlik darajasiga yetishmoqlik uchun aholining eng muhim qatlami bo‘lgan yoshlarga yetarlicha e‘tibor va imkoniyatlar berish kerakligini anglaydi. “Yoshlar - kelajak bunyodkorlari” deb bejizga aytilmaydi, ularning bilim darajasi, dunyoqarashi, ma‘naviy-mafkuraviy salohiyatiga qarab jamiyatning ertangi kelajagi haqida tasavvur shakllanadi.

Hozirgi globallashuv davrida, dunyoning yanada siyosiylashu-

viga va murakkablashuviga guvohi bo‘lmoqdamiz. Ana shunday sharoitda, yoshlarni siyosiy madaniyatini rivojlantirish yanada dolzarblashib bormoqda. Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “… bugungi shiddatli davrda chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin” [1, 16-b]. Ya’ni, jamiyatda o‘zining erkin fikrlashi, siyosiy ongi va madaniyatiga ega yoshlar kelgusida mamlakatimiz siyosatining ratsionallashuvida muhim o‘rin kasb etadi. Yosh avlodga davlatimiz qanday siyosiy tizimni tanlagani, fuqarolar qanday siyosiy erkinliklarga ega ekanligi, saylov jarayonlaridan tortib parlamentda qonunlar qay tartibda qabul qilinishi haqida siyosiy bilimlarni egallashi ularning kelgusida faol fuqaro bo‘lib mamlakatimizda siyosiy barqarorlikning yanada mustahkam bo‘lishiga, asosiy maqsadimiz bo‘lgan demokratik jamiyat qurish vazifalarini bahamjihatlikda amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Dastlab, yosh avlodga siyosiy madaniyat va siyosiy ong haqida bilim va ko‘nikmalar berilishidan avval, bu so‘z birikmasining mazmun-mohiyati va asosiy komponentlari haqida tushunib yetishimiz lozim. Siyosiy madaniyat - sub’yektning davlat bilan o‘zaro ta‘sirini va uning siyosiy faoliyatga kirib borishini amalga oshirishda vosita bo‘lib xizmat qiluvchi siyosiy bilimlar, qadriyat mezonlari, xulq-atvor modellarining yig‘indisidan iborat. Siyosiy madaniyat jamiyat va shaxsning sivilizatsiyalashganligining u yoki bu darajasini, ularing siyosiy xulq-atvor hamda xatti-harakatlarining qandaydir qoidalarini: qabul qilish qobiliyatini aks ettiradi. Jamiyatda siyosiy madaniyatning nechog‘lik rivojlanganlik darajasiga qarab, siyosiy tizimining qanchalik mukammal tashkil qilinganligiga baho berish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, siyosiy madaniyat fuqarolarning siyosiy va huquqiy jihatdan layoqatlilik darajasini ifoda etib, jamiyatda siyosiy va davlat institutlarining shakllanishi, faoliyat ko‘rsatishiga, shuningdek, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlaring tashkil qilinish jarayoniga katta va hal qiluvchi, ta‘sir o‘tkazuvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi [2, 238-b].

Darhaqiqat, har bir fuqaroning siyosiy madaniyati mavjudligi

to‘liq davlatning olib borayotgan siyosiy institutlarining jamiyat oldida hisobdorligini yanada oshiradi.

Globallashuv insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi, uning aql-zakovati mahsulidir. Shu ma’noda ham obyektiv jarayon sifatida shakllangan. U insoniyat va mamlakatlar taraqqiyotiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda, jumladan, fan, texnika va texnologiyaning rivojlanishiga hamda ularning jahonda keng ommaviylashuviga, insonlarning moddiy farovonligining oshishiga o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazuvchi omil hisoblanadi. Insoniyat tarixida globallashuv jarayoni ko‘plab ijobiy imkoniyatlarni yaratib berdi.

Ayniqsa, yoshlar uchun keng ko‘lamli madaniyat almashinuvi maydoniga aylandi. Globallashuvning avj olayotgan bugungi kundagi taraqqiyot yo‘lidan xalqlar oldida turgan asosiy vazifa unga qarshi kurashish emas, balki unda teng qatnashish, nafaqat uning imkoniyatlaridan foydalanish, shu bilan birga uning rivojlanishiga ham o‘z hissasini qo‘shish darajasiga erishishdir. Buning uchun esa, o‘zligini asrab qolishning muhim omillari bo‘lgan intellektual salohiyatni globallashuvning avj olishi darajasiga muvofiq rivojlantirish, mamlakatlararo iqtisodiy munosabatlarda «boqimandalikka» emas, balki yaratuvchilik, bunyodkorlik, o‘zaro tenglik va teng manfaatdorlikka erishishdir. Faqat ana shu yo‘ldan borgan mamlakatgina globallashuvning ijobiy imkoniyatlaridan foydalanishga, salbiy ta’sirlaridan himoyalanishga muvofiq bo‘la oladi [3, 10- b]. Lekin, bu degani globallashuv faqat ijobiy natijalarga ega degani emas. Chunki, ayni paytda globallashuvning siyosiy madaniyat bilan munosabati haqida gap ketganda, uning obyektiv jarayon bo‘lishi bilan bir vaqtda taraqqiy topgan mamlakatlarning yuksak darajadagi fan, texnika va texnologiyarni rivojlantirish hamda ulardan iqtisodiy manfaat ko‘rish maqsadida yer yuzida ommalashtirish darajasidagi faoliyati ekanligini, shu bilan bir vaqtda ulardan dunyoda o‘zlarining siyosiy hukmronligini o‘rnatishda foydalanayotganligini nazarda tutmoqlik kerak bo‘ladi. Keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki, globallashuv jarayoni siyosiy maqsadlarni amalga oshirish omiliga ham aylanib bormoqda.

Bu o‘z-o‘zidan undan foydalanishda siyosiy madaniyat omiliga borib taqaladi. Bu yerda gap siyosiy hukmronlikka erishishga bo‘lgan intilish haqida bormoqda. Ayni paytda bu taraqqiy topgan

mamlakatlar ta’siriga tushib kelayotgan mamlakatlarda siyosiy hushyorlik va siyosiy madaniyatning yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatadi. Chunki, ular tashqaridan kiritilayotgan turli “yordamlar” dastlabki paytda rivojlanish uchun zarur ekanligini bilgan holda keyinchalik u mamlakat va ularda yashayotgan xalqlar hayoti uchun qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini anglab yetishga harakat qila olmasligi bilan bog‘liq [4,12-b].

Shunday ekan, tajribasizlik va ishonuvchanlik xarakteriga ega bo‘lgan yosh avlodga globallashuv jarayonida yuz berayotgan turli texnologiya, raqamli ilovalar va yod tushunchalar orqali ko‘plab rivojlangan davlatlar turli siyosiy bosimga ega bo‘lgan madaniyatni targ‘ib qilishini oldini olish uchun o‘tkazish kerak bo‘lgan oldimizda bir qator ishlar turibdi. Bu masalaga jiddiy qaralmas ekan, bunday yod g‘oyalar bilan oziqlanib kelayotgan yoshlarimiz davlatimiz xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarga sababchi bo‘lib qolishlari mumkin.

Barchamizga ma’lumki, davlatimiz siyosati yoshlarimizning kelgusida Vatanga bo‘lgan sadoqatli fuqaro va jamiyatga foydasi teguvchi kadr bo‘lib yetishishida ko‘plab islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Davlat va jamiyat boshqaruv tizimini har tomonlama isloh qilish hamda yoshlarning faol ishtirokini ta’minlash orqali kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish bo‘yicha yangi tendensiyalar rivojiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z aksini topgan. Harakatlar strategiyasining 4.5 bandi Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalariga oid sanaladi[5,18-b].

Yoshlarni tashabbus va takliflarini hisobga olgan holda mamlakatimizda ko‘plab loyiha va tadbirlar muntazam o‘tkazilib borishi yo‘lga qo‘yildi. Xususan, yoshlarning siyosiy madaniyatini yuksaltirishga ko‘mak beruvchi turli xalqaro tashkilotlarning modelini yurtimizning maktab, litsey va universitetlarida o‘tkazi-

layotgan Birlashgan Millatlar tashkiloti modeli (Model of United Nations) va TedTalks kabi loyihalar o‘tkazilib kelinmoqda. Bundan tashqari yoshlarga begona yod g‘oyalarni va madaniyatlarni targ‘ib qiluvchi ilovalardan foydalanmasliklari uchun “Ibrat academy”, “Kotib AI”, va shu kabi platformalar yaratilib, nafaqat yoshlarga balki barcha yoshdagi insonlarga bepul til va kasb o‘rgatilib kelinmoqda. Shuningdek, Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va profilaktika qilish ishlarida faol ishtirok etish. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etadigan, xalq manfaatlariga sadoqat bilan xizmat qiladigan bilimli, tashabbuskor, ishbilarmon, halol va fidoyi yosh rahbar kadrlarni tarbiyalash, zaxirasini yaratish va ularni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining mas’ul lavozimlariga tavsiya etish kabi chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda[6, 8-b].

Jamiyat hayotining demokratlashuvida har qanday yoshlardan faollik talab etiladi, chunki fuqaroning o‘zi yashash uchun qulay bo‘lgan muhitni yaratishga intilishi, mavjud ijtimoiy, siyosiy muammolarni hal etish yo‘llarini bilishi, shu yo‘lda tashabbuskorlik ko‘rsata oladigan fuqaro faol fuqaroga aylanadi. Yoshlarda dunyoqarashning o‘zgarishi bu bevosita ijtimoiy hayotning ham o‘zgarishidir. Albatta, yoshlar qanchalik bilimdon, mas’uliyatli va sadoqatli bo‘lsa avlodlar almashinuvi jarayonida Yangi O‘zbekiston demokratiyalashuvi yanada tezlashadi.

Jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar bu fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faolroq ishtirok etishiga bog‘liqdir. Agar fuqarolar jamiyatda demokratiyani yuksak qadriyat deb bilib, demokratik jarayonlarda faol ishtirok etsa, bunday jamiyat barqaror jamiyatga aylanadi. O‘z-o‘zidan faollik ham kuchayadi. Jamiyat taraqqiyotida, yurt, millat taqdirida o‘sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma‘naviy barkamolligi, intellektual salohiyati muhim o‘rin tutadi. “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishiga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir [7, 3-b]. Shunday ekan, yoshlarning siyosiy faolligini oshirish orqali jamiyat hayoti yanada demokratlashtiriladi.

Demokratik jarayonlarda fuqarolarning faollik darajasi siyosiy jarayonlarning bir mezoni bo‘lib xizmat qiladi. Faollik darajasi qanchalik oshgani sari fuqarolarning jamiyat oldidagi mas’uliyati ham oshib boradi. Siyosiy faol fuqaro o‘zi bilan birga jamiyat a’zolarini ham ergashtiradi, jamiyatning demokratik institutlari orqali jamoaviy guruhlarning ehtiyoj va manfaatlariga birgalikda yechim topadi, bu esa faollikning tezlashuvini anglatadi. Ayniqsa, bugungi shiddatli rivojlanish jarayonida siyosiy faollikni oshirishda innovatsion-ijtimoiy g‘oyalarni qo‘llash davr talabidir, ya’ni onlayn demokratiya tizimini qo‘llash fuqarolarning faollashishiga turtki bo‘ladigan o‘ziga xos omillardandir. Siyosiy jarayonlarda siyosiy faollikni kuchaytirish uchun, avvalo, fuqarolarda siyosiy ong, ishonch va natijadorlik mavjud bo‘lishi lozim. Siyosiy faollik mavjud jamiyatda jamiyat demokratlashuvi kuchayadi. Mazkur omilni jamiyatda kuchaytirish masalasi eng dolzarb ahamiyatga ega bo‘layotgan mavzu sifatida ko‘rilishi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” –T.: “Ma’naviyat”. 2008. 16-bet.

2. Bito‘rayev O‘.B. Siyosatshunoslikka kirish. (o‘quv qo‘llanma). –T.: “Barkamol fayz media” 2017. 238-bet.

3. S.Otamurodov. “Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari”. –T.: “O‘zbekiston” 2015, 10-bet.

4. S.Otamurodov. “Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari”. –T.: “O‘zbekiston” 2015, 12-bet.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi” Farmoni. 6(766)-son. www.lex.uz.

6. O‘zekiston respublikasi Prezidentining 2017-yilning 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi ma‘ruzasidan.

Ozoda Abdusattarovna ABDUGAFFAROVA,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi ilmiy izlanuvchisi
tel. +99899 395 65 00 ozodaabdugaffarova@gmail.com

IJTIMOIY DAVLAT RIVOJIDA UYUSHMAGAN YOSHLAR FAOLLIGINI OSHIRISH

► *Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy davlat rivojida uyushmagan yoshlar faolligini oshirish masalalari tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy davlat, yoshlar faolligi, muqobil faollik, yoshlar muammolari va tashabbuslarini o‘rganish, yoshlarni ijtimoiy himoyalash,*

Аннотация: *В статье исследуются вопросы повышения активности неорганизованной молодёжи в развитии социального государства, выявление её потребностей и инициатив, а также усиление социальной защиты.*

Ключевые слова: *социальное государство, активность молодёжи, альтернативная активность, изучение проблем и инициатив молодёжи, социальная защита молодёжи.*

► ***Abstract:*** *The article examines ways to increase the engagement of unorganized youth in the development of the social state, identify their needs and initiatives, and strengthen social protection.*

Keywords: *social state, youth engagement, alternative forms of participation, studying youth problems and initiatives, social protection of youth.*

Ma’lumki, milliy davlatchilik tarixiga nazar tashlasak, juda ko‘plab davlatchilik shakllarini kuzatish mumkin. Bularga sotsialistik, demokratik va boshqalarni keltirish o‘rinli. 2017- yildan boshlab, Yangi O‘zbekiston sharoitida “Xalq davlat idoralariga emas, aksincha davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi lozimligi” belgilab qo‘yildi. Unga asosan, Yangilangan Konstitutsiyaning 1-moddasi “O‘zbekiston - boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”, deya o‘zgartirildi. Aslida, “Ijtimoiy davlat” tushunchasi “Inson qadri” g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq. Ularning tub negizida, avvalo, inson qadrini ulug‘lash, xalqqa xizmat qilishdek olijanob maqsadlar yotadi.

Ijtimoiy davlat mohiyatini har bir inson uchun tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratish masalalarini qamrab oladi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish, demakdir[3].

Ijtimoiy soha haqida so'z ketganda iqtisodiy soha muhim ahamiyatga egadir. Iqtisodiyotning yuksalishi insonlar hayotida yangi qarashlar va imkoniyatlarni ochib beradi. Bugungi kunda jahondagi rivojlangan davlatlar boshqa sohalarda ham yetakchilikni egallashga harakat qilmoqda. O'zbekistonda ham mustaqillikdan so'ng, yangi iqtisodiy yo'l bilan rivojlanish birlamchi vazifaga aylandi, deyish mumkin. Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning mustahkam poydevori yaratildi.

Ijtimoiy davlat - bu davlatning konstitutsiyaviy huquqiy maqomi bo'yicha sifat tavsifi bo'lib, unda inson va fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklari hamda davlatning tegishli majburiyatlari konstitutsiyaviy kafolatlanganligini taqozo etadi. Ijtimoiy davlat jamiyatning umumiy manfaatlariga xizmat qilib, undagi ijtimoiy farqlarni kamaytirishga yoki istisno qilishga intiladi. "Yoshlar faolligi" bilan aloqador hisoblanadi. Mamlakatimizda xalqning boy intellektual-madaniy merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida yoshlar faolligini oshirish, ularning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini yuksaltirish borasida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Bunday mas'uliyatli mavzuda gap ketganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti shunday fikrlarni ilgari surgan edi: "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"[1].

Bu vazifalarni amalga oshirishda yoshlarni, ayniqsa uyushmagan yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning yangicha

dunyo-qarashini shakllantirish masalalari muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. “Faollik” tushunchasi, asosan, “faoliyat” tushunchasining sinonimi sifatida ham qo‘llaniladi. Insonning faolligi atrof muhitni o‘z ehtiyojlari, qarashlari, maqsadlariga muvofiq o‘zgartirish qobiliyati sifatida alohida mazmun-mohiyat kasb etadi. Tegishli adabiyotlarda shaxs faolligining bir qator belgilar bo‘yicha farqlanishi haqida so‘z boradi[2]. Bu boradagi yondashuvlarni umumlashtirgan holda faollikning quyidagi shakllarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

Faollik ijtimoiy qatlamlar, xususan uyushmagan yoshlar ongi, dunyo-qarashi, xulq-atvori, hayotiy maqsad va intilishi ularning milliy g‘oyaviy qiyofalari bilan bog‘liq holda amalga oshadi. Shunda yoshlar faolligi, faol yoshlar, yoshlarning ijtimoiy faolligi, siyosiy faol yoshlar atamasi ishlatiladi.

15 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy o‘zgarishlarga qaratilgan jamoat tashkilotida faoliyati yoshlar faolligi deb ataladi.

Yoshlarning faolligi jamiyat hayotidagi siyosiy ishtirok va faollikning

o‘zgarishiga olib keladi. Yoshlar faolligining sezilarli o‘zgarishi - bu “muqobil faollik”ning kuchayishi, yosh faollarning hayot tajribasi va muloqotga e’tibor berishidagi samaradorlik tushuniladi. Ko‘pgina tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy texnologiya va raqamli axborot vositalaridan samarali foydalanish butun dunyo bo‘ylab yoshlarning, ayniqsa uyushmagan yoshlarning jamiyat hayotidagi faolligini o‘zgartirdi va yoshlar ommaviy axborot vositalarida katta avlodlarga qaraganda faolroq namoyon bo‘lmoqda.

Yoshlarga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy kafolatlar O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunida ushbu sohaning asosiy yo‘nalishlari bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni aniq belgilab berdi”[4]. “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonunda[5] ijtimoiy himoyani amalga oshirish muhim vazifalardan biri ekanligi ta’kidlanadi.

O‘zbekiston yoshlari manfaati va kelajagi yo‘lida ularning jismoniy, aqliy, axloqiy rivojlanishi hamda ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini

topishini ta’minlash maqsadida ularga davlat tomonidan taqdim etilgan kafolatlar majmui sifatida belgilab beradi. Yoshlarning ovoziga quloq tutish juda muhimdir. Ularning dolzarb ehtiyojlarini ta’minlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan milliy, mintaqaviy va global strategiya va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda bevosita ishtirok etishlari uchun yoshlarga imkoniyat yaratib berish zarur”[6] deb ta’kidlaydi.

Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda millatlar o‘z qadryatlarini saqlab qolishlari va kelgusi avlodlarga etkazishi bilan bog‘liq mas’uliyat dolzarb masalaga aylanib bo‘ldi. Darhaqiqat, “yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazishimiz zarur”[3].

Yoshlar jamiyatning eng katta va harakatchan qismi hisoblanadi. Ularni har doim o‘rganib borish zamonning dolzarb masalalari qatoriga kiradi. Ijtimoiy davlat rivojida uyushmagan yoshlar faolligini oshirishning zamonaviy algoritmi yaratilishi lozim.

Fikrimizcha, fan-texnika, axborot texnologiyasi jadal rivojlanayotgan jamiyatda aksari yoshlarning turli muammolarga o‘ralib qolishining sababi ularning dunyoqarashi, ongi va tafakkuri bilan bog‘liq.

Mamlakatimizning har bir hududidagi yoshlar muammolari va tashabbuslarini o‘rganish shart va zarur. Negaki, barcha yoshlarni ijtimoiy faol deyish to‘g‘ri emas. Yoshlar tarbiyasi ham davlatning, ham jamiyatning ishidirki, bu oiladan boshlab, fuqarolik jamiyatining barcha tashkilotlarigacha ustuvor vazifa hisoblanadi. “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan muhim masala – yoshlarning odob-axloqi, yurish-turishi, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan – yoshlar. Yoshlar o‘z davri talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin o‘zligini ham unutmasin. “Biz kimmiz”, “Qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz” degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”[7, 985 b.].

Fikrimizcha, bugungi yoshlar ijtimoiy faol, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarni puxta egallagan, xalqaro

raqobatga kirisha oladigan bo‘lishlari uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

O‘ylaymizki, mamlakatning istiqboli, dunyo hamjamiyatida tutgan o‘rni va mavqei ko‘p jihatdan yosh avlodga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikka, yaratilayotgan shart-sharoit, yoshlarning jismoniy va ma’naviy barkamol inson bo‘lib yetishishiga bog‘liq. Yoshlarni ijtimoiy himoyalash, ularning ehtiyojlarini ta’minlashga qaratilgan huquqiy asoslarni takomillashtirish, salohiyatini yuzaga chiqarishga doir mexanizmlarni rivojlantirish, ayniqsa, yosh avlodda yetakchilik ko‘nikmalarini shakllantirish barkamol avlod huquq va manfaatlarini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yoshlarga oid davlat siyosati muhim siyosiy yo‘nalish sifatida izchil jarayon bo‘lib, u yoshlar mavqei va hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan voqelikning bosh xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlarga oid davlat siyosati siyosiy yo‘nalish sifatida O‘zbekistonning mustaqillik yillari tarixida yuz bergan hamda davlat tomonidan maqsadli amalga oshirilgan yoshlarga oid barcha ijtimoiy o‘zgarishlar, tub islohotlar, transformatsiya jarayonlarini bosib o‘tdi. Ya’ni yoshlarga oid davlat siyosati yoshlar hayotini demokratik tamoyillar asosida ijtimoiy tashkillashtirish, yoshlar va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni pozitiv asosda qurish, yoshlar manfaatlari va qadriyatlarining davlat manfaatlari bilan muvofiqligini ta’minlash uchun olib borilgan sa’y-harakatlar va maqsadlar majmuini tashkil qiladi.

Xulosa sifatida yakun yasasak uyushmagan yoshlarni ijtimoiy davlat rivojida faolligini oshirish masalasi faylasuf, sotsiolog, huquqshunos, jamiyatshunos, iqtisodchi, ruhiyatshunoslik egasi va boshqa gumanitar fanlarning vakillari tomonidan maxsus uyushtirilgan anjuman, konferensiyalarda muhokama qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, bunday anjumanlarda yoshlar uchun foydali bo‘lgan dasturlar va chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://president.uz/uz/lists/view/6956
2. https://www.uzbekistan.org.ua/uz/konsullik-bo-lim
3. Yangilanayotgan Konstitutsiya 100 savolga 100 javob. - T.: “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi. 2023. - B.84.
5. https://bigenc.ru/c/shtein-lorents-fon-ff62a3
6. https://kitobxon.com/uz/kitob/fozil_odamlar_shahri-1
7. https://lex.uz/docs/6445145
8. Mamatqulov, Sh. T. (2022). Yoshlar faolligini shakllantirish mexanizmlari: muammo va yechimlar.985-993.

Abrar Saloxiddinovich TURAYEV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

EKSPERTLIK –TAHLILIY FAOLIYAT BILAN SHUG‘ULLANUVCHI “AQL MARKAZLARI”NING TASNIFLANISHI

► *Annotatsiya: Mazkur maqolada “aql markazlari” tushunchasi va ularni tasniflash zarurati tahlil qilinadi. Muallif “aql markazlari”-ning zamonaviy siyosiy tizimlardagi o‘rni, ularning xilma-xil tashkiliy va mafkuraviy xususiyatlari hamda tasniflash mezonlarini asoslab beradi. Tasniflashning metodologik ahamiyati, siyosiy jarayonlarga ta’sir ko‘lami va global kontekstdagi solishtirma tahlillar imkoniyatlari muhokama qilinadi. Ayniqsa, “aql markazlari”ning siyosiy institutlar bilan o‘zaro aloqasi va ularning mustaqillik darajasini aniqlashda tasniflash amaliy qiymatga ega. Mazkur maqola ushbu muassasalarni tizimli o‘rganishga yo‘naltirilgan tahliliy yondashuvni taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *“aql markazlari”, “think tanks”, tasniflash, siyosiy tizim, strategik tahlil, ekspertlik instituti, metodologiya, siyosiy qarorlar, mafkuraviy yondashuv, siyosiy maslahat, tahliliy muassasa.*

► ***Аннотация:*** *В данной статье анализируется понятие «мозговые центры» и необходимость их классификации. Автор обосновывает роль «мозговых центров» в современных политических системах, их разнообразные организационные и идеологические*

особенности, а также критерии классификации. Обсуждается методологическое значение классификации, масштабы влияния на политические процессы и возможности сравнительного анализа в глобальном контексте. Особое внимание уделяется взаимодействию «мозговых центров» с политическими институтами и значению классификации для определения их степени независимости. Статья предлагает аналитический подход, ориентированный на системное изучение данных институтов.

Ключевые слова: *«мозговые центры», think tanks, классификация, политическая система, стратегический анализ, экспертный институт, методология, политические решения, идеологический подход, политическое консультирование, аналитическое учреждение*

► ***Annotation:*** *This article analyzes the concept of "think tanks" and the need for their classification. The author substantiates the role of think tanks in modern political systems, their diverse organizational and ideological features, and the criteria for classification. The methodological importance of classification, the scope of influence on political processes, and the potential for comparative analysis in the global context are discussed. Particular attention is given to the interaction of think tanks with political institutions and the practical value of classification in determining their degree of independence. The article proposes an analytical approach aimed at the systematic study of these institutions.*

Keywords: *think tanks, classification, political system, strategic analysis, expert institute, methodology, political decisions, ideological approach, political consulting, analytical institution*

Globallashuv jarayoni siyosiy qarorlar qabul qilish tizimlariga yangi chaqiriqlar va ehtiyojlar keltirib chiqarmoqda. Ushbu sharoitda siyosiy institutlar va qaror qabul qiluvchilar tomonidan ilmiy asoslangan, mustaqil tahlillarga asoslangan siyosiy maslahat va tavsiyalarga bo‘lgan talab keskin ortib bormoqda. Mazkur ehtiyojni qondirishda "aql markazlar" (ingliz tilida – "think tanks") muhim intellektual va amaliy resurs sifatida maydonga chiqmoqda. Ular zamonaviy siyosiy tizimda siyosiy axborotni yetkazish, muqobil qarorlar ishlab chiqish, strategik rejalashtirishda ishtirok etish va jamoatchilikni xabardor qilish kabi turli

funksiyalarni bajaradi. Shu nuqtayi nazardan, “aql markazlari”ni turlarga ajratish va tasniflash ularning tabiati, vazifalari, siyosiy tizimdagi o‘rni va ta’sir mexanizmlarini aniqroq tushunish imkonini beradi. “Aql markazlar”ning institutsional shakllari, faoliyat yo‘nalishlari, moliyaviy manbalari, siyosiy mustaqillik darajasi va intellektual mahsuldorligi bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Shuning uchun ularni tasniflash nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliy tahlil va siyosiy strategiyalarni ishlab chiqishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Bugungi kunda “aql markazlari” siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy yoki xavfsizlik sohalarida strategik tadqiqotlar olib boradigan, tahliliy tavsiyalar ishlab chiqadigan va qaror qabul qiluvchilarga ilmiy asoslangan yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadigan nodavlat, mustaqil yoki yarim mustaqil tashkilotlar sifatida talqin etiladi. Ular davlat idoralari, siyosatchilar, jamoatchilik va biznes subyektlari o‘rtasida **intellektual ko‘prik** vazifasini bajaradi. Bunday faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tuzilmalarni **to‘g‘ri anglash, baholash va samarali ishlatish** uchun zarur metodologik vosita sifatida ularni tasniflash, turli yondashuvlar asosida tahlil qilish zarurati mavjud. **“Aql markazlari”ni** tasniflash orqali ularning siyosiy tizimdagi **funksional roli, ta’sir darajasi** va **ilmiy-intellektual salohiyati** aniqroq ko‘rinadi. Bu esa siyosiy qarorlar sifatini oshirish va demokratik institutlar mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

“Aql markazlar”ni tasniflashning ilmiy va amaliy zarurati ularning xilma-xil funksiyalari, tashkiliy modellari va siyosiy tizimdagi rolini aniqlashtirishga doir bir qator omillar bilan belgilanadi. Xususan, birinchidan, **funksional farqlilikni aniqlash uchun:** har bir “aql markaz”ning vazifasi va missiyasi turlicha: ba’zilar **siyosatni shakllantirishadi,** boshqalar **tahlil va monitoring** bilan shug‘ullanadi yoki **targ‘ibot va lobbichilik** qiladi. Tasniflash esa bu farqlarni ochib beradi;

Ikkinchidan, ularning m**ustaqillik darajasini baholash uchun:** “aql markazlar” siyosiy partiyalarga, hukumatga, biznesga yoki xalqaro donorlar tizimiga turlicha darajada bog‘langan bo‘lishi mumkin. Tasniflash orqali ularning **mustaqilligini** va **neytralligini** tushunish osonlashadi;

Uchinchindan, **metodologik yondashuvlarni farqlash uchun:** Ba’zi “aql markazlar” **ilmiy-analitik** metodlarga, boshqalari esa **normativ-siyosiy pozitsiyalar** asosida ishlaydi. Turli metodologiyalarni ajratish ularning ta’sir doirasini to‘g‘ri baholashga yordam beradi;

To‘rtinchidan, **siyosiy tizimga ta’sir mexanizmlarini tahlil qilish uchun:**

Ularning siyosiy jarayonlardagi **vositachilik, maslahat berish, lobbichilik** yoki **jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi** roli turlicha bo‘lishi mumkin. Tasniflash orqali bu o‘ziga xosliklarni ochib berish mumkin;

Beshinchidan, **moliyalashtirish manbalarini o‘rganish uchun:** grant asosida ishlaydigan mustaqil markazlar bilan davlat byudjeti yoki yirik korporatsiyalar tomonidan moliyalashtiriladigan markazlar o‘rtasidagi farqni tasniflash orqali tahlil qilish mumkin.

Amerikalik siyosatshunos va tahlilchi Xovard Viarda[1] zamonaviy “aql markazlari”ni ularning tashkil etilishi, faoliyat yo‘nalishlari va institutsional maqomiga ko‘ra quyidagi to‘rt asosiy guruhga ajratadi: 1) **Kichik tadqiqot guruhlari** – yirik ilmiy-tahliliy institutlar uchun g‘oya va tashabbuslarni yetkazib beruvchi, ilg‘or nazariyalar va tahliliy yondashuvlar uchun “ozuqa muhiti” vazifasini bajaradi; 2) **Vashingtondan tashqarida joylashgan markazlar** – siyosiy markazlardan geografik jihatdan uzoqda joylashgani sababli, e’tibor qozonish va siyosiy muhokamalarda ishtirok etish uchun noodatiy tashabbuslar va kommunikatsiya uslublarini ishlab chiqishga majbur bo‘ladi; 3) **Hukumatga aloqador ekspert tashkilotlari** – bevosita federal agentliklar yoki boshqa hukumat idoralari tarkibida, yoxud ularning moliyaviy yoki ma’muriy nazorati ostida faoliyat yuritadi; 4) **Tor yo‘nalishga ixtisoslashgan ilmiy markazlar** – muayyan sohalar (masalan, makroiqtisodiyot, milliy xavfsizlik, geosiyosat, energetika)ni chuqur tahlil qilishga ixtisoslashgan va amaliy natijalarga yo‘naltirilgan tadqiqotlar olib boradi. Viardaning ushbu tasnifi ham “aql markazlari” faoliyatining ko‘p qirraliligini yoritib berishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir Shu

bilan birga, bu tasnif siyosiy jarayonlardagi geografik va funksional farqlarni ochib beradi, biroq moliyalashtirish va ideologik yo‘nalish kabi boshqa mezonlarni yetarlicha qamrab olmaydi.

AQShda va butun dunyoda turli xususiyatlar hamda maqsadlarga ega bo‘lgan ko‘plab tadqiqot markazlarining faoliyat yuritayotgani bois, ularni yagona va har tomonlama qamrab oluvchi ta’rif asosida tavsiflash ancha murakkab hisoblanadi. Shu sababli tadqiqotchilar ularni o‘ziga xos xususiyatlariga qarab guruhlarga ajratishga intilmoqda va turli tasniflar ishlab chiqmoqdalar. Odatda bunday klassifikatsiyalar quyidagi mezonlarga asoslanadi: tahlil markazlarning siyosiy jarayondagi o‘rni va qaror qabul qiluvchilar bilan bo‘lgan munosabatlari (bevosita yoki bilvosita shaklda); ular ta’sir ko‘rsatishga intilayotgan auditoriya yoki maqsadli guruhlar (qaror qabul qiluvchilar, siyosiy partiyalar rahbarlari, jamoatchilik fikri va boshqalar); faoliyat yuritayotgan sohalari; moliyaviy manbalari (davlat byudjeti, manfaatdor guruhlar, siyosiy partiyalar va nodavlat donorlar), shuningdek, ularning mafkuraviy pozitsiyalari bo‘yicha (liberal, konservativ, neokonservativ va boshqalar). Bu mezonlar asosida tuzilgan tasniflar, tahlil markazlarining jamiyatdagi funksiyasi, siyosiy jarayonlarga ta’sir darajasi va mustaqillik ko‘lamini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi[2]. Demak, ko‘p mezonlarni o‘z ichiga olgan tasniflarda tahlil markazlarning siyosiy jarayondagi o‘rni, auditoriyasi, faoliyat sohalari, moliyaviy manbalari va mafkuraviy pozitsiyasi asosiy o‘rinda turadi. Ushbu yondashuv markazlarning siyosiy ta’sir doirasi va mustaqilligini chuqurroq anglashga imkon yaratadi, biroq murakkablik tufayli ba’zan aralash xususiyatlarga ega markazlarni tasniflashda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

“Aql markazlari”ni tasniflashda K.Uiverning[5] yondashuvi ham yuqoridagi mezonlarga yaqinlik kasb etadi. Tadqiqotchining fikricha, tahlil markazlarini quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1) **Talabalarsiz universitetlar** (*universities without students*) – ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib boruvchi, lekin o‘quv jarayoni bilan shug‘ullanmaydigan mustaqil markazlar (masalan, Brukings Insti-

tuti va Russell Seydjd fondi). Ularning xodimlari asosan akademik darajaga ega bo‘lgan shaxslar bo‘lib, ko‘pincha universitetlarning professor-o‘qituvchilari qatoridan. Akademik ta’lim olgan olimlar o‘z ishlarida ijtimoiy fanlarda obyektivlik va tadqiqotlarning to‘liqligiga bo‘lgan talablarni katta ahamiyatga ega deb hisoblaydilar va tadqiqot natijalarini kitoblar va ilmiy maqolalar shaklida chop etadilar. Bunday tashkilotlarning aksariyati birinchi navbatda xususiy fondlar va tashkilotlar (institutsional bo‘linmalar) tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi;

2)**Shartnoma asosidagi tadqiqot tashkilotlari** (*contract research organisations*) – asosan davlat yoki yirik mijozlar buyurtmasiga binoan ma’lum mavzularda tahliliy ish olib boruvchi markazlar (eng mashhuri RAND Corporation). Ular o‘z mablag‘larining katta qismini davlat idoralari buyurtmalari bo‘yicha bajarilgan ishlar orqali olishadi (1996 yilda Korporatsiyaning budjeti deyarli 118 million dollarni tashkil etgan bo‘lib, bu summaning katta qismini davlat buyurtmalari ta’minlagan). Ularning tadqiqot sohalari va mavzulari asosan buyurtmachilar tomonidan belgilangan vazifalar bilan aniqlanadi, va tadqiqot natijalari k‘proq monografiyalar va batafsil hisobotlar shaklida nashr etiladi, keng qamrovli kitoblar emas. Ushbu markazlarda ishlab chiqilgan loyihalar ko‘pincha davlat dasturlarini keng ko‘lamda baholashni o‘z ichiga oladi, shuning uchun ushbu guruhdagi tashkilotlar davlat boshqaruvi va siyosatshunoslik hamda shu bilan bog‘liq sohalarda magistrlik darajasiga ega tadqiqotchilar jamoalarini, doktorlik darajasiga ega ilmiy rahbarni boshliq qilib jalb etadilar;

3)**G‘oyaviy yo‘nalishga ega targ‘ibot “aql markazlari”** (*advocacy think tanks*) – aniq mafkuraviy yoki siyosiy pozitsiyani ilgari suruvchi, maqsadli guruhlar manfaatlarini himoya qiluvchi tahliliy tuzilmalar. 1980-yillarning o‘rtalariga kelib, bu toifaga turli ideologik yo‘nalishdagi tashkilotlar kirgan.

Shuningdek, J.Makgann va K. Uiver boshqa bir tadqiqotda siyosiy partiyalar bilan bevosita aloqador bo‘lgan tahlil markazlarini to‘rtinchi guruh sifatida ham ajratib ko‘rsatganlar[6]. Partiyaviy tahlil markazlar ma’lum bir siyosiy partiya doirasida faoliyat yuritadigan tashkilotlar hisoblanadi. Ularning xodimlari asosan

partiyaning amaldagi yoki sobiq yetakchilari hamda a’zolaridan iborat bo‘ladi. Ushbu markazlarning tadqiqot kun tartibi ko‘pincha partiyaning ehtiyojlari asosida belgilanadi. Bunday ekspert-analitik markazlar ko‘proq G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida uchraydi. Eng mashhur misollari sifatida Konrad Adenauer jamg‘armasi va Fridrix Ebert jamg‘armasi keltiriladi[7].

Bu kabi tasniflarda markazlarning ilmiy obyektivligi va siyosiy faoliyati darajasini yoritishda aniq misollar keltirishi bilan ahamiyatli hisoblanadi, ammo yangi shakllar, masalan, virtual markazlar va murakkab “gibrid strukturalar” hisobga olinmagan.

Adil Chag‘rining dissertatsiyasida ta’kidlanishicha, ilgari mavjud bo‘lgan tasniflardan tashqari, fin tadqiqotchisi T.Forsberg[10] tomonidan taklif etilgan yondashuv ham dolzarb metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Forsberg ekspert-analitik markazlarni ikki asosiy turga ajratadi: “forum tipidagi” (forum think tank) va “faollashtirilgan” yoki “maqsadga yo‘naltirilgan ekspert-analitik markazlar” (committed think tank). Ushbu taklif qilingan tasnif tahlil markazlarning ijtimoiy muhokamalarni faollashtirish yoki aniq siyosiy-maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat yuritishini ajratadi. Ushbu yondashuv markazlarning jamoatchilik bilan munosabatlari va siyosiy faolligini ta’kidlaydi, ammo kengroq institutsional va moliyaviy kontekstlarni qamrab ololmaydi.

Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa internet va raqamli platformalarning keng tarqalishi, yana bir yangi turdagi ekspert-analitik markazlarning shakllanishiga zamin yaratdi – bu “virtual” yoki “devorsiz tahlil markazlari”dir. Bunday tashkilotlar o‘z faoliyatini to‘liq onlayn makonda tashkil etib, ilmiy-tahliliy materiallarni veb-saytlar orqali tarqatadi hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng auditoriyaga chiqadi. Ushbu toifaga misol sifatida Turkiyadagi BILGESAM (Bilge İnsanlar Stratejik Araştırmalar Merkezi) keltiriladi. Mazkur markaz o‘zining an’anaviy ofisini yopib, faoliyatini butunlay internet orqali tashkil qilgan.

Yangi texnologiyalar rivoji bilan shakllangan bunday markazlar an’anaviy institutlardan farqli faoliyat formatiga ega bo‘lib,

internet platformalarida keng auditoriyaga chiqadi. Bu shakl tezkorlik va keng qamrovni ta’minlasa-da, ilmiy sifat va barqaror moliyalashtirish masalalarida muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Turli mezonlarga asoslangan yuqoridagi tasniflar ekspert-analitik markazlarni to‘liq va mutlaq tarzda farqlab berishga har doim ham imkon bermaydi. Ushbu tasniflar, avvalo, tahlil markazlarining muayyan jihatlari ularning faoliyat yo‘nalishlari, siyosiy pozitsiyasi yoki moliyaviy manbalariga asoslanadi. Biroq amaliyotda bir vaqtning o‘zida bir nechta toifaga mansub bo‘lishi mumkin bo‘lgan “gibrid” (aralash) xarakterdagi markazlar ham mavjud bo‘lib, bu holat mavjud tasniflash yondashuvlarining yetarlicha kompleks emasligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, bunday markazlarning global miqyosda keng tarqalishi, ularning turli siyosiy tizimlarga ega mamlakatlarda son jihatdan ortib borayotgani va mahalliy sharoitlarga moslashgan faoliyat yuritishi tahlil markazlarni yagona tasniflash doirasini belgilashni yanada murakkablashtirmoqda.

Umuman olganda, “aql markazlar”ni turli mezonlarga ko‘ra tasniflash mumkin. Amaliyotda esa ko‘plab markazlar bir nechta mezonlarga mos keladigan “aralash” xususiyatga ega bo‘ladi, bu esa ularni aniq va yagona tasniflashni qiyinlashtiradi. Shuning uchun ekspert-analitik markazlarni o‘rganishda ko‘p mezonli, birlashtirilgan va o‘ziga xos sharoitga moslashadigan usullarni yaratish zarur.

Quyidagi tahlilga tortilgan barcha tasnif tahlillari asosida shakllangan va asosiy beshta mezonga tayanuvchi komleks model taklif etiladi: (1-jadval).

1-jadval

“Aql markazlari” tasnifining integratsiyalashgan ko‘p o‘lchovli kompleks modeli

Mezon	Tur	Ta’rif
1. Institutsional tuzilish va tashkiliy shakl	Akademik markazlar	Universitet yoki ilmiy institutlar tarkibida, ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirilgan, yuqori ilmiy salohiyatga ega.
	Davlatga yaqin markazlar	Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan, ko‘pincha siyosatni qo‘llab-quvvatlovchi markazlar.
	Mustaqil va nodavlat markazlar	Xususiy moliyalashtirishga ega, siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka intiluvchi.
	Virtual (devorsiz) markazlar	Asosan onlayn faoliyat yuritadi, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng auditoriyaga ta’sir qiladi.
2. Faoliyat yo‘nalishi va ixtisoslashuv	Keng profilli markazlar	Bir nechta sohalarni qamrab olgan, kompleks maslahatlar beruvchi markazlar.
	Tor yo‘nalishga ixtisoslashgan “butik markazlar”	Muayyan soha yoki masalaga chuqur ixtisoslashgan tadqiqot markazlari.
	Forum tipidagi markazlar	Ochiq munozara va fikr almashinuvi uchun platforma yaratadi.
	Maqsadga yo‘naltirilgan (advocacy) markazlar	Aniq siyosiy yoki mafkuraviy pozitsiyani ilgari suradi, targ‘ibot faoliyati bilan shug‘ullanadi.

3.Moliya-lashtirish manbalari va mustaqillik darajasi	Mustaqil moliyalashtiriluvchi markazlar	Moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyalashgan, mustaqil donorlar va fondlardan foydalanadi.
	Buyurtmachi moliyalashtiriluvchi markazlar	Asosan davlat yoki boshqa buyurtmachilar tomonidan moliyalashtiriladi, buyurtmaga mos tadqiqotlar olib boradi.
	Gibrid moliyalashtirishga ega markazlar	Mustaqil va buyurtmachi moliyalashtirish manbalarini aralashtirgan markazlar.
4. Siyosiy-mafkuraviy mo‘ljali	Konservativ markazlar	An’anaviy qadriyatlar, erkin bozor, kuchli milliy xavfsizlikni qo‘llab-quvvatlaydi.
	Liberal markazlar	Ijtimoiy adolat, inson huquqlari, davlatning ijtimoiy rolini ilgari suradi.
	Markazchi (pragmatik) markazlar	Siyosiy spektrda murosali pozitsiyani egallaydi, pragmatik yondashuvni tanlaydi.
	Libertar markazlar	Shaxsiy erkinlik va bozor iqtisodiyotining ustuvorligini ilgari suradi.
	Partiyasiz (neytral) markazlar	Siyosiy partiyalar va mafkuradan mustaqil, obyektiv ilmiy tahlil beradi.
	Partiyaviy markazlar	Ma’lum siyosiy partiya doirasida faoliyat yuritadi, partiya manfaatlarini himoya qiladi.

5. Auditoriya va ta’sir doirasi	Qaror qabul qiluvchilarga yo‘naltirilgan markazlar	Siyosiy rahbarlar va hukumat organlari uchun tahliliy mahsulot yaratadi.
	Jamoatchilik va OAV uchun mo‘ljallangan markazlar	Ijtimoiy fikrni shakllantirish va keng auditoriyaga ta’sir qilishga yo‘naltirilgan.
	Mutaxassislar va akademik hamjamiyat uchun markazlar	Ilmiy maqolalar va professional tahlillar ishlab chiqaradi.

Ushbu yangi tasnifning asosiy afzalliklari uning moslashuvchanligi, integratsiyalashgan yondashuvi va zamonaviyligidadir. Ushbu tasnif markazlarning “gibrid” tabiati hisobga olingan holda, har birini bir nechta kategoriya bo‘yicha joylashtirish imkonini beradi. Shuningdek, u siyosiy, moliyaviy, institutsional va funksional mezonlarni birlashtirib, murakkab va ko‘p qirrali tuzilmani aks ettiradi. Zamonaviy jarayonlarni inobatga olib, onlayn va virtual ekspert-analitik markazlarni ham qamrab oladi. Bundan tashqari, yangi tasnif tadqiqotchilar, siyosatchilar va moliyalashtiruvchilar uchun amaliy va aniq yondashuvni taqdim etadi. U milliy va global kontekstlardagi farqlarni hisobga olgan holda, har xil siyosiy madaniyat va institutlarga moslashishga qodir bo‘lib, ekspert-analitik markazlarni chuqurroq va to‘liq tushunishga xizmat qiladi.

Xulosa qilganda, “aql markazlar”ning tasniflanishi birinchidan, **tasniflash mezonlarining ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatadi va** bir qancha asosiy mezonlarga ko‘ra guruhlarga bo‘linadi. Ushbu mezonlar yordamida markazlarning o‘ziga xos funksiyalari, siyosiy jarayonlardagi o‘rni va mustaqillik darajasi aniqlanadi. Ikkinchidan, t**urli mualliflar va maktablar** “aql markazlar”ni turlicha tasniflashadi. Bu esa markazlarning ko‘p qirraliligini yoritishga xizmat qiladi. Uchinchidan, ularning **moliyalashtirish manbalari va siyosiy orientatsiyasi muhim omillar sifatida qaraladi.** Markazlar-

ning moliyaviy manbalari va ideologik yo‘nalishi ularning faoliyatiga va siyosiy ta’siriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, mafkuraviy yo‘nalishga ega markazlar siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etadi. To‘rtinchidan, amaliyotda ko‘plab “aql markazlar” bir nechta tasnif mezonlariga mos keladi, ya’ni ular aralash xususiyatga ega. Bu holat yagona va aniq tasniflashda qiyinchilik tug‘diradi hamda murakkab yondashuvlarni talab qiladi. Beshinchidan, so‘nggi yillarda yangi formatdagi tahlil markazlari shakllanib, keng auditoriyaga chiqmoqda. Bu esa an’anaviy tasniflashni yanada murakkablashtiradi va yangi metodologik yondashuvlarni joriy etishni zarur qiladi. Oltinchidan, tahlil markazlarning roli va tuzilishi mamlakatning siyosiy tizimi, madaniyati va ijtimoiy sharoitlariga bog‘liq bo‘lib, shuning uchun umumjahon tasniflashda milliy kontekstni hisobga olish muhimdir. Yettinchidan, “aql markazlar”ni o‘rganishda faqat bitta yoki ikki mezonga tayangan holda aniq tasnif qilish qiyin. Shu sababli ularni institutsional tuzilishi, faoliyati, moliyalashtirish, siyosiy va mafkuraviy orientatsiyasi, auditoriyasi va hududiy joylashuvi kabi ko‘plab mezonlar asosida baholash va tasniflash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotar ro‘yxati:

1. Wiarda H.J. *Think Tanks and Foreign Policy: The Foreign Policy Research Institute and Presidential Politics.* – Lanham: Lexington Books, 2010. – 210 p.

2. Балаян А.А., Сунгуров А.Ю. Фабрики мысли и экспертные сообщества. – Санкт-Петербург: Алетея, 2016. – С. 21

3. Ahmad M. US Think Tanks and the Politics of Expertise: Role, Value and Impact *// Journal of Public Administration and Policy Research.* – 2008. – Vol.3. –No. 4. – P.103–117.

4. Ахмад М. Классификация исследовательских центров в США // Институты и механизмы выработки внешнеполитических решений в США : монография / под ред. В. Ф. Миронова. – М. : ИМЭМО РАН, 2009. – С.45-47.

5. Weaver K. The changing world of think tanks // PS: Political Science & Politics. – Vol. 22. - № 3. – 1989. – P. 563-566.

6. McGann J.G., Weaver K. Think tanks and civil societies in a time of change. – New York, 2000.– P.7.

7. Чагры А. Роль экспертно-аналитических центров в принятии внешнеполитических решений: опыт России и Польши. Диссертация на соискание учёной степени кандидата политических наук. – Нижний Новгород 2025.– С.32

8. Данилин Д.Д. *Роль американских экспертно-аналитических центров в формировании политики США в отношении стран Латинской Америки (2008–2016)* : дис. … канд. полит. наук. – Москва: МГИМО МИД России, 2020. – 186 с.

9. Кочетков Г.Б., Супян В.Б. «Мозговые центры» в США: наука как инструмент реальной политики. // http://www.ecfor.ru/pdf.php?id=2010/5/05

10. Forsberg T. Think tanks in Finland: Towards a new model? // *Global Think Tanks, Policy Networks and Governance.* – London: Routledge, 2004. – P.129–141.

Baxtiyor Abdullayevich SHODMONOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
tayanch doktoranti, +998916225506

MAHALLIY KENGASHLAR FAOLIYATIDA YOSHLAR ISHTIROKINI KENGAYTIRISH MASALASI

► ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada mamlakatimizda yoshlar siyosati borasida amalga oshirilayotgan islohotlar fonida yoshlarning xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faoliyatidagi ishtiroki masalasi tahlil qilingan. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari tarkibida yoshlarning kamligi, uning sabablari o‘rganilgan va mahalliy Kengashlar deputatlari tarkibida yoshlarning sonini oshirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yoshlar, yoshlar siyosati, mahalliy boshqaruv, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari, deputat.*

Аннотация: *В данной статье на фоне проводимых в нашей стране реформ в сфере молодежной политики проанализирован вопрос участия молодежи в деятельности местных Советов народных депутатов. Изучена малочисленность молодежи в*

составе депутатов местных Советов народных депутатов и ее причины, а также представлены практические предложения и рекомендatsiu по увеличению числа молодежи в составе депутатов местных Советов.

Ключевые слова: *молодежь, молодежная политика, местное управление, Советы народных депутатов, депутат.*

► ***Abstract:*** *This article analyzes the issue of youth participation in the activities of local councils of People's Deputies against the background of the reforms being carried out in our country in the field of youth policy. The small number of young people among the deputies of local councils of People's Deputies and its causes have been studied, and practical proposals and recommendations have been put forward to increase the number of young people among the deputies of local councils.*

Keywords: *youth, youth policy, local governance, local councils of People's Deputies, deputy.*

Mamlakatimizda yoshlar siyosati davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Buning sababi O‘zbekiston yoshlar mamlakatidir. Aholining katta qismini aynan yosh avlod tashkil etadi. Shu sababli yoshlarning ta’lim olishi, kasbiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishi masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlarga oid siyosatini yanada takomillashtirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, intellektual va ijodiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

2025 yil 14 fevral kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar bilan samimiy muloqot qildi. Videoselektor shaklida o‘tgan uchrashuvda yoshlar uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish chora-tadbirlari muhokama etildi. Davlatimiz rahbari so‘zining boshida bu uchrashuvdan mamnun ekanini ta’kidlab, yoshlarni xalqimizning oltin fondi, deb atadi [1].

Uchrashuvda Prezidentimiz yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan 3 ta muhim hujjat imzolaganini ma’lum qildi. Undan tashqari uchrashuvda mamlakatimizda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar haqida so‘z bordi.

Ushbu xabarni o‘qib o‘z tadqiqotim, mahalliy Kengashlar faoliyati doirasida yoshlarning ishtiroki masalasi meni o‘ylantirib qo‘ydi. Sababi, Mahalliy Kengashlarning deputatlari faoliyatini o‘rganish jarayonida bir jihat e’tiborimni tortdi. “O‘zbekiston aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yigit-qizlar kirib kelmoqda. 2030 yilga borib, bu ko‘rsatkich 1 million nafarga yetadi. Yurtimizdagi yoshlar siyosati xalqaro jamoatchilik tomonidan ham e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Yoshlar – 2030” strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoridan joy olgan” [1] bir paytda mahalliy Kengashlarga saylangan deputatlar orasida yoshlarning miqdori judayam kamligi meni taajjubga soldi.

Buyuk Britaniyaning Liberal demokratlar partiyasi yetakchisi va 40 yil davomida Liverpul shahar Kengashining deputati bo‘lgan Richard Kempning “Wordpress” nashrida e’lon qilingan “Yaxshi kengash qanday bo‘lishi kerak?” (What should a good council look like?) nomli maqolasida [2] mahalliy davlat hokimiyati organlarining samarali ishlashi va yaxshi Kengash aslida qanday bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritadi. Uning fikricha, yaxshi Kengash jamiyatning barcha qatlamlarini, jumladan, yosh, jins, millat va ijtimoiy sinf jihatidan aks ettirishi kerak. Chunki bu turli ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlarini hisobga olishga yordam beradi. Turli xil ijtimoiy guruhdagi deputatlarning Kengashga turlicha fikr va tajribalarni olib kirishi Kengash faoliyatini samarali tashkil qilishda asqotadi.

Muallifning qarashlariga qo‘shilgan holda shuni ham aytishimiz kerakki, mahalliy Kengashlarning faoliyati samaradorligini oshirishda yoshlarning kuch-g‘ayrati, shijoati va yangilikka intiluvchanligi ham asqotishi mumkin.

Endi mahalliy Kengashlarimizdagi yoshlarning salmog‘ini bir necha Kengashlar misolida ko‘rib chiqsak. Masalan: Xalq deputatlari Toshkent shahri Kengashiga 2024 yil 27 oktyabrda bo‘lib o‘tgan saylov natijasida 49 nafar deputat saylangan bo‘lib ulardan atigi 2 nafari (4,1 foizi) [3] 21-30 yosh orasidagi yoshlar hisoblanadi. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashiga esa 40 nafar deputat saylangan bo‘lib shundan faqatgina 1 nafari (2,5 foiz) [4] 30 yoshgacha bo‘lgan deputat hisoblanadi. Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumani

Kengashida [5] (25 nafar deputat saylangan) va Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani Kengashlarida [6] (20 nafar deputat saylangan) esa birorta ham 21-30 yosh orasidagi deputat yo‘q!

Ma’lumki saylov qonunchiligiga ko‘ra mahalliy Kengashlarga saylanish yoshi 21 yosh hisoblanadi. Lekin mahalliy Kengashlardagi yoshlar sonining bunchalik kamligi nima bilan bog‘liq degan haqli savol tug‘iladi? Bizning fikrimizcha, mahalliy Kengashlarda yosh deputatlarning salmog‘i kamligining asosiy sababi siyosiy partiyalarning yoshlarni mahalliy Kengashlarga nomzod sifatida ko‘rsatish darajasi judayam pastligidandir.

Masalan, Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashiga Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan 50 nafar nomzod ko‘rsatilgan bo‘lsa, shundan birorta 30 yoshgacha bo‘lgan nomzod yo‘q, Ekologik partiyadan 50 nafar nomzoddan 2 nafar, Xalq demokratik partiyasidan 50 nafar nomzoddan 1 nafar, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan 50 nafar nomzoddan 1 nafar va “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan 50 nafar nomzoddan 3 nafar yoshlar shahar Kengashi deputatligiga nomzod qilib ko‘rsatilgan. Umumiy hisobda Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashiga ko‘rsatilgan jami 250 nafar deputatlikka nomzodlarning 7 nafari (2,8 foizi) yoshlardir. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi deputatligiga ko‘rsatilgan yosh nomzodlarning salmog‘i esa bundan ham past ko‘rsatkichda. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashiga faqatgina O‘zbekiston Ekologik partiyasi 40 nafar nomzoddan 2 nafar (5 foiz) 30 yoshgacha bo‘lgan nomzod ko‘rsatgan. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, Xalq demokratik partiyasi, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan ko‘rsatilgan 40 nafar nomzodlardan 30 yoshgacha bo‘lgan birorta nomzod yo‘q [7]. Umumiy hisobda esa Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi deputatligiga ko‘rsatilgan jami 200 nafar nomzodlarning 2 nafari (1 foizi) yoshlardir. Boshqa viloyat va tuman Kengashlariga ham nomzod ko‘rsatishda shunday holatni ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu holatda siyosiy partiyalarning mahalliy Kengashlarga nomzod ko‘rsatish jarayonida nomzodlarning kamida 20 foizi 30

yoshgacha bo‘lgan nomzodlar bo‘lishi lozimligi talabini qonunchilikka kiritish lozim. Bunday tajriba Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga ayollarning saylanishini oshirish maqsadida avval amalga oshirilgan. Saylov Kodeksida “Ayollarning soni siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar umumiy sonining kamida qirq foizini tashkil etishi kerak” [8] deb belgilangan.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbekistonda yoshlar siyosati davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u yoshlarning ta’lim olishi, kasbiy rivojlanishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga qaratilgan keng qamrovli islohotlar orqali qo‘llab-quvvatlanmoqda. Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratilayotgan bo‘lsa-da, mahalliy Kengashlarda ularning ishtiroki yetarli darajada emasligi muhim muammo sifatida qolmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mahalliy Kengashlarga saylangan yosh deputatlarning soni juda ham kam. Bu esa yoshlarning siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat boshqaruvi jarayonlariga keng jalb qilish zaruratini ko‘rsatadi. Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, samarali boshqaruv tizimida yoshlarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, mahalliy Kengashlarda yoshlarning ishtirokini oshirish uchun siyosiy partiyalarning yosh nomzodlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha mas’uliyatini oshirish, shuningdek, yoshlarning siyosiy jarayonlardagi faolligini oshirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish lozim. Bunday tashabbuslar mamlakatimizda yoshlar siyosatini yanada rivojlantirish va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi rolini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalari, televidenie va Internet tarmog‘ida shu mavzuga ajratiladigan soatlarning hajmi oshsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Prezident yoshlar bilan samimiy muloqot qildi. https://president.uz/uz/lists/view/7872

2. Richard Kemp. “What should a good council look like?”. https://richardkemp.wordpress.com/2022/05/13/what-should-a-good-council-look-like/

3. Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashiga saylangan deputatlarning partiya guruhlari ro‘yxati. https://kengash.gov.uz/doc/128586, https://kengash.gov.uz/doc/128598, https://kengash.gov.uz/doc/128602, https://kengash.gov.uz/doc/128604, https://kengash.gov.uz/doc/128606.

4. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashiga saylangan deputatlarning partiya guruhlari ro‘yxati. https://kengash.gov.uz/doc/128737, https://kengash.gov.uz/doc/128734, https://kengash.gov.uz/doc/128730, https://kengash.gov.uz/doc/128728, https://kengash.gov.uz/doc/128724.

5. Xalq deputatlari Qo‘shrabot tumani Kengashiga saylangan deputatlarning partiya guruhlari ro‘yxati. https://kengash.gov.uz/doc/128707, https://kengash.gov.uz/doc/128701, https://kengash.gov.uz/doc/128695, https://kengash.gov.uz/doc/128693, https://kengash.gov.uz/doc/128688.

6. Xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashiga saylangan deputatlarning partiya guruhlari ro‘yxati. https://kengash.gov.uz/doc/129709, https://kengash.gov.uz/doc/129714, https://kengash.gov.uz/doc/129720, https://kengash.gov.uz/doc/129723, https://kengash.gov.uz/doc/129729.

7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi e-saylov axborot tizimi. https://e-saylov.uz/all-candidates.

8. O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.12.2023-y., 03/23/883/0949-son. // https://lex.uz/acts/4386848.

IV PLENAR SESSIYA: DEMOKRATIK JARAYONLARDA GLOBAL TRENDLARNING XAVF VA TAHDIDLARI

Abdijalil TO‘RAYEV,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi bo‘lim boshlig‘i
E-mail: turayevabdijalil@gmail.com
Telefon: (+99897) 769 89 19

GLOBAL INQIROZLAR SHAROITIDA MILLIY FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING AKSELERATSIYASI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

► ***Annotatsiya:*** *Maqolada Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining akseleratsiyasiga sabab bo‘lgan omillar, tashkiliy-huquqiy asoslar, ijtimoiy muloqot va ijtimoiy auditning ahamiyati, fuqarolik jamiyatining ijtimoiy faolligi darajasi, “uchinchi sektor”ning ommaviy axborot vositalarini jamiyatda siyosiy plyuralizmni ta’minlashdagi o‘rni aniq faktlar asosida ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: Konstitutsiya, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, so‘z erkinligi, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ijtimoiy muloqot va ijtimoiy audit, ijtimoiy faollik,*

► ***Аннотация:*** *В статье на основе конкретных фактов раскрываются факторы ускорения развития гражданского общества в Новом Узбекистане, его организационно-правовые основы, значение социального диалога и общественного аудита, уровень гражданской активности, а также роль «третьего сектора» и СМИ в обеспечении политического плюрализма.*

Ключевые слова: *Конституция; институты гражданского общества; неправительственные некоммерческие организации; свобода слова; органы самоуправления; социальный диалог; общественный аудит; гражданская активность; средства массовой информации; политический плюрализм.*

► ***Abstract:*** *Based on concrete evidence, the article examines the drivers of accelerated civil society development in New Uzbekistan, its organizational-legal foundations, the importance of social dialogue and social audit, the level of civic engagement, and the role of the "third sector" and mass media in safeguarding political pluralism.*

Keywords: *Constitution; civil society institutions; non-governmental non-profit organizations; freedom of speech; self-governing bodies; social dialogue; social audit; civic engagement; mass media; political pluralism.*

Yangi O‘zbekistonda o‘tgan tarixan qisqa davrda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalari aholining huquq va manfaatlarini tom ma’noda ro‘yobga chiqarishni ko‘zlagan tub demokratik islohotlar bilan qamrab olindi.

Fuqarolarning fikri inobatga olinadigan, ular bilan ochiq muloqotga asoslangan davlatni shakllantirish g‘oyasi amaliyotga tatbiq etila boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh.M.Mirziyoyev** “Mamlakatning har tomonlama gullab-yashnashiga faqat kuchli va adolatli fuqarolik jamiyati sharoitida erishish mumkin”[1] ligini ko‘rsatib berdi.

Asosiy e’tibor, “Inson uchun, uning baxti saodati uchun” g‘oyasi asosida “j**amiyatni islohotlar tashabbuskori**”ga aylantirish, “**xalq xizmatidagi davlat**”ni shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni muvozanatlashtirish va fuqarolarning rolini kuchaytirishga qaratildi.

Haqiqatdan ham etik fuqarolik jamiyatini shakllantirmasdan turib, huquqiy demokratik davlatni qurish mumkin emasligi, ongli va erkin fuqarolargina kishilik jamiyatining eng oqil shaklini yarata olishga qodirligi[2] Yangi O‘zbekiston tajribasida isbotlanmoqda.

Shunga ko‘ra, o‘tgan davrda Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining akseleratsiyasiga qator omillar kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Xususan:

1. Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi uchun – tashkiliy-huquqiy asoslar yaratildi, bu esa uning faoliyatini tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Yangi O‘zbekistonning fuqarolik jamiyati va uning institutlarini

rivojlantirishga qaratilgan siyosiy irodasi – Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning **49, 69-75, 115, 148**-moddalarida o‘z ifodasini topdi.

Birinchidan, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ilk bor “fuqarolik jamiyatining institutlari” nomli **alohida bob va yuridik atama** kiritildi.

Ikkinchidan, NNTlar, fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari (mahallalar), ommaviy axborot vositalari va boshqa jamoatchilik tuzilmalari fuqarolik jamiyati institutlari qatorida belgilandi.

Uchinchidan, Vazirlar Mahkamasiga fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ijtimoiy sheriklik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning ishtirok etishini ta’minlash vazifasi yuklatildi.

To‘rtinchidan, davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatishga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi belgiladi.

Beshinchidan, davlat byudjetining shakllantirilishi va ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish vakolati berildi.

Oltinchidan, fuqarolarning **o‘zini o‘zi boshqarish organlari** davlat hokimiyati tizimiga kirmasligi, uning **faoliyatini asosiy sifat jihatlari Bosh Qomus darajasida belgilanishi** o‘zbek jamiyatining noyob instituti bo‘lgan **mahallaning** jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini yanada kuchayishini, tom ma’noda **mustaqil va xalqchil bo‘lishini ta’minlaydi.**

Darhaqiqat, Yangi Konstitutsiyaga asosan **jamiyatning birlamchi bo‘g‘ini bo‘lgan mahalla** o‘z faoliyatini ma’lum bir makonda istiqomat qilayotgan aholining manfaatlaridan, tarixiy o‘ziga xos xususiyatlaridan, milliy qadriyatlari, urf-odatlari va an’analaridan kelib chiqib **tashkil etadi.**

Yettinchidan, Yangi Konstitutsiyani fikr, so‘z va matbuot, e’tiqod erkinligi, axborotni izlash, olish va tarqatish, Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish kabi normalar bilan mustahkamlangan. Bu esa **amaldagi ochiqlik siyosatini izchil davom etishini yaqqol tasdiqlaydi.**

Sakkizinchidan, so‘z erkinligi bilan bog‘liq kiritilgan yangi

normalar an’anaviy OAVlari bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllanayotgan **“elektron matbuot”** va **“fuqarolik jurnalistika”**sini yanada rivojlantiradi. Bu esa ularning axborot maydonidagi roli va ahamiyatini yuksaltiradi.

Vazifalarning bu tarzda aniq qo‘yilishi (qaysi vazifa nazarda tutilyapti, shunga aniqlik kiritish kerak) **fuqarolik jamiyati** asoslarini rivojlantirishning **eng asosiy huquqiy belgisi** hisoblanadi.

Bugungi kunda “O‘zbekiston – **2030**” strategiyasi doirasida xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar alohida yo‘nalish sifatida izchil amalga oshirilmoqda.

Uning doirasida O‘zbekiston tarixida **birinchi marta** 2021-yil **4** martdagi **PF–6181-**son Farmoni bilan qabul qilingan “2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” amalga oshirilmoqda.

Alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda yangidan yangi NNTlar tashkil qilish asosiy maqsad qilingan emas, ammo Yangi O‘zbekistondagi ochiqlik siyosati natijasi hamda faol fuqarolarning tashabbusi bilan **minglab yangi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari** tuzildi.

Agar **2016** yil **1** yanvar holatiga ko‘ra, **8 417** ta NNT faoliyat yuritganini hisobga olsak, **2025** yilda NNTlar soni **9,6** mingtaga yoki **115** foizga oshganini ko‘rish mumkin. Xususan, Taraqqiyot strategiyasi, Progressiv islohotlar, Barqaror rivojlanish markazlari, “Yuksalish” xalqaro harakati, “Ayollar va qizlar”, “Eksportchilar”. “Iqtisodchilar” **uyushmalari**, “Vatandosh”, “Zamin”, “Shodiyev”, “Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash”, “Vaqf”, “Milliy Mass mediani qo‘llab-quvvatlash” **fondlari**, O‘zbekiston Volontyorlar, Nogironlar **assotsiatsiyalari**, “O‘zbekiston milliy media birlashmasi”, “Digital Generation Uzbekistan” (“Raqamli avlod”), “Korrupsiyasiz kelajak” kabi **nodavlat notijorat tashkilotlari** tashkil topdi.

Birgina **2023** yilning o‘zida bevosita **korrupsiyaga qarshi kurashish** sohasida **6** ta yangi NNT tashkil bo‘ldi[3]. “**Tadbirkor ayol**” xalqaro uyushmasi, “**Sabr**” ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish markazi, Nogironlar jamiyati va assotsiatsiyasi kabilarning **yuzlab tuman hamda shaharlarda hududiy bo‘linmalari** faoliyat yurita boshladi.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda **9,6** mingta nodavlat notijorat tashkilotlari[4], **9,4 mingdan** ziyod fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, **3,5** mingta OAV, nashriyot va matbaa korxonalari hamda **3** mingga yaqin turli jamoat tuzilmalari (jamoatchilik kengashlari, komissiyalari, jamoatchilik guruhlari va boshqalar) faoliyat yuritmoqda. Ularda **150** mingdan ortiq shaxslar mehnat qilmoqda. Shu davrda NNTlarida ishlayotgan shaxslar soni **34** mingdan[5] **70** mingga yoki **2** baravarga oshganini kuzatish mumkin.

2. Yangi O‘zbekistonda “ijtimoiy muloqot va ijtimoiy audit” fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning lokomativi – markaziy o‘qi hisoblandi.

2016 yildan boshlab O‘zbekistonda “**Xalq bilan muloqot**” g‘oyasi asosida dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy gumanitar muammolarni jamiyat bilan muloqot qilish asosida hal qilishning qator vositalari ishga tushirildi. Fuqarobay, mahallabay, sektorbay ishlash, yoshlar, ayollar va temir daftarlari, davlat organi rahbarlarining sayyor qabullarini o‘tkazish kabi qator yangi mexanizmlar asosida xalq bilan ochiq muloqotga kirishildi.

Mazkur jarayonda fuqarolik jamiyati institutlari ushbu **ijtimoiy-siyosiy harakatning** muhim mexanizmiga aylandi.

Ayniqsa, O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi, O‘zbekiston nogironlar, ko‘zi ojizlar, kar-soqovlar jamiyatlari, “Vatanparvar” tashkiloti va boshqa minglab FJIlari aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, sohasida davlat organlari bilan hamkorlikda keng ko‘lamdagi ishlarni amalga oshirdi.

Uning natijasida jamiyat bilan davlatning o‘zaro ijtimoiy muloqotining platformalari yaratildi.

Masalan[6], vazirlik va idoralarning rahbar o‘rinbosarlaridan birini NNTlar bilan hamkorlik qilish bo‘yicha mas’ul etib belgilandi.

Barcha darajadagi Kengashlarida FJI masalalari bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi komissiyalar tashkil etildi.

Davlat mulki obyektlari negizida “**Nodavlat notijorat tashkilotlari uylari**”ni tashkil etildi, ularga **400** ga yaqin NNTlar ijara to‘lovining “**nol**” stavkasini qo‘llagan holda joylashtirildi.

NNTlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari majburiy tartibda

O‘zNNTMA bilan kelishish tizimi yo‘lga quyildi.

O‘zNNTMAga raisiga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va uning qo‘mitalari (komissiyalar) majlislarida nodavlat notijorat tashkilotlarining vakili sifatida ishtirok etish huquqi berildi[7].

Unga, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratining ta’sirchan mexanizmlarini joriy qilish, ularni amaliyotga to‘g‘ri qo‘llash yuzasidan takliflar kiritishi, NNTlarning huquq va manfaatlarini ifoda etish vazifasi topshirildi[8].

Har yili kamida bir marotaba vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan sohaviy va hududiy fuqarolik jamiyati institutlari vakillari bilan ochiq muloqot o‘tkaziish yo‘lga qo‘yildi.

Vazirlik va idoralar fuqarolik jamiyati institutlariga byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ijtimoiy buyurtma berish bo‘yicha tanlovlar tashkil etish vazifasi belgilangan[9].

Bu kabi tanlovlarning ustuvor yo‘nalishlari inson huquqlarini himoya qilish, korrupsiyaga murosasiz muhitni shakllantirish hamda ta’lim, tibbiyot, ekologiya, qurilish, transport, kommunal xo‘jaligi, bandlik, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va boshqa sohalarning eng dolzarb muammolari yechimiga qaratilmoqda.

Davlat rahbarining qaroriga asosan, davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari raislari fuqarolik jamiyati institutlari vakillari orasidan tasdiqlash, ular faoliyati samaradorligi baholash va natijalarini e’lon qilish, faol a’zolarini moddiy rag‘batlantirish kabilar belgilandi[10].

“**Yuksalish**” harakati har yili jamoatchilik kengashlari faoliyat samaradorligini baholash va uning natijalarini o‘z rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilib bormoqda[11].

Fuqarolik jamiyati institutlari davlat va uning organlariga Konstitutsiya va qonunlar bilan belgilangan vazifa va funksiyalarini qanchalik to‘g‘ri, aniq bajarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish orqali ularni tiyib turish vazifasini bajarmoqda.

Bu o‘z navbatida, davlat organlarining o‘zboshimchalik va noqonuniy faoliyatdan tiyilishini ta’minlaydi, mansabdor shaxslarning qonun doirasida faoliyat yuritishiga, kasbiy mahorati va malakasi (kompetensiya)ga bo‘lgan talabni kuchaytiradi.

Masalan, Sharq ayoli” xalqaro ayollar jamg‘armasi, Volontyorlar assotsiatsiyasi, Nogironlar jamiyati saylovlarda ovoz berish uchastkalarida ko‘rilgan tayyorgarlik ishlari va aholining barcha qatlamlari uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o‘rganish bo‘yicha jamoatchilik nazoratini o‘rnatdi. Aniqlangan kamchiliklar o‘z vaqtida bartaraf etildi.

Demak, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazorati instituti amaliyotga to‘g‘ri qo‘llansagina fuqarolik jamiyatining institutlari reaktiv faoliyatdan proaktiv faoliyat usulida ishlay boshlaydi. Ijtimoiy birdamlik, kreativlikni, shaffoflik, muqobil konstruktiv g‘oyalar (muqobil sharhlar, milliy ma’ruzalar, konsepsiyalar, strategiyalar va boshqalar) shakllanishini kuchaytiradi.

3. Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyat boshqaruvidagi **ijtimoiy faolligi darajasi** ham yuksalib, davlat va jamiyat boshqaruvining bevosita **ishtirokchisiga** aylanmoqda.

Yangi Konstitutsiyani qabul qilish bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda Ko‘zi ojizlar jamiyati Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning **to‘liq audiomatnini** tayyorladi.

Xuddi shuningdek, Buxoro viloyati karlar jamiyati kar-soqovlar uchun inklyuziv onlayn platforma “**www.s-access.uz**”ni ishga tushirdi. Platforma surdo tilida asosiy huquqiy ma’lumotlardan to‘siqsiz foydalanish hamda ishonchli axborot bilan ta’minlash imkoniyat yaratildi.

Barqaror rivojlanish markazi Yangi Konstitutsiyaning **Brayl yozuvidagi matnni** chop etdi. Qayd etilganlar natijasida **bir mln.ga yaqin nogironligi bo‘lgan shaxslarning** Yangi Konstitutsiya normalaridan xabardor bo‘lish, fikr bildirish, takliflar kiritish huquqlari ta’minlandi.

2024 yil **27** oktyabr kuni Yangi O‘zbekistonda Parlament va mahalliy kengashlarga o‘tkazilgan saylovlar natijalariga ko‘ra, **FJIning 1 274 nafar vakillari** davlat vakillik organlarida **deputatlik o‘rinlarini egalladi.** Ularning **138** nafari nogironligi bo‘lgan shaxslar hisoblanadi, ularining **14** nafari **Parlament quyi palatasiga** va **3** nafari **Senat** a’zoligiga saylangan[12].

4. Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining **akseleratsiyasi jarayonida** ularning **xalqaro maydondagi hamkorligi-**

ning ko‘lami hamda geografiyasi yanada kengayish tenedensiyasi kuzatilmoqda.

Milliy fuqarolik jamiyati institutlari BMT, BMT TD, YEXHT, YEXHTning DIIHB va boshqa qator xalqaro tashkilotlarning **100** dan ortiq yirik tadbirlarida muntazam ishtirok etib kelmoqda. **2025** yilda milliy FJIlari vakillari birinchi marta **Bryussel va Fransiya** shaharlarida Yevroparlament deputatlari bilan muloqot o‘tkazdi.

Demokratik islohotlar fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, ularning samarasi bo‘yicha fikr almashish, Yangi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlashda mustaqil platformasi bo‘ldi.

2023-2025 yillarda **xorijiy donorlardan 120 470 427 AQSH dollari** miqdorida pul mablag‘lari va mol-mulklar milliy NNTlarga kirib keldi.

Ma’lumot uchun: *NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining moliyaviy manbalari deversifikatsiya qilindi.* ***2017*** *yilda barcha NNTlarning hisob raqamlariga* ***jami moliyaviy manbalaridan 1*** *trillion* ***864*** *milliard* ***358*** *million so‘mdan ortiq mablag‘ tushgan bo‘lsa[13], faqatgina* ***2025*** *yilning o‘zida O‘zbekistonning davlat byudjetidan jami* ***1*** *trln.* ***351*** *mlrd so‘m ajratildi[14]. Mazkur mabalg‘alar tarkibiga, “****Sog‘lom avlod uchun****” fondi,* ***Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi, ijodiy tashkilotlarning*** *(Yozuvchilar, teatr arboblari, haykaltaroshlar, kinochilarning uyushmalari),* ***O‘zbekiston musulmonlari idorasi, 16*** *ta diniy konfessiya hamda* ***5*** *ta* ***siyosiy partiya*** *kabilarning mablag‘lari kiritilmagan.*

5. NNTlarning **OAV soni keskin oshmoqda**, ularning mustaqil **tahliliy nashrlari, teleradiokanallari** faoliyat yuritmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari **o‘z ovozi orqali** jamiyatda **plyuralizmni** ta’minlash, **milliy-ma’naviy mafkurani** rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Bugungi kunda “O‘zbekiston matbuoti”, “Fuqarolik jamiyati”, “Taraqqiyot strategiyasi”, “Ma’naviy hayot”, “Tafakkur”, “Jahon adabiyoti”, “Mahalla ko‘zgusi”, “Bir safda”, “Keksalik gashti”, “Hidoya”, “Mo‘minalar”, “Advokat” kabi jurnallar nashr qilinmoqda.

“Jamiyat”, “Mahalla”, “Jadid”, “Hurriyat”, “Yoshlar ovozi”,

“Qadriyat”, “Imkoniyat”, “Ishonch” (“Doveriye”), “Islom nuri”, “Advokat press”, “XXI asr”, “Milliy tiklanish”, “O‘zbekiston ovozi”, “Adolat”, “Ovozi tojik”, “Nurli jol”, “Erkin Qaraqalpaqstan”, “Ovozi Samarqand”, “Koryo sinmun”, “Mekan” kabi gazetalar muntazam chop etib kelinmoqda.

Shuningdek, “Madaniyat va ma’rifat”, “Mahalla”, “Aqlvoy”, “Bolajon”, “Yoshlar”, “Kun.uz”, “12news”, “Podrobno.uz”, “Uz-Report”, “Sevimli”, “Zo‘r TV” nodavlat teleradiokanallar faoliyat yuritmoqda.

Ular tomonidan Yangi O‘zbekiston rivojlanish tamoyillari tag zamirida adolat, ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyalari, xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan fikr tarbiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi kabi vazifa mustahkamlangani[15] keng yoritilmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda **200** dan ortiq chet el kanallari efirga uzatilmoqda. Ular orasida “Amerika ovozi”, “BBC”, “Reuters”, “Economist”, “SkyNews”, “France Presse”, “Euronews”, “BBC News”, “France 24”, “DW”, “CNN”, “Fox News”, “Al Jazeera” va boshqa axborot agentliklarini qayd etish mumkin.

Umuman, qayd qilingan mexanizmlar asosida Yangi O‘zbekistonning “**fuqarolik jamiyatini rivojlantirish**” modeli demokratik huquqiy davlatni, ochiq bozor iqtisodiyoti va erkin fuqarolik jamiyatini evolyutsion rivojlantirmoqda. Bu esa, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni, izchil ijtimoiy taraqqiyot, yuksak samaradorlik va adolatni ta’minlamoqda.

Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan nodavlat notijorat tashkilotlari sonining oshish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Demokratik islohotlar jarayoniga xalaqit beruvchi salbiy ta’sir qiluvchi omillarni, ayniqsa, guruhli egoizm, siyosiy lobbizm va liberal individualizmga qarshi mustahkam to‘siq bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, bugungi kunda shaxs, jamiyat va davlatning o‘zaro ijtimoiy munosabatlarida konsensusga va adolatga erishishning vosita hamda mexanizmlarini belgilab bermoqda.

Yaqin istiqbolda fuqarolik jamiyatining yanada aniq yo‘nalishlarini, indikatorlarini, mezonlarini belgilash hamda ular asosida rivoj-

lantirishga e’tibor qaratish muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ш.М.Мирзиёев: Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. “O`zbekiston” нашриёти. 2023 й. 93-бет.

2. Fuqarolik jamiyatining shakllanish va rivojlanish tarixi. // https://qoraqalpoq.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=48343

3.https://aksent.uz/news/nnt-va-fuqarolik-jamiyati-institutlari-roli-qanday

4. https://strategy.uz/index.php?news=1720

5. https://daryo.uz/k/2018/08/14/ozbekistonning-20-milliondan-ortiq-fuqarosi-nodavlat-notijorat-tashkilotlar-azosi-hisoblanadi

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 майдаги “Мамлакатни демократик янгилаш жараёнида фуқаролик жамияти институтларининг ролини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ–5430-сонли Фармони // https://lex.uz/docs/3721649

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 26 августдаги “Фуқаролик жамияти институтларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // https://lex.uz/docs/7083841

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 26 августдаги “Фуқаролик жамияти институтларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // https://lex.uz/docs/7083841

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 26 августдаги “Фуқаролик жамияти институтларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // https://lex.uz/docs/7083841

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 26 августдаги “Фуқаролик жамияти институтларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // https://lex.uz/docs/7083841

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 26 августдаги “Фуқаролик жамияти институтларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // https://lex.uz/docs/7083841

12. Демократик жараёнларни таҳлил қилиш марказининг таҳлилий материаллари
13. https://daryo.uz/k/2018/08/14/ozbekistonning-20-milliondan-ortiq-fuqarosi-nodavlat-notijorat-tashkilotlar-azosi-hisoblanadi
14. Олий мажлис ҳузуридаги жамоат фонди маълумотлари.
15. https://president.uz/uz/lists/view/4089

Имомназар Эгамбердиевич ТУРСУНОВ,
Депутат Законодательной палаты
Олий Мажлиса Республики Узбекистан.
Жасмина Имомназар кизи ТУРСУНЗОДА,
Ташкентский архитектурно-строительный
университет, магистрант.

ГЛОБАЛЬНЫЕ РИСКИ В СФЕРЕ ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И ПЕРЕХОДА К «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКЕ

► ***Annotatsiya:*** *Maqola atrof-muhitni muhofaza qilish va "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonidagi global xatarlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Mazkur yo'nalishda qabul qilingan qonun hujjatlari atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Xususan, O'zbekistonda milliy chiqindilarni boshqarish tizimi ishlab chiqilmoqda, qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirishga, tabiiy ekotizimlarni saqlash va tiklashga e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun yashil texnologiyalar va infratuzilmaga investitsiyalar amalga oshirilmoqda.*

Kalit so'zlar: *qonun hujjatlari; yashil texnologiyalar; yashil iqtisodiyot; investitsiya; global xatarlar; nazorat metodikasi; milliy tizim; normativ-huquqiy hujjatlar; chiqindilarni boshqarish; tabiiy ekotizim; samaradorlikni oshirish; ekologik barqarorlik; iqtisodiy rivojlanish.*

► ***Аннотация:*** *Статья посвящена анализу глобальных рисков в сфере охраны окружающей среды и перехода к «зелёной» экономике. Отмечается наличие ряда законодательных актов, направленных на защиту природы и поддержку устойчивого развития. В частности, в Узбекистане разрабатывается национальная система управления отходами, делается акцент на переработку и сокращение отходов, а*

также на сохранение и восстановление природных экосистем. Кроме того, осуществляются инвестиции в зелёные технологии и инфраструктуру в целях обеспечения устойчивого экономического развития.

Ключевые слова: *законодательные акты; зелёные технологии; зелёная экономика; инвестиции; глобальные риски; методика контроля; национальная система; нормативно-правовые акты; управление отходами; природная экосистема; повышение эффективности; экологическая устойчивость; экономическое развитие.*

► ***Abstract:*** *The article is devoted to the analysis of global risks in environmental protection and the transition to a "green" economy. It highlights the existence of several legislative acts aimed at safeguarding the environment and supporting sustainable development. In Uzbekistan, a national waste management system is being developed, with emphasis on recycling, waste reduction, and the preservation and restoration of natural ecosystems. Furthermore, investments are being made in green technologies and infrastructure to promote sustainable economic growth.*

Keywords*: legislative acts; green technologies; green economy; investment; global risks; control methodology; national system; normative legal acts; waste management; natural ecosystem; efficiency improvement; environmental sustainability; economic development.*

Введение. Современный мир сталкивается с многочисленными экологическими вызовами. Загрязнение воздуха и воды, эрозия почвы, опустынивание, бесконтрольное использование ископаемого топлива приводят к глобальному потеплению, увеличению числа природных катастроф и наносят ущерб окружающей среде и здоровью населения. Эти проблемы требуют незамедлительных и решительных действий.

В сфере охраны окружающей среды и перехода к «зелёной» экономике существуют глобальные риски, связанные с негативным антропогенным воздействием на экосистемы, и меры, направленные на снижение этих рисков. Цель «зелёной» экономики — сгладить противоречия между экономическим ростом и сохранением природных ресурсов, снизить экологический след человеческой деятельности.

В ответ на эти глобальные вызовы во время выступления в Законодательной палате Президент страны Шавкат Мирзиёев

принял важное решение: предложил объявить 2025-й «Годом защиты окружающей среды и «зеленой» экономики». Объявление года стало важным шагом на пути обеспечения экологической устойчивости в стране и налаживания экономического развития в соответствии с экологическими требованиями[1].

Это решение открывает новую страницу в экологической политике Узбекистана и подчеркивает нашу приверженность принципам устойчивого развития, усилия правительства по внедрению технологий чистой энергии и увеличению зеленых зон в городах, что дополнительно акцентирует важность экологии в национальной повестке дня.

Сегодня негативные последствия изменения климата остро ощущаются не только в Узбекистане, но и во многих странах мира. В последние годы наша страна стала одним из лидеров в регионе в сфере зеленой экономики. Реализация крупных экологических инициатив и поддержка научных исследований в области климата подчеркивают нашу нацеленность на устойчивое развитие. Совместно с соседними государствами начата реализация Региональной климатической стратегии. В Ташкенте создан Университет Центральной Азии по изучению изменений климата и окружающей среды. Кроме того, Узбекистан выступил инициатором двух важных резолюций, принятых ООН в этой сфере. На данный момент «зелёная» энергетика становится одним из драйверов экономики страны[3].

Методы и исследования. В 2025 году Узбекистан объявил годом охраны окружающей среды и «зеленой» экономики. Это означает, что в течение года будет уделяться особое внимание вопросам защиты окружающей среды, рациональному использованию природных ресурсов и переходу к «зеленой» экономике.

Правительство Узбекистана активно работает над созданием правовой и институциональной базы для перехода к зелёной экономике. В 2019 году постановлением Президента была принята «Стратегия по переходу Республики Узбекистан на «зеленую» экономику на период 2019-2030 годов», которая является основным документом, направленный на интегрирование вопросов изменения климата в устойчивое развитие национальной экономики[2].

Анализ и результаты. На заседании фракций и комитетов Законодательной палаты Олий Мажлиса представлен отчет о ходе реализации Государственной программы по реализации Стратегии «Узбекистан-2030» в «Год охраны окружающей среды и «зеленой экономики»» за первое полугодие 2025 года. За отчетный период валовой внутренний продукт вырос на 7,2%. В частности, промышленность выросла на 6,6%, сфера услуг – на 8,2%, строительство – на 10,7%, сельское хозяйство – на 4%. Валовой внутренний продукт достиг 807,9 трлн сумов и увеличился на 137,9 трлн сумов по сравнению с аналогичным периодом прошлого года.

Государственная программа станет важным программным документом и послужит правовой основой для расширения зеленых зон, обеспечения ресурсоэффективности, смягчения и адаптации к последствиям изменения климата, перехода к новой модели экономического роста «зеленого развития». В рамках Государственной программы в первом полугодии 2025 года выполнены следующие работы:

- созданы новые зеленые зоны (парки, аллеи) на площади 300 га;
- проведен экологический аудит на 12 крупных промышленных предприятиях и даны рекомендации по снижению загрязнения;
- введены в эксплуатацию солнечные и ветровые электростанции мощностью 100 МВт;
- внедрено 25 новых программ по развитию экологического образования в школах и университетах.

Экономический анализ и результаты в области зеленой экономики.1.

	Категории направлений	**Выполненные работы**
1.	Рост «зелёных» инвестиций:	В 2024 году объём инвестиций, привлечённых в проекты «зелёной» экономики Узбекистана, составил 1,2 млрд долларов США. Это на 45% больше, чем в 2023 году. В частности, активно росли инвестиции в возобновляемые источники энергии, переработку отходов и водосберегающие технологии.
2.	Энергетические мощности солнечной и ветровой энергии:	Планируется увеличить долю солнечной и ветровой электростанций в общем объеме поставок электроэнергии в стране с 7% в 2023 году до 12% в 2025 году. К июлю 2025 года будет введено в эксплуатацию более 600 МВт общей мощности.
3.	Создание рабочих мест:	Более 15 000 новых рабочих мест было создано благодаря «зелёным» проектам в 2024–2025 годах. В основном в энергетике, сельском хозяйстве и перерабатывающей промышленности.
4.	Налоговые и экономические льготы:	Введены таможенные и налоговые льготы на импорт «зелёных» технологий и экологически чистого оборудования. Это позволило снизить издержки предпринимателей на 20–25%.

Согласно таб 1. в 2024 году объём инвестиций, привлечённых в проекты «зелёной» экономики Узбекистана, составил 1,2 млрд долларов США. Это на 45% больше, чем в 2023 году. В рамках инвестиционной программы освоено 157,5 млн долларов США, а в рамках программы локализации произведено 28 видов продукции на сумму 3 трлн 940,2 млрд сумов. За первое полугодие текущего года освоено иностранных инвестиций на сумму 4,5 млрд долларов США, прогнозные показатели выполнены на 117%.

Выводы и предложения. Глобальные риски в сфере охраны окружающей среды и перехода к «зелёной» экономике включают ряд важных вызовов, которые оказывают существенное влияние на устойчивое развитие планеты и общества. Основные глобальные риски из них:

1. Изменение климата: Увеличение температуры, экстремальные погодные явления (засухи, наводнения, ураганы) приводят к деградации экосистем, сокращению биологического разнообразия и негативно влияют на экономику и здоровье населения.

2. Утрата биоразнообразия: Массовое исчезновение видов, разрушение природных местообитаний снижают способность экосистем функционировать и адаптироваться, что в свою очередь угрожает продовольственной безопасности и устойчивости природных ресурсов.

3. Истощение природных ресурсов: Использование не возобновляемых и возобновляемых ресурсов без должного управления ведёт к их исчерпанию, что негативно сказывается на долгосрочном экономическом развитии.

4. Загрязнение окружающей среды: Воздействие токсичных выбросов, пластикового загрязнения, химикатов и отходов опасно для здоровья человека и экосистем.

5. Неравномерный переход к зелёной экономике: Разрыв между развитыми и развивающимися странами в доступе к технологиям, финансированию и инфраструктуре для «зелёного» развития создаёт риски социального и экономического неравенства.

6. Технологические и социальные риски: Внедрение новых «зелёных» технологий может вызывать проблемы с безопасностью, потерей рабочих мест в традиционных отраслях и сопротивлением общества при отсутствии комплексных программ переквалификации и поддержки.

7. Финансовые риски: Недостаточное инвестирование в экологические проекты, волатильность на рынках «зелёных» технологий и несогласованность международных политик могут замедлить переход к устойчивой экономике.

По нашему мнению необходимы дальнейшие усилия для смягчения этих рисков необходимо международное сотрудничество, интеграция экологических требований в стратегическое планирование, стимулирование инноваций и развитие «зелёной» инфраструктуры.

Принятые на основе Государственной программы законы и постановления создали современные правовые механизмы достижения экологической устойчивости, что способствует снижению глобальных рисков на окружающую среду. Однако в реализации документов сохраняются некоторые проблемы, в частности, система контроля, нехватка квалифицированных кадров, недостатки в финансовом обеспечении.

Для полной и эффективной реализации законодательства о «зелёной» экономике необходимо его совершенствование с учётом международного опыта. Участие в международных конвенциях и соглашениях по охране окружающей среды, таких Рамочная конвенция ООН об изменениях климата.

Таким образом, политика зеленой экономики в Узбекистане представляет стратегический курс на устойчивое развитие, направленный на сокращение негативного воздействия на окружающую среду и повышение качества жизни граждан.

Список использованной литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 30.01.2025 г. № УП-16 «О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан — 2030» в «Год охраны окружающей среды и «зеленой экономики».

2. Постановление Президента Республики Узбекистан,

от 04.10.2019 г. № ПП-4477 «Об утверждении Стратегии по переходу Республики Узбекистан на «зеленую» экономику на период 2019 — 2030 годов».

3. Турсунов И. Э., Хамроев Г. С. ПЕРСПЕКТИВЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНА // Мировая наука. 2024. №2 (83). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/perspektivy-innovatsionnogo-razvitiya-regionov-respubliki-uzbekistana.

Qodir Asadovich JO‘RAYEV,
siyosiy fanlar doktori, JIDU professori

SUN’IY INTELLEKT ORQALI YARATILGAN ASARLAR: MUALLIFLIK HUQUQI HIMOYA QILINADIMI?

► ***Annotatsiya:*** *Maqolada sun’iy intellektning (SI) ilmiy faoliyatda qo‘llanilishi va mualliflik huquqi bilan bog‘liq masalalar yoritilgan. Xalqaro tajribada mualliflik huquqi faqat insonga tegishli bo‘lib, SI ijodkor sifatida tan olinmaydi. AQSH, Yevropa Ittifoqi va Hindistondagi sud pretsedentlari misolida SI yordamida yaratilgan asarlar inson hissasi mavjud bo‘lgandagina himoya qilinishi ta’kidlanadi. O‘zbekistonda esa qonunchilikda bunday asarlarning maqomi belgilanmagan. Muallif milliy qonunchilikka qo‘shimchalar kiritish, akademik standartlar va “SIdan foydalanish qoidalari”ni ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *Sun’iy intellekt, mualliflik huquqi, ilmiy ijod, qonunchilik, akademik standartlar, xalqaro tajriba.*

► ***Аннотация:*** *В статье рассматривается использование искусственного интеллекта (ИИ) в научной деятельности и связанные с этим вопросы авторского права. Международный опыт показывает, что авторское право признаётся только за человеком, а ИИ не может считаться творцом. На примере судебных прецедентов США, Европейского Союза и Индии подчеркивается, что произведения, созданные с помощью ИИ, могут быть защищены лишь при наличии человеческого вклада. В Узбекистане правовой статус таких произведений пока не определён. Автор обосновывает необходимость внесения дополнений в национальное законодательство, внедрения академических стандартов и разработки «Правил использования ИИ».*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, авторское право, научное творчество, законодательство, академические стандарты, международный опыт.*

► ***Abstract:*** *The article examines the use of artificial intelligence (AI) in scientific work and its implications for copyright law. International practice confirms that copyright belongs only to humans, and AI cannot be recognized as an author. Court precedents in the United States, the European Union, and India highlight that AI-assisted works are protected only if human contribution is evident. In Uzbekistan, the legal status of such works remains undefined. The author argues for updating national legislation, introducing academic standards, and developing "Rules for the Use of AI" in research.*

Keywords: *Artificial intelligence, copyright, scientific creativity, legislation, academic standards, international practice.*

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari turli sohalarda jadal rivojlanib, fan, ta’lim, san’at va ishlab chiqarish jarayonlariga kirib keldi. Xususan, ilmiy tadqiqotlar sohasida ham SIdan maqolalar, ma’ruzalar, dissertatsiya va monografiyalar tayyorlashda unumli foydalanilmoqda. Bugungi kunda ko‘plab tadqiqotchilar SIni yordamchi vosita sifatida qo‘llab, undan ma’lumotlar yig‘ish, matnni tahrir qilish, xatolarni tuzatish, jadval va diagrammalar tuzish ishlarida samarali foydalanishmoqda.

Biroq ilmiy ishlarni bajarishda SIdan faqat yordamchi vosita sifatida emas, balki muallif sifatida foydalanayotgan tadqiqotchilar ham yo‘q emas. Boshqacha aytganda, ilmiy ishni (yoki uning alohida boblarini) tadqiqotchi o‘rniga SI bajarib bermoqda.

Shu bois, o‘ta muhim bir savol o‘rtaga chiqmoqda: SI orqali bajarilgan ilmiy ishning muallifi kim? Agar ilmiy ishni (to‘liq yoki qisman) SI yaratgan bo‘lsa, uning mualliflik huquqi tadqiqotchiga tegishlimi yoki SIgami?

Fikrimizcha, ushbu masala bugungi kunda nafaqat olim va tadqiqotchilar, balki ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan barcha ilm va ijod ahli oldida ko‘ndalang turgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu o‘rinda mualliflik huquqi nazariyasiga murojaat qilamiz. Ushbu nazariyaga ko‘ra, ilmiy yoki ijodiy asar

– bu inson faoliyati mahsuli bo‘lishi shart. «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida (2006-y.) muallif — “o‘z ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs”[1] ekani alohida qayd etilgan. Demak, mualliflik huquqi subyekti sifatida faqat jismoniy shaxs, ya’ni inson tan olinadi.

Xorijiy mamlakatlarda ham xuddi shu yondashuvga amal qilinadi. Jumladan, Buyuk Britaniya, AQSH va YEI mamlakatlarida inson ijodiy faoliyati mahsuli bo‘lmagan asarlarga mualliflik huquqi berilmasligi belgilab qo‘yilgan.

Demak, nazariy-huquqiy jihatdan olib qaraganda SI «ijodkor» sifatida huquq subyekti emas. U aniq algoritm va muayyan bazaga kiritilgan data, ya’ni ma’lumotlar asosida ishlaydi, mustaqil fikrlash yoki ijod qilish qobiliyatiga ega emas. Shu sababli, SI yaratgan asarlar qonunchilikda ko‘pincha «public domain», ya’ni ommaviy mulk sifatida qaraladi.

Bugungi kunda SI rivojlangan sayin, jahon mamlakatlarida uni ilmiy tadqiqotlarda qo‘llash orqasidan turli bahs-munozaralar paydo bo‘lmoqda. Jahon amaliyotida bu borada turli pretsedentlar ham yuzaga chiqmoqda. Masalan, 2025-yil mart oyida AQSH Federal apellyatsiya sudi “A Recent Entrance to Paradise” asariga mualliflik huquqini rad etdi. To‘liq SI yordamida yaratilgani uchun sud mazkur asarni «inson ijodiy faoliyati mahsuli emas»[2] deb topdi.

Boshqa bir misol, Yevropa Ittifoqi intellektual mulk agentligining (EUIPO) 2023 yilda bergan tavsiyalarida SI ishtirokida yaratilgan asarlar faqat insonning ijodiy hissasi aniq bo‘lgan taqdirdagina himoyalanishi mumkinligi qayd etilgan[3].

Hindistonda esa 2022-yilda sud SI yordamida yaratilgan rasmga mualliflik huquqini rad etdi va asarni yaratishda inson hissasi mavjud bo‘lsagina, uning huquqi e’tirof etilishi mumkinligini qayd etdi[4].

Yuqoridagi misollardan ham ko‘rinadiki, aksariyat jahon mamlakatlarida bu borada umumiy yondashuv mavjud bo‘lib, mualliflik huquqining faqat insonga tegishliligi tan olinadi, SI esa faqat yordamchi vosita sifatida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunida SI ishtirokida yaratilgan asarlar haqida aniq normalar belgilanmagan. Bu huquqiy bo‘shliq kelgusida qator amaliy muammolarga olib kelishi mumkin. Jumladan, dissertatsi-

ya yoki ilmiy maqolalarda SI yordamida yaratilgan matnning mualliflik mas'uliyati noaniqligicha qolayotgani ilmiy asarlarning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qolaversa, bunday asarlarni plagiat sifatida baholash-baholamaslikda ham turli bahslarni keltirib chiqaradi.

Shu bois, ushbu sohadagi milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish, sohaga oid amaldagi qonunlarimizga tegishli to'ldirishlar kiritish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunida SI ishtirokida yaratilgan asarning huquqiy maqomini aniq belgilashga qaratilgan normalar kiritish kerak. Shuningdek, muallifning SIdan foydalanganligi haqida ochiq ma'lumot berishini majburiy talab sifatida belgilash ham davr taqozosi hisoblanadi.

Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalarida SIdan foydalanish bo'yicha akademik standartlarni joriy qilish; ilmiy tadqiqot institutlarida dissertatsiyalar uchun "SIdan foydalanish qoidalari"ni ishlab chiqish; ilmiy jurnallarga maqolalarni qabul qilishda SI yordamida tayyorlangan qismlar ko'rsatilishi bo'yicha majburiy talab kiritish ham dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash muhimki, SI fan va ijod ahli uchun katta imkoniyatlar ochib bermoqda. Ammo huquqiy masalalar hal etilmas ekan, u qator muammolarni keltirib chiqarishi ham hech gap emas. Bu borada mualliflik huquqining aniq belgilab qo'yilishi, akademik standartlar hamda SIdan foydalanish etikasining joriy etilishi bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Q.: "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.. 3-modda // https://lex.uz/docs/-1022944

2. D.C. Circuit Affirms Denial of Copyright Protection for AI-Generated Works // https://www.mcneeslaw.com/ai-generated-works-copyright-denied/?utm_source=chatgpt.com

3. Q.: AI and Intellectual Property (Pt. 1): Safeguarding Creations in the Digital Age // https://intellectual-property-helpdesk.ec.europa.eu/news-events/news/ai-and-intellectual-property-pt-1-safeguarding-creations-digital-age-2023-10-10_en?utm_source=chatgpt.com

4. Q.: Generative AI & Copyright Law in India: Who Owns Ma-

chine-Made Works? // https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=e-c2ab57f-9934-45c6-9bce-fd7e6c04db71&utm_source=chatgpt.com

To‘lqin Payziyevich KARIMOV,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi Fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishini o‘rganish bo‘limi yetakchi mutaxassisi, siyosiy fanlar doktori (PhD)

MUDOFAA VA XAVFSIZLIK SOHASIDAGI PARLAMENT NAZORATIDA JAMOAT TASHKILOTLARI HAMKORLIGI

Davlatning va fuqarolik jamiyati institutlarining yanada jadal va har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarini birlashtiruvchi zamonaviy, demokratik hamda ochiq-oshkora maydon sifatida ularning yuqori darajadagi tizimli va samarali muloqoti yo‘lga qo‘yiladi [1].
Shavkat Mirziyoyev

► ***Annotatsiya:*** *Maqola O‘zbekistonda mudofaa va xavfsizlik sohasida parlament nazoratini kuchaytirish hamda uni jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirish masalalarini tahlil qiladi. Jamoat tashkilotlarining monitoring va tahlil, jamoat eshituvlari, OAV orqali ta’sir ko‘rsatish, ehtiyoj va muammolarni yetkazish, shaffoflikni ta’minlash kabi yo‘nalishlardagi ishtiroki yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *parlament nazorati; jamoat tashkilotlari; fuqarolik jamiyati; mudofaa; xavfsizlik; shaffoflik; hamkorlik; demokratiya; jamoatchilik kengashi.*

► ***Аннотация:*** *В статье рассматривается усиление парламентского контроля в сфере обороны и безопасности Узбекистана и его реализация во взаимодействии с общественными организациями. Анализируются ключевые направления участия НПО: мониторинг и аналитика, общественные слушания, влияние через СМИ, донесение потребностей и проблем, обеспечение прозрачности.*

Ключевые слова: *парламентский контроль; общественные организации; гражданское общество; оборона; безопасность; прозрачность; сотрудничество; демократия; общественный совет.*

► ***Abstract:*** *The article examines strengthening parliamentary over-*

sight in Uzbekistan's defense and security sector and implementing it in cooperation with civil society organizations. It analyzes CSO participation in monitoring and analysis, public hearings, media engagement, conveying needs and problems, and ensuring transparency.

Keywords: *parliamentary oversight; civil society organizations; civil society; defense; security; transparency; cooperation; democracy; public council.*

Jahon hamjamiyatida demokratik tamoyillarning qaror topishi, fuqarolik jamiyati institutlarining mustahkamlanishi davlat boshqaruvining samaradorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, mudofaa va xavfsizlik sohasi mamlakat suvereniteti, hududiy yaxlitligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlashda ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi.

Hozirgi global jarayonlar zamonaviy davlatlarning mudofaa va xavfsizlik sohasidagi siyosati hamda nazorat mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Milliy xavfsizlik masalasi faqat harbiy sohadagi imkoniyatlar bilan cheklanib qolmay, balki huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'nalishlarni ham qamrab oladi. Shu boisdan, bu sohada parlament nazoratining kuchli tizimini shakllantirish mamlakatning demokratik taraqqiyoti va barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Xavfsizlik kengashi yig'ilishlaridan biridagi (10 yanvar 2018 yil) nutqida ayni masalaga e'tibor qaratib, "Oliy Majlis Mudofaa doktrinasini amalga oshirish, bu masala bo'yicha muntazam ravishda parlament nazoratini olib borishi maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, deputat va senatorlarimiz mudofaa va harbiy qurilish masalalariga befarq bo'lmasdan, bu borada o'z faoliyatlarini kuchaytirishlari, har bir chorakda ikki marta Oliy Majlis palatalarining yig'ilishlarida ushbu yo'nalishdagi ishlarning ahvolini muhokama qilib borsalar, ayni muddao bo'lardi" [2], deb alohida ta'kidlagan edi.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonlarida parlamentning roli tobora ortayotgani kuzatilmoqda. Mudofaa va xavfsizlik sohasidagi parlament

nazorati esa mazkur jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu nazoratning samaradorligini ta’minlashda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi ishtiroki kengayib bormoqda. Bu jarayonda parlamentning nazorat funksiyasini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), ommaviy axborot vositalari, ekspertlar hamda jamoatchilikning ishtiroki qonunchilik va ijro hokimiyati o‘rtasidagi hisobdorlikni kuchaytiradi.

Mudofaa va xavfsizlik sohasi mamlakatning milliy manfaatlari va strategik ustuvor yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liq. XXI asrda turli tahdidlar – terrorizm, ekstremizm, axborot urushi, kiberxavfsizlik muammolari, ekologik inqiroz va transmilliy jinoyatchilik xavfsizlik masalasini yanada murakkablashtirmoqda.

Bunday sharoitda parlament nazoratining ahamiyati tobora ortadi. Biroq parlamentning o‘zi bu sohadagi barcha muammolarni to‘liq qamrab olishi qiyin. Shuning uchun jamoat tashkilotlari ishtirokini ta’minlash, ularning ekspert salohiyatidan foydalanish va keng jamoatchilikning xavfsizlikka oid fikr-mulohazalarini parlament faoliyatiga integratsiya qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mudofaa va xavfsizlik sohasida parlament nazoratini amalga oshirish faqat deputatlar faoliyati bilan chegaralanib qolmasligi lozim. Chunki xavfsizlik sohasi davlat va jamiyatning barcha qatlamlariga daxldor. Shu boisdan, jamoat tashkilotlari vakillari ushbu jarayonda ishtirok etishi:

- aholi orasida huquqiy ong va siyosiy madaniyatni oshirish,
- davlat organlarining ochiqligi va hisobdorligini ta’minlash,
- xavfsizlik sohasidagi dolzarb muammolarni jamoatchilik muhokamasiga olib chiqish,
- davlat organlariga xos bo‘lgan byurokratik to‘siqlarni kamaytirish kabi muhim vazifalarni bajaradi.

Jamoat tashkilotlari nafaqat davlat va jamiyat o‘rtasida “ko‘prik” vazifasini bajaradi, balki xavfsizlik sohasidagi siyosatning samaradorligi, qonunlar va qarorlarning hayotiyligi ham aynan ularning faol ishtiroki bilan ta’minlanadi Hozirgi global xavfsiz-

lik tahdidlari (terrorizm, ekstremizm, kiberxavfsizlik, ekologik xatarlar) sharoitida parlament nazorati tizimini kuchaytirishda jamoat tashkilotlarining ishtiroki yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Parlament nazoratining huquqiy va institutsional asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, parlament davlat hokimiyatining oliy vakillik organi sifatida ijro hokimiyati faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bu nazoratning huquqiy asoslari qator qonunlarda o‘z ifodasini topgan. Jumladan, “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi Qonun (2016) [3], “Jamoat nazorati to‘g‘risida”gi Qonun (2018) [4] va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar parlament va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi.

Parlament nazoratining shakllari quyidagilardan iborat:

- deputatlik so‘rovlari orqali ma’lumot olish va javob talab qilish;
- hukumat hisobotlarini eshitish va muhokama qilish;
- davlat dasturlari va qonun ijrosini o‘rganish;
- parlament eshituvlari va davra suhbatlari tashkil qilish;
- ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilik fikrini o‘rganish.

“Jamoat nazorati to‘g‘risida”gi Qonun jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlariga davlat organlari faoliyati ustidan nazorat qilish imkoniyatini berdi. Bu orqali jamoat tashkilotlari davlat va jamiyat xavfsizligini ta’minlashda parlament nazoratiga ko‘maklashadi. Shuningdek, jamoat tashkilotlari parlament nazoratida turli yo‘nalishlarda ishtirok etadi. Ular qonun ijrosi ustidan monitoring olib borish, aholi manfaatlarini parlamentga yetkazish, xavfsizlik sohasidagi muammolar yuzasidan tahliliy hisobotlar tayyorlash va jamoatchilik muhokamalarini tashkil etishda muhim vazifalarni bajaradi

Parlament nazoratini amalga oshirilishidagi hamkorlikda jamoat tashkilotlari quyidagi yo‘nalishlarda ishtirok etadi:

1. Monitoring va tahlil faoliyati – xavfsizlik sohasida qabul qilingan qonunlar ijrosini o‘rganish, qonunchilik tashabbuslariga taklif kiritish.

2. Jamoat eshituvlari – parlament qo‘mitalari tashabbusi bilan ochiq muhokamalar tashkil qilish.

3. Ommaviy axborot vositalari orqali ta’sir – xavfsizlikka oid muammolarni yoritish va ijtimoiy fikrni shakllantirish.

4. Ehtiyoj va muammolarni yetkazish – aholi qatlamlarining xavfsizlikka oid muammolarini parlamentga yetkazish.

5. Shaffoflikni ta’minlash – korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Demokratik mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, parlament nazoratida jamoat tashkilotlari ishtirokini ta’minlash davlat boshqaruvining samaradorligini oshiradi:

- AQSHda Kongress huzurida mustaqil tahliliy markazlar va jamoat kengashlari ishlaydi.

- Yevroparlament xavfsizlik siyosatida NNTlar va ekspertlar bilan hamkorlik qiladi.

- Janubiy Koreyada kiberxavfsizlik sohasida jamoat tashkilotlari parlament nazorati jarayonlarida ekspert sifatida ishtirok etadi.

Bu tajribalar O‘zbekiston uchun ham ahamiyatli bo‘lib, parlament nazoratida jamoat tashkilotlari ishtirokini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Jamoat tashkilotlarining parlament nazoratidagi ishtiroki samaradorligini oshirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

1. Parlament qo‘mitalari huzurida doimiy jamoatchilik kengashlarini tashkil qilish va ularni qonun loyihalarini muhokama qilish jarayonlariga jalb etish.

2. Jamoat tashkilotlari ekspert salohiyatidan foydalanish maqsadida davlat grantlari, tender va subsidiya tizimini keng joriy etish.

3.Parlament eshituvlari, qo‘mita majlislari va qonun muhokamalarida NNT vakillari ishtirokini ta’minlash.

4. OAV va internet platformalarida “Parlament nazorati — jamoatchilik ishtirokida” kabi ommaviy loyihalarni amalga oshirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, mudofaa va xavfsizlik sohasida parlament nazoratini kuchaytirish va uni jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirish O‘zbekistonda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning muhim yo‘nalishlari-

dan biridir. Jamoat tashkilotlari ishtirokida parlament nazorati nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki davlat organlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va fuqarolar ishonchini ta’minlaydi. Shu bois, mazkur sohadagi hamkorlikni izchil davom ettirish mamlakatning milliy xavfsizligi va barqaror rivojlanishi uchun muhim kafolat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2023. -93-94 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Хавфсизлик кенгаши йиғилишидаги (10 январь 2018 йил) нутқидан). https://www.gazeta.uz/uz/2018/01/11/xavfsizlik-kengashi/

3. “Парламент назорати тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. https://lex.uz/docs/2929477

4. “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. https://lex.uz/docs/3679092

Shafoat Fayzullayevna NURULLAYEVA,
Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori o‘rinbosari

GLOBAL RAQAMLI TENDENSIYALAR VA JAMIYATGA TAHDIDLAR

► ***Annotatsiya:*** *Maqolada globallashuv va raqamlashtirish jarayonida fuqarolik jamiyatining o‘rni hamda demokratik taraqqiyotdagi ahamiyati yoritilgan. Internet va sun’iy intellektning keng tarqalishi jamiyat hayotida yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga dezinformatsiya, raqamli tengsizlik va kiberxavfsizlik kabi muammolarni ham yuzaga keltirayotgani tahlil qilinadi. Shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” va “Sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasi” doirasida olib borilayotgan islohotlar, IT sohasidagi yutuqlar va xalqaro hamkorlikning ahamiyati ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *fuqarolik jamiyati; raqamlashtirish; sun’iy intellekt; kiberxavfsizlik; dezinformatsiya; Raqamli O‘zbekiston – 2030; demokratik taraqqiyot.*

► ***Аннотация:*** *В статье рассматривается роль гражданского общества в условиях глобализации информационного пространства и цифровой трансформации. Анализируются как возможности, создаваемые интернетом и искусственным интеллектом, так и возникающие угрозы – дезинформация, цифровое неравенство и киберугрозы. Отмечены реформы в рамках стратегий «Цифровой Узбекистан – 2030» и развития искусственного интеллекта, успехи IT-сектора и значение международного сотрудничества для обеспечения устойчивого развития и демократических преобразований.*

Ключевые слова: *гражданское общество; цифровизация; искусственный интеллект; кибербезопасность; дезинформация; Цифровой Узбекистан – 2030; демократическое развитие.*

► ***Abstract:*** *The article examines the role of civil society in the context of globalization and digital transformation, highlighting its importance for democratic progress. It analyzes both the opportunities created by the spread of the Internet and artificial intelligence, and the challenges posed by disinformation, digital inequality, and cyber threats. Reforms under the “Digital Uzbekistan – 2030” and AI development strategies, achievements in the IT sector, and the relevance of international cooperation are emphasized as key factors in ensuring sustainable development and democratic governance.*

Keywords: *civil society; digitalization; artificial intelligence; cybersecurity; disinformation; Digital Uzbekistan – 2030; democratic development.*

Avvalo ta’kidlash lozimki, **zamonaviy raqamlashtirish jarayonlari** davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy-iqtisodiy hamda institutsional rivojlanishida **muhim o‘rin tutmoqda**. Bugungi kunda jahon hamjamiyati raqamli transformatsiya va texnologik taraqqiyotning misli ko‘rilmagan bosqichini boshdan kechirmoqda.

Internet va **onlayn xizmatlarining** davlat va jamiyat hayotining barcha sohalariga **faol integratsiyasi** nafaqat iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatmoqda, balki insonlarning **turmush tarzini**, **kundalik odatlari** va **xulq-atvor modellarini** ham tubdan o‘zgartirmoqda. Bu, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli xizmatlar va ko‘ngilochar dasturlarning faol iste’molchilari bo‘lgan **yoshlar** auditoriyasiga ko‘proq taalluqlidir.

Mutaxassislarning baholashicha, dunyoda **aholining hayot faoliyatini raqamlashtirish** ma’lum bir «**burilish nuqtasi**»ga yetib kelgan. Ya’ni, global miqyosda internet foydalanuvchilari soni **5,6** mlrd kishidan oshib, dunyo aholisining **68**% tashkil etmoqda. Shu bilan birga, qayd etish lozimki, dunyoda internet foydalanuvchilari sonining o‘sish sur’atlari pasayishi tendensiyasi ham kuzatilmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, **2020** yilda yillik o‘sish qariyb **10**% tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda bu ko‘rsatkich **2,7**% oshmayapti.

Markaziy Osiyoda esa Internetning aholi orasida tarqalish darajasi qariyib **82**% ga teng.

O‘zbekistonda internetga ulangan aholi qamrovi esa **89**% bo‘lib, bu jami aholining **32,7** mln.ni tashkil etadi.

Internetdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmaganlar soni **4,03** million kishi, yoki mamlakat aholisining **11**% tashkil etmoqda.

Shu bilan birga, raqamlashtirishning yuqori darajasi davlat va fuqarolik jamiyati institutlari oldiga **yangi vazifalarni** qo‘ymoqda – **eng avvalo**, onlayn makonda tobora ko‘proq vaqt sarflayotgan auditoriya bilan hamkorlik strategiyalarini ushbu sohadagi yangi tendensiyalarga moslashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Xususan,

prognozlarga ko‘ra, **2025** yilda bu ko‘rsatkich haftasiga o‘rtacha **30** soatdan ortiq bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, mutaxassislarning fikricha, **ma’lumot va xizmatlarni mobil formatda qabul qilishga** alohida e’tibor qaratish zarur. Bugungi kunda dunyo aholisining **70%** ortig‘i mobil telefonlardan, **96%** ga yaqini esa onlayn-ilovalardan faol ravishda foydalanmoqda. Mobil qurilmalar davlat xizmatlari, media vositalar va ta’lim platformalariga kirishning asosiy kanaliga aylanmoqda, bu esa kontent formati va kommunikatsiya usullarini belgilab bermoqda.

Uchinchidan, mutaxassislar ta’kidlayotgan alohida tendensiya, bu – **sun’iy intellekt xizmatlari** va **ijtimoiy tarmoqlarning** an’anaviy OAV hamda qidiruv tizimlari bilan raqobatining ortib borishidir. Masalan, **ChatGPT** (SI) platformasiga tashriflar soni har chorakda **5** mlrddan oshmoqda. Bu uni dunyodagi eng ommalashgan axborot servislaridan biriga aylantirmoqda. So‘nggi vaqtlarda ko‘plab foydalanuvchilar ma’lumotni Gugldan emas, balki ijtimoiy tarmoqlar va sun’iy intellekt servislaridan izlamoqdalar.

Shu tariqa, biz quyidagilarni birlashtiruvchi yangi global raqamli ekotizimning shakllanishini kuzatmoqdamiz:

– ma’lumot izlash,

– savdo,

– media-ko‘ngilochar sohalar,

– sun’iy intellekt vositalari.

Bu esa ma’lumotni **olish**, **qabul qilish** va **baholash** usullari bilan bog‘liq fundamental o‘zgarishlardan dalolat bermoqda.

Biroq, raqamlashtirish – taraqqiyotning kuchli harakatlantiruvchi omili bo‘lsa-da, u jiddiy chaqiriqlarni, tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda.

Shu bois, mas’ul tuzilmalar har qanday jamiyatda barqarorlikni saqlash uchun mutaxassislar va ekspertlar tomonidan ta’kidlanayotgan bir qator umumjahon miqyosidagi muammoli tendensiyalarni hisobga olishlari zarur.

Avvalo gap **raqamli tengsizlik** haqida ketmoqda, zero, bu – ko‘proq iqtisodiy manfaatlarga ta’sir ko‘rsatadi. Shunga e’tibor qaratish lozimki, internetning keng qamroviga qaramay, dunyoda **2,5**

mlrdan ortiq inson hanuz global tarmoqdan foydalanish imkoniyatiga ega emas.

Bu esa, ular istiqomat qilayotgan mamlakatlarda ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni kuchaytiradi, mintaqalarning raqobatbardoshligini pasaytiradi va fuqarolarning muhim xizmatlardan foydalanish imkoniyatini cheklaydi.

Ikkinchidan, **dezinformatsiyaning** tarqalishi kuchaymoqda. **Jahon iqtisodiy forumi** ekspertlarining ma'lumotlariga ko'ra, aynan **dezinformatsiya** yaqin kelajakdagi asosiy tahdidlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. **Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan kontent, axborotning ishonchliligini tekshirishni qiyinlashtirmoqda**, bu esa rasmiy institutlar va OAVga bo'lgan ishonchni susaytiradi.

Uchinchidan, **siyosiy-mafkuraviy kelishmovchiliklar** va **radikallashuvning o'sishi kuzatilmoqda**. Ijtimoiy tarmoqlar algoritmlari foydalanuvchilarga faqat ularning qarashlariga mos keladigan kontentni ko'rsatib, «**axborot pufaklari**»ni shakllantirmoqda. Bu tendensiya muloqotga to'sqinlik qiladi, jamiyatdagi ziddiyatlarni kuchaytiradi hamda **manipulyatsiyalar**, **radikal qarashlar** va **toqatsizlikni targ'ib qilish** uchun zamin yaratadi.

To'rtinchidan, **kiberjinoyatchilik o'smoqda**. Davlat organlari, ta'lim muassasalari va biznes faoliyatining jadal tarzda raqamlashtirilishi ularning kibertahdidlarga qarshi kurashish borsidagi pozitsiyalariga salbiy ta'sir qilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy injeneriya asosidagi hujumlar sonining ko'payishi, shuningdek, sun'iy intellektdan foydalanib *soxta ma'lumotlar*, *ovozlarni immitatsiya qilish* va *ma'lumotlarni o'g'irlash* holatlari alohida xavotir uyg'otmoqda.

Shu bilan birga, kiberxavfsizlik yo'nalishi bo'yicha zarur mutaxassislarning global yetishmovchiligi ham saqlanib qolmoqda – hozir dunyoda ushbu soha bo'yicha taxminan **4,5** million bo'sh ish o'rinlari mavjud, 2030-yilga borib esa bu ko'rsatgich **85** millionga yetishi taxmin qilinmoqda.

Dunyo bo'yicha raqamli trendlar katta imkoniyatlar bilan bir qatorda jiddiy chaqiriqlarni ham yuzaga keltirmoqda. Raqamli transformatsiya sohasida keng ko'lamli islohotlarni faol amalga oshirayotgan O'zbekiston uchun mazkur jarayonlar proaktiv harakatlarga o'tish zaruratini tug'dirmoqda.

Xususan, 2020-yil 5-oktyabrda Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan **“Raqamli O‘zbekiston – 2030”** milliy strategiyasi doirasida, elektron davlat xizmatlarini kengaytirish, idoralar o‘rtasidagi aloqalarni integratsiya qilish, raqamli infratuzilmani takomillashtirish, shuningdek, davlat boshqaruvi jarayonlariga katta hajmli ma’lumotlar bazasi (Big Data texnologiyasi) va sun’iy intellektni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunga kelib mamlakatda **760 ta** davlat xizmatlari raqamlashtirilgan. O‘tgan 2024-yilda mazkur raqamli xizmatlardan **10** million aholi foydalangan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi Farmoni asosida “**Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi**” ham qabul qilindi.

Mazkur strategiya doirasida ushbu sohada zarur infrastrukturani rivojlantirishga **50** million AQSH dollari miqdorida mablag‘ ajratildi. Shuningdek, Milliy sun’iy intellekt modelini yaratish hamda bir million mutaxassis tayyorlash vazifasi qo‘yildi.

Mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish borasida yaratilgan keng imkoniyatlar tufayli ushbu sohada sezilarli natijalarga erishilmoqda.

Xususan, IT-park rezidentlari soni **2800** dan oshdi, xorijiy kompaniyalar soni esa **752** ga yetdi. So‘nggi besh yil ichida sohada eksport hajmi **170** million dollardan deyarli bir milliard dollargacha ko‘paydi.

Shu bilan birga, zamonaviy raqamli tahdidlarni minimallashtirish hamda ularga o‘z vaqtida javob qaytarish uchun **quyidagilar juda muhimdir**:

– ushbu sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va kiberxavflar bo‘yicha o‘zaro axborot almashuvini yo‘lga qo‘yish;

– sun’iy intellektning imkoniyati va salohiyatidan kiberxavflardan himoyalanishda keng foydalanish;

– mamlakatning axborot siyosatini dezinformatsiya tarqalishi, ijtimoiy tarmoqlardagi va ba’zan sun’iy intellekt xizmatlari bilan bog‘liq zararli axborot va tahdidlarni neytrallashtirish vazifalariga moslashtirish hamda fuqarolarni ishonchli kontent bilan ta’minlash;

– raqamli tengsizlikni qisqartirish ustida ishlash.

Xulosa qilib aytganda, faqat o‘z vaqtida va o‘zaro hamkorlikdagi muvofiqlashtirilgan qadamlar raqamli davr xavf-xatarlarini samarali neytrallashtirishga yordam beradi hamda uning salohiyatidan aholi, jamiyat va davlatning rivojlanishi yo‘lida foydalanishni ta’minlaydi.

Ilyos Normamatovich ISLOMOV,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti professori, t.f.d.

DEMOKRATIK JARAYONLARDA FUQAROLIK JAMIYATINING SIYOSIY XAVFSIZLIKKA TA‘SIRI

► ***Annotatsiya:*** *Maqolada fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatchilik nazorati, siyosiy ijtimoiylashuv hamda media va axborot kampaniyalari orqali siyosiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli yoritiladi. Tadqiqot fuqarolik jamiyatining “davlat–jamiyat” o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajarib, siyosiy xavfsizlikni mustahkamlashdagi ahamiyatini ilmiy asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *fuqarolik jamiyati, siyosiy xavfsizlik, demokratik qadriyatlar, jamoatchilik nazorati, raqamli platforma, ijtimoiy tarmoq, nodavlat tashkilotlar, siyosiy barqarorlik.*

► ***Аннотация:*** *В статье раскрывается роль институтов гражданского общества в обеспечении политической стабильности через общественный контроль, политическую социализацию, медиа и информационные кампании. Исследование обосновывает, что, выступая «мостом» между государством и обществом, гражданское общество играет ключевую роль в укреплении политической безопасности.*

Ключевые слова: *гражданское общество, политическая безопасность, демократические ценности, общественный контроль, цифровая платформа, социальная сеть, неправительственные организации, политическая стабильность.*

► ***Abstract:*** *The article examines how civil society institutions contribute to political stability through public oversight, political socialization, and media/information campaigns. The study argues that by serving as a bridge between the state and society, civil society plays a pivotal role in strengthening political security.*

Keywords: *civil society, political security, democratic values, public oversight, digital platform, social network, non-governmental organizations, political stability.*

Dunyo siyosiy jarayonlarida kuzatilayotgan beqarorliklar, geosiyosiy muvozanatning buzilishi, radikal va ekstremistik g‘oyalarning keng tarqalishi har bir davlatdan siyosiy xavfsizlikni mustahkam institutsional kafolatlar asosida ta’minlashni talab qilmoqda. Bu jarayonda davlat bilan bir qatorda, jamiyatning faol subyektlari sifatida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Demokratik tamoyillarga asoslangan davlat boshqaruvi tizimida fuqarolik jamiyati nafaqat ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisi, balki ***amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish, siyosiy jarayonlarning ochiq-oshkoraligini ta’minlash va siyosiy barqarorlikni mustahkamlash orqali*** muhim institutlar majmui sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuning uchun ham siyosiy xavfsizlikni faqat davlat emas, balki fuqarolik jamiyatining barcha tuzilmalari bilan hamkorlikda ta’minlash masalasi dolzarb vazifaga aylangan.

S.V. Xmelevskiy fuqarolik jamiyati siyosiy xavfsizlikni ta’minlashda alohida o‘ringa ega ekanligini ta’kidlab, uning quyidagi jihatlarni ajratib ko‘rsatgan:

- fuqarolar o‘zlarining manfaatlarini ifodalovchi partiyalar, boshqa jamoat tashkilotlari va birlashmalarning faoliyatlarida qatnashadi hamda saylovlar va referendumlar orqali davlat hokimiyati institutlarini shakllantirishda ishtirok etishadi;
- qonunchilik va boshqa tashabbuslarni *(to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki partiyalar, boshqa jamoat tashkilotlari va birlashmalari orqali)* davlat boshqaruvi va hokimiyat organlariga muhokama qilish uchun kiritadi.
- davlat organlari, shuningdek jamoat tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;
- fuqarolar o‘rtasida ijtimoiy kelishuv va birdamlikni ta’minlovchi umumiy qadriyatlar majmuasini shakllantiradi;
- fuqarolarni siyosiy ijtimoiylashtiradi va siyosiy madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi;
- jamoatchilik kayfiyatiga ta’sir ko‘rsatib, eng avvalo, davlat

hokimiyati, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalari vakillariga nisbatan ishonch yoki ishonchsizlikni shakllantiradi;

- fuqarolik jamiyati institutlari yuz berayotgan siyosiy voqealarni keng jamoatchilikka yetkazadi, ularning mohiyatini tushuntiradi va shu orqali ijtimoiy ongda siyosiy an'analar, urf-odatlar hamda ijobiy qarashlarni shakllantiradi.
- siyosiy ehtiyojlar, manfaatlar va talablarni qaror qabul qiluvchi tashkilotlarga aniq bayon etish vazifasini bajaradi [1].

Yuqorida keltirilgan fikrlar, ayniqsa, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi, saylovlar orqali hokimiyatni shakllantirishda qatnashishi, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi, ijtimoiy birdamlik va umumiy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli – bugungi demokratik jamiyatda nihoyatda dolzarb sanaladi. Bunday yondashuvlar fuqarolik jamiyatini nafaqat davlat boshqaruvi tizimiga ta'sir o'tkazuvchi, balki siyosiy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida ko'rishga asos bo'ladi.

Zamonaviy sharoitlar, axborot texnologiyalari va globallashuvning rivojlanishini inobatga olib, fuqarolik jamiyatining siyosiy xavfsizlikni ta'minlashdagi ko'rinishlari sifatida quyidagilarni kiritish mumkin:

- **Ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolarning faolligi va raqamli platformalarda ishtiroki.** Hozirgi davrda internetdan foydalanuvchilar soni yil sayin oshib bormoqda. 2025-yilning yanvar oyi holatida 5,**56** milliard kishi, dunyo aholisining 67,9 %i, jumladan, O'zbekistonda ham 33 mln.dan ortiq abonentlar tarmoq imkoniyatlaridan foydalanilmoqda [2]. Fuqarolar Internet va ijtimoiy tarmoqlar (*masalan, X, Telegram, Facebook*) orqali siyosiy muhokamalarda faol ishtirok etmoqda. Bulardan tashqari, tarmoq orqali Prezident virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalariga, davlat organlari va muassasalariga, shuningdek ularning mansabdor shaxslariga murojaat qilish imkoniyatlari oshdi.

Shuningdek, mamlakatimizda fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining ochiqligi, qabul qilinayotgan qonunlarning hayotiy va samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida yaratilgan "Mening fikrim" veb-portali ham faoliyat

olib bormoqda [3]. Bunda fuqarolar jamoaviy murojaatlar orqali o‘z manfaatlarini ifoda etadi, siyosiy qarorlarga ta’sir o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa siyosiy xavfsizlikni ta’minlovchi muhim omil hisoblangan – **jamiyatdagi talablar yoki noroziliklarni institutsional yo‘l bilan ifodalash imkoniyati** demakdir.

Portal orqali fuqarolar davlat organlari faoliyatiga munosabat bildirishi, taklif va shikoyatlarini yetkazishi mumkin. Bu holat fuqarolik jamiyati institutlari orqali davlat hokimiyati ustidan **jamoatchilik nazorati amalga oshirilishi**ni ta’minlaydi. Buning natijasida hokimiyat organlari faoliyati ochiq, hisobdor va jamoat fikrini inobatga olgan holda yuritiladi. “Mening fikrim” veb-portali – bu fuqarolik jamiyati institutlarining raqamli shakldagi ifodasi bo‘lib, u fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi va siyosiy madaniyatni yuksaltirishi orqali siyosiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

- **Nodavlat tashkilotlar va fuqarolik tashabbuslarining faolligi.** Nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning tashabbuslari siyosiy xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular ekologik, ijtimoiy yoki huquqiy masalalar bo‘yicha faollik ko‘rsatib, davlat siyosatini amalga oshirishga yordam beradi *(masalan, korrupsiyaga qarshi kurash yoki inson huquqlarini himoya qilish va boshqalar)*.

Shuni ta’kidlash kerakki, “2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da [4] nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan yuqori turuvchi tashkilotlarga qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan kiritilgan takliflarning umumiy sonini 2021-yilda 1 000 taga, 2025-yilda 5 000 taga yetkazilishini ta’minlash ko‘zda tutilgan.

- **Fuqarolarning siyosiy xabardorligini oshirish.** Fuqarolik jamiyati ta’lim va media orqali fuqarolarning siyosiy xabardorligini oshirishga xizmat qilib kelmoqda. Bu orqali ular siyosiy jarayonlarni yaxshiroq tushunadi va ularga o‘z munosabatini bildiradi. Masalan, “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi” “Yoshlar ishlari agentligi” va “Yoshlar parlamenti” kabi platformalari orqali fuqarolarimiz, ayniqsa yoshlar, davlat siyosatidan xabardor bo‘lib, turli mavzularda muhokamalarda ishtirok eta boshladi.

- **Xalqaro nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik.** Fuqarolik jamiyati xalqaro tashkilotlar, NTTlar va boshqa davlatlarning jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilib, siyosiy xavfsizlik masalalarida global muammolarga (masalan, iqlim o‘zgarishi, terrorchilik, migratsiya) yechim topishga yordam beradi. Bu siyosiy xavfsizlikni mustahkamlashning muhim shaklidir.

Misol sifatida U-Report loyihasi YUNISEFning O‘zbekistondagi Vakolatxonasining tashabbusi bilan, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, Yoshlar ishlari Agentligi va Yuksalish UMX va boshqa tashkilotlarning qo‘shma tashabbusi asosida amalga oshirilgan [5]. U-Report – bu yoshlarni va hukumatni birlashtiradigan, yoshlar ishtirokini kuchaytiradigan mobil muloqot platformasi. U-Report barcha foydalanuvchilar uchun bepul va anonim bo‘lib, yoshlar, davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqani mustahkamlash va rivojlantirishga mo‘ljallangan. U yoshlarga mamlakatda va o‘z hamjamiyatlarida ro‘y berayotgan islohotlarda ishtirok etish va ular to‘g‘risida o‘z fikrini bildirish, ijobiy o‘zgarishlar bo‘lishi uchun bu jarayonlarga ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi.

- **Ijtimoiy harakatlar va ommaviy aksiyalarni uyushtirish** Fuqarolik jamiyati ijtimoiy harakatlar (masalan, ekologik yoki gender tengligi uchun harakatlar) va ommaviy aksiyalar (namoyishlar, fleshmoblar) orqali siyosiy xavfsizlikka ta’sir qilishi mumkin. Bu davlat siyosatiga fuqarolarning talab va e’tirozlarini yetkazishning samarali usulidir.

- **Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining siyosiy jarayonlarga jalb qilinishi.** Fuqarolik jamiyati institutlari (masalan, qishloq yoki shahar aholisini) siyosiy jarayonlarga jalb qilib, ularning manfaatlarini ifoda etish va mahalliy boshqaruvda ishtirok etishni ta’minlaydi. Bu siyosiy xavfsizlikning mahalliy darajada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Misol uchun O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksida “Saylovga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazishga doir barcha tadbirlarda, shuningdek saylov kuni ovoz berish xonalarida va ovozlarni sanab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga, Qonunchilik palatasi deputatligiga, mahalliy Kengashlar deputatligiga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan kuzatuvchilar

ishtirok etish huquqiga ega”ligi belgilab berilgan [6].

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari siyosiy jarayonlarda qatnashishi mahalliy darajada jamoatchilik nazoratini ta’minlab, fuqarolik jamiyatining ta’sirini kuchaytiradi. Bu esa siyosiy jarayonlarning oshkoraligi va ishonchliligiga hissa qo‘shadi.

▪ **Media va axborot kampaniyalarini tashkil qilish.** Fuqarolik jamiyati mustaqil media va axborot kampaniyalari orqali medialegitimatsiyasini amalga oshiradi. A.Verteshinning fikricha, medialegitimatsiya – jamiyatdagi axborot-siyosiy jarayonlarga siyosiy tizimning munosabati bo‘lib, aholining sifatli jurnalistik siyosiy ma’lumotlarga bo‘lgan ehtiyojini aks ettiruvchi mohiyatdir. U xalqning tarixiy tajribasini to‘plashda hamda uning ijtimoiy-genetik kodini o‘zgartirishda ham ishtirok etadi [7]. Siyosiy institutlar va shakllangan siyosiy munosabatlar legitimligining eng muhim belgilari jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanish va aholining yuqori darajadagi ishonchidan iboratdir. Agarda, ommaviy axborot vositalarining jamiyat va siyosiy hokimiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqa vositasi sifatidagi vazifasini to‘liq bajara olmasa, aholi orasida norozilik kayfiyatining kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin [8].

Shu o‘rinda fuqarolik jamiyati institutlari hisoblangan, mustaqil ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish va siyosiy tizimga ishonchni mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular orqali fuqarolik jamiyati jamoatchilikni xabardor etib, siyosiy barqarorlikka hissa qo‘shadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta’kidlash o‘rinliki, zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va xalqaro hamkorlik sharoitida fuqarolik jamiyati siyosiy xavfsizlikni ta’minlashda muhim institutsional va funksional o‘rin tutadi. Uning faoliyati orqali jamiyatda jamoatchilik nazorati, siyosiy xabardorlik, davlat va jamoatchilik o‘rtasidagi muloqot, hamkorlik va innovatsion yondashuvlar orqali barqarorlik mustahkamlanadi. Bu esa fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki va davlat organlarining javobgarligini kuchaytirish orqali demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Хмелевский С.В. К вопросу о влиянии гражданского общества на политическую безопасность // Вестник Тверского государственного университета. Серия: Политология и социология. – 2012. – №1. – С. 141.

2. Digital 2025: Главные цифры и тренды, которые меняют интернет // https://vc.ru/marketing/1794885-digital -2025-glavnye-cifry-i-trendy-kotorye-menyayut-internet.

3. “Mening fikrim” веб-портали – https://petition.gov.uz/uz/pages/about

4. “2021-2025 йилларда фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. 2021 йил 4 март. // https://lex.uz/uz/docs/5319756 (мурожаат қилинган сана 2025 йил 18 апрель).

5. https://uzbekistan.ureport.in/join/

6. Ўзбекистон Республикасининг Сайлов кодексининг 8-моддаси. 2019 йил 26 июнь // https://lex.uz/docs/4386848?ONDATE=08.05.2023%2000 //(мурожаат қилинган сана 2025 йил 18 апрель).

7. Вертешин А. Легитимация и делегитимация власти с использованием медийных ресурсов // Государственная служба. – 2009. – №. 3. – С. 90.

8. Юрьев А.И., Ханнанова Э.И. Роль СМИ в обеспечении политической стабильности в современной России // Общество: политика, экономика, право. – 2016. – №. 2. – С. 23.

Rahimjon Karimovich YUSUPOV,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti Sotsiologiya va Ijtimoiy ish kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi, E-mail: yusupovraximjon3664@gmail.com rahim_6161@mail.ru

MUAMMOLARNI O‘RGANISHNING SAMARALI VOSITASI

► ***Annotatsiya:*** *Maqolada umummilliy aholini ro‘yxatga olish mamlakatdagi asosiy ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni o‘rganishning samarali vositasi sifatida tahlil qilinadi. “Yangi O‘zbekiston” misolida aholini ro‘yxatga olishning maqsadlari, bosqichlari va metodologik yondashuvlari tarixiy tajribadan tortib, zamonaviy shakllarigacha (onlayn ro‘yxatdan o‘tish, planshet va qog‘oz blankalari) ko‘rib chiqiladi. Aholini ro‘yxatga olish jarayonida demografik tuzilma va ijtimoiy-iqtisodiy holat haqida batafsil ma’lumotlar olinib, bandlik, ta’lim, sog‘liqni saqlash, manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni kamaytirish hamda migratsiya jarayonlarini baholash imkoniyati yaratiladi. Maqolada 2025–2026 yillarda o‘tkazilishi rejalashtirilgan aholini ro‘yxatga olishning huquqiy asoslari, hisobchilar va moliyalashtirish talablari, shuningdek xorijiy tajriba tahlil qilinadi. Xulosa sifatida aholini ro‘yxatga olish umummilliy tadbir sifatida qaralib, fuqarolarning demokratiyadagi faol ishtiroki uchun zarur shart sifatida baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *aholini ro‘yxatga olish, demografik jarayonlar, Yangi O‘zbekiston, statistik kuzatuv, ro‘yxat metodologiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar, manzilli qo‘llab-quvvatlash, davlat siyosati, raqamli texnologiyalar, xalqaro tajriba.*

► ***Аннотация:*** *В статье обосновывается значение всеобщей переписи населения как эффективного инструмента изучения ключевых социальных и экономических проблем страны. На материале «Нового Узбекистана» раскрываются цели, этапы и методологические подходы к переписи: от исторических практик до современных форм (онлайн-опрос, планшеты, бумажные бланки). Показано, что перепись обеспечивает детальные сведения о демографической структуре и социально-экономическом положении населения, служит базой для планирования занятости, образования, здравоохранения и адресной социальной поддержки, а также для борьбы с бедностью и мони-*

торинга миграции. Описываются нормативные основы предстоящей переписи 2025–2026 годов, организационные требования к персоналу и финансированию, сопоставляется зарубежный опыт. Делается вывод о необходимости рассматривать перепись как общегосударственное мероприятие и важное условие демократического участия граждан.

Ключевые слова: *перепись населения, демографические процессы, «Новый Узбекистан», статистическое наблюдение, методология переписи, социально-экономические индикаторы, адресная поддержка, государственная политика, цифровые технологии, международный опыт.*

► ***Abstract:*** *The article substantiates the importance of a nationwide population census as an effective tool for diagnosing a country's key social and economic challenges. Using the case of "New Uzbekistan," it outlines the objectives, stages, and methodological approaches to the census—from historical practices to modern modalities (online self-enumeration, tablets, and paper forms). The census is shown to generate granular data on demographic structure and socio-economic status, underpinning planning in employment, education, health care, and targeted social support, as well as poverty reduction and migration monitoring. The paper reviews the legal framework for the upcoming 2025–2026 census, organizational requirements for field staff and financing, and relevant international experience. It concludes that the census should be treated as a nationwide undertaking and an essential condition of democratic citizen participation.*

Keywords: *population census, demographic processes, New Uzbekistan, statistical survey, census methodology, socio-economic indicators, targeted support, public policy, digital technologies, international experience.*

Mamlakatimizda navbatdagi aholini ro‘yxatga olish jarayoniga qizg‘in hozirlik ko‘rilmoqda. Muhim muammolarni o‘rganishning samarali vositasi sifatida Respublikamizda demografik jarayonlarni o‘rganish orqali vatanimizda o‘tkazilgan aholi ro‘yxati ma’lumotlarini bilish juda muhim vazifamizdir. Ushbu maqolada, Yangi O‘zbekistonda umummilliy aholini ro‘yxatga olish tadbiri, undan ko‘zlangan maqsad tarixiy demografiya fani ilmiy usullaridan foydalangan holda, aholini rasmiy ro‘yxatga olishning tarixiy va hozirgi

zamon bosqichlari bayon qilinadi. Shu sabab, O‘zbekistonda aholini ro‘yxatga olishga umumdavlat tadbiri sifatida qarash talab qilinadi. Zero, bu tadbirda respublika aholisining ishtiroki demokratiyaning zarur sharti deb baholanadi [1].

Aholini ro‘yxatga olish ba’zilar o‘ylaganidek, aholi sonini aniqlashdangina iborat emas. Bu jarayonda mamlakat iqtisodiy tuzilmasining barcha jihatlari, ijtimoiy sohadagi muammolar bilan bog‘liq ma’lumotlarni to‘plash ko‘zda tutilgan. Shaxslarning iqtisodiy xususiyatlariga doir ma’lumotlarni to‘plash bu boradagi asosiy zaruratdir [2]. Ish rejimini tuzish, mehnat bozorida ishtirok etish, samarali mehnat tizimini yaratish uchun shaxslar haqidagi ma’lumotlar juda muhimdir. Bu ma’lumotlar ro‘yxatga olish doirasida to‘plangan har bir ma’lumot aholining iqtisodiy ahvolini o‘rganish, baholashga imkon yaratadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan kambag‘allikni kamaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, shaxsiy ish faoliyati va shaxsiy hayot o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishda ham aholini ro‘yxatga olish tizimi alohida o‘rin tutadi. Kasb-hunar ta’limi, maktab ta’limi, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot va boshqa ijtimoiy sohalardagi muammolarni o‘rganish, ularni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilashda bu jarayonning yana bir qulayligi ko‘zga tashlanadi [3].

Aholini ro‘yxatga olish jarayoni statistik ma’lumotlarni boshqa manbalarga solishtirib, aniq xulosaga kelishda o‘z o‘rniga egadir. Ro‘yxatga olish jarayonida qo‘llaniladigan kuzatuv savolnoma va so‘rovnomalar aholining turli tabaqalarini o‘rganish, uy xo‘jaliklari sharoitini kuzatishda muhim qo‘llanma hisoblanadi. Ushbu muhim jarayonda mamlakatning milliy manfaatlarining asosiy xususiyatlarini o‘rganishda tanlama kuzatuvlar ishonchli ma’lumotlar bazasini yaratishga xizmat qiladi. Muhimi, kichik tumanlar, aholi guruhlari bo‘yicha statistik ma’lumotlarni to‘plash, tarmoqlar va yo‘nalishlarning ijtimoiy, iqtisodiy yo‘nalishlarini kichik guruhlarga ajratib, o‘rganishga imkoniyat yaratadi [4].

O‘zbekistonda aholini ro‘yxatga olish 2025-2026 yillarga mo‘ljallanyapti. Statistika agentligi vakilining ma’lum qilishicha, bu boradagi kompleks tadbirlar uchun 800 mlrd so‘m kerak bo‘ladi [5]. Ro‘yxatga olish orqali mamlakat aholisining demografik tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy holati haqida ma’lumotlarga aniqlik kiritiladi.

O‘zbekistonda oxirgi marta aholi 1989-yilda ro‘yxatga olingan.

Mustaqillik yillarida, biror marta ham O‘zbekiston aholisini ro‘yxatga olish tadbiri amalga oshirilmagan. Vaholanki, tarixiy-demografik jarayonlarni o‘rganishda aholini hisobga olish va aholi ro‘yxati tadbirlarini o‘tkazish muhim manba bo‘lib hisoblanadi. Shu sababdan, Yangi O‘zbekistonda umummilliy aholini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazishdan oldin ko‘zlangan maqsad, tarixiy demografiya fani ilmiy usullaridan foydalangan holda, aholini rasmiy ro‘yxatga olish ishlarining tarixiy va zamonaviy bosqichlarini yoritishdir.

Ko‘pgina mamlakatlarda aholini ro‘yxatga olish qonun bilan tartibga solinishi mustahkamlab qo‘yilgan. Tarixiy demografik jarayonlarni ilmiy jihatdan o‘rganishni yanada kuchaytirish maqsadida O‘zbekistonda ham aholini ro‘yxatga olish ishlari 2025–2026-yillarda o‘tkazilishi bilan amalga oshirish rejalashtirilgan. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-mart kuni imzolagan 114-son qarorida aholini ro‘yxatga olishning barcha qoidalari, fuqarolar, uy xo‘jaliklari, korxonalar va muassasalarning qaysi toifalari ro‘yxatga olinishi, aholini ro‘yxatga olishni kim o‘tkazishi, so‘rov varaqalari qanday bo‘lishi kerakligi belgilab qo‘yilgan [6].

Bundan tashqari, aholini ro‘yxatga oladigan hisobchilarni yollash qoidalari, ularning xizmat vazifalari hamda aholini ro‘yxatga olish qoidalari ko‘rsatilgan. Maqolada aholini ro‘yxatga olish uslubiga aniqlik kiritiladi, aholini ro‘yxatga olish muddati va buning uchun ajratiladigan mablag‘ miqdori haqida ma’lumot keltiriladi. Mamlakatda aholini ro‘yxatga olishga jalb qilinadigan ijtimoiy xodimlarga qat’iy talablar ochiqlanadi. O‘zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlarni o‘rganishning ilmiy, uslubiy, amaliy jihatlari kengayib borayotganligini ko‘rsatiladi.

Yangi O‘zbekistonda umummilliy aholi ro‘yxatini tuzish tadbirini o‘tkazish tarixi ko‘rsatadiki, respublikamizda to‘laroq aholi ro‘yxati 1897-yili chor Rossiyasi tomonidan o‘tkazilgan edi.Bu aholi ro‘yxatida Buxoro va Xiva xonliklari aholisi hisobga olinmagandi. Sobiq ittifoq hokimiyati yillarida aholi ro‘yxati 1920, 1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989-yillarda o‘tkazildi. O‘zbekiston hozirgi hududining to‘la qamrab olgan batafsil aholi ro‘yxati 1926 yilda o‘tkazilgan edi. Shu sababdan ushbu maqolada, Yangi O‘zbekiston-

da umummilliy aholini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazishdan oldin, tarixiy demografiya fanining ilmiy usullaridan foydalanib, aholini rasmiy ro‘yxatga olishning tarixiy bosqichlari haqida fikrlashamiz.

Shuni ham ko‘rsatib o‘tish lozim, bir necha marotaba rejalashtirilib, keyinchalik istisnolar tariqasida Rossiyada, aholini ro‘yxatga olish tadbirlari, dastlab 1999-yilda, keyin 2001-yilda va nihoyat 2002-yilda amalda o‘tkazilgan edi. Aholini ro‘yxatga olish 2002-yilning 9-oktyabrida o‘tkazildi, ro‘yxatga olish blankalari 9-oktyabrdan 16-oktyabrgacha bo‘lgan davrda to‘ldirilgan edi. Bu davrda «Umumrossiya aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida» Federal qonuni asosida amalga oshirildi. Avvalgi aholini ro‘yxatga olish faqat federal byudjetdan moliyalashtirilardi, ammo 2002-yilgi aholini ro‘yxatga olish xarajatlari barcha darajadagi byudjetlar o‘rtasida taqsimlangan edi. Bu tadbirni amalga oshirishda aholini ro‘yxatga olish bo‘yicha, kadrlarni shakllantirish masalasini yangicha hal qilish ham zarur bo‘ldi. Rossiya Federasiyasida shundan keyingi, aholini ro‘yxatga olish tadbirlari 2010, 2020-yillarda o‘tkazilgan edi [7].

Ayni paytda, yana bir karra ta’kidlash kerak, 1990-yillarda sobiq Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin ko‘plab sobiq Ittifoq respublikalarida ham aholini ro‘yxatga olish tadbirlari o‘tkazildi. Qozog‘iston Respublikasi Mustaqilligi davrida aholini ro‘yxatga olish 1999, 2009 va 2021-yillarda o‘tkazildi, Tojikistonda aholini ro‘yxatga olish 2000, 2010 yillarda, Qirg‘iziston aholisini ro‘yxatga olish 1999, 2009, 2022-yillarda amalga oshirildi.

Mustaqillik yillarida esa, 2012-yilda ma’lum bir hududlar tanlanib, tanlanma aholi ro‘yxati o‘tkazilgan edi. Ba’zan shu ma’lumotlardan foydalanib, taxminiy aholi ro‘yxati tuziladi. Ba’zi mamlakatlarda aholi ro‘yxati mamlakatning ma’lum bir hududida o‘tkazilib, mamlakatlar aholi ijtimoiy masalalari taxminiy umumlashtiriladi. Bu tanlama so‘rov asosida olib boriladi. Shu bilan aholi umummilliy ro‘yxati aholini har tomonlama, chuqur o‘rganishga xizmat qiladi. Aholi soni, uning yosh-jinsiy, milliy, diniy tarkibini bilish, migrasiyada qatnashganlar soni, mehnat resurslar sonini bilish, aholini oziq-ovqat va keng iste’mol mollari, kiyim-kechaklar, poyabzal bilan ta’minlashda, maktablarga birinchi sinfga boradigan bolalar soniga qarab, ularga sharoit yaratishga, kitob-daftarlar ishlab chiqarishga, aholini o‘z ona

tilida o‘qishiga, gazeta-jurnal va kitoblar chiqarishda, radio-televideniyeda eshittiruv va ko‘rsatuvlar olib borishda katta ahamiyatga egadir.

Eng muhimi va quvonchlisi shundaki, O‘zbekistonda XXI asrning dastlabki o‘ttiz yilliklari davomida, tarixiy-demografik jarayonlarni o‘rganishning ilmiy, uslubiy, amaliy jihatlarini ilmiy tadqiq etish kengayib bormoqda. Zero, tarixiy demografik jarayonlarning dolzarb muammolarini tahlili haqida R.K.Yusupov [8], ijtimoiy-demografik rivojlanishni yoritish to‘g‘risida Sh.Raxmatullayev [9], aholisi milliy tarkibidagi o‘zgarishlarni U. Xudoyarov [10] tomonidan bajarilgan tadqiqotlarda o‘rganilgan.

Ro‘yxatga olish jarayonlari O‘zbekistonda 3 xil usulda, ya’ni internet tarmog‘i orqali, planshet va qog‘oz usullarida tashkil etildi. Sinov jarayonlarida planshet usulida aholini ro‘yxatga olish qog‘oz usuliga nisbatan qulayligi, tezkorligi va iqtisodiy jihatdan samaraliroq ekanini ko‘rsatdi. Ma’lumki, dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, aholini ro‘yxatga olish ishlariga sarflanadigan mablag‘ miqdori aholi jon boshiga o‘rtacha 3 AQSh dollaridan to‘g‘ri kelishi mumkinligi aytilgan edi. Bu xarajatlar davlat byudjetidan qoplanishi ham belgilandi [11]. Shuni e’tiborda tutish zarurkim, qonun loyihasini ishlab chiqishda Rossiya Federasiyasi, Belorussiya, Qirg‘iziston, Armaniston, Tojikiston, Moldova, Buyuk Britaniya, Litva, Latviya kabi qator davlatlarning amaliyoti o‘rganilgan.

Shu kabi, aholini ro‘yxatga olish ma’lum bir sanada O‘zbekiston aholisining soni, yoshi, jinsi, diniy va etnik tarkibi, oilaviy ahvoli, ma’lumot darajasi, uy-joy bilan ta’minlanganligi, iqtisodiy faolligi, daromad olish manbalari, nogironligi xususida batafsil ma’lumot olishga yordam beradi, aholi jon boshiga makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning taqsimlanishini hisoblashda ishlatiladi, migrasiya holatini, mehnat resurslari taqsimotini ham aniq ko‘rsatib beradi. Hududlarni rivojlantirish, ayollar va bolalar salomatligini saqlash bo‘yicha ishlarning manzilli amalga oshirilishi uchun ham axborot manbasi bo‘lib xizmat qiladi. Aholini ro‘yxatga olishda individual asosda har bir shaxs to‘g‘risidagi yakka ma’lumotlar to‘planadi. Shu bilan birga, respondentlardan olingan ma’lumotlarning nomsizligi kafolatlanadi. Aholini ro‘yxatga olish varaqasidan faqat natijalarni umumlashtirish uchun foydalaniladi. Shu sababli, sinov natijalari

va ilg‘or davlatlar tajribalari asosida ro‘yxatga olish jarayonlarini qog‘oz usulidan voz kechib, internet tarmog‘i orqali va planshet qurilmalaridan keng foydalangan holda o‘tkazish ustida ish olib borilmoqda. Darhaqiqat, asosiy tadbirni mukammal va sifatli o‘tkazish uchun Statistika agentligi tomonidan tayyorgarlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Statistika agentligi xalqaro tajriba va ekspertlarning tavsiyalari asosida “Aholini ro‘yxatga olish” axborot tizimini takomillashtirish va ro‘yxatga olish natijalarining chiquvchi jadvallari namunalarini shakllantirish, shuningdek, aholini ro‘yxatga olishning tashkiliy rejasini ishlab chiqishlishi juda kerak. Shu bois, aholini ro‘yxatga olish 2025-2026-yillarda o‘tkazilishi, natijalari esa 2026-2027-yillarda tayyorlanishi va e’lon qilinishi rejalashtirilgan.

Xullas tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, quyidagilarni taklif etamiz. O‘zbekistonda aholini ro‘yxatga olish tadbiri o‘tkazilishi nihoyatda dolzarbdir. Mustaqillik sharoitida Yangi O‘zbekistonda birinchi marta umummilliy aholini ro‘yxatga olish tadbiri o‘tkazilishi juda zarur. Ilmiy jihatdan bu tadbir, mamlakat tarixiy-demografik rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, kelgusida xalqaro hamjamiyat tomonidan o‘rganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.

2. Latipova N.M., Kayumov Q.N. Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatlari. –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi». 2021. – B.89-99.

3. Qarang: «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakalar stratefiiyasi to‘g‘risida” O zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik palatasi yig‘ilishi, 2017 y., № 6, 70 bet.// http://www.lex.uz.

4. Ulashyev J. Muhim muammolarni o‘rganishning samarali vositasi// https://www.samarkandnews.uz/post/11755.

5. “Aholini ro‘yxatga olish uchun 800 mlrd so‘m mablag‘ talab etiladi” - Statistika agentligi mas’uli//https://kun.uz/news/2024/03/27/aholini-royxatga-olish-uchun-800-mlrd-som-mablag-talab-etiladi-statistika-agentligi-masuli

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» 04.03.2024 й. ПҚ–114-сон қарори // https://lex.uz/docs/6826200#:~:text=%D0%A3%D0%.

7. Переписи населения в Российской Федерации 2002 года, 2010 года, 2020 года // https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%92%D1%81%D0%B5%D.

8. Юсупов Р.К. Демографические процессы Узбекистана в освещении историков (вторая половина XX века) // Россия-Узбекистан: история и современность (часть III) // Журнал «Евро Азия». – М., ноябрь 2008, №6. – С.56-62; Кафедра стран постсоветского зарубежья РГГУ; ИАЦ МГУ; Шу муаллиф. Ўзбекистон тарихий демографиясини ўрганиш масалалари (1940 йилларнинг иккинчи ярми – 1980 йиллар охири) // Самарқанд давлат университети Илмий тадқиқотлар Ахборотномаси. Илмий-назарий, услубий журнал. 2008. № 4(50). – Б.40-48; Шу муаллиф. Ўзбекистонда демография фанининг ривожи (тарихий назар) // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. Ўзбекистон гуманитар журнали. №4 (44), 2008. – Б.89-99.

9. Рахматуллаев Ш. Узбекистан: особенности социально-демографических процессов в конце XX – начале XXI в. // Россия и мусульманский мир. Научно-информационный бюллетень. – М., – С.90-99.

10. Худояров У. Самарқанд вилояти аҳолисининг миллий ва ижтимоий таркиби (1926 йилги Бутуниттифоқ аҳолини рўйхатга олиш натижалари асосида) // Ўзбекистон миллий университети хабарлари. 2019. №1/1. –Б.68-70.

11. Aholini ro‘yxatga olish qanchaga tushadi? // https://kun.uz/37014984#:~:text.

Xamro Xazratovich RAXMONOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim.

MAHALLA FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM BO'G'INI SIFATIDA

► ***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada noyob ijtimoiy institut bo'lgan mahallaning tarixiy shakllanishi, mazmun mohiyati, mustaqillik yillarida milliy qadriyat sifatida mahallaning tiklanishi, huquqiy asoslarining yaratilishi, Yangi O'zbekiston sharoitida tizimdagi islohotlar yoritilgan. Shuningdek, aholi orasida ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish mahallada amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Mahalla, fuqarolik jamiyati, Yangi O'zbekiston, "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari "Obod va xavfsiz mahalla".*

► ***Аннотация.*** *В данной статье описывается историческое становление соседства как уникального социального института, его сущность, восстановление соседства как национальной ценности в годы независимости, создание его правового устои и реформы системы в условиях Нового Узбекистана. Также в качестве положительных изменений в микрорайоне анализируется снижение уровня безработицы и бедности среди населения.*

Ключевые слова: *Махалля, гражданское общество, Новый Узбекистан, «Железная тетрадь», «Женская тетрадь», «Молодежная тетрадь», «Процветающая и спокойная махалля».*

► ***Annotation.*** *This article describes the historical formation of the neighborhood as a unique social institution, its essence, the restoration of the neighborhood as a national value in the years of independence, the creation of its legal foundations and the reform of the system in the conditions of the New Uzbekistan. The reduction of unemployment and poverty among the population is also analyzed as positive changes in the microdistrict.*

Keywords: *Mahalla, civil society, New Uzbekistan, "Iron notebook", "Women's notebook", "Youth notebook", "Safe and secure neighborhood".*

O'zbekistonda davlat mustaqilligining dastlabki chorak asrida siyosiy institutlar bilan bir qatorda ijtimoiy instututlarning sifat jihatdan shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim bosqich bo'lgan

bo’lsa, so’nggi yillarda bu institutlarning amaliy faoliyati, erishilgan yutuqlari, xalq bilan yaqinlashuvi bir so’z bilan aytganda, chinakam ijtimoiylashuv jarayonlari kuzatilmoqda.

Xususan, 2023-yil 30-aprel kuni o’tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumi natijalariga ko‘ra umumxalq ovoz berishi orqali “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni qabul qilindi. Ushbu yangilangan Konstitutsiyaga O‘zbekiston tarixida ilk bor “ijtimoiy davlat” [1] tushunchasi kiritildi. Bu esa o‘z navbatida respublikada ijtimoiy institutlar faoliyatini yanada takomillashuvi hamda samarali faoliyat yuritishiga huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Respublikada fuqarolik jamiyatining eng muhim bug’inlaridan biri bo’lgan mahalla haqida bugungi kunda ko‘p gapirilsa-da, ammo mazkur masala tarixchi olimlar tomonidan hali yetarlicha tadqiq etilmagan.

Shu ma’noda, O‘zbekistonda mahalla institutining shakllanishi uning tarixiy va zamonaviy rivojlanish tendentsiyalari, fuqarolik jamiyatidagi o’rni va ahamiyatini ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston mustaqilligining qo’lga kiritilishi xalqimiz tarixiy-madaniy hayotida ulkan burilish bo’ldi va tarix tadqiqotlari bo’yicha yangicha qarashlar asosida ilmiy izlanishlar olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Respublikada mahalla nufuzini qayta tiklash va yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etdi. Mahalla instituti faoliyatini rivojlantirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov “*Mahallaga shunday sharoit tug’dirib berish kerakki, toki unda yashaydigan har qaysi inson o‘z huquqini yaxshi bilsin va mahallaga suyanib, mahallaning vakolatlaridan foydalanib, o‘z huquqini himoya qilishga qodir bo’lsin*” [2], – deb fikr bildirgan edi. Darhaqiqat, o‘tgan yillar davomida mahalla faoliyatini har tomonlama takomillashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi, sohaga oid printsipial jihatdan yangi tuzilma shakllantirildi, mahalliy hokimiyat organlari qayta tashkil etildi, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimi rivojlantirildi. Bu sohada olib borilgan amaliy ishlar to‘g‘risida to’xtalib, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Islom Karimov fuqarolik jamiyati institutlarini

shakllantirish, ayniqsa, davlat va jamiyat boshqaruvida mahallaning nufuzini oshirish, uning vakolatlarini kengaytirish borasida ulkan ishlarni amalga oshirdi" [3] , deya ta'kidladi. Darhaqiqat, 1991-2016 yillarda O'zbekistonda yangi jamoat tashkilotlari va demokratik institutlar paydo bo'ldi [4] va rivojlanib bordi.

O'tgan yillar davomida mahalla jamiyat hayotining barcha sohalarida keng namoyon bo'lgan ijtimoiy institut sifatida yanada yuksalib bordi, mahalla institutini rivojlantirish va takomillashtirishning huquqiy asoslari yaratildi. Xususan, 1991-yil 12-sentyabrdagi Farmonga muvofiq "Mahalla" respublika xayriya jamg'armasi tashkil etildi. 1992-yilda O'zbekiston Prezidentining «Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. 1993-yil 2 sentyabrda o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunni qabul qilinishi mahalla tizimi faoliyatining huquqiy kafolati bo'ldi. Mazkur Qonun vaqtlar o'tishi bilan jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib bir necha marta yangi tahrirda qabul qilindi.

Istiqlol sharoitida mahalla institutining ijtimoiy nufuzini yuksaltirish siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor vazifa sifatida mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda uning ulkan tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Jumladan, shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarishning hududiy birliklari sifatida milliy davlatchilik tarixida ilk marotaba 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida mustahkamlab qo'yildi.

Shuningdek, mahalla ijtimoiy makonida ko'plab qadriyatlar, urf-odat va an'analar qayta tiklanishi bilan birga, mahalla institutining faoliyati ham takomillashib, zamon talablariga moslashib bordi. Aniqroq aytganda, bugungi islohotlarda mahallaga bo'lgan munosabat, mamlakat ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridagi o'zgarishlar mahallada taransformatsiya jarayonlari doimiy va davomli bo'lishini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda 2003-yil – "Obod mahalla" yili, 2004-yil – "Mehr va muruvvat" yili, 2007-yil – "Ijtimoiy himoya" yili, 2013-yil – "Obod turmush" yili deb e'lon qilinishi va Davlat dasturlarining

qabul qilinishi jamiyatda mahalla nufuzining oshishiga xizmat qildi. Shu bilan birga mahallaga nisbatan aholining ham ishonchi ortib bordi. Mahallaning jamiyat hayotidagi ahamiyatini respublikada aholi orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari ham ko'rsatadi. 2003 yil yanvarda Respublika "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan o'tkazilgan so'rovnomada "Mahalla oiladagi ichki muammolarni hal qila oladimi?" degan savolga respondentlarning 63,1 foizi ijobiy fikr bildirib, qatnashchilarning 82,5 foizi mahalla qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishi, 84,4 foizi esa to'y, dafn va boshqa marosimlarni tashkil etishga bosh-qosh bo'lishiga ishonch bildirishgan [5].

Bu ishonch o'z navbatida aholi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy masalalarga oid turli muammolar bevosita mahallalar orqali hal etiladigan mexanizmni takomillashuviga zamin yaratdi. Mahallaga aholi orasida nufuzga ega, salohiyatli kishilar bosh bo'lib, mahalla raislari lavozimi hamda mahalla va oila muammolarini ko'tarib chiqish va mazkur muammolarni ijobiy hal etishda ko'makdosh bo'lish maqsadida "Mahalla" jamg'armasi, telekanali, radiosi, gazeta va jurnallar faoliyati yo'lga qo'yildi [6] .

Mustaqillik yillarida mahalla "kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari kontseptsiyasi"ni hayotga tatbiq etishda eng muhim tashkiliy-institutsional bo'g'in vazifasini ham o'tab, amalga oshirilgan islohotlar natijasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyat qamrovi kengaydi.

Shu o'rinda, mahalla instituti faoliyatining takomillashuvi va huquqiy asoslarining mustahkamlanishi, mahalla faoliyatidagi ijobiy o'zgarishlarni hisobga olib, mustaqillikdan keyingi mahalla tarixini ikki bosqichga, ya'ni 1991-2016 yillar va 2016 yildan keyingi bosqich sifatida o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Yangi O'zbekiston sharoitida mahalla tizimidagi o'zgarishlar

Mahalla O'zbekistonning qadimiy va zamonaviy tarixida noyob ijtimoiy institut sifatida mamlakat va xalqaro darajada keng e'tirof etilmoqda. 2016-yildan keyin O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng miqyosli islohotlar natijasida mahalla institutini rivojlantirish yangi bosqichga ko'tarildi. Mahalla nodavlat notijorat tashkilot darajasidan davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida muhim o'rin egallagan

mustaqil davlat tashkiloti sifatida yildan yilga takomillashib, vakolat va vazifalari kengayib xalqchil institut bo'lib bormoqda.

Mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar asosida Yangi O'zbekiston qiyofasi ijobiy o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Siyosiy o'zgarishlar, tizimli liberallashuv, rivojlanishning yangi iqtisodiy modeli, madaniy modernizatsiya jarayonlari O'zbekistonning eng yangi tarixida yangi bosqich boshlanganligini ko'rsatdi. Siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, xalqaro munosabatlar kabi barcha sohalarda amalga oshirilayotgan yangilanishlar jamiyat farovonligini yuksaltirish bilan birga, mamlakatning xalqaro nufuzini oshirishga ham xizmat qilmoqda.

Shu asosda so'nggi yillarda mahalla institutini rivojlantirish yangi bosqichga ko'tarildi. Mahallaning davlat va jamiyat hayotida ijtimoiy nufuzini oshirishga qaratilgan bir qator tizimli islohotlar amalga oshirildi.

Xususan, 2017-yil O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi va amaliyotga joriy etilishi bu borada muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu strategiya asosida O'zbekistonda ko'plab sohalarda yangi islohotlar amalga oshirilishi natijasida mamlakat hayotida rivojlanish tendentsiyalari yuzaga keldi va xalqaro e'tirof etildi.

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab mahalla institutini rivojlantirish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston tarixida ilk marotaba Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining tashkil etilishi mazkur institutni nodavlat notijorat tashkilotdan davlat ahamiyatidagi mustaqil organga aylantirdi. Shuningdek, vazirlik huzurida "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatining yo'lga qo'yilishi esa aholi muammolarini ilmiy va amaliy o'rganish asosida fuqarolarga ko'mak berishga, mahalla institutini yanada rivojlantirishga, uni xalqaro darajada targ'ib etishga sharoit yaratdi. Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Barchamizga ma'lumki, islohotlarimiz natijalari bo'layotgan o'zgarishlar va aholining kayfiyati, avvalo, mahallada seziladi. Shu ma'noda, "Mahalla – jamiyatimizning yorug' yuzi va vijdoni ko'zgusi", desak to'g'ri bo'ladi" [7].

Yangi O'zbekiston sharoitida sohaga oid 42 ta qonun hujjati,

jumladan, 4 ta qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta farmon va qarori, hukumatning 33 ta qarori qabul qilindi, 50 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar takomillashtirildi. Shuningdek, mahalla tizimi xodimlarining mehnatini rag‘batlantirish maqsadida ularning oylik maoshlari 3 baravarga oshirildi, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish idoralari faollari hamda keng jamoatchilik vakillari uchun “Mahalla iftixori” ko‘krak nishoni ta’sis etildi [8] .

2020-yildan boshlab O‘zbekistonda 22 mart kuni “Mahalla tizimi xodimlari kuni” etib belgilandi. Bu esa, mahalla tizimida faoliyat olib borayotgan soha vakillari mehnatiga e’tibor va g’amxo’rlikning ramzi bo‘lishi bilan birga, ulardagi mas’uliyat va burch hissini yanada oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil Oliy Majlisga yo’llagan Murojaatnomasida mahalla tizimining jamiyat ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotidagi o‘rnini yanada mustahkamlash, soha faoliyatini chuqur isloh etish maqsadida O‘zbekiston davlati va jamiyati hayotida butunlay yangi mezon – “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili ilgari surildi. Ushbu tamoyilning davlat va jamiyat hayotiga tatbiq etilishi oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog’lomlashtirish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorlikni o’rnatish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorlik va osoyishtalikni ta’minlash, aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, tomorqalardan unumli foydalanish, mahalla hududini obodonlashtirish, jinoyatchilikni kamaytirish va oldini olish masalalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahallaning bugungi jamiyat hayotidagi faoliyatining asosiy mazmun-mohiyati, vazifasi haqida mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyev “Mahalla xalq bilan davlat o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lishi kerak. Odamlarning quvonchu tashvishidan doimo xabardor bo‘lish mahallaning asosiy vazifasidir” [9], deb fikr bildirgan edi.

Shu ma’noda, Yangi O‘zbekiston sharoitida mahalla instituti fuqarolik jamiyatining muhim bug’ini sifatida rivojlanishning yangi bosqichiga ko’tarilib, amalga oshirilayotgan islohotlar, sohaga tatbiq etilayotgan turli yangi tizim va tamoyillar mahallalarni rivojlantirish, insonlar turmush tarzini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Aholi murojaatlari bilan ishlash tizimining takomillashtirilishi, muammolarni “mahal-

labay”, “xonadonbay” o‘rganish tizimining yo‘lga qo‘yilishi, mavjud muammolarning hududlar kesimida qisqa muddatlarda bartaraf etish imkoniyatini yaratmoqda. Bu kabi ijobiy o’zgarishlar so’nggi yillarda sohada olib borilayotgan tizimli islohotlar samarasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O‘zbekiston; 2023. –B.4.

2. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog’liq. – Toshkent: O‘zbekiston, 2004. – B. 101.

3. Mirziyoyev Sh.M. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning qo’shma majlisidagi nutq. 2016 yil 8 sentyabrь.

4. Noveyshaya istoriya Uzbekistana (1991–2016). – Tashkent: Fan, 2019. – S. 7.

5. Respublika jamoatchilik fikrini o’rganish “Ijtimoiy fikr” markazining joriy arxivi. 2003 yil yanvarda o’tkazilgan “Mahalla – jamoatchilik fikri ko’zgusida” mavzusidagi sotsiologik so’rovlar materiallari.– B. 3-5.

6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 17 dekabrdagi «Mahalla» ma’rifiy teleradiokanalini tashkil etish va raqamli teleko’rsatuvlarni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. − Toshkent, 2014. 51-son, 603-modda; 2017. 2-son, 25-modda. – B. 9-11.

7. Mirziyoyev Sh. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, 2021. – B. 115.

8. Mirziyoyev Sh. O’zbekiston mahalla tizimi xodimlari va faollariga // Yangi O’zbekiston, 2021 yil 22 mart. № 58 (314).

9.https://sputniknews-uz.com/politics/20170413/5189965/Shavkat-Mirziyoyev-mahalla-va-uning-vazifasi-haqida-gapirdi.html (15.09.2021)

Fotima Abdusalomovna MAMATOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI O‘ZBEKISTONNING XALQARO SAVDOSIGA TAHDID SIFATIDA

► ***Annotatsiya:*** *maqolada globallashuv sharoitida jahonning rivojlangan davlatlarida yashil standartlarni joriy etilishi sababli O‘zbekistonning xalqaro savdo munosabatlarida, uning eksport faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan taxdidlar ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar:*, tashqi savdo, eksport, uglerod solig‘i, yashil iqtisodiyot, xavf-xatar, tashqi va ichki omillar.*

► ***Аннотация:*** *В статье раскрыты возможные угрозы в международных торговых отношениях Узбекистана, его экспортной деятельности в связи с внедрением зеленых стандартов в развитых странах мира в условиях глобализации.*

Ключевые слова: *внешняя торговля, экспорт, налог на выбросы углерода, зеленая экономика, риски, внешние и внутренние факторы.*

► ***Annotation:*** *The article reveals possible threats in international trade relations of Uzbekistan, its export activities in connection with the introduction of green standards in developed countries of the world in the context of globalization.*

Keywords: *foreign trade, export, carbon tax, green economy, risk, external and internal factors.*

Yashil iqtisodiyot global miqyosda barqaror rivojlanish paradigmasiga aylandi. Evropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlar o‘z tashqi iqtisodiy siyosatlarida «uglerod izi»ni kamaytirish va «yashil standartlar»ni ilgari surish orqali xalqaro savdo munosabatlarida yangi cheklovlar va talablar joriy etmoqda. Bu tendensiya global ta’minot zanjirlariga ta’sir etar ekan, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksportida iqtisodiy xavflar va tahdidlarni keltirib chiqarmoqda. Bu milliy iqtisodiyot oldida turgan ichki va

tashqi tahdidlar bilan bog‘liq bo‘lib hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish yuzasidan ko‘plab imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Biz qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini mazmunan yangi bosqichga olib chiqishimiz zarur” [1]. Mamlakat o‘z iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun mas’uliyati va javobgarligini hisobga olgan holda, yuqori moslashuvchan mobillik va iqtisodiy sohada manfaatlarni himoya qilishning samarali mexanizmini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatning iqtisodiy salohiyati rivojlangan sari, mamlakatga chetdan kirib keluvchi import tovarlarining ham soni ortib boradi. Bunda kirib kelayotgan har bir tovarning qonuniy ravishda mamlakat hududiga olib kirilayotganligi, aholining salomatligiga qay darajada ta’sir ko‘rsatishini bilish mamlakat uchun muhim sanaladi. Bu o‘z navbatida, mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyojni paydo qiladi. Aslini olganda, iqtisodiy xavfsizlik ham qaysidir ma’noda davlatning iqtisodiy xavfsizligining bir bo‘lagi hisoblanadi.

- Iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish davlatning strategiyasi siyosati va iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi asosida amalga oshiriladi. U O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini, milliy boyligini ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoya qilishni ko‘zda tutadi. Ushbu konsepsiya bu boradagi siyosatni belgilab beruvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Ya’ni, iqtisodiyotning “yashillashuvi” omillari milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, shuningdek, tahdid manbai sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bu holat O‘zbekiston korxonalari va iqtisodiyotida “yashillik” darajasi etarli emasligi sababli turli cheklov choralarining joriy etilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Xususan, 2021-yil 14-iyulda Yevropa komissiyasi iqlim, energetika, erdan foydalanish, transport va soliq siyosatlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan takliflar to‘plamini qabul qildi. Ushbu chora-tadbirlar 2030-yilgacha issiqxona gazlari sof chiqindilarini 1990-yil darajalariga nisbatan kamida 55% ga kamaytirishni nazarda tutadi[7]. Ushbu to‘plamning muhim elementlaridan biri «uglerod solig‘i» (aslida – boshqa davlatlardan Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga import qilinadigan tovarlarga bojxona boji) joriy etilishi hisoblanadi. Bu masalalar maxsus ekologik reja doirasida tartibga solinadi. Ush-

bu mexanizm 2026-yildan to‘liq kuchga kiradi va O‘zbekiston kabi eksportchi mamlakatlarning raqobatbardoshligiga ta’sir qiladi.

Transchegaraviy soliq joriy etilgan taqdirda, O‘zbekiston eksportchilari uchun qo‘shimcha soliq yuklamasi keskin oshishi mumkin bu eksport qilinayotgan tovarlar va xizmatlarning raqobatbardoshligiga katta tahdit bo‘lib hisoblanadi. Transchegaraviy soliq eng katta zararni O‘zbekistonning rangli metall, sanoat va qishloq xo‘jalik maxsulotlari eksporti raqobatbardoshligiga katta salbiy ta’sir qilib uning eksport imkoniyatlarini cheklaydi.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotining Yevropa Ittifoqi uglerod solig‘i natijasida ko‘radigan zarari O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlarning yagona manbasi emasligini qayd etish lozim. Hozirgi global tendensiyalardan kelib chiqib, O‘zbekiston iqtisodiy hamkorlari bo‘lgan Evropa Ittifoqi va boshqa davlatlar tomonidan yashil iqtisodiyot talablarini kuchayishi yangi tahdidlar paydo bo‘lishi ehtimoli ham mavjud. “Milliy iqtisodiyotni “yashillashtirish” tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksporti miqdorini oshirish, tarkibini diversifikasiyalash va milliy kompaniyalarning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi”[2]. Jahonning boshqa davlatlarda yashil iqtisodiyotni rivojlanishi va ekologik qishloq xo‘jalik mahsulotlariga ta’labni kuchayishi natijasida O‘zbekiston tashqi savdosiga va uning ortidan, davlat byudjeti daromadlariga hamda milliy iqtisodiy xavfsizlik darajasiga ta’sirini aniqlash uchun, biz O‘zbekistonning eng muhim eksport tovarlari tarkibini va asosiy import qiluvchi davlatlarni ko‘rib chiqamiz.

Respublikada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yilda respublikaning tashqi savdo aylanmasi 65,9 mlrd AQSh dollariga etdi. Ushbu natija mamlakat tarixida eng yuqori ko‘rsatkich sifatida qayd etildi. TSAda eksport hajmi 26 948,2 mln AQSh dollariga (8,4 % ga ko‘paydi) va import hajmi 38 985,8 mln AQSh dollariga (0,8 % ga ko‘paydi) etdi. Hisobot davrida -12 037,6 mln AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi jahonning 198 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (18,9 %), Rossiyada (17,6 %), Qozog‘istonda (6,5 %), Turkiyada (4,5 %) va Koreya Respublikasida (3,0 %) qayd etilgan. Sanoat mahsulotlari eksportining rivojlanishida bir qator muammolar mavjud. Ishlab chiqarish texnologiyalarining eskirganligi, logistika infratuzilmasining etarlicha rivojlanmaganligi va xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish zarurati dolzarb masalalardir. Biroq, mavjud muammolarni bartaraf etish va belgilangan maqsadlarga erishish uchun sanoatni modernizasiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda yangi bozorlarga chiqish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. O‘zbekiston 2030-yilga kelib tovar va xizmatlar eksportini 45 milliard AQSh dollariga yetkazishni maqsad qilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkichga erishish uchun eksport geografiyasini kengaytirish hamda yangi bozorlarga chiqish zarur[3].

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘sishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma’lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 7 756 taga etdi va ular tomonidan 19 467,6 mln AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

Tashqi savdoni erkinlashtirish, ichki bozorni rivojlantirishga imkon bersada, u bir qator davlatning iqtisodiy xavfsizligi bilan bog‘liq murakkabliklarni ham keltirib chiqaradi. Bulardan biri – tashqi savdo aylanmasida tadqiq etilayotgan davrda eksportga nisbatan import ulushining yuqoriligidir. Bu mamlakatga tashqi savdo aylanmasi orqali mamlakatga kirib kelayotgan valyuta tushumlariga nisbatan, import sababli chiqib ketayotgan valyutaning ulushi yuqoriligini ko‘rsatmoqda. Bu bugungi jahon iqtisodiyotini globallashuvi sharoitida davlatning oziq-ovqat xavfsizligi uchun zarur bo‘lgan erkin valyuta mablag‘larini kamayishiga olib keladi. Ikkinchidan importning yuqoriligi bozorlardan mahalliy tovarlarni siqib chiqarishi va ko‘pgina korxonalarning faoliyatini murakkab moliyaviy holatga keltirib qo‘yishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining tarkibiy tuzilmasida xom ashyo ekspopt modelining ustunligi, uning iqtisodiy xavfsizlik munosabatlarining institutsional asoslariga bo‘lgan tahdid sifatida o‘ziga xos bir qator muammolarini keltirib chiqaradi:

1. Makroiqtisodiy barqarorlikning jahon xom-ashyo, energetika, qora va rangli metallarning narxlariga bog‘liqligi, bu esa eksport tarkibida xomashyo, energetika, qora va rangli metallar ulushining oshishiga bevosita mutanosib ravishda ortib boradi. Eksport tarkibida xom-ashyo, energetika, qora va rangli metallarning ulushi 2017 yildagi 11,6% dan 2024 yilda 37,6% ga oshdi. O‘zbekiston iqtisodiyotidagi YaIpi o‘sish sur’atlarining pasayishi ham qisman jahon narxlarining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lib, qora va rangli metallarning narxi byudjetni shakllantirishda asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

2. Tabiiy resurslarning cheklangan zaxiralari tufayli xom ashyo eksport modeli uzoq muddatli rivojlanish mumkin emasligi. Ba’zi ekspertlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, O‘zbekistonning neftning geologik zahiralari-5 mlrd. tonna va tabiiy gazning geologik zaxiralari – 5 trln. kub metrdan ortiq. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy tadqiqotlar markazi ma’lumotlariga ko‘ra, resurs iste’molining hozirgi tendensiyalari va hajmlari davom etsa, O‘zbekistonda tabiiy gaz va ko‘mir zaxiralari keyingi 20-30 yil davom etadi, neft zaxiralari esa deyarli yaroqsiz holatga kelishi mumkin[4]. Shu bilan birga, tog‘-kon kompaniyalari mavjud konlarni rivojlantirishni afzal ko‘radilar, chunki geologik tadqiqotlar juda muhim investitsiyalarni talab qiladi.

3. Milliy iqtisodiyot tarmoqlarining pirovard mahsulot ishlab chiqaradigan ichki bozorga xizmat qilishi bilan tavsiflanishidir. O‘zbekiston Respublikasi eksport tarkibida yuqori fan sig‘imli tarmoqlar va yuqori texnologiyali sanoatning zaif rivojlanishi natijasida texnologiyalar eksporti mavjud emas. O‘zbekiston iqtisodiyotining eng muhim tizimli chetga og‘ishlaridan biri bu mamlakatda bir dollar xom ashyo birligiga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymatning juda past ekanligidip: AQShda bu 10 dollarga teng, O‘zbekistonda esa, 2 dollar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi - Toshkent. // Xalq so‘zi, 2020-yil 29-dekabr.
2. Asqarova M.T., Jamolov J.J. Yashil iqtisodiyot. (Darslik). – T.: “Innovatsion rivojlanish matbuot-matbaa uyi” 2022. 267.b.
3. Yo‘ldoshev N.M. O‘zbekiston sanoat mahsulotlari eksportining tashqi bozorlar bilan o‘zaro aloqalari. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali. 2025 yil. №3. B.823.

http://articlekz.com/node/2628. UzTransGaz.

Rustam DAMINOV,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
E-mail: daminovrustam@gmail.com
Тел.: (+99890) 600 66 06

XALQARO HUQUQ NORMALARIDA JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISH TUSHUNCHASINING AKS ETISHI

► ***Annotatsiya:*** *Maqolada jinoyiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish (pul yuvish) jinoyatining turli xalqaro hujjatlardagi tushunchasi yoritiladi. Ayrim xalqaro hujjatlar normalari hamda huquqshunos olimlar fikrlari tahlil qilinib, tushunchaning mazmuni va qo‘llash doirasi solishtirma-huquqiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *legallashtirish, jinoyiy daromadlarni “tozalash”, mol-mulk, xalqaro huquq, konvensiya, pul yuvish, AML/CFT.*

► ***Аннотация:*** *В статье рассматривается понятие легализации доходов, полученных преступным путём (отмывание денег), в различных международных документах. Анализируются положения отдельных международных актов и мнения правоведов, раскрываются содержание термина и сферы его применения в сравнительно-правовом аспекте.*

Ключевые слова: *легализация, «отмывание» преступных доходов, имущество, международное право, конвенция, отмывание денег, ПОД/ФТ.*

► ***Abstract:*** *The article examines the concept of laundering criminal proceeds (money laundering) as reflected in various international instruments. It analyzes specific treaty provisions and scholarly opinions, clarifying the meaning and scope of the term from a comparative-legal perspective.*

Keywords: *legalization, "cleaning" criminal proceeds, property, international law, convention, money laundering, AML/CFT.*

So‘nggi yillarda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda inson, davlat va jamiyat manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilishga, bu borada tergov organlari faoliyatini qonun ustuvorligini hamda jazo muqarrarligini ta’minlash prinsipi asosida takomillashtirishga, respublikaning moliyaviy tizimi barqarorligini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida, 2025-yilning 25-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasining “Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ–1038-son Qonuni qabul qilindi.

Mazkur Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining zimmasiga byudjet to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlarining profilaktikasini ta’minlash, iqtisodiy jinoyatlarni o‘z vaqtida fosh etish, har tomonlama, to‘liq va xolisona tergov qilish sohasida qo‘shimcha vazifalar yuklatildi [1].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan jinoiy daromadlarni legallashtirish eng keng tarqalgan va xavfli transmilliy jinoyat deb e’tirof etilganligi [2], dunyoda jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatini o‘sib borayotganligi bilan jahon hamjamiyatining tashvishga solayotganligi, jahon moliyaviy tizimi globallashib borishi bilan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyati ham zamonaviy tus olayotganligi ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi

kurashishda davlatlarning sa’y-harakatlarini xalqaro miqyosda muvofiqlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu o‘rinda ushbu legallashtirish jinoyatini kelib chiqish tarixi, xalqaro normalarda aks etishi va mazkur jinoyatlar xususida olimlarning fikrlariga nazar tashlashni lozim topdik.

Ko‘pchilik zamonaviy mahalliy tadqiqotchilar jinoiy yo‘l bilan olingan pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkni legallashtirish (yuvish) xalqaro xususiyatga ega ekanligini tan olishadi. Ushbu asosli fikrni inobatga olgan holda, eng yangi tarix davrida jinoiy yo‘l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishning jinoyat sifatida tan olinishining tarixiy shart-sharoitlari ham xalqaro xususiyatga ega ekanligini e’tirof etish lozim.

Jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatini (yuvish) xalqaro darajada jinoiy jazolanadigan qilmish sifatida e’tirof etilganligi bo‘yicha bir qancha asoslarni keltirish mumkin. Shuningdek, bu borada xalqaro miiqyosda ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish siyosatini belgilash va dasturini ishlab chiqishni taqozo etgan. Natijada, so‘nggi yigirma yil davomida aksariyat qonunchilik tizimlari jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish yoki uni tasarruf etishga qaratilgan harakatlarga qonuniy tus berishga yo‘naltirilgan qilmishlarni jinoyat sifatida tan oldi.

Jinoiy daromadlarni “tozalash” dastlabki asoschilari sifatida spirt mahsulotlarini noqonuniy ishlab chiqarish va muomalaga kiritishdan olingan pul mablag‘lariga AQSHning Chikago shtatida tashkil etilgan “kirxona” tarmog‘lari orqali qonuniy tus berishning ixtirochisi, amerikalik jinoyatchi Alfonsa Kapone, AQSHda nolegal kapitalga ega shaxslarning “iflos” pullarini Shveysariya, Germaniya, Italiya korxonalari aksiyalariga investitsiyalash, bank va kazinolarda amalga oshiriladigan firibgarliklar orqali legallashtirish ixtirochisi, “Omadli” laqabi bilan mashhur bo‘lgan Salvatore Luchano hamda Yevropa va Kubada joylashgan qimorxona va bank muassasalari orqali noqonuniy olingan pul mablag‘larini Shveysariyadan Kuba hamda Yevropaga o‘tkazgan, keyin esa mazkur jinoiy pul mablag‘larini “xorijiy investitsiya” sifatida Amerikaga qonuniy asoslarda qaytargan Meera Lanskiylar (Meer Suxovlyanskiy) ko‘rsatiladi [3, 19-20-b].

Har qanday davlat uchun, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'iy nazar milliy iqtisodiyotga jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarning kirib kelishi jinoiy uyushmalar tomonidan iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari ustidan nazorat o'rnatilishiga, korrupsiyaning keng tarqalishiga, insofsiz raqobat vositalari va usullariga, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini jinoiy guruhlar manfaatlari yo'lida qayta yo'naltirilishiga, umuman iqtisodiy tizimning sezilarli o'zgarishiga olib keladi [4].

Terminning xalqaro huquq normalarida o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab, dastlab "jinoiy daromadlarni tozalash" Yevropa Ittifoqining 1980-yil 27-iyundagi "Kelib chiqishi jinoiy bo'lgan pul mablag'larini o'tkazish va saqlashga qarshi chora-tadbirlar to'g'risida"gi №80/10 tavsiyalarida, BMTning 1988-yil 10-noyabrdagi "Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurash to'g'risida"gi Vena Konvensiyasida, Yevropa Kengashining 1990-yil 8-noyabrdagi "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni tozalashni aniqlash, olib qo'yish va musodara qilish to'g'risida"gi Konvensiyada, YEI Kengashining 1991-yil 10 iyundagi "Pullarni tozalash maqsadida moliyaviy tizimlardan foydalanishning oldini olish to'g'risida"gi Direktivasi va boshqa qator xalqaro hujjatlarda ishlatilgan.

Xalqaro huquqda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish ("yuvish") ga ta'rif 1988-yil 19-dekabrda qabul qilingan BMTning "Giyohvand moddalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to'g'risida"gi Vena konvensiyasida berilgan bo'lib, u G'arb mamlakatlarining tegishli qonunchiligini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatgan.

Yevropa Kengashining 1990-yil 8-noyabrdagi 141-sonli "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, aniqlash, olib qo'yish va musodara qilish to'g'risida"gi konvensiyasida nafaqat giyohvand moddalar savdosidan, balki boshqa jinoiy faoliyatdan olingan pullarni "yuvish" bilan bog'liq harakatlar jinoyat deb e'tirof etilgan. Konvensiyaning 6-moddasida mablag'larni "yuvish" bilan bog'liq huquqbuzarliklar ro'yxati belgilangan.

Interpolning 1993-yildagi ma'lumotlar byulletenida: "Mohiyatiga ko'ra pullarni tozalash o'zida noqonuniy faoliyat natijasida topil-

gan pullar bilan shunday xiyla-nayrangni amalga oshirish usullarini nazarda tutadiki, natijada ularning kelib chiqish manbai go‘yo “qonuniydek” bo‘ladi” [5, 38 b].

Yevropa Kengashining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, aniqlash, olib qo‘yish va musodara qilish to‘g‘risida” 1990-yil 8-noyabrdagi 141-son konvensiyasida nafaqat giyohvand moddalar savdosidan, balki boshqa jinoiy faoliyatdan olingan pullarni “yuvish” bilan bog‘liq harakatlar jinoyat deb e’tirof etilgan. Konvensiyaning 6-moddasida mablag‘larni “yuvish” bilan bog‘liq huquqbuzarliklar ro‘yxati belgilangan.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyati uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 243-moddasida javobgarlik belgilangan bo‘lib ya’ni, “jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, ya’ni mulk (pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk) jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo‘lsa, uni o‘tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo‘li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, xuddi shuningdek bunday pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko‘chirish usulini, pul mablag‘lariga yoki boshqa mol-mulkka bo‘lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashliligini yashirish yoxud sir saqlash” [6] da ifodalangan jinoiy harakatlar javobgarlik uchun asos bo‘ladi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlar- jinoyat sodir etish natijasida olingan pul mablag‘lari va boshqa mol-mulk, shuningdek bunday mol-mulkdan foydalanish orqali olingan har qanday foyda yoki naf, xuddi shuningdek to‘liq yoki qisman boshqa mol-mulkka aylantirilgan yoxud o‘zgartirilgan yoki qonuniy manbalar hisobidan olingan mol-mulkka qo‘shilgan pul mablag‘lari va boshqa mol-mulk [7].

Milliy va xorijiy qonunchilik, xalqaro huquq normalari hamda nazariy tadqiqotlar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish tushunchasi to‘liq hamda barcha jihatlarini qamrab olgan holda shakllanmagan, shuningdek jinoyatning ta’rifi va tasnifi, obyekti va predmeti borasida ham yagona yondashuv mavjud emas. Ushbu va boshqa bir qator omillar mazkur turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz lozimki, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hozirgi zamon ko‘rinishida paydo bo‘lganiga va ushbu atama bilan foydalanib kelinayotganiga ko‘p bo‘lmagan bo‘lsa-da, bu ijtimoiy hodisa sifatida insoniyat tarixining uzoq yillardagi o‘tmishidan mavjud bo‘lganligi, zamon rivojlanishi bilan hozirgi ko‘rinish va tushunchada nomoyon bo‘lganligi, texnologiya rivojlanishi bilan yanada turli xil tus olishi mumkinligini inobatga olib, ushbu turdagi jinoyatlarning jinoiy-huquqiy tahlilini hamda legallashtirishga qarshi kurash borasidagi chora-tadbirlar mexanizmini muntazam takomillashtirib borish zarur degan xulosaga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш тизими такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида” 25.02.2025 йилдаги ЎРҚ–1038-сон Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 26.02.2025 й., 03/25/1038/0188-сон.

2. //http://www.imf.org/external/russian/pubs/ft/ar/2017/pdf/ar16_rus.pdf

3. Безценный А.П. Постатейный практический комментарий к Федеральному закону от 7 августа 2001 г. Но115- ФЗ «О противодействия легализации (отмыванию) доходов, полученных преступным путем, и финансированию терроризма» для работников кредитных организаций. – М., 2005. – С.19-20;

4. Зубков В.А. Осипов С.К. Российская Федерация в международной системе противодействия легализации (отмыванию) преступных доходов и финансированию терроризма. – М., 2007. – С.19-20.

5. Трансграничные платежи. – Париж: ФАТФ (2021 г.). // https://www.fatf-gafi.org/publications/fatfrecommendations/documents/cross-borderpayments.html.

6. Жераль Мобиус. Отмывание денег. Информационный бюллетень Генерального секретариата Интерпола, 1993. №440: Сборник переводов «Борьба с отмыванием денег». – М., ВНИИ МВД России, 1995. 38-с.

7. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. https://www.lex.uz/acts/111453.

8. Ўзбекистон Республикасининг “Жиноий фаолиятдан олинган

даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш тўғрисида” 26.08.2004 йилдаги ЎРҚ–660-II-сон Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 43-сон, 451-модда.

Нодир Холикжон огли САФАРОВ,
Независимый исследователь
Национального центра по правам человека
Республики Узбекистан
E-mail: n.safarov@brmnnt.uz
Номер телефона: +998941211151

ГЛОБАЛЬНЫЕ ВЫЗОВЫ И ДЕМОКРАТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ: СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА

► ***Annotatsiya:*** *Maqolada XXI asrning demokratiya rivojlanishi va insonning ijtimoiy huquqlariga ta’sir ko‘rsatayotgan asosiy global chaqiriqlari ko‘rib chiqiladi. Muallifning xulosasiga ko‘ra, Yangi O‘zbekiston modeli demokratik islohotlar va ijtimoiy siyosatning uyg‘unlashuvini namoyish etib, global o‘zgarishlar sharoitida mamlakatning barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlamoqda.*

Kalit so‘zlar: *demokratiya, ijtimoiy huquqlar, ijtimoiy siyosat, global chaqiriqlar, fuqarolik jamiyati, inklyuziv rivojlanish, raqamlashtirish, barqaror rivojlanish maqsadlari, O‘zbekiston*

► ***Аннотация:*** *в статье рассматриваются основные глобальные вызовы XXI века, оказывающие влияние на демократическое развитие и социальные права человека. Автор приходит к выводу, что модель Нового Узбекистана демонстрирует органичное соединение демократических преобразований и социальной политики, что обеспечивает устойчивость и конкурентоспособность страны в условиях глобальных трансформаций.*

Ключевые слова: *демократия; социальные права; социальная политика; глобальные вызовы; гражданское общество; инклюзивное развитие; цифровизация; Цели устойчивого развития; Узбекистан.*

► ***Annotation:*** *The article examines the main global challenges of the 21st century that affect democratic development and social human rights. The author concludes that the model of New Uzbekistan demonstrates an organic integration of democratic reforms and social policy, ensuring the country's stability and competitiveness in the context of global transformations.*

Keywords: *democracy, social rights, social policy, global challenges, civil society, inclusive development, digitalization, Sustainable Development Goals, Uzbekistan*

В условиях глобальной трансформации современного мира демократические институты и социальные права человека оказываются под воздействием новых вызовов. Пандемия COVID-19 выявила ограниченность существующих моделей социальной защиты, а ускоренная цифровизация поставила на повестку дня вопросы информационной безопасности и равного доступа к технологиям.

Наряду с этим изменение климата, миграционные процессы и рост социально-экономического неравенства усложняют задачу сохранения устойчивости демократических систем.

Для Нового Узбекистана данные процессы приобретают особое значение, поскольку страна вступила в фазу глубоких демократических преобразований и провозгласила курс на построение социального государства. В центре этой стратегии стоят развитие человеческого капитала, укрепление социальной справедливости и создание равных возможностей для всех граждан.

Реформы последних лет в сферах образования, науки, социальной защиты и инклюзивного развития отражают стремление государства сформировать устойчивую модель, способную отвечать на глобальные вызовы. В новой редакции Конституции закреплён приоритет социальной политики и недопущение дискриминации в доступе к образованию и социальным услугам, что соответствует принципам Целей устойчивого развития ООН[1].

Таким образом, анализ роли социальной политики в демократическом развитии Узбекистана требует учёта как глобальных факторов, так и национальных особенностей, что придаёт теме исследования высокую научную и практическую актуальность.

Ускоряющаяся цифровизация и внедрение искусственного интеллекта создают новые возможности для обеспечения открытости и прозрачности демократических процессов. Однако они же формируют риски цифрового неравенства, ограничения доступа к знаниям и рост информационных угроз. В этом контексте Новый Узбекистан уделяет особое внимание вопросам кибербезопасности и расширению цифровой инфраструктуры в образовании и социальной сфере.

Не менее значимыми остаются климатические изменения и вызванные ими экологические кризисы. В частности, кризис Аральского моря, формируют новые вызовы для социальной политики. Рост числа заболеваний, связанных с экологическими факторами, вынуждает государство уделять особое внимание вопросам здравоохранения и обеспечения экологической справедливости. В этом контексте социальная политика Узбекистана сочетает демократические реформы с экологической повесткой, что отражается в национальных программах по смягчению последствий изменения климата и укреплению социальной устойчивости населения.

Ответом Узбекистана на данные вызовы стало провозглашение концепции социального государства. Данная концепция нашла своё отражение в масштабных реформах, направленных на развитие человеческого капитала и обеспечение равного доступа к социальным благам.

Реформы последнего десятилетия в Узбекистане убедительно демонстрируют, что демократизация и социальная политика рассматриваются государством как взаимосвязанные процессы. Центральное место в этой стратегии занимает идея социального государства, где обеспечение прав человека, развитие человеческого капитала и укрепление социальной справедливости выступают ключевыми ориентирами.

В новой редакции Конституции Республики Узбекистан закреплены положения, направленные на создание равных возможностей для всех граждан в сферах образования, здравоохранения и социальной защиты. Это соответствует принципам инклюзивного общества и реализации глобальной повестки Целей устойчивого развития. В частности, в Конституцию введена норма о недопущении дискриминации в сфере образования и гарантии социальной защиты педагогов, что свидетельствует о приоритетности данной области для государства.

Реализуемая политика получила практическое воплощение в ряде масштабных инициатив. Так, финансирование системы образования увеличено в семь раз, а только в 2025 году на развитие школьного и дошкольного образования выделено 60 триллионов сумов. Благодаря этому охват дошкольным образованием вырос с 27 до 78 процентов, число детских садов достигло 38 тысяч, а количество педагогов увеличилось более чем в три раза[2].

Важным направлением является развитие инклюзивного образования и расширение возможностей для уязвимых групп населения. В республике созданы специализированные дошкольные учреждения с центрами реабилитации, внедрены инклюзивные классы в школах, а также реализуются программы поддержки детей с инвалидностью. Эти меры отражают стремление государства претворить в жизнь принцип **«не оставлять никого в стороне»** и обеспечить равный доступ к социальным благам.

Социальная политика охватывает и сферу высшего образования. За восемь лет охват студентов вузами вырос с 9 до 42 процентов, созданы около 70 негосударственных университетов и более 30 филиалов зарубежных вузов[3]. Расширение доступности и диверсификация форм обучения стали важным инструментом демократизации общества и развития человеческого капитала.

Важным результатом реформ является также то, что в 2024 году молодежь Узбекистана заняла 1-е место в Центральной Азии по поступлению в топ–500 вузов. В настоящее время в топ-вузах мира обучаются свыше 2 тысяч наших студентов, 750 из них – за

счет государства по линии Фонда «Эл-юрт умиди»[4].

Таким образом, социальная политика Нового Узбекистана не ограничивается мерами социальной поддержки, а формирует комплексную систему, направленную на укрепление прав человека и создание условий для равного участия граждан в общественной и политической жизни. Это превращает её в важнейший элемент демократических преобразований и устойчивого развития страны.

Особое значение в оценке эффективности социальной политики приобретают международные индексы. Так, по данным Всемирного банка, в Индексе человеческого капитала Узбекистан в последние годы демонстрирует положительную динамику, что связано с расширением охвата образованием и повышением доступности медицинских услуг. Например, по данным Отчёта ООН по человеческому развитию, с 2000 по 2025 годы показатель Индекса человеческого развития (HDI) в Узбекистане вырос на 22,7 процентов, при этом ожидаемая продолжительность жизни увеличилась почти на 7 лет, а валовый национальный доход на душу населения — более чем на 225 процентов[5].

Современные демократические преобразования невозможны без активного участия институтов гражданского общества. В Узбекистане именно они становятся важным посредником между государством и обществом, обеспечивая обратную связь, контроль за деятельностью государственных органов и продвижение интересов различных социальных групп.

В последние годы в стране создана благоприятная правовая база для расширения деятельности неправительственных некоммерческих организаций (ННО), общественных объединений и инициативных групп граждан. Государственная поддержка выражается не только в финансовом содействии, но и в предоставлении институциональных условий для их участия в реализации социальных программ и мониторинге соблюдения прав человека

Особую значимость деятельность институтов гражданского общества приобретает в условиях глобальных вызовов. Распрос-

транение цифровых технологий требует выработки новых форм общественного контроля и повышения цифровой грамотности населения. ННО участвуют в просветительских проектах, направленных на защиту прав граждан в информационном пространстве и развитие цифровой грамотности, что повышает устойчивость общества перед информационными угрозами.

Наряду с этим, гражданский сектор активно вовлечён в проекты, связанные с инклюзией и социальной поддержкой уязвимых групп. Развитие инклюзивного образования, реабилитационных центров для детей с особыми потребностями, поддержка женщин и молодёжи стали сферами, где роль ННО заметно возросла. Эти инициативы не только укрепляют социальную справедливость, но и способствуют формированию культуры солидарности и взаимной ответственности.

Международное сотрудничество также становится важным инструментом деятельности гражданского общества. Участие узбекских ННО в проектах ООН, ОБСЕ, ЮНИСЕФ и других международных организаций позволяет внедрять лучшие практики, усиливать потенциал национальных институтов и обеспечивать гармонизацию национальных реформ с глобальной повесткой Целей устойчивого развития.

Таким образом, институты гражданского общества выступают ключевым актором демократических преобразований, обеспечивая связь между государственными инициативами и реальными потребностями граждан. Их активное участие в преодолении глобальных вызовов усиливает демократический характер социальной политики Узбекистана и способствует формированию более устойчивой модели развития.

Демократическое развитие в условиях глобальных вызовов невозможно без устойчивой и справедливой социальной политики. Опыт Узбекистана показывает, что формирование социального государства, ориентированного на развитие человеческого капитала и защиту прав человека, становится стратегическим ответом на мировые трансформации.

Таким образом, глобальные вызовы становятся не только

фактором риска, но и стимулом для ускорения демократических реформ. Узбекистан, используя возможности образования, науки и инноваций, выстраивает модель, в которой социальные права человека и демократические процессы взаимно усиливают друг друга, обеспечивая устойчивое развитие государства и общества.

Список использованной литературы:

1. Конституция Республики Узбекистан в новой редакции. Электронный ресурс: https://lex.uz/docs/6445147

2. Новый этап реформ в школьном образовании. Электронный ресурс: https://president.uz/ru/lists/view/8127

3. Высшее учебное заведение с самым большим количеством студентов в Узбекистане? Электронный ресурс: https://talimtelekanali.uz/uz/ozbekistonda-eng-kop-talabaga-ega-oliygoh-15-01-2025/

4. Выступление Президента Шавката Мирзиёева на торжественной церемонии, посвященной 34-й годовщине государственной независимости Республики Узбекистан. Электронный ресурс: https://president.uz/ru/lists/view/8440

5. 2025 UNDP Human Development Report Presented in Samarkand. Электронный ресурс: https://www.undp.org/uzbekistan/press-releases/2025-undp-human-development-report-presented-samarkand

Nazokat Baxtiyor qizi ARTIQBOEVA,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi tayanch doktoranti
Email: uzromedia11117@gmail.com Tel: +998 88 142 15 13

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA YOSHLARNING INTERNETDAN FOYDALANISH MADANIYATI VA IJTIMOIY OQIBATLARI

► ***Annotatsiya:*** *Hozirgi global raqamli transformatsiya jarayonlari inson hayotining barcha sohalariga, ayniqsa yosh avlod dunyoqarashi va turmush tarziga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Internetdan foydalanish madaniyatining shakllanishi yoshlarning axborot olish, ta’lim, muloqot va ijtimoiy faolligini kengaytirsa-da, ortiqcha va nazoratsiz foydalanish ijtimoiy aloqalarning susayishi, ruhiy salomatlikka xavf va internetga qaramlik kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Maqolada internet madaniyatining ijtimoiy ahamiyati, O‘zbekiston yoshlari orasida foydalanish tendensiyalari hamda ijobiy va salbiy oqibatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, axborot xavfsizligi, davlat va jamiyat institutlarining mas’uliyati, raqamli savodxonlikni oshirish yo‘nalishlari bo‘yicha tavsiyalar ilgari suriladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli transformatsiya, internet madaniyati, yoshlar, ijtimoiy oqibatlar, axborot xavfsizligi, internetga qaramlik, raqamli savodxonlik.*

Аннотация: *Современные процессы глобальной цифровой трансформатsiи оказывают серьёзное влияние на все сферы человеческой жизни, особенно на мировоззрение и образ жизни молодого поколения. Формирование культуры использования интернета расширяет возможности молодёжи в получении информатsiи, образовании, коммуникатsiи и социальной активности, однако чрезмерное и неконтролируемое использование приводит к ослаблению социальных связей, угрозам психическому здоровью и формированию интернет-зависимости. В статье анализируется социальная значимость интернет-культуры, тенденции её использования среди молодёжи Узбекистана, а также положительные и отрицательные последствия. Наряду с этим выдвигаются рекомендатsiи по вопросам информатsионной безопасности, ответственности государственных и общественных институтов, а также направлениям повышения цифровой грамотности.*

Ключевые слова: *цифровая трансформатsiя, интернет-культура, молодёжь, социальные последствия, информационная безопасность, интернет-зависимость, цифровая грамотность.*

► ***Abstract:*** *The ongoing processes of global digital transformation have a profound impact on all spheres of human life, particularly on the worldview and lifestyle of the younger generation. The formation of internet culture expands opportunities for youth in information access, education, communication, and social engagement, yet excessive and uncontrolled use leads to weakened social ties, risks to mental health, and the development of internet addiction. This paper analyzes the social significance of internet culture, usage trends among Uzbek youth, as well as its positive and negative outcomes. Furthermore, recommendations are proposed concerning information security, the responsibility of state and societal institutions, and strategies for enhancing digital literacy.*

Keywords: *digital transformation, internet culture, youth, social consequences, information security, internet addiction, digital literacy.*

XXI asr insoniyat taraqqiyotida raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanishi va jamiyatning barcha sohalariga chuqur kirib borishi bilan xarakterlanadi. Bugungi global axborot makonida internet nafaqat axborot almashish vositasi, balki siyosiy jarayonlarning, iqtisodiy munosabatlarning, ta’lim va madaniy hayotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda [1]. Internet texnologiyalari davlat boshqaruvi tizimida elektron hukumat shakllanishiga, biznes sohasida elektron tijorat rivojiga, ijtimoiy hayotda esa raqamli madaniyatning shakllanishiga zamin yaratmoqda.

O‘zbekistonda ham raqamli transformatsiya jarayonlari jadal sur’atlarda amalga oshirilmoqda. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yil holatiga mamlakatda internetdan foydalanuvchilar soni 23,5 million kishini tashkil etgan. Bu umumiy aholining qariyb 65 foiziga teng bo‘lib, 2015 yildagi ko‘rsatkichdan qariyb ikki barobar yuqori hisoblanadi [2]. Mobil internet xizmatlarining ommalashuvi, smartfonlardan foydalanish darajasining ortishi yoshlar orasida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish imkoniyatini yaratdi.

Yoshlar jamiyatning eng faol ijtimoiy qatlami sifatida internetdan ko‘p foydalanadigan guruh hisoblanadi. Turli sotsiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning internetdan foydalanish maqsadlari turli-tuman: ta’lim va ilm-fan sohasida ma’lumot izlash, onlayn kurslarda ishtirok etish, ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish, global madaniy tendensiyalardan xabardor bo‘lish, mobil o‘yinlar va ko‘ngilochar platformalardan foydalanish, elektron tijorat orqali xarid amalga oshirish va hokazo [3]. Bu jarayon yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilsa-da, ayni paytda ularning kundalik turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Internetdan foydalanishning ijobiy jihatlari juda ko‘p. Masalan, ta’lim sohasida masofaviy darslar, onlayn seminar va treninglar, elektron kutubxonalar yordamida bilim olish imkoniyatlari kengaymoqda. UNESCO hisobotlariga ko‘ra, raqamli savodxonlik yoshlarning global mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlaydi [4]. Shu bilan birga, internet yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirib, ularni fuqarolik jamiyatida faol ishtirokchiga aylantirish imkoniyatini ham yaratadi.

Biroq internetdan ortiqcha va nazoratsiz foydalanish salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, ayniqsa o‘smirlar orasida internetga qaramlik, ijtimoiy izolyatsiya, ruhiy salomatlik muammolari kabi holatlar tobora ko‘p kuzatilmoqda [5]. Internet orqali tarqaladigan asossiz axborotlar va yolg‘on xabarlar (feyklar) esa yoshlarning ongli dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois raqamli muhitda axborot xavfsizligini ta’minlash, media va axborot savodxonligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Keyingi yillarda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Facebook, Instagram, Telegram va TikTok kabi platformalar orqali yoshlar nafaqat muloqot qiladi, balki siyosiy va ijtimoiy jarayonlardan ham xabardor bo‘ladi. Masalan, Oksford universiteti tadqiqotchilari internetdan foydalanish va fuqarolik faolligi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjudligini ta’kidlaydilar [6]. Biroq ayni platformalarda tarqaladigan nomaqbul kontent, ekstremistik g‘oyalar yoki ommaviy madaniyatning salbiy ta’siri milliy qadriyatlar va ma’naviy asoslarga xavf tug‘dirishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish masalasi davlat, oila va ta’lim muassasalari oldidagi muhim vazifalardan biriga aylandi. Yoshlarda raqamli savodxonlik va axborot madaniyatini yuksaltirish nafaqat ularning shaxsiy rivoji, balki jamiyatning barqaror demokratik taraqqiyoti uchun ham zarurdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, internetdan foydalanish madaniyatini o‘rganish – bu zamonaviy jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi, dunyoqarashi va ma’naviy qiyofasiga ta’sir etuvchi muhim ilmiy masaladir. Bu masalani chuqur tahlil qilish yoshlar hayotida raqamli muhitning ijobiy imkoniyatlaridan unumli foydalanish va salbiy oqibatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Internet madaniyati tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha ta’riflansa-da, uning umumiy mazmuni insonning raqamli muhitda axborotdan maqsadli, mas’uliyatli va axloqiy me’yorlarga asoslangan holda foydalanish ko‘nikmalarini qamrab oladi [4]. Internet madaniyati nafaqat texnik bilim va ko‘nikmalarni, balki onlayn muloqotdagi xulq-atvor qoidalari, shaxsiy xavfsizlikni ta’minlash, axborot manbalarini tanlash va tekshirish ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi.

Yoshlar jamiyatida internet madaniyati alohida ahamiyatga ega. Chunki ular axborot texnologiyalaridan eng faol foydalanuvchi qatlam hisoblanadi. Zamonaviy yoshlar uchun internet nafaqat ta’lim va axborot manbai, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy mobillik va kasbiy imkoniyatlarni kengaytirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi [5]. Masalan, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta’lim dasturlari yoshlarga bilim olish imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo‘lsa, ijtimoiy tarmoqlar ularga global muloqot va hamkorlik maydonini taqdim etmoqda.

Biroq internet madaniyatining ijtimoiy ahamiyati nafaqat imkoniyatlar bilan, balki xavflar bilan ham bog‘liq. Axborot oqimida yolg‘on xabarlar, zararli kontent, virtual muhitga chuqur berilish va ijtimoiy izolyasiya kabi holatlar kuzatilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, internetdan ortiqcha foydalanish o‘smirlar orasida turli ruhiy salomatlik muammolarini kuchaytiradi [6]. Shu bois yoshlarda mas’uliyatli internet madaniyatini shakllantirish, ularda media va axborot savodxonligini oshirish davlat va jamiyat oldidagi muhim vazifadir.

Internet madaniyatining ijtimoiy ahamiyati shundaki, u demokratik jamiyatda yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishi, global madaniy jarayonlarda ishtirok etishi va innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, milliy ma’naviyat va an’anaviy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan uyg‘unlashtirilganda, internet madaniyati jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Internet yoshlar hayotida ta’lim, ishbilarmonlik, ijtimoiy muloqot va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Avvalo, internet ta’lim jarayonini demokratlashtirishga xizmat qiladi. Masofaviy o‘qish platformalari, onlayn kurslar va virtual kutubxonalar orqali yoshlar jahonning etakchi universitetlari va ilmiy markazlari bilan aloqada bo‘lish imkoniga ega bo‘lmoqda [7]. Bu holat bilim olishda hududiy cheklovlarni yo‘qotib, teng imkoniyatlar yaratadi.

Ikkinchidan, internet orqali yoshlar kasbiy va ishbilarmonlik salohiyatini rivojlantirishi mumkin. Masalan, elektron tijorat platformalari, frilans xizmatlari yoki raqamli startaplar yosh tadbirkorlarga bozorga kirish imkoniyatini bermoqda [8]. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi yangi turdagi ish o‘rinlarini yaratib, yoshlarning mehnat bozoridagi ishtirokini kuchaytiradi.

Uchinchidan, internet fuqarolik jamiyatining faol a’zosi bo‘lish imkoniyatini ham kengaytiradi. Jamoatchilik tashabbuslari, onlayn petisiyalar yoki ijtimoiy tarmoqlardagi muhokamalar orqali yoshlar ijtimoiy hayotda ishtirok etib, o‘z pozisiyalarini ifoda etish imkoniyatiga ega [9]. Bu holat demokratik jarayonlarni kuchaytiradi va yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Shu bilan birga, internet shaxsiy rivojlanishning muhim omili sifatida xizmat qiladi. Turli onlayn kurslar orqali til o‘rganish, kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish, turli sohalar bo‘yicha malaka oshirish imkoniyati mavjud. Masalan, YuNESKOning ta’lim sohasidagi hisobotlarida qayd etilganidek, raqamli ta’lim yoshlar uchun uzluksiz ta’lim imkoniyatlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda [10].

Internet imkoniyatlari keng bo‘lsa-da, undan ortiqcha va nazoratsiz foydalanish ko‘plab salbiy ijtimoiy va psixologik oqibatlarga

olib keladi. Avvalo, internetga qaramlik muammosi yoshlar orasida tobora kengayib bormoqda. Psixologiya tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, virtual muhitga chuqur sho'ng'ib ketgan yoshlarda real hayotdagi ijtimoiy munosabatlar susayadi, uyqu tartibi buziladi va diqqat to'plash qobiliyati pasayadi [11].

Ikkinchidan, internet orqali tarqaladigan yolg'on xabarlar va manipulyativ kontent jamiyatdagi ijtimoiy ishonchga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, yoshlar dezinformatsiya va feyk xabarlarga eng ta'sirchan qatlam hisoblanadi [12]. Bu esa ularning dunyoqarashini biryoqlama shakllantirib, sog'lom fikr yuritish qobiliyatiga xavf soladi.

Uchinchidan, internetdan ortiqcha foydalanish yoshlarning sog'lig'iga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, ekran oldida uzoq vaqt o'tirish ko'z muammolari, suyak-muskul tizimidagi kasalliklar va turli nevrologik buzilishlarga sabab bo'lishi mumkin [13]. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi virtual taqqoslash holatlari depressiya va ijtimoiy izolyasiyani kuchaytiradi.

To'rtinchidan, internetning salbiy ta'siri milliy madaniy qadriyatlarning susayishi bilan ham bog'liq. Globallashuv jarayonida yoshlar milliy an'analar va ma'naviy merosdan uzoqlashib, virtual muhitdagi begona g'oya va turmush tarzini qabul qilishi ehtimoli yuqori. YuNESKO hisobotlarida ta'kidlanishicha, raqamli muhitda madaniy identiklikni asrab qolish jahon miqyosida muhim vazifaga aylangan [14].

Internet orqali axborot almashinuvi ortishi bilan xavfsizlik muammolari ham kuchaymoqda. Yoshlar fishing, kiberbulling, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash kabi tahdidlarga ko'proq duch kelmoqdalar [15]. Shu bois media savodxonlik, kibergigiena va raqamli huquqlar to'g'risida bilim berish dolzarb vazifa hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar tavsiyasiga ko'ra, axborot xavfsizligi milliy qonunchilik, ta'lim va oilaviy tarbiyada integratsiya qilinadigan muhim yo'nalish bo'lishi lozim [16].

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, internetdan foydalanish yoshlar uchun keng imkoniyatlar ochib berishi bilan birga, turli ij-

timoiy va psixologik xavflarni ham olib keladi. Internet madaniyati va axborot xavfsizligi masalalarini kompleks tarzda hal qilish orqali yoshlarning ijtimoiy faolligi, ma'naviy barkamolligi va raqobatbardoshligi ta'minlanadi. Shu bois, internetdan oqilona foydalanish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va raqamli ta'lim imkoniyatlarini to'g'ri yo'naltirish O'zbekistonda demokratik rivojlanish va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi. Bundan tashqari, bolalarni onlayn himoya qilish (COP) tashabbusi Xalqaro elektraloqa ittifoqi (ITU) tomonidan bolalarning onlayn xavfsizligi haqida xabardorlikni oshirish va hukumatlar, sanoat va o'qituvchilarga yordam berish uchun amaliy vositalarni ishlab chiqish uchun tashkil etilgan ko'p manfaatli tarmoqdir. XEI Bolalarni onlayn himoya qilish bo'yicha yo'riqnomasi barcha manfaatdor tomonlar uchun bolalar va yoshlar uchun xavfsiz va imkoniyatlarni kengaytiruvchi onlayn muhitni rivojlantirishga qanday hissa qo'shish bo'yicha keng qamrovli tavsiyalar to'plamini taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Castells M. *The Internet Galaxy: Reflections on the Internet, Business, and Society*. – Oxford: Oxford University Press, 2001. – 304 p.

2. Norris P. *Digital Divide: Civic Engagement, Information Poverty, and the Internet Worldwide*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 303 p.

3. OECD. *Youth and Digital Transformation*. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 220 p.

4. Livingstone S., Helsper E. Balancing Opportunities and Risks in Teenagers' Use of the Internet // *Journal of Youth Studies*. – 2020. – Vol. 23, №6. – P. 709–725.

5. To'xtayeva M. Ilmiy izlanishda kreativ yondashuv asoslari // *Ilm va innovatsiya*. – 2021. – №3. – B. 40–46.

6. World Health Organization. *Adolescent Health and Digital Media: Risks and Opportunities*. – Geneva: WHO, 2021. – 110 p.

7. Anderson T., Rivera J. Online Learning in the 21st Century: A Review of Research // *Educational Technology & Society*. – 2021. – Vol. 24, №4. – P. 1–14.

8. Schwab K. *The Fourth Industrial Revolution*. – Geneva: World Economic Forum, 2018. – 192 p.

9. Shirky C. *Here Comes Everybody: The Power of Organizing Without Organizations*. – London: Penguin Press, 2008. – 344 p.

10. UNESCO. *Global Education Monitoring Report 2022: Technology in Education*. – Paris: UNESCO Publishing, 2022. – 410 p.

11. Young K. S., Abreu C. N. *Internet Addiction: A Handbook and Guide to Evaluation and Treatment*. – Hoboken: Wiley, 2011. – 336 p.

12. Wardle C., Derakhshan H. *Information Disorder: Toward an Interdisciplinary Framework for Research and Policy Making*. – Strasbourg: Council of Europe, 2017. – 107 p.

13. World Health Organization. *WHO Guidelines on Physical Activity, Sedentary Behaviour and Sleep for Children under 5 Years of Age*. – Geneva: WHO, 2019. – 36 p.

14. UNESCO. *Culture in Crisis: Policy guide for a resilient creative sector*. – Paris: UNESCO Publishing, 2020. – 112 p.

15. Cybersecurity and Infrastructure Security Agency (CISA). *Cybersecurity Awareness Month Toolkit*. – Washington D.C.: CISA, 2022. – 45 p.

16. International Telecommunication Union. *Global Cybersecurity Index 2021*. – Geneva: ITU, 2021. – 180 p.

Dilnoza Xodjiakmalovna MIRSAIDOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi Tel: +998 93 379 42 68

AXBOROT XAVFSIZLIGI VA SUN’IY INTELLEKTNING IJTIMOIY MUNOSABATLARGA TA’SIRI

► ***Annotatsiya:*** *Maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining ijtimoiy munosabatlarga ta’siri sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Inson va texnika o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning yangi shakllari, yoshlar dunyoqarashining transformatsiyasi hamda axborot xavfsizligi masalalariga e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, raqamli savodxonlik, huquqiy kafolatlar va axloqiy me’yorlar asosida jamiyat barqarorligini ta’minlash yo‘llari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ijtimoiy munosabatlar, raqamli jamiyat, xavfsizlik, yoshlar, axloqiy me’yorlar.*

► ***Аннотация*** *В статье рассматривается влияние технологий искусственного интеллекта на социальные отношения с социологической точки зрения. Особое внимание уделено новым формам взаимодействия человека и техники, трансформации мировоззрения молодежи и вопросам информационной безопасности. Также предложены подходы к обеспечению устойчивости общества на основе цифровой грамотности, правовых гарантий и этических норм.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, социальные отношения, цифровое общество, безопасность, молодежь, этические нормы.*

► ***Annotation:*** *The article analyzes the impact of artificial intelligence technologies on social relations from a sociological perspective. It highlights new forms of human–machine interaction, the transformation of youth worldviews, and issues of information security. The study also outlines ways to ensure social stability through digital literacy, legal guarantees, and ethical norms.*

Keywords: *artificial intelligence, social relations, digital society, security, youth, ethical norms.*

Hozirgi davrda raqamli transformatsiya jarayonlari insoniyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib kelmoqda. Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari ayniqsa ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, o‘zaro muloqot va ma’lumot almashinuvi, shuningdek, boshqaruv tizimining samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Dunyo miqyosida olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, SI jamiyat taraqqiyotini tezlashtirish bilan birga, axborot xavfsizligi sohasida yangi chaqiriqlarni ham yuzaga keltirmoqda [1].

Ayniqsa, shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash, ma’lumotlar bazalarining hajmining ortishi, algoritmik boshqaruv va nazorat mexanizmlarining kuchayishi ijtimoiy ishonchga bevosita ta’sir qilmoqda. Bu jarayonda feyk xabarlarning tez tarqalishi, manipulyativ axborot oqimlarining kuchayishi va raqamli asimmetriya jamiyatda yangi turdagi ijtimoiy xavflarni yuzaga chiqarishi mumkin. Shu sababli sun’iy intellekt texnologiyalarining ijtimoiy oqibatlarini sotsiologik yondashuv asosida tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir [2].

Sun’iy intellektning jadal rivojlanishi jamiyatda mavjud ijtimoiy munosabatlarning shakl va mazmunini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Avvalo, insonlar o‘rtasidagi kommunikatsiya vositalarining diversifikatsiyalashuvi kuzatilmoqda. Masalan, ilgari yuzma-yuz muloqot yetakchi ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, hozirda sun’iy intellekt asosidagi ilovalar, virtual yordamchilar va algoritmik tahlil platformalari insonlararo munosabatlarning muhim qismi sifatida qaralmoqda [3].

SI asosidagi texnologiyalar ta’lim jarayonida o‘quvchilar va talabalar o‘rtasida interaktiv hamkorlikni kuchaytirmoqda, mehnat bozorida esa yangi kasb va malaka turlarini shakllantirmoqda. Shu bilan birga, odamlarning ijtimoiy rol va maqomlari ham qayta ko‘rib chiqilmoqda. Masalan, sun’iy intellekt algoritmlari yordamida qabul qilinayotgan qarorlar insonlarning hayotiy tanlovlariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy adolat, tenglik va shaffoflikka oid yangi bahs-munozaralarni yuzaga chiqarmoqda [4].

Sotsiologik nuqtayi nazardan qaraganda, sun’iy intellekt ijtimoiy tizimda yangi munosabatlar maydonini yaratmoqda. Bu maydon bir tomondan qulaylik va samaradorlikni oshirsa, ikkinchi tomondan insonlarning bir-biriga bo‘lgan ishonchi va an’anaviy ijtimoiy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatida uzilishlarga sabab bo‘lmoqda.

Axborot xavfsizligi masalasi bugungi kunda nafaqat texnologik, balki sotsiologik nuqtayi nazardan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki raqamli jamiyatda axborot oqimlari insonlarning ongini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni boshqarish va hatto siyosiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish vositasiga aylanmoqda. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi algoritmlar orqali katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, foydalanuvchilar xatti-harakatlarini oldindan prognozlash va ularni ma’lum bir qarorga yo‘naltirish imkoniyatlari mavjud. Bu jarayon ijtimoiy boshqaruvning noan’anaviy shakllarini yuzaga keltirib, jamiyatning barqarorligi va axborot xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarmoqda [5].

Sotsiologik yondashuv axborot xavfsizligini nafaqat texnik himoya vositalari, balki ijtimoiy institutlarning faoliyati, aholining ong darajasi va raqamli madaniyat ko‘rsatkichlari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qiladi. Chunki insonlarning axborotdan foydalanish madaniyati, ularning soxta xabarlarni tanib olish qobiliyati va axborot oqimiga bo‘lgan tanqidiy munosabati jamiyatdagi xavfsizlik darajasini belgilab beradi. Shu nuqtayi nazardan, internetdan foydalanish odatlari, ijtimoiy tarmoqlardagi faollik va yoshlarning raqamli savodxonligi masalalari ijtimoiy xavfsizlikning asosiy indikatorlari sifatida ko‘riladi [6].

Bundan tashqari, sun’iy intellekt yordamida yaratilayotgan soxta kontent (deepfake), avtomatlashtirilgan botlar orqali ijtimoiy fikrga ta’sir ko‘rsatish ham zamonaviy xavf sifatida sotsiologlarning diqqat markazida turibdi. Chunki bu hodisalar aholining ishonchini susaytirishi, ijtimoiy tarqoqlikka sabab bo‘lishi va fuqarolik jamiyati institutlarining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli axborot xavfsizligi masalasini faqat texnik muammo sifatida emas, balki ijtimoiy fenomen sifatida ham o‘rganish muhimdir.

O‘zbekiston sharoitida ham bu masala dolzarb bo‘lib, davlat tomonidan qabul qilinayotgan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida axborot xavfsizligini ta’minlash, aholining raqamli savodxonligini oshirish va nodavlat-notijorat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatini kengaytirish zaruriyati ortib bormoqda [7].

Demak, sotsiologik yondashuv axborot xavfsizligini faqat texnik jihatdan emas, balki inson omili, ijtimoiy institutlarning mas'uliyati va jamiyatning o'zaro aloqalari bilan birgalikda kompleks tarzda o'rganishni talab qiladi. Bu yondashuv ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va raqamli xavfsizlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati institutlari demokratik jarayonlarning muhim tayanchi sifatida faoliyat yuritadi. Ularning samaradorligi, avvalo, axborot almashinuvi, ochiqlik va fuqarolarning ijtimoiy faolligiga bog'liqdir. So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari ushbu institutlarning faoliyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, ular jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, ochiq ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy muammolarni tezkor tahlil qilish va hal etishda samarali vosita sifatida qo'llanilmoqda [8].

Masalan, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) sun'iy intellekt asosida ishlovchi monitoring tizimlari yordamida aholining ehtiyojlarini tezkor aniqlash, ijtimoiy loyihalarni samarali yo'naltirish va fuqarolar bilan muntazam muloqotni yo'lga qo'yish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shu bilan birga, davlat boshqaruvi tizimida ham sun'iy intellekt asosida axborotlarni tahlil qilish, fuqarolarning murojaatlarini qayta ishlash va qaror qabul qilish jarayonida shaffoflikni oshirishga xizmat qilmoqda [9].

Biroq sun'iy intellektning fuqarolik jamiyati institutlariga ta'siri faqat ijobiy emas. Chunki noto'g'ri ma'lumotlar tarqalishi, raqamli manipulyatsiyalar va algoritmik nazoratning kuchayishi fuqarolarning erkinliklariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, inson huquqlarini himoya qilish, shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash va fuqarolik institutlarining mustaqilligini saqlashda yangi muammolar yuzaga chiqmoqda. Shu bois fuqarolik jamiyati institutlari nafaqat sun'iy intellektdan foydalanish, balki uning ijtimoiy oqibatlarini baholash va nazorat qilish jarayonida ham faol bo'lishlari zarur.

Shunday qilib, sun'iy intellektning fuqarolik jamiyati institutlariga ta'siri ikki yoqlama xarakterga ega: u ochiqlik va samaradorlikni oshirishi mumkin, biroq nazoratsiz holatda u demokratik jarayonlarga xavf tug'diradi. Shu bois bu jarayonni huquqiy, axborot xavfsizligi

va sotsiologik yondashuvlar orqali muvozanatli boshqarish muhimdir.

O‘zbekiston jamiyatida sun’iy intellektning qo‘llanilishi tobora kengayib bormoqda. Davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va iqtisodiyot sohalarida yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida davlat xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish, ochiq ma’lumotlar bazalarini kengaytirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha qator vazifalar belgilangan [10]. Bu o‘zgarishlar ijtimoiy munosabatlarda shaffoflikni oshirish, fuqarolarning davlat bilan muloqotini yengillashtirishga xizmat qilmoqda.

Sun’iy intellektning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Bir tomondan, u jamiyatda yangi imkoniyatlar yaratib, fuqarolik institutlari faoliyatini kuchaytiradi, axborot almashinuvi va boshqaruv samaradorligini oshiradi. Ikkinchi tomondan, noto‘g‘ri qo‘llanishi nazoratning kuchayishi, shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishi va ijtimoiy ishonchning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois sun’iy intellektdan foydalanishda sotsiologik yondashuv muhim o‘rin tutadi. U jamiyatdagi real ehtiyojlarni, xavflarni va imkoniyatlarni tahlil qilib, muvozanatli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

O‘zbekiston sharoitida sun’iy intellektning ijtimoiy oqibatlarini chuqur o‘rganish, aholining raqamli savodxonligini oshirish va axborot xavfsizligini ta’minlash milliy rivojlanish strategiyalarining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim. Bu yo‘nalishda davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va ilmiy doiralar hamkorligida kompleks yondashuv zarur. Shu sababli, raqamli muhitning odamlarga ta’siri qo‘shimcha o‘rganishni talab qiladigan murakkab masala. Bu nafaqat mavjud tahdidlarni aniqlash, balki raqamli asrda odamlar uchun xavfsiz va qulay yashashni ta’minlash uchun echimlarni topish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. To‘xtayeva M. Ilmiy izlanishda kreativ yondashuv asoslari // Ilm va innovatsiya. – 2021. – №3. – B. 40–46.

2. Назаров Қ. Рақамли жамият ва ёшлар: социологик таҳлил. – Тошкент: Ijtimoiy fikr, 2022. – 180 б.

3. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 2010. – 597 p.

4. Floridi L. The Ethics of Artificial Intelligence // Minds and Machines. – 2019. – Vol. 29. – P. 1–7.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги. Raqamli madaniyat va axborot xavfsizligi muammolari. – Toshkent, 2023. – 120 b.

6. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – New York: W.W. Norton & Company, 2014. – 306 p.

7. Turkle Sh. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. – New York: Basic Books, 2017. – 360 p.

8. UNESCO. Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 220 p.

9. Ҳасанова Д. Sun’iy intellekt ва ахлоқий меъёрлар: социологик ёндашув // Фалсафа ва ҳуқуқ. – 2022. – №4. – Б. 55–62.

10. World Economic Forum. Shaping the Future of Technology Governance: Artificial Intelligence and Machine Learning. – Geneva: WEF, 2020. – 45 p.

Adxam AXMEDOV,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi
Farg‘ona hududiy bo‘linmasi rahbari
e-mail: ahmedov_adham@inbox.ru
tel: +998901606007

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAHALLA INSTITUTINING TRANSFORMATSIYASI: RAQAMLASHTIRISH, KOLLEGIAL BOSHQARUVNING INNOVATSION MEXANIZMLARI

Annotatsiya: *O‘zbekiston Respublikasida mahalla institutining boshqaruv tizimidagi o‘rni va vakolatlari kengaymoqda, Yangi O‘zbekiston siyosiy kontseptsiyasiga muvofiq, mahallaning “quyi bo‘g‘in”da islohotlar ijrochisi, jamoatchilik bilan davlat organlari O‘rtasidagi “ko‘prik” sifatidagi o‘rni ortib bormoqda.*

Ushbu maqolada mahalla faoliyatini raqamlashtirish, aholining boshqaruvdagi ishtirokini ta’minlashdagi o‘zgarishlar, xalqaro tajriba va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida kollegial qarorlar qabul qilishning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati bayon etilgan

Kalit so‘zlar*: mahalla, kollegial boshqaruv, iqtisodiy faollik, raqamlashtirish, mahalla platformasi, fuqarolik jamiyati*

► ***Abstract:*** *In the Republic of Uzbekistan, the role and powers of the neighborhood Institute in the management system are expanding, in accordance with the new Uzbekistan political concept, the role of the neighborhood in the «lower branch»as a reform executive, a «bridge» between the public and state bodies is increasing.*

This article describes the digitalization of neighborhood activities, changes in ensuring the participation of the population in management, directions of development in international experience and prospects, the importance of collegial decision-making in the self-government bodies of citizens in the development of civil society.

Keywords: *neighborhood, collegial governance, economic activity, digitalization, neighborhood platform, civil society*

Insoniyat tarixida birgalikdagi faoliyatni tashkil etishning ko‘plab ko‘rinishlari shakllandi, bu turlar oxir-oqibat boshqaruv institutlarining o‘ziga xos shakllariga ega bo‘ldi.

Ushbu institutlar xorijiy mamlakatlarning tajribasida “mahalliy boshqaruv”, “mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari” kabi nomlar bilan yuritilib kelinadi. Agar mahalliy organlar markazdan tayinlansa va o‘z faoliyati yuzasidan faqat markaz oldida hisobdor bo‘lsa, bunday organlarni mahalliy boshqaruv organi sifatida tushunish zarur.

Agar mahalliy boshqaruv organlari mahalliy aholi tomonidan saylansa, bunday organlarni mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv organlari deb hisoblash lozim. O‘zbekistonda aynan o‘z xos tarixiga ega o‘zini o‘zi boshqarish organi shakllangan.

Mahalla tarixan o‘zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, milliy an’analarini, urf-odatlarini, axloqiy-ma’naviy qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi muqaddas maskan bo‘lib kelgan. Mahalla insonlarning millati, yoshi, jinsi, dini, irqi, tili, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, ularni ezgulik yo‘lida jipslashtiruvchi hamda birlashtiruvchi katta oila hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tish, fuqarolik jamiyati rivojlanayotgan bir davrda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolatlari va faoliyat yo‘nalishlari kengaytirilib, nufuzi oshirilmoqda.

Qabul qilinayotgan qarorlarda fuqarolar va keng jamoatchilik manfaatlari uyg’unligini ta’minlash juda muhim bo‘lib, hukumatning barcha sohalarda xalq bilan muloqot tamoyili ilgari surilmoqda.

Demokratik rivojlanish yo‘lini tanlagan O‘zbekiston uchun jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini isloh etishda keng jamoatchilik fikri va istaklari, hududlarni rivojlantirish va undagi mavjud muammolarni samarali yechishda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari orqali aholining faol ishtirok etishi muhimdir.

Bugun aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ular orqali ta’sirchan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish masalalari Yangi O‘zbekistonning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Jamoatchilik nazorati fuqarolarning davlat bilan o‘zaro samarali

aloqasini ta’minlash, odamlar kayfiyatini va mamlakatda kechayotgan o‘zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylandi.

Prezident Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “jamoatchilik nazorati – bu faqatgina davlat idoralari faoliyati ustidan nazorat emas, balki jamiyatning o‘zini o‘zi boshqarish usuli, boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyatini taraqqiy toptirishning muhim omillaridan biridir”.

Mahalla institutining huquqiy asoslari mustahkamlanib O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririning 127-moddasida mahallalardagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o‘ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli ekanligi belgilandi.

O‘zbekistonda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan asosiy farqi shuki, u davlat hokimiyati tizimiga kirmaydi, mustaqil faoliyat yuritadi, hamda bevosita fuqarolar tomonidan shakllantiriladi.

Xorijiy mamlakatlardagi mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari esa, joylardagi davlat organlari orqali amalga oshiriladi va ular davlat hokimiyati tizimiga kiradi hamda qoida tariqasida, yuqori turuvchi davlat hokimiyati yoki boshqaruvi organi tomonidan shakllantiriladi.

Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining birinchi yo‘nalishi “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” yo‘nalishi bo‘lib, bunda birinchi maqsad sifatida mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g’iniga aylantirish belgilangan.

Mamlakatda joriy etilgan “Mahallabay ishlash” tizimi mahallada muammolarni joyida hal qilish, aholining manfaatlarini manzilli himoya qilishni ko‘zda tutadi. Ramziy ma’noda mahalla “yettiligi” deb yuritilayotgan yangi tizimda har bir mahallada bevosita aholi

muammolarini ijobiy yechishga ma’sul bo‘lgan yetti xil soha mutaxassislari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Fuqaro kundalik turmush tarzida yuzaga kelgan har qanday muammo bilan tuman yoki shahar markaziga borishi shart emas, masala mahallaning o‘zida hal etiladi. E’tiborli jihati joriy qilingan yangi tizimga ko‘ra “ettilik” a’zolari o‘ziga biriktirilgan hududda oilalarni o‘rganib borib, muammolarni yuzaga kelishidan oldin bartaraf etish choralarini ko‘radi.

Bugungi kunda mahalla “yettiligi” kollegial organ sifatida oilalarning iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli va ehtiyojlarini o‘rganish orqali ehtiyojmand fuqarolarni «Temir daftar», «Yoshlar daftari» va «Ayollar daftari»ga kiritish, manzilli ro‘yxatini shakllantirish to‘g’risida qaror qabul qilish, subsidiyalar ajratish, «saxovat va ko‘mak» jamg’armasi hisobidan yordam berish kabi masalalarda bo‘yicha kollegial qaror qabul qiladi.

Bu qabul qilinayotgan qarorlarning manzilli, o‘z vaqtida va adolatli bo‘lishi fuqarolarning nafaqat u yoki bu muammosini hal etilishi, balki ularning iqtisodiy faolligining o‘sishiga olib keladi.

O‘zini o‘zi boshqarish organlarida qabul qilinayotgan qarorlar kollegialligi bilan muhimdir, ya’ni qaror muhokamalardan so‘ng, bevosita aholi vakillarining ishtirokida qabul qilinishi, uning ijrosini va samarasini ta’minlovchi va aholining iqtisodiy faolligini ta’minlovchi muhim omillardandir.

Shu bilan birga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida kollegial organ sifatida kengashlar va alohida masalalar bilan shug’ullanuvchi jamoatchilik asosidagi komissiyalar va tuzilmalar tashkil etilgan.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda mahalla tizimi ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi asosiy sub’ektlardan biri bo‘lib, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining to‘liq shakllanishiga hamda mustahkamlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Zero, mamlakatda jamoatchilik nazorati qanchalik kuchli bo‘lsa, davlat ham shunchalik xalqchil, erkin va adolatli bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g’risida”gi O‘RQ -350 2013 yil 22 aprel. https://lex.uz/ru/docs/2156899

2 .O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabr-dagi PF-209-son “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g’in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g’risi-da” Farmoni // https://lex.uz/docs/6705763

4. RO‘ziev Z. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining va-kolatlari . – Toshkent: «Istiqlol nuri», 2016. –

5. Malikova G.R. «Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ayrim vazifa va vakolatlarini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘tkazish ». Yuridix fanlar nomzodi ilmiy darajasini ol-ish uchun dissertatsiya avtoreferati. T 2004 y

6 Pazliddinova M.Yu “Reforms In The Activity Of Mahallas (Neighborhood)In Uzbekistan” Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 2024

Sardor Baxodirovich XODJAYEV,
Urganch Ranch texnologiya universiteti dotsenti, PhD
Tel: +998 99 337 53 57, UDK: 001.895:1(575.1)
sxodjayev61@gmail.com, https://orcid.org/0009-0003-0987-787X

INTELLEKTUAL MULK, O‘ZARO HURMAT VA HAMKORLIK KONTEKSTIDA TADQIQOTLAR SIFATINI TA’MINLASH

► ***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola ilmiy tadqiqotlarda ilmiy etika, intel-lektual mulk huquqlari, o‘zaro hurmat va hamkorlikning ahamiyatini tahlil qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ilmiy izlanishlarning muvaffaqiyati faqat natijalar bilan emas, balki ularni yaratish jarayoni va etik tamoyil-larga rioya qilish bilan bog‘liqdir. Intellektual mulk huquqlariga hurmat, plagiatning oldini olish va ilmiy hamkorlik ilm-fanning barqaror rivojlani-shi uchun muhimdir. O‘zaro hurmat va hamkorlik ilmiy muhitda ishonchni mustahkamlashga va innovatsiyalarni rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ilmiy axloqiy tamoyillarning jamiyat va ilmiy hamjami-yat uchun ahamiyatini yoritadi.*

Kalit so‘zlar: *ilmiy etika, intellektual mulk, hamkorlik, o‘zaro hurmat, ilmiy izlanish, plagiat, ilmiy taraqqiyot.*

Аннотация: *Статья анализирует значение научной этики, прав интеллектуальной собственности, взаимного уважения и сотрудничества в научных исследованиях. Исследование показывает, что успех научных исследований зависит не только от результатов, но и от процесса их создания и соблюдения этических принципов. Уважение прав интеллектуальной собственности, предотвращение плагиата и научное сотрудничество имеют важное значение для устойчивого развития науки. Взаимное уважение и сотрудничество укрепляют доверие в научной среде и стимулируют инноваци. Результаты исследования подчеркивают значимость этических принципов для общества и научного сообщества.*

Ключевые слова: *научная этика, интеллектуальная собственность, сотрудничество, взаимное уважение, научные исследования, плагиат, развитие науки.*

► ***Abstract:*** *This article examines the significance of scientific ethics, intellectual property rights, mutual respect, and collaboration in scientific research. The study demonstrates that the success of research depends not only on the results but also on the process and adherence to ethical principles. Respect for intellectual property, prevention of plagiarism, and scientific collaboration are crucial for the sustainable development of science. Mutual respect and collaboration strengthen trust in the scientific environment and encourage innovation. The findings highlight the importance of ethical principles for both society and the scientific community.*

Keywords: *scientific ethics, intellectual property, collaboration, mutual respect, scientific research, plagiarism, scientific development.*

Ilmiy tadqiqotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, eng avvalo, ilmiy etikaga rioya qilish jarayoniga bog‘liqdir. Chunki har qanday izlanish nafaqat natijalari, balki uni yaratish usuli va yo‘llari bilan ham qadrlanadi. Agar tadqiqot axloqiy tamoyillardan chetga chiqsa, u qanchalik yangilik olib kirgan bo‘lmasin, uning ilmiy qiymati shubha ostiga qo‘yiladi. Shu sababli ilmiy etika tadqiqot faoliyatining poydevori hisoblanadi.

Ilmiy etika — bu ilmiy faoliyatni boshqaruvchi me’yorlar va tamoyillar majmui bo‘lib, olimlarning jamiyat oldidagi javobgar-

ligini belgilaydi. U nafaqat halollik, haqqoniylik va shaffoflikni taqozo etadi, balki tadqiqotchi faoliyatida insonparvarlik, hurmat va ijtimoiy mas'uliyatni ham muhim shart sifatida qo'yadi. Shunday qilib, ilmiy izlanishlar faqat bilimni kengaytirish vositasi emas, balki jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy jarayon sifatida ham talqin qilinadi.

S.Xodjayev ta'kidlaganidek: "Metodologiyani tanlashda ham etika masalalariga e'tibor berish muhimdir. Tadqiqotning amalga oshirilishi davomida etika qoidalariga rioya qilish, ishtirokchilar bilan to'g'ri va adolatli munosabatda bo'lish, ularning shaxsiy hayotini hurmat qilish hamda to'g'ri ma'lumot olish metodlarini tanlash zarur."[1, 257 b]. Bu yondashuv tadqiqotning haqqoniyligi, ishonchliligi va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, metodologik tanlov va etik mas'uliyat bir-birini mustahkamlab, ilmiy jarayonning barqarorligini oshiradi.

Etikaga amal qilinmagan ilmiy tadqiqotlar ko'pincha plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish, manipulyatsiya yoki natijalarni noto'g'ri talqin qilish kabi muammolarga olib keladi. Bu esa nafaqat tadqiqotchi obro'sini, balki ilm-fan sohasining ishonchliligini ham zararli oqibatlarga olib boradi. Shu bois, ilmiy etikaga qat'iy amal qilish ilmiy hamjamiyatning barqarorligi va rivoji uchun zaruriy shartdir. Ayniqsa, intellektual mulk huquqlariga hurmat ko'rsatish, boshqalarning ilmiy yutuqlaridan iznsiz foydalanmaslik va o'zining ham ijodiy ishlari muhofazasini ta'minlash bu jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ilmiy etikaning yana bir muhim jihati — bu o'zaro hurmat va hamkorlik tamoyilidir. Tadqiqotlar ko'pincha jamoaviy tarzda olib boriladi va bu jarayonda ochiq muloqot, bilim almashuvi hamda fikrlarning qadrlanishi katta ahamiyatga ega. O'zaro hurmat qilinmagan sharoitda yangilik yaratish qiyin, aksincha, hamkorlik muhiti ilmiy samaradorlikni oshiradi, yangi g'oyalar tug'ilishiga imkon yaratadi.

Etika tamoyillariga amal qilinishi ilmiy natijalarning haqqoniyligi va ishonchliligini kafolatlaydi. Natijalar ochiq va shaffof bo'lsa, ular boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham qayta tekshirilib, ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olinadi. Bu esa bilim almashinuvini

kuchaytiradi, yangi kashfiyotlarga yo‘l ochadi va ilm-fanning jahon miqyosida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu nuqtada intellektual mulk huquqlariga hurmat masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy izlanishlarda intellektual mulk huquqlariga hurmat ko‘rsatish tadqiqotchi axloqiy mas’uliyatining eng muhim tamoyillaridan biridir. Har bir olim nafaqat o‘z ilmiy faoliyati natijalarini himoya qilishi, balki boshqalarning ham mehnatini qadrlashi lozim. Bu nafaqat plagiatning oldini oladi, balki ilmiy jarayonning halolligi va ishonchliligini ta’minlaydi. Intellektual mulkka hurmat bo‘lmagan sharoitda innovatsiya va ijodkorlikning rivojlanishi deyarli imkonsizdir.

David Vaver bu borada shunday deydi: “Intellektual mulk nafaqat huquqiy tushuncha, balki boshqalarning ijodkorligini tan olish va hurmat qilish bo‘yicha axloqiy majburiyatdir.” [2, 15 b]. Ushbu fikr intellektual mulk masalasini oddiy huquqiy cheklovlar doirasida emas, balki axloqiy qadriyat sifatida tushunish kerakligini ko‘rsatadi. Olimlar va tadqiqotchilar ilmiy faoliyatda faqat qonuniy cheklovlardan emas, balki vijdoniy mas’uliyatdan ham kelib chiqishlari zarur. Shuningdek, ijodkorning mehnatini qadrlash ilmiy hamkorlik va hurmat muhitini mustahkamlaydi. Ilmiy etikada mualliflik huquqlarini buzish nafaqat qonuniy, balki axloqiy jihatdan ham jiddiy xatodir. Shuning uchun intellektual mulkni hurmat qilish kelajak avlod ilmiy salohiyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Bu yondashuv ilmiy jamiyatda ishonch va adolatni ta’minlaydi.

Xuddi shu fikrni Lawrence Lessig ham qo‘llab-quvvatlaydi: *“Ilm-fanning taraqqiyoti g‘oyalar o‘z mualliflariga nisbat berilgan tizimga bog‘liq bo‘lib, bu adolatni va kelajakdagi ijodkorlikni ta’minlaydi*.” [3, 32 b]. Bu mulohaza ilmiy taraqqiyotda adolatning naqadar muhim ekanini ta’kidlaydi. Agar g‘oya o‘z egasiga berilmasa, bu boshqa olimlarning motivatsiyasini pasaytiradi. O‘z navbatida, mualliflikni to‘g‘ri ko‘rsatish ilmiy yangiliklarning halol rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Intellektual mulkka hurmat qilish ijodiy muhitni qo‘llab-quvvatlab, yangi kashfiyotlar uchun sharoit yaratadi. Shuningdek, bu jarayon kelajak avlod olimlari uchun ishonchli ilmiy merosni shakllantirishga yordam beradi. Demak, adolatli ilmiy tizim kelajak innovatsiyalari uchun zamin yaratadi.

Peter Drahos esa intellektual mulk masalasining yanada poydevoriy jihatiga e'tibor qaratadi: *"Ilmda intellektual mulkka hurmat ko'rsatish — bu bilim yaratish va uni tarqatishning o'z poydevoriga hurmat ko'rsatishdir*." [4, 78 b]. Ushbu fikr intellektual mulkka hurmatning ilmiy bilish jarayonida nechog'li muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Agar muallif mehnati qadrlanmasa, bilimning haqqoniyligi va ishonchliligi yo'qoladi. Aksincha, hurmat qilinadigan muhitda bilim yaratish va uni keng jamoatchilikka tarqatish adolatli va barqaror bo'ladi. Shu tariqa, ilmiy axloqiy me'yorlar nafaqat huquqiy himoyani, balki bilish jarayonining tozaligini ham kafolatlaydi. Bu ilmiy izlanishlarning jamiyat taraqqiyotiga foyda keltirishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, ilmiy etika, intellektual mulk huquqlariga hurmat, o'zaro hamkorlik va insoniy qadriyatlar uyg'unligi — ilmiy taraqqiyotning barqaror asoslarini tashkil etadi. Bu tamoyillarga rioya qilinishi nafaqat individual olimning, balki butun jamiyatning intellektual va ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi.

O'zaro hurmat va hamkorlik ilmiy faoliyatning poydevori hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar ko'pincha jamoaviy xarakterga ega bo'lib, har bir tadqiqotchi o'z bilim va tajribasini guruhga qo'shadi. Shu bois, o'zaro hurmat ilmiy muhitda ishonch va muloqotning asosi sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotchilar fikrlarini ochiq va hurmat bilan ifodalashsa, bu ilmiy jarayonning samaradorligini oshiradi. Hurmat muhitida fikr almashish ixtiloflarni konstruktiv tarzda hal qilishga yordam beradi. Natijada, ilmiy jamoa birgalikda ilmiy maqsadlarga erishishda mustahkam asosga ega bo'ladi. Shu tariqa, o'zaro hurmat ilmiy izlanishlarning sifatini va barqarorligini ta'minlaydi.

Hamkorlik yangi yutuqlar uchun qulay sharoit yaratadi. Tadqiqotchilar birgalikda ishlash orqali murakkab muammolarni hal etish yo'llarini topadi. Bu esa individual izlanishlardan ko'ra tezroq va sifatliroq natijalarga olib keladi. Hamkorlik ilmiy resurslar va bilimlarni samarali taqsimlashga imkon beradi. Shu yo'l bilan ilmiy muhitda ijodiy fikrlar va innovatsiyalar rivojlanadi. Hamkorlik shuningdek, tadqiqot jarayonida yuzaga keladigan xatoliklarni kamaytiradi. Shunday qilib, ilmiy hamkorlik — ilm-fanning rivojlanishida strategik resurs sifatida qaraladi.

Karl Popper ta’kidlaganidek: “Fan ijtimoiy jarayon bo‘lib, u ochiq muloqot va tanqid orqali rivojlanadi.” [5, 34 b]. Bu fikr o‘zaro hurmat va hamkorlikning ilmiy taraqqiyotdagi ahamiyatini ochib beradi. Tadqiqotchilar bir-birining g‘oyalarini hurmat bilan qabul qilsa, yangi nazariyalar yaratish va ularni sinovdan o‘tkazish osonlashadi. Ochiq muloqot orqali ilmiy bilimlarning sifat va ishonchliligi oshadi. Shuningdek, konstruktiv tanqid ilmiy hamjamiyatning rivojanishiga turtki beradi. Popperning yondashuvi ilmiy tafakkur va hamkorlikning doimiy o‘sishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, o‘zaro hurmat ilmiy jarayonning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Robert K. Mertonning fikricha: “Ilmiy axloq kommunikativ va hamkorlikni talab qiladi; ilmiy bilimlar jamoaviy mulk sifatida baholanadi.” [6, 221 b]. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, ilmiy yutuqlar faqat o‘zaro hurmat va bilim almashuvi asosida barqaror rivojlanadi. Ilmiy ma’lumotlarni jamoaviy mulk sifatida ko‘rish, ularni yashirin saqlash yoki manipulyatsiya qilishning oldini oladi. Shu bilan birga, hamkorlik ilmiy ijtimoiy muhitda ishonchni oshiradi. Tadqiqotchilar bir-birining hissasini qadrlash orqali yanada samarali ishlashadi. Bu yondashuv yangi g‘oyalar va nazariyalarni sinovdan o‘tkazishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, ilmiy bilimlarni keng jamoatchilikka yetkazish imkoniyatini oshiradi.

David Resnik esa quyidagicha yozadi: “Tadqiqotchilar o‘rtasidagi ishonch va hurmat ilmiy natijalarni ochiq va ishonchli qiladi.” [7, 87 b]. O‘zaro hurmatning yetishmasligi esa ilmiy hamkorlikning samaradorligini pasaytiradi va yangi kashfiyotlar yuzaga kelishiga to‘sqinlik qiladi. Ishonchli va hurmatga asoslangan muhitda tadqiqotchilar o‘z bilimlarini bemalol almashadi. Bu esa natijalarni tezroq va sifatliroq tekshirish imkonini beradi. Shu yo‘l bilan ilmiy izlanishlar ishonchlilik va haqqoniylikni saqlaydi. Hurmat va ishonch ilmiy muhitda konstruktiv bahs va tanqidni rag‘batlantiradi. Natijada ilmiy hamjamiyatning barqarorligi va rivoji ta’minlanadi.

Shu bois, o‘zaro hurmat va hamkorlik ilmiy faoliyatning ajralmas tamoyili bo‘lib, ilmiy izlanishlarning muvaffaqiyatli amalga oshishiga bevosita ta’sir qiladi. Tadqiqotchilar o‘zaro hurmatni saqlash va hamkorlikni rivojlantirish orqali yangi bilimlarni yaratish, natijalarni tekshirish va keng jamoatchilikka yetkazishda asosiy rol o‘ynay-

di. Shu bilan birga, hamkorlik ilmiy izlanishlarda innovatsiyalar va ijodkorlikni rag‘batlantiradi. Hurmat va ochiqlik ilmiy jarayonning ishonchliligini oshiradi. Bu tamoyil ilm-fanning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Shunday qilib, ilmiy hamkorlik va o‘zaro hurmat nafaqat individual tadqiqotchi, balki butun ilmiy hamjamiyat manfaatiga xizmat qiladi.

Xulosa. Ilmiy tadqiqotlarning muvaffaqiyati faqat natijalarga bog‘liq emas, balki ularni yaratish jarayoni va etik tamoyillarga rioya qilish bilan ham belgilanadi. Ilmiy etika tadqiqot faoliyatining poydevori bo‘lib, olimlarning jamiyat oldidagi mas’uliyatini ta’minlaydi. Tadqiqotchi halolligi va shaffofligi ilmiy natijalarning ishonchliligini oshiradi. Etikaga rioya qilmagan tadqiqotlar plagiat, soxtalashtirish va manipulyatsiyaga olib keladi. Shu bois, ilmiy izlanishlarda axloqiy me’yorlar har doim ustuvor bo‘lishi lozim. Intellektual mulk huquqlarini hurmat qilish plagiatning oldini oladi va innovatsiyalarni rag‘batlantiradi. Bu tamoyil ilmiy hamjamiyatning barqaror rivojiga xizmat qiladi.

O‘zaro hurmat va hamkorlik ilmiy faoliyatning ajralmas tamoyillaridan biridir. Tadqiqotchilar fikr almashish va bir-birining ishini qadrlash orqali samarali ilmiy muhit yaratadilar. Hurmat muhitida konstruktiv tanqid va bahslar ilmiy jarayonni rivojlantiradi. Hamkorlik murakkab muammolarni tezroq va sifatliroq hal qilishga imkon beradi. Ochiq muloqot ilmiy izlanishlarning sifatini oshiradi va yangi g‘oyalarni ilgari suradi. Shu tariqa, ilmiy hamkorlik innovatsiyalar va ilmiy taraqqiyot uchun strategik resurs vazifasini bajaradi. Tadqiqotchilar bir-birini hurmat qilganida, ilmiy natijalar ham ishonchli va barqaror bo‘ladi.

Intellektual mulk, o‘zaro hurmat va hamkorlikni uyg‘unlashtirish ilmiy izlanishlarning jamiyatga foydasini oshiradi. Bu tamoyillarga rioya qilish ilmiy hamjamiyatdagi adolat, ishonch va barqarorlikni ta’minlaydi. Tadqiqotchilar o‘z mehnatini himoya qilgan holda boshqalarning hissasini qadrlashni o‘rganadilar. Natijada ilmiy izlanishlar halol, ochiq va foydali bo‘ladi. Ilmiy etika va axloqiy me’yorlarga sodiqlik yangi kashfiyotlarni rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, jamiyatda ilmiy bilim va innovatsiyalar ishonchli manba sifatida qabul qilinadi. Demak, ilmiy tadqiqotlarda etikaga amal

qilish va hamkorlikni rivojlantirish ilmiy taraqqiyotning barqaror poydevorini tashkil etadi. Bu esa nazariya va amaliyotni o‘zaro bog‘lanishi va jamiyatga ulkan foyda keltirish sharoitlarini yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xodjayev S. Ilmiy tadqiqot va uning amal qilish mexanizmlari. – Beruniy. Tamaddun nuri. 12 (63) 2024. 255-258 b

2. Vaver D. Intellectual property law: copyright, patents, trade-marks. (First edition). – Toronto. Irwin Law. 1997. P. 347.

3. Lessig L. Free culture. – New York. Penguin Press. 2004. P. 352.

4. Drahos P. A philosophy of intellectual property. – Dartmouth. New edition. 1996. P. 257.

5. Popper K. The logic of scientific discovery. – London. Routledge, 1959. 480 p.

6. Robert K. Merton. *The sociology of science.* - Chicago: University of Chicago Press 1973. p. 644

7. Resnik D. The ethics of science: an introduction (philosophical issues in science) (1st Edition). – London. Routledge. 1998. p. 232

Ergash Kuldashevich AXMEDOV,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Angren universiteti
“Gumanitar va ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri
Tel.:+998998206079 Email: ahmedov.ergash@mail.ru

AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

► ***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada bugungi kunda axborot xavfsizligini ta’minlash masalasi, ma’naviy-mafkuraviy tahdidlar, axborot xuruji ularning milliy ma’naviyatimizga ta’siri tahlil qilingan, bunday sharoitda mafkuraviy immunitetni shakllantirish muammolari ochib berilgan. Shuningdek, yoshlar bugun OAV, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlarni olayotganligi, ular foydali, zarur ma’lumotlarni qabul qilish bilan bir qatorda ma’naviy qadriyatlarimizga qarshi yo‘naltirilgan axborotlarga ham duch kelayotganligi alohida ta’kidlanadi. Maqola so‘ngida yoshlarning axborot xurujlari ta’siriga tushib qolishini oldini olishda nimalarga ko‘proq e’tibor qaratilishi kerakligi bo‘yicha tavsiyalar berilgan*

Kalit so‘zlar: *axborotlashgan jamiyat, ma’naviy-mafkuraviy tahdid, axborot xurujlari, “soxta dekmokratiya”, fishing, moliyaviy firibgarlik, onlayn qimor, dezinformatsiya.*

► ***Аннотация:*** *В статье анализируются вопросы обеспечения информационной безопасности, духовно-идеологических угроз и информационных атак, а также их влияние на национальные духовные ценности. Раскрываются проблемы формирования идеологического иммунитета в условиях интенсивных информационных потоков. Отмечается, что молодёжь сегодня получает разнотипную информацию через СМИ, интернет и социальные сети, сталкиваясь не только с полезными данными, но и с контентом, направленным против духовных ценностей. В конце статьи приводятся рекомендации по предупреждению вовлечения молодёжи под воздействие информационных атак.*

Ключевые слова: *информационное общество, духовно-идеологическая угроза, информационные атаки, «ложная демократия», фишинг, финансовое мошенничество, онлайн-азартные игры, дезинформация*

► ***Annotation:*** *The article examines issues of ensuring information security, spiritual-ideological threats, and information attacks, as well as their impact on national moral values. It explores the challenges of building ideological immunity amid today's intense information flows. The paper emphasizes that young people receive diverse content via mass media, the internet, and social networks—encountering not only useful information but also materials contrary to moral values. The article concludes with recommendations to prevent youth from falling under the influence of information assaults.*

Keywords: *information society, spiritual-ideological threat, information attacks, "false democracy," phishing, financial fraud, online gambling, disinformation*

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, ko'plab qulayliklar yaratgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yangi va murakkab axborot tahdidlarini vujudga keltirdi. Axborot-kommunikatsiya soxalarining taraqqiyoti, geosiyosiy vaziyatning keskin o'zgarishi kim axborotga ega bo'lsa o'sha jamiyatni boshqarishini ko'rsatib qo'ydi. Bu esa har qanday davlat va tuzumning oldida dolzarb muammoni keltirib chiqarmoqda. Ya'ni, har bir davlat axborot xavfsizligini ta'minlashi va informatsion xurujlarga qarshi tura olishi kerak. Shu kabi muhim vazifalarni bajargan davlatgina o'z milliy manfaatlarini himoya qilgan bo'ladi.

Globallashuv jarayonlarida informatsion xurujlar ta'siridan hech bir davlat chetda qolgan emas. Bir so'z bilan aytganda bu yangi asrni informatsion xurujlar asri deb ham nomlash mumkin. Global ma'naviy tahdidlar va axborot xurujlarining xavfi ularning mamlakatimizga kirib kelishidagi yo'llarning deyarli ochiqligidadir. Axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanib borayotganligi, internet tarmog'i va telekommunikatsion aloqalarining katta imkoniyatlari mazkur muammoni yanada chigallashtirishga olib kelmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, informatsion xurujlar avvalo "soxta demokratiya"ni targ'ib qilish orqali, davlatning siyosiy tuzumini izdan chiqarishga va uni o'zgartirishga qaratilgandir.

O'zbekiston respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoнev:

“mafkura sohasida bo‘shliq degan narsaning o‘zi hech qachon bo‘lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta’sirlanishdan to‘xtamaydi. Demak, unga doimo ma’naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o‘zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo‘ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. SHunga yo‘l bermasligimiz kerak”[1], - deya alohida ta’kidlaydi. Albatta fuqarolarimizning chetdan ma’naviy oziq izlashiga yo‘l bermasligimiz va bu sohada tashqi manipulyatorlarga imkon qoldirmasligimiz zarur.

Bugungi kunda internet tarmog‘idan ham ezgulik ham yovuzlik maqsadida foydalanib kelinmoqda. Hozirgi geosiyosiy jarayonlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yangi asr mafkuralar to‘qnashuvi, g‘oyalar urushiga aylanib ketdi. Chunki ayrim rivojlangan mamlakatlarning siyosiy kuchlar tomonidan davlatlarni o‘z izmiga solish yo‘lida, avvalo “soxta demokratiya” qadriyatlarini mintaqalarga yoyish va keskinlik o‘chog‘ini avj oldirish orqali boshqarishga harakat qilmoqda. Bunda asosan internet tarmoqlaridan foydalangan holda amalga oshirilmoqda. Chunki internet tarmog‘i siyosiy kuch sifatida axborot urushining asosiy qurollaridan biriga aylandi va undan turli g‘oyalarni targ‘ib etish orqali omma ongiga buzg‘unchi va agressiv mafkuralarni singdirish, tartibsizlik, buzg‘unchilikni targ‘ib etish vositasi sifatida foydalanmoqda.


Jamiyatimiz yoshlari faqat o‘quv dargohlaridagina emas, OAV, Internet orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqdalar. Ular bilim olishlari uchun foydali, zarur ma’lumotlarni qabul qilish bilan bir qatorda ma’naviy qadriyatlarimizga qarshi yo‘naltirilgan axborotlarga ham duch kelmoqdalar. Shu ma’noda Islom Karimov “Bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin” [2, 115 b.], deb ta’kidlaydi. Ba’zi yoshlarning bilim olishda, hayotga bo‘lgan munosabatlarini belgilashda ota-ona, ustoz-murabbiylarni emas, balki OAV, Internetni avtoritet sifatida e’tirof etishlari, ulardagi axborotlarni haqiqat deb qabul

qilishlari va ishonishlari tashvishlanarli xoldir. Ular axborotlarning manbalariga, chinlik darajasiga deyarli e’tibor bermaydilar, muhimi yengil, qiziqarli va ehtiyojlariga mos bo‘lsa, bas.

Ma’naviy-mafkuraviy tahdidlar, xususan, ommaviy axborot vositalari va internet tarmog‘i orqali tarqatiladigan yolg‘on, g‘arazli axborotlar, millatlararo yoki konfessiyalararo kelishmovchiliklarni qo‘zg‘atuvchi, milliy qadriyatlarga putur yetkazuvchi materiallar shaklida namoyon bo‘lmoqda. Bu ta’sir doirasi keng bo‘lib, fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning dunyoqarashiga, ongi va milliy o‘zligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilgan tartibsizliklarni 2011 yilning boshlarida bir qator arab davlatlarida yuz bergan “tvitter inqilobi” voqealarida ko‘rish mumkin. Xususan, tashqi kuchlar tomonidan Facebook, Twitter ijtimoiy tarmoqlari va proksi-IP xizmatidan foydalangan holda Tunis, Misr, Liviya, Baxrayn, Eron, Suriyadagi tartibsizliklarni nazorat etib turishgan. Internet tarmog‘ining salbiy jihatlari ham aynan shundadir.

O‘zbekiston Respublikasida raqamlashtirish, internet infratuzilmasini rivojlantirish va aholini raqamli xizmatlardan foydalanishga jalb etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi o‘laroq internetdan foydalanuvchilar sini yildan yilga o‘sib bormoqda. 2024 yilda O‘zbekiston aholisining 93,3 foizi internetdan foydalangan [3].



Bugungi kunda global miqyosda axborot makonida ma’naviy-mafkuraviy tahdidlar, onlayn firibgarlik va kiberjinoyatchilik kabi muammolar tobora keng tarqalmoqda. Bu tahdidlar jamiyatning turli qatlamlariga, ayniqsa yoshlarga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborotlashgan jamiyatda mobil hayotdagi to‘xtovsiz harakatlanish jarayonida yoshlar o‘z vaqtini foydali ishlardan

ko‘ra ko‘proq internet, ijtimoiy tarmoqlarga bag‘ishlamoqdalar. Bu haqida A.Tulepov: “Paydo bo‘lganiga unchalik ko‘p bo‘lmasa-da, lekin allaqachon “ari uyasi” kabi eng gavjum elektron manzillarga aylangan “Ijtimoiy tarmoqlar” yovuz kuchlarning virtual quroliga aylandi” [4, 90 b.], - deb fikr bildiradi.

Tadqiqotchilar internet va kompyuterni inson psixikasi, sog‘lig‘i hamda ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlamoqdalar. Boshqa kasalliklar kabi «yuqumli internetukyc» mavjudligi qayd etilmoqda. U qimor o‘yini kabi yuqib, kishini yon-atrofdan, ijtimoiy hayotdan ajratib qo‘yadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, internetdan foydalanuvchilarning 5% ga yaqini shunday xastalikka chalingan [5, 135-151 б.]. Bizda ham so‘ngi besh-on yil ichida atrof olamdan mutlaqo uzilgan va smartfonlariga xaddan ortiq bog‘lanib qolgan yoshlar juda ko‘payib ketdi.

Axborot tahdidlari: Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan yolg‘on axborotlar (feyklar), dezinformatsiya va g‘arazli ma’lumotlar keng auditoriyaga tezda yetib boradi. Bu jamiyatda chalkashlik, ishonchsizlik va ijtimoiy keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, ma’naviy-mafkuraviy tahdidlar milliy qadriyatlar, an’analar va mafkuraviy immunitetni zaiflashtirishga qaratilgan.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan onlayn firibgarlikning yangi shakllari paydo bo‘lmoqda. Fishing (maxfiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash), moliyaviy firibgarlik, onlayn qimor, shaxsiy ma’lumotlardan noqonuniy foydalanish, onlayn mahsulot sotishdagi firibgarliklar kabi jinoyatlar global muammoga aylangan. Keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda internetdagi tavakkalchilikka asoslangan qimor o‘yinlarining ayanchli oqibatlari haqida turli xabarlar tarqalmoqda. Bu xabarlar asosan turli xil ko‘ngilsizlik, ayniqsa, fojiali voqealardan iborat bo‘lsada, afsuski, onlayn qimor bilan bog‘liq jinoyatlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Bunday jinoyatlar ko‘pincha texnik jihatdan murakkab bo‘lib, jabrlanuvchilarning moddiy zarar ko‘rishiga va ruhiy tushkunlikka uchrashiga sabab bo‘ladi. Kiberjinoyatchilar doimiy ravishda yangi usullarni o‘ylab topmoqda va bu bilan kurashish uchun uzluksiz texnologik yangilanishlar hamda fuqarolarning xabardorligini oshirish zarur.

Ushbu xolatlarga befarqlik bilan munosabatda bo‘lish, turli no-

qonuniy va diniy ekstremistik ruhdagi saytlardagi o‘yinlar va ma’lumotlarni yoshlar orasida tarqalishi, voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikning ortishiga, ularni turli yot oqimlar domiga tushib qolishlariga, mafkuraviy immunitenti to‘liq shakllanmagan va ma’naviy qфshshoq yoshlar bo‘lib kamol topishlariga olib kelishi mumkin.

Yoshlarda mafkuraviy immunitentni shakllantirish, ularni sog‘lom turmush tarzi asosida tarbiyalashda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– yoshlar o‘rtasida olib borilayotgan targ‘ibot tadbirlarini ma’ruza tarzida emas, balki yangi interfaol uslublarda olib borish;

– targ‘ibot tadbirlari davomida bugungi kundagi «axborot xuruj” larining ayanchli holatlarini targ‘ib etuvchi videoroliklar namoyishini tashkil etish;

– UZ. domenida faoliyat olib borayotgan ijtimoiy tarmoqlar sifatini yanada yaxshilash va mazkur ijtimoiy tarmoqlarga yoshlarni kengroq jalb qilish choralarini ko‘rish;

– internet va game klublarini yoshlar ma’naviyatiga, sog‘lig‘iga, ularni yetuk shaxs bo‘lib tarbiya topishlarida jiddiy to‘siq, xavf solishi mumkin bo‘lganligi sababli, ularga litsenziya berish jarayoniga qo‘shimcha o‘zgartirishlar kiritish;

– mafkuraviy, g‘oyaviy informatsion xurujlarga qarshi yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda jamoat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish.

Globallashuv ob’ektiv jarayon ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, uni to‘xtash yoki unga qarshi kurashishning hech qanday imkoniyati yo‘q. Ana shundan kelib chiqqan holda milliy ma’naviyatimizga nisbatan avj olayotgan tahdidlarning oldini olishda internet va ijtimoiy tarmoqlardan xabardorlikni oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va xavfsizlik choralarini qat’iy qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi // “Toshkent oqshomi” gazetasi, 2017-yil 16-iyun.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008. –B.115.
3. https://www.uzdaily.uz/uz/2024-yilda-ozbekiston-aholisining-933-foizi-internetdan-foydalangan/
4. Tulepov A. ISHID fitnasi. T.: “Movarounnahr” 2015 y. 90 b.
5. Журенков К. Internetукус -заразный // Психология зависимости. - Минск, «Харвест», 2004

Иброхимжон ЖУРАБОЕВ,
Заместитель председателя Молодежного парламента при Сенате Олий Мажлиса Республики Узбекистан

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА: РОЛЬ МОЛОДЁЖИ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННЫХ РИСКОВ И ВЫЗОВОВ

► ***Annotatsiya.*** *Matnda insoniyat tarixi axborot tarixi sifatida talqin etilib, raqamli davrning jamiyat tuzilishiga ta’siri yoritiladi. Algoritmlar hozirgi axborot makonining “sokin vositachisi”ga aylangani, e’tibor iqtisodi sharoitida haqiqat o‘rniga jalb etish darajasi optimallashtirilishi va shaxs uchun moslashtirilgan lentlar umumiy muhokama maydonini parchalashi ko‘rsatiladi. Bu sharoitda ijtimoiy kelishuv zaiflashishi mumkin. O‘zbekiston misolida internet qamrovi va yoshlar ulushi katta ekani sababli, imkoniyatlar (ta’lim, global bilimlar) bilan birga xavf-xatarlar (algoritmik pufaklar, dezinformatsiya, radikal narrativlar) ham mavjudligi ta’kidlanadi. Muallif raqamli transformatsiya muvaffaqiyati texnologiyadan ko‘ra ko‘proq inson kapitali, tanqidiy fikrlash va media savodxonlikni tarbiyalashga bog‘liqligini ilgari suradi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli transformatsiya; algoritmlar; e’tibor iqtisodi; axborot oqimlari; filtr pufaklari; personalizatsiya; dezinformatsiya; ijtimoiy kelishuv; media savodxonlik; O‘zbekiston; yoshlar; ishonch me’yorlari.*

► ***Аннотация.*** *Текст трактует историю человечества как*

историю информации и показывает, как цифровизация радикально перестраивает социальный порядок. Алгоритмы становятся невидимыми посредниками информационного пространства: в экономике внимания они оптимизируют вовлечённость, а не истину, дробят общую публичную сцену и усиливают эффект «фильтров». Это делает общественный договор более хрупким и требует новых оснований доверия. На примере Узбекистана с высокой интернет-проникновением и значительной долей молодёжи автор подчёркивает двойственность: колоссальные образовательные возможности сочетаются с рисками алгоритмических пузырей, дезинформации и радикальных нарративов. Успех цифровой трансформации, по мысли автора, зависит прежде всего от формирования критического мышления и медиаграмотности.

Ключевые слова: *цифровая трансформация; алгоритмы; экономика внимания; информационные потоки; фильтры и пузыри; персонализация; дезинформация; общественный договор; медиаграмотность; Узбекистан; молодёжь; доверие.*

► ***Abstract.*** *The text frames human history as a history of information and argues that digitalization reshapes social order. Algorithms now act as silent gatekeepers of the information sphere: within the attention economy they optimize engagement rather than truth, fragmenting a shared public arena and reinforcing filter bubbles. This dynamic makes the social contract more fragile and calls for new bases of trust. Using Uzbekistan as a case—high internet penetration and a large youth cohort—the author highlights a duality: vast educational opportunities alongside risks of algorithmic bubbles, disinformation, and radical narratives. The piece concludes that the success of digital transformation hinges less on technology itself than on cultivating human capacity—critical thinking and media literacy.*

Keywords: *digital transformation; algorithms; attention economy; information flows; filter bubbles; personalization; disinformation; social contract; media literacy; Uzbekistan; youth; trust.*

История человечества — это история информации. От устных преданий и рукописей до книгопечатания и телеграфа — каждая новая форма коммуникации радикально меняла социальные структуры. Контроль над информационными потоками всегда был стратегическим ресурсом: тот, кто владел словом, формировал не только мнение, но и судьбы народов.

Сегодня мы живём в новой реальности, где цифровизация стала следующим витком этой эволюции. Интернет и цифровые технологии выполняют ту же функцию, что телеграф и почта в прошлом, но их масштаб несоизмерим: они не просто ускоряют обмен сообщениями, они преобразуют само устройство общества. В цифровую эпоху информация перестаёт быть лишь средством передачи — она становится пространством существования личности, экономики и государства.

Цифровые технологии демократизировали доступ к знаниям, но вместе с тем превратили внимание в экономический ресурс. В прошлом информация принадлежала тем, кто её создавал и распространял: автору, издателю. Позднее её контролировали телеканалы и радиостанции. Сегодня же главным хозяином информационного пространства стал алгоритм. И это принципиальное отличие. Алгоритм не просто сортирует данные — он начинает угадывать наши желания, подсовывать нам то, что мы даже не успели сформулировать. В итоге получается парадокс: кажется, что мы свободно выбираем, но на самом деле всё чаще выбор делают за нас. Это не жёсткая цензура, а куда более тонкий и мягкий способ влияния — **свобода, которая незаметно направляется**.

Раньше власть держалась за стратегические объекты: почта, редакция, телецентр. Кто контролировал их, тот управлял и потоком сообщений — а значит, настроением и выбором масс. Сегодня логика изменилась. Важным стало не столько то, где хранится информация, сколько то, как она движется. Теперь повестка дня рождается не только усилиями журналистов и политиков. Всё чаще её формируют цифровые фильтры — тихие и невидимые посредники между человеком и его реальностью. Управляя потоками, они определяют границы того, что мы способны увидеть, заметить, признать важным или даже возможным.

Ещё недавно эпоха вещания создавала общий зал: вечерние новости, один эфир для всех. Эпоха цифровых платформ этот зал раздробила — теперь каждый сидит в своём маленьком информационном помещении, где лента подстраивается под него. Конечно, это открыло пространство для меньшинств и

новых голосов, но вместе с тем сузило общую сцену. Мы всё реже встречаемся с иным взглядом и всё чаще — с отражением самих себя.

В результате меняется сама логика познания. Если раньше истину проверяли источником и процедурой, то теперь мерилом становится вовлечённость. То, что активно обсуждают и часто мелькает в ленте, кажется более реальным. Два человека вводят один и тот же запрос — и получают две разные реальности. Алгоритм оптимизирует не истину, а удержание внимания.

Так общественный договор становится хрупким: нам труднее договариваться, если мы существуем в разных информационных климатах. И именно поэтому цифровая эпоха требует от нас новых оснований для доверия и общего языка.

В Узбекистане интернетом пользуются более 32 миллионов человек — это почти 90 % населения. Молодёжь составляет около 60 % общества. Для Узбекистана эта ситуация особенно важна. Здесь проявляется двойственность цифровой эпохи. С одной стороны, это огромный шанс для страны: молодёжь получает доступ к глобальным знаниям, образовательным платформам, мировым сообществам. Ученик из сельской школы может слушать лекции ведущих профессоров. Высокая доля молодёжи — демографическое окно возможностей.

Но если это поколение окажется в плену алгоритмических пузырей и цифровых стереотипов, то окно может превратиться в источник напряжений. Молодёжь, лишённая навыков критического мышления, становится уязвимой к дезинформации, радикальным нарративам и манипуляциям. Это значит, что будущее цифровой трансформации зависит не только от технологий, но и от того, как мы воспитаем человека в этой среде.

Цифровая трансформация — это эволюция не только инструментов распространения информации, но и самого человека. Мы перестаём «владеть» информацией как вещью и начинаем сожительствовать с ней как со средой. Вопрос не в том, будут ли технологии развиваться — это неизбежно. Вопрос в том, какими людьми мы станем в этой новой среде.

И задача общества — не «замедлить прогресс», а сделать его осознанным и рефлексивным:

1. Молодёжь должна учиться не только пользоваться технологиями, но и развивать критическое внимание, способность отличать факт от манипуляции, истину от шума. Медиаграмотность — это уже не «дополнительный навык», а качество личности, без которого невозможно быть полноценным гражданином.

2. В цифровой эпохе права человека должны включать защиту данных, приватности и свободы от манипуляций. Это — основа новой гражданственности. Если у нас не будет права на собственное «цифровое я», то остальные права окажутся под угрозой.

3. Нужны пространства «медленного мышления» — в образовании, на публичных площадках, в медиа. Там, где ценится аргумент и смысл, а не скорость реакции и количество кликов. Только так можно выработать иммунитет к поверхностности цифровой среды.

4. Алгоритмическая прозрачность должна стать нормой. Общество имеет право понимать, почему ему показывают именно такие новости, предложения или советы. Прозрачность рекомендаций — это условие сохранения свободы выбора.

5. Для обеспечения интересов молодежи и охраны её от тлетворного влияния западного образа жизни под личиной «массовой культуры» следует усилить пропаганду через социальные сети и сети Интернет о фактах негативного влияния западной культуры на мышление молодежи с демонстрацией последствий такого влияния.

Sevara Dilshod qizi QAYIMOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi
qayimovasevara004@gmail.com

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI DAVRIDA VIRTUAL QARAMLIK VA UNING IJTIMOIY OQIBATLARI

► ***Annotatsiya.*** *Joriy asrda ro‘y berayotgan jarayon – axborot texnologiyalariga bog‘lanib qolish holatlari ko‘payib bormoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o‘yinlar va raqamli platformalar global axborot almashinuvining asosiy vositasiga aylandi. Shu boisdan virtual qaramlik jamiyat hayotiga, ijtimoiy munosabatlarga va odamlarning kundalik faoliyatiga ta’siri sezilarli kuchaydi. Ushbu maqolada virtual olam haqida ilmiy nazariyalar va dunyo bo‘ylab bu qaramlikning salbiy oqibatlari tahlil qilinadi, oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha takliflar berib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *virtual olam, ijtimoiy tarmoq, virtual qaramlik, kiberhujum, video o‘yinlar, sun’iy intellekt.*

Аннотация. *В текущем столетии наблюдается рост случаев зависимости от informatsionных технологий. Интернет, социальные сети, онлайн-игры и цифровые платформы стали основными средствами глобального обмена информацей. В связи с этим значительно возросло влияние виртуальной зависимости на общественную жизнь, социальные отношения и повседневную деятельность людей. В данной статье анализируются научные теории о виртуальном мире и негативных последствиях этой зависимости во всем мире, а также даются дополнительные рекомендatsii по профилактике.*

Ключевые слова: *виртуальный мир, социальная сеть, виртуальная зависимость, кибератака, видеоигры, искусственный интеллект.*

► ***Abstract.*** *In the current century, there has been an increase in cases of addiction to information technology. The Internet, social networks, online games and digital platforms have become the main means of global information exchange. In this regard, the influence of virtual addiction on public life, social relations and everyday activities of people has significantly increased. This article analyzes scientific theories about the virtual world and the negative consequences of this addiction around the world, and also provides additional recommendations for prevention.*

Keywords: *virtual world, social network, virtual addiction, cyber attack, video games, artificial intelligence.*

Bugun insoniyat fan-texnika taraqqiyoti eng yuksak cho‘qqiga ko‘tarilgan davrda yashayotganligi bilan ham faxrlanadi, ham sarosimaga tushadi. Chunki, o‘z davrining rivojlanishi bilan birga bu bir qator xavotirli holatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Xususan, texnologiya asrida ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari soni tobora oshib bormoqda. O‘zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi bilan bir qatorda, yoshlar orasida virtual qaramlikning ortishi ham kuzatilmoqda. Internetdan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi, arzon va tezkor mobil aloqa, turli onlayn kontentlarning yoshlar ongiga oson singishi, bularning barchasi raqamli muhitning jadal kirib kelishini ta’minlamoqda. Shu bilan birga, internet an’anaviy ijtimoiy qadriyatlar, madaniy muloqot shakllari va vaqtni samarali boshqarish qoidalarini ham o‘zgartirmoqda. Ya’ni, internetga haddan tashqari bog‘lanib qolish – virtual qaramlik, insonlarni o‘zaro muloqot qilish, erkin fikrlash, tanqidiy tafakkurdan mahrum etmoqda.

Bundan “unumli” foydalanayotgan shaxslar o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishmoqda. Kundalik hayotda “kiberhujum”, “tahdid”, “shaxsiy ma’lumotlar tarqalishi”, “xakerlar” mavzusidagi OGOHLIK xabarlarini tez-tez uchratmoqdamiz. Boisi, jinoyatchilar tarmoq foydalanuvchilarini turli xil aldov yo‘llari bilan moddiy mablag‘larini o‘zlashtirmoda. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, 2024-yil may oyida O‘zbekistonning “uz” domen veb-saytlariga 6,6 milliondan ortiq kiberhujumlar amalga oshirilgan. Bu o‘tgan yillarga nisbatan 25 barobarga ko‘payganidan dalolat beradi. Bundan tashqari yoshlarni turli jinoiy, diniy guruhlarga qo‘shish, noqonuniy diniy ta’lim berish holatlari ham yo‘q emas.

Virtual qaramlik — bu insonning real hayotdagi ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy faoliyatini cheklash darajasida raqamli muhitga haddan tashqari berilib ketishi holati bo‘lib, u ijtimoiy tarmoqlar, kompyuter o‘yinlari yoki onlayn kontentni cheksiz iste’mol qilish kabi turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Yuqorida ta’kidlanga-

nidek, virtual qaramlik girdobida eng ko‘p o‘smirlar va yoshlar borligi kelajak avlodga bo‘lgan ichonchni anchagina so‘ndiradi. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni asosli keltirish mumkin.

- raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi;
- mobil internetning qulayligi;
- virtual muhitda tezkor rag‘bat va zavq olish imkoniyati;
- real hayotdagi stressdan qochishning “samarali” yo‘li;
- yoshlar orasida ijtimoiy tengsizlikning avj olishi
- milliylikdan zamonaviylashuvga o‘tish.

Virtual olam, insonlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi, ammo uning ijobiy va salbiy ta’sirlari mavjud. Ijobiy jihatlarining bir qismi, virtual olamda o‘quv jarayonlari, ijodiy faoliyat va chet el fuqarolari bilan aloqa qilish, online treninglar, suhbatlar, shuningdek, biznes sohaslarini amalga oshirishda imkoniyatlar bermoqda. Bu albatta insonlarning rivojlanishi, ijodiylik va kommunikatsiya qobiliyatlari oshishi uchun foydali bo‘ladi. Biroq, salbiy jihatlari shundaki, ba’zi virtual o‘yinlar jismoniy faoliyatning pasayishi, aloqa buzilishi va muammolar yaratishi tayin. Eng asosiy jihatlaridan bir insonlarda o‘zaro aloqaning qisqarishi va ruhiy salomatlik muammolariga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, hozirgi kunda mavjud bo‘lgan bilim va ma’lumotlar internet tarmog‘i orqali online berilmoqda. Bu bevosita insonlarda savodsizlikning oshishi, ilmga bo‘lgan xohishning tushishi va yetalicha malaka olmaslikning belgisidir.

Dunyo bo‘yicha turli manbalarda virtual qaramlik tushunchasi va uning ijtimoiy oqibatlari keng qamrovda o‘rganilgan bo‘lib, ilmiy izlanishlarda mazkur holatning yoshlar psixologiyasi, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxsning ijtimoiylashuv jarayoniga ta’sirini alohida ta’kidlaydi. Xususan, Yevropadagi Ilk sanoat to‘ntarish inqilobi ushbu voqelik uchun zarur bo‘lgan an’anaviy qadriyatlarni siqib chiqardi. Masalan, dastlab texnikaning rivojlanishi qo‘l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarish sanoatini inqirozga olib keldi, bu esa ushbu sohada band aholining qashshoqlashuviga, hatto voqelikka nisbatan keskin noroziliklariga sabab bo‘ldi. To‘g‘ri, ijtimoiy farovonlikka erishish uchun fan-texnika rivoji suv va havodek zarur. Le-

kin bunday ko‘rinishdagi taraqqiyotning ma’naviy va atrof-muhitga salbiy ta’sirini hech ham oqlab bo‘lmaydi.

“Virtual borliq” atamasini ilk bor o‘tgan asrning 70-yillarida Massachusets texnologiya instituti xodimi Jeron Lener ishlatgan bo‘lsa-da, “muomalaga amerikalik kinematografchilar tomonidan kiritilgan. Ular muayyan sabablarga ko‘ra, tabiiy yo‘l bilan amalga oshirib bo‘lmaydigan xayoliy imkoniyatlarni belgili grafik shaklda amalga oshirish mumkinligi haqidagi kinolentani shu nom bilan chiqarganlar”. [1]

Bunday muhitda yangi virtual tafakkur atamasi shakllanadi. Virtual tafakkur – bu insonning texnologik muhit bilan uzoq muddatli muloqoti natijasida paydo bo‘ladigan yangi kognitiv model bo‘lib, unda axborot oqimi tezligi, vizual ifoda vositalarining ustuvorligi va virtual qadriyatlar tizimining shakllanishi muhim rol o‘ynaydi. Bunda inson ongi raqamli va sun’iy yaratilgan muhit (internet, kompyuter o‘yinlari, ijtimoiy tarmoqlar, multimedia texnologiyalari va h.k.) ta’siri ostida shakllangan fikrlash uslubiga ega bo‘ladilar. Insoniylik tuyg‘ulari bo‘lmish mehr, muhabbar, oqibat, madaniyat bora-bora unutiladi. Ularning o‘rnini mobil qurilmalar, turli o‘yinlar bosadi. Inson qachonki o‘zini virtual olamning ajralmas qismi sifatida his eta boshlasa, u yerda mavjud bo‘lgan narsa va hodisalar nafaqat informatsion ahamiyatga ega bo‘lib qoladi, balki shaxsiy va jamoaviy qadriyatlarga aylana boradi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi kelib tushayotgan xabarlar orasida telefon orqali janjallashgan, hattoki buning natijasi o‘lim bilan tugagani haqidagi xabarlarni eslaylik:

1. 2022-yil 15-may kuni Hindistonning Bengaluru chekkasida 18 yoshli yigit mobil telefonda video o‘yin o‘ynash ustida janjallashib, 13 yoshli ukasini o‘ldirgan. Gap shundaki, video o‘yinlarga berilib ketib akasining telefonini qaytarib bermagani sababli aka tosh bilan urib uning o‘limiga sabab bo‘lgan. [5]

Gayananing Potaro-Siparuni mintaqasidagi Mahdia shahrida o‘rta maktab yotoqxonasida uyushtirilgan yong‘in natijasida kamida 20 kishi halok bo‘ldi. Yong‘in so‘nggi 30 yil ichida maktab yotoqxonalari bilan bog‘liq eng halokatli yong‘inlardan biri sifatida qayd etilgan. Rasmiylarga ko‘ra, yong‘inga 15 yoshli talaba

qizning uyali telefoni tortib olinganidan keyin g‘azablangani sabab bo‘lgan. [4]

“7NEWS” internet nashrining xabar berishicha, Rossiyaning Dudinka shahrida sodir bo‘lgan mudhish voqeada qarovsiz qolgan 13 yoshli o‘smir video o‘yinda yutqazib qo‘yadi. U ukasi uyda bo‘lgan voqeani hammaga aytib qo‘yishidan qo‘rqib, g‘azablangan holda pichoqni olib, yetti yoshli bolaga 15 marta pichoq urgan. Jabrlanuvchi voqea joyida vafot etgan. [3]

Turli mintaqalarda sodir bo‘lgan bu uchala jarayon ham telefon va video o‘yinlar atrofida yuzaga keladigan mojarolardir. Fojialarning ildizida raqamli qaramlik, hissiy intizomning sustligi, oilaviy muloqotning zaifligi, ularni nazoratsiz qoldirish yotadi. Bu holatlar kattalar uchun ogohlantiruvchi signal bo‘lishi kerak. Chunki texnologik vositalarni cheklash faqatgina jismoniy tarzda emas, balki to‘g‘ri tushuntirish, muqobil faoliyatlar yaratish, ularning tarbiyasiga ko‘proq e’tibor qaratishni yaxshilash zarurligini anglatadi.

Bugun virtuallik aksariyat odamlar uchun muammo va tashvishlarga to‘la haqiqiy olamdan vaqtincha chetlanish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ular qandaydir qiyin muammoga duch kelishsa, uni yechish o‘rniga vaqtga tashlab qo‘yishlari, zerikkan vaqtlarda uni asosiy vosita sifatida tanlashmoqda.

Ko‘rinib turibdiki, virtual dunyo asiriga tushish turli ijtimoiy nizolarga, qadriyatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Bugun yoshlar orasida internet va uyali telefonning ommaviylashib ketayotganligini inobatga olsak, jamiyat ma’naviy muhitini barqaror saqlashga ehtiyoj ortib borayotganligi namoyon bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar rivoji bilan bog‘liq qaramlik masalasi bugungi kunda jahon miqyosida ham dolzarb muammolardan biriga aylangan. Turli mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar, ayniqsa, smartfon, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o‘yinlar va oqim xizmatlari (streaming) kabi platformalardan haddan tashqari foydalanish inson psixologiyasi, ijtimoiy munosabatlari va sog‘lig‘iga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlagan.

Internet va video o‘yinlarga qaramlik odatda qimor o‘yinlari va giyohvand moddalarni iste’mol qilishdan farqli hisoblansa-da, ular-

ning umumiy xususiyatlarni, jumladan, xulq-atvor va asab tizimiga zararli xususiyatlarini ko‘rsatuvchi ko‘plab dalillar mavjud. Boshqa qiyinchiliklarga ishtirokchi hayotining konteksti yo‘qligi va o‘yinga qaramlarning salbiy tasviri kiradi. Ba’zilarning ta’kidlashicha, geymerlar ba’zida noqulay muhitdan qochish yoki mavjud ruhiy muammolarini yengillashtirish uchun video o‘yinlardan foydalanadilar. [2]

Yuqoridagi tadqiqotlarda kelib chiqib global vizual qaramlik ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan ruhiy-hissiy jarayonlar va oqibatlar quyidagicha tavsiflanadi:

1. Psixologik – depressiya, xavotir, stress, ishonuvchanlik va diqqatning tarqoqlashuvi. Ba’zi bir hollarda yosh yigit va qizlar bunday ta’sir natijasida o‘z-o‘zini o‘ldirish hollariga ham olib kelishi mumkin. Chunonchi, bunga sabab sifatida “Zangori kit” dasturi yaqqol dalil hisoblanadi.

2. Ijtimoiy – oilaviy munosabatlarning buzilishi, yolg‘izlik hissi, muloqotdagi kirishuv qiyinchiliklari.

3. Jismoniy – ko‘rish qobiliyatining pasayishi, uyqusizlik, jismoniy faollikning kamayishi.

4. Ma’naviy – qadriyatlarning o‘zgarishi, mas’uliyasizlik, virtual olamni real hayotdan ustun qo‘yish.

Yaqin yillarda hayotimizga kirib kelgan sun’iy intellektning kelajagimizga ta’siri salbiyligi, u ham vizual qaramlik bilan birga insonlarda fikrlash qobilyatining, tanqidiy tafakkurning sustlashuviga, mediasavodxonlik ko‘nikmalarini rivojlanmay qolishiga, insonlar bir-biri bilan o‘zaro muloqot va qadr tushunchalarining tobora yo‘qolishiga olib keladi.

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z fikrlarini ta’kidlab o‘tkanlar: “Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G’arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni

birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim” [6].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tursunbekov X., Saidova H. Virtual olam va uning jamiyat hayotiga ta’siri // Global dunyoda ilm-fan va ta’limdagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari: ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – 2022-yil 15-dekabr.

2. Xudoyberganova D. Virtual olamda manipulyativ ta’sir jarayonlari // International journal of scientific researchers. – 2025-yil 1-aprel.

3. Boy, 13, “stabs brother, 7, to death” after losing video game in Russia // 7NEWS [Elektron resurs]. – https://7news.com.au/news/crime/boy-13-stabs-brother-7-to-death-after-losing-video-game-in-russia-c-1002430

4. 2023 Mahdia school fire // https://en.wikipedia.org/wiki/2023_Mahdia_school_fire

5. Teenager kills his younger brother near Bengaluru after fight over playing games on mobile phone // The Indian Express.

6. O‘zbekiton Respublikasi Prezidentining 3160-sonli Ma’naviy ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soxani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarori 2017-yil, 28-iyul.

Ibrohimjon SAYDULLAYEV,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazining fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishini o‘rganish bo‘limi yetakchi mutaxassisi, magistr
e-mail:ibrohimsaydullayev415@gmail.com
Telefon:(+99891) 181 01 70

O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINING GLOBALLASHUV SHAROITIDAGI TRANSFORMATSIYASI

► ***Annotatsiya:*** *Maqolada O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining globallashuv sharoitida kechayotgan transformatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Mamlakatda demokratik institutlarni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar, ularning ijtimoiy hayotdagi natijalari hamda global tendensiyalar ta’siridagi ijobiy va salbiy omillar ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida mavjud muammolar, transformatsiya jarayonlaridagi ziddiyatlar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida tanqidiy-analitik xulosalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *fuqarolik jamiyati, globallashuv, demokratik islohotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, raqamli jamiyat, axborot xavfsizligi, modernizatsiya, transformatsiya.*

► ***Аннотация:*** *В данной статье анализируются процессы трансформации институтов гражданского общества в Узбекистане в условиях глобализации. Рассматриваются реформы, проведенные в стране для развития демократических институтов, их результаты в общественной жизни, а также положительные и отрицательные факторы под влиянием глобальных тенденций. Наряду с этим, представлены критические и аналитические выводы о существующих проблемах в деятельности институтов гражданского общества, противоречиях в процессах трансформации и путях их устранения.*

Ключевые слова: *гражданское общество; глобализация; демократические реформы; неправительственные некоммерческие организации; цифровое общество; информационная безопасность; модернизация; трансформация.*

► ***Abstract:*** *This article analyzes the transformation processes of civil society institutions in Uzbekistan under the conditions of globalization.*

The reforms implemented in the country to develop democratic institutions, their results in social life, as well as the positive and negative factors under the influence of global trends are considered. At the same time, critical and analytical conclusions are drawn about the existing problems in the activities of civil society institutions, contradictions in the transformation processes, and ways to eliminate them.

Keywords: *civil society; globalization; democratic reforms; non-governmental non-profit organizations; digital society; information security; modernization; transformation.*

Fuqarolik jamiyati — demokratik davlatning asosiy ustuni. U fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki, davlatning jamoatchilik oldida hisobdorligi va shaffofligini ta’minlaydi.

Globallashuv esa jamiyat hayotining barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatib, milliy davlatlarning ichki rivojlanish jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tardi.

O‘zbekiston ham mustaqillikdan keyin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni davlat siyosatida ustuvor yo‘nalish sifatida belgiladi. Biroq globallashuv jarayonlari va ichki islohotlar orasidagi uyg‘unlik doimo mukammal emas. Globallashuv — milliy davlatning suvereniteti va ichki siyosatiga ta’sir ko‘rsatuvchi obyektiv jarayon hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati konsepsiyasi liberal, marksist va modern nazariyalarda turlicha izohlangan. J. Lokk va Sh. Monteskye liberal qarashlarda fuqarolik jamiyatini shaxsiy huquq va erkinliklarning kafolati sifatida ko‘rsatgan. Gegel fuqarolik jamiyatini davlat va individ orasidagi “oraliq maydon” deb ta’riflagan.

Zamonaviy globallashuv nazariyasi esa milliy davlatlar suverenitetining qisqarishi va global fuqarolik jamiyati shakllanishini ta’kidlaydi[1].

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida davlat institutsional asoslarni yaratishga e’tibor qaratildi. Jumladan, 1992 yil Konstitutsiyada inson huquqlari davlat siyosatining asosi sifatida belgilandi[2]. 2000 yillarda nodavlat notijorat tashkilotlari va OAVning huquqiy maqomi mustahkamlandi. “Nodavlat notijo-

rat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun[3] (1999) va “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun[4] (2018) institutsional asos yaratdi.

2016 yildan keyin “Yangi O‘zbekiston” siyosati fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga yangi bosqich ochdi. 2017–2021-yillardagi Harakatlar strategiyasi[5] va 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida[6] fuqarolik jamiyatini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Globallashuv jarayonida fuqarolik jamiyati iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘lchovlarda o‘zini namoyon qiladi. Xususan, iqtisodiy globallashuv O‘zbekiston iqtisodiyotiga xalqaro bozorlar bilan integratsiyani kuchaytirdi, shuningdek, aholi o‘rtasidagi ijtimoiy tengsizlikka ham ta’sir ko‘rsatdi.

Siyosiy globallashuv inson huquqlari bo‘yicha dunyo standartlarini joriy etish ehtiyojini kuchaytirdi.

Madaniy globallashuv esa milliy qadriyatlarni saqlash va asrab qolishda yangi muammolar yuzaga keltirdi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar milliy-madaniy siyosatga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining globallashuv ta’siridagi transformatsiya jarayonlari izchillik bilan davom etayotgani bilan global tendensiyalar natijasida fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi ortayotganini qayd etish zarur. Davlat hokimiyati organlari jamoatchilik nazoratiga ko‘proq ochila boshladi. Jamoatchilik nazorati instituti amaliy hayotda to‘liq ishlab ketishi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Axborot jamiyati orqali fuqarolarning davlat siyosatini muhokama qilish imkoniyatlari kengaydi. Jumladan, fuqarolarning davlat qarorlaridagi ishtiroki ko‘proq onlayn petitsiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali kechmoqda.

Transparency Internationalning 2024-yilgi hisobotida O‘zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashda so‘nggi yillarda muayyan yutuqlarga erishgani qayd etilgan[7].

Natijada nodavlat notijorat tashkilotlari va axborot jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardagi roli ortib bormoqda

Xususan, NNTlar ta’lim, sog‘liqni saqlash, ekologik muammolar va inson huquqlarini himoya qilish sohalarida muhim rol o‘ynamoqda.

Shu bilan birga NNTlar moliyaviy jihatdan davlat va xalqaro grantlarga bog‘liqligini ta’kidlash zarur. O‘zbekistonda 9 mingdan ortiq NNT ro‘yxatdan o‘tgan, lekin ularning aksariyat qismini faol ishlayotgan NNTlar qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi.

O‘zbekistonda NNTlar faoliyati bilan bog‘liq zamonaviy muammolar va tahdidlar mavjud.

Xususan, NNTlarning moliyaviy mustaqilligi yetarli emasligi, ijtimoiy sheriklik munosabatlarining tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi, ularning faoliyatidan jamoatchilikning xabardorligi va qo‘llab-quvvatlashining yetishmasligini keltirish mumkin.

Shuningdek, ayrim NNTlar faqat xalqaro grantlar hisobidan yashab qolmoqda. Bu esa ularning barqarorligini shubha ostiga qo‘yadi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi manipulyativ kampaniyalar jamoatchilik fikrini soxtalashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Yoshlar orasidagi migratsiya hodisasi fuqarolik jamiyatining ichki resurslarini susaytiradi.

O‘zbekistonda sohani tizimli rivojlantirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi.

Milliy model va global tendensiya uyg‘unligi zarur.

NNTlarni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida davom ettirish.

Yoshlar va xotin-qizlarni fuqarolik jamiyatining asosiy tayanchi sifatida qo‘llab-quvvatlashni davom ettirish.

Milliy qonunchilikni xalqaro inson huquqlari standartlariga uyg‘unlashtirish zarur.

Davlat tashkilotlarining NNTlar bilan ijtimoiy sheriklik munosabatlarini teng huquqli hamkor sifatida tizimli yo‘lga qo‘yish kerak.

“Elektron parlament” va raqamli texnologiyalar orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida qayd etish kerakki, O‘zbekistonda fuqarolik jami-

yati globallashuv sharoitida muttasil transformatsiya qilinmoqda.

Davlat islohotlari natijasida fuqarolik jamiyati institutlari mustahkamlanmoqda.

Globallashuv ijobiy imkoniyatlar bilan birga salbiy tahdidlar ham keltirib chiqarmoqda.

Istiqbolda fuqarolik jamiyatining samaradorligi uning mustaqilligi, shaffofligi va fuqarolarning faol ishtirokiga bog‘liq bo‘ladi.

Milliy qadriyatlar va global standartlarni uyg‘unlashtirish fuqarolik jamiyatining barqaror rivojini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Э.Гидденс. Ускользающий мир. Как глобализация меняет нашу жизнь. — М.: Весь мир, 2004.

2. “Ўзбекистон Республикаси Конституцияси”. – Т.: “Адолат”, 2023.

3. “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Қонун https://www.lex.uz/acts/11360

4. “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги Қонун 2018 йил. https://lex.uz/uz/docs/3679092

5. 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. https://lex.uz/mact/3107036

6. Мирзиёев Шавкат Миромонович. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2023.

7. Transparency International. Corruption Perceptions Index. 2024. https://www.transparency.org/en/cpi/2024

Sherzod Saidovich RAXIMOV,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Professional ta'limni rivojlantirish instituti boshqarma boshlig'i, Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
(sherikshox@bk.ru, 93 724 66 55)

ELEKTRON TARMOQLARNING JAMIYATDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLARGA TA'SIRLARI

► ***Annotatsiya:*** *Maqolada fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, elektron tarmoqlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'sirlari, ijtimoiy masalalarning muhokamasi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda elektron demokratiyani qo'llash bilan bog'liq ustuvor vazifalar to'g'risida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar va atamalar: *elektron demokratiya, ijtimoiy tarmoqlar, elektron ishtirok, siyosiy-ijtimoiy jarayonlar.*

► ***Аннотация:*** *В статье рассматривается участие граждан в социально-политических процессах, влияние электронных сетей на общественные процессы, обсуждение социальных вопросов, а также приоритетные задачи, связанные с применением электронной демократии в социально-политической жизни.*

Ключевые слова: *электронная демократия, социальные сети, электронное участие, социально-политические процессы*

► ***Annotation:*** *The article examines citizens' participation in socio-political processes, the impact of electronic networks on society, the discussion of social issues, and the priority tasks related to the implementation of e-democracy in socio-political life.*


Keywords*: e-democracy, social networks, electronic participation, socio-political processes*

Elektron texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo'lgani kabi elektron texnologiyalarni ijtimoiy-siyosiy hayotda ham keng qo'llanilmoqda. Masalan, sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish turli xil firibgarliklarni oldini olish, ma'lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomat-

lashtiradi hamda shaffoflikni oshiradi. Hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlar sog‘liqni saqlash, transport, mudofaa va milliy xavfsizlik kabi turli sohalarda sun’iy intellekt afzalliklaridan foydalanib kelmoqda. “Price water house Coopers” (PwC) konsalting kompaniyasi tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, global sun’iy aql 2030 yilga kelib jahon iqtisodiyotiga 15,7 milliard trillion AQSh dollari miqdorida hissa qo‘shishi kutilmoqda[1]. Bu jahon yalpi ichki mahsulotini 26 foizga o‘sishiga olib keladi.

Elektron demokratiya rivojlanishida virtual makon, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Ayni paytda, ijtimoiy tarmoqlar virtual makonning timsolidir. Virtual makon va ijtimoiy tarmoqlarning mavjudligi demokratik hayot uchun katta foyda keltirishi mumkin bo‘lgan jihatlardan biridir. Agar insonlar tomonidan demokratiyani faollashtirish vositasi sifatida ijtimoiy tarmoqlar foydalanilsa, elektron demokratiyaning haqiqiy maqsadi amalga oshiriladi. Aholining oddiy qismi Instagram, Whatsapp, Facebook, Twitter, TikTok, Line, bloglar, veb-saytlar va boshqa shunga o‘xshash ijtimoiy tarmoq platformalaridan foydalangan holda ma’lumot olishi va o‘z maqsadlarini bildirishi mumkin. Bundan tashqari, bugungi kunda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari ko‘proq turli xil ma’noga ega kontentlarni kuzatishi mumkin bo‘ladi. Shubhasiz, demokratiyadagi muhim mavzularda fikr bildirish, ma’lumot olish va aholini safarbar qilish uchun ishlatilishi mumkin. Shuningdek, turli nomzodlar, siyosatchilar ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlardan siyosiy targ‘ibotlar davomida Instagram, Facebook va Twitter kabi turli platformalardan foydalanib amalga oshiriladigan siyosiy dasturlar va g‘oyalarni tarqatadilar.

2024 yilning yanvar holatida butun dunyo aholisining 69.4 foizi (5.61 mld.kishi) mobil telefondan foydalanadi, ularning 66.2 foizi (5.35 mld.kishi) internetdan foydalanadi, shuningdek, ushbu internet foydalanuvchilarning 62.3 foizi (5.04 mld.kishi) ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar yildan yilga o‘sib borishi kuzatiladi. Bu esa butun jahonda raqamlashtirishning ustuvor ekanligidan dalolatdir[2].



Butun dunyo aholisining asosiy qismi internetdan quyidagi maqsadlar uchun foydalanadi:

ma’lumot topish uchun (60%), yaqinlari va do‘stlar bilan munosabat o‘rnatish uchun(56.6%), video(kino, tv, shou...) ko‘rish uchun (52.3%), yangiliklar va voqealar bilan tanishish uchun (51.9 %), biror narsani amalga oshirishga oid qidiruv (49 %), yangi g‘oyalar izlab topish uchun (46%), qo‘shiq eshitish uchun (45%), mahsulot va brendlar bilan tanishish uchun (43%), bo‘sh vaqtdan foydalanish uchun (42%), bilim va o‘qish uchun (38%) va boshqalardan iborat bo‘lib, foydalanuvchilarning asosiy qismi yangiliklar va voqealardan foydalanishi kuzatiladi bu esa fuqarolarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda befarq emasligidan dalolat beradi.

Butun dunyo bo‘yicha eng ko‘p foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlar bu - facebook(3.0), youtube(2.4), whatsapp(2.0), Instagram(2.0), tiktok(1.5), wechat(1.3), facebook messenger(0.9), telegram(0.8), douyin(0.7), snapchat(0.7) va boshqalardir[3].

Raqamli maydon va ijtimoiy tarmoqlarning xususiyatlari — Virtual makon insonning muloqoti yoki keng ijtimoiy tarmoqlarda elektron ehtiyojlarini qondirish uchun muqobil yechimdir. Internetga kirish bu holatda eng muhim omil hisoblanadi. Virtual makon va ijtimoiy tarmoqlarning mavjudligi demokratik hayot uchun foyda keltirishi mumkin bo‘lgan jihatlardan biridir. Demokratiya faoliyatini ijtimoiy tarmoqlar orqali oshirish mumkin, bu esa fuqarolarning demokratik mamlakatda faol ishtirok etishini osonlashtiradi. Fuqarolar Facebook, Instagram, WhatsApp, Twitter, Line, bloglar va veb-saytlar kabi ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda ma’lumot olishlari va o‘z maqsadlarini ifoda etishlari mumkin. Elektron demokratiya fuqarolarning siyosiy jarayonlar, qonunlar va siyosiy qarorlar qabul qilishda kengroq ishtirokini ilhomlantiradi.

Jamiyat va davlatchilik taraqqiyotining bugungi bosqichini zamonaviy internet-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. So‘nggi yillarda internet, xususan, ijtimoiy tarmoqlar jamiyat hayotining barcha jabhalari qatori siyosiy muhit va jarayonlarda ham o‘zining mustahkam o‘rniga ega bo‘la boshladi. Ijtimoiy tarmoqlarning global darajada rivojlanib borishi quyidagi omillarga bog‘liq kechmoqda.

birinchidan, “Global Digital 2023” hisobotiga ko‘ra, jahonda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilarning umumiy soni 5,036 milliard kishiga yetgan. O‘sish sur’ati avvalgi yillarga nisbatan oshib bormoqda. 2024 yil respublikamizda internetdan foydalanuvchilarning umumiy soni 29,5 milliondan ortiq kishini tashkil etgan, mobil telefonlar orqali tarmoqqa ulanuvchilar soni 33 milliondan oshgan[4].

ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlar aksariyat G‘arb va rivojlangan Sharq (“Osiyo yo‘lbarslari” nazarda tutilmoqda) davlatlarida milliy, mintaqaviy yoki xalqaro jarayonlarga ta’sir etishning global siyosiy texnologiyasiga aylanib bormoqda. Chunki, ushbu mamlakatlarda ziyolilar qatlamining deyarli barcha a’zolari o‘zaro munosabatlarini virtual olamda amalga oshiradi.

uchinchidan, axborot texnologiyalarining rivojlanishi “tarmoq avlodi”ni yuzaga keltirdi.

Fikrimizcha, ijtimoiy media keng qamrovli tushuncha, u ijtimoiy tarmoqlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy tarmoqlarning kommunikativ funksiyasidan kelib chiqib, ularning auditoriyasi kengayib bormoqda. Jumladan, hozirda “Facebook”, “Twitter”, “Instagram”, “Vkontakte”, “Odnoklassniki” kabi ijtimoiy tarmoqlarning foydalanuvchilar orasida ommabopligini e’tiborga olsak, keng jamoatchilik bunday katta hajmdagi axborotlarni qabul qilish jarayonida turli manipulyatsiya texnologiyalarining ta’siriga tushib qolishi ehtimoli ko‘proq.

Sotsiolog olim M.Kastels[5] ta’biri bilan aytganda, “axborot makonining globallashuvi tufayli axborot jamiyatining qaror topishi davrida kommunikatsiyaning yangi shakllaridan biri – ijtimoiy tarmoqlar mamlakat va jahondagi siyosiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatishning qo‘shimcha mexanizmi bo‘lishi bilan bir vaqtda, dunyo ham-

jamiyatini demokratlashtiruvchi yangi vosita hamdir. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar jahon siyosati peyzajida yangi aktor sifatida vujudga keldi".

"Ijtimoiy tarmoq" tushunchasi 1954 yilda paydo bo'lgan bo'lib, ushbu tushunchani sotsiolog Jeyms Barns kiritgan: "ijtimoiy tarmoq" bu ijtimoiy ob'yektlar (odamlar yoki tashkilotlar) va ular o'rtasidagi aloqalar (ijtimoiy munosabatlar) bo'lgan tugunlar guruhidan iborat ijtimoiy tuzilishdir. Kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda birinchi ijtimoiy tarmoq 1971 yilda ARPA Net-da harbiylar tomonidan ishlatilgan elektron pochta texnologiyasi bo'lgan. Keyin, 1988 yilda fin talabasi Yarko Oykarinen real vaqtda muloqot qilish imkoniyatini yaratgan "IRC" texnologiyasini (inglizcha Internet Relay Chat – uzatiladigan internet-suhbat) ixtiro qiladi. 1991 yilda ingliz olimi Tim Berners-Li tufayli ommalashgan Internet ixtirosi muhim voqea bo'ladi[6].

Ijtimoiy tarmoq — bu qiziqishlari o'xshash yoki oflayn aloqaga ega bo'lgan odamlar o'rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish, shuningdek, ko'ngilochar (musiqa va filmlar) va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma.

Ijtimoiy tarmoqlarda bugungi kunda keng tarqalgan harkatlardan yana biri bu **Flashmob -** (inglizcha flesh-mobdan, lahzali olomon [flesh – lahza, chaqnash, mob – olomon]lar deb nomlanadi, ya'ni – oldindan rejalashtirilgan ommaviy aksiya, unda bir guruh odamlar belgilangan joyda paydo bo'ladi, oldindan kelishilgan harakatlarni (stsenariyni) kutilmaganda amalga oshiradi va keyin ajraladi. Flashmob - bu aqlli mobning bir turi. Fleshmob ishtirokchilarini yig'ish elektron aloqa vositalari asosan internet yordamida amalga oshiriladi.

Siyosiy fleshmob - bu jahon fleshmob harakati prinsiplariga asoslangan siyosiy yoki fuqarolik norozilik aksiyasi: turli ijtimoiy va yosh guruhlariga mansub insonlarning bir vaqtning o'zida, oldindan kelishilgan harakatlarni sinxron tarzda, bir-biri bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqaga kirishmagan holda bajarishi va aniq ifoda etilgan tashkilotchi yoki koordinatorlarsiz yig'ilishi.

Elektron tarmoqlar fuqarolarga tez va oson qatnashish imkonini beruvchi qulaylikni ham targ'ib qiladi. Raqamli qulaylik va minimal

xarajat bilan keng auditoriyani qamrab olish imkonini beradi. Tizim interaktiv muloqotni, ayniqsa hokimiyat va fuqarolar o‘rtasidagi muloqotni rag‘batlantiradi. Shuningdek, katta hajmdagi ma’lumotlarni tarqatish, aniqlikni saqlash va buzilishlarni minimallashtirish uchun samarali platforma bo‘lib xizmat qiladi.

Jamiyatda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini elektron texnologiyalardan foydalanib oshirish masalalari har qanday davlatda ham bugungi kunda demokratiyaning asosiy talabidir. Fuqarolar o‘zlaridagi muammolar yoki jamiyat hayotidagi muhim masalalarda ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy masalalarda faol qatnashishi uchun avvalo ijtimoiy ta’minlangan bo‘lishi, shuningdek, raqamli ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishi lozim. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda fuqarolarning faollashiga turtki bo‘ladigan bugungi kundagi ustuvor omil bu elektron siyosiy ishtirok yoki elektron faollikdir.

Elektron ijtimoiy-siyosiy ishtirok va siyosiy faollikni oshirish uchun eng avvalo fuqarolik jamiyati institutlari ham faol bo‘lishi dolzarbdir. Qolaversa, jamiyat institutlari fuqarolar hayotiga kengroq kirib borib ularning ishonchini qozonishi lozim. Siyosiy partiyalar o‘z faoliyati davomida fuqarolar hayoti uchun muhim bo‘lgan o‘zgarishlarni amalga oshirishi, fuqarolarni ijtimoiy-siyosiy qo‘llab-quvvatlash kabi masalalarni turli ijtimoiy tarmoqlar va platformalar orqali amalga oshirishi kerak.

Ijtimoiy tarmoqlardan ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarda foydalanilishining demokratiyaga ta’siri qilish imkoniyatlari keng bo‘lib ular “Fleshmob”larni amalga oshirish, siyosiy muloqot, onlayn muloqot va ko‘pgina foydalanuvchilarni jalb qilish, Youtube, Facebook, Vikipediya, Twitter va Instagram kabi dunyodagi eng mashhur platformalar orqali siyosiy voqealarga o‘zaro ta’sir etish hamda siyosiy maqsadlarda foydalanishga qiziqish ham oshadi. Bu esa turli darajadagi siyosiy qo‘zg‘alishlar, norozilik harakatlariga olib kelishi mumkinligini inobatga olish kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://yuz.uz/news/raqamli-texnologiyalar-imkoniyatlari

https://indd.adobe.com/view/8892459e-f0f4-4cfd-bf47-f5da5728a5b5- on page 232

2. https://datareportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan

3. Иванов Д.В. Виртуализация общества. – СПб.: Петербургское Востоковедение, 2000. – 96 s

4. G.G‘affarova, D.Jumanov Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri. Academic research in educational sciences volume 2 | issue 4 | 2021

Shaxlo Kadirjanovna RAXMATULLAYEVA,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
Email: sh.rakhmatullaeva@dsba.uz
Tel: +998 93 583 87 87

INSON KAPITALINI TAHLIL QILISH UCHUN RAQAMLI INDIKATORLAR: SOTSIOLOGIK YONDASHUV

► ***Annotatsiya:*** *Tadqiqot jamiyatning raqamli transformatsiyasi sharoitida inson kapitalini tahlil qilish uchun raqamli ko‘rsatkichlardan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganadi. Kasbiy va ijtimoiy tarmoqlardagi raqamli izlar, onlayn ta’lim va raqamli bandlik platformalaridagi ishtirok asosida soft skills, ijtimoiy va madaniy kapitalni o‘lchash taklif etiladi. Raqamli tengsizlik, ma’lumotlarning reprezentativligi hamda axloqiy xatarlar alohida yoritiladi. Yondashuv onlayn mehnat davrida ijtimoiy maqom va harakatchanlikdagi o‘zgarishlarni tushuntirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *inson kapitali, raqamli indikatorlar, raqamli sotsiologiya, raqamli tengsizlik, raqamli izlar, soft skills, mehnat platformasi.*

► ***Аннотация:*** *Исследование анализирует возможности применения цифровых индикаторов для социологического изучения структуры и развития человеческого капитала в условиях цифровой трансформации. На основе «цифровых следов» в профессиональных и социальных сетях, участия в онлайн-образовании и платформах*

занятости предлагается измерять soft skills, социальный и культурный капитал. Отдельно рассматриваются цифровое неравенство, репрезентативность данных и этические риски. Подход помогает объяснить изменения социального статуса и мобильности в эпоху онлайн-труда.

Ключевые слова: *человеческий капитал, цифровые индикаторы, цифровая социология, цифровое неравенство, цифровые следы, soft skills, платформа труда.*

► ***Abstract:*** *The study explores how digital indicators can enhance sociological analysis of the structure and development of human capital amid digital transformation. Using digital traces in professional/social networks, online learning, and digital employment platforms, it proposes ways to measure soft skills as well as social and cultural capital. It addresses digital inequality, data representativeness, and ethical risks. The approach clarifies shifts in social status and mobility in the era of online work.*

Keywords: *human capital, digital indicators, digital sociology, digital inequality, digital traces, soft skills, labor platform.*

Raqamli asrda inson kapitali ta’lim va ko‘nikmalarning an’anaviy o‘lchovlaridan chiqib, raqamli kompetensiyalarni muhim tarkibiy qismlar sifatida o‘z ichiga oladi. Sotsiologik jihatdan inson kapitali nafaqat bilim va ko‘nikmalar zaxirasini, balki moslashuvchanlik, raqamli savodxonlik va shaxslarning biznes va ijtimoiy muhitda raqamli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorligini ham o‘z ichiga oladi.

Agar ilgari inson kapitalini tahlil qilish asosan ta’lim darajasi, kasbiy tajriba va iqtisodiy samaradorlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarga asoslangan bo‘lsa, raqamli davrda yangi axborot manbalari - raqamli ko‘rsatkichlar paydo bo‘lmoqda, ular ijtimoiy va kasbiy kontekstda shaxslarning rasmiy va norasmiy xususiyatlarini qayd etish imkonini beradi.

Ma’ruzaning maqsadi - inson kapitalini tahlil qilish uchun raqamli ko‘rsatkichlardan foydalanishga sotsiologik yondashuvni taqdim etish, ularning raqamli tengsizlik va mehnat transformatsiyasi sharoitidagi salohiyati, cheklovlari va ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Raqamli ko‘rsatkichlar (digital indicators) - bu inson kapitalining miqdoriy va sifat xususiyatlarini o‘rganishga imkon beradigan shaxslarning raqamli izlaridan (ijtimoiy tarmoqlar ma’lumotlari, onlayn faoliyat, raqamli rezyume va boshqalar) olingan miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlaridir. Ular norasmiy ta’lim, tarmoq aloqalari va kasbiy rivojlanishni tahlil qilish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Inson kapitalini samarali tahlil qilish uchun raqamli ko‘rsatkichlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– demografik va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar bo‘yicha raqamli savodxonlik darajalari, raqamli vositalardan foydalanish va onlayn muhitda harakatlanish qobiliyatini qamrab oladi 1];

– moslashuvchanlik va mobillik omillari, shaxsning raqamli kompetensiyalarni o‘z-o‘zini rivojlantirish va tezkor raqamli transformatsiyaga javob berish qobiliyatini aks ettiradi [2];

– raqamli madaniyat va raqamlashtirish haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotda inson kapitalining samaradorligiga ta’sir qiluvchi raqamli imkoniyatlar va tahdidlardan xabardorlikni o‘lchash [2];

– raqamli infratuzilma va raqamli inklyuzivlik ko‘rsatkichlaridan foydalanish imkoniyati, raqamli tayyorgarlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar va ularning inson kapitalini taqsimlashga ta’siri.

Sotsiologiyada inson kapitali tushunchasini nafaqat ta’lim darajasi va malakasini, balki ijtimoiy kapital, soft skills, raqamli kompetensiya va tarmoq amaliyotlariga jalb qilish kabi parametrlarni hisobga olgan holda qayta quriladi.

Empirik asos sifatida raqamli ko‘rsatkichlar ijtimoiy tarmoq profillaridan olingan ma’lumotlar (masalan, LinkedIn, Facebook), o‘quv platformalarining raqamli izlari, onlayn hamjamiyatlardagi faollik, raqamli iqtisodiyotda ishtirok etish ko‘rsatkichlaridan (frilans, platforma bandligi) iborat [3].

Metodologik xususiyatlar raqamli ma’lumotlarni tahlil qilish yangi sotsiologik vositalarini, jumladan, raqamli etnografiya, onlayn kontekstni kontent-tahlil qilish, katta ma’lumotlarni tahlil qilish va algoritmik tabaqalashtirishni ishlab chiqishni talab qiladi.

Raqamli tengsizlik sotsiologik muammo sifatida raqamli ko‘rsatkichlardan foydalanish texnologiyalarga teng bo‘lmagan

kirish imkoniyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi farqlarni kuchaytiradi, bu ma’lumotlarni talqin qilish va inson kapitalini rivojlantirish siyosatini shakllantirishda hisobga olinishi kerak [4].

Axloqiy jihatlar algoritmlarning shaffofligi, ma’lumotlarni qayta ishlashga rozilik, raqamli izlarni deanonimlashtirish va ularni ish beruvchilar yoki davlat tomonidan qo‘llash ehtimolini diqqat bilan sotsiologik va huquqiy mulohaza yuritishni talab qiladi.

Tadqiqot davomida quyidagi sotsiologik usullaridan foydalaniladi:

Sotsiologik ilmiy yondashuv raqamli inson kapitalining murakkabligini aniqlash uchun miqdoriy so‘rovlar, omillarga tayangan tahlil va korrelyatsion baholarni birlashtirgan ko‘p vektorli o‘lchov usullariga alohida e’tibor qaratadi. Jumladan, raqamli kompetentlik va moslashuvchanlikning yashirin omillarini aniqlash uchun ko‘p variantli statistik usullar, indeks raqamli ko‘nikma ko‘rsatkichlari, ta’lim darajasi va bandlik holatini umumlashtirib, inson kapitalining tarkibiy indekslarini shakllantirishga yaqinlashish, turli ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi raqamli tayyorgarlik va kompetentsilar bo‘shlig‘ini aniqlash uchun sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish, bu esa maqsadli siyosiy aralashuvlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Raqamli inson kapitali raqamli iqtisodiyotda tashkiliy va mintaqaviy raqobatbardoshlikning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Sotsiologik ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli savodxonlik va moslashuvchanlik qobiliyati yuqori bo‘lgan hududlar va aholi ko‘proq iqtisodiy innovatsiyalar va ijtimoiy harakatchanlikka erishishga moyil [5]. Aksincha, raqamli texnologiyalarni rad etish ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar va inson kapitalini rivojlantirish imkoniyatlarining pasayishi bilan bog‘liq.

Raqamli kapital inson kapitalining kengaytmasi sifatida zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy maqom, kuch dinamikasi va tengsizlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli kapitalni sotsiologik ko‘rsatkichlar orqali o‘lchash raqamli kompetensiyalar mavjud ijtimoiy iyerarxiyalarni qanday mustahkamlashi yoki qiyinlashtirishini tushunishga yordam beradi.

An’anaviy ravishda o‘lchash qiyin bo‘lgan xususiyatlar -

kommunikativlik, yetakchilik qobiliyatlari, ijodkorlik - raqamli xulq-atvor tahlili yordamida o‘lchanadigan bo‘lib qoladi, bu esa sotsiologlarga ushbu jihatlarni inson kapitali tushunchasiga singdirish imkonini beradi.

Ijtimoiy tarmoqlarning inson kapitalini shakllantirish va baholash muhiti sifatidagi roli juda axamiyatlidir. Ijtimoiy tarmoqlar nafaqat taqdimot maydoni, balki bilim almashish, kasbiy hamjamiyatlar bilan hamkorlik qilish va raqamli ijtimoiylashuv orqali inson kapitalini shakllantirish vazifasini ham bajaradi. Ular raqamli sotsiologiyaning muhim tadqiqot maydoniga aylanmoqda.

Albatta, raqamli tahlilning axloqiy va uslubiy muammolari mavjud. Sotsiologik tadqiqotlarda raqamli indikatorlarni qo‘llash axloqiy me’yorlarga rioya qilishni, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishni va olingan natijalarni talqin qilish bo‘yicha tanqidiy mulohazani talab qiladi. Algoritmlarning shaffofligi va tadqiqotlarni takrorlash imkoniyatiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Xulosa qilib aytganda, sotsiologik usullar raqamli inson kapitali ko‘rsatkichlarini ijtimoiy kontekstni integratsiyalash, sifatli va ko‘p o‘lchovli yondashuvlarni qo‘llash, tizimli o‘zaro bog‘liqliklarni tahlil qilish, inklyuziv siyosatni xabardor qilish va raqamli ko‘nikmalardan foydalanish hamda natijalarni aks ettiruvchi dinamik o‘lchov asoslarini yaratish orqali yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Khamidova K.U. Human capital and digital competency: empirical assessment of readiness for digital economy in Uzbekistan. Innovations in Science and Technologies. Ilmiy elektron jurnali.2025. №2

2. Volodymyr Rodchenko. The effectiveness of human capital in the context of the digital transformation of the economy: the case of Ukraine. Journal of Eastern European and Central Asian research Vol.8 No.2 (2021)

3. Zuboff, S.. The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. London: Profile Books, (2021)

4. Van Dijck, J., Poell, T., & de Waal, M. The Platform Society: Public Values in a Connective World. Oxford: Oxford University Press. (2021).

5. Kwet, M. Digital colonialism: US empire and the new imperialism in the Global South. Race & Class, 63(1), (2022). 3–26.

6. Sadowski, J.. Too Smart: How Digital Capitalism is Extracting Data, Controlling Our Lives, and Taking Over the World. Cambridge, MA: MIT Press. (2020)

7. Eubanks, V.. Automating Inequality: How High-Tech Tools Profile, Police, and Punish the Poor. New York: St. Martin's Press. (2021).

“O‘ZBEKISTONNING DEMOKRATIK RIVOJLANISHIDA FUQAROLIK JAMIYATINING O‘RNI: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA ISTIQBOLLAR” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-yil 19-sentyabr, Toshkent

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО- ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ «РОЛЬ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В ДЕМОКРАТИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА: ГЛОБАЛЬНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ»

19 сентября 2025 года Ташкент

COLLECTION OF MATERIALS FROM THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON “THE ROLE OF CIVIL SOCIETY IN STRENGTHENING DEMOCRACY IN UZBEKISTAN: GLOBAL CHALLENGES AND PROSPECTS”

September 19, 2025, Tashkent

Ushbu konferensiya materiallari to‘plamidagi gramatik va stilistik xatolarga nashriyot javobgar emas

Noshirlik faoliyatini boshlagani haqida vakolatli
davlat organini xabardor qilgani to‘g‘risida
TASDIQNOMA № 264570

Bosishga 24.12. 2025 da ruxsat etildi
Bichimi 60x90, 1/16. Times New Roman garniturasi.
Ofset bosma. Shartli bosma tobog‘i 30,5
Adadi 50 nusxada.
«Yangihayot» nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Yangihayot tumani, Sergili 5A 42-37.
Tel: +998 90 064-44-48; +998 88 738-38-40.